

CHINGIZ AYTMATOV

# QIYOMAT

Roman

*Rus tilidan Ibrohim G'AFUROV tarjimasi*

TOSHKENT

G'afur G'ulom nomidagi  
Adabiyot va san'at nashriyoti  
1989

## BIRINCHI QISM

### I

Qishning qisqa kuni norasta nafasiday birpasgina ilib turdi-yu, tog'larning kungay betlarida ko'p o'tmay havoning avzoyi buzildi, muzliklardan sovuq shamol izg'idi, dara-o'ngirlarga erta tushgan xufton qorong'iligi shitob bilan yoyildi, qor-quyunli kechaning izg'irin sovug'i turdi.

Tevarakka qalin qor tushgan. Tabiatning bebosh xohishiga ko'ra, xuddi to'rt tomonga o't ketganday bundan ikki kun burun to'sindan qattiq qorbo'ron quturib o'tgan, Issiqko'l tog' tizmalari qor ko'rpalari bilan qoplanib yotardi. Tog'lar qora quyun ichra g'oyib bo'ldi, osmon ko'zdan yo'qoldi, atrof-javonib ko'rinxay qoldi. So'ng sukunat cho'kdi, havoning rang-ro'yi ochildi. O'shandan buyon qish bo'roni tinib, o'ngu so'li jami qor zabitida qolgan tog'lar yotsirab, jimjit ayozda xo'mraygancha qotib turardilar.

Faqat o'sha kunbotar chog'ida Uzun Chot darasi bo'ylab osmonning uzoq shamolgohida, sallador bulutlar qo'ynida tutab yotgan Ola Mo'ngu muz dovonni sari o'tib borayotgan og'ir vertolyotning guldiragan ovozi dam sayin yaqinlashib, kuchaygandan kuchayib borar va nihoyat, atrof-tumonat, tovush hamda yorug'likdan bo'lak hech narsa yetib borolmaydigan cho'qqilar, tizmalar, mangu ko'k muzliklarni tamom o'z hukmiga oldi. Tog'u toshlarga urilib, avvalgisidan yana beshbadtar zo'raygandan zo'raygan qaldiriq boshlar uzra shunchalar ayovsiz dahshat solar ediki, go'yo yana ozgina shunday davom etsa, yana o'sha yer qimirlaganiday... qiyomat-qoyim qo'padiganday edi.

O'zi shunga yaqinlashib ham qoldi — vertolyot uchib o'tarkan, yo'l ustidagi shamollar yalab ketgan tik qoya bag'ridan guldurosning zo'ri tufayli tosh uyumlari ko'chib o'rnidan qo'zg'aldi-da, so'ng yana shu zahoti xuddi qon quylganday aylanib to'xtadi. Xuddi shuni kutib turganday beqaror, muallaq toshlar, bir necha og'ir xarsang baland uchurumdan yo'l-yo'lakay chang-to'zon ko'tarib, shiddat va suron solib quladi. Tog' yonbag'riga yetganda, ular xuddi zambarakning o'qiday qarsillab tushib, yorilib, qizil tol va qorag'at butalarini o'pirib o'tib, qor to'zonlarini ko'kka sovurgancha yuksakdan osilib turgan qoya tagida, quyuq butazorlar bilan to'silgan o'ngirda, ikki qirg'og'i yaxlagan jilg'a bo'yidagi bo'ri ini og'zida to'xtadilar.

Urg'ochi bo'ri Akbara tepadan qulagan toshlar va qor uyumlaridan cho'chib o'zini orqaga oldi, qorong'i o'ngir sari tisarildi, yelkasidagi yollari tikkayib, ko'zları g'ira-shirada vahshiyona o't sochib, qanday balo kelmasin, unga qarshi sapchishga hozirlanib turdi. Lekin, u bekorga xavotirlangan edi. Ochiq dasht yomon. Unda tepangda quvalayotgan vertolyotdan hech qaerga qochib qutulolmaysan, u

tinmay, orqangdan qolmay, izma-iz ta'qib qilib kelaveradi, vertolyot parraklarining kasirg'asi, avtomatdan do'lday yog'ilgan o'qlarning chiyillashi yuragingni azob va qo'rqinch bilan to'ldiradi, yorug' dunyoda vertolyotdan omonlik yo'q, qochib qutuladigan, sho'rlik boshingni pana qiladigan teshik-tuynuk ham yo'q — shunday paytda yer ham yorilmaydi, quvib kelayotganlardan joningni qutqarib, yerga kirib ketaman desang.

Tog'larda yo'rig' boshqa. Bu yerda doim qochib qutulish mumkin. To xavf-xatar o'tib ketguncha pisib yotadigan bir joy albatta, topiladi. Bu yerdarda vertolyot qo'rqinchli emas, vertolyotlarning o'zi qo'rqadi tog'lardan. Biroq qo'rqqanga qo'shaloq ko'rinadi, degan gap bor. Buning ustiga bir marta yuragingni oldirgansan. Vertolyot yaqinlashib kelarkan, Akbara qattiq g'ingshiy boshladi, boshini ichiga tortib, g'ujanak bo'lib oldi, lekin baribir dosh berolmadi, ojiz, ayanchli, g'ayrishuuriy bir qo'rquvga tushib, birdan bor ovozini qo'yib uvlab yubordi: tishlarini alam-achchiq ustida g'ijirlatib, shu yerning o'zidayoq qattol olishuvga chog'lanib, qorni bilan g'or og'zi tomon sudraldi, go'yo nazarida shunday qilsa, temir yalmog'iz Uzun Chotdan qochib ketadiganday, tog'u toshlar tinchiydiganday, zilzilalar to'xtaydiganday edi.

Akbara qo'rqib uvlab, g'ingshiyvergandan keyin g'or ichiga uning jufti Toshchaynar boshini suqdi. Akbara og'iroyoqli bo'lib qolgandan beri Toshchaynar ko'p vaqtini inida emas, o'ngirdan uzoq ketmay qalin va tinch qorag'at butazorlar orasida o'tkazardi. Tishlari xanjarday o'tkir bu bo'ri har qanday narsani g'ajib tashlashga tayyor bo'lgani uchun shu atrofdagi cho'ponlar unga Toshchaynar deb nom bergen edilar. Toshchaynar juftining yoniga sudralib keldi-da, uni balo-qazolardan himoya qilganday gavdasi bilan to'sib, taskin berganday irilladi. Akbara uning pinjiga mahkamroq tiqildi, adolatsiz osmondanmi yo boshqa birovdanmi yoxud sho'rpeshona qismatidanmi nola-faryod qilganday g'ingshidi. Vertolyot Ola Mo'nguning oq qorli, ko'k muzli dovonidan oshib o'tib, bulutlar ortida ko'zdan g'oyib bo'lgandan keyin ham Akbara yana anchagancha o'ziga kelolmay, qalt-qalt titrab turdi.

Koinotni bosgan sukut kabi tog'larga birdan jimjilik cho'kdi. Akbara kutilmaganda ichidan nimadir qimirlayotgan, turtinayotganligini anik his qildi. Bir kuni Akbara, unda ovga endi-endi chiqayotgan paytlari edi, bir sakrab kattakon quyonni bosib olganligini esladi. O'shanda quyonning qornida qandaydir ko'zga ko'rinnmas mahluqchalar qimirlaganligini sezganday bo'lgan va bu narsa yosh urg'ochi bo'rini esayron qilib, qiziqtirib qo'yan, quloqlarini dikkaytirgancha, o'jasiga angrayib tikilib qolgan edi. Bunga shunchalar tong qolib qiziqib ketgan ediki, xuddi mushuk chala o'lik sichqonni o'ynaganday, u ham o'sha o'zi ko'rinnmay qimirlayotgan mahluqlar bilan o'ynashmoqchi edi. Mana endi o'z qornida ham kutilmaganda tiriklik homilasini his kilib turibdi. Esonchilik bo'lsa, bir yarim-ikki haftadan so'ng dunyoga keladiganlar o'zlaridan xabar berayotgan edilar. Lekin, hozircha, hali tug'ilмаган qip-qizil objish bolalar ona qursog'idan ajralmagan, u bilan bir jon, bir vujud bo'lib turishar, shuning uchun onani ko'rqtib yuborgan, tahlika va talvasaga solgan boyagi hollarni ular ham qorinda yotgan ko'yi sezgan, boshdan kechirgan edilar. Ular tashqi olam borligini, unda yovuz muhit mavjudligini shu tariqa ilk marotaba tuygan edilar. Onaning qiynalganligini sezib, ular qursoqda harakatga keldilar. Ular ham qo'rqib ketdilar, qo'rqinch ularga ona qoni bilan o'tdi.

Vujudi ichra yana bir vujud bitganini sezgan Akbara tinchini yo'qotdi. Yuragi gursillab ura boshladi. Ko'kragi ostida voyaga yetayotgan bolalarini xavfu xatarlardan asrash va qo'rish ishtiyoyqida g'ayrat-shijoatga mindi. U hozir hech narsadan tap tortmas edi. Tabiat ato etgan naslni asrash sezimi kuchga kirgan edi. Shunda u mehr butun vujudiga issiq qonday yugurganligini his qildi, endi dunyoga keladigan bolalarini erkalamisi, bag'riga olib isitgisi, ularni to'ydirib-to'ydirib emizgisi keldi. Bu onalikning eng birinchi baxtiyorligi edi. U qornida ikki qator to'lib, qizarib, bo'rsillab turgan emchaklaridan sut toshib, povillab kelishini o'ylab orziqib ketdi, azbaroyi maza qilganidan ingrab yubordi va ko'zlarini yumib oldi. U ini imkon bergancha jismini yozib, ohista-ohista erkalanib kerishdi va shundan so'ng ko'ngli birato'la joyiga tushib, yana o'zining ko'k yolli Toshchaynariga yaqinroq surildi. Toshchaynar yollar qalin o'sgan haybatli va chayir bo'ri edi. Shuncha o'jar va do'laygan ekaniga qaramay, u ham juftining yuragida nimalar kechayotganligini sezdi. Nazarida juftining

qursog‘ida bir narsalar bo‘layotganday edi, buni o‘ylab uning chehrasi ochildi. Toshchaynar qulog‘ini dikkaytirib guvalakdek qiyshiq va cho‘ng kallasini ko‘tardi, shunda uning ichiga chuqur botgan qoramadir ko‘zlarining qorachuqlari sovuq yiltillab, ulardan qandaydir bir sharpa, allaqanday tatti bashorat o‘tganday bo‘ldi. U ohista tomog‘ini qirib, yo‘talganday irilliadi. Shu bilan juftiga mehr-oqibatini, uni har qanday balo-qazolardan himoya qilishga tayyor ekanligini, ko‘k ko‘z qanjig‘iga g‘ing demay bo‘ysunishini izhor etdi va shundan so‘ng Akbaraning boshini, ayniqsa uning porlab turgan ko‘k ko‘zlar hamda tumshug‘ini katta, issiq so‘lakayi oqib turgan tili bilan erkalab yalab-yulqay ketdi. Akbara Toshchaynarning tilini yaxshi ko‘rardi. Arlonining qoni jo‘shib, betoqat hirsiga to‘lib, nari sakrab-beri sakrab o‘ynoqlab, shunda ham tili ilonday eshilib-to‘lg‘anib, shiddatga kirishini yoqtirar, lekin o‘zini go‘yo hech narsani sezmaganday beparvo ko‘rsatar edi. U et-moyga ko‘p to‘yib, osuda rohatlanib yotgan chog‘larida ham arlonining so‘lakayi oqib turgan ipakdek yumshagan tilini xush ko‘rardi.

Bu ikki jondorning boshchisi, aqli-esi Akbara edi. Ovni u boshlab berardi. Arlon esa uning qora quli — amru irodasini g‘ing demay bajo keltirar, binobarin, ishongan tog‘i edi. Arlon hech qachon charchash nimaligini bilmasdi. O‘rtalaridagi shu muomala yo‘sini hech qachon buzilgan emas. Faqat bir kuni kutilmagan sinoat bo‘lib o‘tdi. Arlon kechasi bilan yo‘q bo‘lib ketdi-da, tong azonda butunlay boshqa qanjiqning badbo‘y isini ergashtirgancha qaytib keldi. Daydigan arlon bo‘rilarni o‘n chaqirimlab uzoq yerlardan maraz hidiga chaqiradigan o‘sha yebto‘ymas yuho bo‘rining isiga Akbara sira toqat qilolmadi. Yomon g‘ashi kelib, achchig‘i chiqdi, nafrati qo‘zidi, to‘sindan shartta erkagining yelkasiga tishlarini qattiq botirdi. So‘ng bir necha kungacha unga hech ro‘yxush bermay, orqasidan yalintirib yurdi. So‘ljaygan, obro‘sini to‘kkan ahmoqni o‘ziga yaqinlashtirmadi. U dod deb, qancha uv solmasin, o‘ziga go‘yo hech bir aloqasi yo‘qday, xuddi endi u o‘zi uchun o‘lganday, hatto yo‘liga bo‘lsin, bir marta qayrilib qaramadi. To‘xtamadi. Agar Toshchaynar shunda unga yaqinlashish va ko‘nglini ovlash uchun yana osilguday bo‘lsa, Akbara chindan u bilan tap tortmay olishardi. Zotan, bu ikki maxluqning boshi o‘zi, arloni esa — oyog‘i edi.

Hozir esa Toshchaynarning keng bag‘rida yotib, picha hushi o‘ziga keldi. Qo‘rqinchli damlarda erkagining birga bo‘lganidan, unga dalda bergenidan rozi edi. Shuning uchun arlonining erkalashlariga qarshilik qilmadi, hatto unga javoban o‘zi ham uning tumshug‘ini bir-ikki bor yalab qo‘ydi. Lekin, boyagi vahimaning asorati hali ketmagan, dam-badam vujudiga titroq kirar, shunda batniga quloq tutar, hali tug‘ilmagan bolalari nima sababdandir bezovta bo‘layotganliklarini tinglarkan, hammasiga: ini borligiga ham, tog‘larga katta qor tushganiga ham, sovuq tun shitob bilan bostirib kirib kelayotganiga ham shukurlar kilardi.

Urg‘ochi bo‘rini qattiq qo‘rqitib yuborgan kun ana shunday o‘tib borardi. Onalik tabiatining barcha g‘ayrishiuriy sezimlariga tobe holda u o‘zi uchungina emas, bolalarim deb, mana shu qorong‘i o‘ngirda yaqinda tug‘iladigan bo‘richalarim deb qo‘rqdi. Axir, xuddi shularni deb, ikkovlashib qidira-qidira niyoyat, mana shu haybatli tik qoya ostidagi qalin changalzorlar va toshtepalar bilan to‘silgan xoli o‘ngirni boshpana qilgan edilar.

Buning ustiga Akbara bilan Toshchaynar bu yerlarga kelgindi edilar. Razm solib qaralsa, ular u yerlik bo‘rilardan ajralib turardilar. Ularning yelka yollarini ko‘krak junlariga quyunday buralib tushar, butun yelkalarini to kallaga dovur qalin jun qoplagan, xuddi dasht bo‘rilariniki kabi yollarini oqish-ko‘kish tusda tovlanar edi. Shuning uchun bularni oqyol deb atashardi. Oqyollar Issiqko‘lning tog‘ atroflarini o‘ziga makon tutgan yerlik bo‘rilardan yirikroq, bo‘laliroq edilar. Agarda Akbaraga yaqinroqdan birovning ko‘zi tushsa, uning tip-tiniq ko‘k ko‘zlaridan tamomila hayratga tushgan, bunaqasini boshqa hech qachon uchratmagan bo‘lar edi. Shu yerlik cho‘ponlar bu qanjiq bo‘rini Oqdil deb yurishdi. Keyin-keyin borib Akbari dedilar, yana birmuncha vaqtlar o‘tib esa Akbara — Ulug‘ deb atadilar. Kim aytsa aytgandiru, lekin unga shunday nom berilishi bejiz emasdi. Bunda qazoning ham hukmi borga o‘xshab ko‘rinardi...

Bultur bu yerlarda ko‘kyollar yo‘q edi. Ular kelishga keldilaru, lekin hech kimga qo‘shilmay

bo‘lak bo‘lib yurdilar. Boshida bu yerlarning tub egalari bilan to‘qnashib qolmaylik deb, ko‘pincha egasiz yerlarda chetlab-chetlab izg‘ishdi, boriga qanoat qilib jon saqlashdi. Keyin o‘lja izlab odamlar yashaydigan pastdagi joylarga ham panja ura boshlashdi. Lekin, bari bir tub yerlik bo‘ri to‘dalariga qo‘shilishmadi. Ko‘kko‘z bo‘ri Akbara ochdan o‘lsa o‘lardiki, lekin birov larga qaram, sig‘indi bo‘lib yashashga aslo ko‘nmas edi.

Hamma narsani vaqt hal qiladi. Bora-bora kelgindi ko‘kyollar oyoqqa mustahkam turib olishdi. Son-sanoqsiz omonsiz janglarda Issiqko‘l adirlaridagi ko‘p yerlarni o‘zlariga qaram qilishdi. Kelgindilar har narsaga ega chiqdilar. Mahalliy bo‘rilar ularning aymoq-dariga asti yaqin yo‘lay olmasdilar. Jon saqlash uchun begona joylardan qochib kelgan ko‘kyollarning hayoti Issiqko‘lda shu angiz izga tushib ketdi. Lekin shungacha ular, eh-he, qanchalab voqealarni boshlaridan kechirmadilar. Sezgir, ziyrak Akbara ularning hammasini qayta boshdan o‘tkazganday bo‘lib yuradi, tez-tez eslab qo‘yadi. Qaniydi, maxluqlar ham ko‘rgan kunlarini birma-bir so‘ylab bersalar edi. Balki yana kim biladi, esiga tushganda, hammasi tag‘in ko‘z o‘ngidan o‘tib, alamli yosolarini tiyolmay og‘ir-og‘ir ingrasa, ajabmas...

\* \* \*

O’sha qo‘ldan ketgan dunyo Mo‘yinqumning bu yerdan uzoq saksovulzor dalalarida qoldi. Chekchegarasiz Mo‘yinqum sahrolarida sayg‘oqlarning adadsiz suruklarini adadsiz karra surib, quvib yurgan ov kunlari orqada qoldi. Ota-bobo zamonlaridan beri qaqroq saksovulzor sahrolarda to‘da-to‘da bo‘lib umr kechiradigan, xuddi cheksiz vaqtning o‘zi kabi juda qadim, chopib charchamaydigan, ayrituyoq, quvushshox, do‘ngtumshuq shu jonivorlar murtidan okean suvlarini purkagan kitlarday burunlaridan pishqirib havo olib, pishqirib havo chiqarib, kun yorishgandan kun botgunga qadar to‘xtamay Yugura olardilar. Ular o‘zlarining abadiy hamrohlari — bo‘rilar ta‘qibiga uchrab, birdan harakatga kelganlarida, o‘takasi yorilgan bir suruk boshqasini talvasaga solib o‘z ortidan ergashtirganda, so‘ng ularga yana bir, yana ikki, yana uch kiyik to‘plari hurkib qo‘shilganda, so‘ng yana va yana yangi-yangi, katta-kichik to‘dalar dam sayin qo‘shilaver ganda — sayg‘oqlar Mo‘yinqumning ko‘z ilg‘amas kengliklarida — adirlar, pasttekisliklar, yaydoq qumliklardan xuddi yer yuziga tushgan to‘fon kabi toshganda, ana o‘shanda zamin go‘yo teskari aylanayotganday bo‘lar, yoz fasilda dovullar hamda do‘llar savalaganday tuyoqlar ostida tinimsiz guvillar, shunda havo quyun yanglig‘ qo‘zg‘alar, osmonga chaqin chaqilganday uchqunlar sochar, hammayoqni hayvon suruklarining hidlari, hayot-mamot uchun borayotgan telbavoriy quvdi-qochdining hidlari tutib ketar, bo‘rilar kiyik izdihomining ikki biqinidan va orqasidan to‘shlari yer bag‘irlab chopishar, podalarni o‘zlarining pistirmalari sari haydab borishga urinishar, pistirmada esa sho‘rlik quvg‘indilarni ashaddiy, sara vahshiy bo‘rilar kutib turishar, ular saksovullar orasidan bo‘rilarga tashlanishib, xunrezlik qilishar, o‘zlar ham ular bilan baravar qora tuproqqa dumalab-dumalab ketishar va shunda sayg‘oqning kekirdagini shartta uzib tashlashar, varaqlatib qonini oqizishar, so‘ng yana qochayotgan poda ortidan ta‘qibni davom ettirar edilar. Biroq sayg‘oqlar qandaydir yo‘llar bilan bo‘rilar biqinib yotgan yerlardan xabardor bo‘lishar va ko‘pincha o‘sha joylarni aylanib o‘tishar edi, quv-quv shundan keyin yana shiddatliroq avjiga minar va ularning hammalari — qochayotganlar ham, quvayotganlar ham — shu berahm borliqning bandi balolari hars-hars qilib, tillari bir qarich osilib, o‘lar holatga yetib jon-jahdlari bilan yugurishar, qanday bo‘lmasin, ishqilib, yashash, omon qolish uchun aziz qonlarini olov qilib yoqishar, endi bu quvg‘indilaru quvib boruvchilarni Xudovandning o‘zi to‘xtatmasa, boshqa hech kimning bu narsa qo‘lidan kelmas, zotan, gap o‘lish yo qolish ustida borar, binobarin, bunday ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan quvdi-quvdiga dosh berolmagan, olishuv uchun yaratilmagan bo‘rilarning yuraklari yorilib ketar va ular chang-to‘zonga qorishgancha yerga qular, jon taslim qilar edilar, quvish-qochish esa bir zum bo‘lsin susaymas, osmon dovul turgan kabi qorto‘zon bilan qoplanar, holdan toyib yiqligan bo‘rilar, mabodo, o‘lmay qolgan taqdirlarida ham, bu yerlarda turmay, boshqa yoqlarga bosh

olib ketishar, keyin zarracha ham qarshilik ko‘rsatmaydigan, hatto qochishga ham urinib ko‘rmaydigan yuvoshgina qo‘y suruvlarini bo‘g‘izlash bilan mashg‘ul bo‘lar edilar: to‘g‘ri, bo‘ yerlarni ham xatarsiz deb bo‘lmasdi — tag‘in bunisi barcha xatarlar ichida eng xatarlisi edi — bu yerlarda podalarga odamlar qarashardi, qo‘y-qo‘zilarning xudosi ham, qo‘y-qo‘zilarning quli ham shular edilar, bular o‘zlarini kun ko‘rardilar-u, lekin boshqalarga sira kun bermas, ayniqsa, ularga qaram bo‘lImaganlarni, o‘z erki bilan yashashga uringanlarni qo‘ymas edilar... O, odamlar, odamlar — odamxudolar! O’sha odamlar ham azaldan Mo‘yinqum sayg‘oqlarini ovlab keladilar. Avvalda ular otlarga minib, ustilariga teri yopinib, o‘q-yoy otib keldilar, keyin miltiq ko‘tarib varang-varang o‘q qo‘yib ayyuhannos ko‘tardilar, u yoqdan-bu yoqqa halokuning itiday ot qo‘yib chopdilar. Sayg‘oqlar esa to‘da-to‘da bo‘lib dam u yoqqa, dam bu yoqqa qochishar, nihoyat, cheksiz saksovulzorlar ichra g‘oyib bo‘lishar edi. Ana, endi ularni topib ko‘r-chi! Bular ham o‘tib, odamxudolar keyin sayg‘oqlarni mashinalarga minib qira boshlashdi. Xuddi bo‘rilar kabi sayg‘oqlarni avval holdan toydirib, so‘ng miltiqlari bilan qiron solishdi. Undan ham o‘tib, odamxudolar vertolyotlarda uchib kelishdi, keyin sayg‘oqlarni ular o‘tlab yurgan yerlardan topishib, belgilangan joylariga haydab, qurshab olib kelishdi, bu payt yerda, mashinalarda poylab turgan menganlar tezlikni yuz-yuzdan oshirib ta’qib qilishga tushar, vertolyotlar esa tepadan ularga yo‘l va nishon ko‘rsatib turardilar. Mashinalar, vertolyotlar, tezotar miltiqlar zulmidan Mo‘yinqumning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketdi. Sayg‘oqlar uchun oxirzamon, qiyomat-qoyim boshlandi.

Ko‘kko‘z Akbara unda ancha yosh edi. Bo‘lajak jufti Toshchaynar esa undan picha kattaroq edi. Ular bo‘ri to‘dalariga qo‘shilib ov qilishning mashqini ola boshlashdi. Boshda ular olg‘ir bo‘rilar bilan tenglasholmay, yerga qulagan, chalajon holda yiqilgan kiyiklarni bo‘g‘izlab, qornini yorib yurishdi. So‘ng o‘zlarini kuch-quvvatga to‘lib, ko‘p bo‘rilarni va ayniqsa, qari bo‘rilarni orqada qoldirib ketishdi. Hammasi tabiatning o‘z yo‘l-yo‘rig‘i bilan borganda, ular ko‘p o‘tmay bo‘ri galalarining serkasi bo‘lardilar. Biroq ikki o‘rtada hech hayolga kelmagan ishlar ro‘y berdi...

Yil yilga to‘g‘ri kelmas ekan. O’sha yili ko‘klamda sayg‘oqlar xo‘p barakali qulunladilar — ko‘plari egizak tug‘di. O’tgan kuz oylari, sayg‘oqlar kuyikkun kezlari kunlar iliq keldi, ust-ustiga yog‘in-sochin tushdi, shundan so‘ng quruq cheksiz sayhonlarda ikki marta maysa ko‘kladi. O’t-o‘lan mo‘l-ko‘l, bolalash ham shunga yarasha edi. Ko‘z yoriydigan payt kelganda sayg‘oqlar erta ko‘klamdayoq Mo‘yinqumning eng ichkarisidagi qor tushmas qumliklarga ketib qolishadi. Negaki, bu tomonlarga bo‘rilar yaqin yo‘lay olmas, buning ustiga barxanlarda sayg‘oqlarni quvib yetadiganning o‘zi yo‘q edi. Qumliklarda kiyik quvmoqqa yo‘l bo‘lsin. Biroq, kuz va qish oylarida sayg‘oqlar cho‘l, chala sahrolarga tushib kelgan mahallar ko‘kyol galalari o‘z hissalarini oshig‘i bilan oladilar. Xudo berdi qashqirlarga, degani ana o‘shanda bo‘ladi. Yozda kunlar qattiq isib ketganda, bo‘rilar sayg‘oqlarga tegmaydilar. Bu yoqda shundoq tumshuqlari tagida boshqa yemishlar to‘lib-toshib yotmaydimi. Sug‘urlar qish uyqusidan chiqishib, tamomi sahro bo‘ylab yugurgilashib yurishadi. . Boshqa mahluq hamda jonivorlar yil bo‘yi yeb-ichib, umrguzaronlik qiladigan narsalarga ular faqat yoz ichi yetishadilar. Ana shunda sug‘ur galalarining behalovat yugur-yugurlarini ko‘ring. Ular xavf-xatarga ham qaramay qo‘yadilar. Ana shunda bo‘ri deganinish kuni tug‘adi. Sug‘ur ovi boshlanadi. Axir har narsaning o‘z vaqtি-soati bor-da. Qishda sug‘ur anqoning urug‘i. Yoz oylarida bo‘rilar ilvasin, kaklik-karkildak kabi qushlaru jonivchlarni o‘lja qilib kun kechirishadi. Lekin eng ulug‘ ov — sayg‘oq ovi kuzda boshlanadi. So‘ng to qish oyoglaguncha cho‘ziladi. Har narsaning o‘z vaqtি-soati keladi. Cho‘lu dashtlarda hayotning shu maromda tebranib turishi tabiatning adolatidan bo‘lsa kerak. Mo‘yinqumda azal-azaldan beri davom etib kelayotgan tirikchilikning bu yo‘rig‘ini yo tabiiy ofat va yo inson bolasagina izdan chiqarib yuborishi mumkin edi...

## II

Tongga yaqin cho‘lga salqin tushdi. Yer yuchida neki qimirlagan jon-zot bor, bari yengil nafas

oldi. O'tib borayotgan dim, taffot tun bilan sho'r bosgan tala-tuzni o'rtab, oftobning oppoq alangasida yondirib yuboradigan kunduz o'rtasidagi eng rohatijon payt shu edi. Yerga ko'k surmarang shu'lalarini sochib, Mo'yinqum uzra sariq to'lin oy chiqdi. Qaeridan qaramang, bu yerning boshi ham, oxiri ham ko'rinmasdi. Chor atrof olis-olislargacha qorayib borar va seryulduz osmon bilan qo'shilib ketar edi. Tungi o'lik sukunatga jon kirdi, ilondan bo'lak barcha jonivorlar tong pallasidan bahra olish uchun g'imirlab qoldi. Changal-changal bo'lib o'sgan jilg'in butalari taglarida polaponlari chiyillab qushlar uyg'ondi. Tipratikanlar yer iskab yugurgiladi. Tuni bo'yi tinmay chirillagan chirildoqlar yana boshqatdan xurujga kirdi. Uyqidan uyg'ongan sug'urlar inlaridan boshlarini chiqarib, har tomonga alang-jalang boqishib, saksovul tagiga to'kilgan urug'larni tersakmikin, termasakmikin, deganday uyqusirab turishardi. Kattakon yapaloqqush beshta bo'z uchirmasi bilan birga o'zaro chaqchaqlashib, chaqirishib, bir-birlaridan ayrilmay dam uchib, dam qo'nishar edi. Boshqa turli-tuman jonivorlaru mahluqlar oqarib kelayotgan cho'l tongida biri olib biri qo'yib ularga jo'r bo'lishardi...

Ko'kko'z Akbara bilan Toshchaynarning boshlari qovushgan birinchi yoz kunlari edi. Ular endi o'zlarini katta ovlarda chopib charchamas zo'rabor bo'ri ekanliklarini ko'rsatishgan va Mo'yinqum bo'rilari orasida taniqli edilar. Ikkovining baxtiga — cho'l jonivorlari orasida ham baxtli hamda baxtsizlari bo'lsa kerakkim — tabiat Akbaraga ham, Toshchaynarga ham cho'l jondorlariga o'ta zarur bo'lgan muhim sifatlarni mo'l-ko'l bergen, ikkovi ham juda sezgir, ovni oldindan yaxshi his qilishar va ko'zlashar, kuchlari tanalariga sig'mas, chopag'on va bosag'on, shiddatkor edilar. Hammasi kelajakda bu ikki bo'rining ovi baroridan kelishidan, ularga tiriklikning barcha azoblari-yu rohatlari ham to'la yor bo'lishidan, qismatlarida neki yozilgan bo'lsa, baridan qochib qutulolmasliklaridan darak berardi. Hozircha Mo'yinqum cho'llarida yolg'iz hukmron bo'lishga ularga hech qanday kuch to'sqinlik qilolmasdi. Hali odamlar bu cho'llarga ko'pda qadam bosmagan va bo'rilar ham ular bilan sira to'qnashmagan edilar. Tabiatning ularga ato etgan yana bir in'omi shunda ediki, boshqa barcha jonivorlar kabi bu yirtqichlar ham ertaga nima bo'ladi, deb tashvishlanmay, qo'rqmay, qaltiramay kun kechirardilar. Odil tabiat azaldan mahluqlarni tiriklikning bu qarg'ish tekkan tashvishidan xalos etgan ekan. Garchi tabiatning xuddi mana shu in'omida jamiyki Mo'yinqum jonivorlari boshiga qora kun, xunbiyon qirg'in solgan bir kuch ham yashirin edi. Lekin jonivorlarning hech biri buni fahmlamasdi. Bosh-keti yo'q Mo'yinqum qanchalar cheksiz va hududsiz bo'lib ko'rinmasin, Osiyo qit'asining xaritasidan nimsirg'ish tusga bo'yalgan barmoq izicha bir joy ekanligini anglamasdilar. Yildan yilga boqiladigan mol ko'payyapti, yangi quduqlar qazishib, o'tloq joylar izlashib, Mo'yinqumni to'rt tomondan qisib kelishyapti. Kanallar qazilyapti, yo'llar o'tyapti. Mo'yinqum atroflarida dunyoda eng yirik gaz quvuri yotqizilib texnika bilan qattiq qurollangan odamlar mashina, motorlarga o'tirib, yonlariga suv g'amlab olib, radioaloqa yordamida har qanday dashtu sahro ichiga, shu jumladan, Mo'yinqumga shitob bilan kirib boryapti. Lekin, bular kelajakda nasllar faxrlanib yurishiga arziyidigan kashfiyotlar qiladigan fidokor olimlar emas, har kimning qo'lidan ham kelaveradigan ishni bajaradigan oddiy kishilar. Chek-intihosi ko'rimmagan, hech qanday balo-qazo yo'lay olmaydigandek tuyulgan Mo'yinqum sahosini mana shu jo'ngina odamlar to'rt tarafdan qisib kela boshlashdi. Biroq inson hayotining juda ham odmi va jo'n ko'ringan ishlarida yaxshilik bilan yomonlik qo'shilib ketganligini Mo'yinqum jonivorlari qaerdan bilsinlar. Bu yerda hamma narsa odamlarning o'zlariga bog'liq edi — ular inson jamoatchiligi uchun odatiy bo'lib qolgan bu narsalarni nimalarga yo'naltirar ekanlar: yaxshilikkami yo yomonlikka, tuzishgami yo buzishga — buni sahro mahluqlari qayoqdan bilsinlar. Odamlar aql-idrok bilan ish yurita boshlagan zamonlardan beri o'zlarini o'zları bilishga urinib kelayotganliklari, o'z chigal ishlaridan sira qutulib ketolmayotganliklari va azal-azaldan nima uchun yomonlik doim yaxshilik ustidan g'olib chiqadi degan muammoni, boshlarini qotirib kelayotgan jumbojni yecholmayotganliklarini zabonsiz maxluqlar qaerdan bilsinlar...

Odam bolasining mana shu kabi ishlari, yo'l-yo'riqlari Mo'yinqum jonivorlariga mutlaqo qorong'u edi. Binobarin, bu narsalar ularning sezimlari, tajribalari va umuman, tabiatlarida yo'q edi. Xullasi kalom, hozirgi kunlargachayin Osiyoning shu buyuk yarim cho'l, yarim sahro jaziramalarida daraxt

bo‘lib daraxtmas, cho‘p bo‘lib cho‘pmas, ammo toshday qattiq, metinday mustahkam, temir arqon kabi chiyralgan, qurg‘oqchilikka chidamli jing‘ilzorlari, qumloq saksovulzorlari, kakra o‘tlari va hammasidan ham oy shu'lalarida, kun yorug‘ida oltin tusli shaffof o‘rmon kabi lovullab yonadigan, ichiga kirgan har qanday zot boshini ko‘targan zahoti to‘rt tomondan baravar ko‘zga tashlanadigan chiy qamishzorlari bo‘lgan shu dashtlardagi jonzotlarning yashashiga hech narsa to‘sinqinlik bermay kelardi.

Yangi bo‘ri xonadoni — Toshchaynar bilan Akbaraning qismatlari mana shu yerlarda kechadigan edi. Bu orada maxluqlar hayotida juda muhim bir voqeа ham bo‘lib o‘tgan, Aqbara uchta tuqqan edi. Bu unutilmas voqeа Mo‘yinqumda o‘sha ko‘klam chog‘i jing‘il changalzor orasida, keksa saksovul tagidagi o‘ngirda ro‘y bergen edi. Bu uya bo‘ri bolalarini sayrga olib chiqish uchun juda qulay edi. Bo‘richalar ancha tikkayib qolishgan, qulоqlarini dikkaytirib turishar, lekin bir-birlari bilan o‘ynagan, dumalashgan chog‘larida qulоqlarining shalpayib tushgani bilan ishlari yo‘q edi. Ular endi oyoqda ancha mahkam turadigan bo‘lib qolgan, har birlari o‘zlariga yarasha fe‘li ho‘y orttimoqda edi. Katta bo‘rilar ovga chiqadigan paytlari ulardan qolmay ergashardilar.

Yaqinda bo‘rilar bir kecha-kunduz ovda bo‘lishdi. Ov kutilmagan falokat bilan tugashiga oz qoldi.

O’shanda Akbara tong qorong‘usida bo‘rivachchalarni ergashtirgancha Mo‘yinqumning ovloq bir chekkasiga yo‘l oldi. O’sha yerlarda, bepoyon dashtlarda, ayniqsa, nimqorong‘i soylar, o‘ydim-chuqur jarliklarda hushni ajabtovur elitib, boshni aylantiradigan g‘alati o‘t-o‘lanlar ko‘p o‘sib yotardi. Bo‘yi bardan uradigan, qorayib yotgan, bo‘g‘riqqan mana shu o‘tlar ichida ularning turfa o‘tkir changhidlarini birpas dimog‘ingga tortib kezsang, birdan o‘zingni osmonda uchib ketayotgan-dek, havoda suzayotgandek yengil va xushkayf sezasan, keyin behol uyqu bosadi. Akbara bu yerlarni bo‘rivachchalogidan beri bilar, bang o‘t gullaydigan kezlar bir kelib ketgan edi. U yo‘l-yo‘lakay cho‘lning mayda jonivorlarini changalidan o‘tkazib, quyuq o‘tlar orasida aylanib yurishni, ular ustida ag‘anab yotish, o‘tkir islarni ichiga tortish, so‘ng qanot chiqarganday bo‘lib uchish va nihoyat, xumorlanib uxbor qolishni yaxshi ko‘rar edi.

Hozir esa ular Toshchaynar bilan yolg‘iz o‘zlar emas, orqalaridan oyoqlari beo‘xshov va uzun bo‘richalar ham ergashib kelar edi. Bunday safarlar paytida bo‘ri bolalari iloji boricha ko‘p narsalarni bilib, o‘z mulqatlarini kichiklikdan yaxshilab o‘zlashtirib olishlari kerak edi. Urg‘ochi bo‘ri ergashtirib borayotgan mulk chekkasidagi xushbo‘y o‘tloqlarga ham shu bo‘rilar egalik qiladilar. Undan u yog‘i begona makonlar edi, u tomonlarda odamlarga duch kelib qolish hech gap emasdi. O’sha ko‘z ilg‘amas yoqlardan goho kuz shamollarining uvillashiday parovoz tovushlari qulоqqa chalinar, u yoqlar bo‘rilarga mutlaqo yot edi. Ular Akbara yetagida o‘z mulklarining eng chekka yoqasi tomon ketib borardilar.

Akbaraning orqasidan Toshchaynar lo‘killab boryapti. Bo‘richalar esa jonlari ichiga sig‘may, dam sayin sho‘xlik qilishadi. O‘ynashib oldinga o‘tib ketishadi. Lekin Akbara ularning beboshlik qilishlariga izn bermaydi. Hech bir mahluq uning oldiga tushmasligi kerak.

Boshida saksovulzorlar va cho‘l shuvoqlari bosgan qumloq yerlardan borishdi. Kun tobora yuqoriga ko‘tarilib, havo odatdagiday ochiq va issiq bo‘lishidan darak berdi. Oqshomga tortib bo‘ri to‘dasi cho‘lning chekkasiga yetib keldi. Hali kun yorug‘ edi. O‘tlar bu yil baland bo‘lib o‘sgan, ular ichida yurgan bo‘rilarning yollarigina ko‘rinardi. Bang o‘tning kun bo‘yi oftob tig‘ida qizib yotgan tuk bosgan shoxchalaridagi ko‘zga unchalik tashlanavermaydigan gullari kuchli hid taratardi, ayniqsa, o‘t qalin o‘sgan joylardan hid g‘oyatda o‘tkir va quyuq edi. Uzoq yo‘l bosib kelgan bo‘rilar kichikroq bir soy ichida dam olishdi. Tinmag‘ur bo‘ri bolalari charchoq nimaligini bilmay atrofda o‘mbaloq oshishar, yer iskashar, hid olishar, har narsa ularga qiziq ko‘rinardi. Bo‘rilarning qorinlari to‘q, binobarin, kechasi shu yerning o‘zida tunab qolsalar ham bo‘laverardi. Yo‘l-yo‘lakay bir necha semiz-semiz sug‘ur bilan bitta quyon tutib yeyishgan, bir qancha qush uyalarini tintishgan, so‘ng yo‘lda uchragan jarlikdagi buloqdan to‘yib-to‘yib suv ichishgandi. Lekin o‘rtada kutilmagan bir voqeа yuz berdikim, shundan so‘ng bo‘rilar bu yerlarni jadallik bilan tark etishga, orqaga, sahro ichkarisidagi

uyalariga qaytishga majbur bo‘ldilar. Ular tun bo‘yi yo‘l boshdilar.

Voqeа bunday bo‘ldi. Kun botib borardi, Akbara bilan Toshchaynar bang o‘tning hididan mast, xumor holda o‘t-o‘lanlar uzra cho‘zilishgan edi. Shu payt yaqin atrofdan qulqlariga odam sasi eshitildi. Odamni boshqalardan burun jar yokasidan o‘ynab, quvalashib yurgan bo‘ri bolalari ko‘rdilar. Ular banogoh paydo bo‘lgan ushbu g‘alati xilqat odam ekanligini hatto, hayollariga ham keltirganlari yo‘q. Yaproqday ishton, yalang oyog‘iga kedi, boshiga yangiligida oq, hozir esa butunlay yag‘irlashib ketgan panama kiygan maxluq yalang‘och holda bang o‘tlar orasida telba kabi chopib yurardi. U o‘t qalin o‘sgan joylarni tanlab dam u yoqqa, dam bu yoqqa lo‘killardi, bundan maza qilayotganga o‘xshardi. Bunaqasini umrlarida birinchi marotaba ko‘rib turgan bo‘ri bolalari andak cho‘chib, andak ajablanib pisib-netib qarab qolishdi. Anavi mahluq esa, xuddi jin tekkandek, nari borib, beri chopib kelishini qo‘ymasdi. Bo‘ri bolalari qo‘rquvdan o‘zlarini o‘nglab, yuraklari qizidi. Lo‘killab chopib yurgan, badanida tuki yo‘q, ikki oyoqli g‘aroyib mahluq bilan o‘ynagilari keldi. Shu payt qip-yalang‘och odamning o‘zi ham bo‘richalarni ko‘rib qoldi. Hayron qoladigan yeri shundaki, bu yerda qashqir bolalari nima qilib yuribdi, deb o‘ylamay, hushyor tortmay, bu esi yo‘q qo‘llarini oldinga cho‘zib; bo‘ri bolalarini erkayay boshladidi.

— Voy, bular nima? — der edi u yuzlaridan oqib tushayotgan terlarni sidirib. — Bo‘ri bolalari emasmi? Yo boshim aylanib, ko‘zimga shundoq ko‘rinyaptimi? Yo‘g‘-ey, uchalasi ham katta-katta bo‘lib qolgan bo‘ri bolalari-ku! Voy, mening bo‘rivoylarim! Yo‘l bo‘lsin? Qaydan keldingiz? Qayga borasiz? Bu yerdarda nima qilib yuribsiz? Meni-ku, yomonligim bu yerkarga haydab keldi, sizlar-chi! Bu cho‘llarda, qarg‘ish tekkan bu bang o‘tning ichida nima qilyapsiz? Qani, mah-mah, beri kelinglar, qo‘rqma, qo‘rqma, mah-mah! Voy, tentak bo‘rivoylarim-ey!

Esipast bo‘ri bolalari odamning erkalatganiga chindan ishonib, quyruqlarini likillatib, bukilib-bukilib bag‘irlarini yerga tekkizib quvlashmachoq o‘ynash ishtyoqida yaqinlashib bora boshladilar. Lekin shunda jar ichidan Akbara otilib chiqdi. U vaziyat qanchalar xatarli ekanligini ko‘z ochib-yumgunchalik vaqt ichida anglab yetdi. Akbara bosiq irillab, cho‘l quyoshining qizg‘ish shafaqlariga belangan yalang‘och odamga tashlandi. Shu sakraganda uning qornini yorib tashlashi yoki kekirdagini uzib olishi hech gap emasdi. Haligi kishi esa o‘qday otilib kelayotgan bo‘rini ko‘rgan zahoti qo‘rquvdan ko‘zlar ola-kula bo‘lib ketdi, es-hushini yo‘qotib, boshini qo‘llari bilan pana qilgancha cho‘kkalab o‘tirib qoldi. Ana shu uni qutqardi. O‘qday uchib kelayotgan Akbaraning fikri yashin tezligida o‘zgardi. U yalang‘och va himoyasiz, bir zarbalik holi yo‘q odamning ustidan quyunday o‘tib ketdi. Shunda odamning chehrasini, qo‘rquvdan qotib qolgan ko‘zlarini ko‘rdi. Akbara odam tanasining hidlarini sezdi. U yana bir irg‘ib o‘zini odam ustidan orqaga otdi va bolalari yonida paydo bo‘ldi, ularni dumchalaridan og‘ritib tishlab, shiddat bilan jar yoqasiga surib haydarkan, Toshchaynarning ro‘parasidan chiqdi. Toshchaynar odamni ko‘rgan, uning bahaybat yollari qo‘rinchli hurpaygan edi. Akbara uni ham nari surib, bir tishlab oldi va orqasiga qayirdi. So‘ngra hammalari jar ichiga tushib ketdilar va ko‘z ochib-yumguncha g‘oyib bo‘ldilar...

Shundan keyingina boyagi odamning esi joyiga keldi, u o‘rnidan dik etib turib qocha boshladidi... Orqasiga qaramay, nafas chiqarmay cho‘lda ancha yergacha chopib bordi...

Akbara galasining odam bilan to‘qnashuvi birinchi marotaba mana shunday yuz bergen edi... Buning oqibati nima bilan tugashini kim bilibdi deysiz...

\* \* \*

Kun og‘di. Botib borayotgan quyoshdan otashin harorat yog‘ilar, unga kun bo‘yi qizib yotgan yerdan ko‘tarilayotgan toqat qilib bo‘lmaydigan issiq hovur qo‘shilar edi. Quyosh va cho‘l azaldan muqoyasada: kunga qarab cho‘lning — oftob o‘z seplarini yoygan makonning qanchalar cheksiz ekanligi bilinadi. Cho‘l osmonining bepoyonligi esa kalxatlarning baland parvozlaridan ayon. O’sha kunbotar chog‘i Mo‘yinqum cho‘llari uzra ko‘z ilg‘amas yuksaklarda bir to‘p ayridum kalxatlar uchib

yurishardi. Ular hech nimani mo'ljalga olmay, qanotlarini keng yozib, bilinar-bilinmas ukpar pardal bilan qoplangan, doimo salqin ko'k dengizida rohatlanib suzishardi. Ular xuddi ushbu vaqt va ushbu osmonning azaliyligi hamda o'zgarmasligidan xabar bergandek, birining orqasidan boshqasi davra solib aylanishardi. O'sha onlarda kalxatlar o'zlaridan uzoqda, pastda, qanotlari ostida nimalar bo'layotganligini jimgina tomosha qilishardi. Ularning ko'zları o'tkir, hamma narsani ko'radi (ha, avval ko'radi, so'ng eshitadi). Xuddi mana shuning uchun ham ular cho'l osmonining eng buyuk yirtkichlari hisoblanishar, gunohkor yer uzra esa fakat o'lja olish va tunash uchungina qo'nar edilar.

Aftidan, o'sha daqiqalarda o'sha ko'z yetmas balandlikdan ularga chog'roq tepe ustida ola-quroq bo'lib o'sgan jilg'inlar va tilladay jilvillab yotgan chiylar orasida joylashgan arlon bo'ri, serka bo'ri va uch bo'ri bolasi aniq-tiniq ko'ringan bo'lsa kerak. Bo'rilar yuksakda kadxatlarga tomosha bo'layotganlarini hayollariga ham keltirmay, issiqdan tillarini osiltirgancha dam olib yotishardi. Toshchaynar o'ziga juda yoqadigan holatda, oldingi oyoqlarini chalishtirib, boshini baland ko'targancha cho'zilgan. Bu g'ajir bo'ri boshqalardan pot-haybat, kelbatining zo'ri bilan ajralib turardi. Uning yonida kaltabaqay, yo'g'on dumini tagiga bosib, xuddi toshdan yo'nilgan sanamday bo'lib serka Akbara chayir qo'llarini yerga mahkam tiragancha uzala tushgan. Qanjiqning oqarib ko'ringan ko'kragi, endi ancha shalvirab qolgan emchaklari, ichiga botib turgan ikki biqini uning kuch-qudratga to'lganligi, beli juda baquvvat ekanligidan darak beradi. Bo'richalar esa uchovlon shu atrofda g'ujg'on o'ynashadi. Ularning tinib-tinchimasliklari, entak-tentak sho'xliklari, hadeb suykalib osilaverishlari katta bo'rilarning zig'ircha bo'lsin g'ashiga tegmasdi. Mayli, to'yib-to'yib o'ynab olishsin, deganday qarashardi...

Kalxatlar esa, hamon ko'kda parvoz qilgancha, pastda, Mo'yinqumda, kunbotar chog'ida nimalar bo'layotganiga sovuq nazar tashlashardi. Bo'rilar to'dasi joylashgan yerdan bir oz nariroqda keng jilg'inzorlar oralab oqquyruq sayg'oqlar o'tlashardi. Bu surukdan picha narida butazorlararo yana bir kattakon poda yoyilgandi. Kalxatlar kiyiklarga qiziqib qaraganlaridami, o'nlab chaqirimga cho'zilgan cho'lning ikki tomoni ham yuzlab, minglab sayg'oqlarning podalari bilan to'lganligini payqashar edi. Sayg'oqlar yarim sahro-yarim cho'l mana shu o'ng'ay yerkarni qadim-qadim zamonlardan beri vatan qilib ko'payishib keladilar. Sayg'oqlar kechki issiq qaytishini kutib, kecha salqinda olis-olislarda joylashgan buloqlar sari yo'l oladilar. Ayrim sayg'oq podalari hozirning o'zida to'p bo'lib suv ichgani yo'lga tushmoqda edi. Suv deb ular juda uzoq masofalarini bosib o'tadilar.

Sayg'oq suruklaridan biri bo'rilar yotgan tepalik yonidan o'tib borar, jilviragan quruq chiy orasidan oqquyruqlarning shuvillab o'tib turgan sag'ri va biqinlari, taksi kiyiklarning shoxlari turtib chiqqan, yerga tomon egilgan kallalari ko'riniq qolardi. Ular havoning ortiqcha qarshiligiga uchramaslik uchun doimo boshlarini quyi egib yuradilar va bir zum ichida shiddat bilan yugurib ketadilar. Tabiatning o'zi ularni shunday qilib yaratgan, ular har qanday xavf-xatardan bemalol qochib qutuladilar. Sayg'oqlarga shu afzallik ato etilgan. Sayg'oqlar o'zlariga tinch paytlarida. bafurja borayotganlarida ham, bir maromda, sira charchash nimaligisi bilmay bo'rilardan boshqa hech bir mahluqqa tutqich bermay yo'rtib ketaveradilar. Kiyiklarning son-sanog'i yo'q, ularning kuchi ham mana shunda...

Hozir ular butalar orasida yotgan Akbara galasini yonlab o'tib borishar, ortlaridan shamol ko'tarilar, shamolga podaning chang-to'zoni va badbo'y ter hidlari aralashib ketgan edi. Tumshuqlariga urilgan bu islardan bo'ri bolalarining qonlari ko'pirdi. Uchovlari ham havoni yutoqib iskashar va nimaligini o'zlarini ham bilmagan holda o'sha qonlarni jo'shtiradigan poda isi anqiyotgan tomonga, chiylar oralab o'tib borayotgan bo'liq tanalarga tashlanmoqchi bo'lishardi. Biroq katta bo'rilar — na Akbara va na Toshchaynar joylaridan qimirladilar. Vaholanki, ular bir sakrashda podaga yetib olishlari, unga dahshat va qo'rquv solib o'tib ketishlari, hayot-mamot talashuvida jonivorlarni butkul holdan toydirib, so'ng bir qanchasini chapdastlik bilan yerga ag'anatib, bo'g'izlab tashlashlari mumkin edi. Ha, shunday qilsa bo'lardi. Buning qiyin joyi yo'q edi. Lekin omad kelmay o'ljani qo'ldan chiqarib yuborish ham hech gap emasdi. Bunaqasi bo'lib turadi. Ishqilib, Akbara ham,

Toshchaynar ham suruklar ortidan quvishni hayollariga keltirmadilar. O'lja shundoq yonlaridan o'tib borayotganiga qaramay o'rinalidan jilmadilar. Buning o'ziga yarasha sabablari bor edi. O'sha kuni ularning qorinlari to'q edi. Qorin to'qida, kunning shu issig'ida kiyiklarni quvish, quturib ov qilish o'lim bilan barobar edi. Lekin, gap boshqa yodda. Muhim, hali bo'richalarning ov qiladigan payti kelmagan edi. Ular quv-quv, chop-chopga dosh berolmay, o'ljani ololmay shahdini yo'qotib qo'yishi mumkin edi. Yuragini oldirib qo'yan, shashti qaytgan bo'ri bo'ri bo'lmaydi. Hali qish kirsin, katta ovlar boshlanadi, ana o'shanda kuchga to'lgan, voyaga yetgan bo'rilar nimalarga qodir ekanliklarini ko'rsatib qo'yadilar. O'zlariga ishonch orttiradilar. Hozirdan ishning pachavasini chiqarishning hojati yo'q. Lekin vaqt-soati kelsin, o'shanda ko'ring bularni! Zo'r ma'raka bo'ladi o'shanda!

Akbara ov tamayida o'ynoqlab, irg'ishlab o'ziga osilavergan bo'rivachchalardan bezor bo'lganda boshqa joyga sakrab o'tardi. Chiylarning kumush ukparlari oralab xuddi urchiyidigan payti daryodan yuqoriga qarab suzgan baliqlarday hammasi bir tomonga qarab borayotgan kiyiklardan ko'zlariny uzmay qarab turdi. Kiyiklarni bir-birlaridan sira ajratib bo'lmasdi. Akbaraning nigohidan, mayli, hozir o'taveringlar, yashagancha yashab qolinglar, lekin vaqt soati keladiki, sahroda nimaiki bo'lsa, yana sahroning o'ziga qaytadi, undan aslo qochib qutulolmaydi, degan ma'noni uqish mumkin edi. Bu orada bo'rivachchalar mudragan Toshchaynarga osilib, tirmashib, o'rnidan qo'zg'ash payidan bo'lishardi.

Shunda Akbara birdan buyuk sahroga tushadigan qishning ilk kunlarini tasavvuriga keltirdi. Tongga yaqin hammayoq oppoq qor bilan qoplanadi. U yarim kun, uzog'i bilan bir kun turib, so'ng erib ketadi. Lekin o'sha qor bo'rirlarga katta ovlar pallasi kelganligidan darak beradi. Shundan e'tiboran bo'rirlarning es-hushlari sayg'oq ovida bo'ladi. O'sha dorilamon kunlar hali keladi. Soyliklarni tuman o'raydi. Oppoq, mungli chiylarni qish qirovi bosadi. Jilg'inlarning qalin shoxlari qor yukini ko'tarolmay egilib tushadi. Harorati qaytgan cho'l quyoshining beti hovurlanib turadi. Urg'ochi bo'ri o'sha kunni ko'z oldiga shu qadar ravshan keltirdiki, birdan seskanib ketdi: o'pkasiga muzday qish havosi kirganday tuyuldi, go'yo g'uj yulduz kabi pishiq panjalari qor betiga tushganday, o'z tanish izlarini ham, o'sib-ulg'ayib, fe'l-atvori ham ancha belgili bo'lib qolgan bolalarining izlarini ham, bularning bariga yonma-yon yirik, qudratli, tirnoq o'rirlari xuddi kattakon qushning qayrilgan tumshug'iday o'yilib tushgan izlarni — Toshchaynarning omonsiz izlarini ham ravshan o'qiganday bo'ldi. Keng o'mrovli, baroq to'shli Toshchaynarning panjalari qorga chuqur botadi, uning kuch-qudrati bosgan izidan ham bilinib turadi. Toshchaynar sayg'oqlarning kekidaklariga qadalgan xanjar, u chalib o'tgan sayg'oq qizil qoni bilan cho'l qorini bo'yaydi. Go'yo qonga belangan qush qanotlarini tapirlatib qor betida yotganday. Birovning qoni — boshqa birovga yem. Birining qonini ichmasa, ikkinchisi yasholmaydi. Azal-azaldan shunday, tiriklikning boshqa yo'sini yo'q. Bunga hech kim qozilik qilolmaydi. Na haq bor bunda, na nohaq. Kim birovning qonini o'zga birov uchun yem qilib yaratgan bo'lsa, ayb o'shanda. (Faqat odam bolasigma boshqacha qismat bilan yaralgan: u nonini zahmat chekib topadi, zahmat chekib et topadi. Odam o'z tabiatini o'zi bino qiladi).

Mo'yinqumning ilk qoriga tushgan boyagi g'ujum yulduzday katta-kichik izlar — bo'rining turkum panjalari soylarning tumanlari oralab boradi-boradi-da, shamoldan pana bir jilg'a bo'yida, butalar orasida to'xtaydi — bu yerda bo'rilar maslahat ma'raka qiladilar: kim quvishga boradi, kim pistirmada qoladi...

Eh, bir kuni orziqib kutilgan damlar ham keladi — Akbara qor uzra qorni bilan sudralib, to'ng'ib qolgan o'tlarga suykanib, bilinar-bilinmas nafas olib, o'tlab yurgan sayg'oqlarga ohista yaqinlashib boradi, ko'zi ularning hozircha osuda boqqan ko'zlariga tushadi va shunda birdan soyaday sapchiydi. Ana, endi ko'ring bo'rining kuni tuqqanini! Akbara bo'rivachchalariga saboq bo'ladigan o'sha birinchi ovni shunchalar yaqqol tasavvur qildiki, beixtiyor ingrab yubordi va sakrab turib ketishdan o'zini bazo'r tiyib qoldi.

Oh, o'sha ilk qish kunlaridagi cho'ldagi ov! Sayg'oq suruklari o'tdan qo'rqqandan badtar qo'rqib, quturib qochishga tushadi. Qorning oppoq beti bir zumda qora cho'tirga aylanadi. Akbara hammadan oldinda ular ortidan quvib boradi. Yosh bo'rilar — uning qonidan bo'lgan nasl ortda qolmay chopadi.

Axir qazovu qadar ularni xuddi mana shu soat, mana shu ov uchun dunyoga keltirgan; ulardan sal narida haybatidan ot hurkadigan, yelday ildam, qudratli Toshchaynar; uning maqsadi bitta: sayg‘oqlarni pistirma yotgan tomonga haydab borish, ana o‘sha yerda u o‘g‘lonlariga ov qanday bo‘lishini ko‘rsatadi. Ana quv-quv, ana ov! Akbara uchun bunda o‘lja olishdan ham zavqliroq boshqa narsa bor. Ha, ov fasli tezroq kela qolsaydi, cho‘l bag‘rida hayyo-hayt quvg‘in solib, qushday uchib ketsa... bo‘ri hayotining qizig‘i shunda, lazzati, xumori shunda...

Tabiat urg‘ochi bo‘riga shunday hayol ato etgan. Yana tag‘in kim biladi, shu sirli hayollarni keyinchalik achchiq alam, chidab bo‘lmas o‘kinch bilan eslar. Ajabmaski, bular dardli armonga aylanar va tez-tez tushlariga kirar... O‘sha hayollandan balki, faqat nadomat qolar, xunoba yoshlari qolar. Axir, hayol degan narsaning o‘zi boshida ko‘ngil mulkida shunday havolani paydo bo‘ldi-yu, so‘ng ko‘pincha ildiz otmay yaproq yozgani uchun muqarrar talafotga yuz tutadi. Xuddi ba’zi gullar va daraxtlar kabi... Quruq havoyi hayolning qismati boshqa nima ham bo‘lardi. Yaxshilik bilan yomonlik nisbatlarini anglashning achchiq zarurati ana shunday...

### III

Mo‘yinqumga qish tushdi. Bir marta qor ham yog‘ib o‘tdi. Xiyla qalin yog‘di, ammo uzoq turmadi. Ertalab jamiki cho‘lu sahroni xuddi to‘lqinlari yugurib keta turib birdan qotib qolgan oppoq ummonga aylantirib yubordi. Oq muhitda qamg‘oqlarni tirqiratib quvib yurgan shamolgina hokim bo‘lib qoldi. Qumloqlarga nam singidi. Badaniga ho‘l tekkan qatqaloq taqirning bag‘ri yumshadi. Cho‘lga koinot — behudud osmonning jimligi cho‘kdi... Bundan sal ilgariroq sahro tepasidan g‘ozlar g‘ag‘illab uchib o‘tdilar. Ular Mo‘yinqum uzra juda yuksaklarda baland ovoza solishib, Himolay tomonlarga borishardi. Shimolning daryo hamda dengizlaridagi yozgi qarorgohlaridan Hind va Braxmaputraning azaldan ham azal suvlarini mo‘jal qilib uchishardi. Cho‘l jonivorlarining qanotlari bo‘lsaydi, ular, albatta, g‘ozlarning hazin chorlovlari javoban havoga ko‘tarilar edilar. Biroq har mahluqning peshonasiga o‘z jannati yozib qo‘yilgan... Hatto, yuksak parvozlarga o‘rgangan cho‘l kalxatlari ham o‘z uchar joylaridan uzoqqa ketmaydilar...

Akbaraning bolalari qish boshlanishida voyaga yetib, ko‘zga tashlanib qolishdi. Har birining o‘ziga yetguncha fe’li bor. Rost, Akbara ularga ism, atov qo‘ygani yo‘q. Xudoning o‘zi buyurmagandan keyin, yo‘rig‘idan chiqib qayoqqa ham borardi. Lekin Akbara odamlar bilmaydigan hid-bo‘ylaridan va boshqa o‘ziga taniq belgilardan bolalarini yaxshi ajratib olar va har birini adashmay aniq chaqirardi. Bo‘richalarning eng kattasi xuddi Toshchaynarga o‘xshagan kallador edi. Shuning uchun uni Xumkalla deb farqaydi. O‘rtanchasi ham bo‘la va yirik. Uning oyoqlari uzun va kuchli edi. Vaqt soati kelib u ovda haydovchilarga bosh bo‘ladi. Shuning uchun uni Ildam deb biladi. Uchinchi bo‘richa esa Akbaraning xuddi o‘zi — ko‘kko‘z, chovida oq yamog‘i bor, enasining suyukli o‘yinقاروگ‘i. Akbara uni o‘z nazarida Suyginoy deb atagan. Hali uning bo‘yi yetsin, eh-he, ne-ne umidvor oshiqlar uni deb bir-birlariga qiron soladilar...

Kechasi bilintirmay yog‘ib chiqqan qor hammaning bahri-dilini ochib yubordi. Bo‘ri bolalari avval uyalaring tevarak-atrofini butunlay boshqacha qilib yuborgan o‘zlariga noma’lum bu g‘alati narsani ko‘rib, dimoqlariga uning hidini chuqur-chuqur tortib, andak hurkibroq turishdi. Keyin qorning rohatbaxsh muzdek salqini qonlarini jo‘shtirib yubordi, bir-birlarini quvlashib, xirillashib, qorga dumalatishib, bosishib, azbaroyi jonlari kirganidan ingrashib, akillay ketishdi. O‘sha qish bo‘rining to‘ng‘ich bolalari uchun mana shunday boshlandi. Qish oyoqlaganda, ular bir-birlaridan, otonalaridan ajralib chiqadilar, har birlari mustaqil hayotga qadam qo‘yishlari kerak bo‘ladi.

Kechga tomon yana qor sepalab yog‘di. Ertasiga ertalab, hali quyosh chiqmasdanoq, cho‘l tiniq yorishib ketdi. Hammayoqqa osuda sukunat cho‘kdi. Qish sovug‘i ishtahalarini ochib yubordi. Bo‘rilar galasi qulqlarini ding qila atrofga alanglashdi — o‘lja qidirib chiqadigan vaqt yetgandi. Akbara boshqa bo‘ri galalaridan sayg‘oq ovini boshlash haqida xabar qutmoqda edi. Hozircha hech qanday

ishora yo‘q. Lekin hamma shunga mahtal turardi. Xumkallaning o‘tirishini ko‘ring. Qulqlari dikraygan, ko‘zlarida sabrsizlik. Lekin, ovning qanchalik mashaqqatlari borligini hali bilmaydi. Ana, Ildam ham hoziru nozir; mana, Suyginoy — onasining ko‘zlariga tik va sadoqat bilan boqadi; ularning yonida Toshchaynar, nari borib-beri kelib turibdi. Hammalari Akbaraning amriga muntazir. Lekin bularning bari ustidan yana bir buyuk hokim — Ochlik, nafs hukmron.

Akbara vaqt yetdi deganday o‘rnidan qo‘zg‘aldi, yo‘rtib yo‘lga tushdi. Ortiq kutib bo‘lmashdi. Boshqalar ham unga ergashdilar.

Akbara, bolalari hali kichkina ekan, ovni qanday orzu qilgan bo‘lsa, xuddi shunday boshlaydi. Gala-gala bo‘rilar bir joyga yig‘ilib, cho‘lda katta ov boshlab yuboradigan payt. Yana jindak vaqt o‘tsin, qora sovuqlar turadi, o‘shanda yolg‘iz daydigan bo‘rilar jamoaga birlashadi va to qish oxirlariga qadar birgalikda ov qiladi.

Akbara va Toshchaynar ungacha to‘ng‘ich farzandlarini sinab ko‘rgani birinchi katta sayg‘oq oviga olib bormoqda edilar.

Bo‘rilar birda odimlab, birda yo‘rtib cho‘lga qarab ichkarilar, ularning izlari tep-tekis momiq qorga xuddi yagona kuch va iroda ramziday chuqur botar, yirtqichlar yo‘llarida buta kelsa, egilib o‘tishar, lozim bo‘lsa, xuddi soyaday ovoz chiqarmay sakrashar edi. Endi hammasi ularning o‘zlariga bog‘liq, omadlariga havola...

Bir yerga yetganda, Akbara atrofga ko‘z tashlab qo‘yish uchun tepalik ustiga yugurib chiqdi. Ko‘kko‘zlarini cho‘lning olis-olislariqa qadagancha tek qoldi. U dimog‘i bilan shamol keltirgan hidlarni saralardi. Ulug‘ sahro uyg‘onib kelardi. Ko‘z ilg‘agulik yengil, harir tumanlar ichra sayg‘oq suruklari o‘tlab yurardi, suruklar juda katta edi; ularga bir yoshga to‘lgan to‘qli podalari ham aralash edi; lekin, ko‘p o‘tmay ular o‘zlarini alohida suruk bo‘lib chiqadilar. O’sha yili sayg‘oqlar mo‘l bolalagan edilar. Bu — bo‘rilarga ham baraka demak...

Akbara chiy o‘sgran tepada bir oz turib qoldi: mo‘ljalni raso olish, shamolning esishiga ko‘ra ovni qaysi tomonidan boshlashni aniq bilish kerak edi.

Xuddi mana shu payt allaqaylardan, osmon tarafdan g‘alati qaldiragan tovush chiqdi. Cho‘lni shu gulduros bosdi. Lekin u sira momaqaldiroq sasiga o‘xshamasdi. Notanish shovqin dam sayin kuchayib kelardi. Toshchaynar ham joyida turolmay sakrab Akbaraning yoniga ko‘tarildi, shunda har ikkovlari ham qo‘rqib orqalariga tisarildilar — osmonda nimadir bo‘lmoqda edi. Uzoqda quoloqlarni batang qilib qaldiragan qandaydir temir qush paydo bo‘ldi. U xuddi qumga tumshug‘ini tiqib olay deb, pastlab, enkayib, qiyshayib uchardi. Undan picha nariroqda yana bir xuddi shunday qush uchib kelardi. Keyin ular ko‘zdan yiroqlab ketdilar. Shovqin-suron asta-sekin tindi. Bular vertolyotlar edi.

Shunday qilib, misoli suvda iz qoldirmaydigan baliqlardek ikki vertolyot Mo‘yinqum osmonini tilib o‘tdi. Biroq na ko‘k va na yerda biron narsa o‘zgardi. Bu havodan qilingan azmoyish edi. Hozir uchuvchilar qaerda, xaritaning qaysi bo‘lagidan qancha, nima ko‘rganliklari haqida radio orqali tegishli joyga xabar bermoqda. Mo‘yinqumga kiradigan vezdexodlar, yuk pritseplariga qulay yo‘llarni ko‘rsatmoqda edilar...

Bo‘rilarmi, ularni nima ham deb bo‘lardi, birpaslik sarosimadan so‘ng, ular vertolyotlarni eslaridan chiqarib, sayg‘oqlar makoni sari lo‘killab jo‘nashdi. Ularning hammalari, barcha cho‘l jonivorlari va yirtqichlari endi daftarga tushganliklari hamda yoppasiga qirg‘in qilishga mahkum etilganliklarini qaerda bilsinlar, axir. Bu ularning yetti uxlab tushlariga ham kirmagan, bularni bilish, anglashdan mahrum ham edilar. Holbuki, ularni qirish rejalashtirilgan, ko‘p joylarda kelishilgan, mana, hozir, shu tobda qancha-qanchalab motor-mashinalarga minib bu yoqlarga qarab yo‘lga tushishgandi...

Cho‘l bo‘rilari o‘zlarining azal yemishlari — sayg‘oqlar — odamlarga go‘sht topshirish planini bajarish uchun kerak bo‘lib qolganligini qaerda bilishsin, axir, «Hal qiluvchi» yilning oxirgi kvartalida oblastning ahvoli nihoyatda chatoq, yuqori doiralarda asabiy holat hukmron edi. «Besh yillik plani» to‘lmay turardi. Shunda oblast boshqarmasidagi aqli ustasi faranglardan biri Mo‘yinqum go‘sht zahiralarini «harakatga keltirishni» taklif etdi. Buning ma’nosи shu. Go‘sht yetishtirish muhim

emas. Muhimi go'sht topshirish. Xalq oldida, talabchan yuqori tashkilotlar oldida yuzni yorug' etishning birdan-bir yo'li shu. Lekin bularning barini dasht bo'rilar ne bilsinlar. Markazlardan oblastlarga to'xtovsiz sim qoqishadi. Shu kunning qat'iy talabi: qanday bo'lmasin, yerning tagidan bo'lsa ham topib, go'sht topshirish planini bajarish kerak, vassalom. Yetar shuncha paysalga solingani. Besh yillik yakunlanadigan yil axir, biz xalqqa nima deymiz. Qani plan, qani go'sht, qani majburiyatlar? Ammo bularni cho'l bo'rilar ne bilsinlar.

«Planni albatta to'ldiramiz,— javob yo'llardi oblast boshqarmasi,— yaqin o'n kunlik ichida bajaramiz. Joylarda qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Zo'r beramiz, talab qilamiz...»

Bu orada hech narsadan asti xabari yo'q cho'l bo'rilar hamon Akbara yetakchiligidagi yumshoq qor ustidan sas-sabarsiz yurib, chekka, xoli joylarni panalab, bosqin boshlaydigan yerlariga kelib to'xtadilar. O'zlarini baland o'sgan chiy to'plari orasiga urdilar. Ularni chiylarning qo'ng'ir ildiz to'plaridan sira ajratib bo'lmay qoldi. Akbaraning to'dasiga hammasi bu yerdan baralla ko'rinish turardi. Yaratilganlardan beri hammalari bir-birlariga o'xshash, bo'ksalari oq, yelkalari malla kiyiklarning<sup>1</sup> son-sanoqsiz podalari xavf-xatardan xoli keng jing'ilzor vodiyda yangi tushgan qor ostidagi erman, shuvoqlarni ishtaha bilan chimdib yurishardi. Akbara payt poylardi. Payt poylamasa bo'lmasdi. Bosqin oldidan nafasni rostlab olish kerak. Undan so'ng barchalari baravar podaga tashlanadilar va darhol hayda-haydani boshlab yuboradilar. O'shanda quvib keta turib yana nimalar qilish kerakligi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Yosh bo'rilarning toqatlari toq, dumlarini asabiy tipirlatishadi, qulqolarini dam tikkaytirib, dam shalpaytirishadi. Og'ir, bosiq Toshchaynarning ham qoni jo'shadi, tishlarini o'ljasining biqinlariga sanchish zug'umida g'ijirlatadi. Biroq Akbara ko'zlaridan chaqnagan o'tni yashirar, bo'rilarни hali bosqinga boshlamas, eng qulay payt kelishini poylardi. Faqat shunday qilgandagina ov baroridan keladi. Aks holda sayg'oqlar bir zum ichida shamoldek yelib, ko'zdan g'oyib bo'ladilar. Boshqa hech qaysi hayvon ulardek tez yugurolmaydi. Ha, payt poylash kerak.

Shunda, xuddi yozdag'i chaqindek, osmonda yana boyagi vertolyotlar ko'rindi. Bu safar ular tez pastlab uchib kelishdi. Bemalol o'tlab yurgan sayg'oqlarning qalin to'plari ustiga yopirilishdi. Sayg'oqlar qattiq hurkib ketdilar. Hammasi bir zum ichida ro'y berdi. Yuzlab, minglab qo'rqib ketgan sayg'oqlar serkalarini yo'qotib, ko'zlarini ola-kula bo'lib, o'zlarini bosholmon har tomonga ura boshladilar. Beozor mahluqlar ko'kdan tushgan temir baloga toqat qilolmadilar. Vertolyotlarga esa xuddi shuning o'zi kerak edi. Ular quturgancha to'zg'ib borayotgan podalarni yerga qisib, o'rab, undan oldinga o'zib o'tib, bir podani narida o'tlab yurgan boshqa podalar bilan to'qnashtirib, aralash-quralash qilib yubordilar. Hech qachon bunday ofatga duch kelmagan, to'z-to'z bo'lib ketgan minglab cho'l kiyiklari es-hushlarini yo'qotib, u yoqdan-bu yoqqa yugurishar, Mo'yinqumda bamisol jahannam qo'pganga o'xshar edi. Cho'lida hech qachon bunaqasi bo'limgandi. Juft tuyoqlargina emas, ularning azaliy hamrohlari — bo'rilar ham xuddi shunday yomon ahvolga tushdilar.

Vertolyotlarning bu mudhish bosqinchiligin ko'rgan bo'rilar ham esxonalari chiqqancha, pisib chiylarning do'mpaygan ildiz to'plari tagiga biqindilar. Lekin bari bir yuraklari dosh bermay, la'natni yerdan ura qochishga tushdilar. Bo'rilar bu yerdan iloji boricha tez bosh olib ketishlari, ko'zdan yo'qolishlari, bexatar joyga yetib olishlari kerak edi. Biroq, xuddi mana shuning iloji topilmay qoldi. Ular qochib hali uzoqqa ham bormagan edilar, banogoh to'fon ko'chganday yerning guvillagani, zirillagani eshitildi. Vertolyotlar kerakli tomonga haydab borayotgan son-sanoqsiz sayg'oqlar aqdan ozdiradigan tezlik bilan bo'rilar tomonga bostirib kelardilar. Bo'rilar na bir chekkaga qochib chiqoldilar, na o'zlarini panaga ololdilar. Ular yo'lida nimaiki uchrasa, hammasini ostin-ustun qilib, majaqlab tashlaydigan, qora bulutday shiddat bilan yopirilib kelayotgan talotum ostida qoldilar. Agarda, ular shu onlarda bir zumgina to'xtasalar edi, ko'z ochib-yumguncha sayg'oqlarning tuyoqlari tagida toptalib, qaro yerga qorishib ketardilar. Boshvog'ini yo'qotgan, o'zini mutlaqo idora qilolmay

<sup>1</sup> Ayrim turkiy xalqlar, jumladan, qirg'izlar bu kiyiklarnii bo'kan ham deydilar. Bo'kantog' degan joylarimiz shunga ishora (tarjimon izohi).

qolgan bu podalar misoli jonli sel kabi vahshat solib kelardi. Bo‘rilar qadamlarini sekinlatmay va aksincha, vahimaning kuchi bilan yanada zo‘r berib qocha boshlaganlari uchun ham o‘lmay omon qoldilar. Lekin, endi ular ham aql bovar qilmas mana shu buyuk qochqinda sirtmoqqa tushgan edilar. Ayovsiz vahshiy oqim ularni surib ketgandan surib ketdi. Endi ular o‘zлари boyagina quvg‘in qilib, qирғиң-баротга solib, etini bir burdadan qilib tashlamoqchi bo‘lganlari sayg‘oqlar — azal qurbanlari bilan umumiyy yovuz xatardan birgalikda, yonma-yon jonlarini hovuchlab qochishar edi. Omonsiz qismat ularni teppa-teng qilib qo‘ygandi. Bo‘rilar bilan sayg‘oqlarning mana shunday bir to‘p ichida qochganligini qari Mo‘yinqum hatto eng ulug‘ yong‘in paytlari ham ko‘rmagandi.

Akbara bir necha marotaba to‘p ichidan chiqishga urinib ko‘rdi. Lekin, epini qilolmadi. Yonmayon chopib borayotgan kiyiklarning tuyoklari ostida qolib ketish hech gap emasdi. Akbaraning bo‘rilari quturgan bu talotumda hozircha jipslashib borar edilar. Akbara ularni ko‘z qiri bilan ko‘rib turardi — ana, ular kiyiklar orasida tobora ildamroq yugurmoqdalar, ana, ko‘zлари qo‘rqinchdan jaynoqlangan to‘ng‘ichlari — hov ana Xumkalla, hov ana Ildam, ana, holdan toyib, bazo‘r yetib kelayotgan Suyginoy, ana, Mo‘yinqumning qahrli botiri — Toshchaynar, evoh, u ham dahshatli qo‘rquv ichida tiraqaylab qochib keladi. Ko‘kko‘z Akbara shularni orzu qilganmidi axir. Ko‘ring, katta ov o‘rniga ular sayg‘oqlarga qo‘shilib qochib boryaptilar. Shundan o‘zga choralar ham yo‘q, go‘yo daryo chirpirak qilib ketayotgan xasday... Birinchi bo‘lib Suyginoy ko‘zdan yo‘qoldi. Izdihom tuyog‘i ostida qolib ketdi. Faqat bir chinqiriq eshitildi. So‘ng bu ovoz minglab tuyoqlarning ola-tasiri ichida yo‘q bo‘lib ketdi.

Quvg‘in solgan vertolyotlar esa ulkan qochoq podaning ikki yonida uchar, poda to‘zg‘ib ketmasin, yana cho‘ldan qaytarib kelish qiyin bo‘ladi deb, uni chetdan qisib kelishar, ratsiya orqali bir-birlari bilan so‘ylashar, bir-birlariga moslashib harakat qilishar, jonivorlarning o‘takasini yorishar, ularni yanada tezroq chopishga majbur qilishar edi. Shlemofondan quvg‘inchilarning qulogni batang qiluvchi xirqiragan ovozlari eshitilardi: «Yigirmanchi, menga qara, yigirmanchi! Qani, yana bir zo‘r ber! Yana, yana!» Tepada uchib yurgan vertolyotlarga pastda oppoq qor uzra sel kabi oqib borayotgan quturgan qora daryo yaqqol ko‘rinib turardi. Qulochindan yigirmanchining chinqiroq ovozi keladi: «Bo‘pti, zo‘r beramiz! Ha-ha-ha! E, ko‘ryapsanmi, ularning orasida bo‘rilar ham bor ekan! Ana xolos! Qo‘lga tushdinglar, kaltadumlar! Joningdan umidingni uz, bachchag‘arlar! Bu senlarga kinodagi «Hali shoshmay tur!» emas!»

Quvg‘inchilar hayvonlarni zo‘riqtirib, holdan toydirib quvardilar. Oldindan shunday qilish kelishilgan va ko‘zlangan edi. Xuddi ko‘zlanganday bo‘ldi.

Quvg‘inda kiyiklar katta, tep-tekis yoyiqlikka kirib borganlarida ularni quroq tutgan otuvchilar kutib oldilar. Vertolyotlarning ertalabdan beri qilayotgan harakatlari mana shunga edi. Bular ovchilar emas, qiruvchilar. Usti ochiq «uazik»larga o‘tirib olgan otuvchilar sayg‘oqlarni quva ketdilar. Ular sayg‘oqlarni yo‘l-yo‘lakay avtomatlardan yoppasiga o‘t ochib, hatto mo‘ljalga olib o‘tirmay qirishar, jonivorlarni xuddi tomorgada o‘t o‘rganday o‘rib tashlashardi. Ularning orgalaridan esa yuk pritseplari borar — o‘ljalarni birma-bir uning ustiga itqitib tashlashar, odamlar mo‘maygina hosil ko‘tarishar edi. Epchil va baquvvat yigitlar darhol bu ishning ham payxovasini olishdi. Ular hali joni chiqmagan kiyiklarni so‘yishar, yaradorlarining orqasidan quvishar va so‘ng ularning tomoqlariga pichoq tortishardi. Lekin, asosiy qiladigan ishlari yerda qonga belanib yotgan kiyiklarni ko‘tarib, oyoqlaridan silkitib, keyin bir zarb bilan mashina tepasiga ko‘tarib tashlashdan iborat edi. Cho‘l — cho‘l bo‘lgani uchungina xudolarga mana shunday qonli soliq to‘lamoqdaydi. Xung‘arqob kiyiklar kuzovlarga tog‘day uyuldi.

Qirg‘in esa davom etardi. Mashinalardagi otuvchilar holdan toygan sayg‘oqlarning qalin to‘plariga yorib kirar, o‘ngu so‘liga qaramay ularni otib qulatar, jonivorlarni badtar vahima va xarosonlikka solardilar. Qo‘rqinch arosat shu darajaga yetgan ediki. go‘yo qiyomat-qoyim bo‘layotgandek, otishmalardan qulog‘i tom bitgan Akbaraga go‘yo olamning o‘zi kar va gungga aylangandek, yero osmon ostin-ustun bo‘lib ketgandek, hatto ko‘kda unsiz-ovozsiz shu’la sochib turgan quyoshning o‘zi

ham ular bilan birga quturgan quvg'inga uchragandek va o'zini to'rt tomonga urib najot qidirayotgandek, hatto vertolyotlar ham o'z qaldiragan, guldiragan, chiyillagan tovushlaridan ajrab, soqov bo'lib qolgandek tuyular edi. Ular poyonsiz zulmatga cho'mgan sahro uzra vahimali qora kalxatlar kabi ovoz chiqarmay suzib yurishardi... Ommaviy otuvchilar esa tizzalab o'tirib ham otishar, «uazik»larning bortlaridan turib ham otishar, lekin o'q tovushi chiqmas, mashinalar shamoldek yelar, sakrar, ko'tarilar, uchib tushar, lekin ularning ham ovozlari chiqmas, jinni bo'lib qolgan kiyiklar go'yo qanot chiqarib uchar, lekin saslari chiqmas, do'lday yog'ilgan o'qlardan qonga belanib qular, ag'darilar, lekin ovozlari chiqmas edi... Bu oxir zamon sukunatiga o'xshardi. Shunda Akbaranining ko'ziga odam qiyofasi ko'rindi. U odamning qo'rqinchli basharasini shunchalar yaqindan, shunchalar aniq-taniq ko'rib, shunchalar dahshatga tushdiki, sal bo'lmasa mashina g'ildiragi tagiga kirib ketay dedi. «Uazik» uning shundoqqina yonginasiga kelib qolgandi. Anov odam belidan yarmisini mashinadan tashqariga chiqargancha oldinda o'tirardi. U ko'zini shamoldan ehtiyyot qilib kattakon ko'zoynak taqib olgandi. O'pkaday qip-qizil basharasini yel yalab ketgan, qorayib ko'ringan og'ziga mikrofon tutgan, o'tirgan joyida tinmay sakrar, butun cho'lga eshittirib allanarsalarni bo'g'ilib qichqirar, lekin uning so'zлari eshitilmash edi. Aftidan, u qirg'in va quvg'inni boshqarardi. Agarda shu onlarda Akbara shovqin-suron tovushlarini eshitganda va odam bolasining tilini tushunganda edi, uning ratsiyaga qichqirayotgan shu so'zlarini anglagan bo'lardi: «Chetidan otinglar! Chetidan! Hoy! O'rtasiga otmanglar! E, nima qilyapsizlar! Hammasi oyoq ostida qolib ketadi-ku!» O'ldirilgan kiyiklarning go'shtlari yerda payhon bo'lib ketmasin deydi-da...

Shunda mikrofonga baqirayotgan kishi mashina bilan yonma-yon qochqin kiyiklar orasida bitta bo'ri, uning orqasidan esa yana bir nechta bo'rilar chopib ketayotganligini ko'rib qoldi. U bir siltandi, allanarsa deb xirillab qichqirdi, hah, shoshmay tur, deganday mikrofonni tashlab, qo'liga miltiq oldi va shu zahoti uni o'qladi. Akbaranining qo'lidan nima ham kelardi, ko'ziga oynak tutgan odam o'zini mo'ljalga olayotganligini u tushunmasdi, tushunganda, bilganda ham, xo'sh, nima qila olardi — quvg'in ichidan chiqib ketolmasdi, boshini panaga ololmasdi, odam esa hamon mo'ljalga olardi. Shu Akbarani qutqarib qoldi. Nimadir bo'rining oyoq ostiga tarsillab urildi, bo'ri boshi bilan o'mballoq oshib tushdi, lekin izdihom ostida qolmaslik uchun darhol sakrab turdi, shunda to'ng'ichi Xumkallaning osmonga baland sapchib, so'ng yerga qulaganligini ko'rdi. O'ni chopib ketayotganida otgan edilar. To'ng'ichi yoniga asta ag'darilib, gavdasi cho'zilib ontarilgancha o'z qoniga oluda bo'lib tushdi. Balki u og'riqdan uvlab yuborgandir. Balki o'lim xavfi - faryod ko'targandir, lekin buni bo'ri eshitmadi. Otgan odam azbaroyi xursand bo'lib ketganidan miltiqni boshi uzra ko'tarib nuql silkitardi. Yana bir daqiqadan so'ng Akbara o'lib yotgan bolasining loshi ustidan sakrab o'tib ketdi. Shunda yana uning qulog'i ochildi, olamning butun qiyulu qolini eshita boshladi — ana shovqin, ana suron, ana ola-tasir o'q ovozlari, mashinalarning guvillashlari, odamlarning baqiriq-chaqiriklari, jon berayotgan kiyiklarning hirqirashlari... Ko'pgina sayg'oqlar yerga tappa-tappa qular, oyoqlarini tipirlatib yerda yotar, turishga madorlari yetmas, o'pkalariga havo tiqilgan, yuraklari yorilib ketgan edi... Odamlar shu yerning o'zida ularning tomoqlariga shartta pichoq tortib so'yishar, so'ng yana joni chiqmagan, titrab-qaqshagan kiyik tanalarini oyog'idan ushlab, yuk mashinalarga uloqtirar edilar. Boshdan-oyoq qonga botgan bu odamlarga qarash juda qo'rqinchli edi...

Agarda tubsiz osmon qa'ridan birovning sergak nigohi bularning barini kuzatib turganda edi, u qirg'in qanday bo'lganligini va Mo'yinqum shundan so'ng nechog'lik abgor ahvolga tushganligini ko'rgan bo'lar edi. Lekin, bundan keyin nima ro'y berishi, buning oqibati qanday tugashi, aftidan, uning o'ziga ham qorong'iligicha qolaverardi...

Mo'yinqum qirg'ini kechga tomon to'xtadi. Quvgan ham, qochgan ham tamomila holdan toydi. Cho'lga xuhton kirdi. Ertaga vertolyotlar bazadan moylarini yangilab kelgandan so'ng qirg'inni yana davom ettirish kutilardi: ularning chamalaricha, bu yerlarda ish hali uch-to'rt kunga yetib ortardi. Vertolyotlarda o'tkazilgan tekshirishlarga qaraganda, Mo'yinqumning eng qumloq g'arbiy qismida hali hech tegilmagan sayg'oq suruvlari son-sanoqsiz edi. Rasmiy tilda ularni o'ljaning hali ochilmagan

rezervlari deb atashardi. Binobarin, rezerv mavjud ekan, uni zudlik bilan o'lkaning gullab-yashnashi yo'lida plan oborotiga qo'shish kerak. Mo'yinqum «yurishi»ga xuddi mana shu narsa rasmiy asos bo'lgandi. Lekin ma'lumki, har qanday rasmiy xulosalar ortida, albatta, tarixning harakatini belgilab beradigan u yoki bu hayotiy shart-sharoitlar turadi. Shart-sharoit deganimiz esa, bu avvalo, odamlar, ularning intilishlari va hayajonlari, yaxshilik va yomonliklari, nima bilan tugashini bilib bo'lmaydigan axtarishlari va bosh-keti yo'q ziddiyatlari. Shu ma'noda Mo'yinqum fojiasi mustasno bir hodisa emasdi. O'sha kecha o'zi xohlabmi, xohlamaymi, shu vahshiylikni qilgan kishilar cho'lda tunab qolgan edilar.

Bo'ri galasidan Akbara bilan Toshchaynargina arosatdan omon chiqqan, endi tuni bo'yi tentirab qирг'ин joylardan uzoqroqqa ketib borardilar. Qiyomat qo'pgan dala-tuzda qochaverib ko'kraklari, chovlari to sag'irlarigacha loy-balchiqqa botgan bo'rilar zo'r-bazo'r qadam tashlardilar. Tilingan, shilingan, yaralangan oyoqlari tinmay zi-qillab og'rir, kuyganday achishar, har qo'yilgan qadam misoli bir azob edi. Qani endi, tezroq inimizga yetib olsak, sho'rlik boshimizga tushgan bu og'ir kunni tezroq unutsak, oyog'imizni yozib, ko'zimizni yumsak — bo'rilarни hozir birdan-bir istaklari shunday edi.

Lekin, bu yerda ham omadlari kelmadi. Inlariga yaqinlashib qolganda ular odamlarning ustidan chiqdilar. Qadrdon inlarining shundoq yonginasida kattakon yuk mashinasi qorayib ko'rinar, uning g'ildiraklari jilg'in butalari ichiga yorib kirgan edi. U yerda odamlarning g'ovur-g'uvuri eshitildi. Bo'rilar birpas jim quloq solib turishdi-da, so'ng indamay ochiq cho'lga qarab yurishdi. Negadir, xuddi shu payt tun qorong'iligini yorib mashinaning o'tkir chiroqlari yondi. Garchi ularning shu'lalari narigi tomonga tushgan bo'lsa-da, lekin bo'rilar uchun shuning o'zi ham yetarli edi. Ular cho'loqlana - cho'loqlana, og'riq azobidan dikonglab bosh oqqan tomonga jo'nadilar. Akbaraning, ayniqsa, oldingi panjalari achishib og'rirdi... Zada bo'lgan oyoqlariga ozgina orom berish uchun u erimay qolgan qorlar ustidan qadam bosishga urinardi. Bo'ri panjasidan tushgan ezgin naqshli gullar qorda alamli, ma'yus sudralib borardi. Bolalari o'ldi. Boshpana yo'li berk. Cho'lda odamlar izg'iyapti...

Ular oltovlon edilar. Haydovchi Kepani ham hisoblaganda, tasodif tufayli bir joyga yig'ilib qolgan o'ja to'plovchilar, ertaga ishni barvaqtroq boshlaymiz, deb cho'lda tunab qolgandilar. Ish ham ularga juda ma'qul keldi. Yomonmi, mashinaga ortilgan har bir kiyik uchun ellik tiyin to'lashadi. Bugun uchta kuzovni liq to'latdilar. Lekin baribir qorong'i tushguncha hamma otilgan, yiqilgan kiyiklarni yig'ib, ulgurisholmadi. Ertalab yig'ilmay qolganlarini topib, mashinaga ortib, so'ng pritseplarga joylashtirishadi. Ular esa o'ljalarini Mo'yinqumdan uzoqlarga olib ketadi.

O'sha kecha oy to'lgan edi. To'lin oy barkashi ufqdan juda erta ko'tarildi. Oy quti o'chgan, qori butunlay erib ketmagan cho'lning hammayog'idan baralla ko'rinish turardi. Uning moviy shu'lalari cho'ldagi butazorlar, o'r-jarlar, do'ng-tepalarni dam yoritib, dam ko'lankalantirib qo'yadi. Lekin shu huvillagan, kimsasiz joylarda ulkan yuk mashinasining qoraygan sharpasiga hech ko'nikib bo'lmaydi. U bo'rilarning jonlariga kutqu soladi: har safar o'girilib karaydilaru, yuraklari orqalariga tortib ketadi, dumlarini chotlariga qisib, qadamlarini tezlatadilar. Shunga qaramay, ular hadesa to'xtab, yana ortlariga tikilib qoladilar, o'zi nima bo'lyapti, nega odamlar ularning ini oldida to'xtashdi, nima bor ularga? Anovi qo'rqinchli katta mashina bu yerda hali uzoq turarmikin yo ketarmikin? Darvoqe, bu mashina harbiy yo'riq bilan chiqarilgan, usti brezent bilan yopiladigan, bahaybat g'ildiraklari yuz yil yursa ham yemirilmaydigan, istagan joyda bemalol yorib ketaveradigan «MAZ» vezdexodi edi. Kuzovda ertaga jo'natish uchun qoldirilgan o'nlab sayg'oq to'shlari orasida qo'llari xuddi asir olinganday bog'lab qo'yilgan bir odam yotar, u tagidagi va yon-atrofidagi sayg'oqlarning loshlari vaqt o'tgan sayin sovib, qotib borayotganligini his qilardi. Harqalay, ularning terisi uni isitib, joniga ora kirib turar, oo'lmasa ahvoli juda chatoq edi. Mashina ustiga yopilgan brezentning tirkishidan oy mo'ralar, lekin yotgan odamning nigohi bo'shliqdan o'zga narsani ilg'ammas, quti o'chgan chehrasida azob-uqubat sharpasi akslanardi.

Endi uning takdiri mana shu odamlarga bog'liq. Bu yerga ular bilan birga keldi. Xuddi ularga o'xshab Mo'yinqum qирг'инidan pul ishlab ketmoqchi edi...

Odamning umri nima, degan savolga javob topib berish qiyin. Inson munosabatlari shunchalar turfa, tabiat, fe'l-atvori shunchalar rang-barang va murakkabdirki, hatto eng mukammal, eng zamonaviy kompyuter sistemalari ham eng oddiy inson tabiatining umumiy chizig'ini ajratib berolmaydi. Mana shu olti kishini oling. To'g'rirog'i, besh kishi, chunki vezdexodning shoferi Kepa o'z holicha, bularga faqat haydovchi bo'libgina qo'shilgan, yana ularning ichida birdan-bir bolaschaqali odam, lekin ochig'ini aytganda, sheriklaridan unchalar farqi ham yo'k, shularning bittasi, xullas, mana shu oltovlon hayotda bir-biriga tamomila qarama-qarshi holatlar bo'lishi va bunda kompyuter hisob-kitobiga ham hojat yo'qligi, shuningdek, gap odamlarning eng kichkina, arzimas kollektivlari ustida borarkan, aql yetmaydigan, anglash qiyin hollar ham ko'p ekanligiga misol bo'laoladi. Xudoning xohishi shu ekan-da, bo'lmasa, ularning hammalari hayratomuz tarzda bir xildagi odam bo'lib chiqarmidilar. Yana kim biladi, har holda, ular Mo'yinqumga otlangan chog'larida ahvol shunday edi...

Bedananing uyi yo'q, qayga borsa, pitpildiq deganday, bular ham tayini yo'q, qamg'oqdek shamol qaerga uchirsa, shu yerda daydiydigani kimsalar edi. Faqat Kepagina bundan mustasno edi. Uchtasini xotini tashlab ketgan, hammalari ham na birovni yolchitgan, na o'zlarini yolchigan; shuning uchun ham dunyodan to'yan, hamma narsadan norozi edilar. Ular o'rtasida yoshgina bir yigit ajralibroq turardi. Uning ismi ham g'alati — Avdiy edi. Bu nom qadim kitobatda bor: Injilning uchinchi Mulk bitigida aytilgan. O'zi asli dyakonning o'g'li bo'lib, Pskov tomonlardan edi. Otasining vafotidan so'ng, cherkov xodimining kurtagi deb, tahsil uchun diniy seminariyaga qabul qilingan, ammo ikki yildan so'ng kufronaga yo'l qo'yib u yerdan haydalgan edi. Mana endi ikki qo'li bog'langancha «MAZ»ning tepasida jazosini kutib yotibdi. Oberning tili bilan aytganda, u kemada isyon chiqarmoqchi bo'ldi.

Ularning hammalari Avdiyni hisobga olmaganda, o'lguday aroqxo'r edilar. Kasbimiz aroq ichish deyishardi o'zlarini. Biroq, bunda ham Kepa ularga ko'p qo'shilolmaydi, shoferlik qog'ozini saqlamasada bo'lmaydi, aks holda xotini ikkala ko'zini o'yib olishdan ham toymaydi. Lekin o'sha kecha Mo'yinqumda boshqalardan aslo qolishgani yo'q — bo'kib ichdi. Faqat Avdiy-Avdyuxa, shu daydivoy, ichmayman, deb oyog'ini tirab turib oldi. Oberning battar g'azabini qo'zg'adi.

Qo'l ostidagi to'sh yig'uvchilarga o'zini qisqa qilib, Ober deb chaqirish kerakligini aytib qo'yan edi. Ehtimol bu so'z katta degan ma'noni anglatishini ko'zlab shunday qilgandir. U chindan ham, jazo olmasidan ilgari jarima batalonining katta leytenanti edi. U unvonidan mahrum qilinganda, xayrixoh kishilar: xizmatini ortig'i bilan ado etgani uchun kuydi bechora, deb ancha xafa bo'lib yurishdi. O'zi ham boshliqlar mena nisbatanadolatsizlik qilishdi deb -hisoblar, so'raganlarga shunday deb tushuntirar, ichidan qirindi o'tar, lekin armiyadan haydalishining haqiqiy sabablari haqida churq etib og'iz ochmasdi. O'tganni eslasang, esing ketadi. Nima qiladi eslab, Oberning haqiqiy familyasi Kandalov edi, asli Xandalov bo'lishi ham mumkin, lekin bu bilan kimning nima ishi bor — Obermi-Ober, bundan ortiq yana nima kerak.

Bu to'p o'zini xunta deb ataydi. Hammalari shunga kelishganlar. Faqat oblast drama teatrining sobiq artisti Gamlet-Galkingina «xunta» deb atashga e'tiroz bildirgan: «E qo'yinglar, shu xunta-puntasini. Jinim yoqtirmaydi shu xuntani, bolalar. Biz safarga otlanyapmiz. Kelinglar, nomimiz ham «safar» bo'lsin!» Lekin Gamlet-Galkinning bu taklifiga hech kim qo'shilmedi. «Safar» so'zi uncha tushunarli emasdi. «Xunta» degani esa dadil va o'ktam eshitilardi. Shuning uchun ko'proq shu so'z ma'qul bo'ldi shekilli. Ana shu xuntaning ikkinchi odami Mishash degan kimsa. To'la aytganda, Mishka Shabashnik. Qo'tosdek serzarda bu zot istagan odamini, hatto Oberning o'zini ham bo'ralab so'kib yuborishdan toymasdi. Mishashning odatlaridan biri shu ediki, har ikki so'zning birida «onangni...» deb turardi. Bu unga nafas olganday o'rganish bo'lib ketgan edi. Avdiyni bog'lab mashina kuzoviga tashlash fikri ham boshqalardan emas, ayni shu Mishashdan chiqdi. Xunta esa uning taklifini ko'z ochib yunguncha bajo keltirdi.

Xunta ichida eng ko'zga ko'rinxaydigan kamsukum odam bu — Gamlet-Galkin. Ichkilikka mukkasidan ketgan, sahnani juda erta tark etgan ushbu kimsa duch kelgan ishni qilib kun ko'rardi.

Mana, oradan osmondan tushganday bu mo‘may ish chiqib qoldi. Kiyik deydimi-ey, sayg‘oq deydimi-ey, unga nima farqi bor, oyog‘idan ko‘tarib shartta-shartta mashinaga tashlar ekansan. Bir oyda ham topolmaydigan aqchangni ikki-uch kunda bemalol ishlab olasan. Yana Ober qurg‘urning siylovini aytmaysizmi? Bir yashik aroq. To‘g‘ri, bu o‘rtadagi umumiy daromaddan olinadi. Lekin baribir-da. Nihoyat, bu to‘p ichida eng qo‘y og‘zidan cho‘p olmagani bu — Uzuqboy. Uning oyoq-qo‘li juda chaqqon. Uzuqboy o‘zi shu yerlik, Mo‘yinqum atroflaridan. Negadir uni Aborigen deb chaqirishadi. Uzuqboy or-nomus degan narsalarning hatto ko‘chasidan ham o‘tmagan. Nima desang, bariga rozi, bariga ko‘nadi, qo‘shiladi. Bir shisha aroq uchun Shimoliy Qutba desangiz ham boradi.. Aborigen-Uzuqboyning qisqacha tarjimai holi bunday: traktorchilik qilib yurgan edi. Keyin boshini ko‘tarmay ichadigan odad chiqardi. Bir kuni kechasi traktorini katta yo‘lning o‘rtasiga tashlab ketibdi. Unga bir mashina kelib urilib, odam nobud bo‘ladi. Uzuqboy shundan so‘ng ikki yil o‘tirib chiqdi. Bu orada xotini bolalarini olib ketib qoldi. Shundan keyin Uzuqboy, qaydasan, deb shaharga jo‘nadi. Tayinli biron ishning boshini tutmadidi. Oziq-ovqat do‘konida yuk tashib yurdi. Uylarning qorong‘u yo‘laklarida cho‘k tushib o‘tirib shisha bo‘shatdi. Ober uni shunday qorong‘u yo‘laklarning biridan topdi. Uzuqboy unga miq etmay ergashdi. Nimasiga ham miq etsin... Ober Kandalovga yo‘q deb bo‘lardimi — uzokdan hid bilishga juda usta odam...

Ober Kandalov bosh bo‘lgan xunta mana shu taxlit topishgan edi. Ular Mo‘yinqum ma’rakasida yuzaga chiqishdi...

Agar taqdir va taqdirlar haqida, hodisalarni oldindan belgilab beradigan tirikchilikning turli-tuman hol-ahvollari hakida so‘z yuritadigan bo‘lsak, unda aytishimiz kerakki, Avdiy Kallistratov o‘z vaqtida diniy mifikni muvaffaqiyat bilan bitirib, shu yo‘lda ko‘shish ko‘rsatib, yaxshi unvonlarga musharraf bo‘lib yurganda edi, unda Xudo shohid, Ober Kandalovni hech qanday tashvishga qo‘ymas, boshini bunchalar qotirmasdi. Darvoqe, Avdiyning barcha sinfdoshlari, yengiltakkina o‘quvchi bolalar keyinchalik ham tanlagan hayot yo‘llarini sobitqadamlik bilan davom ettirishdi, ularning hammalari bu sohada sobiq dyakonning o‘g‘li Avdiydan ko‘ra abjirroq, chapdastrok chiqishdi. Ular diniy tahsilni tugatgach, cherkov mansab shotisining pillapoyalaridan muvaffaqiyat bilan ko‘tarilib borishardi. Vaholanki, Avdiy ruhoni otalarning sevimli, iste’dodi porloq o‘quvchilaridan hisoblanardi. O‘z sinfdoshlari qatoridan chiqmaganda edi, u hech qachon Ober Kandalovga ham duch kelmasdi. Ober Kandalov esa poplarni dunyoga yanglishib kelib qolgan odamlar, deb bilardi. O‘zidan qolar gap yo‘q, u umri bino bo‘lib cherkov ostonasiga yaqin yo‘lamagan va hatto cherkov nima ekan deb qiziqib ko‘rmagandi.

Agar-magar deymiz... lekin shunday bo‘lishini kim bilibdi deysiz. Hammasini oldindan bilib bo‘lsaydi... Bir marta birga qilinadigan ishga kim anketa to‘ldirib o‘tiradi. Pul ishlashdan boshqasini hayolingga keltirmaysan. Bu xuddi kollektiv bilan kartoshka yig‘ishga chiqqanday omadi gap. Farqi shuki, bu yerda kartoshka emas, o‘qq uchgan sayg‘oqlarni yig‘ishtirasen. Ober Kandalov o‘ziga vokzalda duch kelgan daydi Avdiyning esipast, devona ekanligini bilgandaydi, Mo‘yinqumda endi buni nima qilaman, qanday qilsam, bu sho‘rpeshanadan omon-eson, beziyon qutulaman deb, boshini qotirib o‘tirmasdi. Ober Kandalov bu ishni bir chekkasi o‘tgan gunohlarimni yuvaman deb, jon kuydirib boshlagan edi. Ana shu ishni tentak Avdiy barbod qilishiga oz qoldi. Hammasi aql bovar qilmaydigan darajada g‘alati bir tarzda, buning ustiga g‘oyatda ahmoqona bir tarzda bir joydan chiqishi kimning hayoliga kelibdi deysiz. Shularni o‘ylaganda, Ober Kandalovning ichgisi keladi. Bor, nima bo‘lsa, bo‘ldi, desinmi? Lekin, buni u juda boplaydi. Yarim stakanni shartta otadi. Keyin yana. Undan keyin yana yarim stakan. Qarabsizki, endi uning yo‘lini to‘sadigan hech qanday kuch yo‘q dunyoda, jini jo‘shadi, qoni qaynaydi, hamma narsaning qatig‘ini chiqarib tashlagisi keladi... qok miyasiga ursam, majaqlab tashlasam deydi... Ammo, u xuddi mana shundan qo‘rqardi. Chunki keyin ish qanchalar pachava bo‘lishini bilardi...

Qaydan kelib qoldi o‘zi bu Avdiy degan balo! Yana agar taqdir va taqdirlar xususida, boshqa hodisalarni keltirib chiqaradigan turli-tuman hol-ahvollar xususida so‘zlaydigan bo‘lsak, unda

aytishimiz kerakki, bularning bari ancha ilgari boshlangan va bu yerlardan ancha olis yerlarda boshlangan edi...

O'sha kezlar Avdiy diniy seminariyadan kufroni yigitga birmuncha qiziqib qarardi. U cherkov tomonidan murtad deb e'lon qilingan, dinga qarshi tashviqot olib borish uchun ancha qulay edi. O'z navbatida seminariya bilan chiqisholmagan yigitga yoshlari matbuotida o'ziga yaqin axloqiy-ma'naviy masalalarni ko'tarish ancha-muncha qiziqarli bo'lib tuyulardi. Oblast matbuotini to'fon paytidagi suvday bosgan bir qolipdagi zerikarli aqlbozliklar, tumtaroq fol ochishlar orasida uning gazeta sahifalaridagi antiqa fikrlashlari shubhasiz, o'quvchilar e'tiborini tortar, yoshlargina emas, bunga kattalar ham qiziqardilar. Hozircha har ikkala tomon ham bir-birini to'ldirib, bir-birlariga kerakli ekanliklarini anglab turishar, lekin yangi oydek endigina balqib kelayotgan bu yigitning yuragida qanday alangali niyatlar bosh ko'tarib kelayotgan-ligini juda oz kishilar, to'g'rirog'i, bir odamdan boshqa hech kimsa bilmasdi. Avdiy muxbir sifatida nomi bora-bora ko'pchilikka tanilgandan so'ng qandaydir munosib bir shakl, qandaydir o'rtacha mafkuraviy ora yo'l topib, shuning vositasida nazarida juda ham dolzarb va hayotiy jihatdan g'oyatda muhim bo'lган, hozirgi zamonda Xudo va inson haqidagi jadidona fikrlari hamda tasavvurlarini eski diniy ta'limotning qotib qolgan aqidalariga zid qo'yib ifodalab bermoqni ko'ngliga tukkan edi. Niyat qilishga kilganu, lekin o'z oldida ikki bo'ysunmas, ishg'ol qilib bo'lmas zo'r istehkom turganligini o'ylamagani kulgili edi. Bu ikki kuch hech qachon bir-birovini yoqtirgan emas, yoqtirmaydi ham. Bir-biriga hech vaqt bo'ysungan emas, bo'ysunmaydi ham. Bir tomonda ming yillardan beri diniy e'tiqodning sofligini har qanday yangiliklardan va hattoki, yaxshi niyat bilan yuzaga chiqqan yangi fikrlardan tish-tirnog'i bilan ko'riqlab, asrab, himoya qilib kelgan, o'zgarmas, vaqtga tobe bo'lman mavrusiy diniy qarashlar va ikkinchi tomonda, dinni uning har qanday ko'rinishida tag-tomiri bilan inkor etadigan, rad qiladigan ilmiy ateizmning qudratli mantiqi. Boyaqish yigit shularning orasida tegirmon tosh o'rtasida qolganday o'rtanardi. Biroq umid chirog'i so'nmagandi. «Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida va unga bog'liq holda Xudo kategoriyasining vaqtga ko'ra rivojlanishi», degan yangi aqidani kuyib-pishib ko'tarayotgan bid'atchi Avdiy Kallistratov: takdir ertami, kechmi, baribir menga o'z qarashlarimni odamlarga ma'lum qilish uchun imkoniyat beradi deb ishonardi. Zotan, inson qudrati o'zining eng yuksak nuqtasiga yetgan, sanoat hukmron kuchga aylangan davrda odamlarning o'zlarini Xudoga bo'lган munosabatlarini aniqlab, bilib olish payiga tushadilar. Bo'layotgan ishlarning bari xuddi mana shunga qarab boryapti. Avdiyning xulosalari hali tugal emas, ancha munozarali edi. Lekin rasmiy diniy ta'lim uning bu erkin fikrini hazm qilib, kechirib ketolmadi. U tavba-tazarrudan bosh tortgandan so'ng, yeparxiya uni diniy seminariyadan o'chirdi.

Avdiy Kallistratovning manglayi keng, bo'zday oq edi. O'zi qatori ko'p yoshlari kabi u sochlari yelkasigacha o'stirgan, ko'ng'ir tusli quyuq soqol qo'ygandi. Bular unga ko'rkamlik bag'ishlamasa-da, lekin chehrasini qandaydir mo'min-muloyim qilib ko'rsatardi. Kosasidan bo'rtib chiqqan ko'zlarini bezovta yiltillab turar, ularda uning o'z fe'liga mos beorom, notinch o'y-hayollar aks etar, yana o'zi qiynalama-qiynalama topayotgan narsalardan beqiyos mammunlik va shu bilan birga u yaxshilik qilmoqchi bo'lib intilayotgan atrofdagi odamlardan kelayotgan ko'p og'ir azob-uqubatlar ham ifodalانardi...

Kiygani ko'proq katak ko'ylak, sviter, jinsi, sovuq kunlar to'zigan palto, otasidan qolgan qalpog'ini kiyib yuradi. Mo'yinqum cho'lida ham shu ust-boshda paydo bo'ldi...

Ushbu soatda qo'llari bog'langan holda mashina ustida yotarkan, hayolidan har turli achchiq, alamli o'ylar o'tardi. Lekin shu tobda hammasidan ham yolg'izlik alami ko'nglini o'rtab yubordi. Shunda qaysidir Sharq shoirining esida chala-yarim qolgan satrlarini takrorladi: «otadan oltov bo'lsang-da, bir yolg'izlik boshingda, jafodan yolg'iz bo'lsang-da, shu yolg'izlik boshingda». Yana badtar iztirob ichida keyingi paytlarda dunyoda o'ziga eng yaqin bo'lib qolgan o'sha xilqat to'g'risida alam bilan o'ylab ketdi. Uni o'z jonidan ayru tasavvur qilolmaydi. U hayollariga doim hamroh.

Qiynalsa ham, quvonsa ham, unga murojaat qiladi. Og‘ir holatga tushganda bir-birlariga juda yaqin kishilarning telepatiya yo‘li bilan favqulodda muloqatga kirishishlari rost bo‘lsa, unda o‘sha munis-mehribon xilqat o‘sha kecha nimadandir qattiq o‘rtanib, nimanidir qattiq sog‘inib, nimadandir yuragi bir notinchlikni sezgan bo‘lishi kerak...

Mana shunda o‘sha Sharq shoiri aytgan g‘alati so‘zlarning asl ma’nosi birdan unga ayon bo‘ldi. Oldinlari shu so‘zlardan kulib yurardi. Ishonmasdi ularga: «Juda qattiq seva olgan chin sevgiga yeta olmas...» Tavba! Endi bo‘lsa, o‘sha xilqat haqida o‘ylab yotarkan, u ovoz chiqarmay yig‘lar, agar uni ko‘rmaganimda, bilmaganimda, o‘rtanib-kuyib sevmaganimda, bunchalar azob-uqubat chekmagan bo‘lardim. Sog‘inmasdim, yonmasdim, hozirning o‘zida, ha, xuddi mana shu tobda uni ko‘rgim, sovuq, berahm tun qarini yorib o‘tib uning qoshida paydo bo‘lgim kelmasdi. Axir, cheki bormi bu telba, bu yengib bo‘lmas, bu og‘riq-azobning! Qani edi, hozir Osiyoning chek-chegarasi yo‘k cho‘llarida, shu cho‘llarning bir chekkasida, transkontinental temir yo‘l yoqasida joylashgan Jalpoq-Soz bekatiga borib qolsang, xuddi ho‘v o‘shandagiday kasalxona yonidagi . mo‘jazgina uyning ostonasi oldida yarim soatgina tursang, bu axir, uning uyi... Lekin qutulib ketishning iloji yo‘qligini ko‘rib, Avdiy o‘zining, ehtimol o‘sha qizga sira kerak bo‘lmagan sadoqatini la’natlardi. Axir faqat va faqat uni deb, ikkinchi marta yana qaytib Osiyo o‘lkalariga keldi, uni deb, mana, Mo‘yinqumda tushovlanib yotibdi it ko‘rmagan xo‘rliklarni ko‘rib. Uni ko‘rishning iloji yo‘qligidan joni badtar o‘rtanar, battar o‘zini yolg‘iz sezardi. Ayni zamonda shu hissiyotlar unga Xudoga umtilish va uning visoliga yetish yo‘lini ochganday bo‘ldi. Xudo insonga muhabbat orqali namoyon bo‘larkan va shunda odamga tiriklikning eng oliy saodatini hadya etarkan. Bunda Tangri taoloning xayri saxovati cheksizdir, xuddi vaqt daryosining cheksizligiday, va muhabbatning yo‘li ham takrorlanmasdir, har bir odam uchun, har bir hol uchun...

— O‘ziga hamdu sanolar bo‘lsin!— deb shivirladi u oyga qarab yotarkan. So‘ng o‘yladi: «Dilni muhabbatga oshno qilarkan, bu ham lutfu marhamatining cheksizligidan... qaniydi, u buni tushunsa...»

Shu payt pastda — mashina yonida qadam tovushlari eshitildi. Kimdir kekirib, xirillagancha mashina ustiga tarmasha boshladi. Mishash ekan. Uning ortidan Kepaning kallasi ko‘rindi. Rosa tortishganga o‘xshaydi. Ulardan gupillab aroqning qo‘lansa hidi anqiydi.

— Yotaverasanmi hadeb, onangni... Kani tur o‘rningdan itning popi. Ober chaqiryapti. Teringni shilib olaman deydi,— Mishash so‘kingancha sayg‘oqlar ustidan ayiq inida gandiraklaganday al pang-talpang bosib kelardi.

Kepa ham miljingladi:

— Terisini shilib shu cho‘lga tashlab ketamiz.

— Cho‘l ham gapmi!— kekirdi Mishash.— Shu qilig‘i uchun Sibirga jo‘natish kerak bu itni, he onangni... Toza boshimizni qotirding. Nima, so‘pi qilmoqchimisan bizni! Toza topibsan odamini, onang...

#### IV

Shu vaqt ichida Avdiy Kallistratov Jalpoq-Soz bekatiga Inga Fyodorovna nomiga bir qancha xatlar yozib jo‘natdi. Inga Fyodorovna ham shahar pochtasining «So‘rab olish» bo‘limiga javob yo‘llab turdi. Chunki Avdiyning shaharda hozir boshqa tayinli adresi yo‘q edi. Avdiy onadan erta ayrildi. Tul qolgan dyakon Kallistratov yuragining butun qo‘rini, barcha dunyoviy va diniy bilimlarini o‘g‘li bilan qiziga bag‘ishladi. Avdiydan uch yosh katta opasi Varvara Leningradga o‘qishga ketdi. Pedagogika institutiga kiraman deb yurgan edi, lekin uni cherkov xodimining qizi, maktab bolalarini bularga ishonib bo‘lmaydi deb, qabul qilishmadi. Shundan so‘ng u konkursdan o‘tib Politexnika institutiga kirdi va shu bo‘yicha Leningradda qolib ketdi. Turmush qurdi. Bola-chaqали bo‘ldi. Hozir qaysidir loyiha institutida chizmakashlik qiladi. Avdiyning yo‘li ruhoni ulum sohalari sari tushgandi. Bir chekkasi, o‘zi shuni xohlasa, ikkinchi tomondan, otasining ham, ayniqsa, Varvaraning institutga kirish voqeasidan so‘ng,

xohishi shunday edi. Avdiy seminariyada tahsil ola boshlaganligini ko'rib dyakon Kallistratov ichichidan g'ururlanib, o'zida yo'q xursand bo'lib yurdi — u orzulari nihoyat ushalganidan, mehnatlari va o'gitlari zoe ketmaganidan, nolalari Xudoga yetib borganidan behad baxtiyor edi. Lekin, sal vaqt o'tmay u omonatini topshirdi. Yana ham taqdirning mehribonchiligi ekan, zero, u farzandi qobil Avdiyning olamning o'ziday ko'hna ilmi ilohiyot — Tangri taolonning boqiy va cheksiz qudrati bilan mangu yaratilgan diniy ta'lilot sohasida bid'atga berilib ketishini, kufroni y'lgara yo'l qo'yishini ko'rsa, buni aslo ko'tarolmagan bo'lardi.

Avdiy Kallistratov oblast yoshlari gazetasida qatnasha boshlagandan so'ng dyakon Kallistratov uzoq yillar o'z oilasi bilan istiqomat qilgan mo'jazgina kvartira yangi tayinlangan cherkov xizmatchisiga berilib, sobiq seminariya o'quvchisidan uni bo'shatib qo'yish talab qilindi. Endi uning cherkov bilan aloqasi uzil-kesil uzilgandi.

Avdiy Leningraddan opasini chaqirdi. Xohlasa, ota-onamizdan qolgan o'ziga kerakli narsalarni, asosan, sanamlar-u suvratlarni xotira uchun meros tariqasida olib ketsin, dedi. O'ziga otasining kitoblarini olib qoldi. Opa-uka o'shanda oxirgi marta uchrashgan edilar. Ularning o'zlariga yarasha o'z hayot yo'llari bor edi. O'shandan beri ko'rishganlari yo'q. Bir-birlariga munosabatlari yomon emasdi. Lekin, nachora, umr yo'llari boshqa-boshqa edi. O'shandan beri Avdiy birovlarnikida ijaraga yashaydi, puli borida alohida xonada, puli yo'g'ida sig'indi bo'lib turadi. Shuning uchun ham, unga yozilgan xatlar pochtaning «So'rab olish» bo'limiga jo'natilardi.

Oblast komsomol gazetasi redaktsiyasi tomonidan Avdiy Kallistratovning O'rta Osiyoga yuborilishi xuddi mana shu paytlarga to'g'ri keladi. Bu fikr ham Avdiyning o'zidan chiqdi. U mamlakatning Yevropa qismidagi yoshlari o'rtasida nashavandlik qanday yo'llar hamda vositalar bilan tarqalayotganligini o'rganmoqchi va sharhlab bermoqchi edi. Nasha esa O'rta Osiyoda, Chu hamda Mo'yinqum cho'llarida o'sardi. Nasha — mashhur marixuananing tug'ishgan opasi, janub dashtlarida o'sadigan quvrayning yovvoyi bir turi. Yovvoyi quvrayning yaproqlari, gullari va changlarida odamning boshini aylantiradigan, chekkanda hushini eltadigan va xayolini ko'klarda sayr qildiradigan, lekin me'yordan ortsu, ruhni ezadigan, qiy Naydigan va oxir-oqibat jinni qilib qo'yadigan moddalar bo'ladi. Uin chekkandan so'ng odam atrofdagilar uchun g'oyatda xavfli bo'lib qoladi.

Avdiy Kallistratov safardan olgan taassurotlarini yo'l ocherklarida batafsil tasvirlab yozdi. Cho'lda kutilmaganda, bo'ri galasiga duch kelganligini, qo'ying-chi, o'z ko'zi bilan nimani ko'rgan, boshidan nimani o'tkazgan bo'lsa, barini ham guvoh, ham grajdan sifatida alam va tashvish bilan tasvirladi. Bang o'tning jamiyatga qanchalar zarar keltirishi mumkinligi haqida kuyunib ogoh qildi. Birok redaktsiya boshida quchoq ochib kutib olgan ocherklar avval kechiktirildi, so'ng butunlay chiqmay qoldi.

Ishi hech yurishib ketmayotganligi, o'zi duch kelayotgan qiyinchiliklar haqida Avdiy Inga Fyodorovnaga yozib turdi. Avdiy uni taqdirning o'ziga ato etgan tuhfasi, dunyodagi eng yaqin odamim, deb bilardi. Nazarida, Inga Fyodorovna bir daryo edi, shu daryoga bir cho'mib olsam, o'lib borayotgan vujudim yana tiriladi, yana turmush urinishlarini yengish uchun o'zimda kuch paydo qilaman, deb o'ylardi. Bora-bora Avdiy Inga Fyodorovna bilan yozishlari o'z hayotining eng katta voqeasi, umrining asl ma'nosi va mazmuni bo'lganligini anglab yetdi.

U xat jo'natgandan so'ng faqat shuni o'ylab yashardi. Hamma yozganlarini xotirasida yana bir boshdan tiklab chiqar, ularni izohlar, o'zicha tushuntirardi. Bu o'rtada juda olis masofalar yotgan g'alati bir muloqot edi — uning alamangiz yuragidan vaqt va makon sari uzlusiz otilayotgan shu'lanamolar edi.

«...Keyin men anchagacha o'ylanib yurdim. Xatimning boshidagi so'zlar Sizni taajjubga solib qo'ymadimikin: «Padaru O'g'ilu Muborak Ruh ismi bilan!» O'zim shunday an'analar ichida tarbiyalanganim uchun ularni keltirgan edim. Har bir jiddiy gap oldidan ularni eslayman. Chunki shu so'zlar yuragimni qitiqlaydi, tilimni sozlaydi va burro qiladi, xuddi ibodat qilayotgandek bir ahvolga tushaman. Shuning uchun men bu odatimni o'zgartirib o'tirmadim. Ruhoniylar tabaqasidan

chiqqanligim va seminariyada o‘qiganligimni Sizga yana bir karra eslatib o‘tyapman. Men Sizdan o‘zimga tegishli hech narsani yashirishni istamayman. Sizga bo‘lgan munosabatim shuni taqozo qiladi. Yana shuni ham ko‘p o‘ylaymanki, Siz bilan xayrlashgan chog‘imizda yaqin bo‘lib qolgan va sanlashib gaplashgan edik. Endi esa yana Siz deb yozyapman. Meni kechiring, xayrlashganimizdan beri hali ko‘p vaqt o‘tgani yo‘q. Lekin menga nimadir bo‘ldi. Inchunin, barcha tentak odamlar o‘zlarini oqlash uchun doim bo‘lmaq‘ur bir bahonalar o‘ylab topadilar. Bu omadi bir gap-da. Har holda oramizda shunchalar masofa yotibdi. Ijozat eting, Sizni sizlab yozayin. Shunday qilsam, o‘zimni anch o‘ng‘ay sezaman. Mabodoki, Siz bilan yana ko‘rishmoq menga nasib etsa, yuragimdagagi eng muqaddas, eng ezgu orzu-omolim shu (orzularim menga o‘z farzandlarimday bo‘lib qolganlar. Men ularni orzulab o‘stiraman. Ularsiz bir zum ham turolmayman. O‘z pusht-kamariningdan bo‘lgan bolalarni sevish, ularni xuddi orzu kabi sevish nechog‘lik baxt-saodat ekanligini yaxshi tasavvur qilaman). Bu orzular ruhning abadiy jozib va so‘ngsiz ilohiy barkamollikka umtilishidan tug‘ilganlar. Shunday kilib desangiz, o‘zim ham bilmagan holda shu orzular tufayli men yo‘qlik dag‘dag‘asiga qarshi ustivor turaman. Ehtimolki, muhabbat o‘limning ziddidir. Shuning uchun ham, tug‘ilish sinoati qatori u tiriklikning asl kaliti bo‘lsa ajabmas. Men bularni Sizga xuddi fol kabi takrorlayapman, bizga yana diydor ko‘rishmok nasib etsin deb. O‘sanda, uchrashgan chog‘imizda, Sizni xijolatga qo‘ymaslikka va’da beraman — Sizga sen deb murojaat etishga va’da beraman... Hozircha aytish kerak bo‘lgan gaplar shunchalar ko‘pki...

Inga Fyodorovna, esingizda bo‘lsa kerak, Sizning yurtingizga borishdan murod — maqola yozish edi. Maqolalarim gazetada chiqishi bilan aviapochta orqali ularni Sizga yuboraman deb, aytgan edim. Afsuski, nashavand bolalar, nasha qidirgan o‘smir yigitchalar va shular bilan bog‘liq bo‘lgan hayotimizdagи barcha qayg‘uli hodisalar haqidagi ocherklarim tez orada gazetada chiqishiga aqlim yetmay koldi. Men bizning kunlarimizda deyapman. Chunki, nasha bu yerlarda juda eski zamonlardan beri yovvoyi holida o‘sib yotadi. Bundan o‘n besh yil burun — buni o‘zingiz ham bilasiz, nega men buni sizga, o‘zi mutaxassis bo‘lgan odamga aytyapman, bilmayman, lekin ma’zur tuting, men baribir, Inga Fyodorovna, buni hikoya qilishim kerak va yana faqat Sizga hikoya qilaman va faqat yolg‘iz shugina o‘sha ishlarning hammasiga qandaydir ma’no bag‘ishlab turadi. Shunday qilib, o‘n besh yilcha burun bu battol giyohni, nashavandlar uni giyoh deb aytishadi,— chekish uchun yoki boshqa biron maqsadda yig‘ish hech kimning hayoliga ham kelmagan ekan. O‘sha yerlik odamlar shunday deyishadi. Bu ofat yaqin-yaqinlarda paydo bo‘ldi. Albatta, bunda G‘arbning ta’siri ham ozmuncha emas. Mana endi desangiz, menga qaysidir tashkilotlarga bayonot yozishni taklif qilishyapti. Hech aqlga to‘g‘ri keladimi shu gap. Tushunaman, bu masalani ko‘tarish oson emas. Yoshlar o‘rtasida,adolat yuzasidan aytib qo‘yaylik, yoshlarning ongi past qismi o‘rtasida, giyohvandlikka bag‘ishlangan o‘tkir shov-shuv tarzidagi maqola go‘yo obro‘-e‘tiborimizga putur yetkazar emish. Hammani darg‘azab qilarmish. Kulgiga qolarmishmiz. Cho‘chigan narsalarini karang. Qalbakilik emasmi bu, siyosatda tuyaqushga o‘xshab qolish emasmi bu... Oqibati haddan tashqari og‘ir ko‘chadigan bunday obro‘ning kimga keragi bor!

Bu so‘zlarni o‘qib turib, Inga Fyodorovna, voy bolasi tushmagur-ey, muncha sodda bo‘lmasa, muncha yonib-kuymasa deb, miyig‘ingizda kulib qo‘ysangiz kerak. Balki aksincha, tashvishlanib qoshlaringizni chimirgandirsiz. Rostini aytsam, bu sizga juda yarashadi. Qoshlaringizni chimirganlaringizda Sizning chehrangiz ilohiyotning mohiyatiga yetishga uringan yosh rohibllarning ruxsorlariday pok va g‘oyatda teran bo‘lib qoladi. O‘sha Iso qalliqlarining chin go‘zalligi ham ularning ilhombaxsh maftunkorligida emasmi axir. Agar men bu so‘zlarni ovozimni chiqarib va yana boshqa odamlarning oldida aytsam, unda tilyog‘lamalik qilayotganday bo‘lib qolardim. Lekin, boy aytgan edim. Sizning qoshingizda mening na kamaytirib va na ko‘paytirib ko‘rsatadigan mutlaqo xech narsam yo‘q. Va mabodo, Sizning tashvishli hayol bilan to‘lgan chehrangiz xotiramga Uyg‘onish davri san‘atining Bibi Maryamini tushirayotgan bo‘lsa, unda bu holni mening san‘at sohasidagi tajribasizligimga yo‘yib qo‘ya qoling. Ishqilib, qanday bo‘lmasin, so‘zlarimning samimiy ekanligiga ishonarsiz deb umid qilaman... Axir, hammasi shunday boshlanmadimi? Siz og‘zimdan chiqqan

birinchi so‘zimdanoq menga ishondingiz va mening hayotimda butunlay yangi bir sahifa ochdingiz...»

\* \* \*

Bugun yana maqolam yuzasidan redaktsiyaga bordim. Ahvol o‘sha-o‘sha, hech qanday o‘zgarish yo‘q, hech qanday siljish yo‘q, hech qanday yorug‘lik yo‘q. Nega mening cho‘l ocherklarimni redaktsiyada avval shod-xurramlik bilan qarshi olishdi-yu, nega endi butunlay ko‘ngillari sovidi, buni menga hech kim tuzukroq qilib tushuntirib berolmaydi. Ko‘tarilgan masalalar qanchalar muhimligini axir, oshkora tan olishgan edi-ku. Gazetaning bosh muharriri mendan o‘zini olib qochgani qochgan, koshki qo‘ng‘iroq qilib olib bo‘lsa uni, kotibasi doim band deb javob beradi — dam hay’at, dam yig‘ilish, dam yuqori chaqirgan, ular ayniqsa, mana shuni ro‘kach qilishni juda yaxshi ko‘rishadi.

Yana tanish ko‘chalardan yolg‘iz o‘zim ketib boryapman. Bu yerga chetdan kelib qolgan begonaga o‘xshayman. Go‘yo shu yerda tug‘ilmaganday, bolalikdan katta bo‘lmaganday, yuragim huvillagan, bo‘m-bo‘sh, o‘zimni yot sezaman. Gohi tanishlarim men bilan so‘rashmaydilar. Ular meni dindan qaytgan, murtad deb bilishadi, seminariyadan quvilgan, bid’atchi va hokazo va hokazo. Faqat bir narsa yuragimga harorat bag‘ishlab turadi, faqat bir o‘y doim meni o‘ziga tortadi — bu mening xatlarim. Yo‘l-yo‘lakay nimani yozishimni o‘ylab boraman. Keyingi xatimda unga qiziqarli bo‘lgan barcha narsalar haqida hikoya qilib beraman. Suyukli ayol haqida hayol surish, unga maktublar yozish hayotimning asl ma‘noiga aylanadi deb, sira o‘ylamagan edim. Qaniydi, qanotim bo‘lsa, tezroq uning oldiga parvoz qilsam, yana u bilan birinchi uchrashgan joyga yetsam. Tezroq bo‘la qolsaydi! Yurib ketyapman-u nuqul shuni o‘ylaganim o‘ylagan. Chog‘i, boshqa odamlarning boshlaridan ham shunday kunlar o‘tgandir, ular ham ma‘lum bir vaqt hayotlarining mazmunini faqat muhabbatda bilib, shundan quvonib, boshlari osmonga yetib yurgandirlar. Lekin ulardan farqim shundaki, men to o‘lguncha sevaman va hayotimning butun ma’nosi yolg‘iz shunda bo‘ladi...

Mana, xiyobonlarda yaproqlar to‘kilyapti. Axir, men yozgan narsalar yozning boshida bo‘lib o‘tgan edi-ku. Redaktsiya o‘sha kezlari mening fikrimni ma‘qullab tezroq yozishga qistar edi. Amaliy ishga kelganda, redaqtsiya o‘zini orqaga tortishi mumkinligi hayolimga ham kelmagandi. Ommaviy matbuot sahifalarida faqat o‘zimizga ma‘qul va yoqadigan, obro‘ keltiradigan, yutuqlarni umumlashadiradigan narsalariniga yozish kerak, degan g‘alati odat bunchalar kuchli ekanligi hakida o‘ylamagan ekanman.

O‘sha kunlari butun fikru zikrim janub o‘lkalariga qiladigan safarim bilan band edi. Rossianing ichkarisida tug‘ilib-o‘sganim uchun u notanish yerlar menga juda jozibali ko‘rinardi. Borsam, nashavand choparlarning biri bo‘lib, ularning maxfiy to‘dalariga qo‘shilib boraman, deb ko‘nglimga tugib qo‘ygan edim. Chetdan turib kuzatish bilan bunda hech narsaga erishib bo‘lmashdi. To‘g‘ri, yoshim nashavand choparlardan ko‘ra sal kattaroq, lekin tashqaridan qaraganda, shubha uyg‘otadigan darajada emasdi. Redaktsiyadagilar, agar eski jinsi bilan to‘zigan krossovka kiyib olsangiz, buning ustiga soqolingizni ham oldirib tashlasangiz, sizni o‘sha jo‘n bolalardan sira ajratib bo‘lmaydi deyishdi. Bo‘pti, dedim-da, soqolimni qirdirib tashladim. Hech qanday yon daftar tutganim yo‘q. Xotiramga ishondim. Men qanday bo‘lmasin, ularning ichlariga kirib olishim, bu yo‘Iga bolalarni nimalar boshlaganligini aniqlashim, pul topish va savdo-sotiordan o‘zga yana nima ularni bunchalar mashg‘ul qilib qo‘yganligini bilishim kerak edi. Men bangilik hodisalarini shaxsiy, ijtimoiy, oilaviy, qolaversa, psixologik holatlarini ichdan turib o‘rganishim zarur edi.

Shunga qarab, hozirlik ko‘rdim. May oyi edi. Nasha may oyidan gulga kiradi. Shundan boshlab uning gulini terish uchun maxsus odamlar Mo‘yinqum va Chu cho‘llari sari otlanadilar. Bularning hammasini menga shahrimizdagи maktablardan birining tarix o‘qituvchisi Viktor Nikiforovich Gorodetskiy degan tanishim hikoya qilib berdi. U bilan ikkimiz bir bog‘dan, bir tog‘dan deganday suhbatlashib o‘tirganlarimizda, hazillashib meni ota Avdiy deb chaqirardi. Uning yoshi ham mendan unchalar katta emas, opam Varvara bilan tengqur edi. Viktor Nikiforovichning bir jiyani bo‘lib,

tug‘ilganda unga o‘zi Pasha, Paxom deb ot qo‘ygan ekan. Ana shu Pashasi tushmagur boshi og‘ib nashavandlar to‘dasiga tushib qolibdi. Buni keyinroq bilishgan. Na ota-onasi va na Viktor Nikiforovichning xabari bo‘lgan.

Bir kuni Pasha ota-onasidan Ryazanga, bobomning oldiga borib kelaman deb, ruxsat so‘rabdi. Bobosining oldiga tez-tez borib turarkan. U jo‘nab ketgandan so‘ng besh kunlar o‘tgach, Viktor Nikiforovich Qozog‘istonning juda uzoq bir bekatidan yo‘l nazorat prokuraturasining tergovchisi Jaslibekovdan telegramma olibdi. Telegrammada, sizning jiyaningiz temir yo‘lda jinoiy tarzda nasha olib ketayotganda qo‘lga tushdi, qamoqda o‘tiribdi, deb xabar qilingan edi.

Viktor Nikiforovich Jaslibekov nega bolaning ota-onasiga emas, unga telegramma yuborganligini darrov sezgan. Pasha haddan tashqari qattiqko‘l otasidan qo‘rqan. Viktor Nikiforovich darhol Olmaotaga uchgan, u yerdan poezdga tushib, bir kecha-kunduz yo‘l yurib, o‘sha cho‘l bekatiga yetib borgan. Qarasa, Pashaning ahvoli juda chatoq. Maxsus qonun bo‘yicha u darhol sud qilinishi, kamida uch yilga kesilishi va. kamoq muddatini og‘ir sharoitli koloniyada o‘tkazishi kerak ekan, Jinoyat isbotlangan — ish sudga tushishi tayin edi. Viktor Nikiforovich afsuslanibdi, jiyaniga bo‘lar ish bo‘libdi, endi iloj qancha, attang, deyishdan boshqa chora yo‘q, jinoyat qilgandan keyin jazosini tortasan deb tushuntirishga urinibdi. O‘zini qanday tutish, sudga nima deb javob berish kerakligini tayinlabdi. Ota-onangga o‘zim tushuntiraman, koloniyaga borib xabar olib turaman, deb yupatibdi. Jaslibekov tog‘a-jiyanning hamma gap-so‘zlarini eshitib o‘tirgan ekan. U birdan shunday deb qolibdi:

— Viktor Nikiforovich, agar jiyaningiz bu jinoiy ishga boshqa hech qachon qo‘l urmayman, deb aytsa va siz uni kafillikka olsangiz, men ham mas’uliyatni o‘z ustimga olib, uni qo‘yib yuboraman. Menimcha, bu bolani to‘g‘ri yo‘lga solish sizning qo‘lingizdan keladi. Agar u yana bir marta nasha bilan qo‘lga tushsa, xuddi og‘ir jinoyatchiday qamaladi. Ana endi, o‘zingiz hal qiling.

Viktor Nikiforovich xursand bo‘lib ketib, Pashani kafolatga oladi. Jaslibekovga nima deb minnatdorchilik bildirishni xam bilmaydi. Jaslibekov esa bunday deydi:

— Sizdan, Viktor Nikiforovich, bir iltimosim bor. O‘z turgan joylaringizda bizga yordam berishingizni so‘rayman. Matbuotda shu ishlarni jiddiy ko‘tarib chiqilsa, juda yaxshi bo‘lardi. Siz axir muallimsizku. Biz ro‘y bergen yoki ro‘y berayotgan jinoyatlarga qarshi kurashamiz. Lekin, mana bunaqa ona suti og‘zidan ketmagan bolalarni bu kimsasiz ovloq cho‘llarga, aynigan kimsalar, ashaddiy jinoyatchilar orasiga kimlar, qanday qilib jo‘natayotganlarini bizlar bilmaymiz. Axir, biz bu o‘smirlarni sudga beryapmiz, sud qilishga majbur bo‘lyapmiz. Siz darrov yetib kelganingiz soz bo‘ldi, menga yordam berdingiz. Aksar qarindosh-urug‘lar — ular ko‘pchilik — umuman, kelishmaydi. Keyin o‘n besh yashar bola og‘ir sharoitli koloniyaga tushadi. Koloniyada nima bo‘lardi deysiz? Nimani o‘rganishardi u yerda? Tuban, hech narsaga yaramaydigan nobakor bo‘lib chiqishadi. O‘zingiz bilasiz, Viktor Nikiforovich, majbur bo‘lamiz turmaga o‘tqazishga. Odamning joni kuyadi bu ishlarni ko‘rib. Ishonasizmi, o‘tgan mavsumda faqat bizning bo‘limimizning o‘zida yuzdan ortiq o‘smirni sud qildik. Qo‘lga tushmaganlari, ko‘zimizni shamg‘alat qilib qochganlari qancha deng. Ular son-sanoqsiz. Kelaverishadi. Arxangelskdan tortib Kamchatka tomonlardan kelishadi xuddi baliq urug‘laganday. Oxiri bormi axir buning? Hammani qamab bo‘lmaydi-ku. Ular nasha yig‘ishning miridan-sirigacha ishlab chiqishgan. O‘zlarining yo‘l boshlovchilari bor — ba’zilari shu yerliklar, ba’zilari boshqa joylardan — ular bolalarni nasha ko‘p o‘sgan joylarga boshlab borishadi. Biz ularni ham sud qilamiz. Ular poezdlarni nima qilayotganliklarini bilasizmi? Passajir poyozdiga chiqishmaydi. Yuk poezdlarini to‘xtatishadi. Passajir poezdda ularni darrov ushlab olishadi. Ular qandaydir bir maxsus dori topishadi. Shuni kechasi relslar, shpallar ustiga sepib chiqishadi. Uzoqdan poezdning chirog‘i tushganda, shu sepilgan narsa xuddi yonayotgandek, yo‘l, shpallar, relslar alanga ichida qolgandek tuyuladi. Albatta, haydovchi sostavni to‘xtatadi. Cho‘lda nimalar bo‘lmaydi deysiz. Chopib pastga tushadi. Qarasa, tinchlik, hech narsaga o‘t ketgan emas. Nashavandlar bo‘lsa, shu fursatdan foydalanib, sumkalari, jomadonlari, qoplarini ko‘tarib vagonlarga chiqib oladilar. Hozirgi sostavlarni bilasiz, bir chaqirimlab cho‘zilib ketadi. Ming qaragan bilan foydasi yo‘q. Ular poezdga chiqqach, katta bekatgacha borib

oladilar. U yerda esa yo'lovchilar ko'p! Kimning kimligini bilib ko'ring-chi! Rost, keyingi yillarda militsiya maxsus o'rgatilgan itlar boqyapti. Ular nashani hididan topadi. Sizning jiyaningizni ham itlar ushlab berishdi...

Viktor Nikiforovich o'sha yerda yana boshqa ko'p gaplarni ham eshitibdi. Bularning hammasini menga u aytib berdi. Lekin o'zim ham taxminan shunday bir gapga ich-ichimdan yetilib qolgan edim. O'zimga tengqur yoshlarning aql va yuraklariga hech kimning hayoliga kelmagan bir yo'l topsam deb, ich-etimni yeb yurardim. Ularni men ezgulikka chorlashim kerak derdim. Zimmamga yuqorida xuddi shu narsa yuklatilganday edi. Shunday o'yab, ehtimol, o'zimga o'zim ortiqcha baho berib yuborgandirman. Lekin har qalay, nima bo'lmasin, chin yurakdan shunday qilishni istardim. Balki buni ijtimoiy kelib chiqishim yuzasidan tushuntirish mumkindir. Kim bilsin yana. Men ayrim maqolalarimda, garchi umumiyroq tarzda bo'lsa-da, ichkilikning yoshlarga halokatli ta'siri haqida to'xtalgan edim. G'arbning fojiali tajribalari asosida giyohvandlik xususida ham shunga yaqinroq narsalarni yozgandim. Lekin bularning hammasini yo boshqalardan eshitgan va yo kitob-gazetalardan o'qigandim. Yoshlar va ayniqsa, o'smirlar o'rtasida tarqalayotgan, ko'p qayg'uli oqibatlarga olib borayotgan, hammaga ma'lum, shu bilan birga ko'plar vabodan qo'rqqanday nomini aytishga qo'rqedigan giyohvandlik hodisalari — shaxsning o'z-o'zini yemirishidan tortib, to qyinoqqa solib o'ldirishlarigacha — o'zimning o'ylarim va kechinmalarim aks etadigan yorqin, ta'sirchan material tayyorlash uchun muammoni ichidan barcha tafsilotlari bilan ochib beradigan bilim yetishmayotgan edi. Buni qarangki, shu asnoda, bunday voqealar bilan shaxsan o'zi to'qnashgan Viktor Nikiforovich Gorodetskiy menga barcha boshidan kechirganlari, o'y-hayollarini so'yab berdi. Pashani nashavand ulfatlardan ajratib olish uchun ota-onas, aka-uka, butun xonodon uylarini kichikroq, lekin boshqa shahardagi kvartiraga almashtirib ko'chib ketishga majbur bo'ldilar. Bularning barini Viktor Nikiforovich kuyunib, xafa bo'lib hikoya qildi.

Shu-shu ko'nglimga tukkan ishimga dadil kirishdim.

\* \* \*

Men Moskvaga keldim. Bu yerdan, Qozon vokzalidan nasha o'sadigan cho'llarga jo'nashim kerak edi. Gap shundaki, xuddi mana shu Qozon vokzalida o'smirlarning nashaga boradigan choparlari,— ha, ular nasha yiqqani boradigan bolalarni chopar der edilar,— to'da bo'lib oladilar. Keyin bu narsani o'z ko'zim bilan ko'rdim. Choparlar Shimol hamda Boltiqbo'yining turli shaharlaridan, ayniqsa, Arxangelsk bilan Klaypedadan ko'p kelishardi. Chamasi, bu shaharlarda nashani yo'lga chiqayotgan dengizchilarga pullash qulay bo'lsa kerak. Nashavand choparlarning izlariga tushish uchun men Qozon vokzalida Utyug yoki Utya laqabli ko'kragiga sakson yottinchi raqam osgan yuk tashuvchini topishim, unga eski bir tanishidan salom yetkazishim lozim edi. Tanishining nomi bizga Pasha orqali ma'lum edi. Utyug patta kassalarini yaxshi bilar — andak muzd evaziga yo'lda ketishni ta'minlar edi. Lekin, kim shunday qiladi bilolmadim, undan boshqa yana kimdir shu ishlarni maxfiy boshqarib turishi aniq edi. O'sha Utya bolalarning hammasiga bir poezdga patta topib, ularni har turli vagonlarga joylab, jo'natishi kerak edi. Nashavand choparlar bilan yaqinroqdan tanishib shuni bilib oldimki, nasha olib kelish uchun boradiganlar avvalo, mabodo qo'lga tushib qolsalar, miq etib og'iz ochmaslik, bir-birlarini sotmaslik uchun so'z berar ekanlar. Shuning uchun ular odamlar ko'z o'ngida o'zaro kam gaplashar ekanlar.

Shunday qilib, mana, Moskvaga ilgari kelgan-ketgan paytlarimdan yaxshi tanish uch vokzal maydonidaman. Odam ko'p. Ayniqsa, metro bilan vokzalning o'zi tiqilinch, o'tish mahol. Shuncha odam qaerdan kelyapti, qaerga ketyapti — girdobga tushgan cho'pdek chirpirak bo'lib aylanadi bu uch vokzal maydonida. Lekin baribir men Moskvada yurishni, shahar markaziga, sal kenglikka chiqib olgach esa, ko'chalarda tentirash, eski kitob do'konlarida ivirish, afisha va turli e'loularni o'qishni, ilojini topsam, yana Tretyakovka yoki Pushkin muzeyiga borishni juda sevardim.

Bu safar elektrichkadan Yaroslavskiy vokzalida tushib Qozon vokzali tomon odamlar izdihomni ichra o'tib borarkanman, bir fikr miyamdan o'tdi. Buni qarang, ilgari o'zimga o'zim xo'jayin ekanman. Kamsuqum xohish-istiklarim o'zimga tobe, zimmamda hech qanday yuk yo'q, hech qanday istashvish vaqtimni band qilmaydi. Moskva ko'chalarida qancha xohlasam va qanday xohlasam, shunday tentib, o'ynab yuraman. Bundan ortiq bo'lishi mumkinmi, axir. Xo'p, zamonlar ekan-da, o'sha zamonlar. Hozir esa, chumolining uyasidek, odamlar g'ujg'on o'ynab yotgan ulkan Qozon vokzalida ko'krigiga sakson yettinchi raqam osgan Utyug laqabli aloqachi va yuk tashuvchini zudlik bilan topishim kerak. Oh, Xudoyim, buning raqami sakson yettinchi bo'lsa, Qozon vokzalida unga o'xshagan arava sudraganlarning o'zi qanchaykin, yuzdan kam emasdir har holda. Chindan ham, bu izdihom ichidan uni topish oson bo'lma-di. Yarim soat vaqt sarflab yuk tashuvchilar yuradigan hamma joylarni aylanib chiqdim. Nihoyat, uni Toshkentga jo'nayotgan poezd perronidan topdim. Utyug allakimning yuklari — jomadonlari va qutilarini aravadan vagonga jadal ortib berar, dam-badam provodniklar bilan xazil-mazah qilar, o'ziga juda yoqsa kerak, vokzallarda keng tarqalib ketgan bitta maynavozchilikni hadeb takrorlardi: «Pulim bor — Qozonga boraman, pulim yo'q — Chashmaga boraman». Men bir chekkada uning bo'shashini, yo'lovchilar vagon-vagonlarga joylashib, kuzatib kelayotganlar esa sostav bo'yab kupelarning oynalari qarshisiga tarqalishlarini kutib turdim. Nihoyat, u olgan choychaqasini cho'ntakka suqqancha, harsillab chiqib keldi. Devdek malla yigit ekan, ko'zlar to'rt tomonga alanglab turadi. Sal bo'lmasa ishning iachavasini chiqarib qo'yay debman. Unga sizlab so'zlashim, ustiga-ustak, bezovta qilga nim uchun uzr so'rashimga oz qoldi.

— Bormisan, Utyug, ishlaring qalay? — dedim iloji boricha o'zimni beparvo va betakalluf tutib.  
— Ishlarimiz xuddi Polsha. Ot-arava kimniki — panniki, — meni xuddi yuz yildan beri taniydigian odamday chechan javob berdi u.

— Pan o'zing ekansan-da, — dedim unga aravasini ko'rsatib.  
— Bo'lmasam-chi! Biz ham og'ayni, bilamiz pulning sassig'iga chilolmayotganlarni. O'zing nima qilib yuribsan, chavag'im? Oborib qo'yaymi yuk-puking bo'lsa, yo nima deysan? Xo'sh!  
— Oborib qo'yish o'zimning ham qo'limdan keladi, — hazil qildim. — Senda ishim bor.  
— Ayt, nima ish ekan.  
— Bu yerdamas. Sal chetga o'taylik.  
— Yur unda, chavag'im, nariroq boraylik.

Uzun perrondan o'tib, vokzal binosiga qarab yurdik. Toshkent poezdi jildi, yonimizdan qator-qator oynalaru oynalarga burnilarini tiragan basharalar o'ta boshladi. Qo'shni yo'lga allaqaydan boshqa sostav kelib to'xtadi. Poezdlar saf-saf turishar, odamlar shoshilishar, yugur-yugur qilishar, radiokarnaydan dam sayin kelayotgan va jo'nab ketayotgan poezdlarni e'lon qilishardi.

Vokzal binosiga yetganimizdan so'ng, Utyug aravasini burchakka burdi, bu yerda hech kim yo'q edi, atrofga sarasof tashladimda, unga Pashka aytgan odamning duysi salomini yetkazdim. Uning oti Igor bo'lib, choparlar o'rtasida Morj laqabi bilan tanilgan edi. Nega Morj ekanligini bir Xudoning o'zi biladi.

— Morjning o'zi qani? — so'radi Utyug.  
— Yetib keladi, — javob berdim. — Ichakdag'i yarasi qiyab yubordi bechorani.  
— O'zim aytuvdim-a, — achinib peshanasiga urdi Utyug. Bir chekkasi aytgani to'g'ri chiqqanidan mammun ham edi. — Unga aytganman, chavag'im, o'tgan gal aytganman, tentaklik qilma, deganman. Avval o'zingga boq, keyin nogora qoq. Ekstraga zo'r berayotgan edi, beli sinadida. Ichak chaqa bo'lmay, men chaqa bo'laymi shundan keyin.

Men achinib qulq solganday bo'ldim. Lekin ochig'i, ekstra degani nima — aroqmi yo boshqa narsa — bilmasdim. Ammo Xudoga shukur, undan buni so'rab o'tirmadim. Keyin bilishimcha, ekstra degani nasha changidan qilingan mum-saqich ekan. U xuddi plastilinga o'xsharkan. Nashadan olinadigan eng qimmatli narsa ana shu ekan (men plastilin haqida Viktor Nikiforovichdan eshitgan edim). U qoradoriga ham o'xshaydi. Kimyogarlik tajribaxonalarida ekstra geroinga o'xshash

suyuqlikka aylantirilishi mumkin. Bunga Morjga o'xshaganlar yo boshka chavaq nashavand choparlarning qurbi yetmaydi. Lekin juda ko'ngillari tusab qolsa, ekstrani tillari tagiga tashlab so'rish, chaynash, aroqqa qo'shib ichish, nonga qo'shib yeyish qo'llaridan keladi. Ular ekstraga xumor bo'lsalar, miyamizni bir chalg'itaylik, deydilar. Lekin eng qo'lbolasi — nashani chekish. Bunda ham har kim o'z holiga yarasha: kim tozasini chekadi, kim tamakiga qo'shib aralashtiradi. Chekkanda ham miya ancha chalg'iysi. Lekin bunda nashanining kayfi boshqa usullarga qaraganda tezroq tarqaydi.

Bularning hammasini va yana nashavand choparlar hayotiga oid boshqa ko'p narsalarni men «Xalxingol»ga borganimda asta-sekin bilib oldim. «Xalxingol» deb o'sha nasha o'sadigan joylarni aytisharkan. «Xalxingol»i qursin, sal bo'lmasa, chuv tushay debman.

— Sen ham chavag'im, «Xalxingol»gami? — so'radi Utyug gap orasida. Oldin tilim tutilib qoldi, tushunmadim «Xalxingol» deganiga, keyin birdan farosatim ishlab ketdi:

— Shunday desak ham bo'ladi. Umuman olganda menga bu...

— Unda gap bunday. Bilet to'g'risida chavag'im, tashvishlanma. Hammasi joyida. Qolgan gaplarni o't-mo't olib kelganlaringda Dogning o'zi hal qiladi. Bu mening ishim emas.

Bizga biletlar olib beradigan Dogning kimligi, u nimani hal qilishini men bilolmadim, oxirigacha ham buni aniqlay olmadim. Lekin Utyug bilan o'rtamizdag'i gap-so'zdan «Xalxingol»ga bugun emas, ertaga yurishimizni bildim. Ma'lum bo'lishicha, hali barcha choparlar yetib kelishmagan. Murmanskdan ikki chopar tungi poezd bilan keladi. Yana bittasi, qaerdan ekan bilmayman, ertalab shu yerda bo'ladi. Lekin endi bularning menga sira daxli yo'q. Bir kun ham harna Moskvada turganga ne yetsin.

Ertaga tayinlangan vaqtga Qozon vokzaliga keladigan bo'ldim (kelsam-kelmasam, baribir, shu vokzaldan bo'lak yotadigan joyim yo'q). Men bilan xayrlesharkan, Utyug giyoh soladigan yukxalta va yelim paketlaring bormi deb so'radi. Jomadonimda yukxalta va paketlar bor edi. U, magazinlarni qara, agar qopqog'i maxkam, zikh yopiladigan shysha yoki plastmassa quticha topsang, sotib ol, o'shangan nashanining shirasini yig'asan, dedi.

— Shalpangquloq bo'lma. Juda qiyin ish-ku, lekin bir ozgina shirach to'pla, — deb shipshidi u. — O'zim hech bormaganman, lekin ko'p eshitganman. Shu yerda bir Lyoxa degani bor. Ikki marta safar qilib keldiyu, darrov «Jiguli» oldi. Moskvada maza qilib yuribdi, shataloq otib... Odam uzog'i bilan o'n kungina qiynaladi, xolos...

Shundan so'ng har qaysimiz o'z yo'limizga ketdik. Men jomadonimni saqlash joyiga topshirdimda, Moskvani aylangani otlandim.

May oyi oxirlab qolgan. Yoz boshlanishi oldida Moskva juda boshqacha bo'lib ketadi. Unday desam, kuz-chi, havo behad musaffo, yaproqlarning tillarang shu'lalari hatto odamlarning ko'zlarida aks etadigan erta kuz pallasi ham mislsiz chiroyli. Lekin, men ko'proq yozga kirib borayotgan Moskvani yaxshi ko'raman — uning kunduzgi ko'chalari gashtli, sutday oppoq kechalari gashtli, bunday chog'larda shaharning o'zi ham, shahar uzra yulduzli osmon ham to tongga qadar tun yog'dusi shu'lalariga cho'milib yotadi.

Men vokzaldan tezroq toza havoga chiqmoqchi edim, lekin shahar markaziga metroda borish qulayligini esladimu, yana odamlar oqimiga qo'shildim. Hali kechki tiqilinchga vaqt bor. Ko'z o'ngimda qorong'ulik va yorug'lik lipillab o'tarkan, markazga bemalol yetib oldim. Sverdlov maydonida o'zim yaxshi ko'radigan bog'chaga qaradim. Bog'cha xuddi so'lim orolga o'xshaydi. U ko'm-ko'k yashnab yotadi, atrofida mashinalarning tinimsiz oqimi va zikh qurshab kelayotgan g'uj binolar. Men beixtiyor yo'lovchilar to'lqiniga qo'shilib, Manej tomonga yurdim. Biron ko'rgazma ochilgan bo'lsa ko'raman, dedim. Ammo Manej berk ekan. Shundan so'ng eski universitet binosi oldidan, Pashkov uyidan o'tib, Valxonkaga va undan Pushkin muzeyiga bordim. Negaligini bilmayman.. Lekin dilim juda osuda va farahli edi. Balki bu hali tiqilinch boshlanmagan Moskva markazining ko'chalardanmikin yoki balkim, shaharning bu qismi uzra go'yo nuramas tog'tizmalariday yastanib turgan Kremlning g'ishtin devorlari tashlagan soyalardanmikin, ruhimga ajib bir

farog‘at yog‘ilardi. «Nimalarni ko‘rmagan bu devorlar va hali yana nimalarni ko‘rmaydi?» deb o‘ylardim. Ko‘chalarda o‘zidan-o‘zi yopirilib kelayotgan hayollarga berilib ketib, soqolimni kuni kechagina qirib tashlaganimni ham unutib, o‘zim sezmagan holda to‘xtovsiz yalang‘och iyagimni silardim. Shunda Qozon vokzalida uya qurib olgan kulfatning siriga yetmoqchiligidagi ham vaqtincha esdan chiqardim.

Yo‘q, har qalay, taqdir degan narsa bor, yaxshilik ham undan, yomonlik ham. Pushkin muzeyi tomon borarkanman, omadim yurishganini qarang, hech hayolimga kelmagan ish bo‘ldi. Men muzeyda jillaqursa, yangi ekspozitsiyalarni ko‘rman deb, niyat qilgandim. Agar u ham bo‘lmasa, zallarni yana qayta aylanib chiqaman, ko‘p narsalarni esimga tushiraman, taassurotlarimni yangilayman, degandim. Buni qarang-ki, muzeyga kiraverishda, bog‘cha oldida qiz bilan yigit ro‘paramdan chiqishdi-da, meni to‘xtatishdi:

— Menga qara, oshna, senga bilet kerakmasmi? — dedi yaltiroq ko‘k galstuk taqqan, oyog‘iga malla tuqli kiygan va tuflisi oyog‘ini qisayotganligi shundoqqina ko‘rinib turgan allakim.

Har ikkovlari ham juda zerikib ketganga o‘xshardilar, basharalaridan betokatlik aks etardi.

— Nima, biletlar yo‘q ekanmi? — deb so‘radim navbat gurgan biron kimsa yo‘qligini ko‘rib.

— E, yo‘q, bu kontsertga. Faqat ikkalasini olasan.

— Qanaqa kontsert? — so‘radim yana.

— Kim biladi deysan, cherkov xori deyishyapti.

— Muzeyda-ya? — hayron bo‘ldim.

— Olasanmi, yo‘qmi? Ikkita bilet uch so‘m, ol.

Men ikkala biletni oldimu muzeyga shoshildim. Pushkin muzeyida kontsertlar qo‘yilishini eshitmagandim. Administratordan so‘rab bildim. Keyingi vaqlarda muzey qoshida klassik muzika lektoriysiga o‘xhash bir narsa tashkil etilgan ekan, ko‘proq mashhur muzikantlar tomonidan kamer kuylar ijro qilinarkan. Bu safar — vo ajabo — Italian sahni deb atalg‘an zalda eski bulg‘or ibodat kuylar kontserti bo‘larkan. Hatto tushimga ham kirmagan edi bu! Nahotki, slavyan ibodat muzikasining otasi Ioann Kukuzel ijro etilsa? Afsuski, administrator xotin tafsilotlarini aytib berolmadidi. Hurmatli mehmonlar kutilyapti, bolgar elchisi kelsa ajab emas, dedi u. Menga bularning hech kanday aloqasi yo‘q edi, baribir, xursand bo‘lganimdan to‘lqinlanib ketdim. Bulg‘or ibodat kuy-qo‘schiqlari haqida ilgari otamdan eshitgan edim. Buni qarang endi — shunday ajoyib tortiq, yana xatarli safar oldidan. Kontsert boshlanishiga yarim soat vaqt qolgan. Men muzeyni aylanib o‘tirmadimda, o‘pkamni bosib olay deb, toza havoga chiqdim.

Oh, Moskva, Moskva! Moskva-reka yaqinidagi yetti katta balandlikning biri, may oyining oxirlari! Yuragingda g‘ubor yo‘q, borliqda muvaqqat uyg‘unlik hokim, ana shunda shahar juda serfayz va hamma narsa juda ma’nodor bo‘lib ko‘rinadi. Ko‘kragimni to‘ldirib, chuqur-chuqur nafas olar, osmon tiniq, yer-havo — mo‘‘tadil, men muzey oldidagi bog‘ning cho‘yan panjarasi bo‘ylab nari borib-beri kelardim.

Kutadigan hech kimim yo‘qligidan o‘kinardim. Ehtimol, cho‘ntagimda ikkita biletim borligi uchun shunday o‘ksingandirman. Kaniydi, u hozir kelib qolsa, bu qanchalar tabiiy va ajoyib bo‘lardi-ku. Unga ko‘chaning narigi betida xurganida ko‘zim tushadi, ishqilib, kechikib qolmay deb, ko‘chaning bu tomoniga o‘tmoxchi, u shunchalar go‘zal, shunchalar tentak va ehtiyoitsiz, men uni deb qo‘rqaman, yuragim hovliqadi, hapriqadi, unga zo‘r berib, hayajonlanib ishoralar qilaman, shoshma, o‘tmay tur, hovliqma deyman,— ana, ko‘ryapsanmi, mashinalar kelyapti, odamlar ko‘p hamma yoqda, lekin yolg‘iz sen, sen mening baxti-iqbolimni o‘zing bilan birga olib yurasan, deyman. Shunda u menga qarab tabassum qilib qo‘yadi, axir u yuzimga qarab, yuragimdagagi barcha so‘zlarimni uqib olardida. O‘shanda men undan oldinroq ko‘chaning narigi betiga uning oldiga chopib o‘taman, men o‘zim uchun qo‘rqmayman, chaqqonligimni bilaman, chopib o‘tib shartta uning qo‘llaridan ushlab olardimda, ko‘zlariga termulib qarardim. Nima uchundir shu manzaralarni ko‘z o‘ngimga keltirarkanman, haqiqatan ham, yuragimda muhabbat intazorligini his qildim va nechanchi marotaba peshonamga

yozilgan suyukli qizni hali-hanuzgacha uchratolmaganligimni o‘yladim. Lekin o‘sha menga atalganning o‘zi bormikin, buni men o‘zimcha to‘qib chiqarmadimmikin va juda oddiy narsalarni chigallashtirib yurmaganmikinman? Bu haqda men ko‘p o‘ylardim va har gal hammasiga o‘zim aybdorman deb, o‘kinar, ma’yus tortardim,— yo haddan ortiq ko‘p narsalarni kutyapman yoki, menda qizlarni o‘ziga tortadigan hech narsa yo‘q. Har holda tengqurlarim bu borada mendan ko‘ra omadliroq va ko‘ngilning ko‘zini biladiganroq odamlar chiqishdi. Diniy seminariya yosh ko‘ngilning o‘z xohishiga qarab yashashga yo‘l qo‘ymasdi, deb bahona qilishim mumkin edi. Lekin seminariyadan ketganimdan keyin ham, men bu borada biron-bir muvaffaqiyatga erishganim yo‘q. Nega? Agar hozir men sevishni istagan odam chindan ham bu yerga kelib qolsa, unga hammadan burun bunday derdim: yur, birga-birga ibodat musiqasini tinglaymiz va o‘zimizni shu musiqadan topamiz. Lekin, keyin meni shubhalar kemira boshlaydi: mabodo, bularning bari unga g‘oyatda zerikarli va tussiz ko‘rinsa, unchalar tushunmasa, ana unda nima bo‘ladi? Axir, ibodatxona ichidagi ibodat, samo musiqasi boshqa, oddiy binoning oddiy zalida ne turfa odamlar ichida aytilgan kuy-qo‘sish boshqa. Chunonchi, Bax xorallarini fizkultura maydonida va yoki jo‘shqin marshlarga odatlanib qolgan avia-desantchilar kazarmasida ijro etilgandek taassurot qolmasmikin?

Pushkin muzeyiga yaltir-yultir mashinalar kelib to‘xtay boshladi. Hatto bitta inturist avtobusi ham keldi. Vaqt bo‘lganga o‘xshaydi. Italian zaliga kiraverishda odamlar to‘dalashib turishardi. Kishilar jam holida bir narsani kutayotganlarida shunday tuyuladi. Kimdir ortiqcha bilet yo‘qmi, deb so‘radi. Men ortiqcha biletimni o‘ziga yarashmagan ko‘zoynak taqqan talaba yigitga berdim. Keyin pushaymon qildim. U odamlar o‘rtasida cho‘ntagidan barcha tanga-chaqalarini chiqarib sanashga tushdi. Tangalar qo‘lidan yerga to‘kila boshladi. Men, bo‘ldi, bas qiling, bu biletni menga sovg‘a qilishgan edi, mendan sizga tuhfa desam ham, hech qo‘ymaydi, nihoyat, zalga kirib borayotganimizda tangalarni bir hovuch qilib kurtkamning cho‘ntagiga tashladi. Rost, pulim oshib-toshib yotgani yo‘q, o‘z kunimni o‘zim bir amallab ko‘rib yuribman. Lekin shunday bo‘lsa ham har holda... Poytaxt odamlari kontsertga mos kiyinganlarini ko‘rib, yana bir hijolatga tushdim. O‘zim siyqasi chiqqan jinsi, oldi ochiq kurtka, beo‘xshov boshmoq kiyib olgan, buning ustiga soqolim qirdirilgandi. Bunga esa sira ko‘nikolmas, xuddi bir narsamni yo‘qotib qo‘yganday edim. Men o‘zim bilmagan uzoq, noma’lum o‘ljaga, nashazor cho‘llarga otlangan, hamrohlarim esa allaqanday xudobexabar bangi choperlar... Lekin bular bari hatto gapirib o‘tirishga arzimaydigan mayda-chuyda narsalar...

Ikki qavatlri yuksak italyan sahnidagi barcha ko‘rgazmalar, chamasi, o‘z joyida turar, faqat zalning o‘rtasiga bir-biriga zinch qilib stullar ko‘yilgandi. Biz ana shu stullarga o‘rnashdik. Qarshimizda na sahna, na mikrofon, na parda — bunaqa narsalar yo‘q. Zalning to‘r tomoniga chekkaroqqa o‘rtacharoq kattalikdagi minbar o‘rnatalgan. Ikki daqiqalardan so‘ng barcha joy-joyiga o‘rnashib bo‘ldi. Eshik oldida yana bir necha odamlar to‘dalanib koldi. Aftidan, zaldagilarning ko‘pchiligi bir-birlarini tanishsa kerak, hammalari chaqchaqlashib o‘tirishardi. Faqat men jimgina hayol surar, o‘zim bilan o‘zim ovora edim.

Lekin mana, nihoyat, yon tomondagi eshikdan ikki ayol chiqib kelishdi. Ulardan biri — Pushkin muzeyining xodimasi, ikkinchisini — Sofiyadagi Aleksandr Nevskiy jomesi muzeyidan kelgan bolgar hamkasabasini tanishtirdi. Zalda g‘ovur-g‘uvur tindi. Sochlari silliq taralgan, yaxshi tuqli kiygan, oyoqlari g‘oyatda chiroyli, negadir shunga e’tibor berganimni ko‘ring, sipo va yosh bolgar ayol kattakon qora ko‘zoynak ustidan zalga vazmin bir nigoh tashladi-da, salomlashdi, so‘ng tuzukkina rus tilida muxtasar ma’ruza qildi. O‘z muzeylarida cherkov me’morchiligining bebafo yodgorliklari, qadim qo‘lyozmalar, sanam chizish san’ati namunalari hamda eski kitobatchilik tarixi asarlari bilan bir qatorda o‘rta asr cherkov muzikasini ham targ‘ib qilayotganliklarini so‘ylab berdi. Ular jomening tagida joylashgan pastki qavatlarida — buni kript deyishar ekan,— kechki kontsertlar uyuştirishib, ularda tirik eksponatlarni qatnashtirisharkan. Xonim shunday degach, tabassum qilib qo‘ydi. Pushkin muzeyining taklifiga ko‘ra «Kript» kapellasi mana endi Moskvaga mehmonga kelibdi.

— So‘raymiz! — deb taklif qildi u ichkaridagilarni zalning qarsaklari ostida.

Qo'shiqchilar shu yerda turishgan ekan. Ular biz kirib kelgan eshikdan zalga o'tishdi. Ular jami o'n kishi edilar. Bor-yo'g'i o'n kishi. Hammalari navqiron, men bilan bir yoshdagagi yigitlar. Hammalari bir xilda kontsertbop qora kostyumda, oppoq yoqalarida qotirma kapalak galstuklar, qora botinka. Na cholg'u asboblari, na mikrofon-lar, na ovozni kuchaytirib beradigan uskunalar, na maxsus sahna va na ko'zni qamashtiradigan rango-rang chiroqlar. Faqat zaldagi chiroqlarning yorug'ligini bir ozgina pasaytirishdi, xolos.

Nazarimda, bu yerga kapella haqida tushunchaga ega tinglovchilar yig'ilgan, lekin negadir baribir qo'shiqchilar uchun qo'rqib ketdim. Ozmuncha odam yig'ilganmi? Buning ustiga bizning yoshlarimiz baqiroq elektron ovozlarga o'rganib qolishgan — qo'shiqchilar jang maydonida quolsiz qolgan askarlarga o'xshardilar.

Ular yelkama-elka yarim doira yasab turishdi. Chehralari osuda, serdiqqat, o'zlariga ishonch barq urgan. Yana bir qiziq narsani ham payqadim — ularning hammalari negadir bir-birlariga xuddi quyib qo'ygandek o'xshardilar. Yuraklari shu tobda bir tashvish, bir intilish, bir maqsad bilan urayotganligi boisidan shunday ko'rinsa kerak.

Bunday paytlarda boshqa narsalar, hatto har birining hayotidagi eng muhim narsalar ham orqaga chekinadi, ular xayoldan mutlaqo chi-qarib tashlanadi — bu jangga kirishdan oldin hamma g'alaba qozo-nishni o'ylaganday gap.

Bu orada boyagi bolgar juvon kontsert boshlanmasdan burun qora ko'zoynagidan bizga vazmin nazar tashlagancha, qisqacha tarixiy ma'lumot berib o'tdi. Bolgar cherkovining o'ziga xosligi, Vizantiyaga borib taqaladigan ildizlari, ajralib turadigan xususiyatlari, ibodat marosimlari va qo'shiqlari haqida so'zлади, bolgar qo'shiqchiligining milliy an'analariga taalluqli ayrim tafsilotlarga to'xtal-di. So'ng kontsert boshlanganligini e'lon qildi.

Qo'shiqchilar tayyor edilar. Ular nafaslarini rostlab yana bir zum jim qoldilar. Bir-birlariga yelkama-elka yanada jipsroq turdilar. Shunda jimjitlik cho'kdi. Zal xuddi bo'shab qolgandek tuyuldi — odamlarning qiziqishlari ortgandi: qani, bu o'n yigit bizga nima berarkin, nima hunar ko'rsatarkin. Ular o'zlarining nimasiga ishonarkin. Nihoyat, o'ng tomondan uchinchi bo'lib turgan qo'shiqchi — u to'daning yetakchisi shekilli — ishora qildi va qo'shiq boshlandi. Ovozlar parvoz etdi...

O'sha jimjitlik ichida go'yo samoning porloq havoyi aravasi ohista o'z o'rnidan jildi va ko'zga ko'rinas havo to'lqinlariga minib zaldan chiqaroq ko'klarga intildi, bu jonon aravaning ortidan ruhning bitmas-tuganmas zahiralaridan kuch-quvvat olaroq va har safar qayta tirilaroq ovozlarning tantanavor hamda sarafroz izlari o'chib ketmay cho'zilib borardi.

Saraxbordanoq kapelladagi barcha ovozlar o'zaro juda nozik moslashganligi, ovozlarning harakatchan va uyg'un-mutanosibligiga erishilganligi bilindi. O'nta bir-biriga aslo o'xshamaydigan odam, ular qancha vokal qobiliyat va mohirlikka ega bo'lmasinlar, bunchalar uyg'unlikka erisha olishlarini hatto tasavvur qilish qiyin edi. Va agarda mabodo, mana shu qo'shiq ijrosiga har qanday muzika va aynyksa, zamонави muzika asboblari jo'r bo'lganda edi, o'nta mustahkam ustun tutib turgan manavinday noyob imorat ham qulab tushishi shak-shubhasiz edi. Noyob qismatgina bunday mo'jizani yarata olishi mumkin. Ya'ni mana shu, ha, xuddi mana shu o'nta odam qazovu qadarning marhamati bilan bir paytda tug'ilishi, voyaga yetishi, bir-birlarini axtarib topishi, bir yerga to'planishi, qachon-qachonlardir yetib ham, ajratib ham bo'lmas Ruhdan yaralgan Ilojni ne azob-uqubatlar ichida izlagan, o'ylagan va nihoyat, topgan abo-bobolar oldida farzandlik burchini his qilishi kerak edi — axir, so'z bilan ifodalash qiyin tug'yonli, nolakor qo'shiqlar faqat mana shu holdagina dunyoga kelishi mumkin edi. Ular shu qadar zo'r qudrat bilan vujudan kuyga aylanib, o'rtanib, o'z kuylariga tamomila berilib aytardilar-ki, bu san'atning sarvati uning tuganmas ehtirosida jo bo'lgandi. Bunda ilohiy so'zlar bahona edi, xolos. Ilohga qarata munojot edi.

Hammasing boshida esa, o'z ulug'verligining mumtoz cho'qqilari sari umtilgan inson ruhi turardi.

Tinglovchilar asiru maftun bo'lgan, butkul o'y-hayolga botgandilar. Ularning har birlariga o'zini

mudom tashqaridan izlaydigan aql-idrokning necha-necha asrlar mobaynida fojeali adashuvlar va karomatlar ichida yaratgan narsasiga o‘z holicha, yakka-yakka holda, qo‘silmoq, bobahra bo‘lmoq imkonи tug‘ilgandi. Shu bilan birga ular boshqa hamma bilan birgalikda, jam holida So‘zni anglashga muyassar bo‘lgan, juda ko‘p dillarning qo‘ri qo‘silgan qo‘silarning kuch-quvvati ham bundan yana o‘n chandon ortib ketgandi. Yana shu bilan bir vaqtida har bir tinglovchining tasavvuri inson hayotining yo‘llarida duch kelgan xotiralar, aldamchi hayollar, sog‘inshlar, ayriliqlar, quvonchlar, armonlar, vijdon qiyonalishlari, ta’nao‘pka va yozg‘irishlardan iborat doim o‘zingga qadrdon, lekin, noayon va mubham dunyo sari tortib ketardi.

Rostini aystsam, o‘sha soatda boshimdan nima kechayotganligini anglamas, anglashni ham istamas edim. Ko‘rinishdan xuddi menga o‘xshagan, xuddi men kabi odam bo‘lgan o‘n qo‘silchiga nega bu qadar berilib ketdim bilmayman, ammo ular aytayotgan qasidalar, alyorlar xuddi mening ko‘ksimdan, dardu alamlarimdan, xohishlarim, shu paytgacha tashqariga chiqishga yo‘l topmagan tashvish-quvonchlarimdan otlib yuzaga chiqayotganday va shu zahoti, yangicha nur va yangicha bashorat bilan to‘layotganday edi. Shu qo‘silchilarining san’at, mahoratlari tufayli men ibodatgoh samo qo‘silalarining azaliy ma’nosiga tushunib yetganday bo‘ldim. Bu hayotning faryodi, qo‘llarini ko‘klarga cho‘zgan inson bolasining nola-afg‘oni edi. U ko‘z ilg‘amas koinot bo‘siliqlaridan o‘ziga tayanch izlardi, o‘ziga ishonch hosil qilishni istardi, o‘z ahvolini yaxshilashni xohlardi, bunda undan tashqari yana o‘ziga yoru madadkor bo‘la oladigan allaqanday ilohiy kuchlar borligiga umid qilardi, fojiona bir alfozda ulardan najot kutardi. Ana sizga yanglishning zo‘ri! O, odam bolalari o‘z oh-faryodlari ko‘klarga yetib borishini naqadar istaydilar! Qanchalab kuch-g‘ayrati, aql-farosatini u ishonch-e’tiqodga, tavba-tazarruga, hamdu sanolarga baxsh ayladi. Qoni qaynab, jo‘shib turgan bo‘lishiga, tabiatida azaliy isyon, inkor, yangilik yaratish ishtiyooqi tug‘yon urishiga qaramay o‘zini sabr-matonatga, mo‘minlikka, har narsaga chidashga, andishaga o‘rgatdi — bularning bari ko‘kda hisobga olinadi-ku, dedi. O, qanchalar azob-uqubatlar, qiyinchiliklar bilan erishardi bularning bariga, Rigveda, munojotlar, sehr-jodular, romlar, duolar, hamdu na’tlar, shomonlar! Asrlar bo‘yi qancha-qanchalab iltijolar, ibodatlar, duolar ko‘kka yog‘ilib turdi. Mabodo ularning bari birdan daryo yohud ummonga aylanib qolsaydi, qirg‘oqlariga sig‘may toshib chiqqan, achchiq va sho‘r bahri muhit kabi yer yuzini bosgan, butkul ko‘mib tashlagan bo‘lardi. Qanchalar mushkulliklar ichida tug‘ildi odamning odamiyligi...

Xudoning qudrati bilan bir joyga jam bo‘lgan o‘n mug‘anniy qo‘silq aytar, bizni o‘z hayollarimizga g‘arki ob aylar, ongimizning qop-qorong‘u girdoblarig‘a cho‘ktirar, o‘tmishni, adam mulkiga ketgan inson glodlarining ruhi va g‘am-hasratlarini tiriltirar va shu asno, bizni yusaklarga parvoz qildirar, o‘zimizdan, olamdan balandroq ko‘tarilishga, hayotimizning ma’nosini va go‘zalligini topishga chaqirar — hayotga bir martagina kelasan, uning mo‘jiziy imoratini sev, derdi. O‘n mug‘anniy ehtimol o‘zlar ham bilmagan holda ilohiy qo‘silqqa munosib bo‘lib shu qadar fidoyilik bilan, maftun va mahliyo kuylardilarki, mutaassirlikdan yuraklarda oliy umtilishlar junbushga kelardi. Kundalik turmushda, jonga tekkan tashvish, yugur-yugur, halovatsizliklar ichida odam bunday kechinmalarni kamdan-kam boshidan o‘tkazadi. Shuning uchun ham, tinglovchilarining bahri dili ochilgan, yuzlarida hayajon zuhur etar, ayrimlarning ko‘zlarida esa yosh halqalanardi.

Shu ajib bayramni tortiq qilish uchun meni yetaklab kelgan tasodifga tahsinlar o‘qir, o‘zimda yo‘q quvonar, butun vujudim go‘yoki vaqtidan, makondan butkul xoli bo‘lib, ko‘z ilg‘amas kengliklarga chiqqan bunda o‘tgan kunlar xotirasi ham, shu onlarning sezim va tushunchalari ham, kelajak orzulari ham — bari-bari mening barcha bilgan narsalarim, boshdan kechirganlarimga mo‘jizakor bir tarzda qo‘silib, birlashib ketganday edi. Shu hayollar ichida birdan men hali sevmaganman, deb o‘yladim, qonimda yashab, o‘z vaqtisi soati kelishini kutib yurgan muhabbat sog‘inchi ko‘kragimni kattiq sirqiratib, og‘ritib o‘tdi. Kim u, qaerda u, qachon va qanday yuz beradi bu? Bir necha marotaba eshikka beixtiyor qarab-qarab qo‘ydim — balki u kelib qolgandir, o‘sha yerda turib eshitayotgandir, mening qachon qarashimni kutayotgandir. Uning mana shu damlarda shu zalda emasligiga juda achindim.

Qaniydi, u bilan meni hozir shu qadar to‘lqinlantirgan, tasavvurlarimni jonlantirgan narsalarni unga ayтиб, о‘rtoqlashsam. Lekin afsus... Bu yerda yana boshqa bir narsani ham o‘yladim. Taqdir ishqilib, bularning barini kulgili qilib qo‘ymasin, keyin eslaganda, uyalib, xijolat chekib yuradigan bo‘lmasin...

Nimagadir, oyimni, go‘daklik chog‘larimni esladim... Qish payti edi, ertalab xammayoq oqargan, yop-yorug‘ hiyobonlarga erinibgina qor uchqunlaydi, oyim kular ko‘zlar bilan yuzimga tikiladi, valangar paltomning tugmalarini qadaydi, nimalardir deydi, men undan qochib ketaman, u esa kulib ketimdan quvadi, tepalikda joylashgan cherkovdan butun shaharga jom ovozi taraladi, otam o‘sha yerda dyakon bo‘lib xizmat qiladi. U Xudoga qattiq ishongan odam edi, shu bilan birga, odamzotning Xudo uchun va uning nomidan yaratgan barcha narsalari shartli ekanligini yaxshi tushunardi. Men buni endi fahmlayapman. Men esam, u kishini qanchalar e’zozlamay, butunlay boshqa yo‘ldan ketdim. Uning xohishini ado etolmadim. Otam narigi dunyoga rozi bo‘lib ketdi. Men-chi, o‘zimni har yoqqa uraman, o‘tmishni rad qilaman ia yana bundan battar yuragim siqiladi. Lekin shunda ham, asrma-asr tarqalib, butun dunyoda, inson avlodlariga, ularning qarashlariga hokim bo‘lish uchun barcha qit‘alar va orollardagi odamlarni o‘z komiga tortib, aqidalariga ishontirgan, chakmoqni yerga o‘tkazib yuborgan yashinqaytarg‘ich kabi odam bolasining abadiy isyonkor da’vatlarini bosib to‘xtatib, ularni mutelik va itoat qa‘riga cho‘ktirgan, bir paytlar cheksiz qudratga ega Mutlaq g‘oyaning ilgarigi ulug‘vorligi Xamda mislsiz ifodaviyligidan sururga to‘laman. Shukrlar bo‘lsin — Imon va Gumongakim, ular hayotni to‘xtovsiz harakatga keltirib turadigan kuchlardir.

Men shak, gumon kuchlari o‘stun kelgan zamonda tug‘ildim. U shubhalar o‘z navbatida yana yangi shubhalarni vujudga keltirdi. Men ana shu jarayonning mevasiman. Meni bir tomon ko‘kragimdan itarib, chetga surib qo‘ydi, ikkinchi tomon esa, meni butun murakkabliklarim bilan o‘ziga qabul qilishni istamaydi. Nima ham qillardik, tarix menga o‘xshaganlardan qasdini oladi, ularni ermakka aylantiradi... Eski bulg‘or qo‘shiqlarini kuylayotgan mug‘anniyarlari tinglar ekanman, ana shularni o‘ylardim.

Qo‘shiqlar o‘sha zalda xuddi o‘tgan zamonlarning aks sadosiday biri ketidan biri yangrardi. «Kecha qurban», «Sabiylarni tahqirlash», «Maloiklar nolasi» kabi Injil ehtiroslari din-iymon yo‘lida aziyat va riyozat chekkalarning og‘ir alangali qo‘shiqlarini bilan almashardi. Garchi, bularning ko‘pi menga avvaldan tanish bo‘lsa-da, meni ijro etuvchilarining o‘zlari maftun etib qo‘yan edilarki, buni to‘la ifodalab berolmayman. O’n mug‘anniy o‘ziga asir qilar, ma’lum narsalarni tengsiz san’atga aylantirar, bu san’atning kuchi xalq ruhining tarixan keng qamralganida edi. Zotan, azobi ko‘pning biliqi ham ko‘p...

O‘z kuylaridan zavq-shavqqa to‘lib, mastona qo‘shiq aytayotgan Sofiya mug‘anniyarinining ovozlariga qulqoq tutar, ularning xatti-harakatlariga razm solarkanman, kutilmaganda, chap tomonidan ikkinchi bo‘lib turgan, bug‘doyrang, qora sochli bolgarlar ichida birdan-bir malla qo‘shichi juda ham menga o‘xhab ketishini sezib qoldim. O‘zingga baayni o‘xshaydigan odamni uchratsang, g‘alati bo‘lib ketarkansan kishi. Uning ko‘zlari ko‘kimtir och, yelkalari tor,— ehtimol, uni ham bolaligida oriq deb chaqirishgandir,— uzun sochlari och sarg‘ish, qo‘llari serpay va ingichka, u ham tortinchoqligini qo‘shiq aytib yengsa ajabmas, bunday holat menda ham ko‘p bo‘ladi, o‘ng‘aysizligimni yashirish uchun ko‘pincha gapni diniy mavzularga burib yuboraman. Xotinlar bilan tanishganda ham, jiddiy va sipo gaplardan olaman, tashqaridan qaragan odamga bu o‘lguday ahmoqona ko‘rinsa kerak. Ko‘kko‘z yigitning chehrasi ham baayni o‘zim — ikki chakkasi ichiga botgan, qirg‘iyburun, peshanasiga ikki uzun chiziq tushgan va hammadan ham, soqolini aytmaysizmi, naq mening qirib tashlangan soqolimning xuddi o‘zginasi. Qo‘lim iyagimga cho‘zilganini o‘zim ham sezmay qoldim. Shunda ertaga nashavand choparlar bilan cho‘lga otlanishim yodimga tushdi. O‘zimdan o‘zim tong qolaman: qaerga ketyapman, nimaga? Hech solishtirish mumkinmi, ilohiy samolar qayda-yu vokzalga in qurib olgan utyuglarning qabohatlari qayda? Biroq, barcha zamonlarda ham chinakam hayot hamma yaxshiliklari va zolimliklari bilan ibodatgohlardan tashqarida kechgan. Bizning zamonamiz ham bundan mustasno emas...

O'sha kontsertda shunday o'xshash qiyofalarni kashf qildim. Keyin men adashimdan ko'zimni uzganim yo'q. Qo'shiq aytayotganda, yuzining qanday cho'zilishi, avjini olayotganda og'zining qanchalar ochilishini kuzatib o'tirdim. O'zimni uning o'rniga qo'yib ko'rdim. Go'yo, u mening aksim edi. Shu yo'sin men ham qo'shiq aytishda ishtirok etardim. Vujudim qo'shiqqa aylanib ketganday edi. Xor bilan bir jonu bir tan bo'ldim. Ko'ksimda ajib birodarlik tuyg'ulari jo'sh urar, yig'lagim kelar, uzoq ayriliqdan so'ng o'z og'alarim bilan uchrashganday, shu mardona, tanti kishilarini bag'rimga bosganday, qandaydir ulug'verlik, yakdillik his qilar, bizning ovozlarimiz esa ko'k toqlariga o'rler, oyog'imiz esa zaminda mustahkam turardi. Biz shunday qo'shiq aytaveramiz, xohlagancha aytaveramiz va uzoq zamonlar aytamiz...

Ular shunday kuylashar va men ham ular bilan birga edim. Men ko'pincha eski gruzin ko'shiqlarini eshitganda, o'zimni shunday yo'qotib qo'yaman. Buni tushuntirib berishim qiyin. Lekin har qalay uchta oddiy gruzin yig'ilib qo'shiq ayta boshlasa, diling yayrab ketadi. O'z uyg'unligi bilan g'oyatda sodda va noyob san'atning baland parvozini ko'rasan, ruhing ham qanotlanib uchadi. Bu ularga tabiatning e'zoz tuhfasi, madaniyat darajasi, balki Xudoning to'ppa-to'g'ri lutfi karamidir. Ularning nima haqda kuylayotganlarini tushunmayman. Lekin menga ular bilan birga qo'shilib aytayotganim muhimroq.

Shuni o'ylarkanman, qo'shiq eshitib o'tirib, birdan hayolim charaqlab ochilib ketganday tuyuldi. «Oltovlon va yettinchi» degan gruzin hikoyasini o'qiganimni esladir. Birdan shu hikoyaning ma'nosi menga yarq etib ayon bo'ldi. Bunday hikoyalar vaqtli matbuotda oz emas. Hikoyaning unchalar ajralib turgan xususiyati ham yo'qday edi. Unda psixologizmdan ko'ra ko'proq fabula ko'zga tashlanar, yo'nalishi romantikroq edi. Ammo, hikoyaning nima bilan tugaganligini kattiq eslab qolgan, u xuddi zirapchadek menga tinchlik bermasdi.

Hikoya, to'g'rirog'i, «Oltovlon va yettinchi» deb atalgan balladaning (hali uncha tanilmagan muallifning qiyin nomini eslay olmayman) mazmuni ham o'ziga yarasharoq edi. Revolyutsiya alanga olgan, qonli grajdalar urushi ketyapti, inqilob dushman to'dalari bilan oxirgi janglarga kirgan, Gruziyaning tarixiy yo'li muqarrar — sovet hokimiyati g'alaba qozonib, eng ovloq tog' qishloqlaridan ham qurollangan aksilinqilobchilarining qolgan-qutgan to'dalari siqib chiqarilayotgan paytlar. Bunday sharoitda asosiy qonun bitta — agar dushman taslim bo'lmasa, uni yanchib tashlaydilar. Ammo shafqatsizlikka javoban shafqatsizlik yuzaga chiqadi — bu ham qadimdan qolgan qonun. Ayniqsa, jo'mard Guram Jo'xadze deganning to'dasi tish-tirnog'igacha qarshilik ko'rsatadi. Guram Jo'xadze o'zi asli yilqiboqar, tevarak-atrofdagi tog'larni besh qo'lday biladi. Uni ushslash qiyin, kutilmagan yerlardan kelib bosqin yasaydi, qiron soladi. Sinfiy kurash ichida oyog'i chalkashib qolgan. Lekin uning xam kuni bitgan. Keyingi vaqtarda ust-ustiga tepki yeyapti. Guramning to'dasiga bir chekist kirib olgan. V jonini ming xatarga qo'yib Guram Jo'xadzening ishonchini qozongan, to'dadagi eng abjir yigitlardan biriga aylangan. Omonsiz janglardan birida Jo'xadze to'dasi ko'p talafot ko'radi, chekinishga majbur bo'ladi. Shunda Jo'xadze chekistning ustalik bilan qo'yan tuzog'iga tushadi. Guram Jo'xadze daryodan kechib o'tayotgan mahalda pistirmaga duch keladi. Yigitlar shitob bilan qochib daryo qirg'og'iga yetib kelganlar. Ular bir dam ham paysallanmay otlarni daryoga soladilar. Chekist mingan otning esa ayili bo'shab ketadi. U butalar panasida otdan tushadi. Jo'xadzening yigitlari ko'pirgan otlarda pishqirib oqayotgan tog' daryosining beliga yetadilar. Daryo o'rtasi to'rt tomondan kaftday ochiq. Shunda har ikkala qirg'oqqa yashirinchha o'rnatilgan ikki katta pulemyot yigitlarni barobar o'qqa tutadi. Omonlik yo'q. Yigitlar tog' daryosining o'rtasida tutday to'kiladilar. Lekin Guram Jo'xadzening vaqt soati bitmagan ekan! — u do'lday yog'ilgan o'q ostidan omon-eson qutulib chiqadi. Otini shitob bilan orqaga qayiradi. O'zini daryo yoqalab o'sgan qalin butazorlarga uradi va zum o'tmay ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bir nechta tirik qolgan sodiq yigitlari unga ergashadilar. Mo'ljaldagi ish to'la amalga oshmay ko'r boshlig'i qochib borayotganligini ko'rgan chekist darhol yana ularga qo'shiladi.

Daryodagi qirg'inda Jo'xadze qo'ri tamomila tor-mor keltirilgan, qirib tashlangan edi.

Guram Jo‘xadze nihoyat ta’qibdan qutulib, holdan toygan otini to‘xtatganda, qo‘rdan o‘zini ham qo‘shib xisoblaganda yetti yigitgina omon qolganligini ko‘radi. Yettinchisi o‘sha Sandro degan yigit edi. Hikoyaning nomi ham shunga ishora qiladi chog‘i: «Oltovlon va yettinchi».

Sandro qanday bo‘lmasin, qo‘rning boshlig‘i Guram Jo‘xadzeni yo‘qotish haqida topshiriq olgan. Jo‘xadze xavfli dushman. Lekin endilikda uning yana qayta janglarga kirishi dargumon. Demak, uni otib tashlash ham ancha mushkul. Buning ustiga endi yolg‘iz qolgach, tuzoqqa tushgan yirtqichday juda o‘zini ehtiyotkor tutadi. Ko‘proq o‘z kuchiga ishonadi. U oxirigacha olishadi, oxirgi nafasigacha...

Mana, o‘sha voqeaneanoxiri... u meni hammasidan ko‘proq hayajonga soladi...

Yigitlar qo‘riga qiron kelgach, tog‘ daralarini besh qo‘lday bilgan Guram Jo‘xadze qosh qoraya boshlagan pallada Turkiya chegarasidagi odam o‘tib borolmaydigan xilvat o‘rmonga qo‘nadi. Hammalari — oltovlon ham yettinchi ham, otlarni apil-tapil egar-jabdukdandan chiqarib, charchoqning zo‘ridan o‘zlarini ham tappa-tappa yerga tashlaydi-ar. Besh kishi shu zahoti o‘likday dong qotib uxlab qoladi. Ikki kishining esa ko‘zlariga uyqu kelmaydi. Chekist Sandroning tashvishi o‘ziga yetib ortadi. Endi nima qilsamikin, bularning ishini qanday bajarsamikin, qanday qasos olsamikin, deb boshi qotgandan qotadi. Askarlaridan ayrılgan Guram Jo‘xadzening ham ko‘zidan uyqu qochgan — mana, boridan bir yo‘la mosuvo bo‘lib o‘tiribdi. Ertaga kuni ne kechadi, Xudo biladi. Inqilob qoq ikki tomonga ajratib tashlagan bu ikki azamat — ikki qattol, murosasiz dushman yana nimalarni o‘ylardilar, yolg‘iz yaratganga ayon.

To‘lin oy ularning boshlarining o‘ng tomonida nur yog‘diradi. Tungi o‘rmon og‘ir, bosinqi xo‘rsinadi. Pastda toshlardan toshlarga urilib daryo shag‘illaydi. Atrof-tog‘lar tosh sukutga ketgan. Shu payt xuddi bir narsadan bezovta bo‘lganday Guram Jo‘xadze dast sakrab o‘rnidan turadi.

— Sen uxlamayapsanmi, Sandro? — hayron bo‘lib so‘radi u yettinchidan.

— Yo‘q. Nega turib ketding? — o‘z navbatida so‘raydi Sandro.

— O‘zim shunday. Uyqum qochdi. Bu yerda hech yotolmayapman. Ko‘zimga oy tushyapti. G‘orga borib yotaman.— Jo‘xadze burkasi, qurol-yarog‘i, boshiga qo‘yib yotish uchun egar-jabduqni oldi. Keta turib dedi: — Qolganini ertaga gaplashamiz. Boshqa gaplashadigan vaqt ham qolmadi.

Ketdi. Mag‘oraning naq og‘ziga borib joylashdi. Ot boqib yurgan kezlari bu yerda yomg‘ir-qordan qochib ko‘p berkingan. Mana, endi ham boshini shu panaga oldi. Balki adoqsiz kulfati, dardi-alamini yolg‘iz o‘zi chekmakchidir, yoxud, nimadandir xavfsiragandir, yonimga hech kimsa yo‘lay olmasin, kimda-kim bu tomonga yaqinlashsa, darrov ko‘zimga tashlansin, degandir. Sandro etagi kuyganday tipirchilab qoldi. Qo‘r boshlig‘i bu qilig‘i bilan nima demoqchi, aslida-ku, uning qilayotgan ishi to‘g‘riku-ya? Ishqilib, sezib qolmadimikin?

O‘sha kecha shunday o‘tdi. Ertalab Guram Jo‘xadze otlarni egarlashni buyurdi. Hech kim uning nima o‘yda ekanligi, nima qilmoqchiliginibilmasdi. Otlar egarlanib, hamma jilovni tutgancha indamay qarab turarkan, u xo‘rsinib dedi:

— Yo‘k, tug‘ilgan yerimizdan bunday qilib ketish yaramaydi. Bugun bizni o‘sirib katta qilgan ona-Yerimiz bilan xayrlashamiz. Keyin har qaysimiz o‘z yo‘limizga ravona bo‘lamiz. Lekin hozircha o‘z uyimizda turganday ko‘ngil ochaylik.

U ikki otliq yigitni yaqin atrofdagi qishloqqa vino va yegulik olib kelish uchun jo‘natdi. Qishloqda uning sodiq odamlari bor edi. Sandro bilan yana bir yigitni quruq o‘tin yig‘ish va otlarni qo‘riqlash uchun qoldirdi. O‘zi ikki yigitni olib ov qilgani ketdi. Kechki xayrlashuv ziyofatiga biron kiyikmi, tog‘ echkisimi otib kelmoqchi edi.

Sandroning bo‘ysunishdan, topshiriqni bajarish uchun boshqa qulay payt poylashdan o‘zga iloji qolmadi. Lekin, qachon keladi o‘sha qulay vaziyat, noma‘lum.

Shom tushganda oltovlon va yettinchi bir joyga to‘plandilar. O‘rmonning chekka yoqasida o‘t yoqdilar, yerga qalin dasturxon to‘shab, unga qishloqdan Guram Jo‘xadzening sodiq odamlari berib yuborgan non, tuz, vino va boshqa taomlarni qo‘ydilar. Gulxan alangasi osmonga o‘rladi. Yetovlon o‘tga yaqinroq keldilar.

— Hamma otlar egarlandimi? Hamma do'stlar uzangiga oyoq ko'yishga shaymi? — so'radi Guram Jo'xadze.

Hamma tasdiqlab bosh silkidi.

— Hey, Sandro,— dedi Guram Jo'xadze,— yaxshi o'tin yig'ib kelibsan, nega o'tinlaringni gulxandan uzoqqa qo'yding?

— Tashvish qilma, Guram, bu mening ishim, gulxanga men qarab turaman. Sen aytaringni ayt.

Shunda Guram Jo'xadze aytdi:

— Birodarlarim. Biz ishimizni boy berib qo'ydik. Ikki taraf urushganda kimdir yengib chiqadi. Boshqasi mag'lub bo'ladi. Urush degani shu. Biz qon to'kkidik. Bizning qonimizni to'kishdi. U tarafdan ham, bu tarafdan ham ko'p asl o'g'lonlarning boshlari ketdi. Bo'lganicha bo'ldi. Halok bo'lgan do'starimdan va g'animlarimdan uzr-ma'zur so'rayman. Jangda o'lgan g'anim — g'anim emas. Oyog'im uzangida turganda ham, baribir men halok bo'lgnardan kechirim so'rар edim. Lekin qismat bizdan yuzini o'girdi. Shuning uchun ham xalqning ko'pchiligi bizga ishonmay qo'ydi. Hatto bizni yo'rgaklab voyaga yetkazgan jonajon yerimiz ham bizni sig'dirmayapti. Bizga joy yo'q bu yerda. Bizga afv ham yo'q. Xudo shohid, agar men g'alaba qilsam, dushmanlarni omon qo'ymasdim. Bizga birdan-bir yo'l qoldi. Boshimizni olib begona yurtlarga ketamiz. Ho've anavi katta tog'ning orqasi — Turkiya, qo'l uzatsang, yetadi. Undan sal chekkaroqda oy ko'tarilib kelayotgan tog' o'rkachining nariyog'i — Eron. Kim qaerga boraman desa, o'zi biladi. Men Turkiyaga ketaman. Istambulda kemalarda yukchilik qilaman. Har birimizga boshipana kerak. Biz yetti kishi qolibmiz. Ko'p o'tmay hammamiz har yoqqa, begona yurtlarga tarqalib ketamiz. Peshanada borini ko'ramiz. Boshqa hech qachon ko'rishmaymiz. Bir-birimizni oxirgi marta ko'rib turibmiz. Oxirgi marta bir-birimizning so'zlarimizni eshityapmiz. Kelinglar, bir-birlarimiz bilan xayrlashaylik, ona-Yerimiz bilan xayrlashaylik, gruzinning noni-tuzi bilan xayrlashaylik, vinosi bilan xayrlashaylik. Bunday vino boshqa hech yerda yo'q. Vidolashgach, har kim o'z yo'liga ketadi. Biz o'zimiz bilan tariqcha narsa olganimiz yo'q. Vatanni olib ketib bo'lmaydi. Faqat sog'inch va armonlarimizni olib ketamiz. Agar vatanni xurjun kabi olib yurish va tashib ketish mumkin bo'lganda, u sariq chaqaga ham arzimasdi. Kelinglar, yo'limiz oldidan ichaylik, yo'l oldidan qo'shiqlarimizni aytaylik...

Vino dehqoncha meshlarga solingen edi, unga yer va osmonning ta'mi qo'shilib ketgandi. Vino yuraklarga sarxush dov soldi. G'am-qayg'uni to'kish istagini uyg'otdi. Ko'ngillar yana shodumonlik va hasrat bilan to'ldi. Qo'shiq o'z-o'zidan quyilib kelaverdi. U xuddi tog'u toshlar bag'rini yorib chiqqan va yo'lida nima duch kelsa, shuni gullab-yashnatadigan buloqqa o'xshardi. Ular ohista otabobolarning qo'shiqlarini boshladilar. So'ng tog' yonbag'ridan tushayotgan chashma suviday qo'shiq sasi asta ko'tarilib, borgan sari kuch oldi. Yetovlari ham qo'shiqni boplab aytishardi. Negaki, qo'shiq aytmaydigan gruzinning o'zi yo'q. Har kim o'z ovozi bilan, o'ziga yarasha kuylar, lekin ovozlari bir-birlariga g'oyatda qovushar, shuning uchun kuy o'rtada yonayotgan gulxan kabi tobora avjga chiqardi.

Yetovlonning, to'g'rirog'i, oltovlon va yettinching xayrlashuv qo'shig'i ana shunday boshlandi. Biroq yettinchi o'z zimmasidagi topshiriqni bir zum bo'lsin unutmasdi. Ularning hech qaysilari va ayniqsa, Guram Jo'xadze o'z jazosini olmasdan chet ellarga chiqib ketmasligi kerak edi. Chekist bunga aslo yo'l qo'yolmasdi. Shunday buyruq olgandi. U buyruqni bajarishi kerak edi.

Ko'shiqqa yangi qo'shiq ulanar, vino ichilar va ichilgan sayin yana ko'prok ichilgisi kelar, yurak ham shunga monand alanga olib yonar, yongan sayin yana mayga tashna bo'lar, yana qo'shiq toshardi.

Ular davra yasab turishar, ba'zan qo'llarini bir-birlarining yelkalariga tashlashar, ba'zan qamchiday yerga solintirishar, ba'zan esa, bilib bo'lmas va ko'rib bo'lmas, lekin har narsani biluvchi va har nimani ko'rvuchchi ilohiy qudrat eshitsin debmi, qo'llarini osmonga ko'tarar edilar. Agar Yaratgan hammasini ko'rib turgan va bilib turgan bo'lsa, nega unda ularni o'z ona-Yerlaridan kuvg'in qilmoqda, bu qanday bo'ldi axir? Nega axir bunday, nega axir odamlar bir-birlari bilan urushadilar, qon to'kadilar, ko'zyoshlarni daryo qilib oqizadilar, hammalari o'zlarini haq, boshqalarni nohaq deb hisoblaydilar, qani axir haqiqat, kim haqiqatni aytadi, kim? Qani ularniadolat bilan ajrim qiluvchi

nabiy?.. Xalq xotirasida saqlanib qolgan o'sha qadim qo'shiqlarda olis-olis zamonlarda ro'y berib o'tgan azob-uqubatlar, yaxshilik va yomonliklarning azaliy tajribalari, ularga ota-bobolarning bag'ishlagan ma'nolari, ular orqali his qilingan go'zallik va abadiyat aks etmasmidi, shular haqida emasmidi o'sha qo'shiqlar? Shuning uchun yetovlon bir qo'shiq tugar-tugamas boshqasini ulab yuborar va qo'shiqlarning halqasi sira uzilmasdi. Faqat Sandrogina vaqt-i-vaqt-i bilan davradan chiqib, o'tin keltirib, yana gulxanga qalardi. Bekorga u shuncha kuruq o'tin yig'magan ekan o'rmonda (hayotda har bir narsaning o'z bahonai sababi bo'ladi), mana endi, olovga o'zi zo'r berib o'tiribdi. Qo'shiqlarni ham u barcha qatori chin yurakdan aytar — axir qo'shiq hammaga bab-baravar tegishli emasmi? Boshqalar aytishi man etilgan, faqat podshohlarning o'zlarigina aytadigan qo'shiqlar yo'q. Qo'shiq ayt, quvna, yayra, dard chek va yig'la, o'ynab qol bu tiriklik ayvonida...

Kimni jondan sevgan eding, kimni titrab-qaltirab kutgan eding, kim seni tashlab ketdi, qanchalar o'rtanding, kuyding, seni tushunmadilar bundan ko'ra o'lganim yaxshiydi deding, o'lim oldida aytgan so'ngti qo'shig'ingni u eshitishini orzu qilding, onang qanchalar erkalardi seni go'dakligingda, dov va tanti otangning boshi qaylarda qoldi, qanday jang qilishardi jasur do'stlaring, qaysi xudolarga ocharding beg'araz va pok dilingni, o'ylaganmiding hech odam nega tug'iladi-yu, nega o'ladi va nega o'lim doim sen bilan birga, sendan nari jilmaydi va o'lgandan so'ng o'lim yo'q, lekin hayot o'limdan yuqori, dunyoda hayotdan ko'ra yuqori o'lchov yo'q — shuning uchun tirik jonni mahv etma, lekin elingga yov bostirib kelsa, darhol himoyaga otlan, sevganingni nomusini asra xuddi ona-Yerni yotlardan asraganday; ayrılıqni hech totib ko'rgyanmisan, bilasanmi ayrılıqning dushvorligini, xuddi yelkangga cho'ng tog'larning yuklari ortilganday; suyganing bo'lmasa, hech narsa ko'zlarining quvontirmaydi: na gullar, na nurlar va na kelajak kunlar — ana, nimalar kuylanmaydi qo'shiqda, aytib ado qilib bo'larmidi barini...

O'sha kecha hijron chog'i alam va ilhom bilan qo'shiq aytayotgan shu yetti gruzindan ko'ra bir-biriga jondosh va qadrdon odamlar dunyoda yo'q edi. Qo'shiq ohanglari ularni yanada yaqinlashtirib qo'ygandi. Ota-bobolar nasllarga shu dilbar ruhafzo so'zlarni qoldirish uchun qancha-qanchalab xunoba yutganlar, achchiq voqealarni boshlaridan kechirganlar. Qushni uchishidan bilganday gruzin ham gruzinni qo'shiq aytishiga qarab o'n chaqirim naridan biladi va uning qaerlik ekanligi, boshiga nima savdo tushganligi, yuragida nima borligi, qaysi to'yda sho'x o'ynab-kulganligi yoki qanday g'am-qayg'u jonini qiynayotganligini bexato aytib beradi...

Oy tog'lar uzra ancha havolab ketgandi. Butun yer uning yog'dulariga cho'mib yotardi — o'rmondagi daraxtlarning qora cho'qqilari tungi shamolda chayqaladi, daryo shaldiraydi, nam bosgan xarsangtoshlar kumushday jilolanadi, tun qushlari gulxan atrofida kuylayotgan odamlar ustidan sharpaday uchib o'tadi va hatto egarlangan otlar egalarini sabr-toqat bilan kutib, quloqlarini tikkaytirib, qimirlatib-qimirlatib qo'yadilar, ularning ko'zlarida olov shu'lalari o'yin tushadi... Otlar begona o'lkalar sari yo'lga chiqishlari kerak, vaqt yaqinlashib kelardi...

Lekin, qo'shiqning oxiri ko'rmasdi. Guram Jo'xadze hammasi uchun yuragini birato'la bo'shatib olmoqchiga o'xshardi: «Og'aynilar, qo'shiq aying, may iching, davraga yig'ilish boshqa nasib etmaydi, yana qachon aytamiz gruzin qo'shiqlarini...» Dam yakka-yakka, dam hammalari jam bo'lishib qo'shiq aytishar, dam xuddi o'lim oldidan o'yinda tushayotganday gursillab, shahdam raqs boshlab yuborishar, so'ng yana davra yasab qatorga turishardi yetovlon gruzin, to'g'rirog'i, oltovlon va yettinchi. Sandro esa dam-badam davradan chiqib, gulxanga o'tin tashlar, olov qarsillab, tobora qizdirib, kuydirib baland o'rлardi.

Oxirgi qo'shiqni aytamiz deyishdi, keyin yana va undan keyin yana xayrlashuv oldidan aytaylik, deyishdi, hech tinchiydigan emas, yana davraga turishdi, boshlarini quyi egib, qo'shiq boshlashdi — ohang go'yo yer osgidan guvillab kelayotganday o'ychan va qudratli yangrab borardi. Garchi gulxan alanga olib yonayotgan bo'lsa ham, Sandro yana o'tin keltirgani orqaga o'tdi. Buni u aniq hisobga olgan edi — chetdan u olov atrofida qo'r tashlagan, ko'zlar o'tdan yoshlanib qo'shiq aytayotgan oltovlonning xar birini aniq-taniq ko'rib turar, uni esa hech kim ko'rmasdi... Og'ir mauzer allaqachon

shay edi. Qasos pallasi yetgandi. Ko‘p o‘qli tezotar mauzerni ikkinchi qo‘li ustiga qo‘ydi. Birinchi o‘q bilai ko‘r yigitlar boshlig‘i Guram Jo‘xadzeni qulatdi. To‘pponcha ovozi tun qo‘ynida momaqaldiroqdek gumburlab ketdi va shu zahoti, yigitlar bo‘g‘zidan hali qo‘shiq so‘zlari uzilmayoq boshqa beshovini ham ketma-ket otib yiqitdi. Ular nima ro‘y bertanligini hatto anglolmay qoldilar. Shunday qilib, o‘lim charxi yana bir sharmandali aylandi. To‘kilgan qog‘lar uchun yana qonlar to‘kildi.

Shunday. Inson munosabatlarining konunlari aljabr hisob-kitoblariga bo‘ysunmaydilar. Zamin esa qonli fojalarning kajavasi kabi do‘naveradi...

Nahot, axir, bu kajava to oxir zamon bo‘lguncha, Yer oftob atrofida kezib charchatuncha evriladi, nahot aylanaveradi qonli charx?

O‘qlar mo‘ljalga aniq urildi. Fakat bir odam titragancha qo‘liga tiralib turmoqchi bo‘ldi. Sandro sakrab sakrab borib, uning chakkasidan o‘q qo‘ydi... Otlar qo‘rqib orqaga tisarkldilar va so‘ng jilovlangdn yerlarida qotib qoldilar...

Gulxan yonib bitmagandi. Daryo vag‘illardi. O‘rmon va tog‘lar bari o‘z joyida edi, oy yuksaklarda sokin kezardi hech narsa yuz bermaganday, yolg‘iz uzoq davom etgan taronagina uzildi, uzildi...

Sandroning basharasi tun shulasida bo‘zdey oqarib ko‘rinardi. U xars-hars nafas olar, o‘pkasiga havo yetmasdi. U meshni shart ko‘tardi-da, tagida qolgan vinoni to‘kib-sochib yutoqib icha boshladi, u ichida yonayotgan olovni bosmoqchi bo‘lardi... Keyin sal o‘ziga keldi, gulxan atrofida yotgan o‘liklarni xotirjam aylanib chiqdi. So‘ng o‘lganlarning qurollarini oldi, ularni egarlarning boshlariga osib qo‘ydi. Otlarni jilov, no‘xtalaridan batamol, bo‘.iatdi, ularni erkin-likka qo‘yib yubordi. Hamma otlarni, jumladan, o‘z to‘rig‘ini ham bo‘shatdi... Otlar erkinlikni sezgach, tog‘dan pastga, odamlar qo‘nalg‘asi tomon turnaqator tizilishib tushib keta boshladilar. Axir otlar doim odamlar yashaydigan tomonga qarab yuradilar... Ularning ortlaridan birpas qarab turdi... Lekin mana, taqalarning ovozlari ham eshitilmay qoldi, pastda oyning tutab yotgan beqaror shu'lalari qo‘ynida qator tizilib borayotgan otlarning sharpalari ham ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi...

Hammasi tugadi. Sandro yana bir marto yerda ag‘anab yotgan oltovlon atrofidan aylanib chiqdi-da, sal chekkaroqka o‘tdi. Mauzerning og‘zini chakkasiga tiradi. Tog‘larda yana bir o‘q ovozi sadolandı. Bu yettinchi edi. U ham o‘z qo‘shig‘ini aytib bitirgandi.

O‘sha gruzin balladasi mana shunday yakunlanardi.

Eski bulg‘or qo‘shiqlarini ijro etgan yosh bolgar mug‘anniylarini tinglarkanman, birdan shu haqda esladim. Bu qo‘shiqlar asrlar zulmatidan turib Yaratganga tavallo qilayotganlarning nolalaridan tug‘ilgandi. Ular Yaratganni yo‘qdan bor qilib, so‘ng uni ruhoniy mavjudiyatga aylantirgan edilar. Ular o‘zlarini yorug‘ dunyoda juda yolg‘iz his qillardilar, yolg‘iz qo‘shiqlar va duolardagina uni topamiz, deb, ishonardidár.

Men o‘sha voqeani favqulodda bir zum ichida, sanoqli soniyalar ichida yodimga tushirdim va barcha hayajonlari bilan boshimdan kechirdim. Tafakkur tezligi oldida yorug‘lik tezligi hech narsa, hayol o‘tmishga karab yo‘l olib yana orqaga qaytib, vaqt hamda makon ichida harakat qila oladi, uning sur‘ati bilan hech narsa tenglasholmaydi....

O‘sha yillar shunday bo‘lishi mumkin edi. Men bunga mana hozir ishondim. Muallif hikoyaning xotimasida Sandro o‘limidan so‘ng orden bilan taqdirlanganligini yozgandi.

Ammo bir tarafning yangi kirib kelayotgan tarixga qarshiligi va ikkinchi tarafning xuddi mana shu tarixni tezlatish uchun besabr kurashi hayotni tub tomirlari bilan o‘zgartirmasa, grajdanlar urushining fojalari millatning fojalalariga aylanmasaydi, inqilob dalalaridagi bu dahshatli chek-chandiqlar qaerdan paydo bo‘lardi va gruzin balladasi shunday yakun toparmidi unda?.. Axir o‘sha yettinchi tantana qilishi, yashashi mumkin edi-ku. Lekin u buni istamadi. Buning sabablarini tushuntirish juda qiyin. Har kim bu sabablarni o‘zicha keltirishi va izohlashi mumkin. Men esa, o‘sha soat uzoq-uzoqlarda turmushning ochiq ummonlarida abadiy suzib yuruvchi ruhafzo hayolning oppoq yelkanlarini ko‘targan bulg‘or qo‘shiqlarining kemachasida sayr qilarkanman, gruzin naqlining shunday tugashiga

qo'shiq sabab bo'ldi, deb o'ylardim, O'sha qo'shiqlarda yetovlonning imoni, diyonati jamlangan edi...

Bir narsani o'zing uchun kashf qilsang, o'zingdan o'zing rozi bo'lasan, yuraging, ruhing yerishadi, fayzu kirom topadi. Muqaddas alyorlarni kuylayotgan Sofiya mug'anniyalarining ko'zлari taqvo, ilhom, vafo bilan charaqlab turgani, ularning ol chehralari azbaroyi zo'riqishdan reza-reza ter bilan koplanganini ko'rib, qaniydi, men ham ular orasida, adashimning o'mida bo'lib qolsam, deb havas qillardim.

Yarq etib yorishgan hayolimga yana shu fikrlar keldi: insonda bu narsalarning hammasi - musiqa, tarona, munojot, qo'shiq qaerdan, ularning odam bolasiga qanday zaruriyati bor va bo'ladi? Hayot charxi abadiy aylanib, evrilib turadi, hamma narsa keladi va hammasi keeadi, yana evrilib keladi va evrilib ketadi, odam shularning dardini beixtiyor his qiladi va o'zini anglatmoqchi, ifodalamoqchi, o'zidan nishon qoldirmoqchi bo'ladi. Axir, bir kunmas-bir kun bari tugaydi, millaardlab yillar o'tgach, axiyri oxir zamon keladi, zamin deb atalgan kurramiz o'ladi, so'nib bitadi, ana o'shanda boshqa galaktikalardan kelgan qandaydir umumkoinot ongi zimdan azim bo'shliq va jimjitlik qo'ynida albatta bizning taronalarimiz va qo'shiqlarimizni eshitadi. Ko'rdingizmi, biz yaralganimizdan beri shundaymiz - o'lgandan keyin ham yashamoqni istaymiz. O'z umrini uzaytirish mumkinligiga ishonch, shuning hissiyoti bilan yashash odamzodga qanchalar muhim, qanchalar zarur. Odamlar o'zlaridan keyin qandaydir avtomat qurilma, allaqanday vokal-muzika abadiy dvigateli qoldirish fikriga kelsalar, ajab emas — bu hamma zamonlar uchun inson madaniyati erishgan eng yaxshi narsalarning antologiyasi bo'ladi. Men mug'anniyarning qo'shiqlaridan behad lazzatlanardim va ishonardimki, bu so'zlar va bu taronalarni eshitganlar zaminda yashagan, birdan-bir ong egasi odamlar qanchalar murakkab, ziddiyatli, qanchalar daho va mustar xilqat bo'lganliklarini anglab, his qilib yetadilar.

Hayot, o'lim, muhabbat, shafqat va ilhom — hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqada eng oliv hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun esa ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga faqat musiqadagina yetishganmiz. Fakat musiqagini barcha zamonlarning aqidalarini yengib o'tib, doimo kelajak sari umtiladi... Shuning uchun biz aytolmagan narsalarni u aytadi, shunga chorlangan...

Soatimga qararkanman, men sevgan Pushkin muzeyidagi kontsert hali-zamon tugaydi-ku, deb yuragim orziqardi. O'shanda men tag'in Qozon vokzaliga, butunlay boshqa olam, butunlay boshqa hayot ichiga qaytaman. Dunyo bino bo'libdiki, bu halovatsiz hayot yugur-yugurlar o'pqonida va buqalamun tentirashlar ichida beqaror evriladi, evrilaveradi, unda ilohiy qo'shiqlar yo'q, ularga o'rin ham yo'q... Biroq xuddi shu boisdan men o'sha yerda bo'lmog'im farz...

## V

Yarim kun ham o'tdi. Poezd Volgabo'yi yerlaridan ketib borar, kupe vagonlarda hamma uzoq safar tadorigini ko'rib, joylashib olgan, Avdiy Kallistratov tushgan umumiyl vagonda esa odatdag'i g'ala-g'ovur hayot boshlangandi. Yo'lovchilar har xil, har kim biror bahonai sabab bilan yo'lga otlangan. Buning ajablanarli joyi yo'q — yo'lga chiqish kerakmi, kerak, vassalom. Ular orasida nashavand choparlar — Avdiy Kallistratovning hamrohlari ham bor. Nazarida mana shu poezdda o'ndan ortiqroq chopar ketayotgandek edi. Lekin hozircha ulardan faqat ikkitasinigina biladi. Chaqqon Utyug vokzalda uni shularga biriktirib qo'ygan. Bu azamatlar Murmanskdan kelishyapti. Ularning kattarog'i Petruxa yigirmalarga chiqqan, ikkinchisi hali yosh bola, o'n oltilarga kirgan, uning ismi Lyonya, lekin Lyonyaning ham u tomonlarga ikkinchi marotaba borishi. Shuning uchun o'zini har baloni ko'rgan odamday tutadi, hatto kerilib ham qo'yadi. Murmanlik bolalar avval o'zlarini sal tortibroq turishdi. Lekin, Avdiy ishonchli kishilarning tavsiyasi bilan chopar bo'lib borayotgani, demak, o'z odamlari qatori ekanligini bilishadi va uni shimolliklarga xos talaffuz bilan Avdiy deb chaqirishadi. Qilinadigan ishlar haqida ko'proq tamburda, chekkani chikqanda gaplashib turishadi. Odamlar vagonda chektirishmaydi. Chunki vagon tiqilib ketgan, shusiz ham nafas olish mushkul. Shu sababdan chekish,

u yoq-bu yoqdan laqillab gaplashish uchun tamburga chiqishadi. Avdiy hali chekishni qoyillata olmaydi, bunga hammadan burun Petruxa e'tibor berdi:

— Nima, Avdiy, ilgari hech chekmaganmisan? Qiz boladay ichingga tortishga qo'rqaSAN?

Avdiyning yolg'on gapirishdan boshqa iloji qolmadi:

— Ilgari chekardim, keyin tashlaganman...

— Ko'rinib turibdi. Men kichkinligimdan o'rganganman. Vizning Lyonkamiz bo'lsa xuddi bangining o'zi. Tutatgani-tutatgan. Chol bobolarday toza burqsitadi. Onda-sonda otib ham qo'yadi. To'g'ri hozir hech mumkin emas. Lekin keyin hissasini chiqaramiz.

— Hali yosh bola-ku!

— Kim yosh, Lyonkami? Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni. Sen o'zing endi boryapsan bunday katta ishga. Hashar deb o'ylama buni. Lyonka bo'lsa, balo, hammasini biladi.

— O'ziyam o't-po't tutatadimi yo faqat borib-kelib turadimi? — kiziqib so'radi Avdiy.

— Lyonkami? Chekmay bo'ladimi? Hozir chekmagan odam yo'q. Lekin chekishini xam bilish kerak,— donolik qila boshladi Petruxa. Birovlar og'zidan ko'pigi kelguncha chekadi. Bunaqalar ishga yaramaydi, Palag'da. Tayyor oshni buzadi. O't deganimiz qanaqa — odamni xursand qiladi, kayfing chog' bo'ladi, o'zingni jannatga kirganday sezasan, yayraysan.

— Nimasi kayfingii chog' qilarkin?

— Nimasi bo'lardi? Shu ketyapsan. Oldingdan bir kichkina jilg'a chiqdi. O'taman desang, bir sakrab o'tasan-ketasan. Sening nazaringda bo'lsa, u katta daryo, okean, bahri-diling ham ochiladi-da. Ana shu-da senga kayf. O'zi bo'lmaydi bu kayfning. Qaerdan topasan o'sha kayfni? Non sotib olasan, kiyim-kechak sotib olasan, oyog'ingga olasan, boshingga olasan. Aroqni ham hamma o'z puliga olib ichadi. O't bo'lsa, juda qimmat, lekin rohatijon-da: shirin bo'lib pinakka ketasan. Xuddi kino ko'rayotganday bo'lsan. Farqi shuki, kinoni yuzlab, minglab odamlar ko'radi. Sen esang, o'zing xon — qo'lankang maydon. Birovning sen bilan ishi yo'q. Tumshug'ini suqadigan bo'lsa boplab basharasiga tushirasani. Jo'na. Nima ishing bor, itvachcha. Qanday xohlasam, shunday yashayman. Aralashma. Ana, gapning po'stkallasi shu! — U jim bo'lib qoldi. Keyin jinchiroqdek miltillagan ko'zlarini qisib, yuzsizlik bilan dedi: — Menga qara, Avdiy, balki totib ko'rarsan, a? Bir kayf qilmaysanmi? Jindekkinasini bekitib qo'yanman...

— Oldin o'zim topay,— bosh tortdi uning taklifidan Avdiy,— keyin totib qo'rарman.

— Rost aytasan,— qo'shildi unga Petruxa,— o'zingniki beminnat.— Yana jim bo'ldi. So'ng yana jag'i ochildi: — Bu ishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Atrofdagi hamma bizga yomon ko'z bilan qaraydi. Kampirsholardan tortib ko'kragiga taqir-tuqirlarni osib olgan veteranlargacha, har bir pensioner, boshqalarni aytmay qo'ya qolay, hammasi bizga dushman, bizni ko'rolmaydi. Ularga qolsa, darrov bizni sud qilsa-yu, it bormas joylarga badarg'a qilib yuborsa. Shuning uchun bo'ynimizni qisib, ko'zga tashlanmay, g'arib-bechora bo'lib yuramiz. Lekin haqimizni olaylik-chi! Ana unda ko'ring bizni! Cho'ntakda puling jaraqlab turgandan keyin ularning qosh-qovog'iga qarab o'tirasammi!.. Lekin sira esingdan chiqarma, Avdyas. Bir gap bo'lsa, miq etib og'zingni ochma! Bu qonun. Gullab qo'ysang, tamom. Joningdan umidingni uz. Itday bo'g'izlab ketishadi. Hatto qamoqda yotgan bo'lsang ham, qo'llari yetadi. Hazillashib bo'lmaydi bular bilan...

Gap uzoq cho'zildi. Ma'lum bo'lishicha, Petruxa allaqaylarda, bir qancha qurilishlarda ishlab ko'ribdi. Yoz kelishi bilan Mo'yinqum atroflaridagi cho'llarga jo'narkan. Bu yerlarda nashapoyalarni yax-shi bilarkan. Ayniqsa, soylar va jarliklarda changalzor bo'lib yotadi. Ana, hosil! Istaganingcha yig'ib ol. Butun dunyoga desang ham yetib ortadi. Uyda yolg'iz qari onasi bor ekan. Icharkan. Akalari qutb tomonlarga, gazoprovod qurilishiga ketishgan ekan. Pulni katta-katta ishlasharkan. Lekin qishiningsovug'iga chidab bo'lmas ekan. Yozda esa chivin mo'r-malaxdek odamga yopirilarkan. U bo'lsa har yili bir marta ko'zi qisiq Osiyoda o'ynab kelarkan. Keyin to yanagi yilgacha yallo qilib yuradi. Xohlasa tukuradi, xohlasa ko'piradi. Sherigi Lyonkaning oilasi bundan ham ishkalroq. U na onasini ko'rgan va na otasini. Bolalar uyida o'sgan. Murmanskda uzoq safarlarga chiqadigan kema

kapitani bor ekan. Ko‘proq Kubaga qatnarkan. Bir kuni u xotini bilan kelib, hamma qog‘ozlarni to‘ldirib Lyonkani o‘ziga o‘g‘il qilib olibdi. Ularning bolalari yo‘q ekan. Lekin besh yildan so‘ng yana bari ayqash-uyqash bo‘lib ketibdi. Kapitanning xotini o‘ynashi bilan Leningrad tomonlarga qochibdi. Kapitan ichkilikka berilibdi. Uni portning o‘zida ishlashga qoldirishibdi. Lyonka maktabda o‘lganning kunidan o‘qibdi. Goh kapitanning xolasinikida, goh buxgalter bo‘lib ishlaydigan akasinikida turibdi. Buxgalterning xotini esa naq yalmog‘izning o‘zi. Dard ustiga chipqon deganday bola sho‘rlik qarovsiz qolibdi. Diydasи qotibdi. Jonidan to‘yib kapitannikidan ketib qolibdi. Keyin suv osti kemasining sobiq jangchisi, urush nogironi bo‘lgan bir odamnikidan boshpana topibdi. Lekin bu kishi Lyonkaga hech qanday ta’sir ko‘rsatolmabdi. Bola bevoshlukka o‘rganib qolgan. Xohlagan joyiga boradi, xohlaganda keladi. Mana, bu yil Lyonka ikkinchi marta nashaga ketyapti. O‘zi ham nashavandlikka o‘rganib qolganga o‘xshaydi. Qarang, endigina o‘n oltiga kirgan bola, hali o‘n gulidan bir guli ochilmagan... Avdiy Kallistratov bu achinarli gaplarni eshitarkan, yuragi juda ezildi, yig‘lamoqdan beri bo‘ldi. Nashavandlik borgan sari o‘z komiga ko‘proq navqiron yosh yigitlarni tortib ketyapti. Tezroq bu hodisaning mohiyatini ochib, avra-astarini ag‘darib tashlamasa bo‘lmaydi. Avdiyning eng katta maqsadi hozir shu. Hayot dengizining usti sokin ko‘ringani bilan uning tagida ko‘zga chalinmaydigan shiddatli oqimlar borligi ravshan. Shunga o‘xhash qayg‘uli voqealar ichiga chuqurroq kirgani sayin bunga ko‘proq ishonch hosil qilmoqdaydi. Turli bemazagarchiliklar qilishga mayllar uyg‘otadigan shaxsiy va xususiy sabablar bo‘lishi mumkin. Lekin yoshtar o‘rtasida bu kabi kasalliklar va bema’nigarchiliklarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy sabablar ham mavjud. Bir qarashda bu sabablarni ilg‘ab olish oson emas. Ular kasallikni butun tanaga tarqatadigan, biri-biri bilan bog‘langan qon tomirlarini eslatardi. O‘z shaxsiy miqyosing va darajangdan turib ushbu sabablarning tagiga yetib boraman deb, qancha urinma, baribir foydasi yo‘q. Umuman hech qanday natijaga erisholmaysan. Bunda kam deganda yirik sotsiologik taddiqot yaratish, undan ham yaxshisi, matbuot va televiedenie orqali keng babs uyuştirish kerak. Osmondagи oyni xohlamaysizmi, mabodo? Xuddi o‘zga sayyoralardan kelgan mavjudotga o‘xshaysiz, a? Uning seminaristlarga xos cheklanganligi, kundalik hayotni bilmasligini hisobga olganda, osmondan tushgan desa ham, xato bo‘lmasdi. Keyin u bir narsaga ishondi: bunday voqealar haqida ochiq-oshkora fikr yuritishdan hech kim manfaatdor zmas ekan. Va bu narsalar go‘yo jamiyatimizning obro‘sini saqlash uchun qilinadi. Vaholanki, bunda avvalo, hamma gap boshqa shaxslarning kayfiyatlari hamda fikrlariga chambarchas bog‘liq holda o‘z mavqeiga putur yetkazmaslik, uni yana bir karra xavf ostiga qo‘ymaslik ustidagina boradi. Jamiyatning qaysidir bir qismida ro‘y berayotgan ishkalliklar haqida bong urish uchun aftidan, boshqa ko‘p narsalar qatori, o‘ziga zarar keltirib qo‘yishdan cho‘chimaslik kerak. Baxtigami, baxtsizligigami, Avdiy Kallistratov bunday g‘addor qo‘rinch yukidan xoli. Lekin hali turmushning barcha past-balandliklari, kashfiyotlari oldinda edi. U endigina bu yo‘lga kirib kelayotgandi. Endigina adashgan dillarga mehru shafqat va xayrixohlik yuzasidan hayotning o‘ziga qorong‘u tomonlarini tashnalik bilan o‘rganmoqchi, tajribalaridan o‘tkazmoqchi edi. Yo‘ldan ozganlarning jilla qursa bir kismiga maddad yetkazsam, derdi. Yo‘q, u nasihatlar qilmoqchi, va’zlar o‘qimoqchi, ta’nalar yog‘dirmoqchi, ayblamoqchi emas. U halokatli hayotni yolg‘iz qayta qurish badaligagina qutulish mumkinligini o‘z shaxsiy ishtiroki va shaxsiy namunasi orqali ularga isbotlamoqchi, shu ma’noda, ularning har qaysilari jilla qursa, o‘z qalblari doirasida inqilob qilishlari zarurligini uqdirmoqchi edi. Lekin bunday go‘zal tilak, g‘oyalar benihoya qimmatga tushishini hatto hayoliga cham keltirmasdi.

Yosh edi-da. Faqat yosh edimi... Axir, seminariyada Isoning tarixini o‘rganayotganda, uning chekkan azobi va riyozaatini o‘z jonida tuymaganmidi va o‘shanda uni Gefsiman bog‘ida Iuda sotganligini o‘qigandi, ho‘ng-ho‘ng yig‘lamaganmidi! O’sha kun tig‘ida Iso Ruhilloni G’ulqof tog‘ida qatl qilganlarida, buni olam imoratining inqirozi va halokati deb anglamaganmidi! Dunyo o‘z farzandlarini ularning eng pokiza g‘oyalari va ruhiy umtilishlari uchun hammadan ko‘proq jazolaydi. Lekin o‘shanda hali g‘o‘r yigitcha olam qurilishing bu qonuniyati ustida o‘ylab ko‘rmagandi. Balki bu o‘sha g‘oyalar o‘lmasligi va oxir-oqibatda tantani qilishi uchun zarurdir. Ehtimol, buni mulohaza

qilib ko‘rish kerakdir? Rostdan ham, shunday bo‘lsa-chi? Bu g‘alabaning bahosi emasmikin?

Avdiy boshda bu haqda Viktor Gorodetskiyga og‘iz ochgan edi. Yoshlari o‘rtasida uncha katta farq yo‘q esa-da, Avdiy uni Nikiforovich deb hurmat qilardi. Bu suhbat Avdiy diniy seminariyadan ketish fikriga tushgan kezlarda o‘tgan edi.

— Nima ham derdim? Bilasanmi, ota yigit, seni ota yigit deganimga ranjima, Avdiy, seni shunday deb chaqirish menga juda yoqadi,— deb mulohaza yuritardi Gorodetskiy, choy ichib o‘tirisharkan,— Sen seminariyadan ketasan, to‘g‘rirog‘i, seni cherkovdan chiqarishadi. Ulamolarining seni osonlikcha qo‘yib yuborishmaydi. Seni shakkok deb e’lon qilishadi. Cherkov unda-munda bo‘lib turadigan bunaqa ishlarni yoqtirmaydi. Axir, u yerda senga hech kimadolatsizlik qilgani yo‘q. Seni hech kim xo‘rlagani, ezgani, qoningni ichgani ham yo‘q. Cherkov kishilari bilan zarracha ham san-manga bormagansan. Ota yigig, sening oldingda cherkov zarracha ham aybdor emas... Nima desamikin, sen sof g‘oyaviy maqsadlar tufayli aloqangni uzyapsan.

— Ha, Viktor Nikiforovich, rost aytasiz. To‘g‘ridan-to‘g‘ri sabablar yo‘q. Ginaxonlik, xafagarchilikning ham o‘rni emas. Bular juda jo‘n gaplar. Undan keyin gap mening o‘zimda ham emas. Masala shunda-ki, mavrusiy dinlar bugunga kelib mutlaqo eskip qoldi. Ular endigina uyg‘onib kelayotgan ibridoiy urug‘chilik ongiga qarata murojaat qilgan edi. O‘zingiz ham tushunasizki, agar tarix dinlarning umumjahon ufqiga yangi bir bosh siymo — Xudo — Zamondosh siymosini ilgari sursa, ushbu siymo hozirgi davr talab-ehtiyojlariga javob beradigan yangi ilohiy g‘oyalarni ko‘tarib chiqsa, ana o‘shanda diniy ta’limot hali o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaganligiga ishonsa bo‘ladi. Mening u yerdan ketishimning sababi shunda.

— Tushunaman, tushunaman! — ko‘ngilchanlik bilan kulib qo‘ydi Gorodetskiy choy ho‘plarkan. So‘ng davom etdi: — Bu gaplarining odamning etini jimirlashtirib yuboradi. Sening nazariyang haqida fikr bildirishdan oldin shuni aytib qo‘yay. Mana, bemalol, gasht qilib choy ichib o‘tiribmiz. Men chin dildan o‘rta asrlarda yashamaganim uchun suyunaman. Bilasanmi, ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan bunday bid’at uchun katolik Yevropada, Ispaniya yoki Italiyada sening botir og‘zingdan chiqqani va mening teshik qulog‘im eshitgani uchungina, ota yigit, avval ikkalamizni ham nimta-nimta qilishardi, keyin o‘tda yoqishardi, ana undan keyin kulimizni ko‘kka sovurishardi. Yanchib, maydalab. Inkvizatsiya jon-jon deb, bizni tilka-pora qilib tashlagan bo‘lardi. Bir sho‘rlikning ustidan u xudoning modarzodligi ustida gap ketganda, kulib qo‘ydi, deb yozgan ekanlar. Muqaddas inkvizatsiya nega Xudodan kulasan deb, uni o‘tga tashlagan. Ko‘rdingmi, sen bilan bizni-ku, asti qo‘yaver, nima bo‘lishimizni...

— Viktor Nikiforovich, uzr, gapingizni bo‘lamani,— Avdiy miyg‘ida istehzoli kulib, seminaristlar kiyadigan qora ridoning tugmalarini asabiy qaday boshladi.— Bilib turibman, nimaga kulayotganingizni. Lekin hazilni qo‘yaylik. Agar bizning zamonamizda inkvizatsiya bo‘lganda va mabodo, ertaga bid’at uchun o‘tda yonishga to‘g‘ri kelganda, men baribir o‘z so‘zimdan qaytmash edim.

— Ishonaman,— deb boshini silkidi Gorodetskiy.

— Men bu fikrga tasodifan kelganim yo‘q. Nasroniylik tarixini o‘rganib va hozirgi zamonni sinchiklab kuzatib shunday xulosaga keldim. Men Xudoning yangi, zamonaviy shaklini izlayman, mayli, uni hech qachon topolmasam ham...

— Tarixni tilga olganing yaxshi,— uning fikrini bo‘ldi Gorodetskiy.— Endi menga quloq sol. Sening yangi Xudo haqidagi bu fikring — g‘aliz, mavhum nazariya. Bizning aqlli ziyyolilarimiz uni nimasi bilandir aktual g‘oya deb atagan bo‘lardilar, Ilgarigi odamlarning tili bilan aytganda, bu mulohazalaring — aqlbozlik. Sen Xudo yaratmoqchisan. Lekin har qancha jozibador va sehrli ko‘rinmasin, uni aqliy muhokamalar bilan yaratib bo‘lmaydi. Bilasanmi, agar Iso qatl qilinmaganda, u Xudo bo‘lmasisdi. Hamma teng, barobar odil saltanat qurish g‘oyasiga mubtalo ul noyob zotni odamlar oldin vahshiyona bir tarzda o‘ldirdilar, so‘ng uni yuksaklarga ko‘tardilar, hamdu sano o‘qidilar, qayg‘urdilar, uning azobini o‘z yuraklariga oldilar. Bunda tavof va o‘z-o‘zini ayblash, tavba va umid,

jazo va marhamat — insonni sevish aralash bo‘lib ketdi. Lekin keyin borib, hammasi buzib talqin qilindi va ma’lum kuchlarning ma’lum manfaatlariga bo‘ysundirildi. Ha, barcha umumbashariy porloq g‘oyalarning taqdiri doim mana shunday bo‘lgan. Mana, endi o‘zing o‘ylab ko‘r. Katta g‘oya tufayli dorga tortilgan, xoch azobini boshidan kechirgan, boshini jodiga qo‘ygan Xudo-Majzub qudratliroq, maftunkorroq va yaqinroqmi yoki zamonaviy fikrlaydigan mukammal oliy hilqat, mubham ideal afzalroqmi?

— Men bu haqda o‘ylaganman, Viktor Nikiforovich. Siz haqsiz. Lekin men o‘tmishni qayta ko‘radigan vaqt yetdi, degan fikrimdan voz kechmayman. Bizning Xudo haqidagi tasavvurlarimiz qanchalar mutlaq va o‘zgarmas bo‘lmasin, ular endilikda dunyo haqidagi yangicha bilimlarga sira mos kelmay, eskirib qoldi. Bu ayon haqiqat. Bu haqda tortishib o‘tirmaymiz. Balki men mubham fikrga asoslanayotgan, qidirilmaydigan narsani qidirishga urinayotgandirman. Nima ham derdik! Mayli mening fikrlarim mutlaq diniy ga’limotga to‘g‘ri kelmasin. Lskin men nima qilay axir. Kimda-kim meni bu fikrimdan qaytarolsa, o‘zimni baxtli sanardim.

Gorodetskiy tushunarli deganday qo‘llarini yozdi:

— Seni tushunib turibman, ota Avdiy. Lekin bari bir, seni ogohlantirib qo‘yishim kerak. Xudo izlash cherkov kishilarining tasavvurida cherkovga qarshi eng ko‘rinchli jinoyat bilan barobar. Ular nazarida bu dunyonи ag‘dar-to‘ntar qilib yuborish bilan teng.

— Buni bilaman,— dedi xotirjam Avdiy.

— Lekin Xudo izlashni cherkovdan tashqaridagilar ham qaytaga badtarroq yoqtirmaydilar. Sen buni o‘ylab ko‘rganmisii?

— G’alati fikr-a,— hayratlandi Avdiy.

— Bosh omon bo‘lsa, ko‘raverasan hali...

— Lekin nega unday? Shu yerga kelganda ularning fikrlari bir joydan chiqadimi?

— Gap bir joydan chiqishida emas. Umuman, buning hech kimga keragi yo‘q...

— Qiziq, eng kerak narsaning keragi bo‘lmasa...

— Qaydam. Senga juda qiyin bo‘ladi, ota Avdiy. Senga havas qilmayman. Lekin seni yo‘lingdan to‘xtatmayman ham,— xulosa qildi Gorodetskiy.

U haq edi. Hamma gaplari haq. Ko‘p o‘tmay Avdiy Kallistratov bunga to‘la ishondi.

Seminariyadan haydalish arafasida shunday voqeа bo‘lib o‘tdi. O’sha kuni ularning shaharchasiga mo‘tabar zot — patriarchyaning o‘quv yurtlari bo‘yicha Koordinatori ota Dimitriy tashrif buyurdi. Uni rektorat vokzalda e’zoz-ikrom bilan qarshi oldi. Seminariyalarda uni ota Koordinator deb atashardi. Ko‘rinishidan ko‘rkam, salobatli, oqil va dono (bu vazifada shunday bo‘lishi ham kerak), o‘rta yoshlardagi ota Koordinator ro‘y bergen favqulodda hodisa munosabati bilan kelgan, buning sababchisi a’lochi seminaristlardan biri Avdiy Kallistratov bo‘lib, u muqaddas bitikni ochiqdan-ochiq taftish qilish va bid‘at yo‘liga kirgan, Xudo-Zamondosh degan shuhbali fikrni ko‘tarib chiqqan edi. Oqil va orif ota Koordinator o‘z obro‘-e’tibori, e’timodli so‘zi bilan adashgan sabiyni hidoyat yo‘liga qaytarish, bu ishni shovqin-suron ko‘tarmay imi-jimida amalga oshirish niyatida edi. Muhimi, dindan qaytganning ovozi ko‘chaga chiqmasligi kerak. Shu ma’noda cherkov o‘z sha’ni, obro‘-e’tiborini-hamma narsadan yuqori qo‘yadigan boshqa dunyoviy idoralardan farq qilmaydi. Avdiy Kallistratovning o‘rnida boshqa pishiqroq, tajribaliroq odam bo‘lganda, ota Koordinatorning niyatini to‘g‘ri payqar va shunga yarasha ish qilardi. Lekin Avdiy ko‘zga ko‘ringan cherkov namoyandasini haqiqatan ham tushunib yetmadi. Shu bilan ruhoniy otani ham mo‘ljalidan adashtirib yubordi.

Avdiy ota Koordinatorning huzuriga kun o‘rtasida chaqirildi va uning qoshida ozmas-ko‘pmas, uch soat o‘tirdi. Bosh korpusning zallaridan biriga akademik cherkovning mehrobi o‘rnatilgan edi. Ota Koordinator oldin ana shu yerda birga ibodat qilishlikni taklif etdi.

— Chirog‘im, fahmlab turgandirsan, sen bilan jiddiy gapimiz bor. Lekin bot shoshmagaymiz. Avvalo, meni tangri taoloning muqaddas mehrobiga boshla,— dedi u Avdiya kosasidan bo‘rtib chiqqan qizargan ko‘zlarini qadab,— avvalo birgaliqda ibodat qilib olaylik, so‘ng ko‘rgaymiz.

— Xudo xayringizni bersin, taqsir,— dedi Avdiy,— men tayyorman. Shaxsan men uchun ibodat ollo-taologa karatilgan turli o‘y-hayollarimning eng uyg‘un nuqtasidir. Xudo-Zamondosh haqidagi fikr miyamga qattiq o‘rnashib qolganga o‘xshaydi.

— Sabrsizlik shayton ishi, chirog‘im,— bosiq dedi ota Koordinator yumshoq o‘rindiqdan turarkan. U Xudo-Zamondosh, turli uyg‘un o‘y-hayollar haqidagi so‘zлarni ham qulog‘ining bir chekkasidan o‘tkazib yubordi. Tajribakor ruhoniy arbob boshdanoq barini chigallashtirib o‘tirishni ma’qul ko‘rmadi.— Ibodat qilaylik. Senga aystsam,— davom etdi u,— qancha ko‘p yashaganim sari Xudoning marhamati bizga shunchalar cheksiz, rahm-shafqati shunchalar ulug‘ ekanligiga tobora ko‘proq imon keltiryapman. Hammasini unutib ibodatga berilgan chog‘ingda buni yanada chuqurroq his qilasan va o‘zingni arjumand sezasan. Yaratgan tangrimning bizga muhabbat haqiqatan ham cheksiz. Bizning ibodatlarimiz uning oldida havoyi chuldirashlardan boshqa narsa emas. Lekin bu Xudo birlan chambarchas birligimizning dalolatidir.

— Baayni haqiqatni aytdingiz, taqsir,— deb ko‘ydi Avdiy eshik oldida boshini egib turarkan.

Lekin u hali chindan ham g‘o‘r va sabr-qanoatsiz edi. Suhbat chog‘ida u odob yuzasidan sukut saqlab o‘tirmadi va darhol gapning po‘skallasiga ko‘cha qoldi.

— Izn bersangiz, aytay. Bizning tushunchamizda Xudoning chek-chegarasi yo‘q. Lekin yer yuzining odamlarida fikr bilishdan yana bilishga tomon o‘sib boradi. Bundan bir xulosa kelib chiqadi: Xudo ham o‘sishi kerak. Siz nima deb o‘ylaysiz, taqsir?

Koordinator ota endi javobdan o‘zini olib qocholmadi.

— Qiziqqonlik qilyapsan, chirog‘im,— dedi u tomog‘ini ohista qirib yo‘talib, so‘ng ust-boshini to‘g‘rilagan bo‘ldi.— Yoshlikda nimalar bo‘lmaydi. Lekin o‘shanda ham Xudo haqida bunday hayolga borish kerak emas. Yaratgan egamni bilish azal-abad bandasining qo‘lidan kelmaydi. U bizning ixtiyorimizdan tashqarida mayjud. Hatto materializm ham tan oladi: borliq ongimizdan tashqarida deb. Inchunin, Xudo ham.

— Ma’zur tuting, taqsir. Lekin hamma narsani o‘z oti bilan atagan ma’qul. Bizning ongimizdan tashqarida Xudo yo‘q.

— Sen shunga aminmisan?

— Ha. Shuning uchun ham aytyapman.

— Mayling. Lekin shu bilan birga nuqta qo‘ymaymiz. Aytaylik, ta’lim yuzasidan andak munoqasha qilamiz. Bunga biz ibodatdan so‘ng qayturmiz. Kani, endi marhamat qil, meni ibodatga boshla.

Ota Koordinator akademik cherkovda Avdiy bilan birga ibodat qilmoqchi bo‘lganligining o‘zi mantiqan olib karaganda, yosh seminaristga ko‘rsatilgan katta iltifot edi. Shuning uchun haydalay deb turgan talaba ushbu qulay vaziyatdan foydalanaman desa, ne ajab.

Ular uzun yo‘lakdan oldinda ota Koordinator, yon tomonda picha orqaroqda Avdiy Kallistratov yurib borardilar. Ruhoniy otaning adl qomatiga, ishonch bilan qadam tashlashiga, to‘pig‘igacha erkin to‘kilib turgan, unga o‘zgacha bir ulug‘vorlik bag‘ishlagan qora ridosiga qararkan, unda asrlar bo‘yi yetilib kelgan nuroniy bir qudrat mujassamligini his qildi Avdiy. Bu kuch har bir inson faoliyatida din-iymon aqidalarini himoya qilaroq, xammadan burun o‘z manfaatlarini ko‘zlaydi. Hayotda haqiqat yo‘llarini axtararkan, Avdiya mana shu qarshi turgan kuch bilan to‘qnashishga to‘g‘ri keladi. Hozircha har qaysilari o‘zlaricha ishonadigan va imon keltiradigan U sari qadam teshlardilar. Har bir insonga U nomi bilan dunyo va odam bolasining o‘rni haqidagi barcha uchun barobar fikrlarni uqdirishlari lozim edi. Unysi ham, bunisi ham, U nomiga tavakkul qilardilar, zero, yolg‘iz O‘zingga hamma narsadan xabardor va hammaga barobar marha-matli. Ular yurib borardilar...

O’sha soat akademik cherkovda hech kim yo‘q edi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u hayhotday bo‘m-bo‘sh ko‘rindi. Umuman, uning boshqa cherkovlardan farqi ham yo‘q edi. Faqat qorong‘ilatibroq qo‘yilgan mehrobing ichkarisidagi ko‘zлari bir nuqtaga hayolchan tikilgan Isoning qoramfir sochlar o‘ramidagi yuzi haddan ziyoda oqarib ko‘rinardi. Unga bo‘zday yorug‘ tushirib qo‘yilgandi. Har

ikkovlari — Xudoning sho'boni ham, hali hur fikrlashdan mahrum bo'lмаган talaba ham cho'nqayib tavofga turdilar, nigohlarini O'ziga tiktilar, butun o'y-hayollari bilan O'ziga berildilar. Ular yolg'iz O'ziga roz aytish umidida edilar. Zero, O'zi yer yuzining istagan nuqtasida, kunning istagan vaqtida istagancha odamlar bilan, hattoki butun insoniyat bilan bir vaqtida muloqot qila olardi. Mana shunda ham zohir edi O'zining intihosizligi.

Bu safar ham har qachongiday bo'ldi: ibodat o'yinini ado etarkan, ularning har biri tashvish-anduhlarini O'ziga bayon qilmoqni, O'ziga imon-e'tiqoddan kelib chiqadigan xatti-harakatlarini oqlamoqni istardi. ularning har birlari koinotda shu qadar kichkina bir nuqtani shu qadar kichik muddatga ishg'ol qilib turarkan, o'zlarini tasavvurdagi shu koinot bilan muvofiqlashtirishga urinar, cho'qinar, yorug' olamga mehmon bo'lganligi uchun Yaratganga shukrona aytar, hamma kunlardan ham keyin keladigan oxir kun eshikka tashrif buyurganda, tilda va dilda O'zining nomi bilan jon olishini iltijo qilardilar...

Keyin ular yana o'sha xonaga o'z vazifalarini ado etgani qaytdilar. Yuzma-yuz o'tirib, ochiqdan-ochiq so'yashib oldilar.

— Shunday qilib, chirog'im, senga pand-nasihat aytmoqchi emasman,— deb so'zini boshladi ota Koordinator Avdiy Kallistratovning ro'parasidagi yumshoq charm o'rindiqqa qulayroq joylashib olarkan. Avdiy stulda o'tirib, seminariyaning odmi kiyimlari ostidan yog'ochdai turtib chikqan oriq tizzalariga qo'llarini tiragancha tavoze bilan uni eshitishga hozirlandi.

Avdiy masalani uzil-kesil qiladigan gapni kutgandi. Lekin xazratning nigohida na qahr va na boshqa bir g'araz uqmay bir oz ajablandi. Aksincha ota Koordinator tashqaridan bag'oyat xotirjam, vazmin ko'rinardi.

— Qulog'im sizda, taqsir,— dedi itoat bilan talaba.

-- Gap shunday. Men sening tanobingni tortib qo'yGANI. kelganim yo'q. Senga o'git aytib ham o'tirmayman. Bular jo'n narsalar va senga munosib emas. Seni yengiltak deyolmayman. Lekin o'ylamay-netmay qizishib aytayotgan gaplaring odamning g'ashini keltirmay iloji yo'q. Fahmlagan bo'lsang kerakkim, sen bilan o'zimni teng qo'yib gaplashyapman. Ochig'ini aytsam, sen anchamuncha aqlisan... Sirli joyi yo'k, cherkov o'z ta'limotiga qarshi borishingdan manfaatdor emas. Aksincha, Xudo yo'lida butkul va sira og'ishmay ko'shish ko'rsatishiningni istaydi. Men ham buni yashirib o'tirmayman. Sening marhum padaringni yaxshi bilardim. U bilan doim fikrimiz bir joydan chiqardi. Shuning uchun qulog'ingni otalarcha cho'zib qo'yishim mumkin edi. Otang chin xristian, ezgu odam edi. Buning ustiga ancha bilimdon, ma'rifatli ham edi. Nasib etgan ekan, mana sen bilan idora odamlarining rasmiy tili bilan aytganda, dyakon, ko'p yillar cherkovda xizmat qilgan marhum dyakon Innokentiy Kallistratovning solih farzandi bilan ham ko'rishdim. Nima bo'lyapti o'zi? Yashirib o'tirmayman, boshda sen haqingda ko'p yaxshi gaplarni eshitgandim. Lekin bu yerda hozir odamni ancha tashvishga solib qo'ygan masala ustida keldim. Sen hali oddiy talabasan. Lekin halitdan Xudoning ta'limotini taftish qilishga tushibsan. Og'zingdan chiqayotgan befarishta gaplarga qulog' solsam, yoshligingga borib, chakki qadam tashlayotganga o'xshaysan. Bir narsaga ishongim keladi. Gap shundaki, anchayin sabablarga ko'ra odam yoshlikda o'ziga qattiq bino ko'yadi. Turli-tuman odamlar fe'l-atvori, ta'lim-tarbiyasiga ko'ra bu turlichcha namoyon bo'ladi. Turmushning tegirmonidan butun chiqqan, yoshi bir yerga borib qolgan odam hayot shomida Xudoga ishonchini yo'qotgani yoki ilohiy istiloh va tushunchalarni o'zboshimchalik bilan talqin qilganligini hech eshitganmisan? Yo'q, bunaqa voqeа ro'y bersa ham, ahyon-ahyon tasodif bilan ro'y beradi. Odamning yoshi ulg'aygan sari ilohiyotning mohiyatini shuncha chuqur anglaydi. Axir, barcha Yevropa faylasuflari, xususan, alg'ov-dalg'ov inqilob davri arafasida dinga qarshi dahriylarcha keskin hujum boshlagan (bu hujum uch yuz yildan beri tinmay davom etib kelyapti) anavi frantsuz entsiklopedist allomalari ham juda yosh edilar, shunday emasmi?

— Rost aytasiz, taqsir, yosh edilar,— tasdiqladi Avdiy.

— Ana ko'rdingmi? Bu yoshlikka, nima desamikin, ekstremizm xos ekanligini ko'rsatmaydimi?

Hozir yosh-qari barchaning og‘zida shu so‘z. Shunday qaraganda, ekstremizm yosh bilan bog‘liq bir narsa bo‘lib chiqadi.

— To‘g‘ri-yu, lekin siz aytgan o‘sha ekstremistlar,adolat yuzasidan tan olishimiz kerakki, e’tiqodlari benihoya kuchli odamlar, taqsir,— luqma tashladi Avdiy.

— Hech shubhasiz, shubhasiz,— shosha-pisha rozi bo‘ldi ota Koordinator,— ammo bu alohida masala. Har holda ular cherkov xodimi bo‘lmaganlar, denga munosabatlari ham xususiy ishdan nariga o‘tmagan. Ularning yo‘llari boshqa. Sen esa, kelajakda sho‘bon bo‘lasan, charog‘im.

— Ana ko‘rdingizmi,— uning so‘zini bo‘ldi Avdiy,— axir, odamlar menga va mening bilimlarimga to‘la ishonishlari kerak.

— Sabr qil,— qovog‘ini uydi ota Koordinator,— sening foydangni ko‘zlab aytayotgan gaplarimni tushunishni istamasang, unda mayli, boshqacha so‘zlashamiz. Xo‘s, birinchidan, din-iymonga shak keltiradiganlar sendan avval ham o‘tganlar, sendan keyin ham bo‘ladilar. Senga o‘xshagan shakkoklarni cherkov ko‘p ko‘rgan. Nima bo‘pti? Har bir ishning bir qiyig‘i bor. Bunday o‘tkinchi, tasodif voqealar bundan keyin ham bo‘lib turadi. Lekin, ularning bari muqarrar bir yechimga keladi: yo kimsa o‘z shubha-gumonlaridan butunlay voz kechadi va og‘ishmay, g‘ayrat-jihod ko‘rsatib chin din-iymon yo‘lini tutadi, natijasida ruhoniylar o‘rtasida ham mag‘firatl bo‘ladi, yo kufr yo‘lidan qaytmasa, unday murtad cherkov tomonidan rad etiladi va boshiga tavqi-la’nat yog‘iladi. Uchinchi yo‘l yo‘q. Bo‘lishi ham mumkin emas. Bilasanmi shuni?

— Ha, taqsir, lekin uchinchi yo‘l mendanam ko‘proq cherkovning o‘ziga kerak.

— Ana xolos,— masxaralaganday boshini chayqadi ota Koordinator.— Topgan gapingni qara,— deb xitob qildi va achchiq kinoya bilan davom ettirdi: — Qani, marhamat qilib, menga aytib ber-chi, Muqaddas cherkovga taklif qiladigan uchinchi yo‘ling nima ekan? Inqilob emasmi haytovur? Munaqasini hali tarixning qulog‘i eshitmagandi...

— Asrlar bo‘yi qotib qolgan fikrlarni o‘zgartish, aqidabozlikdan qutulish, inson ruhiga Xudoni anglashda hurlik berish va Xudoni inson borlig‘ining eng oliv zuhuroti deb bilish...

— Astag‘furillo, bas, bas! — titrab, tutab ketdi ota Koordinator.— Bu o‘zboshimchalik juda kulgili, chirog‘im!

— Agar siz, taqsir, mustaqil fikrga ega bo‘lishlikni besarlik deb qoralasangiz, gaplashib o‘tirishimizning boshqa ma’nosи yo‘q!..

— Baayni haqiqat — sira ma’nosи yo‘q! — qizishib ketdi ota

Koordinator va o‘rnidan turdi. Uning ovozi guldirab chiqqa boshladi:— Ko‘zingni och, bola! Takabbur bo‘lma! Halokat chohiga borib qolibsan! Sen badbaxt, Xudoni faqat o‘z tasavvuringda mayjud deb bilasan. Odamni Xudo uzra Xudo deb tushunasan. Holbuki, ongning o‘zi falakning iqtidori bilan yaratilgandir. Sen yangicha fikrlash niqobi ostida bid’atga berilib, bani bashar necha ming yillab og‘ir qyinoq va iztiroblar ichida topgan, unga benihoya qimmatga tushgan, halolni — halol, haromni — harom qilgan so‘zlarni yo‘qqa chiqarmoqchisan. U so‘zlar necha-necha avlod inson qavmlarining ilohiy ahkomiga aylangan. Sen aqidabozlikdan xalos bo‘laman deb, nimaga erishasan. Holbuki, bu aqida bu ahkom Xudoning inoyatidir. Cherkov bid’atsiz yashab kelgan, yana yashayveradi. Aqidasisz, ahkomsiz din-iymon yo‘q. Hamon gap ochildi, esingda tut: aqidaparastlik — har qanday qonun-qoida, nizomlar, har qanday hokimiyatning tag-zaminidir. Esingdan chiqmasin. Sen Xudoni go‘yo yangi fikr bilan yaxshilamoqchi bo‘lasan, aslida esa uni butunlay inkor etasan. Hatto, o‘zingni Uning o‘rniga qo‘yishdan or qilmaysan! Lekin yaxshilik va marhamat senga bog‘liq emas. Senga o‘xshaganlarga ham bog‘liq emas. Xudoning inon-ixtiyori o‘zida. Bizni nima qilsa, o‘zi biladi. Sening shakkokliging o‘z boshingni yeysi. Xudovandi karim esa boqiy va tonuqdir! Omin.

Avdiy Kallistratov ota Koordinator qoshida lablari qumday oqargancha turardi: uning bunchalar qahr-g‘azabga minib, jazavaga tushishini ko‘rib yuragi ezildi. Lekin baribir o‘z deganidan toymadi:

— Ma’zur tuting, taqsir. O‘zimizdan chiqayotgan narsalarni ilohiy kuchlarga nisbat berib o‘tirmaylik. Nega bo‘lmasa, U bizni bu qadar ojiz va notugal qilib yaratdi. U o‘zi bino qilgan

maxluqlarni ham ikkita teskari tomonga — yaxshilik va yomonlikka ajratib yubormasligi mumkin edi-ku. Nega O'zi bizni bunchalar shak-shubhalar, illatlarga giriftor qilib qo'ydi? Nega odamlar bunchalar makkor? Xudoning o'ziga murojaat qilganlarida ham, makkorlikdan o'zlarini tiyib turolmaydilar. Xudoga buning nima keragi bor? Siz Din-iymon ta'limi mutlaq kuchga ega bo'lishini istaysiz. Olam va odam ruhining mohiyati bir marta birvarakay, abadiyatga ochilgan deb hisoblaysiz. Lekin axir, bu mantiqka to'g'ri kelmaydi-ku. Nahotki biz xristianlikning ikki ming yili davomida o'sha almisoqdan qolgan ahkomlariga bir og'iz ham o'z yangi so'zimizni qo'sholmasak? Siz haqiqatga bir o'zingiz hokimlik qilmoqchi bo'lasiz. Lekin bu oz deganda o'z-o'zini laqillatishdir. Zero, haqiqatni bir marta va birvarakay bilib yetgan ta'limotning, hatto ilohiy ta'limotning bo'lishi mumkin emas. Mabodo, shunday bo'la qolsa, u o'lik ta'limotdir.

U jim bo'ldi. O'rtaga tushgan sukonatda deraza ortidan shahar cherkovining jom sadolari eshitildi. Jom sadosi Avdiyga xuddi insonni Xudoga bog'lab turgan Muloqot timsoli kabi g'oyatda yaqin va shunchalar tanish edi. Shunda Avdiy xuddi ushbu sadolar kabi cheksizlik aro suzib, ko'zdan yiroqlashib, yo'q bo'lib ketgisi keldi...

— Sen juda ham haddingdan oshyapsan, bo'tam,— deb to'ng'illadi ota Koordinator, endi uning tovushi sovuq va begona edi.— Sen bilan diniy mavzularda tortishib o'tirishning hojati yo'q edi, zero, bilimlaring ifrot, g'o'r va hatto shubhali. Seni bani basharning g'addor dushmani iblis vasvasaga solib qo'ymadimikin? Lekin so'zimning oxirida senga bir narsani aytib qo'yay: bunday fikrlar bilan sen hech qachon ro'shnolik ko'rmaysan. Zotan, asos-e'tiborli ta'limotlarni shubha ostiga oladiganlarni dingga aloqasi yo'qlar ham aslo yoqtirmaydilar. Axir, har qanday mafkura o'zini haqiqatning eng so'nggi egasi deb biladi. Sen albatta, hali bu narsalar bilan to'qnashasan. Bir qarashda unchalik bilinmasa-da, lekin dunyoviy hayot g'oyatda shafqatsiz. Sen hali yengil o'ylashning jadiga qolasan. O'shanda mening gaplarimni eslaysan. Lekin bas, seminariyadan ketasan, hozirlik ko'r, cherkov sendan yuz o'giradi. Xudo uyini ortiq tark et!

— Mening cherkovim doim o'zimda,— bo'sh kelmasdi Avdiy Kallistratov.— Mening cherkovim — men o'zim. Men ibodatgohlarni tan olmayman. Ruhoniylarni ham ularning hozirgi saviyasiga ko'ra tan olishni istamayman.

— Nima ham derdik, bo'tam, Xudoning o'zi rahm qilsin. Lekin bilib qo'y: dunyo senga o'z aytganini qildiradi. U yerda o'z kuningni o'zing ko'rishingga to'g'ri keladi. Necha-necha millionlab senga o'xshaganlarning bellari sinib yotibdi bir kunimni ko'raman deb...

Keyinchalik Avdiy yanib aytilgan bu so'zlarni bir emas bir necha martalab esladi. Lekin unga hayotining eng oliy ma'nosi har doim hali oldinda — nurli ufqlarda ko'rinar, yo'lidagi barcha chigalliklar, turmush savdolari vaqtinchaday tuyular, odamlar axiyri, bir kunmas bir kun ortidan ergashishlariga ishonardi. Hayotning asl ma'nosi ham axir shunda emasmi?

O'sha kunlari nashavand choparlar bilan cho'llar qo'yniga kirib borarkan, poezd darichasidan ketketguncha bo'm-bo'sh huvillagan taqir makonlarga ertalabdan kechgacha tikilib, o'ziga o'zi derdi: «Mana, nihoyat, inon-ixtiyoring o'zingda, redaktsiyaning topshirig'ini hisobga olmaganda, seni bog'lab, qo'lingni ushlab turgan hech narsa yo'q, nimani xohlasang, shuni qilasan. Xo'sh, nima? Ne topyapsan bu sarsonlik-sargardonlikda? Asl, rostmana hayotning o'zi mana shu. Sen u bilan yuzmayuz turibsang. Yuz yil ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday. Odamlar qaylardandir qaylargadir boradilar, sen esa shu yo'lovchilarning biri, nashavand choparlar ham yo'lovchi, lekin ashaddiy yo'lovchi — ular eng dahshatli illatlardan birining ustiga tuxum qo'yib kun ko'radilar. O'sha sizlovuqday tutun, o'sha kayfu mastonalik arzimagan narsaga o'xshaydi, lekin odamni odamlikdan chiqaradi, mosovo qiladi. Ammo ularning o'zları o'zlarini qurban qilib turgan choqlarida sen qanday qilib ularni himoya qilasan? Bilasanmi, bular qaerdan kelib chiqyapti? Sabablari qaerda? Indamaysan. Qaysi tomondan yondashish, qaysi tomondan tushuntirish, nima qilishni bilmaysanmi? Seminariya bag'ridan hayot to'lqinlari ichiga nima uchun otilib chiqding? Uni andakkina bo'lsin, yaxshi tomonga o'zgartirmoqchi emasmideng? Seminariyadagi sinfdoshlarining seni idealist deb chaqirishardi. Balki,

to‘g‘ridir. Manavi choparlarning ko‘zлari menga uchib turmagandir, ularning ishiga, xulqi-atvoriga aralashish zarurmi? Qo‘lingdan nima ham kelardi? Nima qilib berishing mumkin ularga? Kirgan yo‘llaridan qaytara olasanmi? Boshqacha yashashga ko‘ndira bilasanmi? Sen qiynalib, ich-etingni yeyapsan bu yog‘i nima bo‘ladi deb. Ular esa o‘z oldilariga bitta maqsad qo‘yganlar va bu maqsadlaridan aslo qaytmaydilar, omadim kelsa-yu, boyisam deydilar, baxtlarini shunda ko‘radilar. Qani, ularni qayta ishontirib ko‘r-chi, ular haqiqatga tik qaray olarmikinlar? Agar aralashmasang, yordam bermasang, ular ertami-kechmi qamoqqa tushadilar, koloniyalarni to‘ldiradilar va bunga ayb deb emas, kulfat deb qaraydilar. Qani endi, ularni shu rasvoliklardan qaytara olsang, qani endi, pushmon bo‘lib, tavba qilib, dillari tozalansa, jinoyatdan yuz o‘girib, chinakam baxt-saodat nimada ekanligini anglasalar. Qanday go‘zal bo‘lardi-ya! Lekin ularning baxtlari nimada? Biz qadrlagan narsalardami? Ammo qadriyatlarimizning asl bahosini tushirib yuborganmiz, g‘oyatda dag‘allashtirib tashlaganmiz. Balki kulgiga qolgan chol-kampirlarning Xudosidamikin ularning baxtlari, lekin bu axir cho‘pchak-ku? Umuman olganda, dasta-dasta pul topish imkonи turganda, so‘z nima qilib berardi? Hozir kimni qarama — shuning tilida bir gap — quruq rahmatga mushuk oftobga chiqmaydi. Pul o‘z oti bilan pul-da! Choparlarning cho‘ntaklariga kirayotgan o‘sha pullar faqat o‘zimizniki emasdir, chet pullar ham bordir ularning ichida,— qarang, qancha talabgorlar kelishyapti — Murmansk, Odessa, Boltiqbo‘yi, hattoki Uzoq Sharq port shaharlaridan? Qaerga ketyapti shuncha nasha? Uning saqichi, mumidan ishlangan boshqa narsalar-chi? Gap qaerga ketayotganligining o‘zidagina emasdir-ku? Nega bunday bo‘lyapti, nega bizning hayotimizda, bizning ijtimoiy sistemamizga illatlar yot deb, butun dunyoga jar solgan bizning jamiyatimizda bunday bo‘lishi kerak? Qaniydi, shunday bir narsa yozsangki, unga hamma o‘z jonajon ishiday munosabat bildirsa, unga o‘z uyida bo‘layotgan yong‘inday, farzandlarining boshiga tushgan ofatday qarasa, ana o‘shanda aytilgan so‘z barcha xolis niyatli kishilarning qo‘llab-quvvatlashi bilan puldan ustun chiqadi va yomonlikni yengadi! Ilohim, shunday bo‘lsin, yozilgan so‘z bekor ketmasin, chindan ham, «avvalda so‘z bo‘lgan» ekan, u o‘z azal-abad qudratini ko‘rsatsin... Shunday yashasangki, shunday o‘ylasangki...

Lekin yo rab, sendan so‘rayman: jaraq-jaraq pullar turganda, sening kaloming nedir? Yashirin illatlar oldida sening hukming nedir? So‘z bilan yovuzlik moddiyunini qanday yengi olish mumkin? Menga O‘zing kuch-quvvat ato qil, boshlagan yo‘limda va ishimda meni tark etma, men yolg‘iz o‘zimman, hozircha hech kimim yo‘q, pulga mukkasidan ketganlarning esa adadi yo‘q, son-sanoqsiz...»

\* \* \*

Moskva — Olmaota poezdi Saratov yerlarini orqada qoldirib, ikki kundan beri Qozog‘iston cho‘llaridan borardi. Avdiy Kallistratov Turon tomonlarni birinchi ko‘rishi. U bir paytlar Rossiya tomonidan egallab olingen jug‘rofiy makonlarning, o‘lkaning bu qadar kengligi va miqyoslaridan hayratga tushar — chindan ham ko‘z o‘ngida bosh-keti yo‘q, behudud yerlar yastanib yotar, agar Sibir bilan qo‘sib hisoblasak, deb xomcho‘t qilardi u, yer yuzidagi quruqlikning deyarlik yarmi... Yana bu yerlarda odam turadigan qo‘nalg‘alar onda-sondagina uchraydi... Shaharlar, qishloq va ovullar, bekatlar, unda-munda ko‘zga chalinib qoladigan molxonalar, cho‘pon-cho‘liqlarning pastak qo‘ralari hammasi temir yo‘lga qarab yopishib kelar, ular bepoyon cho‘l suvratini chizish uchun tayyorlab qo‘yilgan, lekin ilk bo‘yoqlarigina chaplangan matoga o‘xshar, biroq suvrat keyinchalik ishlanmay, faqat bir tusdagi bo‘z ranglari bilan chala qolib ketganday edi... Bu tomonda keta-ketguncha yaydoq cho‘l, hozir bu yerda jamiki o‘t-o‘lan gullab-yashnagan fasl, cho‘l bir necha kun mana shunday jannatmisol gurkirab yotadi, so‘ng tag‘in oftobning berahm issig‘iga dosh berolmay sarg‘ayib so‘ladi va kelasi bahorni kutadi...

Vagonlarning ochiq oynalaridan gulga kirgan cho‘l chechaklarining muattar bo‘ylari yopiriladi. Ayniqsa, poezd to‘rt tomoni ochiq allaqanday kichkina bekatlarda to‘xtaganda, odamning dim

vagondan sakrab pastga tushgisi, o'zi ko'rimsiz, lekin hidlari yovshanday o'tkir, kurg'oq yerda o'sganiga qaramay eti suvlik maysa-o'lanlar ustida erkin-erkin chopib yurgisi keladi. Qiziq-ku, deb o'ylaydi Avdiy, nahotki, o'sha yaramas nasha ham mana shunday bemalol o'sib yotsa va hidlari hammayoqqa gurkirab tarqalsa? Odamlarning dimoqlarini qitiqlasa? Choparlarning og'izlaridan gullashlariga qaraganda, nashaning hidi hammasidan ham o'tkir va kuchli bo'lsa kerak. Hammasidan ham, deyishadi chopar bolalar — nasha baland bo'lib, shoxlari har yoqqa tarvaqaylab o'sadi. Nashazorlarda uning balandligi odamning beliga uradi. Yovvoyi nasha to'g'ri kelgan joyda o'sib yotavermaydi. Nasha keng tarqagan alohida nashapoya maydonlar bor. Shunisiga ham shukr. Uni topish uchun shuncha ovoragarchilik bo'lmasa, hammasi oppa-oson ko'chsa, unda nimalar ro'y berishini tasavvur qilish mumkin... Mana, talabgor xumor chopalrular uzoq port shaharlardan dunyoning u chekkasidan bu chekkasiga nasha savdosi tutib borishyapti... Hali yo'l uzoq, yana qancha yo'l bosish kerak — Xudo biladi, yana oxiri nima bo'ladi, bu ishlardan nima chiqadi.

Ayrim vaqtlar Avdiy Kallistratov nimaga ketayotganligini ham unutib, bu el-yurtlarda ilgari zamonlarda yashagan xalqlarni tasavvurida jonlantirishga urinar, o'qigan kitoblarini, o'quvchilik yillarida ko'rgan kinolarini eslar, **adam** dashtida g'oyib bo'lgan o'sha hayotning izlari va qoldiqlarini ko'rganda, birdan xursand bo'lib ketardi.

Xuddi tashlab ketilgan qo'nalg'alarday cho'llarda yakkam-dukkam qaqqayib turgan qo'ng'ir tuyalar, ko'hna maqbaralar, mozoratlar, uch-to'rttagina hujradan iborat ko'rimsiz ovullar, ko'z bazo'r ilg'aydigan yolg'iz chodir, yurtalar, dunyoda bor-yo'qligini hech kim bilmaydigan, xarob, noma'lum kapalarda yashaydigan kishilarning xolini o'ylab yuragi uvishib ketar, vahm bosardi... Ko'z o'ngidan xuddi qadim-qadim zamonlardagiday ko'hna egar-jabduq urilgan otlarga mingan, boshlariga tepasi cho'qqi quloh kiygan otliqlar o'tib qolardilar dam yakka-yakka, dam to'da-to'da bo'lib... Qanday yashashgan ekan odamlar bu yerlarda, yuraklari siqilib o'lib qolmasmikinlar, suvsizlikdan qirilib ketmasmikinlar bu bepoyon dasht-biyobonlarda? Kechasi-chi, kechasi nima bo'ladi? Falak tunda kimsasiz sahrolarga enib tushadi, o'sha chog'larda odam o'zini qanday sezarkin? Cheksiz samo ro'baro'sida odam o'zini benihoya yolg'iz va g'arib his qilsa ne ajab? Shuning uchun o'qtin-o'qtin o'tib qoladigan poezdlar ularga dalda bersa kerak. Poezdlarning shovqinlari katta shaharlardagina odamlarning qulqlariga yoqmaydi, zeriktirib yuboradi. Ehtimol, bari butunlay aksinchadir. Azim cho'llarning tunlari ko'ngillarda ulug'ver bayotlarni uyg'otar, she'riyat axir, olam poyonsizligi uzra inson ruhining hur parvozi emasmi?..

Lekin, bunday hayollar uni uzoq mashg'ul qilmas, yana chopal bolalar bilan borayotgani, qonun yuzasidan qaraganda, jinoyatkor kimsalar qatoriga qo'shilgani esiga tushar, gazeta uchun ijtimoiyma'naviy reportaj yozaman deb, to vaqt(soati kelguncha shu hayotga, qolaversa, nashavanddarning badkirdorliklariga chidashdan o'zga iloji yo'q edi. Shunda nazarida ko'kragi beixtiyor muzlab ketganday bo'lar, qorniga allaqanday og'riq kirar, go'yo o'zi ham choparlarning biriga aylanib qolganday, jinoyat yo'liga kirganday eti seskanib, vahimaga tushardi. Shunda u yuragining tubida og'ir maxfiy yuk bilan yuradiganlarning holiga tushunganday bo'lardi. Jahon qanchalik ulug' ko'rinsmasin, yangi taassurotlar nechog'lik quvonchli tuyulmasin, agarda onging va xotirangda no'xotdan ham kichik og'riq nuqta bo'larkan, bularning hammasi na tatiydi, na aqling, yuragingga halovat beradi. O'sha og'riq nuqta yashirincha, bilintirmasdan odamning kayfiyatini ham, atrofdagilarga munosabatini ham belgilaydi. Avdiy Kallistratov nashapoya cho'llarga birga borayotgan choparlarga razm solib qaraydi, ularni gapga solmoqchi, ochiqchasiga so'zlashishga tortmoqchi bo'ladi. Shunda hayoliga bir fikr keladi: garchi chopal hamrohlarim tashqaridan qaraganda, o'zlariga juda ishonganday ko'rinsalarda, lekin ularning har biri qilayotgan ishidan xavfsirarvi, bir kunmas bir kun baribir jazoga tortilishidan o'lguday qo'rjadi. Ha, shu qo'rqinch ularga doim ergashib yuradi. Shularni o'ylab Avdiyning ularga yuragi achiydi. Ularning quruqliklari, betamizliklari, befayz virdi-zabolnları, qartavozliklari, aroqxo'rliklari, chapaniliklari, yo ostidan yo ustidan deb turishlarini boshqa hech narsa bilan izohlab bo'lmaydi. Binobarin, bundan boshqacha yashashni ular tasavvur ham qilolmaydilar.

Avdiy Kallistratov bu odamlarni yomon yo‘ldan qaytarsam, ko‘zlarini ochsam, ular o‘zlariga boshqacha, ochiq bir nazar bilan qarab ko‘rsalar, hayotlarini zaharlab turgan qo‘rquinchdan va shu qo‘rquinching ta’qibidan xalos etsam, deb orzu qiladi. Olgan bilimlari, juda boy bo‘lmasa-da, lekin yetarlicha orttirgan turmush tajribalari zaminida u oljanob, ezgu niyatlarini amalga oshirish yo‘llarini izlardi. Hozir u seminariyadan ketgani, rasmiy cherkovdan chiqarilganiga qaramasdan dilida targ‘ibotchi hamda va’zon bo‘lib qolganligini, inchunin, hayot yo‘lida qilishi mumkin bo‘lgan birdan-bir ulug‘ ish — odamlarga haqiqat va yaxshilik so‘zini o‘zi bilgan, anglagan darajada yetkazish deb tushunardi. Buning uchun alohida fatvo olish shart emas, buning uchun o‘zing sig‘ingan narsaga sadoqatli bo‘lishing kifoya. Lekin, bularning bari hali yaxshi niyat, xolos. Yurak va aql amri bilan u nima qilishi zarurligini hali to‘la tasavvur eta olmasdi. Ko‘ngilda shirin hayollarga berilish, shu hayollarda tubanlarni tubanlikdan xalos etish boshqa va shu bilan birga, sening pand-nasihatingga, maslahatingga aslo muhtoj bo‘limgan tirik odamlar o‘rtasida yaxshilik qilish — butunlay boshqa. Ular misol uchun xuddi o‘zlariga o‘xshagan, dunyoning bir chekkasiga nasha yig‘ish va pul ishslash uchun ketayotgan allaqanday bir Avdiyining va’z-karsoniga zormikinlar. Ularning taqdirlarini nurli tomonga burish ishtiyoqida yongan Avdiy Kallistratov bilan ularning necha pullik ishlari bor deysiz. Avdiy Kallistratov Xudo kalima ichida yashaydi va kalima ilohiy qudrat kasb etmog‘i uchun u chin va pok haqiqatdan tug‘ilmog‘i kerak, degan bo‘lsa ularga nima. Avdiy esa bunga xuddi borliqning qonuniday ishonadi. Lekin u hali bir narsani bilmaydi: yaxshilik yomonlik yo‘liga kirganlarga yordam bermoqchi bo‘lganda ham, yomonlik baribir yaxshilikka qarshi turaveradi... Ammo bu ko‘rgiliklar hali oldinroqda...

## VI

To‘rtinchı kun tong azonda qorli tog‘larning bukir tizmalari ko‘zga chalindi. Poezd ular ketayotgan Chu va Mo‘yinqum cho‘llariga yaqinlashardi. Tep-tekis kengliklardan so‘ng keladigan qorli tog‘lar tarxi cho‘lmakonlarda o‘ziga yarasha bir belgi bo‘lib qolgandi. Cho‘llar bag‘riga kirib ketavergan sari tog‘lar ko‘zdan uzayib so‘ng yo‘qolardi. Lekin mana, yerning huv chetidan quyosh boshini ko‘tardi va olamni osuda nurlari bilan to‘ldirdi. Taqdirlari bir-birlariga sira o‘xshamagan turli-tuman yo‘lovchilar tushgan poezd tog‘larga yetmay turnaqator tizilgan vagonlari quyoshning ilk shu'lalarida yaraq-yuruq qilgancha, tongning arg‘uvon ko‘ylagi yoyilgan biyobonlarga burildi — u yoqlardan endi tog‘lar ko‘zga tashlanmaydi...

Nashavand choparlar Jalpoq-Soz bekatida tushishlari kerak edi. Undan uyog‘iga har kim o‘zicha, o‘z bilganicha tavakkal harakat qiladi.

Ammo to‘da o‘sha-o‘sha — bitta, niyat ham o‘sha-o‘sha — bitta. Lekin bularning hammasini kim boshqaradi, kim o‘sha O’zi — doim ularni ko‘z yummay kuzatib turgan — Avdiy Kallistratov ana shuni bilishni istardi. Lekin ayrimuzuq-yuluq, ivir-shivir so‘zlardan bo‘lak hech narsa unga ma’lum emasdi.

Uch soatdan so‘ng Jalpoq-Soz bekti keladi. Choparlar yig‘ishtirinib g‘imirlab qolishdi. Kechasi o‘lguday ichishgan edi. Petruxa oxirgi topshiriqlarni olish uchun O‘zining huzuriga borishdan avval hojatda uzoq yuvindi. Yo‘lovchilar toza diqqat bo‘lishdi. Choparlar o‘tgan kecha shampandan boshlashdi. Shampooanni xuddi limonad ichganday ermakka stakanlab ichisharkan. Keyin arokqa o‘tishdi. Shuning asorati ertalab ancha bilindi. Tirmizak Lyonka-ku, qiyshanglab, rosmana chuldirab qoldi. Avdiy ertalab uni bazo‘r oyoqqa turg‘izdi. Jalpoq-Sozga yetdik degandan keyingina Lyonka zo‘rg‘a ko‘zini ochib, taxtaga oyog‘ini osiltirib o‘tirdi. Sochlari to‘zg‘ib ketgan boshi ingichka, qiltiriq bo‘ynida arang osilib turardi. Shu zumrasha g‘ayriqonuniy yo‘l bilan ancha-muncha pul topadi. Hayoti halitdanoq butunlay barbod bo‘lgan desa, albatta, bunga hech kim ishonmasdi.

Poezd poyonsiz tekisliklardan ravon ketib borardi. Qaerdadir, qaysidir vagonda uning O’zi ketyapti. Boshi chirillab aylangan, karaxt Petruxa bosh og‘rig‘ini bosish uchun bir stakan qorayib

ketgan achchiq choyni shimirib ichdi-da, O'zi qoshiga shoshilib jo'nadi. Chamasi, O'zi ichkilikbozlarni xush ko'rmasa kerak. Yo'l bo'yi Avdiy Kallistratov O'zini hatto uzoqdan bo'lsa ham ko'rolgani yo'q. Vaholanki, hammalari bitta poezdda ketishyapti. Kim u? Qanday odam? Yuzlab yo'lovchilar orasidan uni topib ko'r-chi. Xuddi qamishzorlar orasida qorong'u chuqur ichida bekinib olgan maxluqday g'oyatda ehtiyotkor, yo'l bo'yi salcha bo'lsin, siyoqini ko'rsatmadni. Ko'p o'tmay Petruxa uning qoshidan qovog'i solingan, jahli chiqqan, lekin butunlay hushyor tortgan holda qaytib keldi. Albatta, hali makonga yetib bormay turib qilingan tungi ichkilikbozlik uchun O'zi boplab adabini bergen. Tushunish mumkin O'zini ham. Poezd Jalpoq-Sozga yetishi bilan ish qizib ketadi. Shunday paytda shal pangquloq Petruxaning g'irt mast bo'lib yurishi sira to'g'ri kelmaydi. Mana endi, bir hafta boshog'rig'idan qutulmay yuradi. Petruxa xuddi Avdiy bir ayb ish qilib qo'yganday unga norozi qarab, to'ng'illadi:

— Yur, gap bor.

Ular tamburga o'tishdi. Chekishdi. Poezd g'ildiraklari tinmasdan taraqa-turuq qiladi.

— Menga qara, Avdiy, u qulog'ing bilan ham, bu qulog'ing bilan ham eshitib ol,— deb boshladi Petruxa.

— Xo'p, eshitaman,— peshanasini tirishtirdi Avdiy.

— Sen ko'pam burningni jiyiraverma,— diqqati oshdi Petruxaning.— Kim bo'psan o'zi?

— E, qo'ysangchi, Petr,— uni tinchlantiryshga urindi Avdiy,— nima qilasan bekorga xafa bo'lib? Xo'p, men ichmayman, sen esa ichasan, xo'sh, nima bo'pti shunga, nima kilasan so'kinib? Yaxshisi, bu yog'iga nima qilamiz, ana shuni ayt.

— Uyog'ini O'zi aytadi.

— Men ham shuni so'rayapman-da. Nima dedi O'zi?

— Ishing bo'lmasin,— shartta uning og'ziga urganday qilib dedi Petruxa.— Sen yangi odamsan. Shuning uchun Lyonka ikkovimiz bilan borasan. Uch kishi bo'lamiz. Boshqa bolalar ham kim o'zi, kim sherik bo'lib borishadi.

— Tushunarli. Faqat qaerga boramiz?

— Ishing bo'lmasin, men oboraman. Jalpoq-Sozda tushamiz. U yog'iga o'zimiz ketamiz. Yo'l-yo'lakay mashinalarga tushib, «Mo'yinqum» sovxoziya yetib olamiz. Undan u yog'ida tirik jon yo'q — poyi piyoda.

— Ana, xolos.

— Ha, nima deb o'yloving. «Jiguli»da olib borib ko'yishadi devdingmi? Olasan, oshna! U yerda sal shubha uyg'otsang, darrov ushlab oli-shadi, mashina yo mototsiklda borganlarni-ku tappa bosishadi. Qalpoq qilishadi.

— O'ho'-o'ho'! Anov, kim, O'zi qaerda bo'ladi, u kim bilan boradi?

— Nima ishing bor? — o'dag'ayladi Petruxa.— Nega hadeb uni so'rab-surishtirib qolding? Boradimi, keladimi! Balki umuman bormas! Nima u senga hisob berishi kerakmi, a?! Nima deb tushunaylik buni?!

— Nimasiga tushunmaysan? Boshlig'imiz bo'lgandan keyin bilish kerak-da qaerdaligini. Biron kor-hol yuz berib qolishi mumkin.

— Xuddi mana shu narsani bilishning senga hech keragi yo'q,— kibr bilan dedi Petruxa.— U qaerda bo'ladi, nima qiladi, sen bilan bizning ishimiz emas. Kerak bo'lsa seni yerning tagidan ham topadi,— Petruxa gapim qanday ta'sir qildi ekan deb birpas atay jim qarab turdi, keyin hali kayfning asorati tarqamagan loyqa ko'zlarini unga tik qadadi-da, qo'shib qo'ydi: — Senga shunday dedi, Avdiy: ishni uddalab ketsang, doim borib-kelib turasan. Agar Xudo ko'rsatmasin, sotadigan bo'lsang, yaxshisi, hoziroq orqangga qaytib ket. Bekatga tushganimizdan keyin sekin jo'navor. To'rt tomoning ochiq. Senga qo'limizni ham tekkizmaymiz. Lekin ish boshladingmi, tamom, orqaga qaytish yo'q. Sotsang — tirik qolmaysan. Bildingmi?

— Bildim. Bilmay nima? Yosh bolamidim,— javob qildi Avdiy.

— Unday bo‘lsa, esingda tut: aytdim-qo‘ydim. Ikki qulog‘ing bilan eshitding. Keyin bilmovdim, eshitmovdim, kechiringlar, degan gaplar ketmaydi.

— Bas qil, Petr,— uning so‘zini bo‘ldi Avdiy.— Hadeb bitta gapni cho‘zaverasanmi. Aqli-hushim joyida. Nimaga boryapman, nima qilaman, o‘zim bilaman. Yaxshisi, senga bir gapim bor, eshitib ol. Shu bugundan e’tiboran ichkilikni yig‘ishtir. Lyonkani ham ichirma. U tentak. Sen ham nima qilasan? O’sha yerlarda shu issiqda kallamiz qizib tursa, nima qoyil qilib yig‘amiz?

— To‘g‘ri,— deb tan oldi Petruxa va tupuk sachragan lablarini qiyshaytirib jilmaydi. Uning ko‘ngli joyiga tushgan edi.— To‘g‘ri gapni tan olamiz. Ishon, o‘zim ham og‘zimga olmayman, Lyonkaga ham ichirmayman. Tamom, bo‘ldi!

Ular fikrlari bir joydan chiqqaniga xursand bo‘lib jim qoldilar. Poezd chayqalgancha Jalpoq-Soz tomon jadallardi. Bu yerda mashinistlar almashadilar, poezd ham yangilanadi. Ko‘pgina yo‘lovchilar tushishga hozirlik ko‘rardilar. Lyonka ham tashvishlanib tamburga qaradi.

— Nima qilyapsizlar? — dedi u boshi og‘riganidan yuzini burishtirib.— Narsalarni yig‘ishtirish kerak. Bir soatda yetamiz.

— Qo‘rqma,— javob kildi Petruxa.— Bizga yig‘ishtirish cho‘tmi? Qiz bola emasmiz-ku. Xaltamizni yelkamizga osamizu, hayyo-hayt!

— Lyonya,— bolani yoniga chaqirdi Avdiy.— Qani, beriroq kelchi. Boshing og‘riyaptimi?

Lyonka aybdorlarcha boshini silkitib qo‘ydi.— Petr bilan shunday kelishdik. Bugundan boshlab og‘zingga bir tomchi ham olmaysan. Xo‘pmi?

Lyonka indamay bosh irg‘adi.

— Bo‘pti, bor. Biz hozir. Qo‘rqma, ulguramiz.

— Hali ancha vaqt bor,— dedi Petruxa soatiga qarab.— Bir soatdan ham ko‘p.— Lyonka ketgach, dedi: — Lyonkani to‘g‘ri aytding. Chiltonning o‘zi ichaman deb yopishadi. Ichgandan keyin oyoqda turolmaydi. Bo‘ldi endi! Ishmi ish! Yo‘lda ozgina erkilik qildik. Ha, tag‘in, o‘ylab yurma, men Lyonkaning puliga ichganim yo‘q. Balki uning o‘zi shu... lekin men o‘zim olib ichaman.

— Gap unda emas,— dedi alam bilan Avdiy.— Bolaga odamning yuragi achiydi.

— Rost aytasan,— uning gapiga qo‘shilib xo‘rsindi Petruxa. Uni anchadan beri bir fikr bezovta qilib kelsa kerak, shuni Petruxa hozir ochiqchasiga gaplashayotganlaridan foydalanib esladi.— Quloq sol, Avdiy, bizgacha, bizga kelib qo‘shilguningcha, nima ish qilarding, ishlarmiding? Olibsortarlardan emasmisan, mabodo? Sen yashirma, endi biz yo restoranda birga o‘tirib, mazza qilamiz, yo kameradan axlat chelakni birga olib chiqamiz. Yo unisi, yo bunisi!

Avdiy yashirib o‘tirmadi:

— Chayqovchi emasman. Yashiradigan yerim yo‘q. Men ilgari diniy seminariyada o‘qiganman. Bundayni Petruxa sira kutmagandi.

— Shoshma, shoshma! Seminariyada deysanmi? E, bundan chiqdi, sen pop bo‘lish uchun o‘qigan ekansan-da?

— Shunday desak ham bo‘ladi...

— O‘hu! — ko‘zlarini ola-kula qildi Petruxa va lablarini cho‘chchaytirib hushtak chaldi.— Nega u yerdan ketding, yo haydab yuborishdimi?

— Undoq desang ham to‘g‘ri, mundoq desang ham. Umuman, tashlab ketdim.

— Nimaga? Xudoni talashib qoldinglarmi? — sho‘xlik bilan so‘rashni qo‘ymasdi Petruxa.— Ana kulgi!

— Ha, talashib qoldik shekilli.

— Bo‘lmasa, qani ayt-chi, hammasini bilsang... Xudo bormi, yo‘qmi?

— Bunga javob berish qiyin, Pyotr. Birov uchun bor, birov uchun yo‘q. Hammasi odamning o‘ziga bog‘liq. Odamlar yer yuzida qancha yashasalar, shuncha Xudo bormi, yo‘qmi, deb o‘ylaydilar.

— Unda, agar bo‘lsa qaerda, Avdiy?

— Bizning o‘y-xayollarimizda, aytayotgan so‘zlarimizda... Petruxa o‘ylanib jim bo‘lib qoldi.

Vagon g‘ildiraklarining tovushi birdan kuchaydi — vagondan vagonga o‘tgan yo‘lovchilar tambur eshagini ochiq qoldirgan edilar. Petruxa tambur eshagini yopdi. G’illiraklarning taraqa-turug‘i bir oz bosildi, nihoyat dedi:

- Unda menda yo‘q ekan-da. Senda Avdiy, u bormi, yo‘qmi?
- Bilmadim, Pyotr. Bo‘lsa edi deyman, koshkiydi...
- Senga u kerakmi?
- Ha, usiz ilojim yo‘q...
- Ana xolos,— norozi bo‘ldi Petruxa. Nimadir uning g‘ashiga tekkandi.— Xudo kerak bo‘lsa, unda nima p... yeb biz bilan yuribsan?

Avdiy gapni chuqurlashtirishning vaqt ham, o‘rni ham emasligini sezdi.

- Lekin axir, pul ham kerak-ku,— dedi u murosa ohangida.
- E, gap bu yokda desang-chi. Yo Xudo, yo mulla jiring! Pulning ketidan quvibdilar-da!
- Shundayroqqa o‘xshaydi,— tan olishga majbur bo‘ldi Avdiy. Bu gapdan keyin Avdiy Kallistratov ancha narsalarni o‘yladi.

Avvalo, yo‘l bo‘yi qorasini ko‘rsatmay chopar bolalarga ko‘z-quloq bo‘lib kelayotgan O’zi unchamunchaga ishonavermaydi. Aftidan, pixini yorgan va juda berahm bo‘lsa kerak. Agar qilayotgan ishining biron yerida ishkallik sezsa, u o‘zini va o‘z ortida turganlarni xavf ostiga qo‘ymaslik uchun har qanday yo‘l bilan o‘ch oladi. Hech narsadan qaytmaydi. Boshqacha bo‘lishi ham mumkinmas. Buni o‘z oti bilan giyoh bilan savdo qilish deb qo‘yibdi. Avdiyning birinchi chiqargan xulosasi shunday edi. Petruxa va boshqalar bilan yo‘ldagi gap-so‘zlardan ikkinchi aniqlagan narsasi shu bo‘ldiki — chopar bolalarga so‘z bilan ta’sir o‘tkazsa bo‘larkan. Va’zonning vazifasi ham shu: chin dildan samimiyo so‘z yuritish, hech qanday xavf-xatarga qaramay so‘z bilan fidokorlarcha tushuntirish; axir, bir paytlar fidoyi din yoyuvchilar jonlarini Xudo yo‘liga tikib, yovvoyi Afrika qabilalari ichiga Iso Ruhillo kalomini yetkazmagan edilarmi; zero, adashgan dillarni xalos etish — uning asl taqdirida bor, hayotining tugal ma’nosi va mazmuni ham ehtimol, xuddi mana shundadir,— ha, u dillarni xalos etadi.

Ular Jalpoq-Soz manziliga ertalab soat o‘n birlarda yetib keldilar. Bekat katta, undan yana boshqa poezdlarga o‘tirildi. Temir yo‘lning ikki izi tongda ko‘zga chalingan uzoq qorli tizma tog‘lar sari ketardi. Shuning uchun bu yerda turli tomonlarga boradigan yo‘lovchilar serob. Chopar bolalarga bu ham qulay. G’ala-g‘ovur bekatda bemalol ko‘zga tashlanmay yursa bo‘ladi. Hammasi xamirdan qil sug‘urganday silliqqina o‘tdi. Tushlik payti barchalari vokzaldagi oshxonaga kishi bilmas, lekin chaqqon yig‘ilib kelganlarida, Avdiy hayron qoldi. Avdiyni ham qo‘sib hisoblaganda, cho‘lga nasha yig‘ish uchun boradiganlar o‘n ikki kishi edi (unga shunday tuyuldi). Chopar bolalar stollar atrofida bitta-ikkitan bo‘lib o‘tirishardi. Hamma bir-birovining ko‘z o‘ngida. Lekin, hech kim hech kimga ochiq so‘z qotmaydi. Ular oddiy yo‘lovchilardan aslo farq qilmaydilar. Ko‘proq Lyonkaga o‘xshagan o‘smirlar va Petruxaday bo‘yi cho‘zilib qolgan yigitchalar. Ayni yoz mavsumi. Kim qayoqqadir ketyapti, kim qayoqdandir kelyapti. Odatdagiday osiyoliklar yevropaliklar bilan aralash-quralash... Tartibni saqlash uchun bu yerga militsiya xodimlari dam-badam kirib chiqayotgan va bekatning o‘zida ham har qadamda militsioner yurgan bo‘lishiga qaramay, choparlarning avzoyidan hech narsa bilinmasdi. Ular tezgina ovqatlanib, o‘rinlarini boshqa navbat poylab turganlarga bo‘shatdilar. Shundan so‘ng xuddi bir ishora bo‘lganday darhol har tomonga imi-jimida tarqaldilar. Har birining o‘ziga yarasha yuki ham bor: non, konserva va boshqa turli-tuman zarur narsalar solingan to‘rxaltalar, charm sumkalar, portfellar. Mana shunday qilib, nashavand choparlar joy-joylariga, Mo‘yinqum atrofidagi yaydoq cho‘llar ichiga sochilib ketdilar.

Petruxa, Avdiy va Lyonka O’zi belgilab bergani va topshirig‘i bo‘yicha uchovlon yo‘lga tushdilar. Avdiy O’zini bari bir ko‘rolmadi. Lekin butun ish O’zi tomonidan boshqarib turilganiga hech qanday shak-shubha yo‘k edi. Ular eng olis joyga, «Uchquduq» sovxozining Mo‘yinqumga taqalgan bo‘limigacha O’zi tomonidan ajratilgan va Petruxaga berib qo‘yilgan yigirma besh so‘mga yo‘lovchi

mashinani kira qilib tushib bordilar. Har ehtimolga qarshi ular o‘zlarini uy quruvchi usta deb tanishtiradigan bo‘ldilar. Avdiy — duradgorlik qiladi. Duradgorlarni bu yerlarda ko‘zga surtishadi. Aslini olganda ham, Avdiy duradgorlik ishlaridan durustgina xabardor edi. Otasi bu hunarni unga bolalikdan o‘rgatgan edi. Petruxa uning yuk xaltasiga uydan olib chiqqan — randa, bolta, iskana singari asboblarni solib qo‘ydi. Petruxa o‘zini va Lyonkani suvoqchi va bo‘yoqchi usta deb tanishtiradi. Ular go‘yo PTUning o‘quvchilari, «Uchquduq»qa, Mo‘yinqum cho‘llariga yozgi ta’tilda uy qurib, pul ishslash uchun kelishyapti. Kim ishonmaydi bunga.

Kun issiq. Lekin ochiq yuk mashinasining tepasi ancha shabada, oftobning issig‘i unchalik bilinmaydi. To‘g‘ri, cho‘l yo‘lining mazasi yo‘q, o‘nqir-cho‘nqir, chang-to‘zon.

Mashina cho‘nqirlarga kelib, sekinlaganda, g‘ildiraklar ostidan ko‘tarilgan chang ustilariga yopiriladi, yo‘talib, ko‘zlarini uqalaganlari uqalagan. Yo‘l og‘ir, ammo atrof keng, bahavo edi. Beixtiyor hayolingga shunday fikr keladi: qanotim bo‘lsaydi, uchib ketardim... «Endi men butunlay ishondim: yer ham sayyora ekan,— deb o‘ylardi Avdiy kabina tepasida turib.— Nega odam yerga sig‘maydi, doim torlik qiladi, to‘ymayman, och kolaman, deb qo‘rqadi, baayni o‘ziga o‘xshaganlar bilan hech chiqisholmaydi. Oldindan hosil qilingan fikrlar, qo‘rinch, nafrat sayyorani stadion darajasida toraytirib qo‘yyapti. Barcha tomoshabinlarning umrlari ushbu stadionda garovga qo‘yilgan, binobarin, har ikki komanda ham o‘yinda yutib chiqish uchun o‘zlar bilan birga yadro bombalarini olib kelgan, ishqibozlar esa hech narsaga qaramasdan qichqirib yotibdilar: gol, gol, gol! Sayyora — mana shu. Holbuki, axir, har bir inson oldida muqarrar bir vazifa ko‘ndalang bo‘lib turibdi — odam bo‘lish. Bugun, ertaga, doim. Tarix shundan yaraladi. Hozir nimaga ketib boryapmiz. Kanday muhim hayotiy zarurat yoki ehtiyoj borki, odamlar o‘zlariga ham, boshqalarga ham zahar-zaqqum axtaradilar. Ularni bunga nima majbur qiladi? O‘z-o‘zini unutishning o‘sha dahshatli girdobidan ular nima topadilar?»

\* \* \*

Uchquduq deganlari dunyoning bir tupkasidagi gadoy topmas qo‘nalg‘a ekan. Ular bu yerda o‘zlariga darrov ish topib oldilar. Bir cho‘ponning chala yotgan imoratini bitirib beradigan bo‘ldilar. Cho‘ponning o‘zi bola-chaqasi bilan poda haydab ketgan, qo‘shni turadigan qarindoshiga tayinlagan ekan, agar bulturgiday uy quradiganlar kelib qolsa, imoratni bitkizib berishsin deb. Shuni bilganday uchta azamat chopar — Petruxa, Avdiy, Lyonka yetib kelishgan edi.

Ular shu yerning o‘zida tomi bitgan chala uyda yotib yurishdi. Havo ochiq, kunlar issiq. Hovlida o‘zlariga o‘choq qurib olishdi, goho ob-ovqat qaynatib turishdi. Rostini aytish kerak, itday ishlashardi. Petruxa ertalab barvaqt turar, artelchi sheriklari Avdiy va Lyonkani uyg‘otar, shu bilan bir ishga tushgancha qorong‘u xuftonga borib bas qiladilar. Hovlida andak olov yoqib, shuning yorug‘ida ovqatlanar, faqat shundan keyingina Petruxa hordiq chiqarib, undan-mundan gaplashib o‘tirishga ijozat berardi.

— Avdiy, qarab tursam, bu ish senga juda yoqib qolganga o‘xshaydi. Albatta, xo‘jayindan tegishimizni olamiz. Lekin bu pul tupukka yetmaydi. Sariq chaqa! Odamlarning ko‘zi uchun ishlaymizda. Asl joylarni topib yo‘lga tushaylik, ana o‘shanda ko‘rasan. Guliniyam, shirasiniyam ikki qo‘llab terasan. Bir kun nashapoyaga sho‘ng‘ib chiqsang, bir yil ministrdan ko‘ra yaxshiroq yashaysan. Sen bilasan-ku, a, Lyonka? To‘g‘rimi, gapim?

— Ozroq bilaman,— deb javob beradi shu kunlarda sira ovozi chiqmay qolgan Lyonka.

— Faqat ko‘zlaringga qaranglar, bolalar,— jiddiy ogohlantiradi Petruxa,— hech kimga, na qo‘shnilarga, na boshqalarga og‘izlaringdan gullay ko‘rmanglar. Bu yerning odamlari yaxshi odamlar. Lekin baribir, o‘lsang ham, miq etma. Ayniksa, boshqa yoqdan bitta-yarimta kelib so‘rasa, aslo sir boy bermanglar. Avdiy, sen ayt: o‘laman sattor, hech narsani ko‘rganim yo‘q, bilmayman, eshitmaganman deb. Kerak bo‘lsa, ana, boshlig‘imiz bor, o‘sha biladi, deb menga ro‘para qil. Men kichkina odamman,

hech narsani bilmayman de. Xo‘pmi?

Xo‘p demay ilojing qancha, xo‘pmi, xo‘p... Lekin Avdiyning diqqatini oshirayotgan bu narsa emasdi. Indamay jim yurishga majbur bo‘layotganidan, katta-katta pul o‘marishning tayg‘oq va jinoiy yo‘liga kirgan bolalarga o‘z ta‘sirini o‘tkaza olmayotganidan xunob edi. Yuragi va‘z aytish ishtiyoqi bilan to‘lib-toshar, lekin ko‘ngil amrini ado etolmasdi. Agarda Avdiy fikr va so‘zning kudrati bilan bolalarni ikkilan-tirib, o‘ylantirib qo‘ya olganda, qanchalar tubanlikka tushganlarini ularga uqtira bilganda va ular vijdon sasiga qulqutib, bunday nomunosib hayotdan batamom voz kechish fikriga kelganlarida ham, baribir oxir-oqibatda bunga ularning qurblari yetmagan bo‘lardi. Sababi oddiy va oson: ular o‘ch olishga haqi bo‘lgan boshqa odamlar bilan og‘ir ahd-paymon qilinganlar, bu iskanjadan o‘zlarini aslo bo‘shatolmaydilar. Xiyonat yo‘liga kirmoqchi bo‘lganni esa dahshatli qasos kutadi. Shu buzuq chevirikni qanday pachaqlab tashlash mumkin? Nashavandlar va choparlarning hayotlarini o‘z ko‘zim bilan obdan ko‘rib, so‘ng bularni gazetada jiddiy yoritib beraman, odamlarning ko‘zlarini ochaman, olijanob maqsadlar uchun xizmat qilaman, degan hayolgina Avdiyga andak taskin berib turardi. Bu bir hovuch yo‘ldan ozgan yoshlarni xalos etish uchun olib boriladigan axloqiy kurashning boshlanishi bo‘ladi, deb umid qilardi Avdiy. Bu mashmashalarga beixtiyor aralashib qolgani, Petruxaning to‘dasiga toqat qilib kelayotganligining boisi ham faqat shu edi.

Uchquduqqa kelganlarining uchinchi kuni arzimagan bir voqeа bo‘lib o‘tdi. Avdiy bunga unchalar ham e‘tibor bermadi. Petruxa esa voqeani bilgach, oyog‘i kuygan tovuqday bezovtalanib qoldi. O’sha kuni Petruxa ovuldagi qo‘shnilari, urush nogironining aravachasida sovxozi markaziga konserva, sigaret, qand-qurs keltirgani ketgan edi. Chunki ertasiga saharlab cho‘lga otlanadigan edilar. Elning ko‘ziga esa go‘yo, boshqa joyga uy solgani jo‘naganday bo‘lib chiqardilar.

Lyonka uyning ichini suvoqdan chiqarar, Avdiy esa, soyaroq joyni tanlab omborxona uchun eshik yasardi. Birdan ko‘cha tomondan mototsiklning patillagani eshitildi. Avdiy o‘girilib qo‘lini peshanasiga qo‘yib qaradi. Uy oldida tarillab katta mototsikl to‘xtadi. Egasi undan qushday yengil sakrab tushdi. Mototsiklni yoshgina ayol haydab kelganligini ko‘rib Avdiy hayron qoldi. Bunday vahimasi zo‘r mashinani abjag‘i chiqqan uydim-chuqur yerlarda qanday haydar ekan-a?! Xotin boshidan ikki chetida kamarchalari likillab turgan kaskasini yechdi, ko‘zlaridan shamolhimoya ko‘zoynagini oldi, boshini silkib-silkib qo‘ydi, sariq sochlari yelkalariga sarsarak sochildi.

— Issig‘-ey! — jilmaydi u qator oppoq tishlarini ko‘rsatib.

— Voy Xudoyim-ey, changga botganimni qarang! — xushchaqchaqlik bilan dedi u ustidan changlarini qoqarkan.— Salom!

— Yaxshimisiz,— tortinibroq salomlashdi Avdiy. Petruxaning ahmoqona pand-nasihatlari unga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan edi. «Kim bo‘ldi? Nega kelganiykin bu yerga?» — miyasidan o‘tdi Avdiyning.

— Xo‘jayin shu yerdami? — so‘radi mototsikl minib kelgan xotin hamon chehrasidan tabassum arimay.

— Qanaqa xo‘jayin? — tushunmadi Avdiy.— Uyning egasimi?

— Ha, uyning egasi.

— Hozir uyda yo‘q shekilli. Mollarini haydab ketganga o‘xshaydi.

— Nima, siz uni ko‘rmadingizmi?

— Yo‘q, ko‘rmadim. Yo‘q, ko‘rdim sal-pal, yaqinda kelib ketgan edi. Lekin u bilan gaplashganim yo‘q.

— Qiziq, qanday qilib u bilan gaplashmaysiz, siz shu yerda ishla-yapsizmi o‘zi, unga uy solyapsiz shekilli?

— Kechiring. Men haqiqatan ham, u bilan gaplasholganim yo‘q. U shoshib turgan edi. Kattamiz gaplashgan u bilan. Kattamizning oti Petr. Hozir bu yerda yo‘q. Tezda kelib qolishi kerak.

— Menga buning aloqasi yo‘q, aybga buyurmang. O‘rmonni ko‘rmoqchiydim. Ishim bor edi o‘rmonda. Yo‘l-yo‘lakay kirib o‘ta qolay, uydadir devdim. Xo‘p, kechiring, men xalaqit berdim shekilli.

— Yo‘g‘-ey, nima deyapsiz.

Mototsiklchi xotin yana ikki tasmachasi likillab turgan qalpog‘ini kiydi, motorini o‘t oldirdi, qayrilib ketarkan, shamolhimoya ko‘zoynagidan Avdiya qiya nazar tashladi va bilinar-bilinmas boshini qimirlatib qo‘ydi. Avdiy esa negaligini o‘zi ham bilmay unga qo‘lini silkitib qoldi. Keyin anchagacha uning hayoli shu arzimas, tasodifiy voqeа bilan band bo‘ldi. Yo‘q, uning ko‘ngliga shubha oralagani yo‘q: endi hosil yig‘ishtirishga chiqay deb turganlarida bu xotinning kelib qolishida bir gap bormikin, ishqilib biron narsani sezmadimikin, deb o‘ylagani yo‘q, Avdiy butunlay boshqa narsa haqida o‘ylardi. Juvon orqasidan quyuq to‘zon ko‘tarib jo‘nab ketgandan so‘ng, Avdiy xuddi bir umrga eslab qolmoqchiday uni boshdan-oyoq yaqqol ko‘z o‘ngiga keltirdi. Uning o‘rtachagina, juda xushbichim, malohatli qaddi-bastini tasavvurida, jonlantirib, birdan dili ravshan tortdi va chehrasi ochildi. U shunday hamma narsasi o‘ziga yarashgan xotinlarni yoqtirardi. «Rost-da, hazili yo‘q,— dedi o‘ziga-o‘zi, xuddi allakim bilan bahslashayotganday.— Xotin degan shunday bo‘lishi kerak! Ha, shunday bo‘lishi kerak xotin degan». Uning benihoya nozik, nafis chehrasi, porlab turgan qora ko‘zlar, yuzini tekis o‘rab yelkalariga to‘lqinlanib sochilgan sarg‘ish sochlari Avdiyning ko‘z o‘ngidan ketmasdi. Buning ustiga ko‘zining qoramtiligi bilan sochining oq-sariqligi bir-birini ajib tarzda to‘ldirib, chehrasiga o‘zgacha joziba, latofat bag‘ishlardi. Avdiyga uning hamma narsasi: chap yonog‘idagi bilinar-bilinmas chandiq ham (bolalik chog‘larida yiqilganining alomatimikin), usti-boshi — jinsi, kurtka, ko‘nji qaytarilgan eski etikchasi ham, mototsiklni qandoq haydab ketishi ham (axir, Avdiyning o‘zi velosipeddan boshqa narsani minmagan edi-da) juda-juda yoqdi... Tag‘in u xo‘jayinni so‘rasa, es-hushini paqqos yo‘qotib qo‘yanligini aytmaysizmi: yo‘q, ko‘rmadim, yo‘q, ko‘rdim, yo‘q... xuddi yosh bolaning o‘zginasi, nega munchalik tili chuldirab kolmasa?

U haqda o‘ylagan sari yana o‘ylagisi kelaverardi Avdiy Kallistratovning. Unday desa, eslaydigan tuzukroq narsaning o‘zi ham yo‘q — kutilmaganda juvon keldi, kutilmaganda juvon ketdi, ana, bor gap shu. Lekin kim bo‘ldi ekan-a o‘zi, qaerdan keldiykin? Biron yerdan kelayotgani aniq. Lekin bunaqangi ayol kimsasiz cho‘l-biyobonlarda nima qilib yuribdi?..

Petruxa mototsikl mingan g‘alati xotin kelib ketganini eshitib, bir oz esankiradi va to‘xtovsiz ming‘irlab, nima dedi, nimani so‘radi, Avdiy nima javob berdi, deb jonga tegdi. O‘rtada bo‘lib o‘tgan gapni bir necha martalab qayta so‘zlab berishga to‘g‘ri keldi.

— Bu yerda bir gap bor, bir gap bor,— shubhasi tarqamay boshini chayqardi Petruxa.— Attang, o‘sim bo‘lmabman-da, darrov u jononning kimligini bilib olardim. Shu deyman, Avdiy, sen aqli, o‘qigan bolasan-ku, lekin men buni do‘ndirib qo‘yan bo‘lardim. Hammagini o‘zidan so‘rab bilardim. Kimsiz, sizga nima kerak, derdim. Sen bo‘lsang, oshna, o‘zingni yo‘qotib qo‘yibsan. Ko‘rib turibman, hushing boshingdan uchgan. Aytgan edim-a senga...

— Muncha xavotir olasan? — uni tinchlantirishga urindi Avdiy.— Nimasiga shuncha vahima kilaverasan?

— E, qiziq ekansan-ku, izimizga iskovuchlar tushishi mumkin. O‘sha xotinni ayg‘oqchi qilib yuborgan bo‘lsalar-chi, bor, hammagini ko‘rib kel, deb?

— Qo‘ysangchi, bo‘limg‘ur gaplarni!

— Dumingdan bosib, olib ketsinlar-chi, unda nima deb sayrarkinsan? Yo O‘ziga nima deb javob qilarkinsan hali? U iskovuchlardan ham battar so‘roq qiladi: teringni shilib oladi. So‘kib yuborishdan ham toymaydi. So‘kish nimaligini bilasanmi o‘zing?

— O‘zingni bos, Pyotr. Boshga tushganni ko‘z ko‘radi. Buni oldinrok o‘ylash kerak edi. Ana, Lyonka, hali kichkina bola, kim uni bu ishga tortdi? Yoki o‘zingni olaylik. Nechaga kirding? Yigirmaga chiqib qolgandirsan, hoynahoy? Ahmoqsan, O‘zi-O‘zi deb bir qadam ortiqcha qo‘yolmaysan, miq etib og‘zingni ocholmaysan. Hali oxiri nima bo‘ladi? Undan ko‘ra shuni o‘yla.

Lekin Avdiyning bu so‘zları nishonga tegmadi. Petruxaning g‘azabi qaynadi.

— Onangga ayt bu nasihatlariningi, Avdiy. Lyonkaga ham til tekkizma. Kashishlarni kitoblarini o‘qibsan, endi bularni esingdan chiqarib tashla. Esingdan chiqar. O‘gitlaringdan bir tiyinlik foyda yo‘q.

Sen O'zi deding. Uning soyasida jaraq-jaraq pul topyapmiz. Bildingmi? Lyonka tirik yetimcha. Hech kimga keragi yo'q. Cho'ntagi pulga to'lib yursa, birovga muhtoj bo'lmaydi. Xohlagancha yeydi, xohlagancha ichadi. Sening cho'pchaklarining korin to'ydirmaydi. Qachon o'ynab-kulasan bu besh kunlik dunyoda? Stolning usti har turli noz-ne'matlarga to'lib tursa, estradada jonon qizlar timmay qiling o'rgilsin qo'shiqlarni aytib o'ynasa, jigaringdan ursa, qani, qachon qo'rasan bunday yaxshi kunnarni? Mening aka-akajonlarim qora terga tushib ishlaganlari ishlagan, bir ko'rsayding ularning qanday ishlayotganlarini! Ishdan boshlarini ko'tarmaydi bechoralar. Men-chi, hohlasam, qog'oz pulga artaman! Faqat ahmoq odamgina pulni yaxshi ko'rmaydi, to'g'rimi, Lyonka?

— To'g'ri,— taltayib bosh silkidi Lyonka, bunga hech kanday shubha bo'lishi mumkin emas deganday.

Shu tariqa Avdiy gapning uchini chiqarib qo'ydi, xolos. Vaqtি kelsa, bafurjaroq so'zlashadi. Lekin hali pishmagan g'o'rani uzish yaramaydi. Avdiy buni tushunib turibdi. Aks holda, kim uni nashaga kelgan, pulning ketidan quvib yurgan bola deydi?

Ertasiga tong qorong'usida turdilar. Subhi sodiq endigina oqarib kelyapti. Chekkaroqdagi hovlilar hali uyquda. Uch chopar tomorqalardan o'tib, ovoz chiqarmay cho'lga chiqdilar. Hatto itlar ham hurigani yo'q. Petruyaning gapiga qaraganda, boradigan joylari uzoq emas. U yo'lни bilar, yovvoyi nasha duch kelishi bilan Avdiyga ko'rsataman deb va'da bergen edi.

Ko'p o'tmay Avdiy niyatiga yetdi. Nashaning poyasi pishiq, qattiq, baland shoxlab o'sarkan. Shoxlarining uch tomoniga karab qoramir yaproqlar ichra gullari mayda-mayda bo'lib poyasiga yopishib yotadi. Osiyoga Yevropadan mana shu o'simlikni deb kelgan edilar. «Xudoyim-ey,— deb o'ylardi Avdiy nasha tuplariga qarab,— sho'raga o'xshagan ko'rimiszgina o't ekan. Ayrimlar uchun unda qanchadan-qancha kayf qiladigan lazzatli shira, bang bor, shuni deb boshlarini ham tikib yuboradilar! Yer bilan bitta bo'lib o'sib yotibdi bu yerda!» Ha, nasha degani shu edi. Oftob ko'tarilib yelkalarni qizdira boshladi. Atrofda bir tup daraxt yo'q. Kimsasiz, adoqsiz cho'l. Ular cho'l o'rtasida turgancha yovvoyi nasha yaproqlarini barmoqlarida ezib uqalab, uning yopishqoq, o'tkir, achimsiq hidini dimoqlariga tortar edilar. Necha zamonlardan beri giyohvandlar buni chekib keladilar. Ne-ne go'zal ro'yolar uyg'onmagan ularning ko'knori hayollarida! Avdiy Hindiston, Afgoniston yoki Turkiyadagi Sharq bozorlarini tasavvur qilib ko'rni (ular haqida kitoblarda o'qigandi). Istanbul yoki Jaypurning eski shahar qo'rg'onlari tagida, bir zamonlardagi mashhur saroylarning darvozalari atrofida taryok, afyunni ochiqdan-ochiq sotgan, ochiqdan-ochiq olgan, shu yerning o'zida takyaxonalarda cho'kkalab o'tirib chekkan bo'lsalar kerak. Keyin xumor hayol ularni uzoqlarga olib qochgan, albatta — kim bu hayolga og'ushta bo'lib, haramlarda mislsiz go'zallar bilan kayfu safolar surgan, kim shohona yasatilgan fillarda, guldor shodurvonlarda gavjum shahar ko'chalarini shodiyona sayr etgan, kim mert bo'lib qolgan ongning zulmatli qa'rlarida tug'iladigan alamangiz yelg'izlik quchog'iga sho'ng'igan, so'ng shu zulmat jonidan to'ydirib, g'azab otiga mingan — dunyon tag-tomiri bilan yemirib, buzib, kulini ko'kka sovurmoqchi bo'lgan hozirning o'zida, darhol, yolg'iz yakkama-yakka!.. Bir zamonlar jannatday gullab-yashnagan Sharqning halokati va tanazzulining sababi shunda emasmikin? Nahotki suvsiz cho'llarda har qadamda oyoqning tagida o'sib yotgan shu nashapoyada odamning miyasini aynitadigan farah-baxsh og'u yashirinib yotsa?..

— Oh, siz qadrdonlarim! — deb irg'ishlardi Petruxa qo'llarini keng cho'llarga yozib ko'rsatib,— Qara, ana yana, ana, ana! Hammasi o'zimizniki, bizning nashamiz! Lekin, bu yerdan yig'maymiz. Bular hali nima! Hech narsa emas! Sizlarni shunday joylarga boshlab boray-ki, anqayib qolasiz...

Ular yana ichkarilab ketdilar va bir soatlardan so'ng o'rmon bo'lib o'sgan nashapoyadan chikdilar. Atrof-tumonatni odamni mast qiladigan gurkiragan nasha hidi tutgandi. Chopalrar xursandchiligining cheki yo'q edi. Ular nasha barglari va gullarini yig'ishga tutindilar. Yiqqanlarini quritish uchun yoyib qo'ydilar. Petruxa ikki soat quritsa yetadi, ortiq kerak emas derdi. Ish qizigandan qizib borardi... hammasi joyida edi. Lekin, kutilmaganda allaqayoqlardandir vertolyotning guldiragani eshitildi. U cho'l tepasidan pastlab uchib ular tomonga qarab kelardi.

— Vertolyot, vertolyot! — bolalarcha xursand bo‘lib qichqira boshladi Lyonka turgan joyida irg‘ishlab.

Lekin Petruxa o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi.

— Yerga yet, ahmoq! — deb qichqirdi u shaloq so‘kingancha. Hammalari yerga biqinib yotishdi. O’tlar orasida yashirinishdi.

Vertolyot bir oz nariroqdan uchib o‘tdi. Uchuvchilar ularni payqamagan bo‘lsalar kerak. Petruxa anchagacha o‘ziga kelolmadi. U Lyonkani so‘kkani so‘kkani edi. Vertolyot atay bizni qidirib kelgan, derdi nuqul.

— Nima,— der edi ming‘irlab — tepadan hammasi ko‘rinib turadi, hatto sichqon ham ko‘rinadi. Biz ahmoqlar esa yuz chaqirim naridan ko‘rinamiz. Tepadan ko‘zi tushishi bilan kerakli joyga xabar qiladi. Militsiya mashinada kelsa, qochadigan joy yo‘q. Qo‘lingni ko‘tar! O’lding!

Ammo sal o‘tmay hammasi unutildi. Ishlash kerak edi. Xuddi shu kuni hech aqlga sig‘magan hodisa ro‘y berdi. Avdiy bo‘rilar galasiga duch keldi. Voqeа bunday bo‘ldi.

Dam olishga o‘tirdilar. Ovqatlanib oldilar. Shunda Petruxa dedi:

— Menga qara, Avdiy. O‘zimizning odam bo‘lib qolding. Bizga kirishib ketding. Senga bir narsa aytib qo‘yay. Senga o‘xshagan yangilar uchun bir odatimiz bor. Agar birinchi marta ishga tushayotgan bo‘lsang, O‘ziga hadyami, tortiqmi, bir narsa qilishing kerak.

— Yana qanaqa tortiq? — qo‘llarini hayron bo‘lgancha yozib so‘radi Avdiy.

— E, to‘xta. Muncha qo‘rmasang. Senga birov magazinga borib kel deyaptimi? Magazinning o‘zi yo‘q bu yerda. Men nima demoqchiman. Sen gugurt qutichaday bo‘lsa ham, shirachni yig‘. Nashapoya ichida birpas chopib yoursang, vassalom. Nima qilish kerakligini aytaman. O’sha shirachni O‘zi bilan ko‘rishganda qo‘liga tutqizasan. Do‘stligimiz uchun deysan. Aqli odamsan-ku, bilasan nima deyishni. Hammasiga O‘zi bosh, sen uning qo‘l ostidagi odam. Ishonchini qozonishing kerak...

Avdiy o‘yga toldi: nima qipti, chakki emas. Nashaning asilini — shirachni o‘ziga tuhfa qilsang, yo‘ling ochiladi, tanishib ham olasan. Nihoyat, O‘zini ko‘rishga muyassar bo‘lasan. Bu juda ham zarur edi! Hammani titrab-qaqshatib o‘z hukmida tutib turgan O‘zi bilan uchrashish! «Hokimlik, hokimlik, ikkita odam yig‘ilgan joyda albatta biri xokim bo‘ladi!» — achchiq kulib qo‘ydi Avdiy Kallistratov.

— Bo‘pti,— dedi u,— keragicha yig‘ib so‘ng O‘ziga beraman. Qachon berish kerak? Bekatga borgandami?

— Anig‘ini bilmayman,— tan oldi Petruxa.— Balki ertaga berarsan.

— Ertaga?

— Shunday. Vaqt bo‘ldi. Ketamiz. Yetadi. Ertaga yigirma birinchi. Ertaga soat to‘rtgacha albatta aytilgan joyda bo‘lishimiz kerak. Yo‘lga tushamiz.

— Qaerda?

— Qaerda bo‘lardi,— bilag‘onlikdan kerilib dedi Petruxa.— Boraylik. O’shanda bilasan. Uch yuz o‘ttizinchil kilometrda.

Avdiy boshqa so‘rab o‘tirmadi — uch yuz o‘ttizinchil kilometr Chu temir yo‘lidagi joy ekanligini tushundi. Hammadan, O‘zi bilan uchrashuv ertaga o‘sha yerda bo‘lishi mumkin. Shuning uchun vaqtini boy bermay tezroq shirach yig‘ish kerak emasmi?

Bu ishning o‘zi qiyin emas ekanu, lekin odamni juda charchatib yuborarkan. Ishning usuli ham yovvoyilarcha. Qip-yalang‘och bo‘lib nashapoya ichida chopib yurish kerak. Shunda badanga nasha gullarining changlari yopishadi. Keyin ularni asta uqalab olinadi. O’sha kuni Avdiy Kallistratov toza halak bo‘lib yugurdi. Umrida bunday chopmagandi! Nashaning shira changi ko‘zga bazo‘r chalinadi. Rangini bilib bo‘lmaydi. Lekin, juda yopishqoq shirachday bo‘ladi. U badanga o‘rnashib yopishib qoladi. Ammo, uni sidirib olish osonmas. Ko‘p urinib ozginagina shirach yig‘ish mumkin. Lekin O‘zi bilan ko‘rishmasa bo‘lmaydi. Bu mamlakatga jar soladigan, og‘ir dard-kasallikdan ogoh etadigan, bong uradigan gazeta maqolasi uchun g‘oyatda zarur. Avdiy buni juda yaxshi his qiladi va shuning uchun javzoning so‘xta qilib yuboradigan oftobiga qaramay u yoqdan-bu yoqqa chopgani chopgan.

Qalin o'sgan nashapoyalarda chop-a-chopa Avdiy sheriklaridan xiyla uzoqlashib ketgandi. Shunda kutilmaganda, u o'zini yengil parvoz qilayotganday, hayoli ko'klarda havolayotganday sezdi. Bu qachon, qanday bo'lganligini Avdiy payqamay qoldi. Osmonda oftob saxovat bilan nur sochadi, havo issiq, allaqanday qushlar pirpirab uchishadi, sayrashadi, ayniqsa, cho'l to'rg'aylari tinimsiz chuldirashadi, kapalaklar pir-pir uchib, dam qo'nishadi, dam ko'tarilishadi, anvoyi hasharotlar ham allanechuk o'z kuylarini kuylashadi — misoli yer yuzidagi jannatga o'xshaydi. Ana shu jannatmakonda shimollik oqbadan yigit Avdiy nasha hidlaridan g'oyatda sarxush bo'lib, xuddi murvati burab qo'yilganday u tomongan-bu tomonga yugurgani yugurgan. U qip-yalang'och. Boshida panamasi-yu, ko'zida oynak, oyog'ida kedi va ustida kichkina ishtonchasigina qolgan. U eng quyuq o'sgan nashapoyalarni topib o'zini ular ichiga uradi. Uning atrofida gullab urug' bog'layotgan nashaning changi oqarib ko'tariladi. Ular havo bilan Avdiyning ichiga kiradi, boshini aylantiradi, g'uvillatadi, ko'ziga har turli rangin manzaralar ko'rindi. Sarxush hayol tasvirlarga to'ladi: ana, u mototsiklda uchib boryapti. Kechagi mototsiklchi xotinning orqasiga o'tirib olgan. Odadta mototsiklning orqasiga xotin-xalaj minadi. Lekin Avdiy yigit bo'la turib kattakon mototsiklni o'zi emas, ayol boshqarib borayotganidan xijolatga tushmaydi. U mototsikl haydashni bilmasa va umuman, texnikadan uzoq bo'lsa, ne qilsin. Xotin bilan bitta mototsiklda ketishning o'zi maza emassi. Ayolning sochlari qalpog'i ostidan to'zib chiqadi, shamolda uchib, uning yuziga uriladi, sirpaladi, qitiqlaydi uni xuddi shamolday, lablari, ko'zlariga yopishadi, tomoqlarini qichitadi, oh, qanday yaxshi, qanday soz: gohida juvon orqasiga o'girilib qaraydi, unga sho'x-shan kulib qo'yadi, ko'zlar cho'g'day porlaydi — o, qaniydi, doim-doim shunday bo'lsa, uzoq-uzoq davom etsa, asrlarcha...

Shunda birdan uning ko'zi uch bo'ri bolasiga tushib qoldi-yu, darhol hushyor tortdi. Ana xolos! Qaydan kelib qoldingiz, azamatlar? U ko'zlariga ishonmasdi. Uchta bo'ri bolasi dumchalarini likillatib unga yaqinlashmoqchi, u bilan o'ynashmoqchi bo'lar, lekin — yuraklari to'la dov bermas, anjo, qochib ketmas ham edilar. Oyoqlari o'smirlarniki kabi uzun-uzun, quloqlari dam dikkaygan, dam shalpaygan, tumshuqlari cho'zinchoq, jaynoqlangan tamtam ko'zlar odamga kulagini qistatadigan darajada ishonch bilan boqadi. Xuddi shu narsa Avdiyning dilini qitiqlab yubordi-da, boshqa hamma narsani unutib, ularni o'z oldiga erkalab, avrab, qiziqtirib chaqira boshladi. Avdiy bo'richalarni yaxshi ko'rib tamomila iyib ketgandi. Shu on ko'z o'ngida go'yo oq yildirim paydo bo'ldi. Tishlari oppoq yiltiragan qanjiq bo'ri uning ustiga o'qday otilib kelardi... Bu kutilmaganda, tez, lekin shunchalar sekin va dahshatli tarzda sodir bo'ldiki, tizzalari o'z-o'zidan bukilib, beixtiyor cho'kkalab o'tirib qolgani, qo'llari bilan boshini to'sganini bilmadi. Xuddi shu narsa uning hayotini qutqarib qoldi. Lekin, u bundan ham bexabar edi. Bo'ri uch qadamcha narida edi, o' birdan shiddat bilan sakrab Avdiyning boshidan nari oshib ketdi. Avdiyning dimog'iga hayvon hidi gupillab urildi. Shunda ularning ko'zlar to'qnashdi. Avdiy bo'rining ko'k olov sochgan nigohini, mislsiz ko'm-ko'k va qahrli ko'zlarini ko'rdi. Vujudi muzlab ketdi. Bo'ri esa zum o'tmay yana uning ustidan orqaga sakradi va kuchukchalarini tishlab, turkilab xuddi shamol yanglig' orqaga surib yubordi. Yo'l-yo'lakay jar ichidan yollari tikkatikka bo'lib, bahaybat kallasini chiqarib qaragan vahimali bo'rini ham ko'kragi bilan urib, tishlab shitob bilan orqaga qaytardi. Ular xuddi bo'ron uchirib ketganday, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldilar...

Avdiy esa oyog'ini qo'liga olib qochdi, cho'lda qancha chopganini bilmaydi, qo'rqinch bo'g'zidan faryod bo'lib otilardi. Chopib borarkan, boshi chirillab aylanar, oyog'i cho'yan osib qo'yilgandek og'irlashib ketgan, chalkashgan oyoklari tagida yer chayqalardi. Yiqilsamu turmasam, uxlاب qolsam derdi. Shunda u o'qchib-o'qchib qusa boshladi. Ana endi o'ldim, deb o'yladi. Holi-joni qolmagan, lekin shunday bo'lsa ham, o'zini qusuqdan nari olishga kuch topar, yana yugurishga tushar, yana o'qchib, bukchayib-bukchayib qusgani-qusgan edi. Qornida chidab bo'lmaydigan og'riq turdi. Ichaklarini xuddi birov tinmay tilayotgandek edi. Og'u ichidan so'lakaylanib tusharkan, azobdan yetti bukilgan Avdiy titrab-qaqshab xXdoga yolvorardi: «Oh, Xudoyim, bo'ldi, bas qil! Boshqa hech qachon, hech qachon, xech qachon nasha yig'mayman, o, Xudo, o'zing menga rahm qil...»

Nihoyat, ko'ngli aynishi to'xtadi. U kiyimlarini axtarib topish uchun o'rnidan turganda, oldiga Petruxa bilan Lyonka chopib kelishdi, Bo'rilar haqidagi hikoya ularga qattiq ta'sir qildi. Ayniqsa, Lyonka ko'rqib ketdi.

— O'zingni tut, hey! Muncha qaltiraysan? — deb qichqirdi unga Petruxa.— Odamlar oltin qidirganlarida nimalar bo'Imagan, bilasanmi, lekin orgalariga qaytishmagan... Sen bo'lsang, qandaydir bo'rilardan qo'rqib o'tiribsan. Ular allaqachon qochib ketgan...

— Oltinning yo'li boshqa-da,— dedi Lyonka bir oz jimplikdan so'ng.

— Nima farqi bor? — o'dag'ayladi Petruxa. Avdiy fursatdan foydalandi.

— Farqi bor, Pyotr,— dedi u zaif ovoz bilan.— Katta farqi bor. Oltin ham ko'p yomonlik keltiradi. Lekin u taqiqlanmagan. Nasha bo'lsa, hamma uchun og'u. Boshimdan o'tkazdim. O'lib qolay dedim. Butun cho'lga qusib chiqdim...

— Bas qil, shu gaplaringni! O'rganmagansan. Ozroq zaharlangansan. Shunga shunchami? — qo'lini norozi bo'lib silkidi Petruxa.— Nima, seni birov majbur qilib olib keldimi bu yerga? Nuql Xudo deysan. U yaxshi, bu yomon deb **nax** urasan. Nega bizga pishang beryapsan? Nega suvni loyqatyapsan? Pul desa, o'zingni tomdan tashlaysan. Shundan shunga pul deb kelgansan. Tag'inam bo'ri qorningni yorib tashlamabdi!

— Loyqatmoqchi emas, tozalamoqchiman suvni,— Avdiyning nazarida yanada ochiqroq gapirish pallasi kelganday edi.— O'zing aqli bolasan, Petr. Jinoyat yo'liga kirganiningni bilmaysanmi, aqling yetmaydimi...

— Ha, shu yo'lga kirganman! Sen-chi, sen qaysi yo'lga kirgansan?!

— Men qutqarishni istayman!

— Kutqarish deydi! — jahl bilan qichqirdi Petruxa.— Senmi hali bizni qutqaradigan? Qanday kutqarasan, qani, aytib ber-chi!

— Oldin — Xudoga tavba qilamiz. Kechirishini so'raymiz. Keyin odamlarga...

Avdiy ularning kulmaganlariga ajablandi. Faqat Petruxa og'ziga bemaza narsa tekkanday chirtillatib tupurdi.

— Tavba emish! Gapini qarang! — to'ng'illadi u.— E, sen tavba qil. Biz pul ishlaymiz. Bizga pul kerak, bildingmi. Gap tamom. Sen tavbangni qilaver! Avdiy, agar hazillashayotgan bo'lsang, sal ko'zingga qarab hazillash! Bizni yo'ldan urayotganiningni O'zi eshitsa, chiqqan joyingga kirgazib yuboradi, bilib qo'y! Senga jo'ram deb aytyapman. Bizni ham alag'da qilma. Puldan boshqasiga qiziqmaymiz. Lyonka, o'zing ayt. Senga pul kerakmi, Xudomi?

— Pul! — javob berdi bola.

Avdiy g'iq etmadı. Gapning davomini boshqa paytga qoldirdi.

— Xo'p, qani, gapni bas qildik. Yetar, yo'lga chiqaylik,— murosaga kelganday dedi Petruxa.— Sen shirach qiloldingmi, Avdiy?

— Yig'olmadim. Bo'ri hujum qildi. Qolganlarini qaerga qo'yganman, esimdan chiqdi. Ustboshimni ham topib kelishim kerak...

— Kiyimlariningni-ku toparsan, kaerga ketardi. Lekin shirach yig'ib ulgurmaysan. Bugun ketishimiz kerak. Mayli nima bo'lganini aytsak, tushunar. Tushunmasa, kelasi safar yig'ib berarsan...

Nasha to'ldirib solingan yuk xaltalarini yelkaga ortgancha, yarim kechaga dovur temir yo'l tomonga qarab yurdilar. Yurish uncha qiyin emasdi. Quritilgan giyohning qancha og'irligi bo'ladi deysiz. Lekin nashaning hatto yelim paketlardan ham gurkirab turgan hidi boshni aylantirar, ko'zni uyquga tortardi. Chopar bolalar tun o'rtasi uxlagani qo'ndilar. Yo'lni tong qorong'usida davom ettiradigan bo'ldilar. Lyonka Avdiy bilan Petruxaning o'rtasiga tiqilib yotdi. U bo'rilardan qo'rqib qolgandi. Bola-da hali. Bari aksincha bo'ldi. Yo'l yurghanlarida uyqu bosgandi. Uxlagani yotganlarida Avdiyning uyqusi qochdi. Lyonkaning o'rtaga tiqilishi ko'nglini iyitib yubordi. Kimning hayoliga kelibdi deysiz. Kap-katta bola bo'rilardan qo'rqib o'tiribdi. Lekin ko'rdingizmi, illatning kuchini, hayot haqidagi tasavvurlarning go'daklikdan buzilganini. Boya Lyonka zarracha o'ylab o'tirmay

darhol Xudonimas, pulni yaxshi ko'raman, dedi-ya. Xudo bunda shartli bir narsa edi, taqvodor hayotning ramzi... Avdiy shularni o'ylardi...

Yoz chog'larida cho'l kechalarining o'z go'zalligi bor. Zamin va samo bepoyon, undan chiqayotgan sukunat ham cheksiz. Kecha iliq. Anvoyi o't-o'lanlarning hidlari gurkiraydi. Son-sanoqsiz yulduzlar, yarqiroq oy odamni qattiq haya jonga soladi. Yulduzlar va nigoh aro zarra g'ubor yo'q, havo shu qadar musaffo. Odam turmush urinishlaridan chalg'igan noyob damlarda xayol o'sha sirli olamlar bag'riga sho'ng'iysi. Afsuski, bu uzoq davom etmaydi...

Hammasi o'zim o'ylaganimdek, mo'ljallaganimdek bo'ldi, deb fikr yuritardi Avdiy: choparlar bilan nashazorlarga keldim, barini o'z ko'zlarim bilan ko'rdim, boshimdan o'tkazdim. Endi eng murakkab ish — poezdga o'tirib jo'nash qoldi. Choparlar uchun eng xatarlisi — nashani olib ketish. Militsiya ularni ko'pincha Osiyo stantsiyalarida ushlaydi. Rossiya tomonlarda bu jihatdan ancha oson. Moskvaga borib olsang va undan u yog'iga omon-eson yetib olsang, marra seniki! Turmushning ulug' zavoli kichkina odamlarning kichkina yutug'iga aylanib mana shunday tantana qiladi...

Avdiy bu bilan hatto hayolida chiqisholmasdi. Lekin aytaylik, jinoyatning oldini olishgina emas, choparlarning fikrini o'zgartirish, ularni bu yo'ldan qaytarish, qayta tarbiyalashga kelganda, bunga kuchi yetmasligini endi u tushunardi. Shu cho'llarda ham qaylardadir o'ralashib, hamma narsani, jumladan, Avdiyni ham changalida tugib turgach, barcha choparlarning jilovini o'z qo'liga olgan, o'sha O'zi deb ataladigan kimsa unga butkul qarshi turar va undan ancha-muncha qudratlirok edi. Ularning nashacho'lga yurishlari O'zining hukmi va nazoratida edi. Balki undan ham ortiq — O'zi mikrodiktator edi. Ular orasida Avdiy qaroqchilarga qo'shilgan daydi rohibday juda ayanchli edi... Ammo xudojo'y va mutaassib rohib har qanday sharoitda ham rohib bo'lib qolishi kerak... U hali hayotning bu jomidan ham ichadi...

Kunduzi bo'lib o'tgan taajjub hodisa yana hayolini band etdi. Anavi uzunoyoq tentak kuchukchalarni qarang-a. Odamni kulgili, beziyon maxluq deb o'ylashdi chog'i. U bilan juda o'ynashgilar keldi. Katta bo'rining turqini ko'ring, quturib ketgan, ko'kkozlari yonadi. Rosa achchig'i chiqqan edi. Yo'q, shukr, hammasi o'tib ketdi. Nega uning ustidan ikki marta sakrab o'tdi? Ne ma'nosi bor buning? Bir hamla qilganda uni pora-pora qilib tashlashi mumkin edi-ku? Panama-yu kichkina ishtonni demasa, shaharning qip-yalang'och ahmoq odamini nega ayadiykin? Faqat hangomalardagina shunday bo'lishi mumkin. Buni ko'ring endi — bo'rilarning marhamati — taqdirning marhamati emasmi? Demak, u hali hayot uchun kerak ekan-da? Lekin unga tomon qahru g'azab bilan tashlangan, bolalari uchun qo'rqib ketgan ko'kkoz bo'ri qanchalar shiddatli va qanchalar ajoyib edi. Ha, u o'z yo'liga haq edi. Lekin otasiga balli-ey, unga tashlanmadni, go'shtlarini g'ajimadi. Axir, Avdiyning ham hech qanday gunohi yo'q edi-da. Avdiyni o'sha holatda anavi mototsikl mingan xotin ko'rib qolgandami, toza kotib-qotib kularmidi-ey? Avdiy shuni ko'z o'ngiga keltirib ohista kulib qo'ydi. Ha, xuddi tsirkda masxarabozni ko'rganday maza qilardi. Lekin u birdan qo'rqib ketdi: kimsasiz cho'lda ketayotganda mototsiklning motori o'chib qolsa-ya, bir o'zi, bu yoqdan bo'rilar tashlansa?! Shunda Avdiy ko'kkoz bo'riga murojaat qilib yolvora boshladи: «So'zlarimni tingla ey, go'zal ona bo'ri! Sen shu yerlarda yashaysan. O'zingga qanday yaxshi bo'lsa, shunday yasha, tabiat qanday buyurgan bo'lsa tiriklikni shunday ado et. Yolg'iz shuni o'tinaman sendan: agar uning motori o'chib qolsa, Xudo haqqi, bo'rilarning xudolari haqqi, bolalaring haqqi, unga tegma! Unga ziyonzahmat yetkizma! Shunday katta mototsiklni minib ketayotgan o'sha go'zal xotinga havasing kelsa, uning yonginasida, yo'lning chekkasida birga chopib bor, lekin aslo unga ko'rinsa. Qanot chiqarginu uch. Buddoiylar aytganlariday, balki sen, ey ko'kkoz bo'ri, uni odam qiyofasidagi o'z egaching, deb tan olarsan? Nima, shunday bo'lishi mumkin emasmi? Nima qilibdi sen bo'ri bo'lsang, u esa odam, lekin ikkovingiz ham, axir juda go'zalsiz, o'zingizga yarashgan chiroylisiz! Sendan yashirib o'tirmayman, uni chin yurakdan yaxshi ko'rib qolishim mumkin. Lekin men tentakman, ha, tentakman, yana kim ham bo'lardim! Faqat g'irt devonalargina shunday orzu qiladilar. Mabodo, mening nima deb o'yaganlarimni u bilib qolsa, kula-kula ko'zlaridan yosh chiqib ketardi! Lekin shundan xursand

bo‘lsa, mayli, to‘yib-to‘yib kulsin...»

Cho‘lda tong yorishib kela boshladi. Petruxa Avdiy bilan Lyonkani uyg‘otganda, hali tong qorong‘uligi ketmagandi. Uch yuz o‘ttizinchi kilometrga yo‘l olish kerak edi. Qancha barvaqt bo‘lsa, shuncha yaxshi. Chunki o‘scha yerga boshqa nasha to‘plovchilar ham yig‘ilib kelishlari kutilardi. Biron ta yuk poezdini to‘xtatib, unga imi-jimida chiqib, Jalpoq-Soz bekatiga yetib olishlari kerak. So‘ng bu yerdan asta boshqa poezdlarga o‘tiradilar. Umuman, choparlar uchun yo‘Ining eng xatarli qismi boshlanmoqda edi. Hammasiga O’zi rahbarlik qilardi chamasi. Uch yuz o‘ttizinchi kilometrda kim kimni: ular — O’zinimi yo O’zi — ularni topadimi, Petruxa buni tuzukroq aytmadidi. Yo bilmaydi, yo aytishni istamaydi.

Shunday qilib, yana yuk xaltalarini yelkalariga ortdilar-da, Petruxaning ortidan yo‘lga ravona bo‘ldilar. Petruxaning xotirasi, yo‘lni bilishiga Avdiy qoyil qoldi. Qaerda jar bor, qaerda kishi bilmas buloq mildirab oqadi, qaerda soy-o‘r bor, barini oldindan bilardi. Shunday xotira, shunday qobiliyat hayf ketayotganiga Avdiy afsuslandi. Bir ko‘rgan yerini esidan chiqarmas ekan bola!

Men axir dehqon bolasiman-da, derdi u. Petruxaning aytishicha, bu yerdan ikki yuz chaqirim narida Mo‘yinqum sahrosi bor. U yerda sayg‘oqlar — cho‘l kiyiklari gala-gala bo‘lib yuradi. Idoraning «gazigi»ga minib yuradigan uddaburon odamlar hatto Orenburg tomonlardan ovga kelishadi. Kelgandayam yana qandoq! Bu yoqda tirik kaboblar istagancha chopib yuribdi. Ichkilik esa o‘zlarida yetarli. Ana, shohona ov! Lekin xatarli joyi ham bor. Mashina buzilib qolsa. Ana unda ko‘ring hangomani. Ovchilar sahroda suv qidirib, adashib, tashnalikdan o‘lib ketgan paytlar bo‘lgan. Qish paytlari esa bo‘ronlarga chidolmaganlar. Keyin faqat suyaklari topilgan. Bitta ovchi jinni bo‘lib qolgan ekan. Uni vertolyotda qidirishgan. Vertolyot uni qutqaraman desa, u vertolyotdan qocharmish. Berkinib olarmish. Orqasidan quva-quva aloha yetib qutqarib olishibdi. U bo‘lsa, gapirishni ham esidan chiqarib yuborgan ekan. Xotini ham orada boshqaga tegib ketibdi. Voy iflos-ey! Ularning hammasi shunaqa! Men uylanmayman. Shaharda bittasi bor. Juda ketvorgan. Ozgina pul tashlab qo‘ysang, tamom, joningni kirgizadi. So‘z ham bergen — bola bo‘lmaydi deb! Zo‘r moto ham olib qo‘yibman, chechlarniki, sportchilar minadiganidan. Saroyda qantarib qo‘yganman. Xohlasam, «Jiguli» ham olaman. Cho‘t emas. Lekin hammasi «Volga» dan o‘taversin. Hozir «Mersedes»ga o‘xshagini chiqqan. O’shandan olsang-da, olganga yarasha. Qo‘lga tushirsa bo‘larmikin-a, shunaqasini? Kasseta joylab qo‘ysang. Yastanib eshitib yotsang ichida. Ashula degani ham mundoq jigarlaringni ezib tursada. Hammasiga tanish kerak, hammasiga pul kerak, cho‘zish kerak hammasiga. «Volga»ni minib qaydasan Vorkuta deb jo‘nasang. Ko‘rib qo‘y akang qarag‘aylar deb. He-he, ichiqora kennayilar yorilib o‘ladi. Yukxonada shishalar liq to‘la. Asl toza ichimliklar. Ko‘pi chetniki. O‘zimizniki ham bor. O’zi shundan yaxshisi yo‘q. Mingani esa «Volga», ana xolos... Shuning uchun, aziz jo‘ralrim, nashaning ketidan quvib yuribman-da. Sizlar ham bir narsalik bo‘lib qolinglar deb jon kuydiriyapmanda... Davring keldi — sur begin, davring ketdi — tur begin...

Petruxaning maza-matrasiz, go‘l aljirashlarini eshitib, Avdiyni yana hayol olib qochdi. Inson bolasi boyish vasvasasida yalpi tus olgan taqlidchilikka taqlid qilish va manmanlik o‘rtasida ovora-sarson bo‘lib yuradi. Mana shu uch narsa — ommaviy ongning uch nahang balig‘i. Hamma yerda va hamma zamonlarda odmi odamlarning hayotlari shular zaminida barqaror turadi. Barcha katta-kichik kulfatlar ulardan hosil bo‘ladi. Ularga in quradi. E’tiqodlar va qarashlarning qashshoqligi, nochorligi ham ulardan. Odmi odamlarning tengsiz qudratga ega bo‘lgan bu mafkurasini yengadigan kuchni yer yuzida topish mushkul. Din ham bundan mustasno emas. Ichi bo‘sh va havol bo‘lsa-da, hech qachon nuramas bu qoyaga ruhning qanchadan-qancha parvozları o‘zini urib parcha-parcha bo‘lib ketmagan deysiz... Uning choparlarga qo‘shilib borayotgani ham o’shandan dalolat — ruh nochor, lekin horimas... Peshanada bor ekanda. Yozmish... U yo‘l bo‘yi O’zi bilan uchrashuvga hozirlanib bordi — jangga. tayyor turish kerak edi.

Uch yuz o‘ttizinchi kilometrga ular vaqtidan ikki soat burun yetib keldilar. Soat uchda ular shu yerda edilar. Temir yo‘l bo‘ylab ketgan jarlikka yaqinlasharkanlar, Petruxa yukxaltalarni men

ko'rsatgan yerga qo'yinglar, o'tib turgan poezdlarga qoranglarni ko'rsatmanglar, boshlaringni ko'tarmanglar, nima gap bo'lsa, hammasini o'zim aytaman, deb tayinladi.

O'luguay charchashgan ekan. Osonmi bir kunda shuncha yo'lni bosish! Jar tagidagi mavrak va chalov aralash o'sgan baxmalday maysaga cho'zilish qanchalar rohat. Uzoqdan poezdlarning guldirab yaqinlab kelishlarini eshitib yotish allaqanday farog'at bag'ishladi. Uzoq-uzoqlarga cho'zilgan zil vagonlar ostida temir izlar zing'illab va zuvillab ketar, keyin og'ir cho'yan g'ildiraklarning qaldir-qaldir, qaldir-qaldir o'tgani eshitilar, so'ng temir va moy hidi anqirdi. Bu shovqin keyin yana anchagacha olis-olislardan qulooqqa chalinib turar, so'ng asta-sekin olam okeanini qurshagan jimjitlikka singib ketardi... Shamolday yelib biri — u tomonga, boshqasi — bu tomonga passajir poezdlar o'tardi. Avdiyning yuragi orziqib ketdi. U bolalikdan passajir poezdlarni, vagon oynalarida lip-lip o'tib borayotgan odamlarning basharalarini tomosha qilishni yaxshi ko'rardi. Hoy baxtiyor odamlar, meni ham ola ketinglar o'zlarining bilan! Lekin hozir shu o'tkinchi havasdan ham mahrum. Buta panasida boshini chiqarmay yotishga to'g'ri keladi. Lekin eng chatog'i — shu yerda yuk poezdini qaroqchilarga to'xtatishda ishtirok etadi. To'g'ri, hech kim sostavni talamoqchi emas. Poezd to'xtasa, choparlar unga lippa-lippa sakrab chiqib oladilar. U yog'i o'z yo'li bilan ketaveradi. Uyog'iga yuk vagonlarda pusib borishadi...

Poezdlar u yoqdan-bu yoqqa tinmay o'tardi. Keyin uzoq jimlik cho'kdi. Avdiyning endi ko'zi ilingan ekan, birdan hushtak ovozi keldi. Petruxa qulog'ini ding qildi, so'ng o'zi ham hushtak chaldi. Unga yana bir hushtak chalib javob qilishdi.

— Xo'p, sizlar bemalol kutib turinglar,— dedi Petruxa,— men boraychi, chaqirishyapti. Mensiz qimir etmanglar, eshityapsanmi, Avdiy, eshitdingmi, Lyonka? Yuk poezdini to'xtatish oson ish emas. Kallani ishlatish kerak, kallani.

U shularni aytib g'oyib bo'ldi. Yarim soatlardan so'ng qaytib keldi. Andak shahdi sustroq edi. Chehrasi qandaydir o'zgargan, ko'zları o'g'rincha alang-jalang qilar, odamning yuziga tik qarashdan o'zini olib qochardi. Avdiy bunday paytlarda gumonsirab o'tirishni yoqtirmas, noxush o'ylarni o'zidan nari quvardi. O'z erkiga qo'yib bersang, hayolga nimalar kelmaydi. Balki kishining qorni og'riyotgandir... Shuning uchun xotirjam o'smoqchiladi:

- Xo'sh, Pyotr, ishlarimiz qalay?
- Yomon emas, tuzuk. Yana ozroq kutamiz.
- Poezd to'xtatamizmi?
- Albatta. Yuk poeza bizga qulay. Poezd bekatga kechasi borsa va qo'shimcha yo'lda tursa, undan ham yaxshi.
- Shunday de.

Ular jim qoldilar. Petruxa sigaret tutatdi. Tutunini ichiga chuqur tortarkan, go'yo hech narsa bilmagandyar dedi:

— Bir jo'ramizning oyog'i lat yebdi. Oti Grishan. Borib ko'rib keldim. Ishi yurishmabdi. Cho'loqlanib qancha yig'ib bo'lardi. Tayoqqa tayanib yuribdi. Albatta, odamga alam qiladi. Balki, hammamiz oz-ozdan unga yig'ib bersakmikin. O'n kishi ekanmiz. Jindak-jindak nasha bersak bechoraning ko'ngli ko'tariladi.

- Mayli,— dedi Avdiy.— Lyonka uxdelayapti. Lekin u ham qizg'anchiq emas.
- E, Lyonka o'zimizning hotamtoy-ku! Avdiy, sen borib Grishan bilan gaplashib kelsang, bo'lardi. Nima qildi, nima bo'ldi, deb hol-ahvol so'rasang, sal yozilarmidi cho'loq sho'rlik...
- O'zi qaerda, o'sha yerdamikin? — ehtiyyotsizlik qilib so'radi Avdiy.
- E, seni nima jin urgan o'zi? Og'zingdan O'zi, O'zi tushmaydi,— jahli chiqdi Petrujaning.— Men qaerdan bilay? Senga Grishanni aytasam, yana O'zimi deysan. Kerak bo'lsa O'zi bizni topib oladi. Bo'lma-sa xap o'tir. Burningni suqma. Nega hadeb surishtiraverasan?
- Bo'ldi, bo'ldi. So'radim qo'ydim-da. Tinchlan. Grishan qaerda? Qaysi tomonda?
- Huv ana, o'sha yoqqa bor — huv ana, soyada, buta tagida o'tiribdi. Bor, bor.

Avdiy o'sha tomonga yurdi va ko'p o'tmay Grishanga ko'zi tushdi. U o't-o'lanlar orasida mo''jazgina kursichada qo'lida tayoqcha o'ynab o'tirardi. Kepkasini manglayiga bostirib kiygan. Sezgir odam bo'lsa kerak, Avdiy hali yaqinlashmay turib, o'girilib qaradi va kaftiga yo'talib qo'ydi. Undan nariroqda yana ikki kishi o'tirishardi. Hammasi bo'lib uch kishi. Shunda Avdiy tushundi: O'zi mana shu odam... Qadami taysallagan Avdiy badaniga sovuq o'rmalaganligini his qildi. Yuragi gursillab tez-tez urib ketdi...

## IKKINCHI QISM

### I

— Yaradorga salomlar,— dedi Avdiy iloji boricha odmigina qilib, shu bilan u qattiq dukirlab urayotgan yuragini bosmoqchi edi.

Xuddi baliqchilarnikiday mo‘jazgina yig‘ma kursichada tayoq o‘ynb o‘tirgan Grishan bir ko‘zini qisib qaradi.

— Salom-ku, salom, lekin kimdan ekan bu salom?

Avdiy beixtiyor kulib qo‘ydi.

— Avvalo sening sog‘-salomatliging kerak odamdan-da, bu salomlar.

— E shundaymi! G’oyat minnatdorman, haddan tashqari minnatdorman, yaxshi boshlangan ishning oxiri ham yomon bo‘lmaydi. Kimsasiz cho‘lda ko‘ngil so‘raganning yo‘rig‘i ham boshqa. Nimasini aytasan! Hammamiz ham issiq jonmiz-da, to‘g‘rimi?

«Gapga chechan ekan, buning ustiga ko‘p kitob o‘qigan bo‘lsa, ish chatoq. Bunaqasini sira kutmagan edim, o‘lay agar. Ohanjama qiladi, o‘zini mahmadona qilib ko‘rsatyapti,— deb o‘yladi Avdiy.— Nima sababdan? Yoki O‘zining nayrangimikin bu?» Avdiy Grishanning chehrasiga qarab, esda qoladigan hech narsasi yo‘q ekan, deb qo‘ydi ichida. Tashqaridan u g‘oyatda jo‘n odamga o‘xshab ko‘rinardi: bo‘yi o‘rtachadan balandroq, sochlari birmuncha qo‘ng‘ir ust-boshi ham yoshiga monand, ko‘zga unchalik tashlanib turmaydi, jinsi shim, yoqasi «molniya»li eskigina ko‘ylak, boshida cho‘ntakka ham sig‘ib ketaveradigan ko‘rimsizgina shapka. Agar Grishan cho‘loqlanmasa va shu tufayli qo‘lida yo‘g‘on g‘o‘dir tayoq ko‘tarib yurmasaydi, uni odamlar orasidan ajratib olish qiyin bo‘lardi. Ko‘proq tikilib qaragan kishi balki Grishanning ko‘zlarini eslab qolsa ajabmasdi. Jaynoqlangan qo‘yko‘zlarining ma’nosi to‘xtovsiz suratda o‘zgarib turar, ehtimol o‘zi ham sezmagan holda u timmay ko‘zlarini qisar, o‘g‘rincha qiya qarar, rangini bilib bo‘lmaydigan qoshlarini uchirar, xuddi burchakka qisib qo‘yilgan, tashlanib, chovut solib, tishlamoqchi bo‘layotgan, lekin jur’ati yetmayotgan va shunga qaramasdan bari bir yurak yutib, irillaryotgan, po‘pisa qilayotgan vahshiy jondorga o‘xshardi. Ehtimol gapirganda baralla ko‘zga tashlanadigan singan tepe kurak tishi tufayli shunday taassurot tug‘ilsa ham ajabmas. «Tilla tish qo‘ydirib olishi ham mumkin edi, lekin negadir buni xohlamagan,— deb o‘yladi o‘zicha Avdiy.— Balki ortiqcha ko‘zga tashlanib turishni istamas».

— Oyoqqa nima qildi? Qayrilib ketdimi? Qaramay qadam qo‘ygandirsan-da? — odob yuzasidan so‘radi Avdiy.

Grishan boshini noaniq chayqab qo‘ydi.

— Ha, jinday lat yedi shekilli. Ko‘zimga qaramaganman, to‘g‘ri aytding, Avdiy, isming shunday shekilli, a?

— Ha, ismim Avdiy.

— Injildan olingenmi deyman. Xo‘p ismlar bo‘ladi-da, a,— so‘zlarni atay cho‘zib, tamshanganday yamlanib fikrlardi Grishan.— Avdiy — cherkovning isi kelib turadigan ism,— o‘ychanlik bilan dedi U— Qarang-a, odamlar bir paytlar Xudoni dillariga tugib yashashgan. Rus o‘lkasidagi Prechistenskiylar, Bogolepovlar, Blagovestovlar mana shundan chiqishgan-da. Sening familiyang ham ismingga yarasha bo‘lsa kerak deyman, a, Avdiy?

— Kallistratov.

— Ana ko‘rdingmi, hammasi to‘g‘ri kelyapti... Mening nomim esa juda jo‘n, qora ishchining nomi — Grishan. Lekin, gap bunda emas. Shunday qilib desang, sen haqsan, Avdiy Kallistratov, oyog‘imga qaramaganman. Bundan qo‘rqinchli bir xulosa chiqadi: odam agar g‘irt ahmoq bo‘lmasa, albatta oyog‘ining tagiga qarab yursin. Bosh aqsliz bo‘lsa oyoqqa jabr, degani ham mana shu haqda aytilgan. Ko‘rib turibsan, oqsoqlanib qoldim. Shu desang, bemaza ishlar.

— Oqibati ham ancha bilingandir? — so‘radi Avdiy Petruxa aytgan gapga shama qilib.

— Tushunmadim,— sergak tortdi Grishan.

— Shu bemazagarchilik tufayli ishing ham yaxshi yurishmagandir, demoqchiman, xolos? — ochiqroq shama qildi Avdiy.

— Ana bu boshqa gap! — Grishan shu zahoti maynavozchilikni yig‘ishtirib darhol to‘nini o‘zgartirdi.— Ishni nazarda tutayotgan bo‘lsang, gaplaring haq. Lekin hozir buning ahamiyati yo‘q, meni boshqa narsa tashvishlantiryapti. O‘zing ham sezayotgandirsan, aks holda menga nimaga kerak, sen bilan ali-bali deb shakarguftorlik qilib o‘tirishning... Gapning qisqasi, meni o‘zlariga oqsoqolday ko‘rishadi, harbiychasiga aytganda starshina, shuning uchun men odamlarimni saqlab front chizig‘idan omon-eson o‘tib olishim kerak, menga hammadan zaruri shu.

— Unda mening yordamim kerak bo‘lsa, bajonidil. Umuman, bir gaplashib olsak, yomon bo‘lmasdi,— taklif qildi Avdiy.— Mening ham shu odamlar to‘g‘risida aytadigan gaplarim bor...

— Fikrimiz bir joydan chiqqanini ko‘r, gaplar bo‘lsa, bo‘pti, otamlashamiz,— rozi bo‘ldi Grishan.— O‘zim ham xuddi shuni mo‘ljallagan edim. Misol uchun desang, mana, bitta masala bor, lekin oramizda qolsin,— mug‘ambirlarcha shama qildi u, keyin bir chekkada gapga qo‘shilmay o‘tirgan ikki choparga buyurdi: — Sizlar bekor o‘tirmay boringlar, tayyorgarlik ko‘ringlar!

Choparlar oldindan kelishib qo‘yishgandek aytilgan yumushni ado etgani churq etmay ketishdi. Grishan topshiriq bergach, soatiga qaradi.

— Bir soatlardan so‘ng poezdga chiqish operatsiyasini boshlaymiz. Ko‘rasan, bizning qanday ishlashimizni,— dedi u Avdiyga pisanda bilan.— Biz intizomga qattiq rioya qilamiz. Xuddi desant tashlaganday. Biz chindan ham vatanning eng fidoyi desantchilarimiz. Katta harflar bilan yoziladigan. Sen ham buyurilgan ishni bajar. Bu yerda «undog‘ edi», «mundog‘ edi» degan gaplar ketmaydi. Hammamiz jon kuydirib harakat qilsak, kechqurun Jalpoq-Sozga yetib olamiz.

Grishan ma’noli sukut qildi. Keyin Avdiyga badxoh nazar tashladi-da, singan tishini ko‘rsatib irshaydi: — Eng muhim gap boshqa yoqda. Bu yerga nega kelganing to‘g‘risida... Sen hovliqma, shoshilma. Nima desamikin, jinoyatchilar ichiga boshing og‘ib tushib qolibsan, hali yana bu haqda gaplashamiz, hozircha sen — choparsan, ichimizga kirib olding, ko‘p narsalar endi senga ma’lum. Rang-ro‘yingga qarasam, unchalar tentakka ham o‘xshamaysan. Lekin bu tuzoqqa o‘z ixtiyorning bilan tushding. Hamon shunday ekan, baraka top, shuncha ishonch bildirdikmi, sen ham ishonchimizni oqla.

— Bu bilan nima demoqchisan?

— Nazarimda, o‘zing sezib turgan bo‘lsang kerak...

— Sezish boshqa, ochig‘ini bilgan boshqa.

Ular o‘tib ketayotgan sostavning shovqini tinishini kutib jim bo‘lib qoldilar. Har ikkovlari ham bo‘lajak muqarrar jangga hozirlik ko‘rardilar. Odamlarning muomalalari qanchalar g‘alati bo‘ladi-ya, deb hayolidan o‘tkazdi o‘sha onda Avdiy: mana shu ovloq cho‘lda hamma teng, hammaning imkoniyati barobarday, ish o‘ngidan kelmasa, hammasi qo‘lga tushadi — qonun oldida teng javob beradi, omad chopsa, hamma birday manfaatdor bo‘ladi, Lekin hatto mana shu yerga ham odamlar o‘z qonlari yanglig‘ qonunlarini sudrab kelganlar va Grishan ular ustidan hokim bo‘lib olgan, bu yerda uning hukmi o‘tadi.

— Demak, sen ochiqchasiga gaplashmoqchi ekansan-da,— deb o‘rtadagi jimlikni buzdi Grishan.— Bo‘pti unda,— dudmal qilib cho‘zdi u, so‘ng xuddi sergak tortganday mug‘ambirlik bilan qo‘shib qo‘ydi: — Menga qara, senga bo‘rilar hujum qilganmish, rostmi shu?

— Ha, shunday bo‘ldi,— deb taediqladi Adiy.

— Senga bir necha savolim bor. Ularga javob berishing uchun qismat seni tirik qoldirganga o‘xshaydi, shunday emasmi, Avdiy Kallistratov? — kemtik tishini ko‘rsatib irshaydi Grishan.

— Balki shundaydir.

— Unda gapni aylantirma. Menga hozir shu tobda shu yerning o‘zida javob berasan. Nega mening yigitlarimni yo‘ldan uryapsan?

— Bitta tuzatish kiritaylik,— uning so‘zini bo‘ldi Avdiy.

— Nima deysan? Qonunga yana nima tuzatish kiritmoqchisan?

— Men ularni to‘g‘ri yo‘lga solmoqchiman, shuning uchun bu yerla «yo‘ldan urish» degan gap ketmaydi.

— Yig‘ishtir, bu mahmadanagarchilikni, o‘rtoq Kallistratov. To‘g‘ri yo‘lmi, noto‘g‘rimi, bu haqda har kimning o‘z tushunchasi bor. Sen hazil-mazaqni qo‘y. Gapni aylantirib o‘tiradigan joy emas. Sen o‘zi bu qiliqlaring bilan nimalarga erishmoqchisan, hazrat otaxonim?

— Nima, o‘ziga foyda ko‘zlab yurgandir, deb o‘ylayapsanmi?

— Bunga shubham yo‘q. Bo‘lmasa, nima? — ko‘llarini keng yozdi Grishan va xuddi topdimmi deganday masxaraomuz tirjaydi.

— Hech narsani ko‘zlagan emasman, hech narsa kerak emas,— keskin javob berdi Avdiy.

— Juda soz! — xursand bo‘lib qichqirdi Grishan.— Ayni muddao! Hammasi to‘g‘ri kelyapti. Sen g‘irt giriftor telbalardan ekansan-ku, anovi.

— Bas qil! Bilaman, sening nima demoqchi ekanligingni!

— Bundan chiqdi, Mo‘yinqumga nasha yig‘ish bahonasida kelgan, surkalib, ichimizga kirib olganingga sabab mo‘maygina pul topish emas, shundaymi, axir sen pulnimas Isoni yaxshi ko‘rasan-ku, to‘g‘rimi? Buning sababi seni seminariyadan haydaganlaridan keyin boshingni qaerga urishni bilmay qolganingda ham, ishing hamma joyda chakki ketganida ham emas, topdimmi? E, men o‘sha kashishlariing o‘rnida bo‘lganimda seni illo-billoga qo‘ymay tepib-tepib jo‘natardim — bu ahvolda seni boshiga uradimi ular. Kashishlar almisoqdan qolgan eski o‘yinlarni yoqtirishadi. Sen bo‘lsang, esingni yeb qo‘yaningdan hammasiga jiddiy qaraysan...

— Ha, jiddiy. Sen ham menga jiddiy qara,— dedi Avdiy.

— Bo‘lmasa-chi! Meni tushunmaydi deb o‘ylayapsanmi? Men hammasini ko‘rib turibman. Avrastaringgacha ko‘rib-bilib turibman kimligingni. Sen — devonasan, jinnilicingdan shu ko‘ylarga tushib yuribsan. Aksincha bu yerlarda senga pishirib qo‘yibdimi? Nasha yig‘ib, mai qilingan og‘uni pullab, kun kechirib yurgan biz tuban bechoralarni ko‘zimizni ochib qo‘ygani, razolat chohidan xalos etgani kelgansan. Hidi uch chaqirim naridan turib odamning ko‘nglini aynitadigan siyqasi, chiqib ketgan pand-nasihatlarni tarqataman degansan, xaloskor bo‘laman deb ko‘nglingga tukkansan. Ularni yomon yo‘ldan qaytaraman, deb o‘ylagansan. Bizning o‘zgarishimiz, tavba-tazarru qilishimiz, hamma qanday bo‘lsa, xuddi shunday bo‘lishimizni istagansan. Axir, sen yalpi ong andozalarini g‘oyatda qadrlaysan-ku, shunday emasmi? Mana, G‘arb ham bizda hamma bir andozada fikrlaydi deb da‘vo qiladi.— Grishan kutilmaganda yig‘ma kursichasidan dik etib turib ketdiki, unga qaragan odam sira oyog‘i lat yegan demasdi, u Avdiyga yaqinlashib, qizarib ketgan basharasini uning yuziga taqadi.— Hoy, sen xaloskor-vakil, senga qarshi qanday kuch turganini o‘zing bilasanmi, yo‘qmi?

— Bilaman. Shuning uchun ham 6u yerga keldim. Yana ogohlantirib qo‘yay: men orqaga qaytmayman. Sizlarni deb, shu yo‘lga kirdim. Endi peshonamda borini ko‘raman. Sen bunga hayron bo‘lib o‘tirma.

— E, hali bizni deganmisan! — Grishanning afti burishib ketdi.— Ko‘nglingni to‘q tut, hayron bo‘lib o‘tirmayman. Insoniyatning xaloskori ham esini yeb qo‘yib chormix qilingan edi, buning nimasiga hayron bo‘laman... Qo‘llari xochga mixlangan, boshi ko‘ksiga osilgan basharasi azobdan tirishgan — ko‘ringlar-u, yig‘langlar-u, tavob qilinglar-u oxiratgacha, ol-a! Ba’zi aqli boshidan oshib-toshib ketganlar necha zamonlardan beri bizni qutqarmoqchi bo‘lib yurishadi, o‘zlariga shuni kasb qilib olishgan! Oxiri nima bo‘ldi? Bu dunyoda kim qutuldi-yu, nimalar qutuldi? Qani, javob ber! G‘ulqofga qadar qanday bo‘lsa, hamon o‘shanday. Odam bolasi o‘sha-o‘sha. O‘shandan beri odamning hech narsasi o‘zgarmadi. Biz bo‘lsak, hali-hanuzgacha kutamiz, ko‘zlarimiz to‘rt bo‘lib, qani, kim kelib biz gunohkorlarni xalos etarkin deb. Shu ishga sen, Kallistratov yetmay turgan eding. Lekin mana, sen ham yuzingni ko‘rsatding. Haytovur mog‘orlab qolmagan ekansan! — istehzo bilan labini burdi Grishan.— Marhabo, ey, navjuvon Xristos!

— Men haqimda og‘zingga siqqanicha gapiraverishing mumkin, lekin Iso nomiga shak keltirma!

— tanbeh berdi Avdiy.— Bu qanday kelib qoldi deb ajablanyapsan, jahling chiqyapti. Vaholanki, hech hayron bo‘ladigan joyi yo‘q. Peshonaga sen bilan uchrashish yozilgan edi. Bundoq tanangga o‘ylab ko‘r! Nahotki sen buni tushunmasang! Men bo‘lmasam, boshqa birov sen bilan albatta to‘qnashishi kerak edi. Men esam sen bilan uchrashishni hisoblab chiqqanman...

— Ehtimol, sen meni ham hisoblagandirsan?

— Ha, seni ham. Bizning bir-birimizga duch kelmog‘imiz muqarrar edi. Mana, men yetib keldim. Sen o‘ylagancha, mog‘orlab qolmagan ekanman.

— Farosatingga balli, o‘g‘lon. Biz bir-birimizsiz kun ko‘rolmaymiz. Buning o‘ziga yarasha bemaza bir qonuniyati bo‘lsa ham kerak. Lekin o‘pkangni bos, xaloskor Kallistratov. Sening aqidang bilan amalda hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Lekin qiziq yigit ekansan. Shunday bo‘lsa ham, bas qilaylik, bu mahmadanagarchilikni. Bo‘ldi, kimliging menga ravshan! Hamon gap aylanib shunga kelgan ekan, senga bitta yaxshi maslahat beray, bor, yo‘lingdan qolma, Kallistratov, hammadan burun o‘z joningni qutqar, senga hozir hech kim qo‘l tekkizmaydi. Cho‘ldan yiqqan narsalaringni esa xohlasang, boshqalarga bo‘lib ber, yo yoqib yubor, yo shamolga soch,— bu sening ixtiyor. Lekin o‘ng qulog‘ing bilan ham, chap qulog‘ing bilan ham, yaxshilab eshitib ol: boshqa hech qachon bizga yaqin yo‘lama! — Shunday deb Grishan tayog‘ini toshga ma’nodor to‘qillatib urdi.

— Ammo men sening bu maslahatingga yurolmayman. Bu menga to‘g‘ri kelmaydi.

— Menga qara, hey, sen qip-qizil jinni ekansan-ku! Nima senga xalaqit beradi?

— Men Xudo oldida ham, o‘z oldimda ham, sizlar uchun javobgarman... Balki, sen buni tushunmasang ham kerak...

— Yo‘q-yo‘q! Nega endi? — deb ovozini ko‘tarib qichqirdi Grishan g‘azabdan tusi oqargan holda.— Men, har qalay, teatr kishilari xonadonida o‘sganman. Menga ishon, nima o‘yin qilmoqchi bo‘layotganingga aqlim yetib turibdi, tushunaman. Lekin sen o‘yinga haddan ortiq berilib ketmadingmikin. Axir, har qanday, hatto eng buyukdan buyuk o‘yindan so‘ng ham parda tushiriladi-ku. Mana hozir, o‘rtoq Kallistratov, parda birdan-bir tomoshabin ishtirotkida yopiladi. Ko‘zingga qara, bola. Seni deb, ortiqcha gunohga botib yurmay tag‘in. Vaqt borida etagingni yig‘ishtir.

— Gunoh deysan. Bilib turibman, nima demoqchi bo‘layotganingga. Lekin men uchun qabohatni ko‘ra bilan turib, undan yuz o‘girib ketishdan ortiq jurmu gunoh yo‘q. Meni yo‘ldan qaytaraman deb ovora bo‘lma. Aytaylik, o‘scha kichkintoy Lyonka, Petruxa, senga jilovini berib qo‘ygan bolalarning holi nima kechadi, men bunga befarq qarab turolmayman. Shu jumladan, senga ham.

— Tasanno! — uning gapini kesdi Grishan.— Bizning hayotimizga aralashishga nima haqqing bor? Qanday yashash har kimning o‘z ixtiyori. Umrim bino bo‘lib, seni hozir ko‘rib turishim. Sen kimsangi, men va boshqalar haqida qayg‘urasan, xuddi senga osmondan muborak vahiy tushganday. Suf, senga! Joningga jabr qilma. Jinni bo‘lsang, o‘zingga. Xudo xayringni bersin, jo‘na bu yerdan. Sensiz xam bir kunimizni ko‘rarmiz. Tushundingmi?!

— Yo‘q, men bunday qilolmayman! Osmondan vahiy kelganmi deyapsan. Menga hech qanday vahiy yo‘xbar kelmagan. Adolat va burch tuyg‘usi men ana shularga vakil qilinganman, bularni hisobga olish-olmaslik sening ishing, ammo men qanday bo‘lmasin, ularni ado etajakman. Mana, hozir o‘z taqdirimni o‘zim hal etaman deding. Eshitgan quloqqa chiroli bu gap. Biroq bir-biriga daxlsiz taqdir yo‘q. Tug‘ilish va o‘lishdan boshqa taqdirdan ajratadigan chiziq yo‘q. Tug‘ilmoq va o‘lmoq oralig‘ida esa biz xuddi eshilgan iplarday bir-birovimizga qo‘shilib ketamiz. Grishan, axir, sen va senga tobe anovi odamlar o‘z foydalariningizni ko‘zlab, boshqalarga mana shu cho‘llardan nasha bilan birgalikda baxtsizlik va kulfat olib borasizlar-ku. Odamlarni kayf vasvasasiga solasizlar, tuzoqlaringizga ilintirasizlar, ularni qayg‘u-alam va tubanlik chohiga tashlaysizlar.

— Sen nega bizga qozilik qilyapsan? Biz nima qilish, qanday yashashni sendan o‘rganishimiz kerakmi?

— Men qozi emasman. Sizlarga o‘xshagan bir odamman, faqat...

— Nima faqat?

— Faqat men hammamizning tepamizda diyonat hamda rahm-shafqatning eng oliy hakami Xudo borligiga ishonaman.

— Yana Xudo! Xo'sh, bu bilan yana nima demokchisan?

— Xudoning marhamati bizning irodamiz orqali namoyon bo'ladi. U bizda yashaydi, ongimiz orqali bizga ta'sir etadi.

— Menga qara, qo'y, bu serdahmaza gaplarni. Xo'p, boringki, nima bo'pti? Bizga buning nima daxli bor?

— Nega daxli bo'lmas ekan! Aql-idrokning quadrati bilan inson o'ziga o'zi xuddi Xudo kabi ta'sir etadi. Axir yomonlikni chin dildan tan olish nima degani? Menimcha, bu yovuzlikni Xudo darajasida turib qarg'ashdir. Inson o'z mohiyatiga yangicha qarashni o'zi belgilaydi.

— Sening bu qarashing ommaning ongidan nimasi bilan farq qiladi? Biz to'daga o'xshashni istamaymiz va undan o'zimizni olib qochamiz. Sizlar bizga teng bo'lolmaysizlar, biz o'zimiz alohidamiz.

— Xato. Erkinlik qonundan qo'rwmagandagina haqiqiy erkinlik bo'ladi, aks holda, u sarobdir. Sening erkinliging mudom ko'rquv ichida, qonuniy jazoni kutib yashaydi...

— Xo'p, nima bo'pti shunga? Senga buning qanday og'irligi tushyapti? Sen emas, o'zimiz tanlaganmiz bu yo'lni.

— To'g'ri, o'zing tanlagansan. Lekin bu yo'lga sendan boshqalar ham kirgan. Tushunsang-chi, axir, bu oxiri berk ko'chadan chiqib ketish mumkin. Mana shu yerning o'zida, cho'lda, ochiq osmon tagida tavba-tazarru qilinglar, bu ishdan butunlay voz kechaman deb, o'zlarining so'z beringlar, xufya savdoning faydasidan, yaramas odamlardan yuz o'giringlar, o'zingiz bilan, Xudo nomini atangan va hammamizni vohid ong vositasida birlashtirgan zoti sharif bilan murosaga kelngil...

— Xo'p, keyin nima bo'ladi?

— Keyin siz yana inson degan nomga musharraf bo'lasiz.

— Juda chiroyli bo'lib ketdi-ku! Yana bunchalar osonligini qarang! — Grishan tayogini o'ynab o'tirarkan, qovog'ini soldi, tepalik ortida o'tib borayotgan yana bir yuk sostavining shovqini bosilishini kutdi, so'ng birdan tushgan sukunat ichida, tili haddan tashqari yechilib ketgan Avdiyga teshib yuborguday masxaraomuz tikilib turib, dedi: — Endi gap bundoq, muhtaram Avdiy, sening gaplaringni kamoli diqqat bilan eshitdim. Xursand bo'lmay qo'ya qol. Sen qattiq xato qilasan. O'zingcha o'ylasang kerak, mendan boshqa hech kim Xudo bilan dildan gaplasholmaydi deb. Bilib qo'y, Xudo bilan muomala qiladigan yolg'iz sen emas. Sen taqvodor bo'lsang, biz ham mahrum emasmiz bu ne'matdan. Ana ko'rdingmi, darrov shu gapdan nafasing ichingga tushib ketdi. Azbaroyi hayron bo'lganidan. Menga o'xshagan bir odamning Xudo bilan aloqa qilib turishi senga juda g'alati eshitildi, a?

— Unday emas. Faqat «aloqa» degan so'z andak qiziq tuyularkan. Aksincha, sening og'zingdan bunday gapni eshitib xursand bo'ldim. Balki sen fikringni o'zgartirgandirsan?

— Aslo! Muncha sodda bo'lmasang. Xo'p, unda bilib qo'y, Kallistratov, faqat tilingni tishlab qolma. Xudoga mening o'z borar yo'lim bor, men uning huzuriga orqa eshiklar kiraman, xolos. Xudoying sen o'ylaganchalik noz-firoq qilib tanlab o'tirmaydi...

— Xudo oldiga orqa eshikdan kirib sen nimaga erisharding?

— Erishadigan narsam senikidan kam emas. Men odamlarga shodlik bag'ishlayman. Ular kayfda Xudoning visoliga yetadilar. Men beradigan narsani ular na sizning pand-nisihatlar, na va'zlar va na duo-yu ibodatlardan topadilar... Men o'z odamlarimni Xudoga boshqa har kimdan ko'ra tezroq yetkazaman.

— Pulga sotib olingan Xudoga yetkizasanmi? Og'u yordamidami? Miyalarini aynitibmi? Yana sen buni Xudoning visoliga yetish baxti deb ataysanmi?

— Ha, nima bo'pti? Shakkoklik, Xudoni oyoqosti qilish deysanmi? Ana xolos! Nozik ko'ngillariga ozor berdikmi? Sening noningni yarimta qilyapmanmi? Yo'lingni to'sib ko'yamanmi? Xo'p, pul, xo'p, qoradori, xo'p, nima bo'pti! Pul deganining hazilakam narsa emas. Pul — hamma narsa! Nima, pulning

Xudosi butunlay boshqa deb o'ylovmiding? Cherkovlaru yana boshqa tashkilotlarda nima, sizlar pul ishlatsizlarmi?

— E, bu butunlay boshqa narsa-ku!

— Bas! Diydiyo qilma! Dunyoda hamma narsa sotiladi va olinadi, jumladan, sening Xudoying ham. Lekin men odamlar maza qilib kayf sursinlar deyman. Sizlar so'zda va buning ustiga narigi dunyoda va'da qilgan narsalarga men bu dunyoning o'zida tuyassar etaman. Yolg'iz kayf rohat-farog'at bag'ishlaydi, olamda o'zingni qushday erkin his qilasan, ko'klarga uchasan. Mayli, bu rohat, bu lazzat ko'z ochib yunguncha o'tib ketsin. Mayli, u faqat ro'yo bo'lsin. Lekin unda baxtiyorlik, unda saodat va unga faqat hushni yo'qotib yetish mumkin. Siz, taqvodorlar esa, hatto mana shu ro'yodan ham mahrumiszlar.

— Lekin gaping to'g'ri — bular bari ro'yo.

— Bo'lmasa-chi? Besh tiyin to'lab, haqiqat topmoqchimisan? Bekorlarni aytibsan, avliyo ota! Boshqa baxt bo'limgandan keyin achchiq og'u uning o'rnini bosadi.

— Yo'q narsaning o'rnini to'ldir deb, senga kim aytди! Bularning bari yovuz niyatdan boshqa narsa emas!

— O'pkangni bos, o'pkangni bos, Kallistratov! Durustroq o'ylab ko'rsang, men axir sizlarning yordamchingizman!

— Ya'ni qanday?

— Qanday bo'lardi. Sira hayron qoladigan yer yo'q! Odam yaratilgandan beri unga nimalarni va'da qilishmadi, xo'rangan va haqoratlanganlarning qo'yni-qo'njilarini ne-ne ajoyibotlar bilan to'ldirib tashlashmadi: ana, qarasang, Xudo saltanati kirib kelyapti, ana qarasang, demokratiya, ana tenglik, ana birodarlik, ana kollektiv hayot baxti, ista — ana, Kommuna qurib yashayver, o'zingni ko'rsatib ishlasang, ana senga jannat bog'lari. Haqiqatda esa nima? Faqat quruq so'z! Men bo'lsam, agar bilsayding, ko'ngli yarimtalar, g'aribu g'urabolar, munglig' bechoralarga ermak beraman, hayollarini chalg'itaman. Men yashinqaytarg'ichman, odamlarni orqa yo'l orqali yetib bo'lmas Xudo sari boshlab boraman.

— E, sen men o'ylagandan ham xatarliroq ekansan! Sen dunyoni butunlay ostin-ustin qilib tashlashning mumkin. Hatto tasavvur ham qilish qiyin va qo'rinchli! Yaxshiyam, Napoleon bo'limgan!

— Yuqoriroqdan kelaver. Napoleon ham gapmi? Meni o'z erkimga qo'yib berishsa, eh-he, nimalar qilmasdim! Agar biz birdan G'arba borib qolsak, qulochimizni qaylarga yozmas edik, deysan. O'shanda sen ham men bilan tortishib o'tirolmasding, yaxshilikka ham, yomonlikka ham mening ko'zlarim bilan qaragan bo'larding...

— Bunga shubham yo'q. Lekin sening bu so'zlariningda qo'rinchli bir narsa ko'rmayman. Gaplaring yangi emas. Sen, Grishan, odamlar ishonchini yo'qotib qo'ygan joyda kun ko'rmoqchi bo'lsan, bunga o'rgatish ham unchalar kiyin emas. Hammasi yomon, hammasi yolg'on, shunday ekan, o'zingni kayf qilib ovuntir. Sen o'tgan barcha narsalarni qoralaysan, seningcha shunday bo'lsa, qani, odamlarni dunyoga boshqacha karashga o'rgatmaysanmi, qo'lingdan kelsa. Imon — kayf emas senga, imon ne-ne avlodlar boshdan kechirgan azob-uqubatlarning mevasi, imonga erishmoq uchun ming yillab va har kun mashaqqat chekmoq kerak. Sen o'z sharmandali hunaring bilan olamning azal tartibotini buzmoqchi, yorug' tunga aylantirmoqchi bo'lsan. Hozir ayshingni surasan, keyin kulfatini tortasan, sen ko'klarga ko'tarib maqtayotgan kayfdan so'ng, albatta, jinnilik boshlanadi, so'ng odam butunlay tubanlikka botadi. Nega sen buyog'ini gapirmaysan? Sen aytgan kayf — g'irt ablahlikning o'zi emasmi? Axir, go'yo Xudo oldiga borganday bo'lib, aslida iblisning quchog'iga tushasan-ku. Bunisi qanday bo'ldi?

— Kanday bo'lardi. Qasosli dunyo. Bunga ham jazo bor. Yashaganning jazosi o'lim... Sen bu haqda hech o'ylaganmiding? Nega jim bo'lib qolding? Sen, avliyoga mening bu fikrim yoqmaydi, a!

— G'ayri Iso fikrmi? Hech qachon!

— Ha-ha! Sening xristianchililing holi g‘ayri Iso bo‘lmasa, nima kechardi! G‘ayri Iso qitiqlab turmasa, kimga kerak xristianlik? Nima foydasi bor uning? Shunday bo‘lgach, mensiz hech narsa qilolmaysiz! Men bo‘lmasam, kimga qarshi kurashasiz, g‘oyalaringiz jangovarligini qanday isbot etasiz?

— Juda ham qirriq ekansan-e! — beixtiyor kulib yubordi Avdiy.— Chalkashliklardan ustalik bilan foydalanarkansan. Lekin gapga zeb berma. Sen bilan til topishimiz qiyin. Biz teskari odamlarmiz, bir-birimizga to‘g‘ri kelmaymiz. Shuning uchun meni bu yerdan quvyapsan. Sen mendan qo‘rqsan. Lekin men baribir o‘z so‘zimda turaman: qayt bu yo‘ldan, tavba qil, yosh bolalarni tuzog‘ingdan bo‘shat. Men sendan yordamimni ayamayman.

Grishan birdan jim bo‘lib qoldi. Tayog‘iga tirangancha qovog‘ini solib u yoqdan-bu yoqqa borib kela boshladi, keyin yurishdan to‘xtadi.

— Agar sen, o‘rtoq Kallistratov, meni qo‘rqayapti, deb o‘ylasang, qattiq xato qilasan. Qolging kelsa, qolaver, seni haydayotganim yo‘q. Hozir yuk vagonlarga chiqib olamiz. Poezdga birvarakay bosqin yasaymiz.

— Yaxshisi, qaroqchilarcha, deb qo‘ya qol,— uning gapini to‘g‘riladi Avdiy.

— Mayli, sen aytgancha bo‘la qolsin, qaroqchilarcha bo‘lsa, qaroqchilarcha-da. Lekin maqsadimiz talon-taroj emas, maqsadimiz — yashirinchaliman manzilimizga yetib olish, buning farqi bor. Axir sening davlating bizga erkin borib-kelishga yo‘l qo‘ymaydi...

— Davlatga tilingni tekkizma. Xo‘sish, menga nima taklif qilmoqchisan?

— Aytishga ham arzimaydi. Sen aytmoqchi, vagonlarga qaroqchilarcha chiqib olamiz,— deb temir yo‘l tomonga boshini silkib ko‘rsatdi Grishan,— hamma jam bo‘ladi, hamma ko‘zga ko‘rinadi. Ana o‘shanda kichkina Lyonkalaru lakalov Petruxalarga aytar gapingni ayt, ularning jonlarini qutqar, ey Xaloskor! Men g‘iq etmayman, senga zarracha to‘sqinlik qilmayman. Meni misoli yo‘q deb hisobla. Mabodo, bu avomni orqangdan ergashtirib keta olsang, ularni o‘z Xudoyingga ishontira olsang, men shu zahoti yengilganimni bo‘ynimga olib, mutlaqo qoramni ko‘rsatmay ketaman. Gapimni tushunyapsanmi? Qabul qilasanmi shu shartimni?

— Bajonidil! — qisqa javob qildi Avdiy.

— Unda boshla! O‘rtamizda bo‘lib o‘tgan gapni hech kimsa bilmaydi. Ag‘dan-bag‘dan gaplashdik, deymiz.

— Rahmat! Lekin mening yashiradigan joyim yo‘q,— javob berdi Avdiy.

Grishan yelkasini qisdi.

— Aytdim-qo‘ydim-da. Injilda yozilgan: «Sen aytding» deb! May oyining oxirgi kunlaridan biri edi. Soat kechki yettilar bo‘lib qolgandi. Lekin tep-tekis cho‘llar uzra quyosh hamon yal-yal nur sochib, qizdirardi. Kuni bilan xuddi bir joyga bog‘lab qo‘yilganday nima sababdandir qimirlamay turgan kumushsimon bulutlar, avval oppoq oqarib, kechga tomon ufq uzra qop-qorayib osilib qoldilar, bundan Avdiyning yuragiga anglab bo‘lmas bir xavotir tushdi. Aftidan, momaqaldiroq bo‘ladiganga o‘xshardi.

Poezdlar esa hamon u tomondan bu tomonga, shimoldan janub yoqlarga, janubdan esa shimal yoqlarga o‘tib borishar va zamin ularning cho‘ng g‘ildiraklari ostiga zirillar, titroqqa tushardi. «Qancha yor bor, qancha ko‘z ilg‘amas makonlar va yorug‘lik bor, shunday bo‘lsa ham, odam bolasiga yana baribir nimadir yetmaydi, hammasidan burun - erkinlik yetmaydi,— deb o‘ydardi Avdiy poyonsiz yaydoq cho‘llarga boqib.— Odam bolasigi odamlarsiz yasholmaydi, yana buning ustiga odamlarga ham toqat qilmaydi. Mana, hozir — nima qilish kerak? Grishanning tuzog‘iga ilinganlar to‘daning tazyiqiga yurmay, ularning do‘q-po‘pisasi, qo‘rqtishlariga qaramay aql-idrok izmiga kirsalar nima qilarkin? Bu badbaxt afyunchining ta’siridan qutulishga o‘zlarida kuch, iropa toparmikinlar? Anavini qarang-a! Uchiga chiqqan xavfli firibgar ekan. Nima qilay, qanday yo‘l tutsam, to‘g‘ri bo‘ladi?»

Nihoyat, kutilgan vaqt yetdi. Yuk poezdini to‘xtatish oldidan choparlar ikki-uch kishi bo‘lib, temir yo‘l bo‘ylab butalar va baland o‘sgan quyuq o‘tlar orasiga yashirinishdi. Hushtak chalib bir-birlarini

xabardor qiladigan bo‘lishdi. Yo‘ning olis tuyulishida ilon kabi buralib poezd ko‘rindi, hushtak ovozi keldi va darhol hammalari hamlaga hozirlandilar. Nasha to‘ldirilgan jomadonlaru katta charm xaltalar qo‘l ostida edi. Avdiy, Petruxa bilan Lyonka uchovlari temir yo‘l remontidan so‘ng qolgan mayda shag‘al uyumini panalab yotdilar. Grishan ulardan sal nariroqda edi. Uning yonida ham ikki chopar bor: ulardan biri, malla sochli yigitchani Kolya deb atashar, burni qo‘nqaygan, kavkazcha talaffuz bilan so‘zlaydigan chapdast ikkinchisini Maxach deb chaqirishar — aftidan, u asli Maxachqaladan edi. Boshqalarni Avdiy bilmas, lekin yana ikki-uch chopar o‘zlariga qulay joyni pana qilib, poezd kelishini poylar edilar. Grishan temir yo‘lga dori sepib, ko‘prik ustida go‘yo o‘t tushganday qilib ko‘rsatadigan va shu bilan mashinistni lokomotivni to‘xtatishga majbur qiladigan ikki kishini yuborgan, ular bu yerdan hiyla olisroqda «330 KM» belgisi qo‘yilgan yerda edilar. O’sha yerda bahorning toshqin suvlari o‘pirib ketgan chuqur jarlik ustidan chog‘roq temir yo‘l ko‘prigi o‘tardi. Choparlar qo‘poruvchi deb atashadigan anov ikkisi o‘sha nozik joyga hozir dori sepishardi.

Poezd shitob bilan yaqinlashar, Avdiy, hamma nima bo‘larkin, tez va omon-eson vagonlarga chiqib olarmikinmiz, sostav o‘zi kanday ekan, ishqilib, tsisterna bo‘Imasin-da, tsisternaga qanday qilib o‘rnashasan, deb titrab-qaqshab turganligini tushunardi. Qo‘riqlab boriladigan harbiy eshelon bo‘lsa undan ham chatoq, tamom ishkjal deyavering. Lyonka qo‘llari qaltiragancha sigaret tutatdi. Petruxa shu zahoti unga g‘azabini sochdi:

— Darrov tashla! O’ldiraman iflos!

Biroq rangi ko‘karib, oqarib ketgan Lyonka unga parvo qilmay ichiga zo‘r berib tutun tortardi, shunda Petruxa unga yirtqichday tashlandi-da, qulochkashlab boshiga urdi, shapkasini uchirib yubordi. Lekin Lyonka ham qarab turmadi,— zarbaga zarba bilan javob berdi, o‘zini o‘nglab turib Petruxani oyog‘i bilan tepdi. Petruxa quturib ketdi, ikkovlon jon-jahdlari bilan tepkilasha boshladilar.

Avdiy o‘rnidan qo‘zg‘alishga majbur bo‘ldi:

— Bas qilinglar, hoziroq bas qilinglar. Petruxa, Lyonkaga tegma. Uyalmaysanmi!

Lekin Petruxa jahl bilan Avdiyga tashlandi:

— Sen aralashma, it popning o‘g‘li. Nega qaqqayib turibsan, to‘nka! Bo‘ying bir chaqirim naridan ko‘rinadi! — Shunday deb, jon-jahdi bilan uning ishtonidan tortdi. Ular jo‘jaxo‘rozlarday qizishib, bir-birlarini bo‘ralab so‘kishgancha, hansirab yana o‘z joylariga biqindilar.

Poezd esa yaqinlashib kelardi. Choparlarning titrab-qaltirashi beixtiyor Avdiyga ham o‘tdi. Nima ham deyish mumkin, ahvol g‘oyat tang va xatarli edi.

Avdiy bolalik chog‘laridan poezdlarni tomosha qilishi yaxshi ko‘rardi: u osmonga quyuq tutun va oppok par chiqaradigan, tevarak-atroflarga qichqirib, shrvqin soladigan urushdan keyingi ajoyib parovozlarni ko‘rgandi, lekin hech qachon bir kunmas-bir kun poezdni bunchalar azob bilan kutarmen deb hayoliga keltirmagandi. Mana endi, qonunga xi洛of tarzda va hatto zo‘ravonlik ishlatib, poezdga chiqishi kerak.

Ikkita lokomotiv birlashib tortib kelayotgan og‘ir yuk poezdi tobora yaqinlashar, uning yaqinlashayotgani odamning butun vujudiga aks sado berar, etni seskantirardi. Ilgarigi parovozlar hozirgi dizellar bilan sira bellasholmaydi. Ularning kuchi ichida yashirin edi, lekin ular shunchalar ko‘p vagonlarni sudrab borishardiki, xuddi ularning oxiri yo‘qqa o‘xshardi. Son-sanoqsiz g‘ildiraklar to‘xtovsiz g‘ildirar, vagonlar ostidan shamol g‘uvillab chiqar, guldiragan tovushlar, bir maromda do‘qir-do‘qirlar eshitilardi. Avdiy rosa shiddat bilan kelayotgan bu devqudrat mashinaga qarar ekan, haddan ortiq cho‘ng va ulkan sostavnini to‘xtatish mumkinligiga ko‘zi yetinqiramasdi.

Vagon-platformalar, tsisternalar, yog‘och ortilgan vagonlar, yopiq konteynerlar — birin-ketin o‘tib borar, mana, sostavning yarmi ham o‘tib bo‘ldi, shunda Avdiy: hech ish chiqmaydi, bular hammasi bekorga urinib, ovora bo‘lib yotishibdi, deb o‘yladi: shunday shiddat bilan ketayotgan katta poezdni to‘xtatishning iloji yo‘q. Lekin birdan poezdnинг tezligi pasaydi, g‘ildiraklar borgan sari sekin aylandi, tormozning og‘ir g‘ajirlagani eshtildi-da, eshelon xuddi kutilmaganda qoqilib tushganday og‘ir asabiy siltanib, yurishini sekinlattdi. Avdiy ko‘zlariga ishonmasdi: sostav to‘xtadi hisob. Shunda chinqirib,

hushtak ovozi keldi.

— Ketdik! — buyruq qildi Petruxa.— Olg‘a!

Ular yuk xaltalarini ko‘targancha, sekinlab qolgan vagonlarga o‘zlarini urishdi. Hammasi pistirmadan turib hamla kilinganday ko‘z ochib-yumguncha tez ro‘y berdi. Qo‘lga nima to‘g‘ri kelsa, shuni ushlab, tirmashib, istagan vagon, istagan joyga chiqib, ishqilib, joylashib olish kerak edi. Keyin tomdan tomga, vagondan vagonga sakrab qulayroq joy topish mumkin. Undan uyog‘ini Avdiy xuddi yomon tush kabi eslaydi: u ko‘z o‘ngida xuddi osmon qadar qad ko‘targan zinch vagonlar tagida zir yugura boshladi, u aqlining bir chekkasida g‘ayrishuuriy tarzda vagonlarning bunchalar yuksakligidan, g‘ildiraklardan chiqayotgan qoramoy hidlarining bunchalar o‘tkirligidan hayratga tushdi, g‘ildiraklar yana ko‘z ochib-yumguncha tezlashib ketishi hech gap emasdi. Lekin shunga qaramasdan Avdiy jonholatda vagonga tirmashdi, kimgadir yordamlashdi, kimlardir uni ham qo‘llab yuborishdi. Poezd ikki martacha sharaqlab tortildi, silkindi, g‘ildiraklar g‘asir-g‘usur bo‘lib ketdi — ular tagida qolish shu tobda hech gap emasdi. Biroq hammasi joyida bo‘ldi. Poezd yana bir karra qattiq siltanib, boy berilgan vaqtini yetkazib olish uchun shitob bilan ilgariga jadallab ketdi, Avdiy munday aylanib qarab, ichi bo‘m-bo‘sh yuk vagonida turganligini, o‘zining ajralmas hamroxlari Lyonka va Petruxa, kolaversa, Grishan ham shu yerda ekanligini ko‘rdi. Lat yegan oyoq bilan uning qanday vagonga chiqib olganini Xudo biladi, anavi ikkisi — Maxach va Kolya ham u bilan birga edi. Hammalarining rang-qutlari oqorgan, hansirab nafas olishar, lekin chexralari shod va mamnun edi. Bari yaxshi tugagani va endi eng ishkali joyi orqada qolganiga Avdiyning sira ishongisi kelmasdi. Endi nasha yig‘uvchilar Jalpoq-Soz bekati tomon ketib borishar, undan u yog‘iga yo‘llar bari katta yerga, katta shaharlarga, odam izdihomlari ichiga eltadi...

Yana besh soatlar chamasi yo‘l yurishlari kerak. Omad kelganini qarang: vagonda yuk tushirilgandan keyin qolgan shekilli, bo‘sh yog‘och yashiklar bor ekan — choparlar ularni taglariga o‘rindiqqa moslab olishdi. Grishan aytganday qilib, tashqaridan qaraganda, ko‘rinmaydigan bo‘lib o‘tirishdi. Agar bir tomondagi eshik ochilsa, vagon ichi ancha yorug‘, buning ustiga havo kirib turishi uchun tepadagi tirkishlar ham ko‘tarib qo‘yilgandi.

Qandaydir kichik raz’ezdda to‘xtaganlarida, ular eshikni mahkam yopib, dim va issiq vagon ichida miq etmay pusib o‘tirdilar, lekin sostav oldiga hech kim kelgani yo‘q.. Petruxa ohista tashqariga alang-jalang qildi-da, hammasi joyida, hech kim ko‘rinmaydi, dedi. Qarshidan kelayotgan passajir poezdi yonlaridan guldirab o‘tib ketgach, sostav yana o‘rnidan jildi, navbatdagi kichik bekatda Maxach bir kanistr suv topib keldi, vagondagi hayot yana jonlandi, qattiq non, konservalar yeyildi, Jalpoq-Sozga borganda, oshxonada to‘yib issiq ovqat yeymiz, deb orzu qilishdi.

Poezd esa Chu cho‘llaridan tog‘lar tomon o‘tib borardi...

May oyi oqshomlari uzoq davom etadi, hali-hamon yorug‘ edi. Undan-mundan gaplashib o‘tirishar, ko‘proq turli ovqatlar, pul eslanardi. Petruxa Murmanskda popukday qiz kutayotganligini esladi. Shunda Maxach sof kavkazcha jo‘shib dedi:

— Menga qara, hoy, Petruxa, azizim, nima, sen Murmanskdan boshqa yerda ayolni qilolmaysanmi? Nima, Moskvada endi qilib bo‘lmaydimi ozgina? Ha-ha-ha! Nima, Moskvada xotin yo‘qmi?

— Sen mishiqisan hali bunaqa ishlarda, Maxachka. Nimani ma’nisiga tushunarding? — qahri keldi Petruxaning.— Nechchiga chiqding?

— Nechchi-nechchi! Nechchi bo‘lsa nechchi! Bizning Kavkazda mendaqalar allaqachon bola yasaydigan bo‘lishgan! Ha-ha-ha!

Bu gap hammaning dimog‘ini chog‘ qildi. Hatto Avdiy ham Grishanga qarab-qarab qo‘yib, beixtiyor jilmaydi, u esa bir chekkada takabburlik bilan irshayardi. U boy-a-boyagiday yig‘ma kursichasiga hamon o‘sha egri tayog‘ini ushlab o‘tirardi. U xuddi boshqa choparlar kabi jo‘n sigaret chekar va faqat shu bilangina ularga o‘xshardi.

Ko‘p o‘tmay ular hazil-huzul qilib borisharkan, bo‘sh yuk vagonini batamom o‘zlariniki qilib

olishdi. Hali oftob ufqqa botmagan, hammayoq yop-yorug‘ bo‘lsa-da, Lyonka vagonning bir chekkasida uyquga ketgan, boshqalar ham uxlamoqchi bo‘lib turardilar. Qandaydir arzimagan narsalarni gaplashib, chekib o‘tirgan choparlar birdan jim bo‘lib qolishdi, so‘ng Grishan tomonga qarab ko‘ya-qo‘ya allanarsani shivirlasha boshlashdi.

— Qulq sol, Grishan,— deya unga qarata murojaat qildi Maxach,— biz bu yerda o‘tirib, umumiylajlis qilib qaror chiqardik. Bir oz kayf qilsak-chi, a? Vaqt hali bor, kayf qilamizmi? Menda, aziz tamada, shunaqangi bir olqindisi borki, voh-voh, bunaqasini faqat Bag‘dodning o‘g‘risi chekkan!

Grishan Avdiyga: xo‘s, qalay, deganday tezgina qarab oldi. Keyin birpas jim turdi-da, vaqt o‘tkazib, dedi:

— Olaveringlar!

Hammalariga jon kirib, Maxachni o‘rab olishdi. Maxach kurtkasining qaysi bir yeridan o‘sha Bag‘dod o‘g‘risi chakadigan olqindisini chiqardi. Uzunchok va katta papiros o‘radi, o‘zi birinchi bo‘lib tortdi, keyin yonidagilarga uzatdi. Har biri nasha tutunini ichiga huzur qilib tortib, so‘ng papirosni sherigiga cho‘zardi. Navbat Petruxaga yetganda, u tutunni ichiga yutoqib ko‘zlarini yumib, chuqrorttdi-da, so‘ng Avdiyga uzatdi:

— Qani, Avdyas, sen ham bir tort! Sening qaering kam? Ma, chek! E, muncha o‘zingni opqochasan, qiz bolamisan, nima balo?

— Yo‘q, Pyotr, men chekmayman, ovora bo‘lma! — Petruxaning ko‘lini qat’iy qaytardi Avdiy.

Petruxa darrov ranjidi:

— Hech popliging qolmadi-da! Qoyilman-e senga, pop-sop! Senga yaxshilik qilmoqchi bo‘lsak, sen bizdan irganasan!

— Men irganayotganim yo‘q, Pyotr, to‘g‘rimas bu gaping!

— Bor-e, senga gap uqdirib bo‘larmidi! — qo‘lini siltadi Petruxa va yana bir karra ichiga chuqrortib, parirosni Maxachga berdi, u esa kavkazcha chaqqonlik bilan uni Grishanga uzatdi.

— Endi, aziz tamada, sening navbating! So‘z senga! Grishan indamay uning qo‘lini nari surdi.

— Mayli, o‘zing bilasan, o‘zing — xon, ko‘lankang — maydon! — achingan bo‘lib, boshini chayqadi Maxach, papiros yana davra aylana boshladi. Lyonka so‘rib-so‘rib chekdi, undan keyin malla Kolya, keyin Petruxa va yana Maxach. Ko‘p o‘tmay chekuvchilarning kayfiyatları o‘zgara boshladi, ularning ko‘zları goh tuman bilan qoplanar, goh yilt-yilt etib ketar, og‘izlarini qiyshaytirishib sababsiz iljayishar, o‘zlarini g‘oyatda baxtiyor sezishar, faqat Petruxagina haliyam ginasini unutmagan, ora-sira Avdiy tomonga norozi nazar tashlar, poplar o‘zi hammasi to‘ng‘iz bo‘ladi, deb to‘ng‘illardı.

Grishan bir chekkada kursichasida chekuvchilarga bamaylixotir qarab o‘tirar, lablaridan ko‘pni ko‘rgan odamlarday kinoyali, takabbur, yanib qo‘yguvchi tabassum arimasdi. U vagonning ochiq eshigi oldida turgan Avdiyga dam-badam o‘qrayib o‘g‘rincha nigoh tashlar, qarashidan bo‘layotgan ishdan mammunligi sezilar, shak-shubhasiz bularning bari pokdomon Avdiyga qanday ta’sir qilayotganligini fahmlab turardi. Avdiy Grishan chopalarga nasha chekishga ijozat berib, o‘ziga bir tomosha ko‘rsatmoqchi bo‘lganligini anglardi. Ko‘rib qo‘y, qanday bo‘larkin? Mening kuchim nimada ekanligini bildingmi? Sening yuksak intilishlaring bu battarinlik oldida qanchalar ojiz ekanligini endi tushundingmi?

Garchi Avdiy o‘zini ularning qilg‘iliklari bilan ishim yo‘q deganday ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, lekin ichida Grishanga hech narsani qarshi qo‘yolmayotganidan, ojizligidan qat’iy o‘kindi. Chopalarni Grishanning ta’siridan qutqarish uchun amalda nima qilsa bo‘ladi, axir. Ana shunda Avdiy chiday olmadi. U g‘azabini yashirib, jilovlolmay qoldi. Petruxa papirosning oxirini chekish uchun yana unga tutganda, u o‘zini tutolmadi, nihoyat, yorildi. Papirosning qoldig‘i ham so‘rilaver-gandan xunugi chiqib ketgan, sarg‘ish-zaqqum tusga kirgandi.

— Ol, Avdyas, muncha aftingni burasan, voy popni bolasi-ey! Men chin ko‘ngildan aytyapman. Hamma mazasi oxirida bo‘ladi, miyang qaymoqday oqib ketadi! — tiqilinch qilib qo‘ymasdi xira Petruxa.

— Nari tur! — siltab tashladi uni Avdiy.

— Hali shunaqami! Men senga chin dildan aytsam, noz qildingmi hali! Aftingni burishtiradigan bo‘ldingmi!

— Bo‘pti, ber bu yoqqa, ber! — dedi fig‘oni oshib Avdiy va cho‘g‘lanib turgan papirosga qo‘l cho‘zib, uni xuddi Petruxaga namoyish qilib ko‘rsatganday boshi uzra baland ko‘tardi-da, vagonning ochiq eshididan tashqariga uloqtirib yubordi. Bu shunchalar kutilmaganda tez ro‘y berdiki, hamma va hatto, Grishanning o‘zi ham hayratdan baqa bo‘lib qoldi. Oraga cho‘kkan sukunatda poezd g‘ildiraklarining shiddatli ovozi yanada aniq va vahimaliroq eshitildi.— Ko‘rdingmi? — sannab dedi Avdiy Petruxaga.— Nima qilganimni hammang ko‘rdinglarmi? — achchiq-tizziq bilan dedi u yana boshqa choparlarga bir-bir qararkan.— Bundan keyin doim ana shunday bo‘ladi!

Petruxa va undan keyin boshqalar Grishanga hayron bo‘lib, savolomuz qarashdi: bu yog‘i qanday bo‘ldi, xo‘jayin, bu taviya qaerdan kelib qoldi?

Grishan dam Avdiyga, dam choparlarning tumtaygan basharalariga masxara qilganday qararkan, indamasdi. Maxachning toqati tugadi:

— Hoy, tamada, nega indamaysan? Nima, soqov bo‘p qolganmisan?

— Yo‘q, soqov bo‘p qolmaganman! — deb uning jig‘iga tegdi Grishan va zaharxanda qilib cho‘rt kesdi: — Men manov nusxaga og‘zimni ochmayman, deb so‘z bergandim. Qolganini o‘zlarin hal qilinglar! Mening boshqa gapim yo‘q...

— Shu rostmi? — o‘snoqchiladi Maxach Avdiydan.

— Rost, lekin gap boshqa yoqda! — qichqirdi Avdiy.— Men uni fosh qilmoqchi edim,— deb Grishanni bosh silkip ko‘rsatdi u,— bu iblis sizlarning hammalaringizni yo‘ldan urgan! Halokat yoqasiga kelib qolgansizlar! Men jim qarab turmayman, haqiqat men tomonda! — Shunda u nima bo‘layotganini, nima qilayotgani, nimalar deb qichqirayotganini anglamay, nasha to‘ldirilgan yuklar ichidan yukxaltasiny kuch bilan tortib oldi. Grishandan boshqa hamma o‘tirgan o‘rnidan sakrab turdi: bu pop-sopning yumshoqqina bolasi asti nima qilmoqchi o‘zi?

— Mana, qaranglar, bolalar! — Avdiy yuk xaltani boshi uzra ko‘tarib silkitdi.— Mana shuning ichida biz odamlarning boshini yeydigan, ofat va qiron keltiradigan og‘u olib ketyapmiz. Yengil pulga uchgan siz choparlar, sen, Petr, sen, Maxach, sen Lyonya, sen, Kolya, shunday qilyapsizlar! Grishanni gapirib o‘tirmasak ham bo‘ladi. Uning kimligini o‘zingiz yaxshi bilasiz!

— Shoshma, shoshma, Avdiy! Qani, tasadduq, xaltani menga ber-chi! — unga tomon yurdi Petruxa.

— Nari tur! — itardi uni Avdiy.— Yaqinlashma! O‘zim bilaman bu odamlar boshiga bitgan baloni qanday yo‘qotishni.

Shundan so‘ng Avdiy hali choparlarning hushi o‘ziga kelmay, yuk xaltaning chizimchasini tortib yechdi-da, vagon eshididan nashalarni tashqariga socha boshladи. Ancha-munchagina giyoh terilgan ekan, nashaning sarg‘imtil-ko‘k yaproqlari va gullari temir yo‘l bo‘ylab xuddi kuzgi barglar kabi parokanda to‘zib uchdi. Yuzlab, minglab jaraq-jaraq pullar havoga suvurilmoqda edi! Qandaydir bir zum choparlar Avdiyga anqayib, shamday qotib qoldilar.

— Ko‘rdinglarmi! — qichqirdi Avdiy va yuk xaltani xam tashqariga otdi.— Ana endi sizlar ham shunday qilinglar! So‘ng birgalikda tavba qilamiz, Xudoning shafoati va mag‘firatiga sazonor bulamiz! Bo‘linglar, Lyonka, Petr! La’nati nashalaringizni to‘kinglar, qutulinglar shu yaramasdan!

— Jinni bo‘lib qolibdi! Bekatda u bizni ushlab beradi! Ur uni, it popning bolasini! — chinqirdi es-hushini yo‘qotib Petruxa.

— To‘xtanglar, to‘xtanglar! Quloq solinglar! — ularga nimanidir tushuntirmoqchi bo‘lib qichqirardi Avdiy giyohvandlarning quturib ketganlarini ko‘rib. Lekin endi kech edi. Giyohvandlar uning ustiga quturgan itday tashlandilar. Petruxa, Maxach, Kolya bir-biriga gal bermay uning boshiga musht yog‘dirardilar. Faqat Lyonkagina ularni kuchi yetgancha ajratishga urinardi.

— Qo‘yinglar, bas qilinglar! — deb atrofda nima qilarini bilmay sarsilardi u. Lekin ularni

ajratishga kuchi yetmasdi — uch kishini bir o‘zi qanday ham eplasin. Rahmsiz, olatasir kaltaklash boshlandi.

— Ur! Itar! Vagondan tashlab yubor! — deb bo‘kirardi Petruxa.

— Popni o‘ldir! Pastga ot! — jo‘r bo‘lardi Maxach.

— Kerakmas! O‘ldirmanglar! Iltimos, o‘ldirmanglar! — chiyillardi rangi o‘chgan, qalt-qalt titragan Lyonka.

— Qoch, itvachcha, so‘yaman! — Lyonkaning qo‘lidan yulqinardi vahshiylashgan Kolya.

Avdiy silkinib borayotgan vagonning ochiq joyidan kuchi boricha nariga, o‘rtaroqqa surilishga urinardi: giyohvandlarning bunchalar berahm, vahshiy, zo‘ravon bo‘lishlariga u endi ishondi — bo‘lmasa, hozirgina gasht qilib, og‘zining tanobi qochib o‘tirishgan edi-ya. Avdiy hayoti qil ustida turganligini tushunar, kuchlar ham teng emasdi. Kuchi oshib-toshib yotgan, quturgan uch yigitga yolg‘iz o‘zi qanday bas kelsin.

To‘g‘ri, Lyonka uning yonini olyapti. Lekin, uning kuchi qaerga yetardi.

Grishan esa hamon o‘sha joyida xuddi tsirk yoki teatrga tushgan tomoshabinday o‘tirar, xayrixohlik bilan irshayardi.

— O‘hu! O‘hu! Ana xolos! — labini qiyshaytirib mazax qilardi u. Itday urshtirib qo‘ydi-ku oxirida, shunday bo‘lishini oldindan hisoblab chiqqandi, mana endi, g‘alaba nash’asini suryapti — uning ko‘z o‘ngida odam o‘ldirishyapti.

Avdiy faqat Grishan o‘rtaga tushsagina joni qutulib qolishini sezib tarardi. «Grishan, qutqar!» — deyishi bilan choparlar uni tinch qo‘yishlarini bilardi. Lekin kallasini kesganda ham, u Grishandan yordam so‘rolmasdi. Birdan-bir chora vagonning ichkarirog‘iga amallab o‘tib olish, burchakka qisilib turish — undan u yog‘iga kaltaklaydilarmi, tepkilaydilarmi, qo‘llaridan kelganini qilishsin, faqat vagondan tashlab yubormasalar bo‘lgani, aks holda jondan umid yo‘q...

Lekin, ichkari burchakka yetib olish oson emasdi. Uni urib, tepkilab yana vagonning lang ochiq eshigi tomon uloqtirdilar. Avdiy bir zum shu yerda turib qolsa, uni hash-pash deguncha tashqariga itarib tashlardilar. Shuning uchun Avdiy qanday qilib bo‘lmasin, yana yiqilgan yeridan turar, o‘zini vagonning ichkarisiga olishga urinardi. Giyohvandlar axiyri holdan toyib, yo hushlarini yig‘ishtirib olishar, deb umid qilardi. Ayovsiz jangda bиринчи bo‘lib, boshiga og‘ir zarba tushgan Lyonka quladi. Popning o‘g‘lidan, yangi chiqqan avliyodan va demak, choparlarning dushmanidan ayovsiz qasd olayotganda, oyoq tagida o‘ralashmasin deb, Kolya uni tinchitgan edi. Giyohvandlar musht ustiga musht tushirar — yelga sovurilgan shuncha pulga ichlari kuyib borardi.

— Ur, ur! Jon chiqar yeriga sol ablahn! — quturib ko‘pik sochardi Petruxa. U Avdiyni orqasidan kelib mahkam qisib oldi-da, qo‘llarini orqaga qayirdi va Maxachga to‘g‘riladi. Maxach esa shunda xuddi shaytonlagan buqaday, g‘azab bilan Avdyyning qorniga urdi. Avdiy o‘lar holatda bukchayib, og‘zidan qon ketgancha, vagon ichiga quladi. Shundan so‘ng uchovlari uni eshik tomonga sudrab ketishdi. Avdiy esa shu ahvolda ham, ularning changalidan qutulib chiqishga urinar, qarshilik ko‘rsatar, tirnoqlari ko‘chib ketishiga qaramay, vagonning taxtalariga yopishardi. Mudhish Grishan esa vagonning bir chetida go‘yo hech narsa bo‘limganday yig‘ma kursichasiga oyoqlarini chalishtrib o‘tirar, bezraygan basharasida mumnunlik ifodalanan, egri tayog‘ini likillatib o‘ynab, hushtak chalib mashq qilardi. Hali ham rahm-shafqat so‘rab: «Grishan, qutqar!» — deb qichqirsa, kech emasdi va Grishan ham unga rahmi kelib, oljanoblik ko‘rsatib, o‘lim changalidan olib qolishi mumkin edi. Ammo Avdiy omonlik so‘rab og‘zini ochmadi. Uni ochiq joyga qonlarini oqizib sudrab ketdilar. Vagonning ochiq eshigida so‘nggi olishuv ro‘y berdi. Ular Avdiyni bir yo‘la itarib yuborishga cho‘chidilar, u bilan birga o‘zлари ham tashqariga qulashlari mumkin edi. Avdiy eshikka, to‘g‘riroq‘i, eshik orqasidagi temir tutqichga mahkam yopishdi. Poezdning kuchli shamoli uni eshikka mixlab tashladi, Avdiy chap oyog‘i bilan qandaydir temir chiqikka bazo‘r ilindi va butun og‘irligi bilan osilib qoldi. Aftidan, u hech qachon yashash va kulfatdan qutulish uchun bunchalar jon-jahdi bilan urinmagan edi. Bunchalar kuch qaerdan kelyapti, o‘zi ham bilmasdi. Agar uni o‘z holiga qo‘yganlarida

edi, u balki tirishib-tarmashib yana vagon ichiga kirib olardi. Biroq choparlar xuddi to‘p tepkanday uning boshiga tepishar, og‘izlaridan bodi kirib, shodi chiqar, ayamay qora qonga bulg‘ashar, u esa hamon temir qabzani qo‘yib yubormasdi. Oxirgi daqikalar ayniqsa dahshatli bo‘ldi. Petruxa, Maxach va Kolya haddan tashqari vahshiyashib ketdilar. Shu payt Grishan ham o‘zini to‘xtatolmay eshik oldiga chopib keldi: endi yuzini bemalol sidirib tashlasa bo‘laveradi, endi Avdiy Kallistratov qanday jon taslim etadi, tomosha qilish mumkin. Grishan choparlar Avdiyni batamom asfalasofilinga jo‘natishlarini kutib turardi. Tan berish kerak — Grishan o‘z ishiga g‘oyatda usta edi. Ertaga mabodo Kallistratovning o‘ligini topib, uning yiqilib tushgani yoki o‘zini poezddan tashlaganiga shubhalansalar, Grishan o‘shanda ham hech narsani bilmagan, ko‘rmagan bo‘lib turaveradi — shaxsan o‘zi bu ishga qo‘l urmagan. Nari borsa, bolalar janjallahashib, do‘pposlashib qolishganu baxtsiz hodisa ro‘y bergen — qochaman deb, poezddan tushib ketgan.

Keyin Avdiyning yuziga tepishdi. Uning oxirgi eslab qolgani shu bo‘ldi. Chopar giyohvandlarning poshnalari konga bo‘yaldi. Shamol Avdiyning qulqlarida xuddi alanga kabi guvillardı. Uning vujudi tobora og‘irlashib, pastga qo‘rinchli bo‘shliq sari zilday tortib borardi. Poezd esa shamollarning karshiligini yengib, hamon o‘sha cho‘llardan yeldek yelar, butun yorug‘ olamda joni qil ustida turgan shu jabrdiyda yigitga yordam qo‘lini cho‘zadigan bir kimsa yo‘q edi. Uzundan-uzoq davom etgan kun so‘ngida botib borayotgan quyosh uning qiynoq dahshatidan olayib ketgan ko‘zlarini qonli shafaqqa bo‘yab, u bilan birga olam zulmatiga cho‘kmoqda edi. Lekin, qancha tepkilamasinlar, Avdiy qo‘llarini bo‘shatmasdi. Shunda Petruxa Grishanning tayog‘ini tortib olib, so‘nggi zarbani berdi. Inchunun Grishan ham xuddi bilmagan kishiday tayog‘ini ko‘rga hassa qilib ushlab turgan edi, mana, marhamat, olib urmaysanmi qo‘llariga, majaq-majaq bo‘lib ketmaydimi, qistaloq, deganday...

Shunda Avdiy qonli go‘sht parchasi kabi pastga uchib ketdi. U temir yo‘l ko‘tarmasidan qanday qulagani, nimalarga urilib, surilganini sezgani ham yo‘q, eshelonning dumi u yiqilgan yerdan shaldirab o‘tdi, sobiq hamrohlari tushgan poezd ko‘zdan yo‘qoldi, g‘ildiraklarning shovqin-suroni tindi, lekin u hech narsani sezmadni.

Ko‘p o‘tmay quyosh so‘ndi, qorong‘u tushdi, momataloq tusiga kirgan g‘arbning qo‘rg‘oshin osmonida qora bulutlar quyuqlashdi...

O‘sha mash‘um yerdan esa endi boshqa poezdlar yeldek chopar, anavi jonini saqlash uchun rahm-shafqat so‘rab yalinmagan sho‘rlik yigit esa temir yo‘l pastidagi chuqurliqda chaparasta ag‘anab yotardi. Mana endi, haqiqatni jonsarak izlab bilgan hamma narsalari va qaror toptirishga uringan narsalarning hammasi hozir orqaga uloqtirib tashlangan, zabun etilgandi. O‘zini shunchalar ayamagani, omonlik tilashdan voz kechganiga arzirmidi bular? Axir, hamma gap u emas-bu emas, uning hayot-mamoti ustida ketayotgan edi-ku. Bor-yo‘g‘i uchtagina so‘zni aytса: «Meni qutqar, Grishan!» — desa kifoya edi. Ammo bu so‘zlar uning og‘zidan chiqmadi...

Chindan ham, Xudo taolo taajjubotlarining cheki yo‘q... Axir bir mahal uzoq tarixda shunday voqeа ro‘y bergen edi-ku — Galiliyadan chiqqan bir majzub o‘ziga shunchalar ishongan ediki, ikki og‘izgina so‘zni aytishni istamay halokatga giriftor bo‘lgandi. Oxiri, shirin jondan ayrilgandi. Odamlar ham to haligacha, oradan bir ming to‘qqiz yuz ellik yil o‘tganiga qaramay es-hushlarini yig‘ishtirib ololmaydi-lar — bu qanday qilib yuz berdi, axir, shunday bo‘lishi mumkinmi, deb ajablanishadi, bahslashishadi, iztirobga tushishadi. Har safar bu ularga xuddi kuni kecha ro‘y berganday bo‘lib tuyuladi — yaralari ana shunchalar yangi. Va o‘sha zamonlardan buyon necha-necha nasllar dunyoga kelmasin, har biri o‘rtanib-kuyadi, agar o‘shanda biz G‘ulqofda bo‘lganimizda, hech qachon galileylik kishini jabrlashga yo‘l qo‘ymasdik, deyishadi. Ana shunday tuyular ekan-da, hozir. Lekin dunyo aylanaay-lana hamma narsalar unut daryosiga g‘arq bo‘lib ketadi-yu biroq o‘sha kun sira esdan chiqmaydi, deb kimning hayoliga kelibdi deysiz...

Aytgancha, o‘shanda ham juma kuni edi va jonini qutqarishi mumkin bo‘lgan zot o‘shanda o‘zini xalos etmoq uchun tilga ikki og‘iz so‘z olmoqni ravo ko‘rmagandi...

## II

O'shanda Quddusda havo ertalabdan qizib, kun issiq bo'lishidan darak berardi. Irod saroyining Ark ayvonida marmar ustunlar tagida prokurator Pontiy Pilat o'ziga kursi qo'yishni buyurdi. Bu yerda pastdan esayotgan yelvizak uning sandal kiygan oyoqlarini bilinar-bilinmas yelpib o'tardi. Katta bog'dagi adl teraklarning uchlari shabadada erinchoqlik bilan qimirlar, ularning yaproqlari bu yil barvaqt sarg'aya boshlagandi.

Saroyning Ark ayvoni joylashgan shu tosh tepalikdan shahar kaftdek ko'rinish turar, hozir havo tobora qizib borarkan, shahar manzaralari oq harir parda ichra jimirlab ko'zga chalinar,— hatto Quddusning doim ravshan ko'rinaldigan tevarak-atroflarini ham oqarib yotgan sahro sarhadlarida arang payqash mumkin edi.

O'sha kuni ertalab xuddi ko'zga ko'rinnas iplar bilan osmonga osib qo'yilganday qanotlarini keng yozib yolg'iz bir qush sas chikarmay suzib yurar, ma'lum vaqt orasida hech kanda qilmay katta bog' ustidan uchib o'tardi. Burgutmikin, kalxatmikin, shu ikkisidan bo'lak hech qanday qushning bunday issiq kunda uzoq hamda zerikarli uchishga qurbi yetmaydi. Og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga solib turgan nazarlik Isoning ko'kda aylanib yurgan qushga bexos ko'z qirini tashlaganligini payqab prokurator birdan og'rindi va tutoqib ketdi. U zahar sochib dedi:

— Sen qayoqqa qarayapsan, Yahudoning podshosi? Boshingda ajal qushi aylanyapti!

— U hammamizning boshimizdan aylanyapti,— ohista, xuddi o'zi bilan o'zi so'zlashayotganday javob berdi Iso va qorayib momataloq bo'lib ketgan ko'zini kafti bilan paypaslab qo'ydi: sinedrionda sud qilish uchun eltayotganlarida bozor oldida ruhoniy va oqsoqollar gij-gijlagan olomon uni urto'qmoq qilgan edi. Ayrimlar rahmsiz kaltaklagan, boshqalari basharasiga tupurgan o'sha damlarda ruhoniylar ruhoniysi Kayafaning odamlari o'zini nechog'lik qattiq yomon ko'rishlarini tushundi, ha quddusliklarning sudidan hech kanday rahm-shafqat kutib bo'lmaydi, shundayku-ya, lekin uni olomonning aynimachoqligi va jaholatga minib quturishi taajjubga solib qo'ydi, go'yo shu paytgacha ular ichidan hech kim uning darodilagini bilmaganday, go'yo shu paytgacha ular ibodatgohlar va maydonlarda nafaslarini ichlariga yutgancha qimir etmay uning va'zlarini eshitmaganday, go'yo ular xo'tigini ergashtirgan ko'k eshakka minib shahar darvozalaridan kirib kelganida shodu xurram qarshi olmaganday, go'yo ular umid-omol bila: «Sallamno bani Dovudga! Sallamno va akram!» — deb qichqirishib, eshagi oyog'i ostiga gullar otmaganday.

Mana endi, u yirtilib dalva-dalva bo'lib ketgan ust-boshda parishon va faromush alfozda taqdirimda yana nimalar bor ekan deganday Pontiy Pilat qoshida mustar turibdi.

Prokuratorning esa shu tobda asabi g'oyatda buzilgan va qizig'i shundaki, hammadan burun o'zidan — o'zining sustligi, birovga tushuntirib bo'lmaydigan jur'atsizligidan xafa edi. Na Rim qo'shinlarida xizmat qilib yurganlarida va na mana hozir prokuratorlik chog'larida u hech qachon bunday holga tushmagandi. Rostdan ham kulgili emasmi, axir! — sinedrionning hukmini shartta tasdiqlash va ortiqcha boshog'riqdan qutulish o'rniga u tergovga kuchi hamda vaqtini sarf qilib o'tiribdi. Holbuki, Baytulmuqaddas ruhoniylar ruhoniysi va mushriklari uning farmoyishiga ilhaq, ularni darhol chaqirib, mana, olinglar, gunohkor sizlarniki, nima qilsalaringiz, o'z ixtiyorlariningiz, desa bo'ladi-ku, axir. Shunga qaramasdan, Pontiy Pilatga shunday osongina yo'l tutishga nimadir xalaqit bermoqda edi. Buning ustiga manovi masxaravoz shuncha ovora bo'lishga arzirmikin?..

Lekin bu tentakni ham ko'ring-da axir! Qarangkim, u Yahudoning podshosi, muhibbi Rabboniy emish, Illohnинг odil saltanatini tuzmoq uchun Xudo tomonidan yahudolarga tortiq qilinganmish, Uning odil saltanatida qaysaru qaysarchalarga, ularning noyiblariga va yaloqi sinagoglarga o'rin yo'qmish, jami odamlar endilikda to oxiratga qadar bir-birlariga tengu birodar bo'lar emishlar. Necha-necha kishilar davlat qushini boshlariga qo'ndirishga harakat qilmaganlar, lekin bunaqa aqlli, ayyor va bunaqa g'addorini hali hech kim ko'rmagan edi. Bunaqalar saltanat tepasiga kelsin-chi, avval qanday bo'lsa, xuddi shunday hukm yuritaveradi, zotan, dunyoga hayotning boshqacha yo'rig'i yo'q va

bo‘lmaydi ham. Ammo badkirdor buni besh qo‘lday yaxshi biladi, lekin bari bir nayrangini qo‘ymaydi! Sodda odamlarni yangi Saltanat quramiz deb aldaydi. Har bir odam o‘z yuragidagi gumoniga ko‘ra boshqaning ustidan hukm chiqardi, degan gap haq bo‘lsa, bu yerda ayni shuning o‘zginasi edi: prokurator yuragini eng yashirin yerlarida orulangan, lekin amalga oshishiga o‘zi ham ishonmagan hayollarni Isoga taqamoqda edi. Hammasidan ham, xuddi mana shu narsa Pontiy Pilatning g‘ashiga tegar va shu boisdan mahkumga bir vaqtning o‘zida ham qiziqib qarar, ham nafratlanardi. Prokurator nazarlik Isoning sirini bilib oldim, deb o‘ylardi: bu daydi bashoratgo‘y yer yuzida g‘alayon chiqarmoqchi, odamlarga Yangi Saltanat va’da qilib, eskini yiqlmoqchi va yangining ustiga o‘tirmoqchi. Obbo, mug‘ambir! Rumo Saltanatining Kichik Osiyodagi viloyatlari hokimi bo‘la turib, Pontiy Pilat hayoliga keltirmagan, to‘g‘rirog‘i, hatto orzu qilishga qo‘rqqan narsalarni nahot shu ojiz va nochor Yahudo ko‘krugida ko‘tarib yurishga jur’at etsa-ya. Daydi karomatgo‘y Isoni boshqacha yo‘llar bilan tergar va so‘roqqa tutarkan, tajribakor prokurator o‘zini mana shunga ishontirar, shunga chog‘lar, shunday xulosa chiqarishga hozirlardi: har safar o‘zini mahkumning o‘rniga qo‘yib ko‘rganda, uning hokimlik da’vo qilayotganidan tepe sochi tik turardi. Shundan Pontiy Pilatning jig‘ibiyroni chiqar, shubhalar o‘tida qovurilar — dam Baytulmuqaddas Sinedrioni tomonidan Iso ustidan kuni kecha chiqarilgan o‘lim hukmini tasdiqlab, hokimlik muhrini bosmoqchi, dam buni orqaga cho‘zib, Rumo davlati uchun Iso fikrlari va xatti-harakatlari nechog‘lik xavfli ekanligini oxirigacha aniqlamoqchi bo‘lardi...

Uning osmonda uchib yurgan qush haqidagi so‘ziga mahkum daydining javobi to‘g‘ri va ochiqligi, betakallufligi bilan prokuratorning ensasini qotirdi. Undan ko‘ra indamagani yoki tilyog‘lamalik qilgani ham tuzuk edi. Qayoqda, qaytaga o‘ziga-o‘zi taskin beryapti: o‘lim go‘yo barchamizning boshimizda kezib yuradi. «Buni qarang-a, o‘z boshiga o‘zi eran-qaran o‘lim chaqiryapti-ya, rostdanam, qatldan hech cho‘chimayotganday», — kufr bo‘lib ketdi Pontiy Pilat.

— Bo‘pti, yana avvalgi gapimizga qaytamiz. Sho‘rlik, bilasanmi, seni nima kutayotganligini? — so‘radi prokurator tovushi xirillab. U boyadan beri tez-tez yiltiragan basharasi, tepakal boshi va g‘o‘ladek baquvvat bo‘yinlaridan ro‘molcha bilan terini artardi. Prokurator Isoning javobini kutib, terlab ketgan barmoqlarini birma-bir qasirlatib qayirib chiga boshladи. U shunga yomon odatlangandi. — Sendan so‘rayapman, nima bo‘lishingni bilasanmi?

Iso boshidan nima kechishini o‘ylab, rangi o‘chdi va og‘ir xo‘rsinib, dedi:

— Shunday, Rumo noyibi, meni bugun qatl qilishlarini bilaman, — bazo‘r og‘zidan chiqdi uning.

«... Bilaman!» — masxaraomuz takrorladi prokurator va qarshisida turgan sho‘rlik payg‘ambarga ham rahmi kelib, xam achchig‘i qistab, miyig‘ida kulgancha boshdan-oyoq nazar solib chiqdi.

Qovushmagan, bo‘yni uzun, o‘sinq sochlari patila-patila to‘zigan, liboslari yirtilgan, sandali olomon talaganda tushib qolgan bo‘lsa kerak, oyoq yalang Iso prokurator qoshida boshini xam qilib turar, — uning orqasida saroy Arkinning to‘sqliari osha olis tepaliklarda shahar uylari elas-elas ko‘zga chalinardi. Shahar prokurator tergayotgan odamga mushtoq edi. Qabih shahar qurban istardi. Bugun mana shu jazirama issiqda shaharga qonli tomosha kerak edi, uning qorong‘u, sim-siyoh istaklari junbushga tushmoqni xohlardi — xuddi qahrli yo‘lbars Liviya sahrolarida zebrani tilka-pora qilayotganda chiyabo‘rilar to‘dasi alam bilan akillashib, uvlashganiday olomon ham ko‘chalarda nola-faryod chekib ko‘ksini tig‘laydi o‘shanda. Pontiy Pilat bunday voqealarni odamlar o‘rtasida ham, jonivorlar ichida ham ko‘rgan edi. Shuning uchun, chorcho‘pga mixlash qanday bo‘lishini bir zum ko‘z o‘ngiga keltirib, ich-ichdan eti jimirlashib ketdi. Va yuragi achishganday o‘kinib dedi:

— Bilaman, deysan! «Bilaman» ham gapmi? Seni u yoqqa olib chiqishgandan keyin bilasan...

— Shunday, Rumo noyibi, men buni bilaman, o‘ylasam, etim seskanib ketadi.

— Sen gapimni bo‘lma va narigi dunyoga ko‘pam oshiqaverma, borasan hali, — deb to‘ng‘illadi prokurator gapi chala qolganidan norozi bo‘lib.

— Afv et, hukmdor, beixtiyor og‘zimdan chiqib ketdi, gapingni bo‘lmoqchi emasdim, — uzrxohlik qildi Iso. — Men hech yerga shoshilayotganim yo‘q. Men hali yashasam devdim.

— Esa sen kufroni so‘zlarining dan voz kechib qo‘ya qolmaysanmi? — tikkasiga so‘radi prokurator. Iso qo‘llarini yozdi, uning ko‘zlar bolalarnikiday ma’sum edi.

— Mening qaytib oladigan so‘zim yo‘q, hukmdor. U so‘zlar qismatda bor. Padarim dilimga solgan. Uning irodasini ado etib, so‘zlarini odamlarga yetkazmog‘im kerak.

— Aytganingdan hech qolmaysan,— norozi bo‘lib ovozini ko‘tardi Pontiy Pilat. Uning qiyg‘ir burunli, qayishday qattiq lablari atrofiga chuqur chiziqlar tortilgan yuzi nafratangiz sovuq tusga kirdi.— Meni chalg‘itaman deb, ovora bo‘lma, hammasini shundoq ko‘rib turibman,— dedi u e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan ohangda.— Padarimning so‘zları, ularni odamlarga yetkizaman deysan. Aslida bu nima? Aslida bu qora xalqni laqillatish. Uni qo‘lga olish! Avomni buzg‘unchilikka boshlash. Balki uning so‘zlarini menga ham yetkazmoqchidirsan — men ham odamman-ku!

— Hozircha. Rumo hukmdori, senga bu hojat emas. Bil’aks, senda iztirob yo‘q. Sen boshqacha hayotni orzu qilmasang ham bo‘ladi. Sen uchun hukmronlik bu — Xudo va diyonat. Hukmronlik esa tamomila o‘z qo‘lingda. Sen uchun shundan yuqori hech narsa yo‘q.

— Rost. Rumo hukmronligidan o‘zga oliv narsa yo‘q. Umidvorman-ki, sen shunday demoqchi bo‘lding, shekilli?

— Sen shunday deb o‘ylaysan, hukmdor.

— Aqli odamlar har doim shunday o‘ylaganlar,— iltifotli ohangda uni to‘g‘riladi prokurator.— Bekorga aytmaganlar,— uqdira boshladи u.

— Qaysar<sup>2</sup> — Xudo emas, lekin Xudo — xuddi Qaysarday. Agar aksincha ishonching komil bo‘lsa, menga isbot qil. Qani! — U Isoga mazax qilganday tikilib qoldi.— Men Rumo imperatori Tiveriyning noyibi bo‘laman. Uning nomidan men zaminu zamonadagi narsalarining holatlarini birmuncha o‘zgartira olaman. Sen esang bunga allaqanday oliv kuchni, go‘yo sen eltayotgan qandaydir o‘zgacha bir haqiqatni qarama-qarshi qo‘ymoqchi bo‘lasan. Shoyon g‘alati, shoyon g‘alati! Aks holda seni bu yerda tutib turmas edim. Sinedrionning hukmi qachon ijro etiladi deb, shahar oshiqmoqda. Xo‘s, qani, javob ber!

— Men nima dey?

— Qaysarning Xudodan kichikligiga ishonching komilmi?

— Qaysar ham o‘ladigan odam.

— Albatta, o‘ladigan odam. Lekin u tirik ekan, odamlar uchun Qaysardan yuqori Xudo bormi?

— Tiriklikning o‘zga o‘lchovini olsak, hukmdor, albatta, bor.

— Topgan gapingni qara-ya,— o‘zini xafa bo‘lganday ko‘rsatib, qoshlarini chimirgancha dedi prokurator.— Odamlar kuladi demaysan ham. Sening bu gaplaringga kim ishonadi bilmayman, tushunmayman.

— Zulmdan ezilganlar menga ishonadilar, adolat istaganlar isho-nadilar menga. Mening so‘zlarim azob-uqubatlardan to‘ygan va ko‘zyoshlar bilan sug‘orilgan zaminda nish otib, ko‘karadi,— deb tushuntirdi Iso.

— Bas! — qo‘lini noumid silkidi prokurator.— Vaqt zoe ketmoqda.

Ular o‘z hayollariga berilib, jim qoldilar. Isoning bo‘zday manglayi terchiladi. Lekin u terlarini na kafti va na uzun ko‘ylagining yirtiq yengi bilan artdi, bu hayoliga ham kelmasdi — qo‘rquvdan tomog‘iga bir narsa tiqilgan, ko‘ngli ozar, yuz-ko‘zlaridan ter quyilar, serpay oriq oyoqlari tagiga — marmar taxtachalarga chakillab tomardi.

— Mana shundan keyin ham,— deb davom etdi negadir ovozi ichiga tushib ketgan Pontiy Pilat,— Rim hukmdori senga ozodlik berishini xohlaysanmi?

— Shunday, yaxshi hukmdor, meni qo‘yib yubor.

— Keyin nima qilasan?

— Ellarga Xudoning kalomini yetkizaman.

<sup>2</sup> Qaysar — hukmron.

— Odamlarni ahmoq qilaman de! — deb qichkirdi prokurator va zahrasi uchib o‘rnidan turib ketdi. — Ana endi ishondim. Seni haqiqatan taxtaga tortish kerak ekan. Seni faqat o‘lim tinchitadi!

— Sen yanglishasan, shonli hukmdor, o‘lim ruh oldida ojiz,— qat’iyat bilan dona-dona qilib dedi Iso.

— Nima? Nima deding? — o‘ziga ishonmay hayratlandi Pontiy Pilat Isoga yaqinlashib borarkan, uning g‘azab va hayratdan o‘zgarib ketgan yuzi qizg‘imtir qora dog‘lar bilan qoplandi.

— So‘zlarimni eshititing, hukmdor.

Pontiy Pilat nimadir demoqchi bo‘lib, o‘pkasini to‘ldirib nafas oldi, qo‘llarini siltab yuqori ko‘tardi, lekin shu payt shahsuvorning gursillagan qadam tovushi eshitildi.

— Nima deysan? — qovog‘ini solib so‘radi prokurator uning qoshiga qandaydir o‘rog‘lik qog‘oz ko‘tarib kelayotgan qurolli saroy askaridan.

— Sizga yubordilar,— deb qisqa javob berdi askar va shu zahoti ko‘zdan yo‘qoldi.

Pontiy Pilatga xotini xat yo‘llagan edi: «Hukmdorim, sizdan o‘tinib so‘raymanki, o‘sha sargardon yo‘lovchiga og‘ir azob bermang. Odamlarning aytishlariga qaraganda, uni Xristos der emishlar. Hamma uni beziyon, taqvodor odam deydi. Har turli mayib-mashriqlar, kasal bechoralarni tuzatar emish, mo‘jizakor emish. Uni Xudoning o‘g‘li, Masih, Yahudoning sultonini desalar, qulq solmang, balki tuhmat qilishayotgandir. Yana bilmadim, bunga mening aqlim yetmaydi. Yahudolar qanday janjalkash, serg‘alva xalq ekanliginy o‘zingiz bilasiz. Mish-mishlar rost chiqsa-chi, unda nima bo‘ladi? Qora xalqning og‘zida yurgan gap keyin ko‘pincha to‘g‘ri chiqadi-ku. Mabodo, bu safar ham, rost bo‘lsa, unda sizni tavqi la‘nat qiladilar. Eshitishimcha, bu yerdagi sinagoglarning kishilari va shahar oqsoqollari Isoga xalq ergashganini ko‘rib, qo‘rqib ketgan mishlar, undan o‘ch olish payiga tushgan mishlar. Ruhoniylar Isoni qo‘rolmay, johil olomonni unga qarshi bo‘hton qilib tezlagan emishlar. Kecha uning etagida ibodat qilganlar, bugun uni toshbo‘ronga tutibdilar. Ojiz aqlim bilan bir nima deyolmayman-u, lekin azizim Pilat, zavjayi muhtaramim, agar siz bugun bu savdoyini qatl etishga muhr cheksangiz, keyinchalik faqat sizni yomonotliq qiladilar. Axir, biz o‘la-o‘lguncha bu yerda qolib ketmasmiz-ku. Men sizni Rimga oliv unvonlar va izzat-hurmatlar bilan qaytishingizni istayman. Aslo bunga yo‘l qo‘ymang, azizim Pilat. Boya soqchilar olib o‘tishayotganda, unga ko‘zim tushdi, xuddi yosh iloh kabi ko‘rkam yigit ekan. Bilasizmi, kecha bir tush ko‘ribman. Keyin o‘zingizga so‘ylab beraman. Juda muhim. O‘zingiz va nasllaringiz boshini malomatga qo‘ymang!»

— Yo Xudo, Xudo! Ne gunoh qildim senga? — deb ingrab yubordi Pontiy Pilat. Va yana nechanchi marotaba bu devonasor, majzub, yolg‘on payg‘ambarni darhol, hech qanday ortiqcha gapso‘zsiz qo‘riqchilar bilan shahar tashqarisiga, G‘ulqof qatlgohiga jo‘natib yubormaganligi uchun afsus-nadomat chekdi. Axir Quddus hakamu hukamolari shuni talab qilishmayaptimi. Mana endi, hokimlik idorasiga bosh ko‘shmagan bir xotini qolgan edi. Bunda ham u Iso tarafdarlarining yashirin qo‘llarini ko‘rganday bo‘lar, yo‘q deganda, bularning barini osmon kuchlarining bu ishga qilayotgan qarshiligiga yo‘yardi. Biroq dunyoning ishlari ma‘bulurni unchalar qiziqtirmaydi. Xotini esa, noqis aqli bilan siyosatni tushunarmidi. Qaysarlarni behurmat qilib yurgan shubhali daydi Isoni deb, Rumoning sodiq fuqarolari bo‘lmish ruhoniylar Kayafa hamda Bayulmuqaddas a‘yon-ashroflari bilan orasini buzsini, ularni o‘ziga dushman qilib qo‘ysinmi? Buning unga nima keragi bor? Ajabo, bu nusxaning nimasi chiroyli? Yosh iloh kabi emish! Yosh bo‘lsa bordir. Shunga shunchami. Unchalar maqtaydigan joyi yo‘q. Ana turibdi, olomon kaltaklagan itday. Xotinining ko‘ziga nechuk ko‘rindi ekan? Hukmdor xatni mulohaza qilib, o‘ychan kezindi. So‘ng og‘ir xo‘rsinib, yana joyiga o‘tirdi. Ilgari ham shu fikr necha bor kallasiga kelgandi: bunday qarasang, odamlar juda pastga o‘xshaydilar — bavl qiladilar, ho‘llaydilar, qo‘shiladilar, tug‘iladilar, o‘lib-qiriladilar, tag‘in tug‘iladilar va o‘ladilar, qanchadan-qancha yovuzliklar hamda tubanliklarni ortmoqlab yuradilar, mana shunday qabohat va battarinliklar ichida yana qayoqlardandir — bashorat, karomat, rasullar, ruhiyat e’jozlari ham paydo bo‘ladi. Manavini aytmaysizmi endi — u o‘z qadriga shunchalar ishonadiki, xuddi osmonda uchib yurganday, tush ko‘rayotganday. Lekin, bas. Uning hushini joyiga keltirib qo‘yish kerak! Yetar endi!

— Har holda men shu narsani bilmoqchi edimki,— deya murojaat qildi prokurator hamon o‘z joyida jimgina turgan Isoga qarab,— aytaylik, sen soddafahm odamlar ichida g‘alva qo‘zg‘ab turgan yovuz niyatli kishi emas, xudojo‘y, taqvodor bir kimsasan. Aytaylik, sen Adolat sultanati haqida so‘zlaysan va Rumo qaysarining jahonga hokimlik huquqini tan olmaysan. Aytaylik, xo‘p, men senga boringki, ishondim: xo‘sh, menga tushuntirib ber-chi, seni o‘limga borishga nima majbur qilyapti? Yuragingni och menga, nima istaysan? Mabodo, sen shu yo‘l bilan Isroil xalqiga podsholik qilmoqchi bo‘lsang, unda men buni ma’qullamayman, ammo niyatningi tushunaman. Biroq nima uchun sen boshdanoq o‘tirmoqchi bo‘lgan shoxni kesib tashlamoqchisan? Kaysarning hokimligini tan olmay qanday qilib Kaysar bo‘lmoqchisan? Seni tirik qoldirish va yoxud qatlga jo‘natish mening izmimda. Buni o‘zing bilasan. Xo‘p, nega indamay turibsan? Tiling gapga aylanmay qoldimi?

— Shunday, Rumo noyibi, men qiyonoqdan qo‘rqaqman. Lekin men hech qachon Qaysar bo‘lmoqchi emasman.

— Unda shahar ko‘chalariga chiq, tavba qil, yanglishgan ekanman, deb ayt. Yolg‘on xabarlar qildim, yolg‘on bashoratlar aytdim, men Yahudo podshosi emasman, deb jar sol. Qora xalqni aldama, yo‘ldan urma, orqangdan ergashtirma, dillariga ishtiboh solma, jinoyatlarga boshlama. Hech qanday Adolat Sultanati bo‘lishi mumkinmas. Doimo mavjud narsalarginaadolatli. Dunyoda imperator Tiveriy bor va u jahon binosining mustahkam ustuni. Sen Adolat Sultanati deb, havoyi odamlarni yo‘ldan ozdiryapsan. Sen aytgan sultanat — yo‘k narsa! O‘ylab ko‘r! O‘zingni ham, boshqalarni ham boshlarini aylantirma. Sen o‘zing kim bo‘psan, Rumo imperatorini tashvishga qo‘yadigan,— ko‘cha-ko‘yda kezib yurgan daydi, dargumon nabiy, baqiroq va’zxonsan, Yahudoning yerkari senga o‘xshaganlarga to‘lib-toshib yotibdi. Biroq sen o‘z ta‘limoting bilan odamlar yuragiga vasvasa solyapsan, ruhoniylar ruhoniysi tinchini yo‘qotgan, shuning uchun ro‘yolarining fosh qil. So‘ng Shom yoki boshqa o‘lkalarga chiqib ket. Men ham senga yordam qilay. Vaqt boridarozi bo‘l. Nega yana miq etmaysin?

— Biz bir-birimizdan juda ham farqli odamlar ekanmiz, Rumo noyibi, bir-birovimizni tushunishimiz qiyinda o‘xshaydi, men shuni o‘layapman. Men munofiqlik qilib, Xudoning ilmi-rohidan voz kecholmayman. Unda senga va Qaysarga manfaat yetib, haqiqat zavol tutadi-ku?

— Gapni aylantirma. Rimga nimaiki foydali bo‘lsa, o‘sha narsa a’lo.

— Hammasidan a’loroq bu haqiqat — haqiqat esa, bitta. Ikkita haqiqat bo‘lmaydi.

— Yana dog‘ulilik qilyapsanmi?

— Avval ham dog‘ulilik qilmaganman, hozir ham. Mening senga javobim shu: birinchidan, haqiqat haqi aytigan so‘zdan qaytish yo‘q, zero, Sen o‘zing shuni istayapsan. Ikkinchidan — qilmagan ishingning jurmini gardanga olmoq joiz emas va qorakuya kabi bo‘htonlardan ko‘krakka urmoq bilan qutulib bo‘lmas. Asossiz bo‘htonning umri qisqadur.

— Lekin hammadan burun sening kuning bitib turibdi, Yahudoning podshosi! Demak: sen qanday bo‘lmasin, xalos yo‘lini tutmaysan va o‘limni tanlaysan, shundaymi?

— Menga xalos bo‘lmoqning faqat shu yo‘ligina qolgan.

— U qanday yo‘l?

— Dunyoni xalos etish yo‘li.

— Jinnilikni bas qil! — toqati toq bo‘ldi Pontiy Pilatning.— Demak, o‘z ixtiyorining bilan boshingni sirtmoqqa tiqasanmi?

— Shunday bo‘lib chiqadi endi, mening boshqa yo‘lim yo‘q.

— O xudolar, xudolar! — horg‘in shivirladi prokurator manglayini chuqur tilib o‘tgan chiziqlarni siypab.— Yondiraman deydi-ya, kun aynimasmikin ishqilib? — deb to‘ng‘illab ko‘ydi o‘ziga o‘zi u. So‘ng qatiy bir qarorga keldi: «Menga nima zarur? O‘z foydasini bilmaganning yonini olib nima qilaman? Qiziqman-da, o‘zim ham!» Keyin aytdi: — Unday bo‘lsa, men bu ishdan qo‘limni yuvib qo‘ltig‘imga uraman!

— Ixtiyorining, noyib,— javob qildi Iso va boshini solintirdi.

Ular yana sukutga cho‘mdilar. Shunda aftidan har ikkovlari saroydan tashqarida soya-salqin bog‘lardan narida Quddusning oftob o‘rtagan past-baland ko‘chalarida dam o‘tmay portlashga tayyor teran sukunat cho‘kkanligini bab-baravar his qildilar. Hozircha quloqlariga noayon shovqin elaslab chalinar — erta tongdan odamlar, ot-ulovlar aralash-quralash bo‘lib ketgan bozorlarning g‘ala-g‘ovuri kelardi. Past va yuqori olam o‘rtadan ikkiga bo‘lingan edi: saroy devorlari ortida qurolli soqchilar aylanib yurishar, pastroqda, chog‘roq daraxtzorda esa suvoriylar qo‘r tashlagan edilar. Otlar dumlari bilan pashsha qo‘rayotganlari shundoq ko‘zga chalinardi.

Qo‘limni yuvaman degach, prokurator o‘zini bir qadar yengil sezdi, zero, endi bemalol aytsa bo‘lardi: «Men qo‘limdan kelgancha harakat qildim. Xudolar shohid, unga o‘jar bo‘l, oyog‘ingni tirab tur, omolingni hayotingdan baland tut, deganim yo‘k. Lekin u so‘zidan qaytmadi, mayli, u aytgancha bo‘lsin. Bizga shunisi ham ma’qul. U o‘limiga o‘zi muhr bosdi...» Pontiy Pilat shularni o‘ylarkan, birvarakay xotiniga beradigan javobini ham pishitardi. Qazovu qadarda yozilgan taqdirini jimgina, sirli jilmayib kutayotgan Isoga qiya nigoh tashlarkan, hukmdor yana shularni hayolidan kechirdi: «Shu tobda nimalarni o‘ylayotgan ekan bu odam? Hoynahoy, ichida qattiq afsus chekayotgandir? To‘qib chiqargan g‘alati gap-so‘zları o‘z boshiga yetganligini balki tushunib qolgandir? Lekin negadir ulardan voz kecholmadi. O‘z tuzog‘iga ilindi. Ana endi, qutulib ko‘r-chi: xamma-hamma uchun — butun zaminu zamona, butun bani bashar uchun — bitta Xudo. Bitta imon. Hamma-hamma uchun bitta Adolat Saltanati. U nimaga shama qilyapti? Nesini aytasiz, hamma-hamma shuni xohlaydi. U xuddi shuni ko‘zlab ish tutgan! Lekin, hayot bizni ana shunday o‘rgatadi, haddan oshib, mug‘ambirlik qilsak, jazolaydi. Peshonangda yozilmagan taxtu baxt uchun talashsang, holing ana shunday zabun bo‘ladi. Ko‘ngli taxt tilaganini qarang! Qora xalqqa qutqu solib, Qaysarga qarshi g‘alayonga chaqirgan, u to‘dadan bu to‘daga o‘tib dunyo tinchini o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan. Odamning azal tartibot qurilmasini ostin-ustun kilishni o‘ylagan. Bevosh tentak! Qoyil-e! Yo‘q, bunday odamni sira tirik qoldirish mumkin emas. Ko‘rinishdan kaltaklangan, sho‘riga sho‘rva to‘kilgan parrixtaga o‘xshaydi. Lekin yuragida nimalar yashiringan, Xudo biladi — ko‘zlagan ishlarini ko‘ring, faqat buyuk aql egasigina bunaqa reja tuzishga qodir. Unga qaragan odam sira shunday deb o‘ylamaydi!»

Prokurator Pontiy Pilat o‘zini shu kabi o‘ylar bilan ovutardi. Unga yana boshqa bir narsa ham taskin berardi. Endi Iso Masiho yuzasidan sinedrion hukmini tasdiqlashni ochiqdan-ochiq talab qilayotgan muftilar muftisi Kayafa bilan tortishib, talashib o‘tirishga hojat qolmagan edi.

— Dargumon bo‘limgilki, ey hakim hukmdor, o‘z ishingdan o‘zing mamnun bo‘lasan va ne qilsang, haq qilasan,— deb ko‘ydi Iso, xuddi hukmdorning ichidagi fikrlarni o‘qiganday.

Pontiy Pilatning fig‘oni oshdi.

— Mening g‘amimni yemay qo‘ya qol,— Isoni siltab tashladi u,— men uchun Rimning manfaati har narsadan yuqori. Sen o‘zingni o‘yla, ey sho‘rlik!

— Ma‘zur tut, shavqatli hukmdor, menga bu so‘zlarni aytmasang ham bo‘lardi.

— Ayni muddao. Hali ham kech emas. Yana o‘ylab ko‘r. Keyin achinib yurma. Men hozir ichkariga kirib chiqaman. Kelgunimcha o‘z fikringni o‘zgartirmasang, unda oxirgi so‘zimni aytaman. Bani Isroiuning shohiman, olamning tayanchiman, men bo‘lmasam, yerning holi ne kechadi, deb havolanma. Bil’aks, hamma narsa o‘chakishganday senga qarshi. Vaqting ham allaqachon tugadi. So‘zingdan qaytsanggina boshingni xalos etasan. Uqdingmi?

— Uqdim, hukmdor...

Pontiy Pilat yelkasiga tashlagan keng ridosini to‘g‘rilab, saroy ichkarisiga kirib ketdi, U suyaxlari yirik, boshi katta va sochi qolmagan, ulug‘vor, o‘z sha’ni-shavkatni va kuch-qudratiga ishongan kishi edi. Ark ayvoni hovlisidan o‘tib borarkan, uning ko‘zi yana osmon bag‘rida parvoz qilib yurgan qushlar shohiga tushdi. Bu burgutmidi yoki shunga o‘xshash bir qush, u bilolmadi, bunga hozir qiziqayotgani ham yo‘q edi, hozir hayolini qushga aslo kuchi yetmasligi, uni o‘z izmiga bo‘ysundirolmasligi tamomila band etgandi — rost-da, na uni ko‘rqita va na haydab yubora oladi va na chaqirib, qo‘liga qo‘ndira oladi.

Hukmdor qoshlarini chimirdi, ko‘k toqiga qirg‘iyqarash bilan boqdi: e-he, aylanishini qaranglar-a, timmaydi qurmag‘ur, hech narsa bilan ishi yo‘q. Bu qush xuddi samo sultoniga o‘xshaydi, deb o‘yladi u. Bejiz uni shahanshoh qudratining ramzi leb bilmaydilar — burgutning boshi kuchli, tumshuqlari nayzaday o‘tkir, ko‘zlar cho‘g‘day yonadi, qanotlari xuddi cho‘yandan quyulganga o‘xshaydi. Shahanshoh ham shunday bo‘lmog‘i darkor! Sha’n yuksaklarda uchmog‘i, xaloyiqqa ko‘rinib turmog‘i joiz, tokim unga hech kimsa yetolmasin... Va o‘sha mumtozlik maqomidan turib olamni idora etsin. Hech kimga va hech narsaga o‘zini teng ko‘rmasin. Hatto shahanshohning xudolari ham boshqalardan mutlaq farqli, faqat o‘ziga tegishli bo‘lsin. Tobelarga loqayd va kibru kubaro bilan boqsin. Kuch-qudrat mana shunda, mana shu hokimiyat barchani titratib-qaqshatadi, dunyoning tuzugi va ustivorligi ham shunda. Anavi Iso esa g‘oyatda o‘jar, ta’limotiga g‘oyatda ishonadi, shahanshohdan tortib qora qulgacha barchani barobar qilmoqchi bo‘ladi, zero, Xudo bitta va jamiyki odamlar uning qoshida teng, deydi: hamma uchun Adolat Saltanati keladi, deb jar soladi. U bani bashar aqlini vasvasaga qo‘ydi, avomni buzdi, dunyoni o‘z xohish-irodasiga ko‘ra qaytadan bichmoqni ko‘zlaydi. Nima chiqdi bundan? O‘sha olomonning oq kaltak-qora kaltagiga uchradi, soxta bashoratgo‘y, soxta rasul, yolg‘onchi va lo‘ttiboz deb basharasiga tupurishdi... Qanday odam ekan-a? Ahvoliga maymunlar yig‘layapti-yu, pisand qilmaydi, go‘yo u emas, uni jazoga tortayotganlar yengilganday...

Rim imperatorining Kichik Osiyodagi noyibi, o‘zi ham salkam shahanshoxdan qolmaydigan hukmdor Pontiy Pilat Isoni bir necha daqiqaga yolg‘iz qoldirib borarkan, ana shularni o‘ylardi. Mayli, Iso yolg‘iz qolsin, tubsiz choh yoqasida turganligini his qilsin. Uning irodasini sindirish kerak. Toki tiz cho‘ksin, yalinib, yolvorsin. Hamma uchun teng-barobar vohid Xudodan, tenglik, birodorlikdan voz kechsin. So‘ng uni beli sindirilgan kaltakesakdek Bani Isroil zaminidan quvg‘in etiladi. Borsin, sang‘isin, daydisin, dom-daraksiz yo‘qolsin. O‘shanda uzoqqa bormaydi, e’tiqodi sust cho‘liqlarning o‘zi bo‘yniga urib o‘ldiradilar...

Ko‘pni ko‘rgan omilkor hukmdor Pontiy Pilat dilini bosgan shubha-gumonlarini o‘y-o‘ylab bartaraf qilmoqchi, yangi chiqqan bid’atni daf etishlikning eng to‘g‘ri, eng foydali va eng ibratlil chorasi topmoqchi bo‘lib urinardi. Ark ayvonidan chiqib ketarkan, mahkum yolg‘iz qolgach, o‘z ahvolining nakadar ayanchli ekanligini tushunib yetadi va men qaytib kelganimda oyoqlarimga yiqilib, najot so‘raydi, deb umid bog‘lardi prokurator. Lekin hukmdor bilsaydi. Mana shu qisqagina damlarda ushbu g‘aroyib odam butunlay boshqa narsani o‘ylar, rostini aytganda, u butkul xotiralar og‘ushiga cho‘mgandi. Zero, xotirlash ham tiriklarga xos, binobarin, hayot bilan vidolashayotgan onlarda odam bolasiga shundan boshqa yana nima qoladi.

Hukmdor qadamlari uzilishi bilanoq yon timlardan to‘rt posbon chiqdi-da, go‘yo mahkum qochib ketadiganday Ark ayvonning to‘rt tomoniga borib turdi. Mahkum saroy posbonlaridan biriga murojaat qilib, so‘radi:

— O‘tirsam bo‘ladimi, ay, yaxshi posbon?

— O‘tir,— dedi posbon nayzasini tosh sahnga do‘q etib urib. Iso devordan turtib chiqqan marmar supachaga o‘tirdi, uning yelkalari horg‘in egilgan, oriqlagan, qoni qochgan, yuzi pastga to‘lqinlanib to‘kilgan uzun qoramtil sochlari bilan chulg‘angan edi. U qo‘li bilan ko‘zlarini berkitgan ko‘yi hayolga g‘arq bo‘ldi. «Suv bo‘lsa, ichsaydim,— deb o‘ylari u,— daryo bo‘lsa, cho‘milsaydim». U qirg‘oq bo‘ylarida oqar suvlarni shundoq ko‘z o‘ngiga keltirdi — suv yerni cho‘lp-cho‘lp o‘pib, maysagliohlarni silab-siypalab oqib boradi, qulqolariga go‘yo suv shaldiragani chalindi, go‘yo allakimdir uni qayiqqa tushirib, bu yerdan qaylargadir olislarga olib ketmoqchi bo‘layotganga o‘xshaydi. Onasi ekan. Onasi qo‘rqinch va harosonlik ichra unga tomon suzib kelardi. «Oyi! — eshitilar-eshitilmas pichirladi u.— Oyi, men juda qiynalib ketdim! O‘tgan kecha Hefsimaniyada Zaytun tog‘da cho‘liqlarim bilan birga edim.

O‘shanda boshimga qora tun kabi hasrat yog‘ildi. Yuragim tars yorilay dedi. Ko‘zimga uyqu kelmadi. O‘zimni qo‘yarga joy topolmadim. Dilimni allaqanday dahshat bosdi va badanimdan ter o‘rniga qon sizib chiqdi. Shunda men Rabbimga, osmonda Padarimga yolvordim. «Rabbano,—

dedim.— Ajal kosasini bu safar menga tutmay qo‘ya qol! Yana o‘zing bilasan, Sening hukmingga tobeman». Mana, o‘sha ajal sharbati bilan limmo-lim to‘la kosa menga dam sayin yaqinlashib kelyapti, u meni tashlab yonimdan o‘tib ketmaydi, u muqarrar menga atalgan, siz buning nima ekanligini bilasiz, undan qochib qutulmoq yo‘q. Bundan chiqdi, mening boshimga ne sinoatlar tushajagini oldindan bilgan ekansiz-da, unda, shuncha yillar, yo iloham, onajonim, mehribonim, menga jon ato etib, umid, orzular bilan parvarishlar qilib, hammasiga qanday chidadingiz, axir. Meni rabbim yaratganda, mana shu ulug‘ va alamangez kun uchun, eng sho‘rida kun uchun yaratgan ekanda: zero, odam bolasiga o‘z o‘limidan ko‘ra musibatliroq narsa yo‘q, ona uchun esa o‘z pushti kamaridan bo‘lgan farzandi halokati — undan yuz chandon og‘irroq va qayg‘uliroqdir. Kechir, meni, onajon, sening yozmishing mendan emas, yolg‘iz Padarim Rabbimdandir. Shunday bo‘lgach, Undan yozg‘irmaylik, Unga musallam nigoh bilan qaraylik. Bor qilguvchi ham, yo‘q qilguvchi ham irodasidir!»

U onasi Maryamni eslarkan, bolalik chog‘larida, besh yashar payti boshidan kechirgan bir voqeа yodiga tushdi. O‘sha kezlar ularning xonadonlari podshoh Irodning ta’qibidan qochib, Misrda kun kechirardi. Irod yangi tug‘ilgan go‘dak — bo‘lajak Iso Masihoning joniga qasd qilgan, zotan, kohinlardan shu kunlarda Bani Isroil shohi dunyoga keldi, degan xabarni eshitgandi. Bu orada bolani yashirib-yashirib katta qildilar. Ular turgan yerdan picha narida juda katta to‘lg‘in daryo oqardi. Nili muborak deganlari shu bo‘lsa kerak — u betidan bu beti ko‘rinmaydigan ulug‘ daryo edi. Shu yerlik boshqa ayollar kabi Maryam bolasini yoniga olib kir chaygani daryo bo‘yiga tushardi. Ular o‘sha kuni daryoga kelganlarida, bir chol qayig‘ini qirg‘oqda to‘xtatdi, ohista ularga yaqinlashdi-da, Maryam va bolakayga iltifot bilan salom berdi. «Otajon! — dedi unga qarata Maryam.— Kayig‘ingizda o‘g‘limni sayr qildirsam, maylimi? Juda ham qayiqqa tushgisi kelyapti, tentakvoyning». «Mayli, Maryam,— deb javob berdi chol,— bu qayiqni men shunga olib keldim. Unda o‘g‘lon Isoni o‘ynatgil». Cholning o‘g‘li va o‘z otini aytib chaqirganidan Maryam hayron bo‘lib o‘tirmadi. Lekin, choldan eshkakni siz eshing, deb so‘ragani o‘girilgan edi, chol xuddi havoda erib ketganday birdan ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Maryam bundan ham taajjubga tushmadi. Bolakay qayiqqa tushar ekanman deb, shu qadar suyunib ketgan, azbaroyi quvonganidan osmonga sakrab o‘ynar, onasini tezroq bo‘ling deb, shoshirardi. Shundan so‘ng Maryam kirlarini qirg‘oq bo‘yidagi toshlar ustiga tashladi, o‘g‘lini ko‘tarib, qayiqqa o‘tqizdi, qayiqning bog‘ini yechdi, daryoga itarib tushirdi, qayiqqa sakrab chiqdi, bolani tizzasiga olib o‘tirdi va ular daryo oqimi bo‘ylab suzib ketdilar.

Qirg‘oqning yaqinginasida porlab turgan suv uzra suzish — o, qanchalar g‘aroyib edi — sayozroq joylarda qamishlar shuvillab salom berar, sohil bo‘ylarida gullar chappar urib ochilib yotar, butazorlar oralab anvoysi rangli qushlar ne turfa tovushlar bilan sayrar, iliq havoda kapalaklar uchib-qo‘nib yayrashar, chirildoqlar chirillashardi. Oh, ne farog‘at edi bu! Maryam ohista xonish qilib kuylay boshladi, u behad baxtiyor edi, o‘g‘lining esa qayiqda suzib borayotganidan boshi osmonda edi. Bundan Maryamning dili yanada yayrardi. Bu orada, ular ham unchalar uzoq suzmagan, qirg‘oqdan ham olis ketmagan edilar — daryoning sayoz yerida yotgan kattakon to‘nkaga birdan jon kirdi va suvni o‘qdek kesib, ularga qarab tahdidli suzib kela boshladi. Bu g‘oyatda bahaybat timsoh bo‘lib, uning do‘laygan ko‘zları yeb qo‘yaman deb, och tikilardi. Bolakay qo‘rqib ketib chinqirib yubordi. Maryam shamday qotgan, nima qilishini bilmasdi. Timsoh qayiqni dumi bilan urib ag‘darib yuborishga sal qoldi. Maryam eshkakni tashlab, bolani mahkam bag‘riga bosdi. «Yo, Rabbim! — yolvordi u.— O‘g‘ling bu! O‘z o‘g‘ling Iso! Uni o‘zing bergansan! O‘zing madad qil, yo Rabbim! O‘zing uni xalos et!» Xotin shunchalar ko‘rqib ketgan ediki, ko‘zlarini chirt yumib, Olamni yaratganga va farzandining Samoviy Padari bo‘lganga yolvorgani yolvorgan edi. «Bizni tark etma, Xudoyo. U hali senga kerak bo‘ladi!» deb qichqirdi Maryam. Boshqaruvsiz qolgan qayiqni suv tubidan timsoh italadi va u oqib ketdi. Maryam bir zamon ko‘zlarini qo‘rqa-pisa ochdi, shunda quvonganidan qichqirib yubordi. Qayiq qirg‘oq chetida to‘xtagan, xuddi birov uni atay shu yerga keltirib qo‘yganday edi. Timsoh shundan so‘ng orqasiga qayrildi, u uzoqlarda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Es-hushini yo‘qotgan Maryam esa qayiqdan otilib tushdiyu ho‘ngir-ho‘ngir yig‘lagancha va suyunib kulgancha sohil bo‘ylab chopib

ketdi. U bolani bag‘riga mahkam bosgan, uni to‘xtovsiz o‘par, ko‘zyoshlariga g‘arq qilib, entikib takrorlagani takrorlagan edi, «Iso! Iso! Ko‘zimning oqu qorasi o‘g‘lim! Padaring seni tanidi! U seni xalos etdi! O‘zi seni xalos etdi! Seni suydi, sen uning suyumli o‘g‘lisan, Iso! Senga donolik ato etdi, sen hakim bo‘lding, Iso! Sen endi rabbisan, Iso! Endi odamlarning ko‘zlarini ochasan, Iso! Ular sening izingdan borajaklar Iso. Sen hech qachon, hech qachon, hech qachon odam bolalaridan yuz o‘girmayajaksan!» Ana shunday shodu mukarram nola qilardi «zavjalar ichra muhtarama».

Xudoning o‘g‘li mo‘jiza yuz berib, xavf-xatardan omon-eson qutulganidan Maryam o‘zida yo‘q quvonardi. Bu Yaratganning karomati ekanligi uning hayoliga kelmasdi. Irod zug‘umidan Misrga qochgan banno Yusufning jigarbandi Iso kimligini odamlarga shu yanglig‘ ma’lum qilgan edi Yaratgan. Binobarin, Maryam bolasini ko‘tarib yerga tushib yugurib ketgan zahoti qayiq ham daryoda bir zumda g‘oyib bo‘lgan, daryo yoqasida kir chayayotgan, uning baqirganini eshitib, chopib kelgan xotinlar esa keyinchalik siz qochib borayotganingizda bolangizning boshi tevaragida nurli oltin chambar ko‘rindi, deb ishontirishgandi.

Bu barchani hayratga soldi. Kichkina Iso validasining ko‘ksiga mahkam yopishib, bo‘ynilaridan achomlab: «Oyi, men katta bo‘lganimda o‘sha timsohni dumidan ushlab olaman. Keyin bizni boshqa hech qo‘rquitmaydi!» — deb aytganda, hammalarining dillari yumshab, ko‘zlariga yosh olgan edilar. Bolakayning so‘zleri ko‘ngillarini yayratib yubordi va qayiqning egasi kim ekan-a, deb eslay boshlashdi. Shunda o‘sha cholni bu atrofda hech kim tanimasligi va hech qachon ko‘rmaganligi ma’lum bo‘ldi. Banno Yusuf o‘sha sirli qayiqchini kechirim so‘ray va zararning haqini to‘lay deb, ko‘p kunlar axtardi, lekin aslo izini topmadni...

Iso sabiylik chog‘larida mana shunday sarguzashtni boshidan kechirgan va o‘sha voqealarni mana hozir, Ark ayvonida turib, validayi muhtaramasidan unga yetkazgan azob-uqubatlari uchun uzrxohlik tilaganda, yana bir karra esladi. «Men siz bilan vidolashaman endi, onajon,— derdi u hayolan onaizorga,— meni qatl og‘ochiga tortgan choqlarida sizni yod etib ulgurmasligim mumkin, o‘shanda mendan ranjida xotir bo‘lmagaysiz. Bugun issiqqa chidab bo‘lmayapti. Men o‘limdan qo‘rqpapman. Oyoqlarim sovqotyapti. Meni kechiring, onajon, va ushbu sudmand damda taqdirdan nolimang. Sizga sabr-toqat bersin. Odamlar Yaratgan uchun eng og‘ir yuk ekan. Odamzodda bor haqiqatni o‘z o‘limim vositasida barqaror qilmoqdan o‘zga yo‘lim va o‘zga choram yo‘q. Bani bashar sari o‘zga yo‘l topmadim. Men ular sari qadam qo‘ydim. Alvido, meni kechiring, ona! O‘sha timsohning dumidan ham tutolmadim, afsus. Aytishlaricha, timsohlar juda uzoq, ikki-uch inson umrini yashar emishlar. Ushlaganimda ham, baribir, qo‘yib yuborgan bo‘lardim... Uvol-ku... Yana shuni ham o‘yladimki, onajon, agar o‘sha qayiqchi chol qiyofasiga kirgan maloika bo‘lsa, ehtimol u bilan narigi dunyoda uchrashib qolarman... Esida turganmikin o‘shandagi voqeа? Qadam tovushlarini eshityapman, ixtiyorsiz qotil — Pontiy Pilat kelyapti. Alvido, ona!»

Pontiy Pilat Ark ayvonidan qanday shahdam chiqib ketgan bo‘lsa, shunday shahdam qadamlar tashlab qaytib keldi. Posbonlar darhol ko‘zdan g‘oyib bo‘ldilar va ikkovlari yana avvonda yolg‘iz qoldilar. Uni ko‘rgan zahoti o‘rnidan turgan Isoga ma’nodor nigoh tashlagan hukmdor hammasi o‘zi istaganday borayotganligini tushundi. Mahkum so‘nggi qadamga chog‘langan edi. Lekin, bu safar ham prokurator otni qamchilamaslikni afzal ko‘rdi. Shusiz ham ish ko‘ngildagiday ketayotgan edi.

— Xo‘sh, nima ham derdik, qarasam, gapimiz tugab qolganga o‘xshaydi,— dedi Pontiy Pilat hali joyiga o‘tirmasданоq.— Gapingdan qaytmaysanmi?

— Yo‘q.

— Bekor qilyapsan! Yana o‘ylab ko‘r!

— Yo‘q! — boshini sarak-sarak qildi Iso.— Bo‘lar ish bo‘ldi.

— Bekor qilyapsan! — deb qaytardi Pontiy Pilat o‘ziga ishonqiramagan ohangda. Lekin ichidan zil ketdi. Iso Nazarlining matonati uni lol qilib qo‘ygandi. Shu bilan birga u Isoning o‘z ahdidan qaytishini, tavba-tazarru qilib, rahm-shafqat so‘rashini xohlamasdi. Iso ham barini tushundi.

— Ko‘p yonaverma,— tabassum qildi u salimona.— So‘zlarin chin dildan deb ishonaman. Seni

tushunib turibman. Men ham yashagim keladi. Adam ostonasida turganida odam hayotning qanchalar qimmatli ekanligini anglaydi. Onamga yuragim achiydi. Men uni juda ham yaxshi ko'raman, bolaligimdan beri yaxshi ko'raman, lekin buni o'ziga aytgan emasman. Lekin, nima bo'lmasin, Rim noyibi, esingda tut: sen bir odamning jonini qutqarishing mumkin edi. Senga buning uchun ming-ming tashakkur. Men esam, ko'pni xalos etishim, hatto bizdan so'ng keladiganlarni ham xalos etishim kerak.

— Xalos etish deysanmi? Sen yer yuzida bo'lmasang ham, xalos etasanmi?

— Ha, buning uchun jisman odamlar ichida bo'lishim shart emas.

— O'zingdan ko'r. Bu gapga boshqa qaytmaymiz,— qat'iy qilib dedi Pontiy Pilat yana tavakkal etishlikni istamay.— Ammo oxirgi savolimga javob bersang devdim...— dedi u taxt oldida tik turib qolgancha o'siq qoshlarini uyub o'ylanarkan.— Hozir gaplashish senga malol kelmaydimi? — deb so'radi u bir oz jim qolgandan so'ng o'zini Isoga yaqin olib.— Agar og 'irlik qilsa, o'zingni, mayli, zo'rlama, men seni ushlab o'tirmayman. Seni G'ulqofda kutishyapti.

— Ixtiyor senda, hukmdor, amringga muntazirman,— deb javob berdi Musohib va hukmdorga tiniq ko'kko'zlarini tikdi. Uning nigo-hida aks etgan fikr-hayoli qudratidan prokurator tong qoldi. Go'yo uni tog'da o'lim javri kutmayotganday.

— Tashakkur,— deb minnatdorchilik bildirdi Pontiy Pilat kutilmaganda.— Unda mening oxirgi savolimga javob ber. Shuni bilmaguncha tinchimayman. Ozod odamlar kabi ochiq so'zlashaylik. Men senga bog'liq emasman. Sen ham butkul erk bo'sag'asida turibsan. Demak, ochiq gaplashsak bo'laveradi,— dedi u o'z joyiga o'tirarkan.— Ayt-chi, sen o'z tarafdrorlaringga, shogird - cho'liqlaringga meni mabodo qatl etsalar, uchinchi kun deganda tirilaman va qutlug' bir kunda qayta dunyoga kelaman, barchani, olam yaralgandan beri yorug' jahonga mehmon bo'lgan jamiyki odamlar nasllarini va hatto endi tug'ilajak avlodlarni qiyomat so'rog'iga tutaman, degamisan? Men sening aqidalaringga ishonmayman. Ammo bu sening olamga ikkinchi bora tashrif buyurishing bo'larmish. Shundaymi?

Iso, gap bu yoqda ekan-da, ana xolos, deganday g'alati iljaydi. Og'irligini muzday tosh ustida u oyog'idan bu oyog'iga olib, javob bersammikin yoki shart emasmi, degan kabi bir zum sukutga toldi.

— Bu havoyi gaplarni Iuda Iskariot aytgandir-da?— so'radi u kinoya bilan.— Sen bundan juda tashvish chekyapsanmi, hukmdor?

— Men Iudaning kimligini bilmayman. Lekin menga zoti bobarakotlar, muhtaram oqsoqollar aytishdi. Demak, bularni bari bekorchi gaplarmi?

— Nima deb o'ylasang, ixtiyor, — sovuq javob berdi Iso.— Hech kim senga aqlingga to'g'ri kelmagan narsani qabul qil, demaydi.

— Men hazillashayotganim yo'q, jiddiy aytyapman,— deb ishontirishga shoshildi hukmdor.— Sen bilan bunday yurakdan gaplashadigan boshqa imkoniyat bo'lmaydi. Shuning uchun so'radim. Seni bu yerdan olib ketadilaru so'ng hech qachon qaytib kelmaysan, axir. Ammo o'zim uchun bilib olmoqchiman. Tug'ilmay turib, yana qanday qilib o'lgandan so'ng olamga qaytib kelish va tirik jonlarni so'roqka tutish mumkin? Qaerda bo'ladi bu so'roq? Osmondami, yerdami? Abadiy rohat-farog'at topmoqlik uchun imon keltirganlar seni qancha, uzoq kutishlari kerakmi? Ijozat ber, oldin bu haqdagi o'z fikrimni aytay? Nimani mo'ljal qilganining bilish qiyin emas. Har bir odam narigi dunyoda rohat-farog'atda, tinchgina bo'lsam, deydi. Sen shuni nazarda tutgansan. E, bu bebaqo odam, mudom bir narsalarni ta'ma qilib yuradi, mudom nimagadir tashna, och. Mudom uni va'dalar bilan tuzoqqa ilintirish mumkin. Hatto narigi dunyoda ham ular orqangandan itday ergashib boradilar. Ammo, mayli, ey nabiy, sen aytgancha ham bo'la qolsin, hayot shaming so'nib tugamoqda, uni faqat ozgina suhabat qilib, cho'zishga qurbimiz yetadi...

— Menga qolsa, cho'zilmasa ham mayli.

— Ammo mening savolimga javob bermay ketmassan, axir. Nazarimda, bunday qilib ketish — o'limdan ham yomon.

— Mayli, so'yayver.

— Faraz qilaylik, sening aqidalaring to‘g‘ri. Unda nega aytmaysan sening ikkinchi qayta dunyoga kelishing qachon bo‘ladi? Agar odamlarga juda uzoq, haddan tashqari uzoq kutishga to‘g‘ri kelsa, buning ularga nima keragi bor? Butun umri davomida ro‘yobga chiqmagan narsadan odam bolasiga nima naf? Undan keyin, rostini aysam, bunday aqlga to‘g‘ri kelmaydigan havodisni kutib yurishni hatto tasavvurga ham sig‘dirib bo‘lmaydi. Yohud, ko‘r-ko‘rona ishonib, kutish kerakmi? Nima beradi bu? Qanday foyda chiqadi bundan?

— Sening ishtibolaring tushunarli, Rim hukmdori. Sen bamisol yunon ustozlarining kabi to‘pori va dunyoviy fikr yuritasan. Ranjima, bu so‘zimdan. Hozir qoshingda foni kimsa kabi turibman, bemalol tortishaver. Buning ustiga sen bilan ikkimiz turli-tuman odamlarmiz —xuddi o‘t va suvdek. Fikrlaganda ham boshqa-boshqa tomondan yondashamiz. Senga tinchlik bermayotgan narsa haqida aytmoqchiydim, hukmdor... Ikkinci marta dunyoga qayta kelishlikni uzoq kutish kerak bo‘ladi, bu to‘g‘ri. Sen haqsan. O’sha kun qachon keladi, buni hech kim aytib berolmaydi. Bu olam yaratganning izmi-irodasiga bog‘liq. Bizning nazdimizda ming yillar cho‘ziladigan hodisotlar uning uchun ehtimol bir zimgina davom etadi. Ammo mohiyat boshqa yerda. Yaratgan bizga dunyodagi eng qutlug‘ ne’mat — aql-hush ato etdi. Va bizga o‘z bilgimizcha yashash haqini berdi. Ushbu ilohiy tuhfani qanday tasarruf qilamiz, odamzod tarixlarining tarixi ana shu bo‘ladi. Odam tirikligining ma’nosini o‘z ruhoni darajasini kamolga yetkaza borishidadir. Odamda shundan o‘zga oliv omol yo‘q. Sen buni inkor qilmasang kerak, Rim hukmdori? Kun-bakun odam bo‘lmoqdan ko‘ra og‘irroq narsa yo‘q odamga. Shu bois, sen ishonmagan kanni qanchalar uzoq kutish-kutmaslik, hukmdor, odam bolasining o‘ziga bog‘liq bo‘lib qoladi.

— Ana xolos! — Pontiy Pilat hayajonlanib o‘rnidan turib ketdi, taxt suyanchig‘idan ushladi. — Shoshma, shoshma. Nahot, bu odamlarning o‘ziga qarab qolgan, sira aqlim bovar qilmaydi! Men sening aqoyidingga ishonmayman. Buni tasavvurimga sig‘dirolmayman. Agar odamzod o‘z inonixtiyori bilan bunday hodisalarni yaqinlashtira yoxud uzoqlashtira olsa, ular Xudoga aylanib qolmaydilarmi?

— Balki, sen haqdirsan, Rim noyibi. Ammo men avvalo haqni ovozadan farqlab, ajratib olishni istayman. Haq borasidagi mish-mish — adoqsiz kulfat. Mish-mishu ovozalar bamisol suv tagidagi balchiq. Vaqt o‘tib balchiq yig‘ilib, chuqur oqar suvlar ko‘lmakka aylanadi. Hayotda doim shunday. Bashorat va azobu uqubatlar ichra topilgan, odamlarning baxti-saodati uchun yaraydigan har qanday buyuk fikrlarni mish-mishu ovozalar chaynab-chaynab aloha buzadi hamda o‘zi va haqqa qarshi yovuzlikka do‘ndiradi. Mening aytmoqchi bo‘lgan gapim shuki, Rim hukmdori, sen ishongan o‘sha yolg‘on-yashiqlarning hammasi bu — mish-mish, haqiqat esa boshqa yerda.

— O’sha haqiqatni ochib bermaysanmi?

— Mayli, urinib ko‘raman. Musohabadan qochmay qo‘ya qolay. Axir, bu haqda oxirgi marotaba so‘zlayapman. Shuni yaxshi bilgilki, Rim hukmdori, Ollo-taoloning yozmish yo‘l-yo‘rig‘i bir kunmas-bir kun Bani Bashar xuddi yoz kezi chaqqan chaqmoqdek yer yuziga qaytib, elatlari ustidan qiyomat hukmini o‘qishidan emas, aksincha bo‘ladi, lekin maqsad o‘sha-o‘sha qoladi. Shahardan G‘ulqofga o‘tib borguncha yashash muhlati qolgan men emas, siz, odamlar Iso Masiho kabi yashaymiz deb, kelajaksiz, bilgisiz endigi nasllarga aylanib, oliv solihot ichra men tomon kelajaksiz. O’sha mening dunyoga ikkinchi kelishim bo‘ladi. Boshqacha aytganda, men azoblarim orqali odamlarda o‘zimga qaytaman, odamlarda odamlarga qaytaman. Gap ana shu haqda. Men vaqt ichida ming yillar orqada qolaman-u, lekin sizning kelajagingizga aylanaman. Ollo-taoloning yozmishi shu. Odam bolasini unga atalgan yaxshilik va go‘zallik taxtiga o‘tqazmoqning yo‘l-yo‘rig‘i shu. Mening va’zlarimning ma’nomazmuni ham shunda. Haqiqatan ham mumtoz g‘oyalarni bach-kanalashtirib yuboradigan ovozalar va yurimsak mish-mishlarda emas, xuddi mana shunda. Ammo bu inson nasllari uchun eng og‘ir va eng olis yo‘ldir. Seni, Rim noyibi, ana shu narsa xavotirga solayotgani to‘g‘ri. Bu yo‘l bugungi yozg‘iriq kundan, Xudo o‘g‘lining o‘ldirilishidan boshlanadi. Odamlarning gunohlarini yuvish, ularning ko‘zlarini ochish va ilohiy xislatlarni uyg‘otmoq uchun men bugun jonimni qurban qilaman. Mening

baxshida jonim har safar inson bolalarini titroqqa solajak. Ularni tavba-tazarru bilan yashamoqqa undayajak.

Men odamzod o'tadigan yo'llardagi shamchiroqman. Shamchiroq bo'lmoq uchun dunyoga kelganman. Odamlar mendan imdod kutib yashaydilar va azob-uqubatlar cheka-cheka, o'zlaridagi yovuzlik bilan olisha-olisha, illatlar, zo'ravonliklar, qonxo'rliklardan nafrat qila-qila men sari kelajaklar. Xudoga muhabbat bilan to'limgan dil illatlarga to'ladi. Inchunun, insonga muhabbat bilan limmo-lim bo'limgan dil ham, vovaylokim, o'likdir!

— To'xta, to'xta, Iso Nazarli. Sen odamni Xudo bilan bir deyapsanmi?

— Shunday desak ham bo'ladi. Men ham aniqrog'i, jamiyki bashariyat Xudoning yerdagi tajalliyisidir. Xudoning o'sha nusxasini — Xudo-Erta deyish mumkin. Bu olam yaralgandan beri unga tortiq qilingan cheksizlik Xudosidir. Ko'pgina istaklaring hammasi kelajakka qaratilganligiga e'tibor bergen bo'lsang, sezgandirsan, Rim noyibi. Bugun hayotni qanday bo'lsa, shunday qabul qilasan. Ammo ertani, albatta, boshqa ko'rishni xohlaysan. Bugun yaxshi yashab turgan bo'lsang ham, bari bir, ertaga undan yaxshi bo'lsin deysan. Shu sabab, yuraklarimizda umid Xudoning nuriday sira o'chmaydi. Xudo-Erta — cheksizlik ruhidir. Bir butun olganda, u hamma narsaning mohiyati, inson amallari va intilishlarining jamuljamidir. Ana shunga ko'ra, Xudo-Ertaning qandayligi — u go'zal bo'ladimi yoki xunuk, oqko'ngilmi yoki g'addor — bu odamlarning o'zlariga bog'liq. Mana shunday o'ylash joiz va zarur. Xudo-Yaratuvchi fikrlovchi xilqatlardan shuni talab qiladi. Shuning uchun yer yuzidagi ertangi hayot haqida odamlarning o'zları qayg'ursinlar. Axir, har bir odam Xudo-Ertaning ajralmas zarrotidir. Inson zoti o'zi kunining hokimi va bunyodkordir...

— Shoshma. Sening vahimali qiyomat kuni so'rovi deganining qayda qoldi?

— Qiyomat kun... U har kun boshimizdan o'tayotganini o'ylab ko'rmovmiding, Rim noyibi?

— Hayotimizning turgan-bitgani qiyomat kun demoqchimasman?

— Shunday bo'lsa kerak, Rim noyibi. Odam Atoni tavqi la'nat qilmoqdan boshlab, azob-uqubatlar, qiyonoqlar ichra o'tgan, asrlar bo'yı ma'lum bir odamlarning boshqa odamlar ustidan yurgizgan zulmlari tufayli yomonlikdan yomonlik, nohaqlikdan nohaqliknio ko'-paytirgan bu yo'l yorug' olamda istiqomat etayotganlarni bir narsaga o'rgatgandir, axir. Odam Ato va Momo Havo jannatdan quvilganlaridan beri qanday zulm o'pqonlari ochilmadi, odamzodning boshi ne urushlar, shafqatsizliklar, qotilliklar, quvg'inlar,adolatsizliklar, haqoratlarni ko'rmadi! Yaxshilikka qarshi, odam tabiatiga qarshi olam yaratilgandan buyon yer yuzida ro'y bergen barcha dahshatli gunohi azimlar — nima, bularning qaeri Qiyomat kun so'rog'idan kam? Tarixning azal vazifasi nima — aql egalarini shafqat va muhabbatning ilohiy yuksakliklariga yetkazishmi? Ammo odamzod tarixida ne-ne yomon sinoqlar bo'lindi? Oldinda esa ummonlarning to'lqinlari kabi qaynab, quturib turgan yovuzliklarning bosh-keti ko'rinnmayapti. Bu jahannamning Qiyomat kundan nima farqi bor, axir?

— Unday bo'lsa, Nazaretdan chiqqan Iso, sen tarixni uning yovuzligidan to'xtatib qolmoqchimisan?

— Tarixnimi? Tarixni hech kim to'xtatolmaydi. Men odam bolalarining onglari va xatti-harakatlaridan qabohatni quritmoqchiman. Men shunga qayg'uraman.

— Unda tarixning o'zi ham bo'lindi.

— Qanday tarix? Sen o'zing qayg'urayotgan tarixni aytyapsanmi? U tarixni nadomatlar bo'lsinkim, odamlar xotirasidan o'chirish mumkin emas. Lekin u bo'lmasaydi, o'zimizni Xudoga yaqinroq sezardik. Men seni tushunib turibman, hukmdor. Lekin chinakam tarix, insoniylik gullab-yashnagan tarix hali yer yuzida boshlangani yo'q.

— Sabr qil, Iso, hozircha meni bir chekkaga qo'yib turaylik. Ammo sen, Iso, odamlar va xalqlarni shu maqsadga qanday qilib yetkizmoqchisan?

— Adolat Saltanati tuzamiz. Unda Qaysarlar zo'ravonligi bo'lindi. Ha, shunday!

— Shuning o'zi yetarlimi?

— Agar hamma shuni xohlasa, albatta...

— Vo ajabo. Xayr, mayli. Men seni yaxshilab eshitdim, Iso. Sen uzoqni ko‘zlagan ekansan. Lekin sen o‘zingga haddan ortiq bino qo‘yib yubormadingmikin, odamlarning ishonchlariga haddan ziyod umid bog‘lamadingmikin, maydonlarning tuban ekanligini va tuproqqa qorilib yotishini unutmadingmikin? Shahar qal’asidan chiqqaning zamon sen bunga ishonch hosil qilasan hali. Birok sen hech qachon tarixning yo‘lini burib yuborolmaysan, bu daryoni hech kim burolmaydi. Men bir narsaga hayronman: nega hammadan burun o‘zing yonadigan o‘t yoqyapsan? Dunyo Qaysarlarsiz yasholmaydi. Birovlarning qudrati, shavkati boshqalarning tobelligi, muteligi. Sen dunyoni boshqacha, o‘zing to‘qib chiqqargan tartibga solaman, yangi tarix yarataman deb, bekor qilyapsan. Qaysarlarning o‘z xudolari bor. Ular sen o‘ylab topgan Xudo-Ertaga sig‘inmaydilar. «Erta»ning cheki yo‘q. Chegarasi yo‘q. U barchaga xuddi havo kabi bab-barobar tegishli. Zotan, barchaga barobar mansub bo‘lgan narsalarning qadr-qimmati ham yo‘q, o‘rni ham yo‘q. Shu boisdan Qaysarlar hamma va har narsaning ustidan hokimdirlar. Dunyoda hukm surib turgan Qaysarlar ichra shavkatli Tiveriy xudolarga suyuklidir. Uning dov-davlati — Rumo sultanati jahonning yarmini egallab turibdi. Men Tiveriy sha’n-shavkati ostida Yahudoda hokimlik qilyapman. Hayotimning ma’nosi shunda deb bilaman. Vijdonim pok. Mangu Muzaffar Rumoga xizmat qilmoqdan ortiq sharaf yo‘q menga!

— Har bir odam o‘ziga o‘xshagan boshqa biron odam ustidan hokimlik qilish uchun o‘lib-tiriladi. Sen bundan mustasno emassan, Rim noyibi. Hammadan yomoni ham shunda. Sen, axir dunyo shunday qurilgan-da, deysan. Qusurni har doim osongina oqlash mumkin. Lekin, bashar qavmining qarg‘ish tekkan joyi shu. Ammo kim buni o‘ylab o‘tiribdi? Lekin, bozor farroshlarining oksoqolidan tortib, dahshatli sultonlargacha hammasi giriftor bo‘lgan hokimiyatparastlik kasalligi — barcha yomonliklarning eng yomonidir. Bashariyat hali buning og‘ir jazosini tortajak. Hokimlik va yer da’vo qilgan xalqlar qirilib ketadilar, bir-birlarini tag-tomirlarigacha yo‘q qilib yuboradilar.

Pontiy Pilat musohibning so‘zini toqatsizlik bilan bo‘ldi va qo‘lini ko‘tardi.

— Bo‘ldi, bas. Senga shogird emasmanki, har bir so‘zingga some bo‘lsam. Yetar! Tilning suyagi yo‘q. Og‘izda nimalar qilmaydi kishi. Iso, sen qancha karomat qilma, bari behuda. Hokimlar boshqaradigan dunyoning boshqacha bo‘lishi mumkin emas. Uning tamal toshi shunga qo‘yilgan, shunga turadi abadul-abad: kuch kimda bo‘lsa — hokimiyat ham shunda. Dunyoning jilovini zo‘rlar o‘z qo‘llarida tutadilar. Osmonda yulduzlarni o‘z o‘rnidan ko‘chirib bo‘limganday, bu nizom ham hech qachon o‘zgarmagay. Qani, o‘zgartirib ko‘r-chi. Odamzod uchun bekor kayg‘uryapsan, hayotingni qurban qilganing bilan uni qutqarolmaysan. Odamlarni na ibodatgohlarda voyizlar va na ko‘kdan tushgan vahiyalar xalos etadi! Xuddi poda cho‘pon ortidan borganday, Qaysarlarga ergashadilar, ne’matlar va kuch-qudrat oldida ta’zimda turadilar. Hammadan ko‘ra berahmroq va hammadan ko‘ra shavkatiroq kimsani ko‘klarga ko‘taradilar, sarkardalarni va ular inson qonlarini daryo-daryo oqizgan, birovlarni hukmron, boshqalarni qul qilgan, xo‘rlagan janglarni og‘iz ko‘pirtirib maqtaydilar. Shuni shijoat ruhi deb ataydilar, avlodlardan avlodlarga qo‘sishlar bitib qoldiradilar, g‘oliblar sharofatiga yalovlar ko‘taradilar, karnay-surnaylar chalib olqishlaydilar; tomirlarda qon ko‘piradi, kasamyodlar aytildi — o‘zgalarga bir qarich ham yer bermaymiz deb, ontlar ichiladi; xalq nomi bilan qonli urushlar oqlanadi, zarurat deb tushuntiriladi; nasllar yurt g‘animlariga nafrat ruhida tarbiyalanadi: o‘z shahanshohimiz bor bo‘lsin, o‘zga shohning kuli ko‘kka sovurilsin, tiz cho‘ktirilsin, eli bandi qilinsin, yer-suvtlari tortib olinsin, ota-bobo zamonlaridan to hanuzgacha hayotning, umrguzaronlikning butun lazzati mana shunda emasmi, axir. Sen esa, Iso, bularning barini qoralab, la’nat tamg‘asi osmoqchisan, sho‘rlik-bechoralar, g‘arib-g‘uraboning holiga achinasan, hamma joyda xayru baraka bo‘lishini istaysan, inson — vahshiy hayvon ekanligi, vujudimiz tuz-namaksiz yasholmaganday bu hayvon ham urushsiz kun kechirolmasligini unutasan. Hali-zamon soqchilar qurshovida G‘ulqof sari qadam qo‘ysan. Jillaqursa, qatling oldidan, mana shu soatda nimada yanglishib, qayda sahvü-xatoga yo‘l qo‘yaningni bir boshdan o‘ylab ko‘rsang edi. Sen bilan xayrlasharkanman, bir narsani aytib qo‘yay! Sen yovuzlikning tomirini odamlarning had-hisobsiz hokimiyatparastligida, xalqlar hamda ellarni zo‘ravonlik bilan tobe qilinishida ko‘rasan, ammo bu

bilan o‘z gunohlaringni yanada ko‘paytirasan, zero, kim zo‘rlikka qarshi bo‘lsa, demak, zo‘ravonlarga qarshidir. Sen Adolat Saltanati tuzish niyatida Rum davlatiga qarshi chiqyapsan. Running kun sayin ortib borayotgan kuch-qudrati, butun jahon miqyosidagi hukmronligiga to‘sinq bo‘lmoqchisan, yolg‘iz shu bad niyating uchunoq seni yana uch karra qatl etsa arziyi!

— Buncha saxovat ne darkor, ey yaxshi hukmdor. Bir martasi ham yetib ortadi. Ammo gapimiz, mayli, chala qolmasin. Lekin, albatta, meni G’ulqofda kutaverib, jallodlar oftob tig‘ida sarg‘ayib ketgan bo‘lsalar ham kerak, bechoralar. Lekin gapimizni tugatib qo‘yaylik. Bu mening o‘lim oldidan oxirgi so‘rovim. Shunday qilib, Rim noyibi, seningcha haqiqiy kuch-qudrat zo‘ravonlikda. Lekin dunyoda boshqa bir kuch ham bor — bu yaxshilik kuch-qudrati. Bunga erishish, menimcha, qiyinroq va murakkabroq, ezgulik uchun urushdan ko‘ra ko‘proq matonat hamda sa’y-harakat kerak. Noyib, sen o‘limim oldidan mening eng so‘nggi musohibimsan, shuning uchun so‘zlarimga quloq sol. Men senga dilimni ochmoqchiman. Lekin sen cho‘chima. Sendan marhamat so‘ramoqchi emasman...

— Kulgimni qistatma.

— Shuning uchun ham oldindan pisanda qilib qo‘yyapman, xavotir olma deb. Endi buni faqat sengina bilasan. O’tgan kecha dilimga vahima tushdi. Avval nega besababdan-besabab bunday bo‘lyapti, deb o‘yladim. Hefsimaniyada havo dim emasdi. Tog‘lik bog‘da g‘ir-g‘ir shabada esardi. Faqat men o‘zimni qo‘yarga joy topmasdim. Dilim g‘am-hasrat, qo‘rqinchga botdi. Go‘yo yuragimdan ko‘kka musibat o‘rlay boshladi. Somelaram, musohiblarim uxmlamay menga dalda bermoqchi bo‘lishar, ammo baribir hech yengil tortmasdim. Qazovu qadarda bitilgan soat kelganligini ko‘nglim sezardi. Ostonaga o‘lim sharpasi yonboshlagandi. Shunda dahshatga tushdim... Axir, o‘lim har bir tirik jon uchun so‘ngsiz zulmat.

— Nega unday? — zaharxanda qilib qaradi Pontiy Pilat mahkumga. — Narigi dunyo nima bo‘ladi, Masihim? Axir, sen aytmovingmi, hayot o‘lim bilan yakun topmaydi deb?

— Yana mish-mishlarni tilga olyapsan, hukmdor! Narigi dunyoda ruhlar xuddi suv ustiga tushgan soyaday sassiz kezib yuradilar. Bu bilgisiz makonlararo bilgisiz hayollarning zuhrotidir. U yerlarga jism uchun yo‘l yopiq. Ul o‘zga koinot, ul bir hayotdirkim, uni aslo bilib bo‘lmas. Ul lomakonda vaqtning o‘tishi ham o‘zga, u yer vaqt bilan o‘lchanmagay. Holbuki, gapimiz o‘lchovlik hayot, yer yuzidagi hayot ustida borayotgan edi. Meni g‘alati bir his chulg‘ab oldi, go‘yo hamma narsalar menga begona bo‘lib qolganday edi. O’sha kecha Hefsiman bog‘ida tinchimni yo‘qotib, sovuq shamol kabi kezdim, soya kabi parishon edim, go‘yo koinot qavatlarida mendan boshqa idrok egasi qolmaganday edi, bamisoli yer uzra uchardim va na yorug‘ kun ichra va na zulmatli tun ichra biron-bir tirik inson bolasini ko‘rmasdim,— bari o‘lgan edi, barini so‘ngan yong‘inlarning qop-qora kul-ko‘roni qoplagan edi. Zamin keta-ketguncha xarobazorga aylangandi — na o‘rmon bor, na ekinzorlar, na dengizlarda kemalar bor, faqat olis-olis allaqaylardan juda g‘alati, elas-elash zing‘illagan ovoz keladi, xuddi shamol xislatlri ingirlaganday, xuddi tubsiz yer choxlarida temir ting‘irlaganday, xuddi qabrlar uzra qo‘ng‘iroqlar jingirlaganday, men esam ko‘k toqida qo‘rqinch va hasratga to‘lib yop-yolg‘iz par kabi uchib yurar, yuragimni yomon havl va xabar iztiroblari o‘rtar, mana, oxir dunyo ham yetib keldi, deb o‘ylardim. Meni bosgan hasratga sira chidab bo‘lmasdi: odamlar kayda qoldilar, axir? Men boshimni endi qayga qo‘yayin? Jonimga g‘alayon tushdi: mana, Rabbano, oxir kun, uni barcha inson nasllari intizor kutgan edilar, mana, Qiyomat, mana, idroknning intihosi, aqli xilqatning itmomi... Nega bunday bo‘ldi, qaydan bu halokat, qaydan bu tubsiz choh, nega o‘z tomirimizni o‘zimiz qirqdik, kuydirdik, hayolimga kelgan fikrdan dunyo ko‘zimga qorong‘u bo‘lib ketdi: mana, odamlarni sevganiningning jazosi dedim, mana, o‘zingni qurban qilganining uchun ajir. Nahot odamzodning qahrli dunyosi quturib o‘zini mahv etdi, xuddi o‘z zahri qotili bilan o‘zini o‘ldirgan chayonday. Nahot odamlarning odamlar bilan chiqisholmasligi, saltanatlarning saltanatlar bilan chiqisholmasligi, g‘oyalarning g‘oyalalar bilan chiqisholmasligi, takabburliklar va hokimiyatparastliklarning chiqqisholmasligi, mutlaq hukmronlik nash‘asini surgan buyuk Qaysarlaru tish-tirnog‘igacha qurollangan, son-sanoqsiz o‘zaro qirg‘inlarda qozongan g‘alabalari bilan keriladigan, munofiqona hamdu sanolar o‘qiydigan va qul kabi ko‘r-

ko‘rona bo‘yin egib, ergashib boradigan xalqlarning chiqisholmasligi shu vahshiyona xotimaga olib keldi? O’ziga ato etilgan ilohiy aql tuhfalarini olam dashtiga olib ketgan yunonlarning yer yuzida qoldirgan narsalari hali shumi? Xudoyo, dilimga isyon tushdi, nega ularga aqlu idrok, til-zabon berding, nega ularning qo‘llariga erk ato etding, o‘zlarini o‘zlar qiyratsinlar dedingmi, jannatday zaminni boshdan-oyoq sharmandagarchilik mozoristoniga aylantirsinlar, devdingmi! Men shunday yig‘lar, gung-soqov dunyoda yakka-yolg‘iz faryod chekar, qismatni qarg‘ar va Xudoga nola qilib aytardimki, Sening jur’ating yetmagan ishni Odamning o‘zi gunoh ichra ado etdi... Ha, bilib qo‘yki, Rum hukmdori, oxir dunyo men tufayli emas, tabiiy ofatlar tufayli emas, odam bolalarining dushmanchiligidan keladi. Sen hokimiyatingdan mast-alast bo‘lib sharaflayotgan o‘sha g‘alabalar va o‘sha dushmanchiliklardan keladi...

Iso nafasini rostlab, so‘ng davom etdi:

— O’tgan kecha ko‘zimga shunday narsalar ko‘rindi. Uyqum qochdi, uzoq-uzoq o‘yga botdim, duo o‘qidim, ibodat qildim, imon kamarini mahkam bog‘ladim, somelarimga Padarim inoyatidan yetgan surat haqida so‘ylab bermoqchi edim, shu payt Hefsiman bog‘ida ifrot ko‘p xaloyiq paydo bo‘ldi, ular ichida Iuda ham bor edi. Iuda tez kelib meni quchoqladi va o‘pdi, uning lablari juda sovuq edi. «Xushvaqt bo‘l, Ravvi», dedi u menga. Xaloyiq bilan oldindan kelishib olgan ekan: «Men kimni quchoqlab, o‘psam, o‘shani ushlanglar», deb. Shuning uchun ular meni tutdilar. Mana endi, men sening qoshingda amringni kutib turibman, Rum noyibi. Bilaman, endi G’ulqofga borishim kerak. Illo, menga marhamat ko‘rsatding. Men bir narsadan roziman. U ham bo‘lsa, o‘limim oldidan senga kecha Hefsiman bog‘ida boshimdan kechganlarni aytib bera oldim, hukmdor.

— Rost, hamma gaplarining eshittdim. Lekin hammasiga meni ishondi deb o‘ylaysanmi?

— Ishonsang ham, ishonmasang ham, o‘zing bilasan, Rum noyibi. To‘g‘risi, ishonmagan bo‘lsang kerak. Sen bilan men butunlay boshqa-boshqa o‘ylovli odamlarmiz. Ammo shunga qaramay, menga quloq solding. Sen o‘zingga o‘zing men hech narsani eshitmadim deyolmaysan-ku va o‘z-o‘zingga bu haqda o‘ylashni man etolmaysan-ku. Men esam, o‘zimga qanoat beramanki, Hefsiman bog‘ida menga ochilgan karomatni go‘rga olib ketmay, ayon qilib ketmoqdaman. Vijdonim ham endi rizolik topdi.

— Ayt-chi, Masiho, sen odam hodis bozorlarda fol ochmovdingmi?

— Yo‘q, hukmdor, nega unday deb so‘rayapsan?

— Ajabo, sening o‘yin qilayotganiningni ham, yoki bo‘lmasa, umuman hech narsadan qo‘rmasligingni, o‘lim azobiga tik borayotganligingni ham bilolmayman. Nahot, nimani ayta oldim-u, nimani ayta olmadim, kim quloq soldi-yu, kim solmadi, degan narsalar o‘limingdan keyin ham seni shunchalar qiziqtirsa? Kimga kerak bularning bari? O’tkin-chi gaplar emasmi bular, o‘sha-o‘sha, eski hammom, eski tos?

— Unday dema, hukmdor. Bu o’tkinchi gap emas! Axir, o‘lim oldidan o‘ylaring to‘g‘ri Xudo dargohiga yetadi. Xudo odam bolasi o‘lim oldida nima deb o‘ylashiga qaraydi. Barcha tirik jonlar ichra eng oliy xilqat kabi yaratilgan odamzod hakida Xudo shu o‘ylarga qarab hukm chiqara-di. Zero, o‘ylar ichida eng so‘nggi o‘y doimo musaffo va haddan ziyoda samimiyyidir. Uning turgan-bitgani haqiqatdir, mug‘ambirlikdan holidir. Yo‘q, hukmdor, ma’zur tut, lekin men sen o‘ylagancha o‘yin qilayotganim yo‘q. Sabiy choqlarimda o‘yinchoqlar o‘ynaganman, xolos. Mening qiyonoqlardan qo‘rqish-qo‘rmasligimga kelganda, yashiradigan joyi yo‘q, men boya aytdim. Qo‘rqaman, juda qo‘rqaman! Men Rabbil olamindan, arxamar-rohimin Padarimdan iltijo qilamanki, taqdirda borini ko‘rgali menga sabru toqat ato etgay, ongsiz maxluqotlar kabi dod solmagayman, jon topshirar mahalda sharmisor qilmagay meni... Mana, men tayyorman, Rum noyibi, meni ortiq tutib turma, andarmon qilma. Vaqt yetdi...

— G’ulqof seni kutyapti. Necha yoshga chiqding, Iso masihim?

— O’ttiz uchni to‘ldirdim, hukmdor.

— Juda yosh ekansan! Mendan yigirma yosh kichik,— rahmi kelib dedi Pontiy Pilat boshini chayqagancha o‘yga tolib:— Bilishimcha, so‘qqaboshсан, o‘zingdan keyin qoladigan yetimchalar

yo‘q. Vo darig‘o...— U jim bo‘ldi. Yana nimadir demoqchiday og‘iz juftladi-yu, lekin fikridan qaytdi shekilli, indamadi. Andisha qildi. Ayol zoti bilan qovushganmisan?— deb so‘ragisi keldi uning. Lekin so‘rolmadi. Xotin kishi kabi ezma-churuk ko‘rinishdan istihola qildi. Erkak odamning gapi emas bu.

Shu asno ko‘zi Isoning ko‘ziga tushdi. U nima deb so‘ramoqchi bo‘lganligini fahmlabdi. Lekin bunday savolga javob berishni o‘ziga or deb biladi. Isoning mildiragan suvday tiniq ko‘k ko‘zlariga sharpa tushganday bo‘ldi, u tumtaydi. «Ko‘rinishdan shunchalar yuvosh, mo‘min, lekin tog‘day qudrati bor!»— hayratlandi Pontiy Pilat yerga sirg‘alib tushgan sandalini oyog‘i bilan qidirarkan.

— Mayli esa,— deb gapini boshqa yoqqa burdi u ayol xususidagi savol o‘rnini boshqa narsa bilan qoplash taraddudida.— Qulog‘imga chalingan ediki, sening otang yo‘q emish, to‘g‘rimi?

Iso oppoq tekis tishlarini ko‘rsatib, ochiq yuz, oqko‘ngillik bilan jilmaydi.

— Bir chekkasi rostdir balki.

— Aniqrog‘i-chi?

— Rost, rost, yaxshi hukmdor,— deb tasdiqladi Iso Pontiy Pilatning jahli chiqayotganini ko‘rib. Ochig‘ini aytganda bu savol hukmdorga munosib emasdi.— Meni Illohiy Padarim Muborak Ruhga opichlatib yer yuziga qo‘yib ketgan.

— Barakalla, endi boshqa hech kimning boshini bunday gaplar bilan aylantirolmaysan,— lablarini bazo‘r qimirlatib, horg‘in dedi prokurator.

— Bo‘lmasa, voldang kimdir?

— U Galiliyada yashaydi. Ismi Maryam. Sezib turibman, bugun yetib kelsalar kerak. Kechasi bilan yo‘l yurdilar. Bildim.

— Bilmadim, farzandining holi uni ne ko‘ylarga soladir,— tundvash dedi Pontiy Pilat Nazaretdan chiqqan devona bilan cho‘zilib ketgan suhabatga nihoyat chek qo‘yish niyatida.

Shundan so‘ng basavlat, kallador, basharasi yirik, ko‘z qarashlari qattiq, yelkasiga oppoq yopinchiq tashlagan prokurator Ark ayvonining ravoqlari ostida qaddini rosladi.

— Alqissa, oxirgi marotaba aniqlab qo‘yaylik,— dedi u qat‘iy qarorga kelganday.— Otang kim edi? Oti — Yusuf, voldang — Maryam. Nazaretda dunyoga kelgansan. Yoshing o‘ttiz uchda. Bo‘ydoqsan. Bolalaring yo‘q. Xaloyiqni isyonga chaqirgansan. Ulug‘ Baytul muqaddasni buzib tashlayman va uch kun ichida yangisini bino qilaman, deb g‘alayon ko‘targansan. O‘zingni payg‘ambar, Yahudoning podshohi deb gap tarqatgansan. Sening muxtaras tarixing mana shunday.

— Mening tariximni gapirib o‘tirma. Lekin senga aytib qo‘yay: Sen tarixda qolasan, Pontiy Pilat,— ovozini ko‘tarmay ohista so‘zлади, Iso hukmdorning yuziga tik va jiddiy boqib.— Butkul qolajaksan.

— Qo‘ysang-chi!— ensasi qotib qo‘l siltadi Pontiy Pilat. Baribir Isoning bu gapi unga ma’qul tushdi. Ammo birdan ovozini o‘zgartirib, tantanavor tusda dedi:— Tarixda shavkatli imperator Tiveriy qoladi. Unga shon-sharaflar bo‘lsin. Biz esa uning sodiq navkarlarimiz.

— Baribir tarixda sen qolasan, Pontiy Pilat,— o‘jarlik bilan takrorladi Quddusdan chiqib, G’ulqof sari borar zot...

Kimnidir intizor kutganday erta tongdan beri Irod saroyi uzra charx urib aylanayotgan qarchig‘ay, burgutmi, bir qush nihoyat davra o‘ramoqni bas qilib, xavfli jinoyatkor kabi kishanband etilgan, Yahudoning hukmdori Pontiy Pilatga bunchalar uzoq musohib bo‘lgan, hozir esa necha o‘nlab soqchilar qurshovida qatlgoh sari olib ketilayotgan zot ortidan ohista-sekin ergashdi.

Hukmdor esa hamon Ark ayvonida G’ulqof tomon ketib borayotgan kimsa izidan uchgan mutag‘ayyir qushga hayrat va qo‘rquv ichra tikilgancha turardi...

— Bu ne sinoatdir?— pichirladi hukmdor taajjubot va tashvish ichida...

### III

Yog‘aman-yog‘aman deb, yoz yomg‘iri anchagacha yog‘may, kecha oqshomdan beri ufq betida

qorayib, to'lishib, bag'rida yalt-yult chaqinlar chaqib turgan yurg'un bulutlar tun yarim kechadan oqqanda nihoyat quyib berdilar. Yirik marvarid tomchilar qaqrangan yerga shatir-shatur urilib, suvlar sharillab oqa boshladi, yomg'ir Avdiy Kallistratovning yuziga ham sepalab hushini o'ziga keltirdi. Bu hayotning ajib tortig'i edi.

Avdiy poezddan tashlab yuborganlarida pastga qulagan ko'yi temir yo'l bo'yidagi chuqurlikda yotardi. Hayoliga dastlab shu fikr keldi: «Qaerda yotibman? Yomg'ir yog'yapti shekilli?» U ingrab, surilmoqchi bo'l-di, biqinidagi dahshatli og'riqdan chinqirib yuboray dedi, boshi cho'yanday og'irlashib ketgandi, u yana hushini yo'qotdi, lekin bir oz vaqtidan so'ng ko'zini ochdi. Xaloskor yomg'ir uni hayotga qaytardi. Yomg'ir saxiylik bilan sharros solib quyar, suv tepadan Avdiy yotgan chuqurga sharqirab oqib tushardi. Yomg'ir Avdiy atrofida zo'r berib chuchvara tugar, suv halimazotda uning tomog'igacha kelib qoladi. Avdiy o'zini qo'lga olmay iloji yo'q edi, bu xatarli joydan chiqish payiga tushdi. Dastlabki daqiqalarda shalayim va karaxt tanasini harakatga keltirish azobi azim bo'ldi. Avdiy tirik qolganiga ishongisi kelmasdi. Axir, vagonda uni qon qaqshatib kaltaklashmadimi, shiddat bilan borayotgan poezddan berahmlarcha tashlab yuborishmadimi, lekin, qarang, u tirik-ku, va bularning bari hech narsaga arzimaydi, qanday bo'lmasin, u tirik ekan! Joni chiqmagan ekan, mana surilishi, harakat qilishi, ko'rishi, eshitishi, emaklashi mumkin. Manavi chelaklab yog'ayotgan oq yomg'ir ham qanday yaxshi! Uning qon qaqshagan badanlariga shunchalar ham yoqyaptiki, qo'l-oyoqlariga darmon bo'lyaptiki! G'uvillab, qizigandan qizib ketayotgan boshiga shifo bo'layotganini aytmaysizmi! Kuchi yetgancha tepaga surilaveradi. Tezda tong yorishadi. Ertalab bo'ladi. Tag'in hayot, umrguzaronlik boshlanadi... O'shanda u nima qilish kerakligini o'ylab topadi. Hozir esa bir amallab oyoqqa turib olsa bas...

Bu orada jala va tun qorong'iligini yoraroq biri ketidan biri poezdlar guldirab o'tdilar... U shunga ham xursand edi. Nimaiki hayotdan nishona bersa, uni behad quvontirmoqda edi...

Avdiy qo'lidan kelgan taqdirda ham yomg'irdan qochishni istamasdi. Yomg'ir butun vujudiga qayta jon ato etayotganligini his qilib turardi. Qo'l-oyog'i butun bo'lsa, bas. Shilingan, tilingan, lat yegan bo'lsa ham mayliga, hatto biqinidagi og'riq ham chikora, chidaydi... U bir amallab bexatarroq yerga, tepacha ustiga sudrala-sudrala chiqib oldi. Endi butun vujudini yomg'ir ixtiyoriga berib, nafasini rostlardi...

Shunday qilib, u adam sahrosidan yana tiriklik dunyosiga qaytdi va hayotining tub mazmunini yana bir boshdan tiklashga kirishdi. Fikr-o'ylari ajoyib bir ravshanlik va salmokdorlik kasb etayotganligidan hayrati ortdi...

Shunda u Pontiy Pilat huzuridan G'ulqof sari olib ketilayotgan Zotga aytdi: «Yo ravvi, men shu yerdaman! Yo ravvi, Seni xalos etmoq istayman, ne qilay, ne qilayin? Seni nechuk qutqarib olayin? Men yana hayotga qaytdim. Sening holingni o'ylab meni vahim bosyapti!»

Inson ba'zan, hayolan bir paytning o'zida yuzlab, minglab yillar bilan ajratilgan vaqt bo'laklari ichra yashay oladi. Bunday tarixiy holat tasavvur qobiliyatini yo'qotmagan har bir odamda bo'lib turadi. Biroq o'tmish voqealarini ko'z o'ngidagi borliq kabi yaqin ko'radigan odam, uzoq o'tgan kechmishlarni xuddi o'z jonajon ishi, o'z taqdiri deb biladigan odam, haqiqiy jafokash, riyozaq egasidir, zero, u yoxud bu voqealarning borishiga hech qanday ta'sir ko'rsatolmay, faqat dard-alam chekadi va o'zini hech qachon amalga oshmaydigan adolatning tantanasiga qurban qiladi. Kechmish kun haqiqatini tiklash va tasdiqlash muqaddasdir. G'oyalar mana shunday tug'iladi, yangi nasllarning oldingi va undan ham, ana undan ham oldingi avlodlar bilan ruhiy chatishuvi shunday ro'y beradi, dunyo shu bilan ustivor, hayot tajribalari doim ortib, ustma-ust, qavat-qavat bo'lib boraveradi — yovuzlik va ezgulik nasllardan nasllarga bitmas-tuganmas xotira iplari kabi, bitmas-tuganmas tirik vaqt va tirik makonlar kabi ko'chib o'taveradi...

Darvoqe, shuning uchun aytilgankim, kuni kecha o'tganlar bugun nima bo'lishini bilmagaylar, lekin bugun kun kechirayotganlar kecha nimalar bo'lganligini bilgaylar, ertaga esa bugunning kishilari

kechagi kun kishilariga aylangaylar...

Darvoqe, yana shuning uchun aytulgankim, bugunning odamlari o'tgan kun ichra yashagaylar, lekin erta kun dunyoga kelguvchilar bugunni unutsalar, bu endi kulfat, hamma uchun kulfat...

Avdiy o'sha kun, pasxa arafasi kuni hayajonini bosa olmas, umidsizlikka tushardi. Havoning hali issig'i qaytmagan arafayi hayit oqshomi past shahardagi sahabalar mahfuz kechaga yig'ilgan go'shani axtarib topishga urinardi. Shu go'shada u non ushatdi, bu mening xilqatim dedi, may quyib uzatdi, bu mening halol qonim dedi, axir, o'shanda bostirib kelayotgan xatardan, Iuda Iskariotning xiyonatidan ogoh qilmoq mumkin edi, ushbu qo'rquinchli shaharni darhol tark etish, zudlik bilan yo'lga otlanish mumkin edi. Xufton cho'kib borardi. U qiyshiq-qing'ir, ilonizi ko'chalarda charx urib aylanar, o'sha go'shani izlar, xuddi bu yerda tanishi uchrab qoladiganday piyoda, ot-ulov mingan o'tkinchilarining yuzlariga tikilib qarardi. Lekin, na uylariga kechki taomga oshiqayotgan va na do'konlar yopilmay burun tez-tez kirib chiqayotganlar orasida u dardini aytgali bir kimsa topolmadi. Aksaran o'tkinchilar esa Iso Masiho kimligini hatto bilmas ekanlar. Shaharda daydib yurganlar kammi? Bir rahmdil kishi uni qo'yarda-qo'ymay uyiga olib ketib mehmon qilmoqchi bo'ldi. Ammo Avdiy minnatdorchilik bildirib, rad etdi. U Murabbiyni xavfdan ogoh qilmoqchi edi. Ko'p hayajonlanganidan, darchalardagi chiroq shu'lalaridan, o'choqlarda qaynayotgan turli taomlarning xushta'm hidlaridan, salqin bo'lsin deb, yo'llar va hovlilarga sepilgan suvlarning havoga ko'tarilgan hovurlaridan uning boshi aylanib ketdi. Ko'ngli behuzur bo'ldi. Shunda Avdiy Hefsiman bog'iga qarab ketdi. Murabbiyni musohib va cho'liqlar bilan birga toat-ibodat qilayotgan bo'lsa, shu yerdan toparman deb o'yladi. Vo darig'! Bu yerda ham kech bo'lib qolgan, hech kimsa ko'rinmasdi. Bog' huvillab yotar, Murabbiyni qurolli olomon ushlab olgan katta anjir daraxti atrofi ham kimsasiz edi. Murabbiy bashorat qilganday musohiblarning hammalari tumtaraqay qochib ketgan edilar...

Moh olis-olis dengizlar va sohillar uzra suzar, tun yarmidan oqqan, subhi kozib pallasi yaqinlashgan, oqibati necha-necha asrlarga yetib ortadigan mash'um kun hademay otadi va u haqda insoniyat tarixida turli afsonalar to'qiladi. Biroq Hefsimanda va uning yon-atroflaridagi qirlarda yastanib yotgan uzumzorlaru bog'otlarda o'sha soatda sukunat hukmron edi. Faqat butazorlarda tun qushlari sayrashar, olamni baqa ovozlari tutgan, mangu uyg'oq Kedron esa kedrzor tog'lardan qadim tosh o'zanlaridan shaldirab, sharqirab, oy shu'lalarida yarqirab tushib kelar, necha-necha soylarga ajralib, bo'linib ketar, so'ng yana qo'shilib, bir ulug' oqimga do'nardi. Hammasi ming yillardan beri qanday bo'lsa, shunday sokin va osuda edi. O'sha kecha zamin farahbaxsh va farovon edi. Yolg'iz Avdiygina qo'nim bilmas, hammasi qanday bo'lishi kerak esa, xuddi shunday bo'lgan,— u garchi bari nima bilan tugashini bilsa-da, hech narsani to'xtolmas, hech narsaning oldini ololmasdi. U o'rtanib, kuyib yig'lar, Xudo-Ertaga yolvorar, ammo foydasi yo'q edi. Ushbu hodisot ro'y bergandan buyon bir ming to'qqiz yuz ellik yil o'tganiga qaramay, sira buni aqliga sig'dirolmas va o'zini axtarib o'tmish kunlar ichiga kirarkan, zamonlar osha evrila-evrila aloha uning taqdir ipi bog'langan ibtido sari hayolan qaytib bordi. Dam ming yillar qa'riga kirib, dam tag'in bugungi ko'z o'ngida bo'lib turgan voqelikka, yelkalari, boshini tinimsiz savalab yog'ayotgan dasht yomg'iri ostiga qaytib, dam hayol ummoniga tolib, dam barcha tafsilotlarni birma-bir aql tarozusida o'lchab, javob axtarardi.

Va xolis niyatda tarixga nisbatan andak o'zboshimchalikka yo'l qo'yari — Qiyomat haqidagi xiyla keyinroq yuzaga chiqqan fikrni bundan ancha ilgari yashab o'tgan odamlarga nisbat berar,— Avdiy shu xususda qanday bo'lmasin, Pontiy Pilatga aytilishini istardi. Binobarin, saltanatning har narsaga qodir noyibi Pilatning sharpasi hatto shu bugunga qadar hali butkul yo'qolib ketmagandi. (Axir, Pilat, bo'laman deganlar hozir ham ozmi?!) Avdiy Kallistratov voqealarni belgilashda shunday ilgarilab ketarkan, dunyoning azal qonuniyatlari garchi o'zlarini ancha vaqt o'tib oshkor qilsalar-da, lekin doim harakatda ekanligidan kelib chiqardi. Qiyomat kun g'oyasi ham xuddi shunday edi — insoniyat aqlini yer yuzida qilingan barcha adolatsizliklar uchun bir kunmas-bir kun olinajak qasos o'rtardi.

Inson ruhining o'z-o'zini anglash fojalari nega endi Isodan boshlanadi. Xuddi ilgari hammayoq bo'm-bo'sh bo'lganday? Kim o'zi Iso? Nimaga kerak bularning bari? Nahot mangu tavba qilib o'tmoq

uchun faqat bir bahona axtargan bo‘lsak? Va nima boisdan u to xochga ko‘tarilgandan buyon aqlar hamon o‘ziga kelolmaydi, hamon garang? Axir, o‘sandan beri qancha zamonlar o‘tib, juda ko‘p mangulikka da’vogar bo‘lgan narsalar unutilib, xoki turobga aylanmadimi? Bunda odamlarning hayoti kunba-kun kamolot kasb etib boradi, degan aqid doim esda turdimikin? Bugun yangi tuyulgan narsa ertasiga eskiradi, juda yaxshi deb topilgan narsalar ertaga undan ham go‘zalroqlari oldida o‘z tusini yo‘qotib, xiralashib qoladi. Shunday ekan, nega Isoning so‘zlari eskirmay, o‘z kuchini yo‘qotmay keladi? Uning tug‘ilishidan tortib, to xochga mixlanguncha bo‘lgan hodisalar va keyin undan nasllaru zamonlarga o‘tgan narsalar — nahot insoniyatga shun-chalar zarur edi? Nahot ulardan qochib qutulib bo‘lmazı? Va nihoyat, inson tarixida bu o‘tilgan yo‘lning ma’nosi nimadan iborat? Odamlar nimaga erishdilar? Nima qarorga keldilar? Natija nima bo‘ldi? Agar bundan ko‘zda tutilgan yashirin maqsad insonparvarlik, allomalar aytmoqchi, gumanizm g‘oyasi bo‘lsa, ya’ni aql-idrok ato etilmish xilqat sifatida insonning o‘z-o‘ziga tomon tashlagan qadami, ruhning o‘z ichida o‘zi intihosiz va adoqsiz kamolotga intilishi bo‘lsa, axir, bu yo‘l avval-boshdan shunchalar mushkul, og‘ir va shafqatsiz qilib solinadimi? Kim bunday qildi, nega? Odamlar har birlari o‘zlaricha talqin va tafsir etadigan nasroniy gumanizmdan to umumjahoniygacha, ijtimoiy-maxdud gumanizmdan to sinfiy va mutlaqo mavhum gumanizmgacha — shulsuz hayot kechirishlari mumkinmidi, yo‘qmi? Bizning asrimizga kelib, o‘sha yo‘lda allaqachon eskirib qolgan dinning ma’nosi nima?

Rostdan ham, nima keragi bor? Axir, hammaga va hat bolalarga bari allaqachon ma’lum. Axir, materialistik ilm-fan xristian va boshqa dinlarning aqidalar qabristoniga o‘z qozig‘ini qokib tashlamadimi, birdan-bir to‘g‘ri yo‘l — taraqqiyot va madaniyat yo‘lidan ularni qat’iyat va shahd-shiddat bilan supurib tashlamadimi? Hozirgi odam uchun dinga rioya qilish ehtiyoji yo‘qqa o‘xshaydi, unga kuni bitgan aqidalar xususida tarixiy ma’lumot bo‘lsa, kifoja. Axir, bularni bari o‘z kuchini yo‘qotdi, eskirdi, o‘tdi. Lekin biz nimaga keldik? O’sha rahm-shafqatli, fidoyi, hayotiy dunyoqarashlar tomonidan allaqachonlar achchiq kulgi ostiga olingan va yo‘l chekkasiga uloqtirib yuborilgan g‘oya evaziga biz nima topdik? Nimamiz bor bizning? Shunga o‘xhash yoki undan o‘tkirroq va ortiqroq nimaga egamiz? Axir, yangilik eskilikdan albatta yaxshi bo‘lishi kerakmasmi? Bor bizda o‘sha yangilik, bor! Yangi qudratli aqida tobora kuchga kiriyapti — bu ortiq darajadagi harbiy kuch-qudrat aqidasi. Inson bolasi kun-bakun, tug‘ilgandan to o‘lgungacha bu kuchlar urush chiqararmikin yoki o‘zini bosib turarmikin degan butkul vahima ichida yashaganmidi hech? Hozir shu qurol egalari xudo bo‘lmasa boshqa kim? Farki shundaki, hozir topinmoq uchun mehroblariga yadro snaryadlari surati naqshlangan cherkovlaru, ta’zim va qulluq bajo keltirmoqqa generallar yo‘q, xolos... Nimasi din emas buning?

Avdiy Kallistratov gohida turmush-tutmush haqida ana shunday hayollarga berilib ketardi. Bu safar ham, tafakkurning o‘lchovsiz uzunligida u o‘tmish ichiga, o‘zidan necha zamonlar oldin bo‘lib o‘tgan voqealarga ular xuddi hozir ro‘y berayotganday, kirib bordi. Yangi suvlar ko‘hna qirg‘oqlardan shunday oqib o‘tadi. Shunda u o‘sha kunlarning ibtidosiga, hayit arafa — juma kuniga kaytdi. U Murabbiyni qidirib topmoqchi, o‘z tashvish-nadomatlarini bayon qilmoqchi, necha yuz yillar kechib, so‘ng keladigan zamonlarning tahlikalarini aytmoqchi, tarix sahnasida yangi Xudo — o‘zining mufsid va hammabop dini bilan yer yuzidagi jamiki odamlar ongini zaharlagan, hatto harbiy kuchlardan ham ustun chiqqan Xudo-Guliat paydo bo‘lganligini ma’lum etmoqchi edi. Nima derdi bunga Murabbiy, ne dahshat, harosonlikka tushardi: harbiy ustunlik uchun quturib musobaqa o‘tkazayotgan insoniyat oxiri qaerga boradi, axir? Va mabodo, u ikkinchi marotaba bizning gunohlarimizni yelkasiga ortib, yana xoch uzra ko‘tarilsaydi, o‘shanda ham ta’qibkor va hujumkor ustun harbiy kuch dini tomonidan asoratga solingen odam bolalarining rahmini keltirolmasedi...

Biroq taassufki, u Murabbiyni topolmadi. Iuda sotgan va uni ushlab olib ketgan edilar. Va Avdiy huvillab yotgan Hefsiman bog‘ida barcha bo‘lib o‘tgan va endi bo‘lajak narsalarni o‘ylab yig‘lar, dunyoda o‘zini yolg‘iz sezardi. U shunday orqaga tisarila-tisarila, hali o‘sha zamonlar shimoldagi chakalakzor qorong‘i o‘rmonlarda yashaydigan, yog‘ochdan chopib yasalgan sanamlarga topinadigan,

va hali uning Avdiy degan ismini ham bilmaydigan bobokalonlari osha Hefsimanda hozir bo‘lgan edi. Avdiy ismi ancha keyinroq borib ma’lum bo‘ladi va uning o‘zi ham uzoq yigirmanchi asrda dunyoga keladi...

Avdiy Murabbiy ushlab olib ketilgan o‘sha anjir daraxti ostida uzoq yig‘lab o‘tirdi. Koshkiydi shuncha o‘rtangani, bag‘rini tig‘laganiga yarasha olamning ma’yus taqdiri o‘zgarsa...

Keyin o‘rnidan turdi. G‘amboda bir holda shahar sari yo‘l oldi. Tungi Quddus devorlari ortida xaloyik hayit arafasi osuda uyquga cho‘mgandi. Yolg‘iz u yuragi tahlikaga to‘lib, sarsari shahar kezar va yakkash suoqlardi: qani, Murabbiy, unga ne bo‘ldi? Keyin uning hayoliga hali ham kech emas, hali Murabbiyni qutqarish mumkin, degan fikr keldi va yo‘lida uchragan barcha darchalarni taqillatishga tushdi: «Odamlar, turinglar, xatar kelyapti! Hali vaqt bor, Murabbiyni qutqaraylik! Men uni Rossiyaga olib ketaman. Oka degan daryoda bir xoli orol bor...»

Avdiyning fikricha, daryo o‘rtasidagi o‘sha orolda Murabbiy har qanday xavf-xatardan emin bo‘ladi. Shu yerda u dunyoning buqalamunliklari haqida o‘y suradi. Ehtimol, shu yerda Unga yangi bashorat kelar va u olis-olis zamonlarga odamzod uchun yangi yo‘l topar va odamzodga yangi ilohiy barkamollik baxsh etar, toki shunda u o‘z zimmasiga ixtiyoriy tarzda ortgan mahdiulyolik burchi va maqsadi qonli yo‘llardan o‘tmagay, xorlik, xo‘rlik va azob-uqubatlarga giriftor bo‘lmagay. Holbuki, u devona odamlar vaadolat deb, shu barcha azoblarni o‘z ustiga olishga, ta’qiblarga dosh berishga tayyor! Ta’qiblar esa ashaddiy va shiddatkor! Axir, kelajak nasllarning baxt-saodati uchun u o‘sha halokatli vazifani o‘z zimmasiga oldi. Insonni azal adolatsizliklarga daxldorlik zulmidan xalos etish yo‘li tanlanganda bundan qochib qutulmoqning iloji ham yo‘q. Zotan, tabiiy narsalarda adolatsizlik bo‘lmaydi. U faqat odamlar o‘rtasidagina mavjud va odamlardan boshlanadi. Biroq, maqsadga shunday g‘ayritarixiy yo‘l bilan yetib bo‘larmakin? Ammo Murabbiyning ushbu sabog‘i inson o‘z shaxsiy manfaatlarini qondirish uchun intilganda, diyonat va imon ovozini o‘chirganda, bosganda, o‘zini oqlash uchun son-sanoqsiz bahonalar to‘qiganda, men yomonlikka qarshi yomonlik bilan javob berishga majbur bo‘ldim deganda, har safar unutilmasmikin? Shu saboq unutilmasligi uchun bir oz bo‘lsa-da, ishonch bormakin? Xilqatlar gultoji insonni farovonlik va kulfatlarda, qashshoqlik va dovvavlatmandlikda, hukm surganda va hukm surmaganda har doim unga hamroh halokatli. hirsuhavaslardan qaytarib bo‘larmakin? Xilqatlar toji insonni boshqalar ustidan hukmonlik yuritish ishtiyoqi hamda jazavasidan qaytarish mumkinmi? Mudom ko‘ngli-hushiga nima kelsa, shuni qilishdan qaytarish mumkinmi? Axir, o‘ziga bino qo‘yish va takabburlik inson kuch-qudratda bo‘lgan chog‘da uni xukm yuritish va zo‘rlik ko‘rsatishga undaydi, kuch-qudratdan ayrilgan choqda ham, yaldoqilik, munofiqlik va dog‘ulilik bilan yana o‘sha maqsad sari intiladi. Shunday ekan, hayotning asl ma’nosи nimadan iborat, asl maqsad nima, nihoyat, bu savolga kim javob bera oladi. Sofligi va haqqoniyligi hech kimda shubha uyg‘otmaydigan shunday javob bormi o‘zi?

Murabbiy, sen, inson yaxshilik va muruvvat yo‘liga kirsin deb og‘ir jazoni bo‘yningga olding. Axir, shu ikki narsa aslida oqilni ahmoqdan ajratadi. Inson yer yuzida qiynalib yashaydi, unda yomonlik tomirlari juda chuqur ildiz otgan. Hur fikr bilan qanotlangan aqlni, o‘zida yovuzlik sarqitini bamisol yuqumli kasallikday butkul quritgan va qaqshatgan mumtoz zotni — bizning mutlaq idealimizni shu yo‘l bilan tarbiyalab bo‘larmidi? Ox, qaniydi shunga erisha olsak! Illoho, nega o‘z ustingga shunchalar og‘ir yuk olding, tuzatib bo‘lmas dunyoni tuzataman deb? Xaloskorim, andak to‘xta, axir, sen ularni deb, o‘lim azobini qabul qilyapsanu, ular esa, keyin ustingdan kuladilar. Ha, ha, xa-xolab kuladilar, boshqalari esa minglab yillar o‘tgach, moddiy ilm-fan Xudoga bo‘lgan ishonch tamallarini batamom yo‘qotgandan, Sen boshdan kechirgan barcha narsalarni cho‘pchak deb atagangan so‘ng ayrimlari Seni mazax va masxara qilajaklar: «Savdoi! Tentak! Kim shunday qilsin dedi? Kimga kerak bu xochga mixlash tomoshasi? Kimni hayron qoldirmoqchi bu bilan? Nima berdi bu odamga? Uni qilcha bo‘lsin o‘zgartiroldimi, boshqacha qiloldimi?» Sening jasoratingni bema’ni deb topadigan nasllar ana shunday o‘layajaklar, Ular bu vaqtga kelib, modda qurilishining azal mohiyatini topajaklar va yerning tortish kuchini yengib, koinot qavatlari sari yo‘l olib, bir-birlari bilan ochko‘zlar kabi

osmonlarni talashajaklar, sayyoralarda hukmron bo‘lgali urinajaklar, olamning cheki bo‘lmasa-da, ularga baribir oz ko‘rinajak. Yer yuzida qo‘llaridan hech ish kelmagach, kibru-havolarga berilib va barcha narsalarni unga qurbon qilaroq, Sen Muruvvat tamalini o‘rnatmoqni hayol surgan zaminning kulini ko‘klarga sovurishdan ham toymayajaklar. O’ylab ko‘r, axir, ular o‘zlarini Xudodan ham yuqori deb turganlarida Xudoni tan olarmidilar. Hamma-hamma narsalarning kulini ko‘kka sovurmoqchi, Sening ham Xotirangni butkul yo‘q qilib tashlamoqchi bo‘layotganlar uchun Sen faqat majzubsan, xolos. O sho‘rlik, o sodda Murabbiyim, yur, birga Volga, Oka tomonga qochaylik, o‘sha daryo o‘rtasidagi xilvat orolga boraylik, u yer Sen uchun misoli ko‘kdagi yulduzday bo‘ladi, har yoqdan ko‘rinadi-yu, hech kimning qo‘li yetmaydi. O’ylab ko‘r, hali kech emas, ixtiyorimizda hali bir kecha va tong bor, balkim, Sen rahmsiz qismatdan qutula bilarsan? Hushingni yig‘, nahot Sen tanlagan yo‘l birdan-bir to‘g‘ri yo‘l bo‘lsa?

Azobdan Avdiyning ko‘zları lo‘killab og‘rir, u tungi dim Quddus ko‘chalarini tinmay kezar, Yaratgan tomonidan yer yuziga azobli va foje qismat uchun, odamlarga mangu sabok va zikr uchun yuborilgan Zotga o‘z fikrini uqtirishga urinardi... Lekin odamzodning tabiat shunday-ki, hech kim bu malomatni o‘z hisobiga olmaydi va har kim o‘zicha bahona qidiradi go‘yo buning unga hech daxli yo‘q, go‘yo dunyoning ishlari uning ishtirokisiz ham bitadi, nima bo‘pti, bitsa, bitaversin... O‘sha xolis niyatda qanchalar bitmas-tuganmas kinoya yashirinib yotibdi, inson tabiat shunchalar hisobga olinmagan unda...

Shahar darvozasi atrofida aylanib yurarkan, Avdiy uch oyoqli daydi itga duch keldi. It to‘rtinchilat yogan oyog‘ini qorniga bosib turardi. It Avdiyga munlig‘ va aqli ko‘zları bilan malqaydi.

— Nima qilib yuribsan, cho‘log‘im,— dedi u itni ko‘zdan kechirarkan.— Sen ham menday sargardon ekansan, menga ergash.

Shundan so‘ng, it to tong-azongacha Avdiy bilan sang‘ib yurdi. It juda ziyrak, hamma narsani tushunardi. Tong otdi. Shahar uyg‘ondi. Uning har kungi tashvish, yugur-yugurlari boshlandi. Bozorlar va maydonlar sahro badaviylarining, yuk ortgan tuyalari, turli-tuman mol-tovarlarga to‘la ot-aravalari, eshak-xachirlar, yelkalari, boshlarida narsa ko‘targan hammollarga tiqilib ketdi. Bozor qizigandan qizidi, ola-g‘ovur, oldi-sotdi avjiga mindi... Biroq, ko‘pgina Quddusi sharifliklar shaharning oq devorli ibodatgohiga qarab yo‘l olishdi, so‘ng olomon u yerdan qaynab-toshib Rum prokuratori Pontiy Pilat saroyiga tomon yurdi. Ularga Avdiy Kallistratov ham qo‘sildi: u gap Murabbiyning taqdiri ustida borayotganligini angladi. Olomon bilan birga Irod saroyiga yetdilar, lekin qo‘rollangan posbonlar ularni noyib qoshiga qo‘ymadilar. Ular saroy oldida kutib qoldilar. Kun ertalabdan qizigan, ammo xaloyiq hamon oqib kelardi. Turli-tuman odamlar bu yerga turli-tuman istak-xohishlar bilan yig‘ilmoqda edilar. Serg‘uluv olomon o‘rtasida nima gaplar bo‘lmaydi deysiz: birovlar payg‘ambar Isoni Rum noyibi o‘ziga berilgan huquq barobarida afv etadi, Quddusi sharifdan istagan tomonga chiqarib yuboradi, faqat bu yerga hech qachon qaytib kelmaslikni shart qilib qo‘yadi, deyishar, boshqalari esa o‘limga hukm qilinganlardan birini hayit sharafiga albatta ozod qiladilar va bu Iso bo‘ladi, deb aytishar, uchinchi birovlar Isoni Xudo Yaxvening o‘zi hammaning ko‘z o‘ngida qutqaradi, deb ishonishardi. Lekin hammalari ham saroyda nima bo‘layotganidan bexabar intizorlik bilan kutishardi. Olomon ichida tagi-tugi yo‘q taxtni deb, boshidan ayrilayotgan devona ustidan mazax qilib kulguvchilar ham topilar, nega noyib gapni cho‘zyapti, kallasini olish kerakmi, shartta olish kerak, adibadini ko‘paytirib nima qiladi, quyoshning qizdirayotganini qarang, hali kun peshingacha G‘ulqofda hamma oftobda sarg‘ayib adabini yeysi, deguvchilar ham yo‘q emasdi. Bu Iso deganga gap topib berib bo‘larkanmi? Istagan odamning boshini aylantirib tashlaydi. Albatta, u yerda hozir toza shakarguftorlik qilayotgandir, noyibni laqillatib o‘tirgandir, Xudo ko‘rsatmasin, noyib hali uni qo‘yib yuborishi ham mumkin, bu yerda ahmoq bo‘lib kutganimiz qoladi... Iso ham xo‘p g‘alati zot ekan-da, rosa va’dalarni quyuq kildi, lekin qani o‘sha Yangi Saltanati? Mana endi, o‘zini itday osib o‘ldirishadi... Shunday bo‘lar ekan-da dunyoda... Avdiy ularning gap-so‘zlarini eshitib, fig‘oni oshardi. «Uyalmaysizlarmi axir shunday degani! Noshukur, noinsof bandalar! Inson ruhining o‘z-o‘zi bilan

ulug‘ kurashini yerga urib bo‘ladimi, axir! Tahqirlamanglar uni! U bilan faxrlanish kerak, odamlar, uning ko‘zi bilan o‘zingizga qaranglar!»— ko‘ksini tig‘lab, ko‘zyoshlar to‘kib nola-faryod chekardi Avdiy Kallistratov, Quddus Sharif odamlari orasida. Lekin hech kim unga quloq solmasdi, birov hoy, sen ham bormisan deb, pisand qilmasdi. Axir, hali u uzoq yigirmanchi asrda tug‘ilishi ham kerak edi...

\* \* \*

Yarim kecha chelaklab quygan yomgir asta tina boshladi. Yana allaqaylarga jala bo‘lib yoqqani yo‘l oldi. So‘ng aloha tindi, faqat onda-sonda kechikkan tomchilarini tashlardi. Subhi kozib pallasi edi. Tip-tiniq osmonda yulduzlar charaqlab ko‘rindi. Lekin, osmonning tubi hali qorong‘u, faqat yomg‘irdan so‘ng ufq chetlari oqarmoqda edi. Nam yerdidan, tun bo‘yi yomg‘ir tagida bo‘y cho‘zgan o‘t-o‘lanlardan salqin ufurardi.

Lekin cho‘l jonivorlaridan hech qaysisi hayot nash’asini ushbu soat Avdiy Kallistratovday o‘tkir his qilolmasdi. Garchi uning ta’bi ochilmagan, lekin tirik hayotga chin dildan shukrona o‘qirdi.

Biroq Avdiyning omadi bor ekan: kuni kecha havo qattiq isigan, shuning uchun tunda unchalik salqin tushmagan, Avdiy sovqotmagan edi. Garchi u boshdan-oyoq yomg‘irga bo‘kkan, lat yegan, jarohatlangan joylari achishib, lo‘qillab turgan bo‘lsa ham, og‘riqni yengib, hayolini bir yerga to‘pladi, ravshan fikr yo‘rig‘i bilan o‘zini ayni vaqtning ichida ham uzoq o‘tmish, ham hozirgi damlarida tasavvur eta oldi. Endi hayot uning ko‘zlariga tamomila boshqacha ko‘rinar, uni qismatning tuhfasi deb qabul qilar, shu bois yashash va fikrlash imkoniyatini yanada ko‘proq qadrlardi. Yomg‘ir tingan choqda Avdiy temir yo‘l ko‘prigi ostida o‘tirar, bu yerga so‘nggi kuchlarini sarflab qorong‘uda bazo‘r sudralib kelgandi...

Ko‘prik osti bir oz bo‘lsa ham quruq edi. U xuddi sang‘illarday shu yerga kirib o‘tirdi. Boshini pana qilguday joy topilganidan; bemalol hayol surish imkoniyati tug‘ilganidan xursand edi. Ko‘prik tagi guldurosga to‘la, odam xuddi o‘rta asr jomesining yuksak ravoqlari ostida o‘tirganday bo‘lardi. Tepadan poezdlar o‘tganda uzoqlardan zambaraklar birvarakay o‘q yog‘dirayotganday va so‘ng mo‘ljalni asta boshqa yoqlarga olganday ko‘rinardi. O’sha kecha Avdiyning hayoli erkin qush misoli parvoz qildi. Fikr tug‘ilarkan, ruhni o‘z-o‘zidan hech qanday to‘sinq bilmay vaqt va makon cheksizliklari sari ozod ergashtirib ketardi. Avdiy dam Iso va Pontiy Pilat haqida o‘ylar, hayolan o‘sha zamonlarda sayr qilar, boshi tepasidan o‘tib borayotgan poezdlarning gulduros shovqin-suronlari o‘zini qadim Yahudoda G‘ulqof tog‘idagi sershikva olomon ichra tasavvur qilishiga xalal bermas va o‘sha yerda bo‘layotgan barcha voqealarni o‘z ko‘zlarini bila ko‘rayotganday bo‘lardi. Goh Moskvani, Pushkin muzeyiga borganini, bolgar ko‘shiqchilarini tinglaganini eslardi. Ko‘z o‘ngiga o‘ziga ikki tomchi suvday o‘xhash bolgar yigitni keltirar, hayolida uning yuzi, qo‘shiq aytayotganda katta ochilgan og‘zi jonlanardi. Ne oliy ohanglarni yaratardi bolgar qo‘shiqchilarining ovozlari, uning hayoli va dilini ne yuksak parvozlarga chog‘lardi ular! Otasi Dyakon Kallistratov cherkov qo‘shiqclarini jonu dili bilan yaxshi ko‘rar, eshitganda yig‘lab ko‘nglini bo‘shatardi. Bir kuni kimdir otasiga zamonaviy rohiba o‘qigan g‘aroyib duoni bergen edi. O’sha yoshgina juvon bolalar uyida tarbiyalangan, so‘ng shu yerda murabbiya bo‘lib qolgan, bir yarim oygina birga yashashgan sevgan yigitni urush yillari nemis suvosti kemasi cho‘ktirib yuborgan harbiy kemada halok bo‘lgach, rohibalik udumini qabul qilgan edi. Dyakon Kallistratov nadomat va salavot qo‘shilib ketgan o‘sha «ko‘ngil hujjati»ni har safar o‘qirkan, ko‘zyoshlarini tiyolmasdi. U, sabiy Avdiy uyning qizil puchmog‘ida eski pianino yonida tik turib, o‘smirlarga xos jarangdor toza ovozi bilan cho‘kib ketgan kema haqidagi salavotni qiroat qilib o‘qishini behad yaxshi ko‘rardi. Avdiy bolalar uyidan chiqqan qizning tilovatini yodlab olgandi:

«Osmon oqarib kelyapti, hali quyosh chiqmagan, hali hamma uyquda. Senga, har narsani Ko‘rguvchi va har narsaga Rahm qilguvchi ko‘ngildagi zorimni tilovat qilib aytaman. Xudoyo, o‘zing kechirgaysan, to Seni yod etmoqdan burun o‘z arz-dodimni esladim. Lekin men to tirik ekanman, shu tilovat bilan yashagayman.

Sen Rahimi Rahmonsan, Haqsan, Halloqsan, kechir, Seni o‘z arzim ila bezovta qilmoqdaman. Men o‘zim uchun so‘ramayman, menga dunyo rohat-farog‘ati darkor emas, umrim chirog‘ini uzaytirmasang ham mayliga. Yolg‘iz odamzod bolalarining dillarini xalos etmoqlikni tilayman. Sen G’affori Olamsan, ko‘ngillarimizga muhr bosma, jaholatda qoldirma, toki yaxshilik va yomonlik yorug‘ olamda birga mavjud ekan, bizni bahonai sabab zanjirlaridan xalos et. Odamlarning dil ko‘zlarini ochgaysan. O‘zim uchun so‘ramayman, tilim ojiz. Men har qanday ajr-oqibatingga hozirman — xoh jahannam o‘tiga tashla va xoh chek-chegarasi yo‘q Saltanatingga ol. Qismatimiz o‘z qo‘lingda, yo Halloq, yo Malloh!

Sening Rohibai qulingman, habiy kaloming somesiman, senga yakka-yolg‘iz bir arzim bor, o‘zga arzim yo‘q. Dilimni hayot va dunyo rohatidan, qayg‘u-nadomatidan, o‘tkinchi ne’matlaridan poku tabar etdim. Sening pok Ruhingga yetishmoq iltijosi bilan shunday qildim, Xudoyo.

Yolg‘iz shuni so‘rayman, mo‘jizangni ko‘rsat: mayli, o‘sha kema kechani kecha demay, kunduzni kunduz demay, o‘sha yo‘lida hech to‘xtamay davom etsin, to samo evrilmog‘ida kun tunga batamom quylguncha, tun kunga batamom quylguncha. Mayli, o‘sha kema to‘p-to‘pxonalarni og‘izlarini bog‘lagancha hech to‘xtamay ummonlardan ummonlarga suzib yursin, dengiz to‘lqinlari uvvos solib, shaldirab uning to‘silariga urilsin. Ummonning achchiq suvlari unga shovullab to‘kilsin, zarralar sochilsin, zarrachalar zarillab unga nafas bersin. U kema devorlarining qarsillagani, mashinalarning gursillagani, shamol bilan kemaga ergashgan chorloqlarning g‘ayqillaganini eshitsin. Mayli, kema eng uzoq ummonlarning eng uzoq sohillaridagi. oppoq shaharga yo‘l tutsin, lekin bari bir u yerga endi hech qachon yetolmagay...

Sendan tilagim ana shu, xolos. Tun-kun tilovat qilib, faqat shuni so‘rayman. Yo Rahimi Rahmon, mag‘firatingga begona qilmagaysan, kechir, cho‘kkan kemani tilovatimga qo‘shdim, arzimas dema. Sen umidlar dargohisan. Ohimiz dargohingga yetib borsin. Sen Qodirsan, Qahhorsan, Rahmonsan. Har narsaning boshi senda, oxiri ham senda. Senga yelvorib boramiz. Sendan najot so‘raymiz har kachon, har qayda. Men olamdan o‘tganda, sendan kim iltijo qiladi, kim yolvoradi Xudoyo, mayli o‘sha kema ummonlaringda, mangu-mangu ummonlaringda cheksizliklardan ham narida suzib yuraversin. Omin!»

O‘sha kecha rohibaning tilovati nima boisdan yana esiga tushganligini uning o‘zi ham bilmasdi. Agar Uchquduqqa mototsikl minib kelgan juvon uchrab qolsa, unga ham shu tilovatni o‘qib berardim, degan o‘y hayolidan lip etib o‘tdi va kulgisi qistadi. Avdiy beixtiyor kulib yubordi-da, e, bevosh tentak, dedi o‘ziga o‘zi va holiga maymunlar yig‘lab, sho‘riga sho‘rva to‘kilib, xuddi besar, bevatan o‘g‘ri-qaroqchilarday ko‘prik tagida shumshayib o‘ltirganimni u ko‘rib qolsa, nima bo‘lardi, deb tasavvur qildi. Kim deb o‘ylardi meni, tag‘in shu ahvolda unga kema haqidagi tilovatni o‘qib bermoqchiman. Qip-qizil devona-ku, derdi u va albatta, haq chiqardi. Bu alfozda uning ko‘ziga ko‘rinishdan nomus qilsa ham, lekin baribir uni juda ko‘rgisi keldi...

Avdiy tong oqarguncha ko‘prik ostida o‘tirdi, uning boshi ustidan qaldirab cho‘Ining poezdlari o‘tardi. Lekin, hammadan ko‘proq xumor choparlarni o‘ylardi. Qaerda ekan ular? Nima qilishayotgan ekan hozir? Jalpoq-Sozdan o‘tib olishgandir, yo‘lda ketishayotgandir. Qaerda hozir Petruxa, Lyonka va boshqalar? Xuddi alvastiday tutqich bermaydigan Grishan-chi? Avdiy qo‘pol xatoga yo‘l qo‘yanligi, yanglishganligi uchun hozir qattiq achindi. Grishan yutdi, uning qora ishi tantana qildi, hammasi juda yomon natija bilan tugadi. Attang! Shunday bo‘lsa-da, Avdiy mana shu kunlar boshiga tushgan sinoqlar bejiz ketmaganligini tushunardi. Bularning barini ko‘rishi kerak edi. U choparlarni xatarli yo‘ldan qaytarolmadni, lekin gazetada chiqishi uchun qiziqarli material to‘pladi, bu materialni o‘z peshona teri bilan topdi.

Shu kabi mulohazalar Avdiyga andak tasalli berar, lekin joni ayniqla, Lyonkaga achishardi. Uni to‘g‘ri yo‘lga solish mumkin edi, biroq ulgurmadi.

Avdiy Mo‘yinqum cho‘llarida barcha ko‘rgan-kechirganlarini birma-bir hayolidan o‘tkazdi. Bo‘rilarni uchratgani, ko‘kyol bo‘ri o‘qday uchib boshidan oshib o‘tgani, ammo unga ziyon yetkizmagani esiga tushdi. Bu bir sinoat, juda g‘alati hodisa. Bo‘rining o‘t chaqnagan, aqlli ko‘k

ko‘zları bir umr uning esidan chiqmaydi.

Ammo qaranglar-a, temir yo‘l uzra yana quyosh chiqdi va hayot o‘zining yangi davrasiga kirdi. Tungi jaladan so‘ng cho‘l gurkirab ketgan edi. Hali havo salqin, ko‘z ilg‘agancha cho‘l musaffo, ko‘k osmonda to‘rg‘aylar sayrardi. Cho‘l hofizlari yer bilan osmon o‘rtasida pirpirab o‘rlashar va behudud qo‘sinq to‘qishardi. Bu yerlardan olis-olislarda qaynab yotgan hayot haqida darak berib poezdlar cho‘lning u ufqidan bu ufkiga shoshilishardi.

Kechasi ko‘kdan yoqqan obi rahmat tufayli o‘sha cho‘l tongotarida ajib tarovat va uyg‘unlik hokim edi.

Kuyosh yuqori ko‘tarilib, qizdira boshlashi bilan Avdiy kiyimlarini quritmoqchi bo‘ldi. Ust-boshlarini yecharkan, dahshatga tushdi. Ular dalva-dalva yirtilib ketgan, bu ahvolda odamlar ko‘ziga ko‘ringandan o‘lgan ma‘qul edi. Badaniga esa qarab bo‘lmas, sog‘ yeri yo‘q, hammayog‘i g‘urra, shish, momataloq edi. Yaxshiyamki, oynasi yo‘q ekan. Aks holda o‘ziga qarab qo‘rqib ketardi, lekin oynasiz ham hammasi unga ravshan edi: yuziga qo‘l tekkizsa bezillardi.

Bundan ham badtar bo‘lishi mumkin edi, deb tasalli berardi u o‘ziga o‘zi. Har qalay, tirik qoldi-ku, shuning o‘zi tengi yo‘q baxt emasmi, axir.

Ko‘prik tagida yechinarkan, yana bir narsa ko‘nglini xira qildi. Pasporti bilan ozroq puli butunlay yaroqsiz holga kelgan edi. Yiqilganda pasport g‘ijim-g‘ijim buklangan, yomg‘irdan so‘ng esa tanib bo‘lmaydigan holga kelgandi. Pulidan esa yigirma besh so‘mlik bilan bitta o‘n so‘mlikkina yaroqli edi. Shu pul bilan Avdiy Moskvaga va unday Prioks shahriga yetib olishi kerak edi.

Avdiy Kallistratovni noxush o‘ylar chulg‘ab oldi. Seminariyadan haydalgandan so‘ng Avdiyga tangroq ahvolda yashashga to‘g‘ri keldi. Opasi Varvaraning roziligini olib, eski pianinoni sotdi. Varvara bolalik chog‘larida unda pianino chalishni o‘rgangan edi. Komission magazinda pianinoni yarim pulga baholashdi. Hozir bunaqa muzika asbobiga qiziqish yo‘q, ular hamma joyda to‘lib yotibdi. Hatto, eski magnitofonlarni qo‘yishga joy topilmaydi, pianinoni qaerga sig‘diramiz, deb bahonalar qilishdi. Iloj yo‘q edi, shunga rozi bo‘lishga to‘g‘ri keldi. Mana endi hech vaqosi qolmadi. Bundan ortiq yana nima kerak!

Yangi kun tug‘di. Yashash kerak edi. Yana turmush urinishlari hayolparast Kallistratovning hiqildog‘idan oldi.

Kechasi bilan ko‘prik tagida o‘tirib o‘ylab chiqdi. Endi bu yerdan qanday qutulishning chorasi izlash kerak edi, bundan tashqari qorinning g‘amini ham yeyish kerak.

Shunda Avdiyning omadi kulib boqdi. Kun yorishgach, u berkinib o‘tirgan ko‘prik tagidan ot-ulov yo‘li o‘tganini ko‘rdi. Rost, bu yo‘ldan mashinalar juda siyrak qatnasa ajabmas. Yo‘lovchi mashinani kutsa, Xudo biladi, yana qancha o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Avdiy eng yaqin raz’ezdgacha piyoda yurib borishga qaror qildi. U yerdan bir amallab Jalpoq-Sozgacha yetib olar. Yo‘lga tushish tadorigida Avdiy nigohi bilan atrofni timirskiladi: bir tayoq topilsa, yo‘lda unga ancha madadi tegardi. Poezddan qulaganda o‘ng tizzasi lat yeb, shishib chiqqan, endi qattiq og‘rimoqda edi. Atrofiga olazarak nazar tashlab, Avdiy kulib yubordi: «Petruxa meni boplab urchan tayoqni Grishan tashlab yuborgan bo‘lsachi? Endi tayoqni boshiga uradimi?» Tayoq topilmadi. Lekin, shu asno cho‘l ichidan ko‘prik tomonga qandaydir mashina kelayotganligini ko‘rdi.

Bu yuk mashinasi bo‘lib, tepasiga qo‘lbola qilib yupqa taxtadan ayvoncha ishlangan edi. Shofyorning yonida qo‘lida bola ko‘targan xotin o‘tirardi. Mashina darhol to‘xtadi. Shofyor, yuzi qoraygan yirik qozoq yigit kabinaning yarim ochiq oynasidan Avdiyni qiziqib tomosha qildi.

— Ha, yigit, nima, lo‘lilar kaltaklashdimi seni? — so‘radi . u.

— Yo‘q, lo‘lilar emas. O‘zim poezddan yiqilib tushdim.

— Mast emasmisan?

— Men umuman ichmayman.

Shofer va xotin achinib, oh-voh qilishdi. O‘zaro qozoqchalab gaplasha boshlashdi. Ular «bechora» degan so‘zni ko‘p takrorlashdi.

— Hoy, menga qara, o'tir mashinaga. Biz Jalpoq-Sozga ketyapmiz. Bo'lmasa cho'lda bir o'zing o'lib qolasan, bechora. Bu yo'ldan mashinalar ko'p yurmaydi.

Avdiyning tomog'iga bir narsa hiqillab tiqildi, yig'lab yuborishdan o'zini bazo'r tiydi, yosh boladay quvonib ketdi.

— Rahmat, birodar,— dedi u qo'lini ko'ksiga qo'yib.— O'zim sizdan ola keting deb so'ramoqchi edim. Yurolmayapman. Oyoq ishkal. Rahmat.

Shofyor pastga tushdi. Avdiyga mashinaga chiqishga yordamlashdi.

— Qani buyoqqa kel. Seni ko'tarishib yuboray, bechora. E, qo'rqma, chiqaver. Tepada jun bor. Sovxozniki. Topshirib kelaman. Kaytangga yumshoqqina o'tirasani. Faqat chekmasang bo'ldi.

— Men umuman chekmayman. Tashvishlanmang,— jiddiyat bilan ishontirdi uni Avdiy.— Men kechasi yomg'irda qolib ketdim. Toza bo'kdim. Bu yer issiqliqina ekan...

— Mayli, mayli! Aytdim-qo'ydim-da. Damingni ol, bechora.

Ayol kabinadan boshini chiqarib qaradi. Shofyorga allanarsa dedi:

— Xotinin so'rayapti, qorning ochdir? — tushuntirdi shofyor jilmayib.

— Juda och! — ochig'ini aytib qo'ya qoldi Avdiy.— Rahmat. Agar bir nima yegulik bo'lsa, bering, o'la-o'lguncha unutmayman.

Avdiyning nazarida bir shisha qo'y suti va o'choqda yopilgan, hidi gurkirab turgan oppoq non kechasi bilan chekkan azoblari uchun ko'knинг una inoyati edi.

Ovqatlanib bulib, Avdiy moy va ter hidi anqib turgan qo'y juni tiqligan qop-qanorlar ustida uxlab qoldi. Mashina kechasi jaladan so'ng tarovat to'lgan cho'l bo'ylab hamon ketib borardi. Tuzaladigan kasal tabibga duch kelganday bu yo'l Avdiyga shifo bo'ldi. U mashina to'xtaganda ko'zini ochdi.

— Keldik. Sen qaerga borasan?— shofyor pastga tushib, orqadagi bort oldida yuqoriga qarab turardi.— Hoy, yigit! Tirikmisan?

— Tirik, tirik! Rahmat,— javob qildi Avdiy.— Jalpoq-Sozga yetib keldikmi?

— Ha, bekatga keldik. Biz endi xomashyo omboriga boramiz.

— Meni qutqardingiz. Yana bir karra rahmat. Xotiningizga ham katta rahmat. Nima deb minnatdorchilik bildirishimni ham bilmayman.

Avdiy tepadan shofyorning yordamida tusharkan, og'riqdan ingrab yubordi.

— Ahvoling juda chatoq, bechora. Sen kasalxonaga bor,— maslahat berdi shofyor.— Tayoq bo'lsa, ancha ishing osonlashardi.

Vokzalgacha Avdiy yarim soat cho'loqlanib bordi. Yaxshiyam, yo'lda yotgan taxta bo'lagini ko'tarib olgan ekan, undan qo'litiqtayoq o'rnida foydalandi, yurishi ancha yengillashdi.

Temir yo'l izlari, ko'tarma ko'priklar, katta, kuchli chiroqlar, yuk kranlari, kelayotgan va jo'nayotgan poezdlar, vokzal maydoni va umuman, butun bekat shaharchasi uzra ovoz kuchaytirgichdan buyruqlar, farmoyishlar, e'lonlar yangrar, cho'l uzra taralar, lokomotivlar hushtak chalar, passajir poezdlarning kelgani va ketayotgani xabar qilinardi. Ovloqdan kelayotgan Avdiyga qaynagan hayot darrov bilindi. Atrofda odamlar o'z ish-tashvishlari bilan yugurgilashib yurishar — Jalpoq-Sozni Turkistonning eng yirik bekatlaridan biri deb hisoblashlari bejiz emasdi.

Cho'ntakda bor-yo'g'i o'ttiz besh so'm bilan qanday qilish, qaysi poezdda ketishga Avdiyning boshi qotib qolgan edi. Endi nima bo'ladi? Moskvagacha qattiq vagonning bileyi o'ttiz so'm turar ekan, u ham bilet bo'lsa hali. Tirikchilik-chi? Oyog'i bu ahvolda, jarohatlari-chi? Kasalxonaga borsamikin yoki darhol jo'nab ketaversinmi? Avdiy hayolga botgancha odam bilan gavjum, dim bekat binolari ichidan oqsoqlanib o'tib borardi. Uning to'zgan, yirtiq ust-boshi, ajiva qilib tashlangan aft-angori, tayanib borayotgan churik taxtasi odamlarning e'tiborini tortar — hamma una alanglab qaramoqda edi. Avdiy poezdlar jadvali osilgan maydonga chiqqanida, o'zini militsiya xodimi kuzatayotganini payqadi.

— Qani, to'xta-chi, hey yigit! — chaqirdi uni militsioner yaqinlashib kelarkan. Uning jahldor, qat'iy qarashlari yaxshilikdan darak bermasdi.— Bu yerda nima qilib yuribsan? Kim bo'lasan?

— Menmi?  
— Ha, sen.  
— Poezdga chiqmoqchiman. Jadval ko‘ryapman.  
— Hujjat bormi?  
— Qanaqa xujjat?  
— Oddiy hujjat: pasport, guvohnoma, ish joyidan spravka.  
— Bor, men faqat...  
— Qani, ko‘rsat.

Avdiy chaynaldi.

— Bilasizmi, o‘rtoq, bu men, o‘rtoq, o‘rtoq...  
— O‘rtoq leytenant,— g‘ashi kelib dedi militsioner.  
— Men, o‘rtoq leytenant, shuni aytmoqchiydimki...  
— Nima demoqchi bo‘lganining keyin bilaveramiz. Hujjatlarni ol.

Avdiy tovsillana-tovsillana cho‘ntagidan g‘ijimlanib tanib bo‘lmas ahvolga kelgan pasportini chiqardi.

— Mana,— deb uzatdi militsionerga.— Pasportim.

— Pasportmish!— militsioner Avdiyga g‘ijinib qaradi.— Sen nimaga meni laqillatyapsan? Yana pasport deydi! Ma, ol, o‘zingga siylov. Men bilan bo‘limga borasan. O’sha yerda kimligingni aniqlaymiz.

— Men axir, o‘rtoq leytenant...— o‘zining nochor ahvoldidan, tayanib turgan taxtasidan, atrofga birin-sirin yig‘ilayotgan bekorchilardan xijolat chekib dedi Avdiy,— men, bilasizmi, gazetaning muxbiriman.

— Hali sen muxbirmisan!— xunobi oshdi militsionerning. Nazarida uni ochiqdan-ochiq va surbetlarcha laqillatishayotganday tuyuldi.— E, qani, bu yoqqa yur-chi, muxbir!

Yig‘ilgan tomoshatalablar mazax qilib kulishdi.

— Topgan gapini qarang — muxbirmish!

— Balki hali tashqi ishlar ministriman ham dersan?

Jahldor leytenant orqasidan borib, kutish zalidan o‘tishga to‘ri keldi. Endi kim duch kelsa, shu Avdiyga o‘girilib qarar, bir-birlariga pichirlashar, kulishardi. Katta og‘och o‘rindiqda yuklari bilan o‘rnashib olgan oila yonidan o‘tib borayotganda Avdiyning qulog‘iga uzuq-yuluq so‘zlar chalindi:

Kichkintoy qizcha: - Oyi, oyi, qarang, kim bu?

Ayol: - Voy, bolaginam-ey, bu qaroqchi. Ko‘rdingmi, uni militsoner amaking ushlab olibdi.

Erkak: - Muning nimasi qaroqchi. Patak o‘g‘risi. Cho‘ntakkesar. Xuddi o‘zi.

Ayol: - Voy, nima deyapsan, Misha. Ko‘rinishi o‘zi shunaqa bechora. Xilvatroq joyda duch kelsang, so‘yib ketadi...

Lekin, Avdiy uchun eng dahshatli, kutilmagan ish hali oldinda edi. Leytenantning ortidan vokzal yonidagi talay uylardan birining eshididan ichkariga qadam qo‘ygan Avdiy o‘zini derazasi maydonga qaragan kattakon militsiya xonasida ko‘rdi. Telefon qo‘yilgan stolda o‘tirgan unvoni kichikroq militsiya xodimi leytenantni ko‘rib, o‘rnidan turdi.

— Hammasi joyida, o‘rtoq leytenant,— deb axborot berdi u.

— O‘tir, Bekbo‘lat. Mana yana bir mehmon,— deb Avdiyga ishora qildi leytenant.— Qara, shahzodalarga o‘xshaydi! Yana muxbirman deydi!

Avdiy ichkariga kirgach, atrofga alanglab karadi va sal bo‘lmasa baqirib yuboray dedi. Shag‘amday qotdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki! Eshikdan kiraverishda chap tomonda qalin simlardan qo‘pol qilib yasalgan va xonani poldan shipgacha ikki bo‘lakka ajratgan to‘siq orqasidagi burchakda xuddi panjaraga solingan maxluqlarday bo‘lib choparlar — nasha yig‘uvchi xumorilar: Petruxa, Lyonka, Maxach, Kolya, ikki qo‘poruvchi chopar va yana qandaydir bolalar hammasi bo‘lib o‘n-o‘n

ikki chog'lik odam o'tirishardi. Faqat Grishan ko'rinasdi. Bular orasida O'zi yo'q edi.

— Bolalar, nima qildi? Nega bundoq bo'lib qoldi?— beixtiyor og'zidan chiqib ketdi Avdiyning.

Choparlar miq etishmadi. Ular hatto qimirlashgani ham yo'q. Xumorilar panjara orqasida bir-birlariga zinch tiquilib o'tirishar, basharalari juda o'zgarib ketgan, tumtaygan, qovoqlari soliq edi.

— Tanidingmi oshnalarining?— g'alati irshaydi jahldor leytenant.

— Albatta!— dedi Avdiy.— Bular hammasi bizning bolalar.

— E, hali shundoqmi!— hayron qoldi leytenant Avdiyga diqqat bilan razm solib.— Nima, bu oshnalarining?— so'radi u choparlardan.

Hech kim javob bermadi. Hamma ko'zini yerdan uzmay jim o'tirardi.

— Hey, sizlardan so'rayapman!— jahli chiqdi leytenantning.— Javob bermaysizlarmi? Mayli, ko'ramiz hali. Tovaga tushgan qisqichbaqaday sakrataman hali. Hammangga uch yuz o'n yettingchini berganda, meni eslab qolasanlar. Inson qadami yetmagan joylarga borib o'tira-sanlar. Yoshmiz deysanlar-da. Yoshligingga qarab o'tirmaymiz. Ilgari sud bo'limgansanlar-da, a. Bu hisobga o'tmaydi. Ha, ha, bu hisobga o'tmaydi. Ashyo bilan qo'lga tushdinglar!— u polda sochilib yotgan Avdiyga tanish, nasha bilan to'ldirilgan yukxaltalar va jomadonlarni ko'rsatdi. Ularning ayrimlari ochilgan, ayrimlari yirtilgan, u yer-bu yerda nasha sochilib yotar, xonani yovvoyi giyohning og'ir hidi tutgandi. Stol ustida telefon yonida og'u solingan gugurt qutilari va shisha idishchalar turardi.— Ko'rsatib qo'yaman javob bermaslikni! Xafa bo'lishdi bular tag'in! Ashyo bilan qo'lga tushdinglar-ku!— deb takrorladi leytenant tajangligi ortib, jahl ustida uning ovozi jaranglab chiqqa boshladı.— Mana, dalil! Mana, ashayoviy dalillar! Mana, senlarga afyun!— u nasha to'la yuk xaltalarni tepib ko'rsatdi.— Shaykalariningdan bitta ablah qochib qutuldi-da. Lekin u ham hali shu yerga— panjaraga kelib o'tiradi, yaramaslar! Turlaring! Tur, kimga aytyapman! Yalpayib o'tirib olganini qarang! Tikka bu yoqqa qarab turlaring! Ko'zingni olma! Kimga aytyapman ko'zingni olma deb! Senlarga o'xshagan yaramaslar meni vagonning tagidan otishdi. Mendan rahm-shafqat kutmalaring endi! Ablahlar, mishiqlar, qurollanib olishibdi! Yana nimalarni istaydilar! Hayotim boricha sizlar bilan olishaman. Men qanday olishishni bilaman. Hamma poezdlarda, hamma yo'llarda sizlarni quturgan itday tutib olaman! Mendan hech qayoqqa qochib qutulolmaysanlar!— ko'pirib-toshib qichqirardi u.— Senlardan so'rayapman kim manavi juldurvoqi? Muxbirmish! Kim bu ro'dapo!— Leytenant Avdiyning qo'lidan tutib, panjara oldiga sudrab bordi.— Aytaring yaxshilikcha! Oshnalariningmi?

Bir zum hammalari jim qolishdi. Avdiy choparlarning badqovoq basharalariga razm solarkan, hech o'z ko'zlariga ishongisi kelmasdi. Shularmi kechagina cho'lda poezd to'xtatgan? Shularmi so'rib-so'rib nasha chekib, kayf surgan? Shularmi uni o'lguday urib, vagondan uloqtirgan? Shularmi chapdast bolalar? Mana endi kamarsiz shim kiyib, yalang oyoq bo'lib (zaruratga olib chiqqanda qochib ketmasinlar deb, shunday qilsalar ehtimol), sho'rlariga sho'rva to'kilib, panjara ichida nochor tumtayib o'tirbdilar.

— Oxirgi marotaba so'rayapman senlardan,— g'azabidan bo'g'ilib dedi leytenant.— Men tutib kelgan manavi taviya oshnalariningmi, yo'kmi?

— Yo'q, oshnamiz emas,— g'o'dinglab hamma uchun javob qildi Petruxa, Avdiyga istar-istamas qarab qo'yarkan.

— Nega unday deysan, Pyotr?— hayratga tushdi Avdiy panjara tomon sudralib yaqinlasharkan.— Nima, meni esdan chiqardinglarmi?— ta'na qilganday so'radi u panjara ortidagilardan.— Sizlarga jonim achiydi,— deb ko'shib qo'ydi u.— Qanday qilib bunday bo'ldi?

— Ta'ziya bildiradigan joy emas bu yer sizga,— siltab tashladi uni leytenant.— Men endi har bittangdan alohida-alohida so'rayman,— po'pisa qildi u choparlarga.— Kim yolg'on aytса,— bu bari bir ma'lum bo'ladi,— unga yana bir modda qo'shiladi. Qani, sen ayt,— dedi u Maxachga qarata.

— Bizdanmas,— deb javob berdi u tupuk sochilgan lablarini qiyshaytirib.

— Endi sen ayt,— buyurdi leytenant Lyonkaga.

— Bizdanmas,— dedi Lyonka va og'ir xo'rsindi.

— Bizdanmas,— dedi mallabosh Kolya.

Hammalari bir boshdan Avdiyni tanishni istamadilar.

Qiziq, choparlarning bu qiliqlari Avdiyning hamiyatiga tegdi. Ularning hammalari bir og‘izdan, qat’iy, hech qanday shubxaga o‘rin qoldirmay undan voz kechishgani Avdiy Kallistratovga haqoratlagan va xo‘rlagandan badtar alam qildi. Avdiyning bir zumda isitmasi chiqib ketdi, boshiga yorilguday sirqiroq og‘riq kirdi.

— Nima bo‘ldi, nega meni tanimayman deyapsizlar?— kalovlanib so‘rardi u.— Axir men...

— Gap bundoq, «Nyu-York tayms»ning muxbiri,— mayna qilib uni to‘xtatdi leytenant.— Ko‘p gapirdingiz, yetar. «Axir men», «axir sen». Bo‘ldi, bas. Boshimni aylantirma. Sensiz ham ish boshdan oshib-toshib yotibdi. Jo‘na, bu yerdan. Oyoq tagida o‘ralashaverma. Bular bilan ishing bo‘lmisin. Ularga qarshi qonun bor. Shafqatsiz qonun. Og‘u tayyorlagani, tarqatgani va sotgani uchun darhol jazoga tortiladi. Ular bilan gap qisqa. Sen, muxbir oshna, tezroq bu yerdan tuyog‘ingni shiqillat. Jo‘na. Boshqa ko‘zimga ko‘rinma.

Jimlik cho‘kdi. Avdiy Kallistratov og‘irligini dam u oyog‘iga, dam bu oyog‘iga solib, ketishga shoshilmasdi.

— Sen o‘rtoq leytenantning so‘zlarini eshitdingmi?— shu paytga-cha allaqanday kog‘ozlarni to‘ldirish bilan mashg‘ul militsioner o‘rtaga tushdi.— Esing borida jo‘na. Rahmat deginu chiqib ketaver.

— Sizda manavi eshikning kaliti bormi?— deb so‘radi Avdiy temir eshikning osig‘lik qulfini ko‘rsatib.

— Senga nima? Bor, albatta,— deb javob berdi leytenant Avdiyning nega shunday deb so‘raganligini tushunolmay.

— Unda oching eshikni,— dedi Avdiy.

— Yana nima xohlaydilar? E, kimsan o‘zing!— tutaqib ketdi leytenant.— Joningdan to‘ydingmi! Men seni!

— Ana-ana! Meni darhol panjaraga tashlashingizni so‘rayman. Joyim o‘sha yerda!— Avdiyning chehrasi lovullab yonar, yana uning qattiq jazavasi tutgandi. Vagonda nashani tashqariga sochib tashlaganda xuddi mana shunday bo‘lgan edi.— Meni qamoqqa olishlari va sud qilishlarini talab etaman!— deb qichqirardi Avdiy.— Men ham mana shu adashgan badbaxtlarning biriman! Dunyo razolat va yaramasliklarga to‘lib ketdi! Xuddi ular kabi men ham javobgarman. Men ham nasha yiqqanman. Eshikni oching. Men ular bilan birga o‘tiray. Sudda ular tasdiqlashadi aybim borligini! Gunohlarimizga tavba qilamiz, dilimiz pok bo‘ladi...

Militsioner shunda qog‘ozlarini bir chekkaga yig‘ishtirdi-da, o‘rnidan dik etib turdi.

— E, bu g‘irt jinni-ku, o‘rtoq leytenant. Qarang basharasiga. Jinniligi shundoq ko‘rinib turibdi.

— Aql-hushim joyida,— deb e’tiroz bildirdi Avdiy.— Men ular bilan teng jazo tortishim kerak! Jinni bo‘lib nima qilibman?

— Shoshma, shoshma,— ikkilandi leytenant.

Transport militsiyasiday og‘ir ishda shuncha yillar xizmat qilib bunaqa tentaklikni endi ko‘rishi edi: aytsang, birov ishonmaydi sira.

Oraga sukul cho‘kdi. Shu payt kimdir hiqillab, so‘ng ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Boshini devorga o‘girib olgan Lyonka yig‘lamoqda edi. Petruxa uning og‘zini yumishga urinar, qulog‘iga bir narsalar deb po‘pisa qilardi.

— Gap bunday, o‘rtoq,— dedi leytenant kutilmaganda yumshoqlik bilan Avdiyga.— Yur, tashqariga chiqaylik, menga hammasini bir boshdan gapirib berasan. Qani, chiqaylik. Yur, yur, rost aptyapman.

Ular yana yo‘lovchilar tiqilib ketgan kutish zaliga chiqdilar. Leytenant Avdiyni bo‘sh skameykaga boshlab keldi, o‘tirishga taklif etdi, keyin o‘zi ham yoniga o‘tirdi.

— Sendan juda ham iltimos qilaman, o‘rtoq,— dedi u birdan do‘stona bir samimiyat bilan,—

bizning ishimizga xalal berma. Mabodo, mendan o'tgan bo'lsa, ko'nglingga olma. Ishimiz o'zi shunday, juda qiyin. O'zing ham ko'rding-ku. Iltimos, boradigan joyingga jo'na. Sen ozodsan. Faqat bizga boshqa borma. Tushundingmi, a?

Avdiy ahvolimni qanday tushuntirsam, ushlangan choparlar haqidagi fikr-mulohazalarimni qanday bayon qilsam ekan deb, o'ylab, hayolini yig'ishtirayotgan edi, leytenant o'midan turdi-yu, odamlar orasini yorib o'tib, jo'nab qoldi.

Yo'lovchilar bekorchilikdan tag'in Avdiyga alang-jalang ko'z tashlay boshlashdi: u turli-tuman odamlar yig'ilgan shu xaloyiq ichida ham otning qashqasiday ko'zga tashlanib turmoqda edi. Kiyimlari yirtilgan, aft-basharasi ko'kargan, g'urra bo'lgan, qo'ltig'iga taxta qistirib olgan bir holi-bir sar Avdiy odamlarning g'ashini keltirib, nafratini qo'zirdi. Ustiga-ustak, uni hozirgina militsioner bu yerga tashlab ketgan edi.

Avdiyning ahvoli tobora yomonlashardi... Qattiq isitmalay boshlagan, boshi sirqirab og'rirdi. Kecha bo'lib o'tgan voqealar, tungi jala, shishib, yurolmay qolgan oyog'i, nihoyat, og'ir jazoga duchor bo'lgan choparlar bilan hozirgi uchrashuv — Avdiyga bular hammasi endi o'z kuchini ko'rsatmoqda edi. Avdiyning badani uvishib, tinmay qaltiray boshladи, jismi xuddi yonib ketayotganday edi. U kunishib, bo'ynini ichiga tortib o'tirar, o'rnidan turishga majoli yo'k edi. Qurib ketgur qo'ltiqtayoq esa oyoqlari tagida yotardi.

Shunda murdaday bo'lib qolgan Avdiyning ko'z o'ngi tuman bilan qoplandi. Odamlarning xira tortgan, yoyilib ketgan gavdalari, aft-angorlari yana cho'zilib, bujmayib, biri uzra biri qalashib ketardi. Avdiyning ko'ngli behuzur bo'lar, fikrlari chuvalashar, nafas olishi tobora og'irlashardi. Avdiy odam tiqilinch, havosi dim shu begona zalda bir o'ziga kelib, bir o'zidan ketib o'tirardi. «Voy, mazam qochib ketyapti,— o'ylardi u,— odamlar ham ko'p g'alati bo'lishadi-da. Hech kim hech kimga kerak emas. Hammayoq bo'm-bo'sh, tirik zot qolmaganday».

Avdiy bu birpasdan so'ng o'tib ketadi, yana hushim o'zimga keladi, o'shanda anavi qamokdagilarga balki biron yordamim tegib qolar, deb umid qilardi. Kuni kechagina uni o'iasi qilib urib, poezddan uloqtirib yuborganlarini u hozir hatto eslamas ham edi. Bu qabih jinoyatchilar, nodon qotillar uning rahmini emas, g'azabini keltirishlari, unda intiqom hissini uyg'otishlari kerak edi aslida. Lekin hayolparast Avdiy Kallistratov hayot saboqlarini o'zlashtirishni istamas, bunda hech qanday mantiqning foydasi yo'q edi. Nasha yig'uvchilarning pataroti — o'zining ham pataroti ekanligini u g'ayrishiuriy bir tarzda tushunardi. Bu fidoyi rahmdillik g'oyasi ham tamomila yengilganligidan darak berardi. Choparlarni halokat chohidan halos etish uning qo'lidan kelmadi. Ularga o'z ta'sirini o'tkazolmadi. Shu bilan birga har narsani kechirib yuboraverish ham ojizlik alomati ekanligini tushunmay iloji yo'q edi, bu hali qanchalar og'ir oqibatlarga olib borishi mumkin...

Lekin baribir, dunyoda yaxshi odamlar qurib ketgani yo'q, vokzaldagi tasodifiy yo'lovchilar ichidan ham shunday kishi topildi. Avdiyning ro'parasidagi skameykada yuklarini olib o'tirgan, boshini ro'mol bilan o'ragan, sochlari oqargan xotin uning mazasi qochib, yordamga muhtoj bo'lib qolganligini sezdi.

— Grajdanin,— deb gapini boshladi-da, shu zahoti onalarcha mehribonlik bilan so'radi:— Tobing qochdimi, bolam? Kasal bo'lib qolganga o'xshaysan-ku?

— Tobim qochyapti, lekin siz tashvish chekmang,— deb iljayishga urindi Avdiy.

— Hech qanday tashvishi yo'q. Voy, Xudoyim-ey, nima gap o'zi, biron yerdan yiqilib tushdingmi? Issig'ing juda baland-ku,— dedi u Avdiyning peshonasiga qo'lini tekkizib ko'rib.— Ko'zlarining ham qizarib ketibdi. Menga qara, bolam. Sen hech qaerga ketmay shu yerda o'tir. Men borib bilib kelay, balki bironta vrach topilib qolar, ehtimol, seni kasalxonaga yotqizish kerakdir. Seni bu ahvolda qoldirib bo'lmaydi...

— Qo'ying, ovora bo'lmang,— derdi unga Avdiy ovozi ichiga tushib ketgan holda.

— Yo'q, yo'q. Sen birpas o'tira tur. Men darrov qaytib kelaman... Bolali qo'shni ayoldan narsalariga qarab turishni so'radi-da, rahmdil xotin qaygadir ketdi.

Oradan qancha vaqt o'tdi, Avdiyning esida yo'q. Uning juda mazasi qochdi. Nima bo'layotganligini endi fahmladi: tomog'i qattiq og'riddi. Hatto tupugini yutolmasdi. «Angina bo'lsa kerak,— deb o'yladi Avdiy. U shunchalar holdan toygan ediki, shu yerning o'zida polga uzala tushib yotgisi kelar — ustidan bosib, toptab o'tsalar ham mayli edi — faqat ko'z yumsa bas, ko'z yumsa bas edi...»

Avdiyning ko'zi endigina ilingan ekan, birdan kutish zalidagi xaloyiq harakatga keldi, g'ovur-g'uvur eshitildi. Avdiy ko'zini ochdi va militsiya xonasidan choparlarni olib chiqishayotganini ko'rdi. Ularni to'rt tomondan militsionerlar o'rabb olgandi. Tajang leytenant oldinda — odamlar unga yo'l bo'shatishar, uning orqasidan qo'llari bog'langan chopalr kelishardi. Petruxa, Maxach, Lyonka, Kolya, ikki qo'poruvchi va yana allakimlar — o'n kishining hammasi shu yerda edi. Ularni soqchilar vokzaldan qator qilib olib chiqishardi.

Avdiy zo'r berib, ne mashaqqat bilan taxtasini qo'lting'iga qistirdi-da, chopalr orqasidan lo'killadi. Nazarida jon-jahli bilan harakat qilayotgandek bo'lsa ham, lekin negadir baribir mahbuslarni quvib yetolmadi. Yig'ilgan olomon orasidan u tomonga yorib o'tish oson emasdi. Lekin chopalarni qandoq olib ketishayotganini yaqqol ko'rib turdi: vokzal eshigi oldida orqa darchasi panjaral yopiq mashina turar — ikki militsoner chopar bolalarning qo'ltiqlaridan ko'tarib, ichkariga jildirib yuborishardi.

Keyin mashinaga soqchi o'tirdi va eshik yopildi. Leytenant haydovchining yoniga chiqdi. Shundan so'ng mashina vokzal maydonidan jo'nab ketdi. Xaloyiq har turli taxminlarni bichib-to'qirdi.

— Qaroqchilarni ushlashibdi. Bir gala.  
— Anavi uylarga kirib odamlarni o'ldirib yurganlar shular bo'lsa kerak.  
— Voy, qo'rqib ketyapman-e...  
— E, qaroqchimi shular! Tagi ho'l bolalar-ku hammasi!  
— Bola deysan-a? Hozirgi bolalar duch kelgan odamni o'ldirib ketadi. Hech narsaga qaramaydi.  
— E, qo'yinglar-e, baraka topkurlar. Bular nasha yig'adigan, bangi bolalar. Nashaga kelishgan. Har kuni qanchasini tutishadi yuk vagonlarda!..  
— Shuncha tutgani bilan yana yopirilib kelaverishadi bular...  
— Qanday zamonlarga qoldik...

Choparlarning achchiq-alamli hikoyasi ana shunday tugadi. Negaligini o'zi ham bilmaydi: Avdiyning yuragi bo'm-bo'sh bo'lib qoldi...

Avdiy qaerda o'tirganini yaxshi eslolmay kutish zaliga yurdi. U oyoqlarini bazo'r sudrab bosar, boshi oqqan tomonga ketmokda edi. Shunda boyagi sochlari oqargan xotinga duch keldi.

— Ha, mana o'zi, mana! — dedi o'sha xotin oq xalat kiygan hamshiraga. — Sen qayoqqa ketib qolding, bolam. Axtarib yuribmiz. Mana, hamshira qiz keldi. Isitmalab turibsan shekilli. Yuqumli kasal emasmikin, deb xavotir olishyapti.

— Undaymas, — zo'rg'a ovozi chikdi Avdiyning. Hamshira Avdiyning peshonasiga qo'l tekkizdi.  
— Issig'i baland, — dedi u. — Nima bo'ldi? Sizdan balchiq isi kelyapti. Ichingiz ketyaptimi? — o'smoqchilab so'radi u.

— Yo'q.  
— Mayli, farqi yo'q. Medpunktga boraylik. Doktor ko'radi.  
— Mayli, men tayyorman.  
— Narsalaringiz qaerda?  
— Narsalarim yo'q...

#### IV

Avdiy Kallistratovni Jalpoq-Soz bekat kasalxonasiga yotqizishdi. Tund yuzli qozoq vrachi Oliya Ismoilovna kasalni ko'rib, jiddiy dedi:

— Ahvolingiz unchalar ham yaxshi emas. Lat yegan oyog‘ingizni mutaxassis vrach ko‘rishi kerak. Kasal boshqa a’zolaringizga ham tarqab ketmasligi uchun hozircha antibiotiklar bilan davolab turamiz. Lekin siz boshingizdan nima kechirgan bo‘lsangiz, hammasini menga so‘ylab berishingiz kerak. Nega qiziqib qoldi, deb o‘ylamang. Vrach bo‘lganim uchun so‘rayapman...

Hayotda necha yuzlab, minglab uchrashuvlar va ayriliqlar ichida goho shundayi ham bo‘ladiki, uni Xudo yetkazdi deyishdan boshqa ilojimiz yo‘q. Lekin bunday uchrashuvdan umuman hech narsa chiqmasligi ham mumkin, biroq odam bolasi buni faqat keyin tushunadi — shunda u bir zum qo‘rqib ketadi o‘sha uchrashuv chippakka chiqsa, nima bo‘lardi, degan fikrdan... Axir uchrashuvning nima bilan tugashi Xudoga emas, odamlariing o‘zlariga bog‘liq-ku.

Avdiy Kallistratov shunga o‘xhash voqeani boshidan kechirdi. Uchinchi kun deganda kasalxonaga Avdiyning oldiga o‘sha qiz keldi. Avdiy uni faqat orzular olamidagina ko‘rardи. Chunki qizning kimligini bilmasdi. Binobarin, odam bolasi dunyoda nimalar haqida orzu qilmaydi deysiz...

Kunduzi turli muolajaldan so‘ng bemorning harorati ancha pasaydi, kechga borib esa o‘ttiz yettiyu uchdan yuqori ko‘tarilmadi. Lekin oyoqning shishi hamon qaytmagan, buning ustiga o‘ng qovurg‘asining bittasi singan ekan, rentgenda darz tushgani ma’lum bo‘ldi. Umuman olganda, bemor sog‘aya boshlagan edi. Avdiyning kayfiyati mo‘tadil, shikoyat qiladigan joyi yo‘q edi. Oliya Ismoilovna haqiqiy vrachlardan ekan, u bilim, tajribalari bilangina emas, butun ro‘y-ravishi bilan ham davolarkan. Uning gap-so‘zları, muomalasi, muolaja tayinlashi bemorning diliiga umid va ishonch bag‘ishlar, kasallikni yengib o‘tishiga madad berardi. U bemorning ruhiyatiga donolik va vazminlik bilan ta’sir o‘tkazardiki, boshidan shuncha savdolarni kechirgan Avdiy goho insonga boshqalarning g‘amxo‘rligi va mehribonchiligi naqadar zarur bo‘lishini ayniqsa, qattiq his qildi. Ochig‘ini aytganda, bir chekkasi, u kasal bo‘lgani va yaxshi vrachning qo‘liga tushgani uchun behad suyundi. Mo‘jaz daraxtzor orasida joylashgan ko‘rimsizgina va sokin bekat kasalxonasida u o‘zini shunchalar xotirjam va yaxshi sezmoqdaydi.

Hiyobonga qaragan, oppoq pardalar tutilgan deraza ochib qo‘yilgan edi. Havoning issig‘i avjida. Palatadagi ikki sherigi tashqariga aylangani chiqishgan, Avdiy yolg‘iz o‘zi yotar va tez-tez haroratini o‘lchardi. U yana harorat ko‘tarilishini sira istamasdi. Deraza naryog‘ida o‘tkir poshnalarning taqit-tuquri eshitildi, allakim navbatchi hamshiradan uni so‘radi. Kim bo‘ldi ekan? Ovoz Avdiyga tanishdek tuyuldi. Ko‘p o‘tmay hamshira palata eshagini ochdi.

— Mana shu yerda yotibdi.

— Salom!— dedi qiz.— Kallistratov sizmisiz?

— Men,— deb javob berdi Avdiy o‘z ko‘zlariga ishonmay.

Bu o‘sha Uchquduqqa mototsikl minib kelgan va Avdiyning hayolini o‘g‘irlab ketgan qizning o‘zginasi edi. Avdiy o‘zini yo‘qotib qo‘yan, qizning gaplari qulqlariga kirmas, u haqda juda ko‘p o‘ylaganligi uchungina nima deyotganligini so‘zi hali og‘zidan chiqmasdan burun uqib olardi. Qizning ismi-sharifi Inga Fyodorovna ekan. Bu yerga ilmiy ish bilan shug‘ullanish uchun kelganiga uch yil bo‘libdi. O’shandan, beri Oliya Ismoilovna bilan tanish, dugona edi. Oliya Ismoilovna unga Avdiy hakida hikoya qilib beribdi. Inga Fyodorovna bunga qiziqib qolibdi. Axir, siz ham xuddi men kabi nasha masalasi bilan mashg‘ul ekansiz. Men Mo‘yinqum nashasini o‘rganib yuribman. U shunday deb, nashaning uzundan-uzoq lotincha nomini aytdi. Shuning uchun oldingizga keldim, tanishgani... balki sizga nasha yuzasidan biron ma’lumot kerakdir deb o‘yladim... Axir, uning nazarida, jurnalistlarga ilmiy ma’lumotlar ham zarur bo‘ladi-ku.

U Xudoyim-ey, ilmiy ma’lumot deydi-ya. Banogoh paydo bo‘lib lolu hayron qilib qo‘yding-ku. So‘zlarining qulog‘imga emas, yuragimga oqib kiriyapti. Faqat ko‘zlarining ko‘rayotirman. Nazarimda, dunyoda boshqa hech kimda bunday ko‘zlar yo‘q. Munajjim son-sanoqsiz yulduzlar ichidan mana shunday o‘z yulduzini topadi. Lekin, bexabar odamlarga barcha yulduzlar mutlaqo bir xil bo‘lib ko‘rinadi. Avdiy qizning nigohidan go‘yo qanot bog‘lab uchardi...

Bularning barini Avdiy keyin yolg‘iz qolgach va o‘zini bosib olgach, birma-bir xotirasida tikladi.

O'sha ilk damlarda esa u xuddi jinni bo'lib qolgandek edi. Rost, Inga Fyodorovna buni uning issig'i chiqayotganiga yo'ygan bo'lishi mumkin. Axir, faqat tentak odamgina dabdurustdan: «Doim sizni o'ylaganimni qaerdan bildingiz?»— deb so'raydi-da.

Qiz javob o'rniga qoshlarini hayron bo'lib chimirdi. Shunda u yanada go'zalroq ko'rindi va sirli jilmayib qo'ydi. Agar qiz shu bema'ni, maza-matrasi yo'q so'zlarni bachkanalik va yoki suyuqlik deb qabul qilsa bormi, Avdiy unda hech qachon o'zini kechirmas, umr bo'yi qiynalib o'tardi. Lekin Xudoning marhamatchiligi, qiz uning so'ziga alohida ahamiyat bermadi. Bunga odob-ikromi yo'l qo'ymadni. Shundan so'ng ular qizning Uchquduqqa mototsiklda borgani, birinchi marta qanday ko'rishganlarini kula-kula eslashdi. Avdiy shu unutilmas uchrashuvdan bir kun keyin cho'lida Petruxa va Lyonka degan chopar bolalar bilan vertolyotdan qochib o'tlar ichiga berkinganlarini gapirib berdi. Inga Fyodorovna qotib-qotib kuldi. Ma'lum bo'lishicha, Inga Fyodorovna vertolyotga Toshkentdan kelgan maxsus ilmiy ekspeditsiya bilan birga uchgan ekan. Toshkentdagi ilmiy-tekshirish institutlaridan biri yovvoyi nashani u o'sadigan yerlarda kimyoviy-biologik quritish ustydagi shug'ullanayotgan ekan. Shunda Avdiya bang bilan kurash ikki tomonlama olib borilayotganligi ayon bo'ldi: ham giyohvandlik yo'qotilmoqchi, ham og'uli giyohlar quritilmoqchi. Lekin buni hal qilish dunyoning hamma joylarida ham oson emasga o'xshaydi. Inga Fyodorovnaning tushuntirishicha, nashaning o'sishi va ko'payishiga yo'l qo'ymaydigan kimyoviy dorilarni topish qiyin emas. Ammo bu usul nashadan ham battaroq falokatga sababchi bo'ladi, u yerni xarob qiladi. Va u kamida ikki yuz yilga ishdan chiqadi. Giyohvandlik bilan kurash yo'lida tabiatni xonavayron qilish — bu ham aqldan emas: tayoqning ikki uchi bor. Inga Fyodorovna olib borayotgan ilmiy-tekshirish doirasiga shu murakkab tabiat muammolarini yechishning eng oqil yo'llari va usullarini axtarish ham kirardi. O, Xudoyim-ey, deb o'ylardi Avdiy, agar tabiat fikr qilish qobiliyatiga ega bo'lganda, o'z holicha o'sib yotgan giyohlar bilan insonning ma'naviy buzilishi o'rtasidagi dahshatli o'zaro bog'liqlik uning yelkasiga qanchalar og'ir yuk bo'lib tushardi. O, dahmaza!..

\* \* \*

Avdiy Kallistratov Inga Fyodorovna bilan o'rtalarida tug'ilgan munosabatlarni «taqdirimda yangi davr» deb atar va bunda rostdan ham, hech qanday mubolag'a yo'q edi. Ona shahriga qaytib kelganining naq ertasigayoq qizga uzundan-uzoq xat yozdi. Bu-ku, mayli. Lekin yo'lida poezd besh daqiqadan ko'p to'xtagan har bir bekatdan otkritkalar yozib jo'natganligini aytmaysizmi. Bu oddiy oshiq-ma'shuqlikka o'xshamasdi. Avdiy o'z hayot yo'lida Inga Fyodorovnani uchratgandan beri shunchalar hayajon hamda iztiroblar ichida yashar ediki, bularni aslo aqlga sig'dirib bo'lmasdi.

U qizga yozardi: «Menga nima bo'lyapti — hech aqlim yetmaydi! O'zimni vazmin, bosiq odam, deb hisoblardim. Aqlim ham, tuyg'ularim ham, bir-birlariga ravon, uyg'un edi. Endi esa, hatto nima qilayotganimni o'zim bilmayman. Darvoqe, hech narsani bilishni, tahlil etishni istamayman. Nega shunday, hayronman. Boshimga xuddi tog' ko'chkisiday baxt yog'ildi. Men shu ko'chkening tagida qoldim. Bir hujjatli filmda ko'rgan edim — oppoq qor tog' ko'chkisi yo'lida uchragan jamiyki narsalarni sovurib, ergashtirib ketadi. Shunday ko'chki mening ustimga ham yog'ildi. Dunyoda boshqa bunday baxtiyor odam yo'q, bo'lмаган ham; omadim bor ekan, men xuddi nog'orasini chertib o'yinga tushayotgan yovvoyi odamga o'xshayman. Shu yoz boshimga yog'dirgan barcha nag'malari uchun taqdirimdan roziman: axir, u meni tirik qoldirdi, hayot qiynovlariyu girdoblarini ko'rish imkonini berdi; boshqa yana qayda ko'rish mumkin bularning barini. Bir shaxs doirasidagi muhabbat — bu chinakam ruhiy inqilob, derdim! Shunday ekan, unda yashasin ruhiy inqilob! Sovurguvchi va qayta yaratguvchi!

Bosholmon so'zlarim uchun kechir, Inga. Lekin men seni sevaman! Men uchun qanchalar aziz ekanligingni ifodalay olmayman, bunga so'zim ham, kuchim ham yetmaydi...

Ijozat et, nafasimni rostlab olay. Redaktsiyaga bordim. Hammasini muxtasar gapirib berdim.

Ocherkni tezlatishni aytishyapti, ocherkni kutishyapti. Balki bu muhim mavzuda bir turkum ocherklar yozarman. Agar niyatim yo'ldoshim bo'lsa, shoyad doimiy ishlash uchun shu gazetada qoldirishar. Lekin, bu haqda gapirishga vaqt erta. Muhimi, ertaga yozishga o'tiraman. Safarda atay hech narsa yozib bormadim. Hammasini bir chekkadan xotirada tiklashga to'g'ri keladi.

Nima qilganda ham, og'u tarqatganligi uchun og'ir va adolatli, qonuniy jazosini kutayotgan chopalarning taqdirlariga men beparvo qarayolmayman. Ularni qismati achchiq va o'ngmagan tirik odamlar deb bilaman. Ayniqsa, Lyonkaga achinaman. Bolakay xarob bo'lyapti. Bu yerda yana o'sha axloqiy masala ko'ndalang bo'lib turadi. Bu haqda sen bilan ko'p gaplashganmiz, Inga. Sen mutlaqo haqsan, Inga, Yer kurrasining har qanday nuqtasida ro'y bergan har qanday insonning har qanday jinoyati, har qanday yovuzligi, garchi biz bundan bexabar bo'lsak-da, va garchi biz bundan juda yiroqda tursak-da, va bu haqda hech narsa bilishni istamasak-da, bari bir barchamizga taalluqlidir. Yashirib o'tiradigan joyi yo'q, goho masxara qilib kulib qo'yamiz: qaranglar-a, bizning raqiblarimiz qanday ahvolga tushishibdi, deymiz. Lekin, gazetalar mamlakatimizdan tashqarida bo'layotgan jinoyatlar haqida yozib to'g'ri kilishadi, buning o'ziga yarasha chuqur ma'nosi bor. ZOTAN, dunyoda inson yelkasiga tushgan barcha og'irchiliklarning o'z muvozanati mavjud, koinotda birdan-bir fikrlovchi xilqat — bu odam va ularning mana shu xislatlari,— biz buni istaymizmi, istamaymizmi, ularni bir-birlaridan o'zaro ayirib turgan barcha narsalardan ko'ra afzalroqdir. Barcha qaramaqarshiliklarimizga qaramasdan, biz oxir-oqibat ana shunga kelamiz. Yer yuzida aql-idrok tantanasi shu bo'ladi. Inga, shundan g'oyatda xursandmanki, meni hayajon va tashvishga solayotgan narsalar haqida senga bemalol yozishim mumkin, chunki, meni tushunasan, men bunga aminman. To'xtovsiz xatlar yozaverib, joningga tegib ketamanmi deb, qo'rqaman. Nima qilay, yozmay turolmayman, iloji yo'q, aks holda chidayolmayman. Fikru hayolim senda, doim sen bilan bo'lishni istayman, Goho qaniydi, yana Mo'yinqumga borib qolsam, mototsiklda Uchquduqqa kelganiningni ko'rsam, men sho'rlik xudojo'y fikri jadidni bir qarashda asiru mubtalo etganiningni his qilsam, deyman. O'shanda seni ko'rib, shu qadar lol qolgan edimki, hali-hanuzgacha eslasam, yuragim gursillab urib ketadi, o'zimni qo'ygani joy topolmay qolaman. Odam buni aytishga ham hatto, xijolat chekadi. Sen zamonaviy liboslarda misoli oydan tushgan ilohaday bo'lding...

Mana shularni eslab o'tirarkanman, o'shanda, chopalrar bilan to'qnashganlarimda inson azob-uqubatlari toshu-tarozusida mayli, zig'ircha bo'lsa-da, yomonlik kamayib, yaxshilikning hissasi andakkina ko'payishiga xizmat qilolmaganimdan o'kinaman. Ular Xudodan qo'rqaqilar, deb o'ylovdim. Lekin ularning xudosi pul ekan. Mana hozir o'sha choper bolalarga qanday yordam berishim mumkin, degan fikr meni qiy Naydi. Takdir ekan, ularga duch keldim, ular o'rtasida bo'ldim. Men avvalo tavba-tazarruni nazarda tutyapman. Men ularga tavba yo'lini ko'rsatmoqchi edim. Tavba — insoniyat ruhiyati tarixining eng ulug' ne'matlaridandir. Bizning kunlarda uning sariq chaqachalik e'tibori qolmadi.

Hozirgi zamon kishisining ma'naviy dunyosidan u tamomila badarg'a qilindi. Lekin odam tavba-tazarrusiz odam bo'lishi mumkinmi? Xoh xatti-xarakatda, xoh, o'y-fikrlarda, xoh o'zini qiyab o'rtanishlarda, xoh iztirob, pushaymonliklarda aybi, xatosini tan olib, larzaga tushmog'i va ko'zi ochilmog'isiz inson — inson bo'larmidi?.. Haqiqatning yo'li — kamolotga erishmoqlikning kundalik yo'lidir...

O, Xudoyim, yana o'sha eski gapga tushib ketibman-ku! Meni kechir, Inga. Yuragim toshib ketyapti, chunki faqat seni o'ylayman. Nazarimda, senga aytishim kerak bo'lgan gaplarning yuz mingdan birini ham aytib ulgurolmayotgandayman...

Qaniydi, seni tezroq, tezroq ko'ra qolsam, axir mundoq o'ylab qarasam, ko'rishmaganimizga bir hafta bo'libdi...

Juda, juda sog'indim. Dilim tinmasdan o'rtanadi. Boshqa hamma hayot tashvishlari men uchun o'z qimmatini yo'qotdi, hech narsaga arzimaydigan narsa bo'lib qoldi, ajoyib...»

\* \* \*

Iyul oxirlab qolgandi. Kunlardan bir kun men gazeta redaktsiyasidan ko‘nglim xira bo‘lib chiqdim. Yuragimga qil sig‘masdi. Negaki, kutilmaganda mening cho‘l ocherklarimga muharrirning munosabati o‘zgargan edi. Zarbdor material olib kelish uchun meni ilhomlantirgan redaktsiyadagi o‘rtoqlar ham endi o‘zlarini g‘alati, xuddi ayb ish qilib qo‘yganday tutishardi.

Bularni ko‘tarish menga og‘ir edi. Kishilar oldimda o‘zlarini allanechuk gunohkor deb his qilsalar, bundan shu qadar qattiq qiyalamanki, ularni tezroq vijdon azobidan qutqarish payiga tushaman, toki, meni ko‘rganda, kisilib-qimtinib o‘tirmasinlar deyman. Aks holla ularning ayblari uchun o‘zimni aybdor hisoblay boshlayman...

Redaktsiyadan chiqib ketarkanman, bu yerga boshqa qadam bosmayman, nima qilaman ko‘zlariga xunuk ko‘rinib, agar kerak bo‘lsam chaqirishar, deb o‘yladim. Agar chaqirishmasa, yana o‘zlariga havola. Jilla qursa, bu ishdan hech narsa chiqmaganligi va umid iplari kesilganligini bilaman-ku.

Rossiyada yozning eng go‘zal chog‘lari edi. Men xiyobonlardan o‘tib borar, ichimga chiroq yoqsa yorishmasdi. Cho‘l ocherklarini yozish uchun qancha kuch-quvvat sarfladim, ularda o‘zimning grajdaniq dardimni bayon qilmoqchi bo‘ldim, izhori dil va bashorat kabi qog‘ozga tushirdim. Lekin kutilmaganda, mamlakatning obro‘yi degan qandaydir gaplar chiqdi (bundoq o‘ylab ko‘ring-a, biz o‘zimizdan o‘zimiz nimani yashiramiz?), mana endi, ne mashaqqatlar evaziga qo‘lga kirgan cho‘l ocherklarim shu gap-so‘zlar tagida ko‘milib ketmoqchi. Qanchalar xafa bo‘lganimni so‘z bilan ifodalab berolmayman. Yana eng alam qiladigan joyi shundaki, muharrir nima deydi deng:

— Balki bularning barini yuqori idoralarga ma’lumot tariqasida yozib berish kerakdir. Zarur choralar ko‘rilar, axir.

Ha, shunday dedi.

Men esam, tokatim toq bo‘lib, e’tiroz bildirdim:

— Qachongacha biz o‘zimizni hatto falokatlarimiz ham boshqalarnikidan yaxshi deb, ishontiramiz?

— Bunga falokatning nima aloqasi bor?— qovog‘ini uydi muharrir.

— Aloqasi shuki, giyohvandlik ham ijtimoiy falokat.

Keyin ketdim. Faqat Inganing xatlarigina ko‘nglimga yorug‘lik olib kirardi. Uni sog‘inib, ko‘rgim kelsa, darhol xatlarini takror-takror o‘qirdim. Telepatiya bor, men bunga ishonaman. Aks holda meni tinimsiz o‘ylatgan, qiyonoqqa solgan, hammadan ko‘proq to‘lqinlantirgan va tashvishga qo‘yan narsalar haqida avvalroq uning xatlarida gap ochilganligini qandoq tushuntirish mumkin? Bu xatlar menga umid va ishonch bag‘ishlardi. Yo‘q, qismat meni aldamadi, mening ustidan kulmadi. Axir, hozirgi zamonning yoshgina juvonlariga menga o‘xshaganlar yoqarmidi aslo? Men odob-axloq haqida eski tushunchalarda yurgan, omadi chopmagan, ovi yursa-da, dovi yurmagan, o‘qib-o‘qimagan bir lakalov bo‘lsam? Alp qomat, alp taqlid yigitlarga tenglasholmasam? Biroq Inga xatlarida menga shunchalar ishonch bildirar, hurmat-e‘tibor ko‘rsatar va eng muhimi, qalbning maylini ochiq ifodalar ediki, bundan go‘yo menga qanot bitar, ko‘nglim ko‘tarilardi. Uni, mening Ingamni uchratganidan qanchalar shodu baxtiyor edim! Sevgining fasonasi ham shunda, bir-biriga tinimsiz talpinishda emasmi...

Hozircha hech qanday turmush ikir-chikirlariga duch kelmagan edik. Shunga qaramasdan, bunday tashvishlar borligi va ularni yechish zarurligidan xursand edim. Men muqim daromadi bo‘lgan tayinli bir ishning boshini tutishim kerak edi. Shu kungacha otamning eski kitoblarini sotib tirikchilik o‘tkazib turar va bundan haddan ortiq ezilardim. Men Osiyoga, Inganing oldiga borish hayolida yurardim. O’sha yerda ishga joylashsam, ildiz otsam, doim uning yonida bo‘lsam, derdim. Uning ekspeditsiyasiga yordamchi ishchi bo‘lib kirishga, tadqiqotlarini muvaffaqiyatlil olib borishlari uchun ko‘maklashishga tayyor edim. Bir chekkasi, bu tadqiqotlarga ham endi befarq qaray olmasdim. Ikkovimizning umumiyy manfaatlarimiz shu yerda birlashar edi: men giyohvandlikni ahloqiy-ma’naviy

yo'l bilan yo'qotishni ko'zlar, u esa shu vazifani ilmiy jihatdan hal qilish ustida ishlardi. Uning o'z ishiga berilganligini ko'rib, zavqim kelardi. Vaholanki, uning ishi unchalik e'tiborni ham tortmas, obro', shon-shuhrat ham va'da qilmas, tez ko'tarilish uchun pillapoya ham bo'lolmasdi. Ochig'ini aytganda, Inga yovvoyi holda o'sadigan nashapoyani yo'qotishdek ilmiy muammo ustida jiddiy tekshirish olib borayotgan birdan-bir kishi edi. Uning o'zi shu yerdan, jambullik edi. Toshkentda o'qigan edi. Ilmiy ishining xuddi mana shu sohasini tanlashida albatta, bularning bari ma'lum darajada o'z ta'-sirini o'tkazgandi.

Inga hayotining o'ziga yarasha ishkalliklari ham yo'q emasdi. Oldingi eri — harbiy uchuvchi bilan uch yildan beri birga turishmasdi. Inga o'g'il ko'rgach, ajralishgan edi. Hozir uchuvchi boshqaga uylanmoqchi bo'lib yurardi. Shuning uchun Inga bilan oxirgi marta uchrashib, hammasini va ayniqsa, o'g'ilcha takdirini bir yo'la hal qilishlari kerak edi. Kichkina Igor Jambulda bobosi hamda momosi qo'lida, doktorlar xonadonida tarbiyalanar, lekin Inga o'g'li doimo o'zi bilan birga turishini istardi. Inga xatlaridan birida o'g'limni kuzda Jalpoq-Sozga olib kelmoqchiman, temiryo'Ichilar bogg'chasidan joy va'da qilishyapti, deb yozganida, men bundan chandon xursand bo'ldim va unga mendan nima lozim esa, hammasini bajonidil ado etajagimni bildirib, javob yozib yubordim.

Shundan keyin u kuzda dam olgani chiqaman, birga Jambulga borsak, o'g'ilchani va ota-onamni ko'rib kelsak, deb xat yozdi. Birgalikda safar qilishimiz haqidagi gapdan nihoyatda to'lqinlanib ketdim. Unga istagan paytda borishga tayyor ekanligim, undan jonimni ham ayamasligim, umuman olganda, doimo har ikkovimizning, va eng avvalo, uning manfaatlarini ko'zlab ish tutmoqchiligidim yozib yubordim. Senga foydam tegsa va senga kerak bo'lsam, mening baxtim shu, dedim.

Kuzda turmushimiz hal qilishimiz kerak edi. O'y-hayolim faqat shu bilan band edi. Jambulga Inganing ota-onasi va kichkina Igorni ko'rgani borishimizni o'ylab, o'zimni qo'ygani joy topolmasdim. Ko'p narsalar shunga bog'liq edi. Safarning o'zi bo'lmaydi, mablag' kerak edi. Borishning o'ziga qancha pul ketadi. Mo'yinqum ocherklarining chiqishiga umid bog'lagan edim. Lekin, afsuski, bu ham chippakka chikdi. Shundan so'ng oblast bosmaxonasiga vaqtinchaligi tungi korrektor bo'lib ishga kirdim. Shu bilan bir kunim o'tib turdi...

Nihoyat, yana Ingadan xat oldim. U xatida Jalpoq-Sozga oktyabr oyining oxirlarida kela olasanmi, agar kela olsang, noyabr bayramiga birga Jambulga borar edik, deb yozardi...

Men boshimdan hushim uchib, o'sha zahoti telegraphma jo'nataj deb shahar telegrafiga yugurdim... Kitoblarni tezroq sotib, yo'lga tushish kerak edi.

## V

Ober-Kandalov Mo'yinqumda kiyik qirg'iniga odam qidirib vokzalni aylanib yurganida Avdiy Kallistratovga duch keldi.

Bu yumushni Ober-Kandalovga topshirgan odam ishning ko'zini bilarkan. Kandalov ko'pni ko'rgan kishi, temir yo'l yong'indan saqlash idorasida komendant bo'lib joylashib olgan, ilgari harbiyda va buning ustiga jazo batalonida xizmat qilgani, (bir balosi bordir-ku, axir!) cho'ldagi shoshilinch tadbirga juda mos tushardi. Bunda Kamdalovning o'zi ham ba'zi bir narsalarni ko'z ostiga olib qo'ygan edi. Oblast boshqarmasiga go'sht topshirish planini bajarishga yordamlashsam, o'zimni ancha tiklab olaman va ayrim oblast idoralarining ko'mak-ko'shishi bilan partiya a'zoligiga tiklanaman, deb mo'ljallardi. Axir uni qandaydir pul, mol o'g'irlaganligi yoki og'ir su'iste'mollarga yo'l qo'yganligi uchun partiyadan o'chirganlari yo'q-ku. Davlatga ham zarracha ziyyoni tekkan emas. Kamdan-kam uchraydigan qilg'ilik bilan qo'lga tushgan; jazo bataloni kazarmalarida bor-yo'g'i erkaklar bilan yotgan; xizmat mavqeidan foydalanib, ularni shunga majbur qilgan, xolos. Xo'p, muddatdan tashqari xizmatga qolgan starshina ayb qilib qo'yibdi, xo'p, ba'zi mafkurasi shubhali shaxslar va ayniqsa, turli-tuman mazhabchilaru giyohvandlarni zo'rlabdi, xo'p, shunga shunchami, ularning nimasiga achinib o'tirish kerak? Qachongacha shuni deb, uni oq kaltak-qora kaltak qilish

mumkin? Xotini tashlab ketganining o‘zi yetmaydimi? Xo‘p, ichsa ichibdi, lekin kim ichmaydi hozir? Holbuki, agar e‘tibor bilan qarashsa, u juda ham kerakli odam-ku. Mana, jiddiy bir ishni topshirishdi. Ko‘z ochib-yumguncha odam to‘plab kelmadimi, axir. Yarim kechasi vokzalga bordi. Xaloyiqqa shundoq sarasof soldi. Uning ko‘zlari pishib ketgan. Darrov Mo‘yinqumga borishga tayyor, pulga muhtoj, mo‘may daromadga suyagi yo‘q odamlarni ajratib oldi. Avdiy Kallistratovni ham ana shunda uchratdi.

Avdiy, Kandalovning taklifini muhtojlik tufayligina qabul qilgani yo‘q: u hech kutmagan, g‘oyatda tashvishli bir hol ro‘y berdi — Inga Fyodorovnaning xati bo‘yicha Jalpoq-Sozga kelib, uni bu yerda topmadi. Juda ma’yus tortib qoldi. Lekin bu shunchalik xafa bo‘lishga arzirmidi, noma’lum edi. Samolyotda keldi. Samolyotga chiqish uchun Moskvaga bordi. Kuni bo‘yi yugurib yurib bilet topdi. Olmaotadan bu yergacha poezdga o‘tirdi. Nihoyat, ikki kun deganda, kasalxonaga qo‘shti laboratoriya hovlisidagi mo‘jazgina uyga yetib kelsa, eshik berk. Kalit solinadigan teshikda Inga Fyodorovna ikki enlik xat qoldirgan ekan. Unda vokzal pochtasidan Avdiy nomiga yozilgan maktubni talab qilib olishni so‘ragan edi. Avdiy zudlik bilan pochtaga chopdi. Unga xatni darhol topshirishdi. U yuragi urishdan to‘xtab qolay deb, kichkina bog‘chaga kirib, skameykaga o‘tirdi-da, xatni ochdi:

«Avdiy, mehribonim, meni kechir. Bunday anglashilmovchilikni bilganimda, senga hozircha kelmay tur deb, xabar qilgan bo‘lardim. Hoynahoy, jo‘natgan telegrammamni olmagandirsan, yo‘lga chiqqandirsan, bu paytda. Gap shundaki, Jambulga kutilmaganda Igoring otasi kelib, bola xususida sudga ariza beribdi. Tezlik bilan Jambulga jo‘nadim. Bunga unga yozgan xatim sababchi bo‘lsa kerak. Unga o‘zim g‘oyatda hurmat qiladigan odam bilan yangi hayot qurmoqchi bo‘layotganimni ochiq ma’lum qilgan edim. O‘rtamizda bola borligi uchun buni unga aytishim kerak edi.

Sevgilim, meni yana bir karra kechir. Shunday bo‘lib qoldi. Qaytaga yaxshi bo‘ldi. Ertami, kechmi, bari bir bu masalani hal qilish kerak edi. Boshidan bitadigan ishning bitgani ma’qu.

Sen kelganingda eshik yopiq bo‘ladi. Kalitni laborant qizimiz Saula Alimboevaga qoldirib ketaman. Juda ham yaxshi qiz. Bizning laboratoriyamiz qaerdaligini bilasan-ku. Undan kalitni olib, bemalol menikida turaver. Hech narsadan qisinma va meni kut. Afsuski, Oliya Ismoilovna dam olishga chiqqan, bo‘lmasa u bilan gaplashib turishing mumkin edi, antiqa ayol. U seni juda hurmat qiladi. Bir haftada ishlarimni bitirsam kerak. Bundan bizga hech narsa to‘g‘anoq bo‘lmasligi uchun qo‘limdan kelgancha harakat qilaman. Kichkina Igorni ko‘rishingni istagan edim. Menimcha, u bilan inoq bo‘lib ketasizlar. Hammamiz birga tursak deyman. Ungacha oldin aytganimday, ota-onamni ko‘rib kelsak, sen Fedor Kuzmich va Veronika Andreevna bilan tanishib olishing kerak. Sevgilim Avdiy, ranjima va ko‘nglingni cho‘ktirma. Hammasi joyida bo‘ladi.

*Sening Ingang.*

Aytgancha. Agar ishdan tashqari paytda kelib qolsang, Alimboevaning adresi: Abay ko‘chasi, 41. Erining ismi sharifi Daurbek Iksanovich».

Avdiy xatni hovliqqancha o‘qib chiqib, o‘yga toldi. U hang-mang bo‘lib qoldi: hech kutilmaganda ish butunlay boshqacha tus ola boshlagan edi. Avdiy kalit izlab bormadi. Kutish zalida yaxshilab o‘ylab olishga qaror berdi. Keyin jomadonini saqlash uchun topshirdi. Xiyobonga chiqib o‘tirdi. Tanish kasalxona atrofida aylanib yurdi. Keyin bekat bilan shaharcha orasida yolg‘izoyoq yo‘l borligini ko‘rib, undan nari borib, beri kela boshladi...

Cho‘lga kech kuz kirgan edi. Ancha salqin tushgan. Momiq, ukpar bulutlar xuddi ummonlarning olis oq yollari kabi oktyabrning yoz o‘tib bo‘zrang tus olgan osmonini qoplagan edi. Daraxtlar yaproqlarini to‘kib qo‘yayozgan, oyoqlar ostida qip-qizil, qo‘ng‘ir yaproqlar shildirardi. Otizlar ham yig‘ishtirib olingan, yalang‘och bo‘lib qolgandi. Jalpoq-Sozning ko‘chalari huvillagan, zerikarli edi. Havoda mezonlar uchib yurar, kutilmaganda yuzga yopishardi. Bularning bari Avdiyni dilgir qillardи. O‘z texnika qudrati bilan cho‘l kengliklyrini bosgan bekatda hammayoqni guldiragan, qaldiragan

ovozlar tutgan, hayot tomirlari to‘xtovsiz gursillab urib turardi. Hisobsiz temir izlarda u yoqdan-bu yoqqa poezdlar yurar, odamlar o‘tishar, radiodan navbatchilarning ovozlari cho‘lga xirillab taralardi.

Yana Avdiy o‘sha yoz kunlarini, choparlar qissasining oxirgi damlarini esladи. Shu asnoda Avdiy yana necha-necha bor tavba-tazarru haqidagi hayollariga qaytdi. Qancha ko‘p o‘ylagan sari, shuncha ko‘p ishonch hosil qilar ediki, tavba — bu hayot tajribasi ko‘paygan sayin ortib boraveradigan vijdon qiymati, qo‘lga kiritiladigan qiymat, inson aql-idroki tomonidan tarbiyalanadigan, parvarishlanadigan qiymat ekan. Odam bolasidan boshqa hech kimga pushaymonlik hissiyoti berilmagan. Tavba — inson ruhining o‘zi haqidagi abadiy va hech o‘zgarmas g‘amxo‘rligidir. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, qilg‘ilik va yoki jinoyat uchun beriladigan har qanday jazo — jinoyatchini pushaymonga solishi kerak. Aks holda bu vahshiy hayvonni jazolashdan boshqa narsa emas.

Shularni o‘ylagancha, Avdiy vokzalga qaytdi. Esiga anov tajang leytenant tushdi. Meni eslarmikin. Petruxa, Lyonkaga o‘xshagan nasha yig‘uvchilarning holi nima kechdiykin, degan hayolda leytenantni ko‘rmoqchi bo‘ldi. Buni bilishni istaganining boshqa bir sababi ham bor edi: u xuddi osmon chetida uyulib kelayotgan qora bulutlarday o‘zini betinim o‘rtab, bezovta qilayotgan Inga Fyodorovna haqidagi hayollardan jon-jahdi bilan forig‘ bo‘lishni xohlardi. U endi o‘zining butun hayoti, kelajagini shu narsa bilan o‘lchardi. Uning taqdiri uzoq Jambulda ishning qandoq borishiga bog‘liq bo‘lib qolgandi. Bu yerda u chorasz edil, shunday ekan, buni o‘ylamaslik, yopirilib kelayotgan hayollardan nari qochish kerak. Afsuski, tajang leytenantni Avdiy topolmadi. Avdiy militsiya xonasining eshigini taqillatgan edi, bir xodim chiqdi.

— Nima deysiz?

— E, bilasizmi, bir leytenantni ko‘rmoqchi edim,— deb tushuntira boshladi Avdiy, bundan hech narsa chiqmasligini oldindan sezib.

— Kim u? Bizda leytenantlar ko‘p.

— Afsuski, uning ismi sharifini bilmayman, lekin ko‘rsam, taniyman.

— Ishingiz bormidi?

— Nima desamikin, gaplashmoqchi edim...

Militsiya xodimi unga qiziqsinib qaradi.

— Mayli, qarab ko‘r, balki leytenantingni toparsan.

Lekin ichkarida bu safar telefon oldida boshqa bir odam kim bilandir gaplashib o‘tirardi. Avdiy uzr so‘rab chiqib ketdi. Chiqarkan, ilgari qo‘lga tushgan jinoyatchilar o‘tirgan to‘sinqorqasiga ko‘z yugurtirdi. Qafas bo‘m-bo‘sh edi.

Yana Avdiy o‘zi istar-istamas yuragini o‘rtagan hayollar domiga tushdi. Ingaga nima bo‘ldi? Uning hamon Inga tashlab ketgan kalitni borib olgisi kelmasdi: Inganing huvillagan uyida yana yakka, azobli o‘ylar iskanjasida qovurilishi, o‘zini haddan tashqari yolg‘iz his qilishini bilardi. Agar Inganing ahvolini va uning qachon qaytishini bilganda edi, vokzalda o‘tirib ham kutaverardi. Avdiy shu tobda Jambulda nimalar bo‘layotgani, o‘zi sevgan ayolga qanchalar og‘ir ekanligini tasavvur qilishga urinar, qo‘lidan hech narsa kelmasligidan o‘kinardi. Ota-onasi bolani otadan mahrum qilmaslik uchun ering bilan yarash deb, turib olsalar, unda nima bo‘ladi? Ish shu darajaga ham borishi mumkin-ku, axir. Unda to‘rva-xaltasini ko‘tarib orqaga qaytishga to‘g‘ri keladi. Avdiy yarqirab turgan, kelishgan, forma kiygan, pogon taqqan, unvoni ham mayordan kam bo‘lmagan kishini ko‘z o‘ngiga keltirib ko‘rdi. Albatta, uning oldida Avdiyning hech qanday afzal joyi yo‘q. Inga uchun qandaydir unvonlaru tashqi yiltiroqlikning hech qanday ahamiyatga ega emasligiga Avdiyning ishonchi komil edi. Kim bilsin, balki Inganing ota-onasi uchun buning ahamiyati bordir, harbiy uchuvchi, Igorning otasi kuyov bo‘lgani ma’qulmi yoki ish-hushining tayini yo‘q g‘alati bir kimsa ma’qulmi?— ular bunga befarq qaray olmasalar kerak.

Qosh qoraymoqda edi. Qorong‘u tusha boshlaganini ko‘rib, Avdiyning dili battar xufton bo‘ldi. Odamlar tiqilib ketgan vokzalning ichi g‘ira-shira yoritilgan, havo dim, tamaki tutuniga to‘lgan, Avdiyning ichiga chiroq yoqsa yorimasdi. Nazarida qorong‘u, ko‘rqinchli o‘rmonga kirib qolganday

edi. G'arib edi. G'aribdan g'arib. Kuzning shamollari shuvillab daraxtlarning boshlarini egadi. Tez orada qor tushadi. Qor daraxtlarni ham, Avdiyni ham ko'mib ketadi. Hammasini qor bosadi va hammasi unutiladi... Avdiy jonidan to'ygan edi. Agar shu soatlarda u Inganing kelmasligini yoki mabodo, kelsa ham, yolg'iz kelmay, narsalari-yu kitoblarini yig'ishtirib, so'ng o'z harbiy uchuvchisi bilan jo'nab ketishini bilsa, shu zahoti hatto o'ylab ham o'tirmay, o'zini poezd tagiga tashlagan bo'lardi...

Mo'yinqum safari uchun zarur odamlarni to'plab yurgan Ober-Kandalov Avdiy Kallistratovni mana shunday og'ir soatda, bemahal bir vaqtda Jalpoq-Soz vokzalida uchratdi. Ober-Kandalov ancha ko'zi pishgan odam bo'lsa kerak, har qalay, bir qarashda Avdiy g'oyatda nochor ahvolda ekanligini va o'zini qo'yishga joy topolmayotganligini bildi. Haqiqatan ham, Ober-Kandalov Avdiyni Mo'yinqum cho'liga ikki-uch kunga mo'may pul ishlab kelish uchun taklif qilganda, u darhol ko'na qoldi. U shomi g'aribonda nima bo'ladi-nima qo'yadi deb, shumshayib o'tirmaslik uchun har narsaga tayyor edi. Balki Mo'yinqumdan pul topib qaytgunimcha, Inga Fyodorovna ham kelib qolar va hammasi joy-joyiga tushib ketar: yoki u (o, qanday baxt!) sevgani bilan butkul qovusha-di, yoki orqaga qaytishga, yana yashash uchun o'zida kuch topishga to'g'ri keladi... Lekin bunisidan u juda-juda qo'rqadi...

O'sha kecha Ober-Kandalov Avdiyni yong'indan saqlanish binosiga olib bordi. U shu yerda bo'sh karavotda tong ottirdi...

Ertasiga ertalab hammalari mashinalar karvonida Mo'yinqum cho'liga qirg'inga otlandilar. O'ynab-kulib kelamiz derdilar...

\* \* \*

Mana endi ular Avdiy Kallistratovni sud qilishardi. Ular deganimiz — besh aroqxo'r — Ober-Kandalov, Mishash, Kepa, Gamlet-Galkin va Aborigen-Uzuqboy. To'g'rirog'i, Gamlet-Galkin va Aborigen-Uzuqboy faqat tomoshabin bo'lib turishar, anov quturib sud qilayotgan uchovni qandaydir yumshatishga qo'rqa-pisa, botinib-botinmay urinishardi.

Gap shundaki, kechga borib, ho've vagonda bo'lganiday yana Avdiyning jini tutdi. Shundan keyin o'ch olish boshlandi. Mo'yinqum kiyiklariga uyuştirilgan qirg'in Avdiyga shunchalar og'ir ta'sir qildiki, bu xunrezlikni darhol to'xtatishni talab qildi, vahshiylashib ketgan ovchilarni tavbaga chaqirdi, Xudodan kechirim so'raylik dedi, Gamlet-Galkin, Uzuqboyga menga qo'shilinglar, deb yalindi. "Uchovlon bo'lib, Ober-Kandalov va uning malaylarini tashlab ketaylik, jahonga bir jar solaylik, har birimiz Xudoni, Olloh Karimni o'laylik, Uning behudud rahm-shafqatidan umidvor bo'laylik, tirik tabiatga yetkizgan ziyon-zahmatimiz uchun, qilgan gunohlarimiz uchun Undan mag'firat tilaylik, inchunun, chin dildan tavba-tazaru qilibgina marhamatiga yetishmoq mumkin".

Avdiy qichqirar, qo'llarini osmonga ko'tarar, menga qo'shilinglar, yomonlikdan poklanaylik, istig'for aytaylik, deb yolvorardi.

U jazavaga tushar, bema'ni va kulgili bo'lib ko'rinar, xuddi oxir zamon kelganidan xabar berayotganday bo'kirar, faryod ko'tarar, nazarida hamma-hammasi zulmat chohiga, jahannam olovlar ichiga qulayotganday edi.

U mo'may pul ishlash uchun kelganlarni Xudo bilan yarashtirmoqchi bo'lardi... Ko'z ilg'ammas Mo'yinqum kengliklarida avjga minib borayotgan qirg'in barotni to'xtatishga ko'shish etardi. Lekin har narsadan qudratli mexanizatsiyaga kuchi yetarmidi uning...

Yengib bo'lmas narsani yengaman derdi...

Shundan so'ng Mishashning maslahatiga ko'ra uni arqon bilan chirmab bog'lashdi-da, mashinaga yuklangan o'lgan sayg'oqlar ustiga itqitishdi.

— Shu yerda yot, onangni. Sayg'oq bilan qo'shmozor bo'l! — deb hirqiradi Mishash azbaroyi bo'g'ilib.— Chaqir endi Xudo Yingni! Balki chaqirganining eshitsa, oldingga tushar, he, onangni...

Tun edi. Mo'yinqum osmonida oy edi. Hammayoq qonga botgandi. Barcha tirik jonivorlar va hatto

bo'rilar ham olam ostan-ustun bo'lib ketganligini o'z ko'zlari bilan ko'rgan edilar...

Xonavayron qiluvchilar esa bayram kayfini surishardi... Faqat Mo'yinqumga kulfat tortib kelgan Avdiygina ko'kka tikilib yig'lab yotardi...

Shu bois uni sud qilmoqchi edilar.

\* \* \*

Mishash bilan Kepa Avdiyni mashinadan tortib tushirishdi-da, Ober-Kandalovning oldiga sudrab kelib, yelkasidan bosib cho'kkalatishdi. Ober-Kandalov bo'sh yashikning ustida bujmayib g'ijimlangan plashchining etaklarini ikki tomonga yoyib, kirza etikdagi oyoqlarini kerib o'tirardi. Mashina kichik chiroqlarining yorug'ida u g'ayritabiiy vahimali, badqovoq va haddan tashqari mudhish ko'rinardi. Yon tomonida toza kiyik go'shtidan pishirilgan kabobning hidi ko'tarilayotgan olov, bu yerda junjikkan, qurpayishgan Gamlet-Galkin bilan Aborigen-Uzuqboy tik turishibdi. Ikkovining ham kayfi taroq, Avdiyni Ober qanday tergashini kutib, nimalarnidir pichir-pichir qilishib, bema'nilarcha iljayishar, bir-birlarini turtib qo'yishar, ko'z qisishardi.

— Ha, nima deysan?— deb so'radi nihoyat Ober oldida cho'kkalab turgan Avdiya yeb yuborguday qarab.— Aqling kirdimi?

— Qo'limni yechinglar,— dedi Avdiy.

— Qo'lingnimi? Nega qo'ling boylandi, shuni o'yladingmi? Isyonchilar, fitnachilar, g'alamislardan tartib-intizomni buzuvchilarining qo'llari boyylanadi! Buziqilarni, tushundingmi? Tartib buziqilarni!

Avdiy miq etmadi.

— Mayli, yechevak, yechaylik qo'lingni, undan keyin nima qilar ekansan, ko'ramiz,— deb rahm qildi Ober.— Qani, uning qo'lini yechinglar,— buyurdi u,— hozir qo'li o'ziga kerak bo'ladi.

— Onangni... chechib nima qiladi,— to'ng'illadi norizo bo'lib Mishash Avdiyning qo'lini arqondan bo'shatarkan.— Bularni darrov kuchuk boladay suvga cho'ktirish kerak. Bundaylarni yetti buklab, yerga qoziq qilib qoqish kerak.

Arqon yechilgandan keyingina Avdiy yelkalari va qo'llari qanchalar uvishib qolganligini sezdi.

— Mana, iltimosingni bajardik,— dedi Ober-Kandalov.— Hali vaqting bor. Hozircha, ma, manavini ich!— u Avdiyga aroq to'la stakan uzatdi.

— Yo'q, ichmayman,— qaytardi Avdiy.

— Ichmasang ichma, kon quskur!— Ober stakandagi aroqni Avdiyning yuziga shartta sepib yubordi. Avdiy cho'chib tushdi, qalqiy-qalqiy o'rnidan irg'ib turib ketdi. Biroq Mishash bilan Kepa yana yelkasidan bosib, Avdiyni yerga qapishtirib qo'yishdi.

— Yolg'on aytyapsan, onangni... ichasan!— irilladi Mishash.— Aytmadimmi, bundaylarni cho'ktirish kerak! Qani, Ober, aroqdan quy. Og'zidan quymasam, odamasman. Ichmasin-chi, itday urib o'ldiraman.

Stakan Mishashning qo'lida qisirlab ketdi, cheti Avdiyning lablari, yuzlarini tildi. O'z qoniga halqob bo'lgan va aroq tomog'iga tiqilgan Avdiy boshini olib qochdi, Mishash bilan Kepaga qarshilik ko'rsatib, oyoq-qo'llarini tarpitdi.

— Bolalar, qo'ysanglar-chi, Xudo ko'tarsin, ichmasa, ichmasin, o'zimiz ichamiz!— Gamlet-Galkin tepkilashib yotganlarning atrofida zir yugurib, zorlanardi. Aborigen-Uzuqboy mashinaning orqasiga qochdi. U yerdan nima qilishini bilmay qo'rqa-pisa qarab turdi: qochay desa, hali shuncha ichilmagan aroq qolib ketadi, qochmay desa, boshiga balo orttiradi... Faqat Ober-Kandalovgina taxtda o'tirganday bo'sh yashikdan qimirlamay o'mbaloq oshib dumalashayotganlarni tomosha qilardi. Gamlet-Galkin Ober oldiga yugurdi.

— To'xtat, Ober, baraka topkur, o'ldirib qo'yishadi. Qamalib ketamiz!

— Qamalarmish!— kibr bilan ijirg'anib dedi Ober.— Mo'yinqumda qamoq nima qiladi, tentak? Bu yerda men sudman! Kim bilib o'tiribdi nima bo'lganini. Uni balki bo'rilar burdalab ketgandir. Kim

ko‘rgan, kim isbotlaydi!..

Avdiy hushdan ketib, ularning oyoqlari ostiga quladi. Ikkovlashib uni tepkilay berishdi. Ko‘zi qorong‘ilasharkan, Avdiy oxirgi marotaba Ingani o‘yladi: uning holi nima kechadi, uni hech qachon hech kim o‘zi sevgan kabi sevolmaydi.

Uning qulog‘i chip bitdi, ko‘z o‘ngini tuman qopladi. Shunda hayol lavhasida ko‘kyol bo‘rini ko‘rganday bo‘ldi. Issiq yoz payti nashazorda ustidan olovday uchib o‘tgan bo‘ri...

— Meni qutqar, bo‘rijon,— bu Avdiyning bo‘g‘zidan chiqqan oxirgi so‘z edi.

U allaqanday savqi tabiiy bilan Akbara va Toshchaynar o‘z inlariga yaqinlashib kelayotganliklarini aniq his qildi. Lekin uya atrofida odamlar bor edi. Maxluqlar, odamlar endi jo‘nab ketgan bo‘lsalar kerak deb, umidvor bo‘lib yana qadrdon joylarini qora tortib kelgan edilar...

Lekin yuk mashinasi hamon o‘sha yerda haybatli qorayib ko‘rinar, u yerdan baqiriq-chaqiriqlar, to‘polon, urgan, so‘kkan ovozlar quloqqa chalinardi...

Bo‘rilar yana cho‘lga qaytishga majbur bo‘ldilar. Ular xit, aftodahol, boshlari oqqan tomonga ketib borardilar... Odamlar tufayli ular halovatlarini yo‘qotgan, na kechasi va na kunduzi tinchimas edilar... Ular ohista sudralishar, oy dumlarini qisgancha oqsoqlanib borayotgan maxluqlarga mayus nurini sochardi...

Sud, tergov esa davom etardi... G’irt mast qirg‘inchilar Avdiyni do‘pposlab yerga qulatisharkan, u endi butunlay o‘rnidan turolmay yotib qolganiga e‘tibor bermasdilar.

— Qani, o‘rningdan tur-chi, popning o‘g‘li,— deb tepkilashardi uni dam Mishash, dam Kepa o‘rnidan turg‘izmoqchi bo‘lib. Lekin Avdiy tinmay ingrardi, xolos. Quturib ketgan Ober-Kandalov qopday bo‘shashib qolgan Avdiyni yerdan ko‘tardi-da, yoqasidan bo‘g‘ib olgancha, og‘zidan ko‘pik sochib bo‘kira boshladi. U bo‘kirgan sari yana battar xurushga minardi:

— Sen qanjiq, hali bizni Xudo bilan qo‘rqitadigan bo‘ldingmi! Ko‘zimizni xudo deb o‘yib olmoqchimisan, iflos! Bizni Xudo bilan qo‘rqtolmaysan. Sen o‘ylagan odamlar boshqa, qanjiq! O‘zing kimsan! Biz bu yerda davlatning topshirig‘ini ado etyapmiz, sen, qanjiq, planga qarshisan, oblastga qarshisan. Bundan chiqadiki, sen, iflos, xalq dushmanisan, xalq va davlat dushmanisan. Senga o‘xshagan dushmanlarga, zararkunandalarga, qo‘poruvchilarga yer yuzidan o‘rin yo‘q! Stalin aytgan: «Kim biz bilan emas, demak, bizga qarshi». Xalq dushmanlarini tag-tomiri bilan quritib tashlaymiz! Ayamaymiz! Agar dushman taslim bo‘lmasa, uni majaqlab onasinkiga kirgizib yuboradilar. Armiyada bunday so‘zlar uchun oyog‘ingni osmondan qiladilar, vassalom! Ona zaminimizni senday ifloslardan tozalaymiz. Hey, cherkov kalamushi, sen qilayotgan ishingni bilasanmi? Sen hammasini barbod qilmoqchisan! Topshiriqqa g‘ov qo‘yyapsan! Hammamizni yuzimizni yerga qaratmoqchisan. Hey, men seni xalq dushmaniday bo‘g‘ib o‘ldiraman. Menga rahmat deydilar. Chunki sen imperializmning ayg‘oqchisisan, iflos! Stalin yo‘q, xohlagan ishimizni qilamiz deysan-da, a? Sen popning gazandasи, qani, tiz cho‘k, hoziroq tiz cho‘k. Mana, men senga hokimman. Qayt Xudodan! Tanimayman, bilmayman de! Voz kech! Aksincha, asfalasofilinga jo‘naysan, iflos!

Avdiy tizzasida turolmadi, yiqildi. Uni ko‘tarib qo‘ydilar.

— Gapir, iflos,— bo‘kirardi Ober-Kandalov.— Xudodan yuz o‘gir! Ayt! Xudo yo‘q, deb ayt!

— Xudo bor!— ingrandi Avdiy.

— E, hali shundoqmi!— ilon chaqqanday o‘kirdi Mishash.— Men senga aytdim-ku, onangni, tilini bermaydi deb!

Ober-Kandalov qahridan bo‘g‘ilib yana Avdiyni yoqasidan bo‘g‘ib silkitdi.

— Bilib qo‘y, hoy, xudojo‘y, hozir onangni uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatib qo‘yamiz! Hech esingdan chiqmaydi! Qani, uni huv anov saksovulga olib boringlar. Iflosni osamiz!— deb chinqirardi Ober-Kandalov.— Oyog‘ining tagidan o‘t qo‘yamiz. Yonib ketsin bu to‘ng‘iz!

Shundan so‘ng Avdiyni jar tepasida o‘sgan qari saksovul sari sudrab ketdilar.

— Arqon keltir!— buyurdi Ober-Kandalov Kepaga.

Kepa kabinaga yugurdi.

— Hey, menga qaranglar! Uzuqboy, mamlakatning egasi, qaydasan, padaringga la'nat! Sen-chi, hoy, bozori kasod artist, nega bir chekkada qarab turibsanlar, a? Qani, kelib buni bir boslaring-chi! Bo'lmasa, aroq yo'q senlarga?— qo'rqtidi Ober-Kandalov aroqxo'rlarni. Shundan so'ng ikkovi yugurgilashib kelib sho'rlik Avdiyni osa boshladilar.

Bezorilik birdan mash'um tus oldi. Bema'nilik, masxarabozlikning oxiri katl bilan tugaydiganga o'xshab qoldi.

— Onangni, bu cho'lda mix bilan taxta topilmadi-da! Voy, onangni!— afsuslanardi Mishash saksovul shoxlarini qasir-qusur sindirarkan.— Buni taxtaga qoqsak, ko'p zo'r ish bo'lardi-da, onangni! Qaniydi mixlab tashlasak!

— Hech ziyoni yo'q! Uni arqonga tortamiz! Mixlaganday bo'lib turadi!— yo'lini topdi Ober-Kandalov.— Qo'li, oyog'idan tortib baqaday qotirib qo'yamiz, qimir etolmaydi! Ertalabgacha osilib tursin-chi, ko'ramiz. Xudo bormi, yo'qmi! O'ylab olsin ertalabgacha! Men uni shunday ham tarbiyalayki, bir umr esidan chiqarmaydi, popning sarqiti! Armiyada bundan battarlarini ko'p ko'rganman! Yotqizib turg'izganman! Qani, ko'tarlaring, bolalar! Qani, ol, ha! Qo'lini bu yoqqa tort, oyog'ini bu yoqqa!

Avdiy endi zig'ircha ham qarshilik ko'rsatolmas, shuning uchun hammasi ko'z ochib-yumguncha ro'y berdi. Qo'l-oyoqlari saksovulning shoxlariga tortib bog'langan Avdiy xuddi yangi so'yilgan qo'yday osildi-qoldi. Avdiy hali so'kingan ovozlarni elas-elas eshitib turdi. Azob kuchini qiyib tashladi. O'ng biqini chidab bo'lmaydigan darajada achishardi, belida nimadir uzilib ketdi. Avdiy hushidan ayrilib borardi. Uni qyinoqqa solganlar oyog'inining tagida yoqishga zo'r berib urinishardi. Lekin, endi Avdiyga bari bir edi. O't oldirolmadilar. Kuni kecha tushgan qor ostida qolib nam tortgan shox-shabbani yondirib bo'lindi. Benzin sepish hech kimning esiga kelmadi. Shusiz ham Avdiyni boplab jabrlaganlaridan mammun edilar. Tashqaridan qaraganda, u xuddi osilgan va og'ochga tortilgandek bo'lib turardi. Bu hammalarining kayflarini chog' qilib, bahri dillarini ochib yubordi. Ayniqsa, Ober-Kandalovning dimog'i chog' bo'ladi. E, bu hali nima bo'pti. Osilsa, cho'lda bitta odam osilibdi. Uning ko'z o'ngida aqlni lol qiladigan ne-ne shu kabi manzaralar keng miqyoslarda gavdalanardi!

— Har kim bilib qo'ysin! Doim ana shunday bo'ladi!— deb iddao qilardi u saksovulga tortilgan Avdiyni tomosha qilarkan.— Menga qolsa, bizga qo'shilmaganlarning hammasini ana shunday oyog'ini osmondan keltirardim. Tilini osiltirib yotardi. Kim bizga qarshi bo'lsa, hammasini osib chiqardim. Yer sharini shunday siqib, iskanjaga olardim. Ana o'shanda hech kim bizga miq etib og'zini ochmasdi. Hamma qulluq qilib turardi... E, qani, yurlaring, komissarlar, yana bittadan otaylik, eh, bizdan nima ketdi...

Ular hammalari Oberning gap-so'zlarini ma'qullahib, tasanno o'kishib, to'palang solib, mashina tomon ketdilar. Ober esa chamasi, yolg'iz o'zigagina ma'lum qo'shiqni xirgoyi qila boshladi:

Galifeni kiyamiz,  
yonimizda to'pponcha,  
Bir-ikki, bir-ikki...

«Komissar»ning kayfi taroq ulfatlari jo'r bo'lishdi: «bir-ikki, bir-ikki». Keyin yana ikkita yarimtalikni ochishib, shishaning o'zidan ichishdi.

Bir ozdan so'ng mashinaning chiroqlari porladi, motor gurulladi, burilib, asta cho'l ichiga yurib ketdi. Zimiston qorong'ulik quyuqlashdi. Atrofga suv quyganday jimjitlik cho'kdi. Daraxtga osilgan Avdiy dunyoda yolg'iz qoldi. Ko'kragi sirqirab og'rirlar, ichi ag'darilib, chidab bo'lmas azob berardi... Suv bosganda cho'kayotgan orol kabi es-hush uni tark etmoqda edi.

«Mening Okadagi jaziram... Endi seni kim xalos etajak, Murabbiy?»— oxirgi fikr uchquni shunday sachrab so'ndi.

Xayrul umurning so'nggi suvlari oqib borardi...

Uning so'nayotgan nigohlariga ulug' ummon, keta-ketguncha cheksiz-hududsiz suv ko'rindi. Suv sassiz qaynar, xuddi bo'm-bo'sh dalalarda yer bag'irlab yugurgan yalatma izg'irinday suv uzra sassiz oq to'lqinlar mavj solib yugurgilardilar. Ularning qaerdan paydo bo'layotgani va qayoqqa borayotgani noma'lum edi. Lekin o'sha gung ummonning elas-elas ilg'angan sohillarida suv uzra bir odamning qorasi g'ira-shira ko'zga chalinardi. Avdiy bu odamni tanidi. U o'zining otasi dyakon Kallistratov edi. Shunda birdan Avdiyning qulog'iga o'z o'smir ovozi chalindi. Xuddi bolalik chog'lari eski pianino oldida turib qiroat qilgan kabi ovoz yana otasiga cho'kib ketgan kema haqidagi tilovatni o'qirdi. Faqat hozir oralarida olis-olis makonlar yotardi. O'smir ovozi esa jahon mulkatlari uzra ilhomkor bir jarang bilan sadolanardi:

«Osmon oqarib kelyapti, hali hamma uyquda...»

...Senga, har narsani Qo'ruvchi va har narsaga Rahm va Adolat etguvchi, ko'ngildagi zorimni tilovat qilib aytaman. Xudojo, o'zing kechirgaysan, to Seni yod etmoqdan burun o'z dodimni esladim. Lekin to tirik ekanman, shu tilovatni tilimdan qo'ymagayman.

Sen Rahimi Rahmonsan, Haqsan, Karimsan, kechir, seni o'z arzim bilan bezovta qilmoqdaman. Men o'lim uchun hech narsa so'ramayman. Menga dunyo rohat-farog'ati darkor emas. Umrim chirog'ini uzaytirmasang ham, mayliga. Yolg'iz odamzod bolalarining dillarini xalos etmoq istayman. Sen G'affori olamsan, ko'ngillarimizga muhr bosma, jaholatda yondirma. Toki, yaxshilik va yomonlik bu olamda birga mavjud ekan, bizni bahonai sabab zanjirlaridan xalos et. Odam bolalarining dil ko'zlarini ochgaysan. O'zim uchun so'ramayman, tilim ojiz. Men har qanday ajr-oqibatingga hozirman — xoh jahannam o'tiga tashla, xoh hududsiz Saltanatingga qabul et. Qismatimiz o'z qo'lingda, o'zingga ayon, yo Xalloq, yo Mallo!

Senga yolg'iz bir arzim bor, o'zga arzim yo'q...

Yolg'iz shuni so'rayman: mo'jizangni ko'rsat: mayliga, o'sha kema kechan kecha, kunduzni kunduz demay o'z yo'lida to'xtovsiz davom etsin, to samo evrilmog'ida kun tunga batamom quylguncha, tun kunga batamom quylguncha. Mayliga, o'sha kema, to'p-to'pxonalarni qantargancha, to'xtovsiz ummonlardan ummonlarga kezib yursin, to'lqinlar uvvos solib to'shlariga urilsin, ularning to'xtamas qudratli guldurosi mudom eshitilib tursin, ummon zarralari uning ustiga shuvillagan yomg'ir bo'lib yog'ilsin, shu nam va uchqur zarrot ila nafas olsin. Mayliga, u kema devorlarining qarsillagani, mashinalarning gursillagani, shamol epkinida kema ketidan ergashgan chorloqlarning ohu zorlarini tinglasin. Mayliga, kema eng uzoq ummonlarning ko'z ilg'ammas sohillariga va u yerdan oppoq shaharga yo'l tutsin, va lekin hech qachon garchi u yerga yeta olmagay... Omin».

Uning tovushi uzoqlashib, tinib borardi... Avdiy o'zining okeanlar uzra ho'ngrab yig'laganini eshitardi...

Mo'yinqumning intihosiz cho'lida tun bo'yi to'lin oy saksovulga osib ketilgan, endi sovub, qotib qolgan odam tanasiga ko'zni qamashtiradigan yarqiroq shu'lalarini to'kib chiqdi. Uning qiyofasi osmonga parvoz qilib intilgan, lekin banogoh o'q tegib qulagan va daraxt ustiga itqitib yuborilgan, qanotlari yozilgan kattakon qushni eslatardi.

Mana shu yerdan bir yarim chaqirim narida esa o'sha harbiy siyoqli, usti brezent bilan yopilgan yuk mashinasini turar, unda sayg'oqlarning to'shlariga chalqancha tushib, qusqlariga belangan Ober-Kandalovchilar uqlab yotishardi. Xirqiran og'ir xurrak tovushlari eshitilardi. Ular Avdiyni kechasi yolg'iz qoldirish uchun nariroqqa ketdilar, uning ta'zirini berib qo'ymoqchi edilar: qani, bir o'zining qo'lidan nima kelarkin, hali dumini likillatib yalinadi, balki Xudodan ham qaytib qolar...

Avdiyga bunday jazo berish yo'lini sobiq artist Gamlet-Galkin qayta-qayta shisha ko'targandan keyin to'qib chiqqargan edi. Ober-Kandalovga yaxshi ko'rinish uchun shuni aytdi. Xudojo'yni bir sazo qilaylik, qo'rqib o'takasi yorilsin, dedi... Osib, tashlab ketishdi deb o'ylasin. Ularning orqalaridan

chopay desa ahvol bundoq!

Ertalab, kun g‘ira-shira yorisha boshlagan payt bo‘rilar ohista o‘z inlariga yaqinlashib keldilar. Oldin Akbara borar, tungi qocha-qochdan qorni ich-ichiga kirib ketgan, xo‘mraygan kallador Toshchaynar uning orqasidan oqsoqlanib qadam bosardi. Eski qadrdon joylari kimsasiz huvillab yotar, odamlar kechasi allaqayga g‘oyib bo‘lgan edilar. Lekin jondorlar bu yerda agar ta’bir joiz bo‘lsa, xuddi mina ko‘milganday, ehtiyotkor, hurkak qadam bosishardi... Har qadamda ular yot-yovuq narsalarga duch kelishardi: o‘chgan gulxan, bo‘sh tunuka idishlar, singan, sinmagan, qo‘lansa hid taratib yotgan shishalar, mashina g‘ildiraklarining izi o‘rnida qolgan rezinka va temir islari. Bulg‘ab tashlangan bu yerni butqul tark etmoq niyatida bo‘rilar jar yoqasi bo‘ylab keta boshladilar. Shunda birdan Akbara o‘zini sapchib chetga oldi va turgan joyida qotib qoldi — odam! Undan ikki qadam narida qo‘llarini yozib, boshini solintirgan odam saksovulga osilib turardi. Akbara o‘zini butalar orasiga otdi, Toshchaynar uning ortidan hatladi. Daraxtdagi odam qimir etmasdi. Shamol shoxlar oralab chiyillar, odamning oq manglayiga tushgan sochlari o‘ynardi. Akbara yerga qapishdi, hamla qilishga hozirlandi. Uning ro‘parasida barcha maxluqlar ichra eng dahshatlisi, ularning boshiga shuncha kulfatlarni solgan qattol dushman turardi. Akbara qahr bilan o‘zini andak orqaga oldi. U shiddat bilan sakramoqchi, odamning bo‘g‘ziga o‘tkir tishlarini botirmoqchi edi. Shunda oxirgi damda bo‘ri bu odamni tanidi. Lekin qachon, qaerda ko‘rgan edi uni? E, bu o‘sha g‘alati odam-ku, yozda nashapoyaga borganlarida duch kelgan, bolalari bilan erkalab o‘ynashmoqchi bo‘lgan, Akbara hamla qilib sakragan va uni ayab, ustidan oshib nariga o‘tgan. O’shanda u qo‘rqib ketib, yerga o‘tirib qolgan, yuzini qo‘llari bilan berkitgan edi. Akbara uning hayrat va qo‘rqinchda katta-katta ochilgan ko‘zlarini esladi. Shilingpocha bo‘lib, cho‘lga tiraqaylab qochgandi o‘shanda... Mana endi, o‘sha kimsa pastak saksovulda qanotlari tarvaqaylagan qush kabi g‘alati osilib turibdi. U tirikmi, o‘likmi, bo‘ri bilolmadi. Odam qimirlamas, hech qanday sas chiqarmas, boshi yon tomonga qiyshayib tushgan, og‘zining bir chetidan qon sizib oqardi. Toshchaynar odamga tashlanmoqchi edi, Akbara uni nari itardi. U odamga yaqinlashib, uning yuziga tikilib qaradi va ohista uvlab yubordi: halok bo‘lgan bolalari yodiga tushdi. Hayot esa Mo‘yinqumda to‘s-to‘polon, abgor bo‘ldi. Kimga yig‘lasin, kimga arz qilsin, axir? Bu odam unga hech yordam berolmaydi. Uning hayot shami so‘nib boryapti, lekin hali joni butkul chiqmagan edi. Odam shishib ketgan qovoqlarini bazo‘r ko‘tardi va sekin uv tortayotgan bo‘riga qarab pichirladi:

— Keldingmi...— so‘ng uning boshi shilq etib tushdi.

Bu uning oxirgi so‘zi edi.

Shu dam motor shovqini eshitildi. Cho‘l betida yuk mashinasi ko‘rindi. U tobora yaqinlashib kelar, kabinasining oynalari xira yiltilliard, Ober-Kandalovchilar jinoyat qilgan joylariga kelmoqda edilar...

Shunda bo‘rilar boshqa bir zum ham paysallamay lo‘killab, borgan sari qadamlarini tezlatib bu yerlardan bosh olib ketdilar. Ular orqaga qaramasdilar. Bo‘rilar ulug‘ Mo‘yinqum cho‘llarini butkul tark etmoqda edilar...

Akbara va Toshchaynar rosa bir yil Aldash bo‘yidagi qamishzorlarda yashadilar. Shu yerda ular hammadan ko‘p — besh farzand ko‘rdilar. Bo‘richalar ancha katta bo‘lib qolishganda, birdan qamishzorga o‘t tushdi! Tog‘da yangi kon ochilgan, unga yo‘l shu qamishzordan o‘tishi kerak edi. Uni yoqishga to‘g‘ri keldi. Aldash ko‘li bo‘ylaridagi yuzlab chaqirim yerlarga cho‘zilgan qadim qamishzorlarning kuli ko‘kka sovurildi. Urushdan keyin bu atroflarda qimmatbaho ma’dan topilgan, mana endi o‘z navbatida cho‘lda yana bir ulkan pochta yashigi qad ko‘tarmoqda edi. Bunday paytda qamishzor ekan-u, hatto noyob ko‘l yo‘q bo‘lib ketsa ham, hech kim hech narsa qilolmaydi. Axir, gap kamyob va qimmat xomashyo haqida boryapti-da. Uni olish uchun yer kurrasini qovoqdek kavlab tashlash ham cho‘t emas.

Avvaliga qamishzorlar ustidan allaqanday yonilg‘i sepib, samolyotlar pastlab uchib yurishdi. Qamishlar birdan o‘t olsin deyishdi shekilli.

O‘t kechasi qo‘yildi. Yonilg‘i sepilgan qamish birdan guv etib alanga oldi va xuddi qalin o‘rmon kabi vahshat bilan yona ketdi. Alanga ko‘k toqiga ko‘tarildi. Qish tumaniday yerni qalin qora dud

chulg‘adi.

Bo‘rilar olov taftini sezganlari hamon, qamish har tomondan yonayotganini ko‘rib, bo‘richalarni qutqarish uchun o‘zlarini u yoqdan-bu yoqqa ura boshladilar. Ularni tishlarida dam u yerga, dam bu yerga ko‘tarib o‘tishardi. Aldashbo‘yi qamishzorlarida qiyomat qo‘pdi. Qushlar ko‘l uzra bulutday uchishar, to‘xtovsiz zorlanib, chag‘illar edilar. Asrlar bo‘yi qamishzorda kun kechirgan qobonlardan tortib ilonlargacha qo‘rquinch sarosimaga tushdilar, o‘zlarini jonholatda to‘rt tomonga urdilar. Bo‘rilar boshiga ham shu kun tushdi. Olov har yoqdan o‘rab, o‘rlab kelar, faqat ko‘lga tashlabgina qutulish mumkin edi. Akbara bilan Toshchaynar uchta bo‘richani qoldirib, ikkitasini tishlarida tishlab ko‘lda suzib ketishdi. Nihoyat, narigi qirg‘oqqa yetib borganlarida, shu narsa ma’lum bo‘ldiki, qancha yuqoriq ko‘tarishga urinmasinlar, bo‘ri bolalari suvgaga bo‘kib o‘lgan edilar.

\* \* \*

Akbara bilan Toshchaynar yana boshqa yurtlarga bosh olib ketdilar. Endi ular tog‘ sari yo‘l olgan edilar. Bo‘rilar savqi tabiiy bilan endilikda faqat tog‘lardagina jon saqlash mumkinligini anglagan edilar.

Bo‘rilar yongan kulkonalarni ortda qoldirib, uzoq yo‘l bosdilar. Qurday tog‘liklaridan bordilar. Bir necha marotaba kechasi chiroqlari ko‘zni oladigan qo‘rquinchli mashinalar tinmay g‘izillagan katta yo‘llarni kesib o‘tdilar. Ularning nazarida shu yugurik chiroqlardan ko‘ra dahshatli narsa dunyoda yo‘q edi. Qurdaydan so‘ng bo‘rilar Oq tuz tog‘lariga ko‘chdilar. Lekin, bu yerlar ham ko‘zlariga xatarli ko‘rinib, yana ichkarilab ketdilar. Oq tuz dovonidan oshib, bo‘rilar Issiqko‘l o‘yig‘idan chiqdilar. Yo‘l tugadi. Naryog‘i dengiz...

Akbara bilan Toshchaynar shu yerda hayotni yana qaytadan boshladilar...

Bola ko‘rdilar. Bu safar ular to‘rtta edi.

Nasl qoldirish uchun bu so‘nggi qattiq urinish edi.

Shu yerda, Issiqko‘lda bo‘rilar qissasi ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan fojia bilan tugadi...

**UChINCHI QISM****I**

Odamlar — taqdirni, taqdir — odamlarni izlab yuradi... Hayotning azal aylanishi shunday... Taqdir mudom o‘z nishonini mo‘ljallab turadi, degan gap rost bo‘lsa, bu safar ham u to‘g‘ri chiqdi. Hammasi haddan tashqari oddiy yuz berdi, qazo kamonidan chiqqan o‘jni orqaga qaytarishning iloji yo‘q...

Kelib-kelib o‘sha kuni Bozorboy No‘yg‘utov geologlarga yo‘l boshlovchilikka yollanib qolganini qarang. Bozorboy geologlarga yo‘l ko‘rsatuvchi kerakligini hayoliga ham keltirmagan edi, geologlar, uni o‘zлari qidirib topishdi, o‘zлari taklif qilishdi.

Tamanga ular yem-xashak tashiladigan, traktor yuradigan yo‘ldan o‘tib kelishgan edi.

— Nega bu yerni Taman deyishadi?—so‘radi ulardan birovi.

— Nima qildi?

— O‘zim, shunday...

— Taman — Tovon degani. Ko‘ryapsanmi, mana etikning poshnasi. Ana shu tovon. Bu yer tog‘larning tovoni. Shuning uchun Taman deyishadi.

— E, shundaymi! Anov Taman ham shu yerdan olingan ekan-da. Mashhur Taman diviziysi!

— Bilmadim, ukam. Buni generallar bilishadi. Bizning ishimiz jo‘n. Cho‘ponlik qilamiz.

Shunday qilib desangiz, geologlar Tamanga yetib kelishib, u yog‘iga aqlimiz yetmaydi, faqat kartadan ko‘rganmiz, yaxshisi, bizni shu yerlik odamlardan birontasi tog‘larga olib chiqib qo‘ysin, deyishdi. Yo‘q, deb bo‘larkanmi! Buning ustiga yana haqini ham to‘lasharkan. Bor-yo‘q ish — to‘rtta yigitni yuklari bilan Achchiq Tosh dasasiga boshlab chiqish. Geologlar o‘sha yerda nimalarnidir tekshirisharmish. Nima bo‘lardi — oltindir-da. Ular faqat oltin qidirishadi. Topsalar, katta-katta mukofot olishadi. Mayli, bu ularning ishi. Faqat Bozorboy kechqurun Tamanga, qo‘raga yetib kelishi kerak. U o‘tari bilan shu yerda qishlagan. Hamma gap shu, xolos.

Anov yigitlar shaharlik bo‘lishlariga qaramay, pulning hisobi-ni bilishmas ekan. Bozorboy ozgina oyog‘ini tiradi: mening toqqa chiqishga vaqtim yo‘q, sovxoz rahbarlari kelib qoladi, sizga nima, mendan talab qiladi, qani bu, katta cho‘pon Bozorboy No‘yg‘utov, qo‘y qo‘zilay deb turgan paytda qaylarda yuribdi, deb qiyin-qistovga olishadi. Kim o‘sanda javob beradi?— shundan so‘ng yigitlarning saxiyligi tutib, yigirma beshni va‘da qilishdi. Voy, tentaklar-ey! E, ularni ayab, qisinib o‘tirarmidi, pul davlatniki, davlatning g‘aznasi esa kamaymaydi. Bu bolalarning o‘zлari ham pulni xazondek supurib olsalar kerak paytini poylab. To‘lasinlar-da, axir. Bozorboy geologlarni hash-pash deguncha oborib qo‘yadi. Otga o‘tiradiyu hayyo-huyt deb ketaveradi. Unga nima, baribir kunora bo‘lar-bo‘lmas ishlarga boshini suqib laqillab yurgani-yurgan. Ayniqsa, to‘y, ta’ziya, ishqilib, aroq isi anqigan joydan quruq qolmaydi. Oylik olib kelgani oovxoz idorasiga tushadigan bo‘lsa-ku, cho‘pon-cho‘liqlardan tortib, tungi qorovulgacha, xotinidan tortib, (u ham ishchilar qatorida) qo‘zilash paytlari yordamchi-somonchilargacha — hamma jonini hovuchlab o‘tiradi. Bozorboy kechasi g‘irt mast-alast holda yetib keladi, otdan qulab ketay-ketay deydi, pulga ketgan odamning ahvoli shu. Yaramas xotini sovxoz direktoriga yig‘lab-siqtagan shekilli; mana uch oychadan buyon qo‘raga kassir Bo‘ronboyning o‘zi maosh olib kelyapti. Qonun bo‘yicha har kim pulni o‘zi qo‘l qo‘yib olishi kerak, deydi. Qatnasa-qatnayvermaydimi, halokuning itiday...

Ana muni qarang endi, ahmoq yigirma beshning o‘zi kissasiga tushib turibdi. To‘g‘ri, Achchiq Toshga chikadigan so‘qmoq toshloqlar, tik o‘r-jarlardan o‘tadi, yuraging orqangga tortib ketadi, qulab ketish hech gapmas, o‘zi oti bilan tog‘-da, bu senga aylanib chopadigan va bo‘yningga nishon taqib qo‘yadigan stadion emas. Nimasiga ajablanasan buning — dunyodaadolat azaldan yo‘q edi, hozir ham yo‘q. Qishin-yozin tog‘dan boshing chiqmaydi, na asfalt bor, na vodoprovod, va na elektr chiroq. Qora kuningni bilganingcha ko‘r, yil bo‘yi sassiq shilta kechib qo‘y boq. U yoqda esa oppoqqina kiyingan chaqqon yigit likillab stadiordan chopib o‘tadi yoki darvozaga koptok tepadi — o‘ziyam maza qiladi,

tomoshaga yig‘ilgan xaloyiq ham xursand bo‘lganidan osmonga sakraydi, chaqqonboyga sharafshonlar, hamma gazetalar og‘iz ko‘pirtirib ko‘klarga ko‘targan, ertadan-kechgacha dam olish, yakshanba nima bilmay, beli bukilib peshona ter to‘kkanlarning topgani esa yeb-ichishga bazo‘r yetadi. Alamingdan ichasan. Keyin xotin diydiyo qiladi, yegan-ichganing burningdan chiqadi. It yotish — mirza turish. Talab esa katta. Qo‘zi ber, bittayam qo‘y qisir qolmasin, vazn ber, mayin jun ber. Jun o‘rniga sun‘iy tola topamiz, deb-ku, toza ayyuhan-nos solishdi. Qani, o‘sha tola? Qirqim boshlanganda-ku yuztasi ber-ber deb, kalxatday bostirib keladi, qil ham qoldirmaydi. Hammasini topshir, oxirigacha ber. Mayin jun valyuta uchun kerakmish... Valyuta desa, o‘ligini osmondan tashlaydi bular... Keyin bularning hammasi o‘pqonga tushganday badar g‘oyib bo‘ladi-ketadi. E, hammasi qurib ketmaydimi — qo‘yi ham, odamlar ham, shu jonga tekkan hayot ham...

Yo‘lda Bozorboyni mana shunday noxush o‘ylar kemirar edi. Bora-borguncha miq etmadni, faqat unda-munda orqada kelayotgan geologlarga qarab qo‘yar, xatarli joylar uchrasa, ogohlantirardi... Ko‘ngliga qil sig‘masdi. Hammasiga yaramas xotin sababchi... Voy, alvasti-ey! Hech burnini tiqmay turolmaydi. Albatta, oh-voh qiladi. Begona kishilar bor demay, shang‘illaganini qarang! Voy, shavaqiey! Dod-voy ko‘tarmasa, ko‘ngli joyiga tushmaydi. Ularning bari shunday — barbod bo‘ldi! Qadimgilar bekor aytmaganlar: xotin kishi kechasi mushukday surkala-di, kunduzi — ilonday buraladi. Ana, ko‘rdingizmi! Ha, shang‘i-ya! Yana qay go‘rga qochyapsiz, deydi. Boshingizga urasizmi, bu geologlarni. Ish oshib-toshib yotibdi. Qo‘y qo‘zilayman deb turibdi. Qo‘li yosh boladan bo‘shamasmish. Kattalari internatda bezori bo‘lib ketganmish. Ta‘tilga kelsa, og‘zi ovqatdan bo‘shamasmish. Pishirib ber, kuydirib ber. Qo‘llarini sovuq suvgaga urishmaydi. Yana chekkanlariga balo bormi? Aroq ichishdan ham qaytmaydi bular! Internatda ularga qaraydigan odam yo‘q. Direktorning o‘zi — aroqxo‘r. Uyda kimdan aql o‘rganadi ular? Siz bo‘lsangiz, dumingizni tutqizmaysiz, uzzukun qorangizni ko‘rsatmaysiz. Qurib ketkur ichkilikdan ortmaysiz. Yaxshiyam, ot bor ekan, jonningizga ora kiradi. Allaqachon yo‘l-po‘lda o‘lib-netib qolmasmidingiz...

Voy, bu shallaqi-ey! Qancha urma-so‘kma, baribir aql bitmaydi. Doim ko‘karib yuradi. Shuning uchun Ko‘k Tursun deydilar-da. Lekin tili uzun. Hech tilini tiymaydi.

Bu gal ham geologlar bor demay toza vag‘illadi, ahmoq. Bo‘lmasa, necha martalab ko‘zining olakulasini chiqarib bo‘g‘zidan olgan! Qayda! Voy, o‘ldim, boshqa gap qaytarmayman deb, necha marta so‘z bergen. Qayda! Lekin baribir Bozorboy yana uni tinchitishning epini topdi. Gap bor, beri kel deb, ichkariga chaqirdi. Uyga kirgach, indamay uni devorga bosdi. Yuzini yuziga tiradi. Nafas olgani qo‘ymadi. Ana shunda u xotinining momataloq bo‘lib ketgan, so‘ngan, ajin bosgan chehrasi-da, behol ochilib qolgan tishsiz og‘zida, qo‘rquvdan xira tortgan jonsiz ko‘zlarida o‘tgan yillarning qayg‘ug‘amlari, nochorlik, omadsizlik, alamzadaliklarini o‘qidi. Shunda o‘zi-o‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi-da, vishillab zahrini sochdi:

— Ho‘, qanqiq, yana og‘zingni vaq etib ochsang, qurbaqaday bosib o‘ldiraman-qo‘yaman! — shunday deb, uni bir chekkaga itqitib yubordi.

Xotini miq etmay chelagini ko‘targancha eshikni qarsillatib yopib, hovliga chiqib ketdi. Sal o‘tmay, o‘pkasini bosib olgach, u chiqdi, otga o‘tirdi va geologlarni boshlab yo‘lga tushdi...

Ha, yaxshiki, ot qurg‘ur zotli — uning birdan-bir quvonchi shu ot, baraka topsin, ot zavoddan chiqqan. Allakimga uning tusi yoqmay, chiqit qilgan — rostdanam, qora to‘riqmi, qo‘ng‘irmi, bilib bo‘lmaydi. Lekin axir buning nima ahamiyati bor? Aqli ot, tog‘da qaerga qadam qo‘yishni biladi, hammadan ham, juda chidamli, naq bo‘rining o‘zi. Doim egarlog‘liq, doim ko‘zi ochiq. E, nimasini aytadi, oti yaxshi, bu atrofda unga taraf yo‘q, faqat Bo‘stonnikini demasang. Voy, bu sovxozung ilg‘or cho‘poni. E, odam bo‘lmay ket. Dunyoda bunaqa qurumsoq topilmasa kerak. Negadir bir-birlarini jinlari suymaydi. Ana uning otini — ot desa bo‘ladi. Sirti tilladay yiltiraydigan Don oti, Do‘nqo‘liq deyishadi. Omadi bor ekan Bo‘stonning. Ertayu-kech otini parvarish qiladi. Boshqa iloji ham yo‘q. Otta yurib, o‘zini ko‘z-ko‘zlamasa bo‘lmaydi, azamat. Xotini yosh, Ernazarning bevasi. Ernazlar o‘ch yilcha burun Ola Mo‘ngu dovonida muz yorig‘iga qulagancha, shu-shu o‘lib ketdi, o‘ligi o‘sha

yerlarda qoldi...

Tog‘larga turnaqator tizilib ko‘tarilib borishar, gaplashishga fursat yo‘q, buning ustiga xotini bilan urishib Bozorboyning ta’bi tirriq bo‘lgan edi. Indamay yo‘l bosishardi. Qish oxirlab qolgandi. Tog‘ kungaylarida qorlar eriy boshlagan, ko‘klam nafasi ufurardi. Shu damda atrof ravshan va sokin edi. Pastda sadafday yarqirab yotgan ulug‘ moviy ko‘lning narigi tomonida baland tog‘lar uzra quyosh yuksakka ko‘tarilgandi. Choshgoh edi.

Oradan ko‘p o‘tmay Bozorboy geologlarni daraning bo‘g‘ziga yetaklab keldi. Issiqko‘lning musaffo ko‘zgusi so‘nggi bor ko‘zga yarq etib tashlandi, manzaralar orqada g‘oyib bo‘ldi. Endi boshlari uzra keta-ketguncha tumtaygan qoyali uchurumlar haybat solardi. Hammayoq tosh, qoya. Kimsa yo‘q.— Nima bor ekan ularga bu yerda?— taajjubi ortardi Bozorboyning tevarakka alang-jalang qarab. U geologlarni manzilga eltil qo‘ygan zahoti orqaga qaytishga ahd qildi. Achchiq Tosh darasi u bilan yonma-yon to‘g‘ri ulug‘ ko‘l bo‘ylariga olib chiqadigan qo‘shni daradan ko‘ra qisqaroq. U ichida orqaga Boshat dasasidan qaytaman, deb qo‘ydi. Shunda uyga hayallamay yetib oladi. U geologlar bilan xayrlashib, shunday qildi. Lekin cho‘ntakka nihoyat qurmag‘ur yigirma beshni solarkan, u yigitlarga gap qotdi:

— Hoy, og‘aynilar, mundoq qarasam, hammalaring o‘g‘il bola ekansizlar,— dedi u irshayib mo‘ylabini errayimlarcha siyparkan,— biz ham axir yurgan yigitmiz, bir tomoqni ho‘llab olmaymizmi, a?

Bozorboy ichsam, bir stakan icharman, deb chamalagan edi, yigitlar esa saxovat bilan unga shu yerning o‘zida chiqqan ko‘k shishani hadya qildilar. Ol, uyda icharsan deb! Bu baxt qaydan tushdi deb, Bozorboy yal-yal ochilib ketdi. Tipirchilab qoldi, chodirni qaerga tikish, qaerdan o‘tin chopishni ko‘rsatdi, yigitlar bilan navbat-banavbat xayrlasharkan, har birining qo‘lini uzoq silkitib turdi, hatto xurjunga g‘amlab olgan yemdan otga berib ham o‘tirmadi. Birinchi marta emas, uygacha chidaydi, deb o‘yladi. Apil-tapil egarga o‘tirdiyu, yo‘lga tushdi. Chamalab, ko‘p o‘tmay so‘qmoqni topdi va chalyarim qor bosgan tizmalardan oshib o‘tib, Boshat dasasiga kirdi. Daraning yon atroflarida siyrakroq to‘qay, o‘rmonlar o‘sigan, ham yorug‘roq, Achchiq Toshdek qorong‘u emasdi. Bu yerda jilg‘alar va buloqlar ham ko‘plab oqib yotardi. Shuning uchun bu yerlarni Boshat darasi — Buloq dara deb atashardi.

Paxtalik ustidan kiyib olgan yomg‘irpo‘shning cho‘ntagidagi shisha unga tinchlik bermasdi. U dam sayin shishani ushlab-ushlab ko‘yar, qaysi jilg‘a bo‘yida to‘xtasam ekan, deb joy chamalardi. U o‘zining qancha ichishini bilardi. Shishaning yarmini bo‘shatadi, ustidan suv ichadi, keyin yana yo‘lga ravona bo‘ladi. Bunday hollarda Bozorboy egarga o‘tirib olsa, bas. U yog‘iga xonazot otning o‘zi yetkizib oboradi. Sho‘rlik Ko‘k Tursun Bozorboyning qo‘ltig‘idan shayton tutib turadi, deb bekorga aytmaydi — u hali biron marta egardan yiqilgan emas. Nihoyat, yo‘lda bir jilg‘ani tanladi, uning ustini yupqa shaffof muz qoplagan, suv muz ostida toshdan-toshga qilqillab urilib, odamning havasini keltirib oqardi. Bozorboy shu joyga tushdi. Atrofda yovvoyi tol va zirk butalari o‘sib yotar, qor ham ko‘p emas, otga ham suv ichirib, yem bersa bo‘ladi. U otning yunganini bo‘shatdi, suli solingan xurjunni egardan tushirdi, bog‘ichni yechib, yechilgan tomonini otning bo‘yni tagiga surib qo‘ydi. Ot charchog‘ini tarqatayotganday yengil so‘lish olib, ko‘zlarini yarim yumib, qurtillatib suli chaynay boshladи. Bozorboy esa suv bo‘yida qulagan daraxt tanasiga joylashib o‘tirib oldi-da, shishani chiqardi, havasi kelib, quyoshga tutib qaradi, lekin nimani ham ko‘rardi, o‘sha-o‘sha shisha, faqat kun tugab borar, tog‘larda soyalar qiyalab yotar, quyoshning botishiga agar kam bo‘lmasa hali bir soatdan ortiq vaqt bor edi. Lekin Bozorboyning shoshadigan joyi yo‘q. U aroqning miyaga uradigan mazasini tamshanib his qilib, yo‘g‘on tirnog‘i bilan shishani ochdi, hidlati, boshini chayqadi, og‘ziga ko‘tardi. Titrab-qaltirab qultillatib yutdi. Keyin jilg‘adan hovuchida suv olib, kursillagan muz parchalari bilan qo‘shib ichdi. Muz tishlariga tegib qisirladi — naq miyasi qasirlab ketganday bo‘ldi. Bozorboyning basharasi xunuk burishdi, u tomog‘ini qirib yo‘taldi, og‘u qachon boshiga urishini kutib, ko‘zlarini yumdi. Ha, tevarak-atrof — tog‘lar, qoyalar — xuddi tumanga cho‘lg‘anganday suza boshlashini,

havolanib, ko‘tarilishi, qizigan miyasida g‘alati, noayon tovushlar, zing‘ildiq shovqin chiqishini kutdi. O‘zini kayf quchog‘iga tashlash ishtiyoqida bujmayib qotdi. So‘ng tomirlari yozildi, bo‘sashdi, shunda qaerdadir juda yaqin oradan xuddi yosh bola yig‘laganday ohista ingillagan ovoz eshitildi. Nima bo‘ldi bu? Qaydadir zirk changalzorlari va uyum-uyum toshlar ortida yana nimadir xuddi kuchuk bola kabi angilladi... Bozorboy sergak tortdi, yana beixtiyor shishani ko‘tarib ichdi, so‘ng uni asta toshga tirab qo‘ydi, lablarini sidirib artdi-da, o‘rnidan turdi. Tag‘in diqqat bilan qulq soldi. Haqiqatan, adashmagan ekan. Qandaydir hayvonning bolalari ovoz chiqarmoqda edi.

Bo‘ri uyas... bo‘ri uyasidan Akbara bilan Toshchaynarning bolalari uzoq yo‘q bo‘lib ketgan otanasi qo‘msashib, ingillashmoqda edi. Mo‘yinqum cho‘llaridan orqa-oldilariga qaramay qochganlaridan so‘ng, Aldash bo‘ylaridagi dahshatli yong‘inlardan so‘ng bir yil qisir o‘tib, mana, tog‘larda erta ko‘klam payti Akbara bevaqt bolalagan — to‘rtta tuqqan edi.

Bu orada Bozorboy bo‘ri uyasiga yo‘l topib asta yaqinlamoqda edi. Bozorboy hushyor bo‘lganda, inga borishdan oldin, albatta, o‘ylar, mulohaza qilib ko‘rardi. U kamar ichidagi korong‘u inni osonlikcha topgani yo‘q. Tajribasi qo‘l keldi. Qor ustini sinchiklab qaradi. Aniq-taniq tushgan izlar zanjirini ko‘rdi. Bo‘rilar ehtiyyotkorlik bilan doim eski izlari ustidan qadam tashlagan edilar. Yana ham nariroq yurib Bozorboy tosh uyumlari va butalar orasida yamlangan, kemirilgan to‘da-to‘da suyaklarga duch keldi. Demak, bo‘rilar o‘ljasining bir bo‘lagini sudrab kelib, shu yerda bamaylixotir yotib g‘ajiganlar. Katta-katta son va bo‘g‘in suyaklarining ko‘pligiga qaraganda, g‘ajirlar bu yerda anchadan beri yashasalar kerak. Endi inni topish qiyin emasdi. Bozorboy kamarga kirishdan nega cho‘chimadi, bir narsa deyish qiyin. Axir, bu yerda katta bo‘rilar ham bo‘lishi mumkin edi-ku! Lekin qorni ochib ketgan bo‘richalar angillab o‘zlarini oshkor qilishar va go‘yo yonlariga chorlar edilar.

Akbara bilan Toshchaynarning ovga chiqishdan boshqa choralari qolmaganligini bo‘richalar koshki bilishsa edi. Bo‘rilar uchun erta ko‘klamning og‘ir kunlari boshlangan edi. Bunaqa paytda barcha jonivorlar qishdan oriqlab chiqqan bo‘ladi. Bunaqa paytda yaqin atrofdagi kuch madordan qolgan yovvoyi tog‘ echkilari va arxarlar allaqachon zabit etilgan bo‘ladi. Kiyiklar esa bolalagani qadam yetmas qoyalarga chiqib ketadilar. Odamlar bosib turadigan suruvlar ham xuddi mana shu sabablarga ko‘ra bu payt qo‘ra va ko‘tonlarga qamaladilar. Shunaqada tinmay emchak so‘radigan to‘rt tayloqni sut bilan boqishning o‘zi bo‘ladimi? Akbara et-ustixondan tushdi, u endi sira o‘ziga o‘xshamas — hurpaygan, kallasi kattalashib so‘rraygan, emchaklari salqib osilgan edi. Bo‘rilar umuman, g‘oyatda chidamli bo‘lishadi. Ular bir necha kunlab ovqat yemay yurishlari mumkin. Lekin emizikli bo‘ri o‘zini yemakdan siqolmaydi. Hayot Akbarani tavakkaliga katta ovga chiqishga majbur qilmoqda edi. Lekin mabodo u halok bo‘lsa toyloqlari ham o‘lib ketadi.

Toshchaynar hamon unga ergashib boradi. Ular bariga tez ulgurishlari kerak. Tez o‘lja topish, uni tez ag‘darish, etni tez-tez, katta-katta yutish va tez orqaga qaytish, taomni hazm qilish kerak edi. Bo‘ri toyloqlarga tez sut bermasa sira iloji yo‘q.

Bugun yurgan yo‘llari kun tushgan yerlarda sirg‘anchiq, terskay tomonlarda esa qish ayozidan qattiq edi. Shunga qaramay bo‘rilar zo‘r berib tog‘dan toqqa lo‘killashardi. Bunaqa chog‘larda maydaroq maxluqlar hali yer tagidan boshini ko‘tarmaydi. Yovvoyi hamda xonaki suruvlarga esa yaqinlashib bo‘lmaydi, binobarin, tirik hayvonlar — otlar, qoramol, tuyalarga yonda sheriksiz ov qilish foydasiz, hayotning chigalligi ham shunda. Toshchaynar nechog‘lik baquvvat bo‘lmasin, yirik o‘ljanib o‘zi inga sudrab keltirolmaydi. Oxirgi marta ikki kun burun u tog‘ yonbag‘irlariga uloqib kelib qolgan eshakni o‘lja qildi. Akbara tunda inidan chiqib eshak go‘shtidan to‘yguncha yedi. Lekin eshak jonivorlar tog‘ yalangliklarda har kuni bunday bosh og‘gancha yuravermaydilar-ku. Odatda eshaklarning yonlarida albatta odam bo‘ladi. Ana shuning uchun ham, Akbara ovda qornini to‘ydirish uchun o‘zi inidan chiqdi.

Avvaliga Akbara ikkilanib turdi, inni tashlab ketishga sira ko‘ngli chopmadi, hatto bir ikki bor orqaga qaytgisi ham keldi — bolalaridan xavotirlandi: ularni doim isitib, sut emizib turish kerak,—

lekin zo'r bilan o'zini yengdi, inni unutishga majbur qildi. Ko'l atroflarida o'ljaning isini olganlaridan keyin esa, ov nash'asi uning butun borlig'ini qamrab oldi.

Akbara bilan Toshchaynarning omadlari bor ekan: ular yangi tushgan izlarni iskab borarkanlar, keng yalanglikka chiqib qoldilar.

Bu yerda podadan ajralib qolgan bo'lsa kerak, uchta qo'tos o'tlab yurardi. Bo'rilar bir yilcha burun mana shunday nochor paytlarida ularga tashlanib ko'rgan edilar. O'shanda kelgindi bo'rilarining duch kelgan narsani o'lja qilishdan o'zga choralar qolmagandi. Bo'rilar u yokdan-bu yoqqa o'g'rincha boqishib, daf'atan hujumga o'tdilar. Qo'toslar chopib kelayotgan bo'rilarni ko'rib, oldiniga irg'ishlab, o'kiringancha qochdilar, lekin bo'rilar quvib yetayotganligini fahmlagach, to'xtashdi,— ularning bo'ksalari sandonday ko'tarilib tushardi — bo'rilarغا shoxlarini to'g'rilab hujumga o'tishdi. Qo'toslarning boshqa ilojlari qolmagan edi. Shunda qandaydir bir zum ichida dunyodagi azaliy muvozanat hokim bo'ldi: osmondag'i quyosh, huvillagan sukunat, kimsasiz atrof jondorlarga ham, kavsh qaytaruvchilarga ham bab-baravar tegishli edi. Kavsh qaytaruvchilar to'qnashuvdan qochib qutulmoqchi edilar, lekin yirtqichlar osonlik bilan orqaga qaytib ketadigan emasdilar, ochlik ichichilarini tatalab tashlamoqda edi. Ular qanday bo'lmisin olishib, jilla qursa, bitta qo'tosni ag'darishlari va shu oilan ham o'zları, ham bolalari jon saqlashlari kerak edi. Qo'toslar yirik xam emas, mayda ham emas, o'rtacha; qish chiqishiga junlari patila bo'lib o'sib ketgandi. Dumlari ot dumiday bu qo'toslar ham jang qilmay iloj yo'qligini tushundilar. Ular qahr va qo'rkinch ichida boshlarini quyi egdilar, tuyoqlari bilan yerni tirmab, o'kirib tatalay boshladilar. Ko'k betida quyosh hamon charaqlab turar, tevaragini qori eriy boshlagan kimsasiz tog'lar qurshagan sarg'ayib yotgan ochiq yalanglikda o'txo'rlar bilan yirtqichlar yuzma-yuz to'qnashdilar.

Bo'rilar qulay fursatni kutib, qo'toslar atrofida sakrab-sakrab aylanishardi. Akbaraning vakti ziq — bolalari uni intizor bo'lib poylab o'tiribdi. Nihoyat u andak kuchsizrok bo'lib ko'ringan qo'tosga tavakkal qilib tashlandi. Qo'tosning ko'zlariga qon to'lgandi. Shunga qaramay, Akbara uning yuragi po'killab turganligini payqadi. Ehtimol yanglishayotgandir. Lekin, o'ylab o'tiradigan payt emasdi. Akbara o'zini qo'tosning bo'yniga otdi. Hammasini soniyalar hal qiladi. Quturib ketgan qo'tos uni yelkasidan itqitib yuborish va shoxlari bilan yerga qoqib tashlash uchun kallasini zo'r berib silkitayotgan mahalda. Toshchaynar uning ikkinchi biqinidan tashlanib, bo'yin tomirlarini uzib, g'ajib tashlashi, qonini oqqizishi, miyasini ishdan chiqarishi kerak edi.

Shunday ham bo'ldi. Lekin ungacha qo'tos Akbarani yerga uloqtirib, bosib ulgurdi, endi o'kirib uni shoxlariga ilib itqitmoqchi va yana ozgina bo'lsa, uni butunlay ezib, toptab tashlardi. Lekin Akbara qo'tosning shoxlari ostidan ilonday sirg'alib chiqdi va shu zahoti yana qo'tosning yag'riniga sakradi, uning jag'ni ayirib yuboradigan darajada qattiq jun bosgan gardaniga o'tkir tishlarini kuch bilan botirdi. U o'zining vahshiy va rahmsiz bo'ri tabiatini to'la namoyon qildi. U yashash uchun o'ldirishi kerak edi. Lekin bu safargi o'lja osongina jon beradiganlardan emasdi. U — sayg'oq bilan quyon — zo'ravonlikka qarshi bo'yin egib turadigan. Badjahl qo'tos yaralanib, qoni oqayotganiga qaramay, hali ancha qarshilik ko'rsatishi va hatto yengib chiqishi mumkin edi. Biroq, har qalay, Akbaraning yulduzi birdan balqib chiqdi: Toshchaynar xuddi shu damda yon tomondan Akbara bilan olishayotgan qo'tosga yopishdi va uning kekirdagiga tishlarini botirdi. Toshchaynarning hujumiga dosh berish qiyin edi. Bu hujumga u butun kuchini sarfladi. Qo'tos o'z qoniga belanib, qaltirab ketdi va hirqiray boshladi. So'ng bo'g'zidan varaqlab qon otildi va u og'ir bo'kirib yerga quladi. Qo'tosning ko'zlar shishaday qotib qoldi. Olishuv borarkan, boshqa tirik qolgan ikki qo'tos tiraqaylab qochishdi va ancha nariga yetib olgach, qadamlarini sekinlatib, go'yo hech narsa bo'lmaganday shoshilmay yurib ketishdi.

Bo'rilar chalajon qo'tosni tortqilab, yulqilay boshladilar. O'ljaning qachon joni chiqishini poylab o'tirishga fursat yo'q. Qaysi joyidan boshlab yeyishni ham chamalab turadigan vaqt emasdi. Akbara qo'tosning choviga yopishdi, hali issiq dirillab turgan go'shtini tishlari, panjalari bilan yulqib olib yamlamay yutaverdi. U iloji boricha ko'p et yeyishi kerak va iloji boricha tezroq iniga qaytishi kerak. Bolalari zoriqib, mahtal bo'lib qolishdi. Toshchaynar undan qolishmasdi. U vahshiyona irillab,

go'shtni burda-burda qilar, bannisoli yovvoyi qassobning o'zginasi edi.

Bari o'z yo'sin-yo'rig'i bilan bo'lyapti. Qashqirlar oldin rosa go'shtga to'yishadi, keyin tezroq inlariga yetib olish uchun yo'lga tushishadi. Kechasi yana go'shtga to'ygani kelishadi, so'ng qolgan go'shtni biron pana joyga sudrab berkitishadi. Lekin bunga hali vaqt bor. Hozir esa, g'ajirlar ochlik bilan lahm yutishardi...

Osilib tushgan qoya tagidagi torgina kamardagi bo'rilar uyasida ochiqib ketgan bo'ri bolalari beixtiyor angillashar, isish uchun dam guj bo'lib bir-birilariga tiqilishar, keyin yana har tomonga sudralishib tarqalishar, tag'in to'planishardi. Tashqarida shitirlagan ovoz eshitilganda in ichiga Bozorboy tiqilib kirmoqda edi. Ular avvalgidan ham battarroq angillashib, o'mbaloq-do'mbaloq oshib in og'ziga tomon intildilar va shu bilan odamning ishini ham yengillatdilar. Bozorboy azbaroyi kuchanganidan bo'g'riqib ketgandi. U tor kamar ichiga paypaslab, turtinib-surtinib kirdi. U paxtaligini yechib tashlagan, nimchaning o'zida qolgan edi. Bo'ri bolalarini birma-bir tutib, uctasini qo'yniga soldi, to'rtinchisini bo'ynidan mahkam siqib ushlab oldi-da, tashqariga sudraldi. Yoruqqa chiqqanida, ko'zlar qamashib ketdi. Baland tog'lar shu qadar yarqirab yotardi. Ko'kragini to'ldirib nafas oldi. Qulojni batang qiladigan jimjitlik. U faqat o'zining nafas olganinigina eshitardi. Qo'ynidagi bo'ri bolalari g'imirlab qolishdi, qo'lidagi esa o'zini qutqarmoqchi bo'lardi. Bozorboy shoshilib qoldi. Hamon og'ir-og'ir nafas olgancha u paxtaligini yelkasiga tashlab, jilg'a tomonga jadalladi. U yog'i bir zumlik ish edi. U o'zi o'g'irlab chiqqan to'rt bo'ri bolasini boplab pullamoqchi. Hozircha ularning barini xurjunga joylaydi. U bo'rivachchalarni tuzukkina pulga sotishiga ishonchi komil edi: bultur bir cho'pon hayvonot bazasiga allaqancha bo'ri bolalarini sotgan, xar bir bosh bo'riga ellik so'mdan to'lashgan edi.

Bozorboy kurtillatib yem chaynayotgan otning og'zidan xurjunni tortib oldi, ichida qolgan sulvini yerga to'kdi, har bir xurjunga ikkitadan bo'ri bolasini joylashtirdi, xurjunni egardan oshirib ikki yoqqa tashladi, kamar tortib mahkamladi, jilovni qo'lga olib, shitob bilan uzangisiga oyoq qo'ydi. Rav ketmasa bo'lmasdi. Mana, buning otini omad deydi! Lekin katta bo'rilar yetib kelmasdan juftakni rostlamoq kerak. Bozorboy buni yaxshi biladi. Yarim ichilgan, toshga tirab qo'yilgan shishani Bozorboy egarga o'tirib bo'lgach, esladi. Ammo aroqqa ham tupurdi. Qolsa, qolaversin. Bo'ri bolalari uchun bir dunyo pul oladi. Bunaqa yarimtalardan kanchasini sotib olishi mumkin. U otga kichov berdi. Quyosh botmasdan burun iloji boricha tezroq daradan chiqib olishi kerak.

Keyin-keyin Bozorboyning o'zi ham hayron bo'lib yurdi: qanday qilib yurak yutib bo'ri iniga kirdi, hatto yonida quroli ham yo'q edi-ya, Ona bo'ri yoki erkagi kelib qolsa, unda nima bo'lardi... Bug'u juda yuvosh hayvon, lekin u ham bolalarini himoya qiladi — g'anim ustiga shartta tashlanadi...

Lekin, ularning bari uning hayoliga keyinroq keldi. Bo'rilarining changaliga tushishini o'ylasa, ko'ngli oza boshlaydi. O'sha soatda u sangzor Boshat dasasida yo'rig'ini qichab haydab borar, dam sayin orqasiga, tog'lar ichkarisida botib borayotgan quyoshga xavotirlanib qarab-qarab qo'yar, uni shom quvib kelmoqda edi. Ha, shoshilmasa bo'lmaydi, tezroq tog' etaklariga chiqib olishi kerak, ko'l bo'ylari hammasi ochiq yalangliklar, ot boshini xohlagan tomoningga qo'yaverasan, ammo bu yerning — tor, qo'rqinchli daraning ishi boshqa...

Bozorboy ko'l bo'ylariga, tanish yaylov larga yaqinlashgan sayin o'ziga ishonchi ortar, dadillashardi. Olgan o'ljas bilan maqtangisi kelib qoldi. Cho'pon ulfatlarimdan birontasinikiga qo'nib o'tsammikin, o'ljalarni ko'rsatib ko'zini kuydirsammikin, yuzta-yuztadan qilib bo'rivachchalarni yuvsakmikin, axir ularni yaxshilab pullasam, men ham qarzdor bo'lib qolmasman, deb o'yaldi. U chala ichilgan shishani suv bo'yida tashlab kelgani uchun achina boshladi; ex, qaniydi, hozir bir ko'tarsang!.. Uning shunchalar ichgisi qistadi! Lekin baribir ichida bunga hali ulguraman, avvalo, bo'richalarni omon-eson yetkizib borish, qorinlarini to'ydish kerak, ular juda chidamli bo'lsalar ham, lekin hali sut emib yurgan toyloq, ko'zlarini ham endi-endi ochganga o'xshaydilar, ko'r, ana chaqchayib turishlarini... Ishqilib, xurjunda o'lib qolmasalar bas. Bozorboy bu payt o'zini dahshatli tezlik bilan quvib yetayotganlarini hayoliga ham keltirmasdi. Xudo biladi, hali ularning oxiri nima bilan tugaydi...

Buqa go'shtini burunlaridan chiqquncha yeb to'yan bo'rilar orqaga qaytdilar. Oldinda — Akbara, orqaroqda — Toshchaynar borardi. Ular qoya ostidagi inimizga tezroq yetib olsak, bolalarimiz bilan yayrab davra olib yotsak, oyoq-qo'limizni yozsak, ana undan keyin chala yeyilgan buqa tepasiga borsak, yalanglikda talanib ketmasin tag'in, deyishardi.

Hayot-da bu endi, shuning uchun aytishgan ekan-da, bo'rini oyog'i boqadi deb... Axir, tayyor etni ko'rsa, boshqa bo'rilar qarab turisharmidi — bu birovniki-ku, deb tortinib o'tirmay, talab, g'ajib ketaveradiganlar ham yo'q emas. Ana, innakeyin janjal-to'polon chiqadi, qon to'kiladi. Lekin haq o'z nomi bilan haq, kuch ham haq tomonda...

Hali iniga yetmasdan, hali uzoqdan Akbaraning yuragi bir kori hol bo'lganini sezdi. Xuddi yonginasida allaqanday qush soya kabi parpirab uchayotganday, botib borayotgan quyoshning so'nggi nurlarida anglab bo'lmas vahim, xarosonlik bilan tuydi. Yuksak tog' zirvarlarida akslanayotgan qonli shafaq shu'lalari borgan sayin qorayib, diliga tashvish va qo'rqinch solardi. Iniga yaqin qolganda, u yanada qattiqroq yugurdi. Toshchaynarga qayrilib ham qaramadi. Nihoyat, u anglab bo'lmas vahimaga tushib, yeldek uchib ketdi. Shunda havoda dimog'iga begona hidlar urildi va uning vahimasi yanada ortdi: terlab-pishgan otning o'tkir hidi va yana qandaydir ko'ngilni behuzur qiluvchi sassiq is anqirdi. Nima bu? Qaerdan kelyapti? Akbara jilg'adan sakrab o'tdi, butalar orasidan yildirimday yugurib kamarga chiqdi va lip etib qoya ostidagi iniga o'zini urdi. Huvillab kolgan bo'm-bo'sh uyasining hamma burchaklarini ovchi itday iskab chiqdi va pishqirdi, bir zum qotib qoldi, so'ng o'zini tashqariga otdi, in og'zida Toshchaynar bilan to'qnashdi, xuddi bariga u aybdorday, xuddi eri emas, g'anim-yovday uni alam ustida tishlab oldi. Hech narsadan xabari yo'q Toshchaynar avval uyaga kirib chiqdi, so'ng Akbara orqasidan yugurdi va jilg'a bo'yida unga yetib oldi. Akbara es-hushini yo'qotguday bo'lib, izlarni hidlab yurar, yuz bergen voqeani anglashga urinardi. Shu yaqin o'rtada bu yerga allakim kelgan, u izlardan shularni o'qidi — mana, ot so'lagining hidi anqib turibdi, sochilgan suli, mana, ot tezaklabdi, mana, hidi ko'ngilni aynitadigan shisha, Akbara uni nogoh iskab ko'rib, azbaroyi nafrati qo'zib yoli tikka-tikka bo'lib ketdi, mana, odamning qor ustidagi izlari. Kirza etikdan tushgan izlar. Ot minib, jirkanch narsa solingen shisha ko'tarib kelgan qattol yov bostirib kirib, bolalarini o'g'irlab ketibdi! Ularni yeb qo'ygan bo'lsa-chi! Shunda Akbara yana gunohsiz Toshchaynarga yopishdi, uni quturib tishlab tashladi, keyin qo'rqinchli irillab, iz ketgan tomonga shitob bilan yugurdi. Toshchaynar unga ergashdi.

Bo'rilar sira adashmay is olib borishar — surib, qichab olg'a ketib borishar, daradan chiqar yerni ko'zlashar, yana olg'a, olg'a ta'jil ila yugurik qadam tashlashar, odamlar turadigan joylarni, ulug' ko'l bo'yla-rini mo'ljal olishardi...

Bozorboy esa daradan chiqib, otni yalang tog' etaklaridan, past-baland adirlar, yozgi yaylovlardan yo'rttirib borar, nihoyat, mana olisda qorayib ko'lning bir cheti ko'rindi. Yana bir soatlarda uyg'a yetib oladi. Bu orada quyosh yerning u chekkasiga, tog' tizmalarini orasiga botdi, uning so'nggi nurlari lov etib, so'ndi. Issiqko'l tomondan ayozli shamol esdi. «Toyloqlar sovuq qotib qolmasa edi», — deb o'yladi Bozorboy, lekin ularni o'rab qo'yadigan narsa yo'q edi. Bozorboy ularni tirikmikin, deb xurjunga qarab qo'ymoqchi bo'ldi. Bular o'lib qolsa, birov boshiga uradimi! U otdan tushdi, kamarlarni bo'shatib, xurjunni ochib qaramoqchi edi, shu payt ot oyoqlarini kerib, hammayoqqa sachratib shovdirata boshladи. Shunda birdan siyishdan taqqa to'xtab, qattiq pishqirdi-da, o'zini chekkaga otdi, jilov Bozorboyning qo'lidan chiqib ketishiga sal qoldi.

— Tek! — deb qichqirdi Bozorboy otga. — Tek tur!

Lekin ot xuddi o'tdan qo'rqqanday o'zini chekkaga urmoqchi bo'lardi. Shunda Bozorboy orqasiga qaramayoq nimaligini bildi. Bir zum ichida muzdek bo'lib qolgan yelkasi bilan u quvlab kelayotgan bo'rilarini his qildi. Bozorboy jonholatda otga yopishdi, uning yolidan mahkam tutib, o'zini egarga oldi, ot shu zahoti pishqirib, yeldek chopib ketdi. Bozorboy sovuq yel jihatidan boshini egib oldi, atrofga alang-jalang qaradi. Napiroqda ikki bo'ri chopib kelardi. Qashqirlar yugurib adir ustiga chiqqanlarida, ot jonivor ularni payqab hurkigan ekan. Endi bo'rilar otning yo'lini to'sib chiqish

payida edilar. Bozorboyning esiga shu tobda Xudo tushdi, unga yalinib-yolvora boshladi. Boshqa paytda Xudoning go'riga g'isht qalashdan ham toymasdi bu odam. Qaysi go'rdan kelib qolgan geologlarni bo'ralab so'kardi: «Oltinlaring tomoqlaringga tiqilsin!» Xotinini qiynaganlardan afsuslanar, undan uzr-ma'zur so'rardi: «Senga so'z beraman! Tirik qolsam, chertsam, odam emasman!» Bo'ri bolalarini olganiga tavba qilardi: «Nima qillardim olib! Nimaga kirdim iniga? Hammasini toshga urib, boshini yorib tashlamaymanmi? Endi, nima qildim, qayoqqa qo'yaman ularni?» Xurjun tasmalar bilan mahkam tortib bog'langan, ularni yo'l-yo'lakay tashlab ketib bo'lmaydi. Buning ustiga shom qorong'usi tushyapti, kimsasiz tog' yonbag'irlariga xufton qorasi bostirib kelmoqda — dunyoda hech kimning o'ladimi, qoladimi, u sho'rlik bilan ishi yo'q.

Faqat sodiq ot jonivorgina ko'rkuvdan esini yo'qotib, bor kuchi bilan chopib bormoqda.

Lekin Bozorboy hammadan ham yonida miltiq yo'qligi uchun achinardi. Miltig'i bo'lsa, ularga kursatib qo'yardi: bitta-bitta otib qulatar-di, o'jni esa ketkizmasdi. Miltiq topilmas matoh ekanmi deng! Hamma cho'ponlarning uyida bor. Lekin kim uni doim yonida olib yuradi! Eh, bilganda-ku! Bozorboy yirtqichlarni qo'rqtish uchun joni boricha bo'kirardi. Uning barcha umidi otdan edi. Yaxshiyam asl, zotdor ot...

Hayot-mamot poygasi...

O'g'irlangan bo'ri bolalarini xurjunga solgan otliq bilan izma-iz Akbara va Toshchaynara xufton qorong'uligi tushgan tog' oralaridan ana shunday qochdi-quvdi bo'lib borardilar. Olib qochilgan toyloqlarining hidini sezgan bo'rilar o'zlaricha yolvorar, o'zlaricha tavallo qilardilar. Koshkiydi, ot bir martagina, bir zumgina qoqilsa! Agar buqa go'shtini bunchalar ko'p yemaganlarida, quvish qanday bo'lishini ko'rsatib qo'ymasmidilar, allaqachon qaroqchiga yetib olib, uni ko'z yumguncha pora-pora qilib tashlamasmidilar, nasl qoldirish yo'lidagi azaliy, omonsiz kurashda qonli o'ch olib adolatni tiklamasmidilar? Mo'yinqum cho'llarida sayg'oq suruklarini tumtaraqay quvgan, ularni o'zlariga kerak tomonga burish uchun yanada shiddat solib yugurganlari ham gapmi? Lekin katta ovga bo'rilar qorinlarini to'ydirmasdan, shiddatli quvg'inga oldindan tayyorlanib chiqardilar.

Bolalarni boqish uchun ustma-ust bo'kib et yegan Akbara, ayniqsa, qiynalib chopmoqda edi. Lekin u ham bo'sh kelmas, joni boricha yugurar, agarda otliqqa yetib olsa, bir zum o'ylab o'tirmay, nima bilan tugashidan qat'iy nazar, o'zini jangga tashlardi. Shukrki, yonida Toshchaynari bor, suyanchig'i va yengilmas madadkori, lekin nima demang, har kimning go'ri boshqa... Akbara har qanday o'limga tayyor edi, ishqilib yetib olsa, ishqilib, uchqur otda ketayotgan shu kishini quvib yetsa bas... ishqilib...

Garchi Bozorboy chindan ham uchqur ot mingan bo'lsa ham, lekin bunday qarab, bo'rilar qadam-baqadam yaqinlab, o'ng biqinidan yetib kelayotganlari, uni ko'l tomonga o'tkazmaslik uchun yo'lni kesib chiqayotganlarini ko'rdi. G'addor g'ajirlar otliqni tog' tomonga qarab haydashga zo'r bermoqda edilar. Shunday qilsalar, ertami, kechmi, baribir, albatta, yuzma-yuz to'qnashar edilar. Ular niyatlariga erishay deb qolgan ham edilar: hurkib ketgan ot o'zini yo'qotib qo'yib, o'ng yoqdan daf etayotgan bo'rilardan qo'rqib, boshini tog'lar tomonga burishga urinmoqda edi. Biroq otni ongli maxluq — odam boshqarib bormoqda edi, u yirtqichlarning niyatini anglab turardi, bo'rilar xuddi shu narsani hisobga ololmasdilar, bu ularning fojiasi edi.

Bozorboyni yana bir narsa qutqarib qoldi. Taqdirning marhamati bilan oldinda chiroqlar ko'rindi. O, omadning kelganini qarang! Ular Bo'ston O'rakunchiev qo'rasining chiroqlari edi. Ha-ha, o'sha ilg'or qulqoq Bo'ston, hech jini yoqtirmaydigan Bo'ston. Lekin hozir kim kimni yaxshi ko'radiyu, kim kimni yomon, surishtirib o'tiradigan payt emasdi. Nima farqi bor. U hozir har qanday qimirlagan tirik jonni ko'ziga surtishga tayyor. Ishqilib, odamlar yashaydigan joyga yetib keldi-ku — bundan ortiq quvonch bo'lishi mumkinmi odama! U axir, qutuldi! U o'zida yo'q xursand bo'lib, otni yana tovoni bilan qistadi, shunda ot qo'ralar, odamlar tomonga shamoldeq uchdi. Biroq, ana endi qutuldirm deguncha, Bozorboy uchun yana bir asr vaqt o'tganday bo'lib ko'rindi lekin, mana, Bo'ston qurgan elektr dvijokning pulemyotday tarillagan ovozi eshitilib qoldi, mana, cho'ponlarning itlari bo'ri isini

sezib, ayyuhannos ko‘tarib, Bozorboyning yo‘liga peshvoz chiqishdi. Ayni choqda, bo‘rilar ham qolishmas — borgan sari yaqinlashib kelishar, ot holdan toyar, Bozorboy jondorlarning qaynoq taftini sezal boshlagan edi. «Xudoyim, o‘zing qutqar! Yo Bahovaddin, o‘zing madad ber,— deb iltijo qilardi Bozorboy,— senga yetti qorani qurban qilaman!»

«Omon qoldim! Qutuldim!»— shodlanib qichqirdi Bozorboy.

Albatta, u bir soat o‘tmay o‘z va‘dayu tavallollarini unutadi. Odam bolasi o‘zi shunday...

Uning qoshiga cho‘ponlar chopib kelishdi. Bozorboy ularning qo‘llariga o‘zini otdi, to‘xtovsiz shu so‘zlarni takrorlardi:

— Bo‘ri, meni bo‘rilar quvishdi! Suv, suv beringlar!

Bo‘rilar esa aftidan, ketmay shu atrofda aylanib yurishar, chidam bilan nimanidir kutishardi. Bo‘stonning qo‘ra, qo‘tonlarida yugur-yugur boshlandi. Cho‘ponlar chopib yurishar, qo‘ralarning eshiklarini berkitishar, hoy-huylashib qorong‘ida bir-birlarini chaqirishar, ulardan birovi tom boshiga chiqdi-da, miltiqdan necha marotaba varanglatib o‘q qo‘ydi. Itlar tinmay vovullashardi, lekin qo‘ralardan tashqariga chiqishmasdi. O‘zlarini yorug‘roqqa olishardi. Itlarning qo‘r quoqligi egalarini darg‘azab qilardi.

— Atu! Olkish! Ol! E, bular bo‘ribosar emas, po‘qbosar!— kimdir bo‘g‘ilib xirillab itlarni qistardi.— Ol, bos! Oqtosh, Yo‘lbars, Joysan, Barpalon! Bos! Atu, Atu! E, o‘llaring, dumlaringni qismay! Bo‘ridan qo‘rqib o‘tiribsanlarmi?!

— It o‘z oti bilan it-da!— deb e‘tiroz bildirardi boshqa tovush.— Nimaga baqirasan? Bu itlar oqliqni etigidan tortib tushiradi. Lekin, bo‘riga yaqin yo‘lolmaydi. To‘g‘rimi? Nima deding! Bo‘riga qarshi bironta it borolmaydi. Qo‘y, indama! Akillaryversinlar!

Lekin bo‘rilar nega uni quvalab kelishdi, Bozorboy anchagacha eslolmadi. Faqat Bozorboyning otiga qarayotgan yigit birdan: «Bozorboy boyke, xurjunda nima bor? Qimirlayotganga o‘xshaydi»,— deb so‘rab qoluvdi, ana shundagina u esladi.

— Xurjunda deysanmi? E, buri bolalari-ku ular! E, qurib ketsin! To‘rtta bo‘lturuq. Boshatda ini bor ekan. To‘g‘ri inidan oldim. Shuning uchun bo‘rilar orqamdan quvib kelishdi.

— Shunday demaysizmi! Boplabsiz-ku. Toza qo‘lga tushiribsiz-da! Inidan deysizmi? Xo‘p omon qolibsiz-da tag‘inam...

— Xurjunda o‘lib qolishmabdimi? Chopganda bo‘g‘ilib, ezilib ketmabdimi ishqilib!

— Nega eziladi! O‘rik midi senga eziladi! Ular itday chidamli bo‘lishadi, og‘ayni.

— Qani, ko‘raylik, qanaqaykin?

Xurjunni tushirishdi va Bo‘stonning uyiga qarab yurishdi. Bunaqa muhim ishlar odatda Bo‘stonning uyida qilinadi. Bu yerlar, qo‘ra, qo‘tonlarning egasi o‘sha... Lekin hozir Bo‘stonning o‘zi uyda yo‘q. Rayonda navbatdagi yig‘ilishga ketgan. Ilg‘or cho‘pon Bo‘ston O‘rkunchiev yana navbatdagi prezidiumda o‘tirishi kerak edi.

Bozorboyni Bo‘stonning uyiga xuddi qahramonlik ko‘rsatgan odamdek olib borishdi. Uning shunga rozi bo‘lishdan boshqa chorasi qolmadidi. Mayli, bir qo‘nib o‘tsa, o‘tibdi-da, axir, u mehmon-ku.

Bu uyning ostonasiga Bozorboyning birinchi kelishi emas. Ko‘p yillardan beri Bozorboy bu yerdan yetti chaqirim narida Bo‘stonga qo‘shni yerkarda cho‘ponlik qiladi. Ana shu vaqt ichida Bozorboy bu yerdan uch marta bo‘ldi: birinchi marta cho‘pon Ernazar Ola Mo‘ngu dovonida muzlik kamarga yiqilib nobud bo‘lganda, uning ta’ziyasiga kelgan edi; ikkinchi marotaba Ernazar o‘lgach, olti oydan keyin Bo‘stonning oldingi xotini (Orzigul bechora juda ham yaxshi xotin edi, deyishadi) vafot qilganda, ma’rakasida qatnashgan edi, o‘shanda atrof-tevarakdan tumonat odam yig‘ilgan, otlar, traktorlar, yuk mashinalarning sanog‘iga yetib bo‘lmagandi. Uchinchi marotaba xuddi bo‘ynidan sudraganday qilib olib kelishgan edi. Oblast rahbarlari bu yerdan ishlab chiqarish seminari o‘tkazadigan, Bo‘ston O‘rkunchiev cho‘ponlarga o‘z ilg‘or tajribalarini so‘ylab beradigan edi. Bozorboyning hech kelgisi yo‘q edi. Lekin qochib qutulib bo‘lmadi, majbur qilishdi. Yarim kun o‘tirib va‘z eshitishga to‘g‘ri keldi: qo‘zilar o‘lmasligi uchun nima qilish kerakligidan tortib, qanday qilsa, ko‘proq jun va go‘sht

topshirish mumkinligigacha. Bir so‘z bilan aytganda, planni qanday bajarish to‘g‘risida. Topgan ohanjama gaplarini qarang, uning o‘zi biladi nima qilishini: qishda yemni o‘z vaqtida ber, yozda tog‘larda barvaqt turib, kech yot, xullasi kalom, yaxshi ishla, moldan, qo‘ydan ko‘zingni uzma. Jon kuydir Bo‘ston va boshqalarga o‘xshab. Biroq birovning ishi yaxshi chiqadi, boshqasiniki mundoqroq. Birovning ishi o‘ngidan keladi, birovniki kelmaydi. Misol uchun, Bo‘stonning qo‘rasida dvijok patillab turibdi — kechasi bilan uylarda ham, saroyda ham, hovlilarda ham chiroq o‘chmaydi. Xo‘sh, nimaga? Chunki u ikkita aggregatni qo‘lga kiritgan — bittasi ishdan chiqsa yoki remontga tursa, shu zahoti ikkinchisi ishga tushadi. Boshqa cho‘ponlarda esa, shu bilan birga Bozorboyda ham dvijok qurg‘ur yil bo‘yi bitta. O‘zi bitta bo‘lgandan keyin odamni ko‘p ovora qiladi: bir qarasang ishlaydi, bir qarasang, ishlaymaydi, dam yonilg‘i bor, dam yo‘q, goh bir joyi singan, goh bir joyi chiqqan, goh unga qarab turadigan yigitcha hamma narsa joniga tegib, shaharga ketib qolgan — shaharda yoshlarning oshig‘i olchi, qishloqqa qaraganda yuz karra yaxshi yashashadi. Ana shunaqa ishlar. Hamma hisobotlarda barcha cho‘pon brigadalari elektr chiroq‘i bilan ta‘minlandi, deb aytildi, aslida esa hech vaqo yo‘q...

Shundan keyin kim yaxshi? Albatta, Bo‘ston yaxshi. Buning ustiga ichmaydi. Kim yomon? Bozorboy va unga o‘xshaganlar. Buning ustiga ular ichishadi. Xo‘p, yomon bo‘lsang, bo‘yningga bir ursinlaru haydab yuborsinlar, tamom vassalom. Vaholanki, ketaman deb, ariza berib ko‘r-chi, darrov senga militsiyani to‘g‘rilashadi, pasportni olib qo‘yishadi, hech qanday hujjat-pujjat berishmaydi; bor, akasi, ishingni qil, ketishga ruxsat yo‘q, deyishadi. Hozir hech kim cho‘pon bo‘lishni istamaydi, ahmog‘i yo‘q, deydi. Hamma shaharda yashasam, deb ishqivoz. Shaharda ishni tugatasanu maza qilib, madaniy hordiq chiqarasan, bo‘lmasa, kvartirangda yotib dampingni olasan. Hamma narsa tayyor, oldingda muhayyo, o‘t yoqish kerakmas, suv oldingda, chiroq kechasiyu kunduzi bor, hojat ham shundoq burningni tagida... O‘tardagi turmush ham turmushmi? Mol bolalaydigan mahal-ku salkam bir yarim ming bosh sigir-buzoqni eplashing kerak, na kechasi tinim bor, na kunduzi, bir yarim ming qoramolning bari boshingda mo‘ngrab turadi. Shiptir-shilta kechmay, ko‘r-chi, ichmay ko‘r-chi, xotiningni, cho‘pon-cho‘liqlaringni urmay ko‘r-chi, g‘irt hayvonning o‘zi bo‘lasan-qolasan... Xo‘sh, keyin kim yomon? Bozorboy va unga o‘xshaganlar...

Sal narsaga barmokdarini nuqib pesh qilib turishadi tag‘in: Bo‘ston O’rkunchievni ko‘r, ana, ilg‘or, ana, o‘rnak... Basharasiga solib-solib yuborsang shu ilg‘or taviyaning! Bo‘stonning omadi bor, uning odamlari ham yaxshi, bir borgan kishi hech qaytib ketmaydi, bitta oiladek bo‘lib ishlashadi. Bozorboya o‘xshagan cho‘ponlar o‘chib qolgan dvijoklardan allaqachon qo‘lni yuvib, qo‘ltiqqa urib, eskichasiga, kerosin chiroqlaru qo‘l fonarlariga o‘tib olishgan. Bo‘stonning MI —1157 degan elektr generator agregati qo‘ralarning orqasida soatday muntazam yurib turibdi, uning gup-gupi uzoq-uzoqlardan eshitiladi, chiroq‘i ne-ne joylardan ko‘rinadi. Bo‘rilarni orqaga qaytargan ham avvalo shu bo‘ldi, ular yetay-etay deb turganlarida chiroqlarni ko‘rib, dvijok ovozini eshtidilaru taqa-taq to‘xtab qoldilar.

Itlar hamon biri olib, biri qo‘yib akillashardi. Bo‘rilar shu atrofda izg‘ib yurishganga, lekin yaqin kelishga yurak betlamayotganga o‘xshaydi...

Ha, Bo‘stonning omadi chopgani chopgan. Hammasini qara, hammasi orasta, hamma narsa joy-joyida, uylari chiroqlardan charog‘on, garchi qo‘y qo‘rasida tursalar ham, lekin hammayoq ozoda, supurilgan, sidirilgan. Etik-paytavalarni dahlizda yechishga, gilam paypoqning o‘zida ichkariga o‘tishga to‘g‘ri keldi.

Odamning bir omadi kelsa, hamma narsada keladi. Muni qarangki Bozorboy ilgari bilmagan ekan. Dovonda nobud bo‘lgan Ernazarning bevasi durkungina, o‘ktamgina juvon ekan. Mana, endi shu Gulimxonni, Bo‘stonning xotinini oling. Qancha g‘amlarni boshidan kechirmadi, lekin hozir o‘ynab-kulib baxtiyor bo‘lib yuribdi. Yoshi ham hoynahoy hali qirqqa yetmagandir. Uning Ernazardan qolgan ikki qizi internatda o‘qishadi. Buning ustiga omadi chopsa shunaqa bo‘ladi-da, yaqinda Bo‘stonga o‘g‘il tug‘ib berdi. Oldingi xotinidan Bo‘stonga ikki qiz qolishgan edi, ular katta bo‘lishib, turmushga chiqishib, o‘zlaridan tinchib ketishdi. Gulimxonning o‘zi ham ochiq chehralikkina ayol ekan, aqli-

hushi ham (o‘ziga yetarlicha, fahmi-farosati ham joyida, Bo‘ston va Bozorboy ikkovlari bir-birilariga toqat qilolmasliklarini aniq biladi, lekin zarracha sir boy bermay, uni ochiq yuz bilan qarshi oldi, achingan, tasalli bergan bo‘ldi. Keling, keling, qo‘shnimizning qo‘shnisi, to‘rga o‘ting, ana gilam, o‘tiring, voy, namuncha bo‘rilar sizni quvlamasa, voy, omon-eson qutulibsiz-ey bir balodan, otabobolarimizning arvochlari qo‘llabdi sizni, kulfatingiz argani rost bo‘lsin. Lekin, o‘zlari uyda yo‘q edilar. Rayonga majlisga ketgan edilar, tezda kelib qolishlari kerak. Direktorning «Gazigi»da tashlab ketishmoqchi edi, o‘tiring, o‘tiring, hozir choy damlab kelaman, birpas shoshmay tursangiz, issiq ovqat ham tayyor bo‘ladi.

Ko‘rgilik ekan, hamon mundoq mehmonnavozliklar borligini bildi, Bozorboy har qalay uy bekasini bir sinab ko‘ray-chi, chaqirilmagan qo‘noqqa mehribonchiliklari rostmikan, dedi. Buning ustiga qocha-qocha bo‘laricha bo‘lgan, sal o‘zimga kelvolay deb, ichkisi qistab, aroq so‘ragani jazm qildi. U betini sidirib tashladi:

— Choyni xotinlar ichadi,— dedi u dabdurustdan.— Gapimdan xafa bo‘lma. Lekin Bo‘stonday davlatmand odamning uyidan o‘tkirrok bir narsa topilmaydim? Dovruq solib yurgan odam-ku, Bo‘ston!

Bozorboyning o‘zi asli shunday iffe’l edi. Mabodo, ichkilik olib kelmaganlarida ham, u Bo‘stonning xotini tuni qochganligini ko‘rib, ich-ichidan mammun bo‘ldi. Bozorboyning betgachoparligi Gulimxonga yoqmadi. Nima, ohanjama qilib o‘tiradimi, xon bo‘lmasa, bek bo‘lmasa, bor-yo‘g‘i jo‘ngina bir cho‘pon — ko‘yboqar bo‘lsa?

— Voy, gapingizni qarang,— dedi Gulimxon sal rangi o‘chib.— Bo‘stoningizni hech shu qurib ketkurga hushi yo‘q, shuning uchun...

— Bilaman, bilaman, Bo‘stoning ichmaydi!— uning gapini pisand qilmay bo‘ldi Bozorboy.— Bir aytdim-ko‘ydim-da. Choyingga rahmat. O‘ylovdimki, o‘zi ichmaydiyu, lekin mehmonlarga...

— Voy, u nima deganingiz,— qisindi Gulimxon va Bozorboyning yonida o‘tirgan Risqulga qaradi. Risqulning tizzalari bo‘ri bolalari solingan o‘sha qurmag‘ur xurjunga tegib turardi.

Risqul aroqqa chiqmoqchi bo‘lib, o‘rnidan qo‘zg‘algan edi, shu payt eshikda Bo‘stonning ikkinchi yordamchisi pedinstitutni chala tashlab ketgan, oyoq-ko‘li chaqqon va chapdast yigitcha Marat ko‘rindi. Uning oblastda ko‘rmagan joyi, qilmagan ishi yo‘q, mana endi esi kirib, Bo‘stonning oldida mahkam o‘rnashib qo‘ya qolgan edi.

— Menga qara, Marat,— dedi unga Risqul.— Berkitib qo‘ygan yarimtang bor edi shekilli. Bilaman seni. Qo‘rqma, agar Bo‘ston so‘rasa, men javobini beraman. Obke, tezroq o‘sha yarimtangni. Bozorboyning o‘ljasini yuvamiz.

— Yuvamizmi? Men birpasda!— mammun bo‘lib ha-xoladi Marat.

Yarim stakandan keyin Bozorboyning xafagarchiligi yozildi. Qo‘rquv ketib, yana o‘sha-o‘sha qashshang va betamiz Bozorboy bo‘ldi-qoldi. Xuddi o‘z uyiday gilamga yonboshlab, boshidan kechirganlarini hikoya qildi, bo‘ri bolalarini xurjundan chiqarib ko‘rsatdi. Shunda o‘zi ham ularni yaxshilab ko‘rib oldi. Oldin bo‘richalar qimirlagilari kelmay turdi, hech narsaga qarashmadni, xuddi himoya istaganday qaygadir yashirinmoqchi bo‘lishardi, keyin issiq ta’sir qildi shekilli, jonlanib, g‘imirlab qolishdi, uy ichida har yoqqa dumalab, ingillab, tumshuqchalarini o‘tirganlarning tizzalariga urishdi. Ular hech narsani ko‘rmagan, bilmagan ko‘zchalarini mo‘ltillatishib, onalarini, uning emchaklarini qidirishardi. Uy bekasi yuragi achib, boshini sarak-sarak qildi:

— Voy, sho‘rlikkinalar-ey, ochkab ketishibdi-ku! Bo‘ri bolasi bo‘lsa-da, baribir bola-da. Nima, bularni ochdan o‘ldirmoqchimisiz? Nima qilasiz?

— Nega endi o‘larkan?— xafa bo‘ldi Bozorboy.— Bularning joni toshdan ham qattiq. Ikki kun boqib turamanu keyin rayonga topshiraman. Hayvonot bazasida bilishadi ularni qanday boqishni. Xo‘jaynlarning qo‘lidan har narsa keladi — xohlasa, bo‘rini ham ko‘lga o‘rgatib, tsirkda o‘ynatadi, chipta sotib, pul yig‘adi. Balki bularni ham tsirkka olishar.

Bekach bilan birga achinishib turgan odamlar bu gapga iljayib qo‘yishdi. Lekin, bo‘ri bolalarini

tomosha qilgani kelgan xotinlar bir-birlariga pichirlasha boshlashdi.

— Bozorboy,— dedi Gulimxon,— bu yerda sut berib boqilayotgan qo‘zilar bor. Qo‘zilarning sutidan bo‘richalarga ichirsak, bo‘lmasmikin?

— Bo‘ladi!— kulib yubordi Bozorboy.— Qo‘ylar bo‘rilarni boqsin. Qoyil! Qani, olib kelinglar!

Ularning har biri keyin mana shu soatni eslab, qo‘rqib yoqasini ushlaydi. Yirtqich bolalarini qo‘y suti bilan boqishayotgani ham, bo‘richalarning erkalanib, alpong-talpong qadam tashlashlari ham, ulardan birining ko‘zi ko‘k ekanligi ham yig‘ilganlarga qiziq ermak bo‘lib tuyulardi. Axir, qiz bo‘rining ko‘zi ko‘k bo‘ladi deb, kim eshitgan? Bunaqasini faqat cho‘pchaklardagina uchratish mumkin. Bo‘stonning kichkintoyi Kenjashning hursand bo‘lganini aytmaysizmi? Birdan to‘rtta shirin dumalashib yurgan bo‘richalarni ko‘rib kichkintoyning ko‘zları o‘ynab ketdi. Bir yarim yashar Kenjash faqat o‘zi tushunadigan tilda allanarsalar deb chuldirar, bo‘rivoylar bilan achenlashib o‘ynashar, buni ko‘rib, kattalarning zavqi kelardi. To‘rtala bo‘richa ham xuddi bu yerdagi eng yaqin va ishonchli kimsalariday negadir tinmay unga suyklishardi. Kattalar: qarang, bola bolani biladi-da, deb bir-birlariga so‘z qotishar, Gulimxon, o‘g‘lingiz asti nimalar deyapti, deb so‘rashardi. Gulimxon esa ochilib-sochilib, o‘g‘ilchasini bag‘riga bosar, erkalardi:

— Voy, kuchuk, kuchugim, voy seni qara! Ko‘rdingmi bo‘richalarni. Qara, qanday yumshoq, chiroyli. Sen ular bilan o‘rtok bo‘lasanmi, a? Shunda Bozorboy bir so‘z dedi. Uning bu so‘zlarini keyin eslab yurishdi:

— Uydagi bitta bo‘ri beshta bo‘ldi. Bo‘ri bo‘lishni xohlaysanmi? Voy, Bo‘stonning to‘rva qoqdisi-ey, seni bular bilan bo‘ri iniga oborib qo‘yaymi, birga katta bo‘lasan...

Hammalari hazil-hazil qilib kulishar, choy ichishardi. Bozorboy bilan Marat yarimtani tugatishgan, yuzlari qip-qizarib, bo‘g‘riqib ketgan, qovurilgan go‘sht-yog‘ yeyishar, ichgan sayin o‘zları ham, tillari ham yechilib borardi. Hovli jim-jit bo‘lib qoldi — itlar vovullashdan to‘xtashdi, junlari qalin kattakon Jayson degan malla it esa birdan yarim ochiq qolgan eshik ostonasida paydo bo‘ldi. U eshik oldida turib dumini likillatar, ichkariga kirishga yuragi betlamasdi. Unga bir burda non tashlashdi, it nonni havoda ilib oldi, tishlari shaqillab ketdi. Shunda kayfi chog‘ Marat hammani quldirish uchun bo‘richalardan birini ushlab ko‘tardi-da uni itga ro‘para qildi.

— Qani, Jayson, ol, ol buni! Ol deyman!— u qaltirab turgan murg‘ak bo‘richani it oldiga tashladi.

Hammani hayron qilib, Jayson jahli chiqib irilladi, dumini qisdi, bo‘ynini ichiga tortib tiraqaylab qochib ketdi. Keyin hovliga, derazaning tagiga yetgach, nochor va qulinch vovulladi. Hammalari xaxolab kulib yuborishdi. Ayniqsa, Bozorboy qattiq kului:

— Qo‘y, bekorga urinma, Marat! It deganing bo‘rining hidigayoq o‘tirib qo‘yadi! Nima, Jaysoningni yo‘lbars deb yuruvdingmi? Bunaqasini hech kim ko‘rmagan!

Kichkintoy Kenjash bo‘ri bolasi uchun qo‘rqib yig‘lab yubordi. Hamma kulishdan to‘xtadi. Kattalarning zil hazillaridan bo‘richani himoya qilmoqchi bo‘lganday, uning oldiga emaklab bordi.

Ko‘p o‘tmay Bozorboy xurjunga bo‘ri bolalarini soldi-da, jo‘nab ketdi. Bu orada oti ham ancha dam olgan, unga boshqatdan zgar-jabduq urishgan, u shundan so‘ng Bo‘ston qo‘rasidan shahdam yo‘lga tushgan edi. Marat va Risqul otga minib, yelkalariga miltiq osib Bozorboyning ikki yonida kuzatib borishdi. Ularning ikkovlari ham ichishgan, lekin Maratning kayfi oshibroq qolgan, shuning uchun og‘zi gapdan bo‘shamasdi. Chaqirilmagan mehmon Bo‘stonning uyidan xayrlashib chiqarkan, orada andak ko‘ngilxiralik ham bo‘lib o‘tdi. Ana shuni siperishlash uchun bu baquvvat yigitlar Bozorboyni kuzatgani chiqqan edilar.

Bozorboy uydan chiqmoqchi bo‘lib, qo‘lidagi bo‘richalar solingan xurjunni egarga tashlab qo‘yarsan, deganday qilib Maratga berdi. U Bo‘stonning qo‘rasida izzati joyiga qo‘yilgandan xursand edi. Bozorboy devorda kattakon bo‘ri terisi yonida osig‘liq turgan miltiqni qo‘liga oldi. U miltiqni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Qoramtil po‘lati yaraqlab turgan, ko‘p o‘qlanadigan, yirik o‘lja urishga mo‘ljallangan soyli miltiq ko‘zni quvontirar, u Bozorboya rostdanam yoqdi. Devorga osilgan bo‘ri terisini Bo‘ston shu miltiqdan aniq nishonga urib qo‘lga kiritgan edi. Buni shu atrofda bilmagan odam

yo‘q.

— Menga qara, Gulimxon,— bamaylixotir dedi Bozorboy mastona ko‘zlarini miltiqdan uzbekaga tikilarkan. Bu Gulimxon degani chekkaroq yerda qo‘limga tushsa bormi... Hayolining bir chetidan o‘tdi uning. U xotinlarga duch kelgan joyda, daladami, yo‘ldami shartta changal solishga o‘rganib qolgan, niyatiga yetgach, bundan zarracha achinib o‘tirmas, mana, hozir Gulimxonni o‘z xotini Ko‘k Tursun bilan qiyoslab ko‘rarkan, Gulimxon emas, shu jonga tekkan, sovuq oshday bo‘lib qolgan xotin o‘z chekiga tushganligidan fig‘oni oshdi. Mabodo shu tobda xotini ko‘ziga tushsa, unga tarsillatib shapaloq tortib yuborishdan ham toymasdi bu badbaxt. Bozorboy o‘zini bazo‘r qo‘lga olib dedi:— Yaxshi yashar ekansizlar. Sen yaxshi bekasan. Men nima demoqchi edim? Bilasanmi, Gulimxon, bo‘rilar yana ketimdan tushadimi deb, qo‘rqayapman. Men shu miltiqni ola ketsam bo‘larmikin, ertaga birovdan jo‘natib yuborardim...

— Xudo haqi, joyiga ilib qo‘ying,— qat’iy dedi Gulimxon.— Bo‘ston miltig‘iga hech kimning qo‘lini tekkizmaydi. Miltig‘ini birov ushlasa, yomon ko‘radi.

— Nima, bitta miltiqqa kuching yetmaydimi?— tumtayib irshaydi Bozorboy. U qulay payt topsa, bu juvonni qandoq quchoqlashini yarq etib ko‘z o‘ngiga keltirdi.

— E, nima deyapsiz? Bo‘ston kelib, miltiq joyida yo‘qligini ko‘rsa, nima, bu menga... O‘qlari qaerdaligini ham bilmayman. Bo‘ston ularni yashirib qo‘yadi. Birovga bir donasini bermaydi.

Bozorboy ichida Bo‘stonni bo‘ralab so‘kdi. O‘zidan ham xafa bo‘lib ketdi: Bo‘stonning bunchalar qurumsoqligini u bilmasmidi, mana, xotini ham eridan bir tuk qolishmas ekan; sal bo‘lmasa, u juvonga miltig‘ing boshingdan qolsin, deb yuboray dedi. Lekin shu payt Risqul jonga oro kirdi, uni noqulay ahvoldan qutqardi.

— Bekor tashvish chekyapsiz, Bozake. Marat bilan sizni otliq kuzatib qo‘yamiz, xohlasangiz uyingizgacha boramiz,— deb ishontirdi u kula-kula.— Vaqtimiz esa bor, tun o‘zimizniki. Bu miltiqqa esa siz, yaxshisi, tegmang. Joyiga osib qo‘ying. Bilmaysizmi, uni o‘z oti bilan Bo‘ston deb qo‘yibdilar. Juda tartibili odam!

Ular endi chiqmoqchi bo‘lib turganlarida Risqul yana birpas ushlanib qoldi. U Bo‘stonning o‘g‘ilchasini aldab yupatishga tushdi. Bolakay amaki bo‘richalarni xurjunga solganini ko‘rib, arillab yig‘lab berdi. Qayoqqa olib ketyapti deb. Kichkintoy o‘zini yerga urar, onasining bag‘ridan yulqinib chiqmoqchi bo‘lar, bo‘richalarni qaytarib berishni talab qilardi...

Qo‘radan chiqqanlaridan keyin o‘qishni chala tashlab ketgan Marat hamrohlarini zeriktirib qo‘ymaslik uchun o‘ziga qiziq bo‘lib ko‘ringan bir hangomani boshlab yubordi.

— Yaqinda rayonimizda bir antiqa voqeа ro‘y berdi. Kulaverib ichaklarining uzilib ketadi! Eshitmovdingizmi, Bozake?

— Eshitganim yo‘q,— dedi Bozorboy.

— E, toza g‘ovg‘a bo‘lib ketdi. Chin so‘zim!

— Qani, qani, eshitaylik studentdan,— dedi uning qitiq patiga tegib Risqul otini yo‘rttirib borarkan.

— Oblastimizning rahbarlaridan biri rayon gazetamizning redaktoriga qo‘ng‘iroq qilibdi. Nima uchun sizlarning «Sotsializm tongi» gazetangizda kapitalistik Amerikani targ‘ib etishyapti?— Redaktor bilan bir payt birga o‘qiganman, juda ham qo‘rqqoq va lagambardor odam, rahbarning so‘zlaridan tili kalimaga kelmay qolibdi. «B-biz A-Amerikani yo-yozga-animiz yo‘-o‘q! K-kechiri-ing, q-qana-aqa ta-arg‘i-bot?» Rahbar aytarmish: «Hali yozmaganlaring shumi? Manovi nima, oq qog‘ozga qop-qora qilib yozgansizlar?— «Bo‘stonga ergashaylik?»

—«E, bu ilg‘or cho‘ponimiz Bo‘ston O‘rkunchiev haqida yozilgan».— «Men ham bilaman u haqda yozilganini. Ammo ko‘plar faqat sarlavhaning o‘zini o‘qishadi». Ha-ha-ha! Ana, ko‘rdingizmi? Zo‘rmi? «Xo‘p, unda nima qilaylik?»— deb so‘rabdi redaktor. Rahbar aytarmish: «Ilg‘orga tayinlang, nomini o‘zgartirsin».

— To‘xta!— dedi Bozorboy,— nima Amerikada ham Bo‘ston bormi?

— E, yo‘q,— dedi kulib Marat.— Bo‘ston — Amerikaning katta shaharlaridan biri, Nyu-Yorkdan qolishmaydi. Bizda esa Bo‘ston — bo‘z to‘n degani, ya’ni kulrang chopon. Tushundingmi?

— Tuf-ey, ana, qurg‘urni qara, rost, rost! — deb tasdiqladi Bozorboy, bu gaplarning bari ikki pulga qimmatligi, Bo‘stonning obro‘yiga zarracha ham putur yetkazolmasligidan achinib.— Xuddi o‘zi. Bo‘ston deb choponni aytamiz...

Kechaning seryulduz falagi — sarbaland tog‘lar qorong‘ulikda qud-ratlil yag‘rini elas-elash ko‘zga chalinib turgan ko‘l uzra yoyildi. Uch otliq hazil-huzul qilishib Tamanga ketib borishar, shu kecha bir qancha odamlarning taqdir kalavalari yechib bo‘lmaydigan darajada og‘ir chuvalashib ketganligini hayollariga ham keltirmas edilar... Mana, ularning gap-so‘zлari, ot taqalarining toshlarga urilgan ovozlari borgan sari sekinlab, so‘ng butunlay eshitilmay qoldi... Bo‘ston dvijogining pat-pati ham orqada so‘ndi, uning chiroqlari tog‘larga cho‘kkani qorong‘ulik ichidan cho‘ponlarning bir necha qo‘ralari-yu hovlilariga oq shu'lalar taratardi.

Qaerdadir uzoq ketmay qashqirlar izg‘ishardi...

## II

Gulimxon kichkintoyni aldab-suldab, erkalab bir amallab uxlagini yotqizdi, o‘zi yotmay — erini kutdi. Eri hali-zamon kelishi kerak edi. Tashqarida itlar birdan baravar vovullay boshladi. Gulimxon yelkasiga issiq ro‘molini tashlab, derazaga yuzini bosdi. Direktorning «Gazigi» chiroqlari bilan qorong‘ulikni yorib, qo‘zilaydigan qo‘ylar saqlanayotgan katta qo‘ton oldidan qayrildi. Bo‘stonning mashinadan tushgani, xayrlashib, kabina eshigini yopgani va mashina orqasiga keskin burilib ketganini Gulimxon ko‘rib turdi. Eri darrov uyg‘a kirib kelmasligini Gulimxon bilardi. Bunaqa paytlarda u avval qo‘tonlar va saroylarni aylanadi, g‘aramxonaga qaraydi, qorovul Qudurmatdan kuni bo‘yi bo‘lgan ish-hushlarni so‘raydi, qo‘ylar yotib qolmadimi, chala tashlab qo‘ymadimi, qo‘zilaganlari bormi, yo‘qmi, hammasini bilmaguncha tinchimaydi,

Kuni bilan ko‘chadan horib-charchab kelgan erini qaynoqqina ob-osh bilan kutib olish uchun Gulimxon o‘choq tagiga oldindan hozirlab qo‘yilgan o‘tinlarni tashladi. Gulimxon issiq choy bo‘lmasa eriga hech narsa tatimasligini biladi. U qachon kelarkin deb, ostonaga quloq sola boshladi. Kichkintoy Kenjash otasining sovuqdan muzday bo‘lib qolgan mo‘ylovleri yuziga tekkach, issiqliqina to‘sagida maza qilib dumalab, lablarini chapillatib qo‘yishini tasavvuriga keltirdi-da, Gulimxon jilmayib qo‘ydi. Odatda kichkintoyni Bo‘stonning o‘zi o‘ringa yotqizardi. Bundan oldin u bilan anchagacha o‘ralashar, va hatto hushiga kelsa, eshik, derazalarni mahkam berkitib, uyni isitib, o‘zi kichkinani tosga solib cho‘miltirardi. Qo‘shnilari Bo‘ston yoshi qaytib, bolaga haddan ziyod mehr qo‘yyapti, ilgari u bunday emasdi, deyishardi. Ilgari u bolalaridan ham ko‘ra ishni ko‘proq yaxshi ko‘rardi. Mana, endi oldingi bolalari voyaga yetishib, o‘zлari bolalik bo‘lib qolishdi. O‘z kunlarini o‘zлari ko‘rishadi. Ular Bo‘stonni ko‘rgani kelib turishadi. Lekin, bolaning to‘rva qoqdisi hammadan ham lazizroq bo‘lar ekan. Biroq, Bo‘stonning Kenjashga bunchalar qattiq mehr qo‘yanligining boshqa bir achchiq sababi ham yo‘q emas. Buni bir Gulimxon bilmasa, tushunmasa, kim biladi, tushunadi. Axir, ular bir kunmas-bir kun erxotin bo‘lamiz, farzand ko‘ramiz deb, hech hayollariga keltirishibdimi: axir, uning eri Ernazar dovonda nobud bo‘lmasaydi, va shundan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmay Bo‘stonning biringchi xotini Orzigel qazo qilmasaydi, bu ishlar qayoqda edi. Ular o‘tgan ishga salavot deb qo‘yishgan, lekin yolg‘iz qolgan chog‘larida har birlari o‘z hayollariga g‘arq bo‘ladilar, kechgan kunlarini o‘ylaydilar... Kichkintoy — ularni bir-birlariga mustahkamroq bog‘lab turadi. Axir, u ne-ne mashaqqatlarning shirin mevasi. Axir dovonga yo‘lni Bo‘ston boshlagan edi, o‘shanda yordamchisi Ernazar uning ko‘z o‘ngida halok bo‘ldi, ko‘z ilg‘amas chuqur muzlik qa‘rida qolib ketdi... Faqat shu kichkintoygina Bo‘ston yuragidagi o‘pqonni to‘ldirib turar, yarasiga malham edi. Binobarin, qadimdan qolgan gap bor — faqat tug‘ilishgina o‘limning o‘rnini to‘ldiradi.

Mana, nihoyat qadam tovushlari eshitildi, Gulimxon erining qoshiga yugurib chiqdi, etigini

yechishga qarashdi, suv,sovun, sochiq keltirdi. Erining qo‘liga indamay suv quydi, ular odatda, keyin — choy ustida bafurja o‘tirib gaplashishadi. O’shanda eri: «Mana, endi qulq sol, dunyoda nimalar bo‘lmaydi-ya»,— deydi-da, ko‘rgan-bilganlarini hammasini bir boshdan oqizmay-tomizmay hikoya qilib beradi. Ular ikkovlari mana shunday yolg‘iz qolgan paytlarida o‘zlarini juda yaxshi sezishadi. Bu bir-birlariga juda yaqin bo‘lib ketgan odamlarning o‘zaro gapi,— u xuddi tanish sohilga o‘xshaydi, qaeri past, qaeri chuqur-oldindan ma’lum. Esida, Orzigul qazo qilganiga bir yildan oshgan, barcha ta’ziya marosimlari o‘tgan edi. Ular aloha turmush quradigan bo‘lishdi. O’shanda Bo‘stonning otini otxonada qoldirib, odamlar ko‘z o‘ngida o‘zlarini birgalikda g‘oyatda o‘ng‘aysiz his qilib, avtobusga o‘tirib, rayon ZAGSiga borishdi, zarur qog‘ozlarga tezgina qo‘l qo‘yib, tezgina chiqib ketishdi, keyin yana avtobusga o‘tirgilari, ko‘chalarda tanish odamlarni uchratgilari kelmay ko‘lga karab yurishdi, so‘ng sohil bo‘yidan uning beva boshpanasiga o‘tishdi. Kuzning quruq kunlari. Qilt etgan shabada yo‘q. Issiqko‘lning tiniq moviy yuzasi har qachongidan g‘oyatda sokin va shaffof edi. O’shanda Bo‘ston tilog‘och butazori o‘sgan sohilga tushgan so‘qmoqning boshida qirg‘oqqa bog‘lab qo‘yilgan ikki qayiqni ko‘rib to‘xtadi. Qayiqlar ohista chayqalishar, suvning qumloq tagi yaqqol ko‘rinib turardi.

«Qara, atrof suv, tog‘lar, yer — mana shuning hammasi hayot. Manov ikki qayiq esa tob sen bilan menga o‘xshaydi. To‘lqin bizni qayoqqa boshlab ketadi — hali ko‘ramiz. Boshimizga nimalar tushdi, nimalar kechirdik — to tirik ekanmiz, doim xotiramizda turadi, bizdan qochib ketmaydi. Ke, doim boshimiz qovushib, birga bo‘laylik. Meni chol desang ham bo‘ladi. Qish kirsa, qirq to‘qqizga to‘laman. Sening bolalaring esa yosh, ularni o‘qitish, odam qilish kerak... Yur, bud-shudni yig‘ishtiraylik. Bاليقىن بىلەن ئىزلىرىنىڭ قىزىسىن. سېنى توگ‘لارغا ئىلىك كەتەمان... Men bir o‘zim yasholmayman, toqatim qolmadi...»

Gulimxon negaligini o‘zi ham bilmagan holda yig‘lab yubordi, Bo‘ston uni uzoq yupatib turdi... Keyin o‘zлari yolg‘iz qolgan chog‘larida turmush haqida gaplashishar ekan, Gulimxon tez-tez sohildagi o‘sha ikki qayiqni eslardi. Shuning uchun ham, eng yaqin odaming bilan qiladigan suhbating xuddi tanish sohilga o‘xshaydi, deb o‘ylardi u. Biroq, bu safar eri nazarida odatdagidan sal tashvishliroq ko‘rindi. Bo‘ston dahlizdagi lip-lip qilib turgan chiroqning yorug‘ida yirik dag‘al qo‘llarini sochiqqa atay erinmay artardi. U xotiniga qaraganda bo‘yi ancha baland, bir oz qisilgan ko‘kimtir ko‘zлari norizo boqar, shamollar yalayverib pishigan cho‘ng va quyma dahani qurch kabi qoraygan edi. Tinchlikmikin ishqilib? Qo‘llarini artib bo‘lgach, Bo‘ston Kenjash tepasiga bordi. O‘z qo‘li bilan yasagan yog‘och karavot oldida cho‘k tushib o‘tirdi, o‘g‘lini erkabal dag‘al lablarini uning yuziga bosdi, kichkintoy otasini sezib, o‘rnidan shirin qimirlab qo‘ydi, buni ko‘rgan Bo‘ston beixtiyor jilmaydi.

— Men yo‘g‘imda bu yerga Bozorboy kelgan emish,— deb so‘z qotdi u ovqatga o‘tirarkan.— Xosiyati yo‘q bu ishning...

Gulimxon bu so‘zлarni o‘zicha tushunib, qizarib ketdi, jahlini bosib xafa bo‘lib dedi:

— Men nima qilay axir? O‘zлari uygа bostirib kelib qolishdi. Bo‘ri bolalarini tutishgan ekan, ko‘rsatamiz deyishdi. Kenjash yopishib olsa bo‘ladimi — yosh bolaga o‘yin-da... Choy qo‘ydim keyin oldilariga.

— Buni aytayotganim yo‘q. Mayli-ku-ya, o‘zi kelar yor-yor, o‘zi ketar yor-yor. Xosiyatsiz odam deyman-da...

— Nima qipti shunga?— uning nima demoqchiligin angololmay dedi Gulimxon.— O‘zingiz ham bo‘rilarni otgansiz-ku. Ana, terisi bulturdan beri osilib yotibdi, xo‘pam yaxshi oshlashgan ekan terisini,— u devordagi bo‘ri terisiga ishora qildi.

— Turishga-ku turibdi-ya,— javob berdi Bo‘ston xotiniga bo‘sh piyolani uzatarkan. Gaping rost, men ham bir payt bo‘ri otganman. Nima qilaylik, dunyo shunday qurilgan ekan, bir yodda odam bor ekan, bir yokda bo‘ri. Lekin men hech qachon bo‘ri uyasini to‘zg‘itmaganman. Shumqadam Bozorboy deganing bo‘ltiriqlarni o‘g‘irlab olibdi, katta bo‘rilar esa omon qolibdi, endi ular toza quturishadi.

Hammadan bizga yomon bo‘ladi. Bo‘rilar shu atrofda in qurishgan, alamini bizdan olmasalar go‘rgaydi...

Gulimxon uning so‘zlaridan dong qotib qoldi. U hamma xotinlar ga o‘xshab oh-voh qildi, xo‘rsindi, yelkasiga og‘ib to‘kilgan soch o‘rimlarini tuzatdi.

— Voy, sho‘rim! U shumqadamning o‘zi nima qilib bizning tomonlarda adashib yuribdi ekan? Bo‘rining iniga tegib nima bor? Odam achinadi. Hayvon bo‘lsa ham, bolasi o‘ziga shirin. Hamma biladi buni. O’shanda bu aqlimga kelmaganini qarang.

— Men boshqa narsani o‘ylayapman,— dedi tashvishlanib Bo‘ston.— Qanday bo‘ri ekan bo‘lar? Anovlar emasmi?— Bo‘ston jim qoldi. So‘ng qo‘sib qo‘ydi:— Qudurmatning gapiga qaraganda, bo‘rilar Bozorboyni Boshat darasi tomonidan quvib kelishganmish.

— Nima qildi?

— Anovi kelgindi bo‘rilar — Toshchaynar bilan Akbara bo‘lmasin deyman-da ishqilib. Shunday bir juft bo‘ri bor.

— Voy, qo‘ying, hazilingiz qursin! — qiqirlab kulib yubordi Gulimxon.— Hech zamonda bo‘rilarning ham odamlarday oti bo‘ladimi? Hazillashasiz!

— Haziling nimasi! Hazil gap emas. Bu bo‘rilarni biz bilamiz. O‘zimizning bo‘rilarga o‘xshamaydi. Ko‘rgan odamlar bor. Juda qahri qattiq bu bo‘rilarning. Ikkovi ham kuchli. Qopqonga tushmaydi. Otaman desang, ko‘zga ko‘rinmaydi. Qurmag‘ur aroqxo‘r Bozorboy kelib-kelib ularning inlariga duch kelib qolganini qara. Butun naslini quritibdi. Tag‘in sen ularning o‘z otlari borligiga hayron bo‘lib o‘tiribsan! Erkagi Toshchaynar shunaqangi kuchlikni, hatto otni ag‘daradi. Onaboshi Akbara esa haddan tashqari aqli, men bunaqa aqli darrandani ko‘rmaganman! Shuning uchun juda xatarli.

— Bo‘ldi qiling, otasi, yuragimni chiqarmang! Nima, meni bola fahmlayapsizmi? — ishonmay iljaydi Gulimxon.— Xuddi bolalikdan ular bilan birga o‘sganday gapisasiz...Hech odamning ishongisi kelmaydi...

Bo‘ston xayr mayli, deganday ko‘ngilchan kulib qo‘ydi, lekin o‘ylanib koldi, xotinini tinchlantirmasa bo‘lmasligini bildi.

— Bo‘lar ish bo‘libdi,— dedi u bir oz jim o‘tirgach,— hayolingdan chiqarib tashla. Bir dimog‘ingni chog‘ qilay dedim-da. Qani, to‘shakni sol. Kech bo‘lib ketdi. Ertalab barvaqtroq turish kerak. Erta-indin yalpisiga qo‘zilash boshlanadi. Ba’zi qo‘ylar kechasi yo ertaga ertalab tug‘ib qo‘yishi mumkin. Ayniqsa, ikkita, uchtalab qo‘zilaydiganlari!

Chiroqni o‘chirib o‘ringa kirganlaridan so‘ng odatda darrov uxbab qoladigan Bo‘ston rayonda bo‘lgan majlis, unda mana shu bilan nechanchi marta nega hozirgi yoshlari chorvachilikka qiziqmayotganligi, nimalar va qanday qilish kerakligi haqida ikki og‘izgina so‘ylab berdi. Shunda tashqarida ot tuyoqlarining tovushi eshitildi. Gulimxon o‘rnidan dik etib turdi, ichki ko‘ylakda yelkasiga shol ro‘molini tashlab darcha oldiga keldi. Katta qo‘ton oldida miltiq osgan ikki otliq otdan tushayotganlarini ko‘rdi.

— Risqul bilan Marat qaytib kelishdi,— dedi u.— Bozorboyni kuzatib qo‘ygani ketishgan edi.

— Voy, tentaklar-ey! — deb g‘o‘ldiradi Bo‘ston va shu zahoti uxbab qoldi.

Gulimxon anchagacha uxlolmay yotdi. Karavotda yotgan o‘g‘ilchasing ustini to‘g‘riladi. Bolasi tushmagur, doim ustidagi ko‘rpalarini tepib tashlaydi, qorni ochilib qoladi. Bola emas, balo, hech uxlagani bermaydi, ayniqsa, ko‘zini uyqu tortib ketayotgan mahalda. Hozir Gulimxonning uyqusi qochdi. Xo‘p serg‘alva, bevosh kun bo‘ldi-da bugun. Hammasinga Bozorboy sababchi. Osmondan tushganday kelib qolganini qarang. Ko‘zim uchib turuvdi senga. Ayniqsa, Bo‘ston jini suymaydi. Bo‘ston o‘zi shunaqa, shovqin-suronni, shoshqaloqlikni, Bozorboyga o‘xshagan tamizi yo‘qlarni garchi shaxsan hech qanday yomonlik qilmagan bo‘lsa ham, yoqtirmaydi. Bozorboyning esa Bo‘stonga baxilligi keladi, ishi yurishgan, oshig‘i olchi deyishadi... Lekin ish yurishsin deb, qancha ter to‘kish, aql ishlatish kerak, Bozorboy buni bilmaydi. Ertaga tong qorong‘usidan ishga sho‘ng‘ib ketadi, to kech

govgumgacha qo‘li bo‘shamaydi, hammasiga o‘zi qaraydi, o‘zi reja oladi, puxtalab ko‘z soladi...

Gulimxon deraza oldiga kelib, sutday oqarib yotgan tun bag‘riga tikildi. Oy tizim-tizim tog‘ o‘rkachlari uzra porlardi, durdona yulduzlar bodrab chiqqandi. Ertalabga qarab oy botadi, yulduzlar so‘nadi, ammo shu kech allamahalda tunning cheki yo‘qday, hech qachon tong oqarmaydiganday ko‘rinardi. Tog‘ etaklari sukunatida chekdagi pat-patning ovozigina hokim edi.

Gulimxon uzoq uxladimi, aytish qiyin, balki ko‘zi uyquga endigina ilingandir, lekin shunda uyqu aralash qulog‘iga itlarning akil-lashgani va qandaydir uvlagan ovoz chalindi. Gulimxon uyqudan bazo‘r ko‘zini ochdi, endi bo‘rining cho‘zib-cho‘zib, nola qilib uliganini aniq eshitdi. Uv solgan ovoz ko‘kka o‘rlar va yurakka og‘ir vahima solardi. Gulimxonni titroq bosdi, u eriga yaqinroq surilib yotdi, uning bag‘riga tiqildi. Sal o‘tmay bo‘ri ulishi achchiq, alamli yig‘iga aylandi. Azob-uqubatda qolgan maxluq g‘amini hech qayoqqa sig‘dirolmay faryod ko‘tarardi.

— Akbara-ku! — uyqu aralash xirillagan ovoz bilan dedi Bo‘ston yostiqdan shahd boshini ko‘tarib.

— Qanaqa Akbara? — so‘radi Gulimxon gap nima haqida borayotganligini anglamay.

— Ona bo‘ri! — dedi Bo‘ston bo‘ri ovoziga quloq tutib, so‘ng qo‘shib qo‘ydi: — Toshchaynar ham qo‘shilishib uvlayapti. Eshityapsanmi, qassobxonadagi buqaday bo‘kiryapti.

Ular nafaslarini ichlariga yutib qotib qoldilar.

— Uv-uv-uv-v-va-uv-V-va-a-a-u! — anduh to‘la faryod taralardi cheksiz tun qo‘ynida.

— Nima, nimaga uvlayapti? — qo‘rqib pichirladi Gulimxon.

— Nima bo‘lardi? Alamidan yig‘layapti!

Ular indamay qoldilar.

— Voy qistaloq! — jahli chiqib so‘kindi Bo‘ston.— Sen yota tur, bolaga qara, uyg‘onib ketmasin. E, qo‘rqma, nimadan qo‘rqasan, nodon! Bo‘ri xo‘p uvlayapti yaqin o‘rtada, bolasini sog‘inib dovlayapti, xo‘p, nima qilish kerak? Men qo‘tonlardan xabar olay-chi, nima gap ekan?

U shundan so‘ng apil-tapil kiyindi, dahlizga o‘tib etigini oyog‘iga tortdi, so‘ng xonaga qaytib kirib, chiroqni o‘chirdi-da, eshik-ni mahkam yopib tashqariga chiqdi. Gulimxon uning deraza yonidan o‘tgani, allanimalar deb, so‘kingani, «Jayson! Jayson! Mah!»— deb itni chaqirgani va qadamlari asta uzoqlashib ketganini tinglab yotdi. Shunda yana ona bo‘rining cho‘zib uv tortgani, erkagining do‘rillab unga jo‘r bo‘lgani eshitildi. Ular tortayotgan uvvos sasida qahru-g‘azab ko‘pirib toshar, do‘q yig‘i bilan almashar, keyin yana telba vasvasa shiddatli xurujga minar, so‘ng umidsiz yolvormoqqa o‘tardi...

Odamning yuragini ezib, buydalab yubormoqdaydi bo‘rilarning uvvosi. Gulimxon qulog‘ini chippa berkitdi, so‘ng borib, xuddi qashqirlar uyga bostirib kiradiganday eshikning ilgagini soldi, qaltirab, shol ro‘moliga o‘ranib, nima qilishini bilmay garangsib o‘rin tepasiga keldi. Ishqilib, bola uyg‘onib, qo‘rqib ketmasin-da, dedi u. Ichi shunday alag‘-chalag‘ edi.

Bo‘rilar esa hamon uv tortishar, ular xuddi shu yaqin orada aylanishib, u yerdan bu yerga o‘tishib, daydishayotgandek edi. Itlar ularga javoban quturib vovullashar, lekin hovilardan tashqari chiqishga botinmasdilar. Shunda birdan varanglab miltiq ovozi keldi, yana bir otildi. Bo‘ston bilan qorovul Qudurmat bo‘rilarni qo‘rqtish uchun o‘q chiqarganlarini Gulimxon tushundi.

So‘ng hammayoq jim bo‘lib qoldi. Itlar akillashi bosildi. Bo‘rilarning ham uni o‘chdi., «Xudoga shukr, ketishdi, odamning o‘takasini yorib yuboray deyishdi-ey!»— o‘yladi Gulimxon yengil tin olib. Lekin baribir dili xavotirda edi. U uxbayotgan Kenjashni karavotdan o‘zlarining to‘saklariga olib o‘tib, o‘rtaga yotqizdi. Bu orada Bo‘ston qaytib keldi.

— Uyquni ham harom qildi, qistaloqlar,— deb norozi to‘ng‘il-adi u aftidan bo‘rilar va itlarni nazarda tutib.— Hayvon, qip-qizil hayvon ekan, bu Bozorboy! — derdi u kufr bo‘lib, qayta o‘ringa cho‘zilarkan.

Gulimxon eridan so‘rab-surishtirib o‘tirmadi. Shusiz ham uyqusi chala bo‘ldi. Ertalab azonlab yana qo‘tonlarni aylanishi kerak. U miriqib uyquni urib yotadigan cho‘ponlardan emas.

Erining ko‘ngli nihoyat joyiga tushganligi, o‘g‘ilchasini bag‘riga bosib, shirin so‘zlar aytib,

erkalaganlarini ko'rib, Gulimxon nihoyat yengil tortdi. Bo'ston o'zi kenjasini qattiq suyar, shuning uchun ham unga Kenjabe — naslning kenja begi deb nom qo'ygandi. Cho'ponlar hamma vaqt bek bo'lishlikni orzu qilganlar, lekin taqdirning kulgisini ko'ringni, hamma vaqt cho'ponlar — cho'pon bo'lib qolaverganlar. Bo'ston ham bundan mustasno emasdi.

Ular o'g'ilchani o'rtalariga olib yotgancha uxlab qoldilar. Lekin, hayal o'tmay yana mungliq bo'ri ulisidan cho'chib uyg'ondilar. Itlar yana bezovta vovullasha boshladilar.

— Voy, yana nima bo'ldi? Qurib ketsin shu turmush! — uyqu azobidan norozi bo'lib dedi Gulimxon va shu zahoti aytgan so'zi uchun afsuslandi. Bo'ston indamay o'rnidan turib, qorong'uda timirskilanib kiyimini ustiga ila boshladi.— Ketmang,— iltijo qildi xotini.— Uvlasa uvlayversin...Men qo'rqaman, Kerakmas, ketmang!

Bo'ston ko'na qoldi. Shunday qilib, ular qop-qorong'u tunda, zimiston qoplangan tog'larda, qorong'u uyda bo'rilarining nolakor uliganiga quloq tutib yotardilar. Tun yarmidan og'gan, halizamotda tong oqaradi, bo'rilar esa hamon qayg'uli, alamangiz uv tortganlari tortgan edi.

— Odamning jonini sug'urib olay deydi-ya. Ularga nima kerak ekan o'zi? — o'zini tutolmay dedi Gulimxon.

— Nima kerak bulardi? Bolam qani, deb so'rashyapti-da, javob berdi Bo'ston.

— Bolalari bu yerda emas-ku, axir. Olib ketdilar-ku allaqachon.

— Ular ne bilsin buni? — dedi Bo'ston.— Bular — Xudoning maxluqi. Faqat bitta narsani bilihadi: izlar ularni shu yergacha olib kelgan. Shu yerda ular uchun hamma narsa tamom bo'lgan — dunyo oxir bo'lgan. Qani, borib ularga shuni tushuntirib ko'r-chi. Attang, o'shanda uyda o'zim bo'lmabman-da! Bozorboy ablahrung shu ishi uchun bo'ynini qayrib tashlardim. O'ljani olgan u — o'lonini biz to'laymiz...

Xuddi uning so'zlarini tasdiqlaganday qo'tonlar va qo'y qo'ralari uzra bo'rilarining dam mungli va og'ir, dam darg'azab va qahrli uvvoslari taralar — alamidan o'zlarini qo'yarga joy topmagan bo'rilar atrofda tinmay izg'iganlari izg'igan edi.

Ayniqsa, Akbara o'rtanib yonardi. U xuddi mozorga borgan xotindek nola chekardi. Shuni Gulimxon Ernazar dovonda nobud bo'lganda, boshini devorga urib yig'laganlarini esladi. Shu tobda alamidan dod deb yuboray dedi. Bo'stonni uyg'otib unga hamma-hammasini bir chekkadan so'ylab berishiga oz qoldi, bundan o'zini bazo'r to'xtatdi.

Ular shu tariqa mijja qokmay yotishar, yolg'iz ma'sum go'dak Kenjashgina miriqib uxlardi. Ona bo'rining bolalaridan ayrilib tinmay uv tortayotganini tinglarkan, ona Gulimxon garchi hech qanday xavfu xatar bo'lmasa ham, o'z farzandidan tashvishlanardi.

Tog'larning boshi oqardi. Qorong'ulik ko'k toqlarida erib bormoqda. Tungi posbonligini o'tagan yulduzlar birin-birin o'chmoqda. Olis-yaqin cho'qqilar ravshan tortdi. Yer — yerga o'xshay boshladi.

Mana shu soatda Akbara bilan Toshchaynar tog'larga, Boshat darasi tomon ketib borardilar. Ularning soyalari dam adir-tepaliklarga tushar, dam qorong'ulik ichra yo'qolardi. Bo'rilar boshlarini xam qilgancha kadam tashlar — bolalaridan ayrilik oson bo'lmaganidek, tun bo'yi ulib chiqish ham oson emasdi. Ular yo'l-yo'lakay o'lja qo'tos to'shi qolgan yalanglikka o'tishlari ham mumkin edi. Odadta ular to'yib-to'yib et yeyishdan o'zlarini tiyib o'tirmsdilar. Lekin Akbaraning ko'ngli shu tobda et tusamadi va Toshchaynar ham, unga buni eslatishga yuragi betlamadi.

Quyosh chiqay deb qolgandi. Akbara inga yaqinlasharkan, birdan xuddi uni bolakaylari kutib turgandek, yugurgilab chopib ketdi. Ushbu g'alati holat — o'z-o'zini aldash Toshchaynarga ham yuqdi. Endi ular ikkovlan dara ichidan halaka otib yugurib borishar, bulturuqlarni yana tezroq ko'rmoq umidi yuraklarini hapriqtirardi.

Yana bari takror bo'ldi. Akbara changalzor oralab sho'ng'idi, kamarga kirdi, o'zini qoya tagidagi iniga urdi, yana hamma yoqni iskab chiqdi,sovugan o'rnini timdaladi, yana bulturuklar g'oyib bo'lganiga ishondi, faryod chekib, o'zini indan tashqariga otdi, ko'ziga alamidan hech narsa ko'rinmay, g'or og'zida duch kelgan o'ng'aysiz Toshchaynarni yana tishlab-tishlab oldi, yana jilg'a

bo'yiga borib, har tomonni iskay ketdi. Bu yerda hamma narsa ko'ziga xunuk va alamsho'r bo'lib ko'rindi. Ayniqsa, toshga suyab qo'yilgan shishadan taralayotgan hidga sira toqat qilolmasdi. Achchiq, dimoqni yoradigan hid Akbaraning qahru-g'azabini oshirib-toshib yubordi. U vahshat bilan irilladi, o'zini tishlab tashladi, yerni, toshni tishlab tirnadi. Oxiri chidolmay faryod ko'tardi, uning fig'onu oshubi ko'kdan oshdi. Akbaraning o'xhashi yo'q ko'k ko'zlaridan olam qonli jala bo'lib yog'ildi..

Olamda unga tasalli berguvchi hech kim yo'q edi, hech kim unga qo'shilib yig'lamasdi. Sarbaland tog'lar sovuq edilar...

### III

Ertasiga ertalab soat o'narda Bozorboy No'yg'utov rayon markaziga borish uchun otni egarlamoqchi bo'lib turib, bu yoqqa qarab kelayotgan otliqqa ko'zi tushdi. Qiziq, Taman qishlovida nima ishi bor ekan? Oldi ochiq sariq pocha po'stin, tulki tumoq kiygan otliq kunbotar tomondan tog'ning kichik etagidan otni yo'rttirib kelardi. Egarda u o'ktam va chapdast o'tirardi. Bozorboy darrov, otliqni ham, tikilibroq qarab, saman otni ham tanidi. Ha, chindan ham adashmabdi, bu Do'nko'likka minib olgan Bo'ston O'rkunchievning o'zginasi edi. Bo'stonning kutilmaganda paydo bo'lishi Bozorboyning ko'nglini xira qildi. Shu dilxiralik bilan u egarni bir chekkaga qo'yib, o'zi xush ko'rmaydigan uzoq qo'shnisini kuta boshladi. Bo'ston meni poylab turibdi degan hayolga bormasin deb, bir dasta somon bilan otni qashlay ketdi. O'zini ish bilan ovora odamday ko'rsatdi. Bozorboyning nazarida Bo'ston uni xuddi qo'lga tushirganday g'alati bir holga tushdi. U hovlilar, qo'ralar, qo'tonlar, ertalab o'z ishi bilan ovora cho'ponlarni hammasi joyidamikin, deganday ko'zdan kechirdi. Albatta, qishlovida Bo'stonning xo'jaligida tartib, saranjomlik ko'proq. Bo'ston itday ishlaydi, ilg'or bo'lgach, boshqa iloji ham yo'q-da (og'ziga kuchi yetmagan g'alamislardan-e, anov ajoyib yillar bo'lsami, Bo'ston allaqachon quloq sifatida Sibir qilinardi, deb yurishardi), Bozorboy esa, kim bo'pti — jo'ngina, soddagina osiyolik cho'pon. Tog'u cho'llarda undaylarning son-sanog'i yo'q. Ular millionlab bosh qo'y suruvlarini surib yurishadi, ular o'tgan joylardan o't-o'lan tagi-tomirigacha quriydi. Undan keyin har kimniki o'ziga. Bo'ston — o'ziga, Bozorboy — o'ziga. Bo'ston yaqinlashib kelarkan, Bozorboyning hayolida fikrlar charx ura boshladi: «Bu quloq kallai saharlab nimaga izg'ib yuribdi? Taajjub? — aqli yetmay hayron bo'lardi Bozorboy. Nima bo'ldiykin? Sabab?» Bir ko'ngli Bo'stonni uuga taklif qilsammikin, dedi, lekin bevosh, besaranjom hovlisi va hammadan ham badbaxt, sho'rtumshuq Ko'k Tursunni (axir, uni Gulimxon bilan asti tenglashtirib bo'larmidi!) ko'z o'ngiga keltirib, tag'in bu fikridan qaytdi.

Taman qishloviga kirib kelarkan, Bo'ston hovli oldida otning boshini tortdi, atrofga alanglab qaradi va ayvon oldida uy egasini ko'rgach, shu yoqqa qarab yurdi. Ular sipolik bilan salom-alik qildilar, Bo'ston otdan tushmadi, Bozorboy o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi. Bu holdan har ikkovlari ham sira xijolatga tushganlari yo'q.

- Uyda ekansan, yaxshi bo'ldi,— dedi Bo'ston kafti bilan mo'ylablarini silab.
- Uyda bo'lmay qaerda bo'lardim. Xush keptilar? Nima gap?
- Gapim bor edi.
- Senga o'xshagan odam bekor yurmaydi,— dedi kibr bilan Bozorboy.— To'g'ri aytdimmi?
- To'g'ri.
- Ish bilan bo'lsang, unda otdan tush.

Bo'ston indamay otdan tushdi, Do'nko'likni qoziqqa bog'ladi. Odatdagiday, otning ayilini bo'shatib qo'ydi, ot qorinbog'dan dam oladi, bemalol nafas rostlaydi. Keyin atrofga sinchkovlik bilan ko'z yugurtirdi.

— Nima qilib turibsan? Nimaga qarayapsan? — g'ashi qo'zib jerkiganday dedi Bozorboy.— Manavi to'nkaga o'tir,— o'zi oyoq tagida dumalab yotgan traktor g'ildiragiga o'tirdi.

Ular bir-birlariga yovqarash qilib turishardi. Ochig'i, Bozorboyga Bo'stonning hech narsasi

yoqmaydi. Chet yoqalariga barra qo‘zi terisi yopishtirib tikilgan yoqasi ochiq pochapo‘stin kiygan bo‘lsa, o‘ziga, po‘stini keng ko‘kragiga yarashib turgan bo‘lsa, o‘ziga; sog‘-lom, baquvvat, o‘ktam, ko‘zlari tiniq, tani misday bo‘lsa, o‘ziga; Bozorboydan besh yosh katta bo‘lsa, o‘ziga: kecha kechasi bilan Gulimxonning quchog‘ida yotgan bo‘lsa, o‘ziga; uning bular bilan necha pullik ishi bor, axir.

— Qani, ayt gapingni, qulog‘im senda,— deb boshini silkitdi Bozorboy.

— Bilasanmi, nima ish bilan keldim,— deb boshladi Bo‘ston.— Ko‘ryapsanmi, xurjun ham olib kelganman, ana egarga bog‘lab qo‘yibman. O’sha bo‘ri bolalarni menga ber, Bozorboy. Ularni joyiga qaytarish kerak.

— Qaysi joyiga?

— Iniga deyman-da.

— Ana xolos! — labini qiyshaytirdi Bozorboy.— Men bo‘lsam, boshim qotib o‘tiribman, ilg‘or cho‘ponimiz nechuk qadam ranjida qildilar deb. Ishlarini tashlab chopib kelganini qarang. Bo‘ston, esingdan chikqanga o‘xshaydi, men sening qo‘ychivoning emasman. Men ham xuddi senga o‘xshagan odamman. Menga xo‘jayin emas-san.

— Gap unda emas! Oldin sen gapni eshit. Kechagi bo‘lgan ishni bo‘rilar eslaridan chiqarib yuboradilar, desang, qattiq xato qilasan, Bozorboy.

— Menga nima! Esidan chiqarmasa chiqarmas, ishim nima, sening ham bu bilan nima ishing bor?

— Ishimiz shuki, bo‘rilar kecha kechasi bilan qo‘ra atrofida izg‘ib ulib chiqishdi. Endi bolasini qaytarmaguncha, ular tinchlik bermaydi. Men bo‘rilarni bilaman.

Bo‘ston uning oldida iltimos bilan kelgan edi. Shundan Bozorboy o‘zini ko‘rsatgisi, mazax, maynavozchilik qilgisi keldi. O‘z oyog‘i bilan kelib, qulluq qilib turibdi. Munaqasi tushingga ham kirmaydi. Bozorboy qulay fursatdan foydalanib qolishni ko‘zladi. Buning ustiga ichida zaharxanda kulib qo‘ydi: kechasi bilan uxlamay chiqishibdi, ajab bo‘pti; Bo‘ston Gulimxonni quchog‘ida olib yotolmagan bo‘lsa, ajab bo‘pti, xo‘p bo‘pti. Battar bo‘lsin! U Bo‘stonga qing‘ayib ko‘z qirini tashlida, dedi:

— Boshimni qotirma, Bo‘ston! Topibsan ahmog‘ingni! Bo‘ri bolalarini qaytarib berish uchun olganim yo‘q. O‘zingga ko‘p bino qo‘yaverma! Har kimni ko‘zlagani boshqa. Sen — o‘zingcha, men — o‘zimcha. Xotining bilan uxloldingmi, uxlolmadingmi, menga buning aloqasi yo‘q.

— O‘ylab ko‘r, Bozorboy. Darrov yo‘q dema.

— Nimasini o‘ylab ko‘radi buni?

— Bekor qilyapsan,— o‘zini zo‘rg‘a bosib dedi Bo‘ston. U katta xato qilib qo‘yganini angladi. Endi oxirgi chora qolgan edi.— Undoq bo‘lsa,— dedi u hamon o‘zini og‘irlilikka solib,— ke, haphalol savdolashib qo‘ya qolamiz, sen sotasan, men olaman. Sen bari bir ularni pullaysan, yaxshisi, menga pullab qo‘ya qol. Narxingni aytu — qo‘lni tashla!

— Sotmayman! — Bozorboy o‘rnidan sakrab turib ketdi.— Senga hech qachon sotmayman! Gapini qarang — sot emish! Sening puling boru meniki yo‘qmi! Tupurdim o‘sha pullaringga! Men bularni sotib, puliga ichaman, lekin senga sotmayman, bildingmi? Kim bo‘lsang, o‘zingga, tupurdim hammasiga! Menga qara, hoy, tezroq, otingga o‘tirgin-da, yaxshilikcha bu yerdan jo‘nab qol!

— Tentak bo‘Ima, Bozorboy. Mundoq erkaklarga o‘xshab gaplash. Senga nima farqi bor, kimga sotishning?

— O‘zim bilaman! Menga o‘rgatma! Aqlim o‘zimga yetadi. Menga qara, hoy, bu partiya majlislarida o‘zingni ko‘rsatib maqtanishni bilasan, andoq qilodirmiz, mandoq qilodirmiz deb, hammaning boshini qotirasen. E, agar xohlasang, men o‘sha partiya majlisida bir po‘stagingni qoqayki, hech esingdan chiqmaydigan bo‘ladi, uyingni topolmay qolasan. Xohlaysanmi??

— Voy-bu! — chin yurakdan hayron bo‘ldi Bo‘ston Bozorboydan o‘zini beixtiyor qo‘li bilan to‘sib,— sen meni qo‘rqtguncha, munday tushuntirib ber-chi, seni qaysi it taladi?

— Meni it talabdimi! Ajab bo‘pti! Sen hukumatga qarshi ish qilyapsan. Bildingmi! Sendan boshqa aqli yo‘q! Xo‘jayinlar hamma yerda bo‘rilarni yo‘qotinglar, deb tayinlab yuribdi. Sen bo‘lsang,

bo‘rilarga achinib, ularni ko‘paytirmoqchisan — shundaymi? Quloq boshing bilan o‘ylab ko‘r, axir! Men butun boshli bo‘ri bolasini quritdim. Demak, davlatga juda katta foyda yetkizdim. Sen esa, ularni iniga qaytarmoqchisan. O’ssin, unsin, bo‘rilar ko‘paysin — shunday demoqchimisan? Niyating shumi? Yana meni sotib ham olmoqchisan.

— Seni sotib olib boshimga uramanmi! Bo‘ri bolalarini olmoqchiman. Bekor meni qo‘rqityapsan, sudga beradiganday do‘q-po‘pisa qilyapsan. Sen oldin sal kallangni ishlat, nima qilyapsan, shundan keyin qanday odam bo‘lding! Zo‘r ekansan, avval katta bo‘rilarni yo‘qotgin edi! Ayniqsa, ona bo‘rini! Inini topib boribsan-ku, axir. Kuching yetmasa, boshqalarga aytishing kerak edi, shunday-shunday deb. Kuchi yetadigan odam qilsin edi bu ishni.

— Kim ekan u — senmi?

— Men bo‘lsam, nima! Ana endi katta bo‘rilarni topib bo‘psan. Tutqich bermaydi. Ini buzilgandan keyin ketadi boshi oqqan tomonga. Dumini tutqizmaydi. Endi atrofdagi duch kelgan mol-holni bo‘g‘izlab ketaveradi. Odamdan qasdini oladi. Qani ushlab ko‘r-chi, ularni. Buni o‘ylaganmiding?

— Gapir-a, gapir. Yaxshi, bo‘riga ham advokat chiqibdi. Kim ishonadi bu gaplaringga? Odammidi ular senga, bo‘ri-ku bitgani. Qachon qarasa, boshni aylantirganing-aylantirgan. Laqillatmay qo‘ya qol. Ichingdagini shundoq ko‘rib turibman! Senga boshqa narsani aytmoqchiman. Agar bu yerga bir jig‘ini ezib qo‘yay deb kelgan bo‘lsang....— Bozorboy so‘zini tugatmay taqir boshidan qalpog‘ini shart tortib oldi-da, xuddi buqaday Bo‘stonga xezlanib keldi. Ular pishillab nafas olgancha baqamti, yuzma-yuz turib qoldilar, bir-birlariga yeb yuborguday bo‘lib qarashardi.

— Xo‘p, qani, nima demoqchisan? — ovozi xirillab so‘radi Bo‘ston.— Bo‘l, vaqtim yo‘q!

— Bilaman, sen Xudo urgan ziqnasan, doim o‘z foydangni ko‘zlaysan. Shuning uchun majlisma-majlis yurganing-yurgan, cho‘ponlar mensiz hal qilib qo‘yishmasin deb. Lekin birovning kosasi oqorganligini ko‘rolmaysan. Ichingni it tatalaydi- boshqaning ro‘shnoligini ko‘rganda. Ammo buni hech kim bilmaydi. O‘ljani sen olmading, sen bo‘ri bolalarini qo‘lga tushirmading, yuraging kuyib ketyapti ilon chaqqanday kechasi bilan to‘lg‘anib chiqasan, birovning baxtini ko‘rgani ko‘zing yo‘q!

— Tuf senga-ey! — toqati toq bo‘ldi Bo‘stonning.— Hali senga o‘xshagan ablak bilan gaplashib o‘tiribmanmi! E, o‘zim ahmoq! Bilganimda qadam bosmasdim! Bas, yetar! Tamom! Endi bersang ham, olmayman. Bor, ishingni qil!

Hazilakam jahli chiqmagan Bo‘ston otni qoziqdan zarda bilan yechdi, qorinbog‘ni shunday tortdiki, ot dosh berolmay tebranib ketdi, so‘ng shahd bilan o‘zini egarga oldi. Shunchalar qoni qaynagan ediki, hatto orqasidan Bozorboyning xotini chaqirganini ham eshitmadni. Sho‘rlik xotin pichagina kech qoldi. Uydan eshikka chiqib, u eri kim bilandir qo‘llarini paxsa qilib, qattiq-qattiq gaplashayotganligini ko‘rdi. «Kim bo‘ldi bu? — o‘ylanib qoldi u.— Bo‘stonga o‘xshaydi-ku siyoqidan, nima qilib yuribdi ekan, biz yoqlarda?»—Shunda u erkaklar nimadir to‘g‘rida tortishayotganlarini payqadi. Shoshilib ular tomon yurdi. Lekin ulgurolmadi. Bo‘ston saman otiga minib, ancha nariga borib qolgan edi, ko‘rinishi g‘oyatda darg‘azab edi. Tulki tumog‘ini bostirib kiydiyu, otiga qamchi bosdi, ot uchib ketdi, egasining po‘stini barlari xuddi qanot kabi silkinardi.

— Bo‘ston! Bo‘ston! Shoshma! To‘xtab tur! — qichqirdi Ko‘k Tursun, lekin Bo‘ston qayrilib qaramadi — kim bilsin, balki eshitmadni, balki o‘girilib qarashni istamadi.

— Nega kishini xafa qilding? Nimani talashdinglar! — surishtira ketdi Ko‘k Tursun Bozorboydan.

— Ishing bo‘lmasin! O‘chir ovozingni, nega uni chaqirasan? Kiming bo‘ladi?

— Yuz yilda bir uyingga kelibdi, sen bo‘lsang! E! Kim seni bunday qilib tuqqan o‘zi, a?! Odam emas, vahshiysan, vahshiy!

Xotinining so‘zlaridan Bozorboyning badaniga o‘t tutashdi. U jingirtob bo‘lib, dik etib to‘nka ustiga chiqdi-da, Bo‘stonning orqasidan bo‘kira ketdi:

— Onangni...palon-piston! Kim deb o‘yloving meni! Malaying bormi senga bu yerda! He, onangni palon...

— Bas! Bas qil! — Ko‘k Tursun shahd bilan borib erini to‘nkadan tortib tushirdi.— Mana,

yaxshisi, meni ur! Nega kishini sharmanda qilasan? Nimaga?

— Qoch, ey, maraz! — siltab tashladi uni Bozorboy.— Senga kim qo‘yibdi! Him-hi, Bozorboy unga yalinarmish! Ma, ol, bo‘rilar seniki! Olasan-a, olasan! Ko‘raman olganiningni! Hali kim deb qo‘yibsan meni!

— Voy, sho‘rim! Hali bo‘rilarni deb shuncha g‘avg‘omi! — ajablandi Ko‘k Tursun.— Voy, qurib ketsin matoh bo‘lmay! Qiyomat qo‘pdimi! Voy, sharmanda...

#### IV

O’sha kuni bo‘rilar joylaridan ko‘chdilar. Uyalarini tashlab ketdilar, tunda bu yerga qaytmadilar ham, atrofda daydib yura boshladilar. Dam biron joyda g‘amga botib uzzukun cho‘zilib yotishar, dam tevarakni charx urib kezishar, o‘zlarini unchalar ham yashirishmas, odamlardan ehtiyot bo‘lishni bas qilganday, aslo tap tormas edilar. O’sha kunlari atrofdagi ko‘p cho‘ponlar ularni hech kutilmagan joylarda ko‘rib qolar edilar. Ona bo‘ri xuddi es-hushidan ayrilganday doim oldinda boshini quyi solintirib borar, erkak bo‘ri esa undan qolmay ergashgan edi. Juft bo‘ri xuddi o‘lim istaganday xavf-xatarga parvo qilmay qo‘ygandi. Ular bir necha marotaba itlarning yuragiga vahima va xarosonlik solib, uylar hamda qo‘tonlar yaqinidan o‘tdilar. Itlar jon holatda akillashar, quturib, hujumga tashlanmoqchi bo‘lishar, lekin bo‘rilar ularga mutlaqo e’tibor berishmas, hatto orqalaridan o‘q uzishganda ham, qadamlarini tezlatmay, xuddi miltiq ovozini eshitmaganday yo‘llarida davom etardilar. Bu taajjub bo‘rilarning telbaligi tillarda doston bo‘ldi. Akbara bilan Toshchaynar bo‘rilar rasmini unutib, odamlarga daf qila boshlaganlarida hammayoq shov-shuv bo‘lib ketdi. Bir gal kuppakunduzi ular yo‘lning o‘rtasida traktorchi yigitga tashlanganlar. U xashak olib ketayotgan ekan. Rul ishlamay qolibdi-da, traktorchi yigit nima gap ekan deb, pastga tushibdi. Tuzataman deb, ancha urinibdi. Bir mahal eriy boshlagan qor ustidan ikki bo‘ri o‘ziga tomon yurib kelayotganlariga ko‘zi tushib qolibdi. Hammasidan ham bo‘rilarning ko‘zlarini uni lol qilib qo‘yibdi. Keyin uning hikoya qilib berishicha, bo‘rilarning ko‘zlarini quturib ketgan, bir nuqtaga tikilgan, ona bo‘rining esa yoli pastroq, boshi solingan, ko‘zlarini ko‘m-ko‘k emish. Uning ko‘zlariga xuddi yosh to‘lib turganday, xuddi shisha kabi qotib qolganday emish. Ular yaqinlab kelishayotganda, yaxshiyamki, yigitcha o‘zini yo‘qotib qo‘ymabdi. Kabinaga sakrab chiqib, eshikni yopib olibdi. Murvatini buragan ekan, motor darrov o‘t olibdi. Aks holda doim motorni pastdan aylantirib yondirar ekan. Omadi yurishganini qarang. Traktor tarillab yurib ketibdi. Bo‘rilar o‘zlarini chetga olishibdi, lekin bari-bir, butunlay ketmay, traktorga dam u tomonidan, dam bu tomonidan yaqinlashmoqchi bo‘lishaveribdi.

Boshqa bir safar esa bir qo‘ychivon bola mo‘jiza bilan omon qolgan. Uyam kunduz kuni ro‘y bergan. Eslikkina bola eshagiga minib o‘tin-cho‘p olib kelish uchun yo‘lga chiqqan. Hovlidan unchalik ham yiroq ketmay, butazorda quruq shox-shabbalarni chopib yig‘a boshlagan ekan, bir mahal ikki bo‘ri qaydandir paydo bo‘lgan. Eshak hatto ovoz chiqarolmay qolgan. Uni ko‘z ochib-yumguncha tilka-pora qilib tashlaganlar. Bola qo‘lidan o‘tkir o‘rog‘ini qo‘ymay jon holatda qochgan, qo‘tongacha chopib kelib yiqilgan va g‘ayritabiyy ovoz chiqarib dodlayvergan. Odamlar qo‘radan miltiqlarini ko‘tarib chiqib, butazorga borib qarasalar, bo‘rilar shoshilmay adir orqasiga o‘tib ketishayotgan ekan. Ular o‘q tovushlarini eshitib ham, hatto qadamlarini tezlatishmagan...

Shundan sal keyinroq bo‘rilar qo‘tondan picha nariga o‘tlatish uchun olib chiqilgan bo‘g‘oz sovliqlarni qiyratishgan. Nima bo‘lganini hech kim ko‘rmay qolgan. Tasodif bilan omon qolgan qo‘ylar qo‘raga tiraqaylab qochib kelganlaridagina ishdan voqif bo‘lganlar.. O’tloqda o‘n besh chog‘lik bo‘g‘oz sovliq qoniga belanib yotardi. Hammasi bema’nilarcha, vahshiyona bir tarzda bo‘g‘izlab tashlangan edi.

Shunday qilib, Akbara bilan Toshchaynar quturgandan quturishdi. Ular haqida bir-biridan qo‘rqinchli gaplar tarqaldi. Lekin, odamlar faqat sirdan qarab fikr yuritishar, bu qasosning asl sabablarini bilishmas — ona bo‘ri indan o‘g‘irlab ketilgan bola-larini sog‘inib bo‘zlab, alam o‘tida

qovurilayotganidan bexabar edilar...

Bozorboy esa ayshini surar, og‘zini ko‘pirtirib maqtanar — qo‘liga pul tushib, ichkilikka mukkasidan ketgan, o‘sha kunlari mavsum tugab bo‘m-bo‘sh huvillab yotgan sohil bo‘yidagi restoranlarda sang‘ib yurardi. Aroq har qadamda qalashib yotardi. Bozorboy tepakaligacha qizarib ketguncha ichib, so‘ng og‘ziga kuchi yetgancha Bo‘stonning g‘iybatini qilardi. Juda dimog‘idan qurt yog‘adigan bo‘lib ketgan ekan, bosar-tusarini bilmay qolibdi bu ilonning yog‘ini yalagan qurumsoq, toza adabini berdim. Ilgari zamonlar bo‘lganda-ku, sirtiga suv yuqtirmas quloqvachcha sovet hukumatining sinfiy dushmani sifatida shartta otib tashlanardi-ya, oh-vohiga qaramay. Attangga, u paytlar o‘tib ketdi-da. Bunaqa turqi sovuqlarni gumdon qilsang, faqat savobiga qolasan! Rost-da! Yigirmanchi, o‘ttizinchi yillarda xohlagan milisa qulogmi, boymi, vassalom, hovlisining o‘zida shartta otib tashlayverardi. Kitoblarda yozilgan bu gaplar, ha. Tunov kuni radiodan eshitdim. Bir qulog batrak sho‘rlikni ezib, haqini urib qolgan ekan, kuppa-kunduz kuni hammaning ko‘z oldida surobini to‘g‘rilab qo‘yishibdi ikkinchi marotaba kambag‘al bechoraning yurak-bag‘rini ezmashin deb. Lekin Bozorboy hammasidan ham, Tamanga kelib qolgan Bo‘stonni eshikdan quvib solgani, otasi qolmay, onasi qolmay so‘kkani, Bo‘ston esa miq etib og‘iz ocholmagani haqida bichib-to‘qib so‘ylashni yaxshi ko‘rar, o‘z so‘zlaridan o‘zi huzur qilardi. Bozorboyning qish mavsumi bekorchilikdan bulak ishi yo‘q domotdixchi ulfatlari sovuq, tamaki va ichkilikning sassiq hidiga to‘lgan oshxonalarining derazalarini zirillatib qah-qah urishar, Bozorboyning qitiq patiga tegib, uning qo‘ltig‘iga suv purkashar, bunga sari mast Bozorboyning xuruji avjga minardi. Bu maynavozchiliklar Bo‘stonning ham qulog‘iga yetgan edi. Mana shu bois bo‘lib, sovxozi direktori chaqirgan majlisda qattiq janjal ko‘tarildi.

Shundan sal burunroq Bo‘ston yopirilib kelgan noxush o‘ylardan uyqusi qochib kechasi bilan to‘lg‘anib chiqdi. Hammasiga sabab shu ediki, qishloq atrofida yana bo‘rilar izg‘ib qolishdi, yana yurakni o‘rtab yuboradigan, odamning asablari dosh bermaydigan nolishlarini boshlab yuborishdi, yana Gulimxon qo‘rqanidan dag‘-dag‘ qaltirab erining pinjiga tiqildi, yana toqati yetmay uxbab yotgan Kenjashni o‘z to‘shagiga olib keldi, xuddi uning joniga bir narsa xavf solayotganday uni gavdasi bilan to‘sib, tinmay silab-siypalab yotdi. Bularni ko‘rib Bo‘stonning yuragi siqilar, ayol kishida, qorong‘udan, turli vahimali tovushlardan qo‘rqadi, deb o‘ziga-o‘zi dalda berib qo‘yardi.

Bo‘ston bir necha bor o‘rnidan turib miltiq otmoqchi bo‘ldi, lekin xotini yonidan qo‘ymadi, u hozir bir zum ham yolg‘iz qolishni istamasdi, keyin u baribir, xavotirli qush uyqusiga cho‘mdi. Lekin, Bo‘ston mijja qoqmadi. Miyasida turli-tuman hayollar g‘ujg‘on o‘ynardi. Dunyo ekan, u olamda qancha uzoq umr kechirgani sayin, yashash ham shuncha qiyin va mushkul bo‘lib borardi. Yashashning o‘zagina emas, hayotning asl ma’nosini tushunish og‘irlashib borardi. Ilgari hayolga kelmagan yoki kelgan bo‘lsa ham, ko‘ngilning qorong‘u tubidagina xira tortib ko‘ringan narsalar endi jiddiy bezovta qilar, javob so‘rardi.

Bolaligidan suyagi mehnatda qotdi. Ko‘p mashaqqatlar tortdi: u ikkinchi sinfda o‘qib yurgan paytda otasi frontda halok bo‘ldi, keyin ona o‘ldi, katta akalari va opalari o‘z kunlarini o‘zlar ko‘rishar, ba’zilari esa olamdan erta o‘tgan, Bo‘stonning o‘zidan o‘zga tayanchi, ishongan tog‘i qolmagan edi. U bir narsaga qattiq ahd qildi, so‘ng bu ahdidan hech qachon, hatto bir zumga bo‘lsin chetga toymadi, qo‘li ishdan bo‘shamadi, mehnatdan sira qochmadi, hayotning ma’nosini, qizig‘ini faqat mana shunda deb bildi. U qo‘l ostida ishlaydiganlarni ham qaro terga tushib mehnat qilishga o‘rgatdi. U ko‘plarni odam qildi, yo‘l ko‘rsatdi, ularga hayot mehnat bilan qadrli ekanligini uqtirdi. O‘z oldiga mana shunday maqsad qo‘ymaganlarni Bo‘ston ochikdan-ochiq yoqtirmas, ularni tushunmasdi. Bunday odamlarni nobakor deb hisoblardi. Ularga quruqqina, xushlamay muomala qilardi. Ko‘plar xuddi mana shuning uchun ham orqasidan yomonlab, qurumsoq, qulog deb laqab qo‘yib yurishlarini bilardi. Afsus, sal kechikibroq dunyoga kelgan-da, bo‘lmasa suyaklari allaqachon Sibir tomonlarda chirib yotardi, deyishardi nadomat chekib. Bo‘ston odatan, bunday g‘iybatlarga javob berib o‘tiras, zotan, haq o‘zi tomonda ekanligiga zarracha shubha qilmas, boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas, boshqachasi dunyoning ostim-ustun bo‘lishi bilan barobar edi. Kun chiqishiga qanday ishonsa, u bunga

ham xuddi shunday ishonardi. Faqat bir marotabagina so‘qir qismat uni tiz cho‘kishga majbur qildi, pushaymonlik o‘tida qovurdi, va shundan boshlab u shubhalarning zil, alamli yuki nima ekanligini bildi...

## V

Gulimxonning avvalgi eri marhum Ernazar bilan to u nobud bo‘lgungacha uch yil birga ishlashgan edi. So‘z yo‘q, xo‘p ishchan yigit, o‘ziga puxta edi — Bo‘stonning brigadasiga xuddi mana shunday odam kerak edi. Ernazarning o‘zi ish so‘rab keluvdi, shundan boshlab, birga baqamti ishlab ketishdi. Kuz payti edi, bir kuni u Bo‘stonni yo‘qlab kelib qoldi. O’shanda Bo‘stonning otari qish tushguncha Beshkungayda turgan edi. Maslahatga kelgan edim, dedi. Choy ichib o‘tirib, gaplashib oldilar. Duch kelgan odam bilan ishlash jonga tegdi, deb shikoyat qildi Ernazar. Qancha harakat qilma, agar katta cho‘ponning ixtiyor o‘zida bo‘lmasa, foydasi yo‘q. Umr o‘tib ketyapti, ikkita qizim bo‘y yetib qoldi, erta-indin turmushga berish kerak, vaqtning oqar suvday o‘tishini ko‘r, jonimni jabborga berib ishlayman, lekin boshim qarzdan chiqmaydi, uy soldim, uy qurishning o‘zi bo‘ladimi, sizning qo‘l ostingizda ishlasam, Bo‘ske, (uni hurmat qilib shunday deb chaqirdi),— yashirishning nima hojati bor, ishlash ham mumkin, tishlash ham. Jun topshirsang, et topshirsang, qo‘zi olsang, hammasiga, Bo‘ske, sizda mukofot chiqadi, qo‘ling pul ko‘radi-ku, ishqilib. Shuning uchun oldingizga iltimos bilan keldim, agar rozi bo‘lsangiz, direktor bilan gaplashib ko‘ring, meni sizga o‘ng qo‘l, birinchi cho‘pon qilib o‘tkazsin. O‘zingiz ham bilasiz, yerga qaratib qo‘ymayman, aks holda buki gapirib ham o‘tirmasdim...

Bo‘ston Ernazarni ilgaridan bilardi. Nima qilmasin, bir sovxozning odamlari. Buning ustiga Gulimxon xotini Orzigulning uzoq qarindoshlaridan edi. Hullas, o‘z odami. Lekin qanday bo‘lmasin, Bo‘ston Ernazarga darhol ishondi va keyin hech qachon bundan afsus chekkani yo‘q.

Hammasi mana shundan, shu jo‘ngina turmush voqeasidan boshlandi.

Ular tez til topib, chiqishib ishlab ketdilar. Chunki Ernazar ham xuddi Bo‘stonday o‘z ishining tug‘ma egasi edi. Lekin shu bilan birga boshqa ba’zi birovlarining nazarida g‘irt tentakning o‘zi: ya’ni sovxozga tegishli mol-holga xuddi o‘z shaxsiy moliday qarardi. Esi pastmi, nima balo? Boshqa ishlar ham tamomila hamin-qadar edi — xuddi o‘zi uchun qilayotganday o‘lib-tirilar, sovxozning nafi uchun kuyib-pishardi. Mehnatsevarlik Ernazarning qon-qoniga singib ketgandi. Tabiatan o‘zi shunday edi. Lekin hayot urinishlariga bu xislatini yanada pishitgan edi. Bu fazilat hamma xalqlarga xos, u hamma odamlarda tabiiy bo‘lishi kerak, faqat birovlar o‘zida bu fazilatni o‘stirib, kuchaytirib boradi, boshqalar esa yo‘q. Mundoq kallani joyiga qo‘yib o‘ylab qarasang, dunyoda qanchadan-qancha yalqov ishyoqmaslar — kattalar, yoshlar ichida ham, erkaklar, xotin-qizlar ichida ham bor. Qanchadan-qancha baxtsizliklar va bechorachiliklar hammasi har qachon, hamma zamonlarda faqat va faqat tanballikdan yuzaga chiqqanligi hamda yuzaga chiqaverajagini odamlar xuddi tushunmaydiganga o‘xshaydilar. Lekin Bo‘ston bilan Ernazar mehnat desa, o‘zini tomdan tashlaydigan, bir-birlariga juda yaqin odam edilar. Shuning uchun jonni jonga suqib deganday, ahil ishlashar, bir-birlarini so‘zsiz tushunishar, ko‘ngillaritsi topar edilar. Ammo hayot ekan, chamasi, xuddi mana shuning o‘zi ularning hayotlarida tuzatib bo‘lmasdek bir hollarni yuzaga chiqardi...

Darvoqe, bu aslida shundaymi yoki shunday emasmi, yana ne bilaylik...Gap shundaki, oilaviy ishlab chiqarish brigadalari paydo bo‘lmasdan ancha avval Bo‘ston O‘rkunchiev xuddi oldindan nimanidir sezganday qulay payt keldi deguncha o‘ziga, to‘g‘rirog‘i, o‘zining brigadasiga doimiy foydalanish uchun yer ajratib berishlarini talab qilgani qilgan edi. Cho‘poncha odmiroq til bilan bayon etilgan, ammo ayrim qotib qolgan rasmiyatichilar nazarida g‘ashga tegadigan ushbu talabdan murod-maqсад shu ediki, koshkiydi, o‘zimning yaylovim, o‘tloq-maydonlarim bo‘lsa, koshkiydi, o‘zimning suruv va otarlarim bo‘lsa, ularga tomingdan chakka o‘tib yotsa boshi og‘rimaydigan xo‘jalik mudiri emas, shaxsan o‘zim javob bersam, podalarni bosh oqqan tomonga haydab yurmay, tog‘dagi o‘z yozgi yaylovlarimda boqsam, o‘sha o‘tloqlar boshqa birovga emas, mening o‘zimga biriktirib qo‘yilsa,

hammasiga o‘zim qarasam, hammasini o‘zim saqlasam, ana o‘shanda men jamoatning umum yeriga qaraganda yuz karra ko‘proq ish qilaman, planda ko‘rsatilgandan necha barobar ko‘p mahsulot yetkazib beraman, umumga tegishli yerlarda xuddi yollangan, kelasi kuzda qaerga borishga boshi qotgan batrakdek ishlaganda, bundan nima chiqardi?

Ammo Bo‘ston o‘z fikrini hech kimga ma‘qullata olmasdi. Albatta, avvaliga ham buni, rost, odamlarga yerkarni ajratib bersak, to‘g‘ri ish bo‘ladi, odamlar o‘zlarini yer egasiday his qiladilar, oila, bola-chaqa ham bundan bahramand bo‘lishadi, ishga baravar jon kuydirishadi, deb rozi bo‘lib turar edilar-da, mahalliy hushyor siyosiy iqtisodchilardan birontasi chiqib, bu axir, sotsializmning muqaddas qonun-qoidalarini buzish emasmikin?— deb shubha bildirgan zahoti hammalari darhol baravariga so‘zlaridan qaytar va bunga butunlay teskari gaplarni aytishga tushar, isbot qilishga arzimaydigan narsalarni isbotlab yotar edilar. Hech kim qing‘ayishda ayblanishni istamasdi. Yolg‘iz savodsiz cho‘pon Bo‘ston O‘rkunchievgina har bir rayon yoki sovxozi yig‘inida o‘z gapidan qolmasdi. Uning gaplarni tinglab, qoyil qolishar, miyig‘larida kulib qo‘yishardi: Bo‘stonga nima, og‘ziga kelganini qaytarmay so‘ylaveradi, yo‘qotadigan narsasi yo‘q, ishdan olishmaydi, shoxini sindirish-maydi. Azamat yigit-da! Har safar Bo‘stonga nazariy nuqtai nazardan zarba berishadi — ayniqsa, sovxozi partorgi, oblast partiya maktabini bitirib diplomli savodxon bo‘lgan Qo‘chqorboev hech qo‘ymaydi. Ana shu Qo‘chqorboev bilan munosabatlari juda allambalo edi. Qo‘chqorboev necha yillardan beri sovxozi partiya tashkilotining sekretari, lekin Bo‘ston hali-hanuzgacha yaxshi bilolmaydi — Qo‘chqorboev o‘zini qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan soddagina qiroatxon qilib ko‘rsatadimi (balki bu unga nimagadir qo‘l kelsa ham ajabmas), yoki o‘zi haqiqatan ham, asli shundaymi. Ko‘rinishdan ikki yuzi qip-qizil axtalarga o‘xshaydi — yumurtqaday sip-silliq, doim bo‘yin-bog‘ taqib yuradi, doim papka, doim ishi boshidan oshib-toshib yotganday — ish ko‘p-ko‘p — chehrasi tashvishli, xuddi odamlarga gazeta o‘qib berayotganday labi-labiga tegmay gapiradi, bir nimani quvib borayotganday oyog‘i yerga tegmay yuguradi. Bo‘ston ba’zan o‘ylanib qoladi: ehtimol, Qo‘chqorboev tushida ham qog‘ozga qarab gapirsa kerak.

— O‘rtoq O‘rkunchiev,— deb minbardan turib ta’na yog‘dirardi partorg Qo‘chqorboev,— siz tushunishingiz kerak axir, yer bizda umumxalq mulki hisoblanadi. Konstitutsiyamizda shunday deb yozilgan. Yer bizning mamlakatimizda faqat xalqqa, yolg‘iz xalqning o‘zigagina tegishlidir, boshqa hech kimga emas. Siz esa o‘zingizga qishlik va yozlik yaylovlari, qo‘ra, qo‘tonlar, yem-xashak talab qilyapsiz, biz bularni sizga xususiy mulk qilib berolmaymiz. Yo‘l qo‘ymaymiz biz bunga — sotsializm printsiplarini buzishga bizning haqqimiz yo‘q. Siz bizni qayoqqa boshlamoqchi va og‘dirmoqchi bo‘layotganingizni tushundingizmi?

— Hech kimni hech qayoqqa boshlamoqchi emasman,— taslim bo‘lmassi Bo‘ston.— Agar hammasining egasi, men emas, xalq bo‘lsa, unda mayli, mening qo‘ramga xalq borib ishlasin, men ko‘ray bundan nima chiqarkin. Hamonki, men o‘z ishimning xo‘jasini emas ekanman, kimdir axir, baribir xo‘jayinlik qilishi kerak-ku?

— Sovet xalqi xo‘jayinlik qiladi. O‘rkunchiev, yana takrorlayman, sovet xalqi va davlati hammasining egasi.

— Xalq deysizmi? Unda men kimman, sizningcha? Hech aqlim yetmay qoldi. Nega men davlat bo‘lomayman? Sen, partorg, o‘zing ilmli yigitga o‘xshaysanu, lekin sizlarni u yerda nimalarga o‘qitishgan hayronman, hech tushunmayman, aytayotgan gap-so‘zlaringga?

— Men, o‘rtoq O‘rkunchiev, sizning yetagingizda yurolmayman, burnidan ip o‘tkazib olaman deb o‘ylamang. Gaplaringizdan kuloq safsatalarining hidi keladi. Lekin yodingizda tursin — sizning zamoningiz o‘tgan va biz hech kimga sotsializm asoslarini barbod qilishga yo‘l qo‘ymaymiz.

— Mayli, o‘zingiz bilasiz, harqalay boshliqsiz,— tap tortmasdi Bo‘ston,— faqat men o‘z fikrimda qolaman. Ishlaydigan boshqa birov emas, men o‘zim. Sal gapga og‘zimga urasiz: Xalq! Xalq! Xalq — xo‘jayin! — deysiz. Bo‘pti, unda! Mayli, xalqning o‘zi fikrlab, hal qilsin, yildan yilga mol ko‘payib boryapti, mayda chorvaning o‘zidangina sovxoza qirq ming qo‘y-echki bor — ilgari bunaqasi

birovning tushiga ham kirmagan edi. Holbuki, bo'sh yerlar tobora kamayib ketyapti, planlar esa oshyapti. Mana, o'zingiz qarang: ilgari men bir boshdan uch kiloyu yetti yuz gramm yung olardim, yigirma yil avval esa — buni hamma biladi — ikki kilogrammdan boshlagan edim, ya'ni, yigirma yildan ko'proq vaqt ichida bir kilo yetti yuzga o'sibman. Hozir esa bir yilning ichida planni yarim kiloga ko'paytirib ko'yishibdi. Qaerdan olaman buni? Nima, endi fol ohib, afsun o'qitishim kerakmi? Planni bajarmasam, brigada quruq qoladi. Hammanning oila, bola-chaqasi bor. Unda odamlarga ishslash, yil bo'yi tinim bilmay qo'y orqasidan yurishning nima hojati bor? Har bir cho'pon xuddi kalxatdek boshqa cho'ponning yaxshiroq o'tlog'ini tortib olish uchun bosh tepasida aylanib tursa, planni bajarib bo'ladimi? Chunki yerga hamma xo'jayin, hech kim hech narsaga javob bermaydi. O'tloqlarni deb, qanchadan-qancha janjal-to'polonlar chiqyapti, sen esa partorg, o'zing ham hech vaqoning uddasidan chiqmaysan, direktorning ham shahdini qaytarasan! Ko'r emasmiz, ko'rib turibmiz!

— Men nima qilyapman, bunga raykom baho beradi. Faqat raykom ham sizning bu xatarli o'zboshimchalingizga uchmaydi, o'rtoq O'rakunchiev!

Har safar mana shunday gap qumga singib ketadi...

Mana shu kezlarda uning qo'shiba Ernazar kelib qo'shildi. U Bo'stonga qo'ldosh va hamfikr bo'ldi. Xotinlari Orzigul va Gulimxon ba'zan ulardan kulib qo'yishardi: ikki yorti bir butun bo'lib, na yotar-turarda halovat bor, na yeyar-icharda, ishdan boshqa narsani bilmaydi bular deb. O'shanda ikkovlari podani yozga Ola Mo'ngu dovonidan nariga haydasakmikin, deb yurishdi. Bu gap Ernazardan chiqdi. Yuramizmi yoz bo'yi tog' yon-bag'irlarida izg'ib, ozgina o't-o'lan uchun qo'shnilarimiz bilan yoqa bo'g'ishib, undan ko'ra yoz ichi dovonning nariyog'iga Kichibel yayloviga chiqib ketsak, yaxshi emasmi? Qari-qartanglarning aytishlariga qaraganda, ilgarilari boy-badavlat chorvadorlar poda, suruvlarini o'sha yoqlarga haydar ketisharkan. «Kichibel» degan qo'shiq o'sha zamonlarda to'qilgan. Ular Kichibel yaylovi unchalar katta bo'lmasa ham, lekin o't-o'lan beldan urib yotishini bilisharkan. Mol besh kun ichida yem berib boqilganday semirib ketarkan.

Bo'ston avvalroq ham bu haqda bir o'ylab ko'rgan, lekin Kichibelning noaniq joylari ko'p edi. Kolxozi chorvadorlari urushdan ilgari yozga Kichibelga birdan-bir yo'l Ola Mo'ngu muz dovonidan o'tib borishgan. Urush payti ovullarda chollaru bolalar qolganda hech kim Kichibelga borishga yuragi betlamay qo'ygan. Keyin qurbi qochgan mayda kolxozlarning bari nomi ham allaqanday ...yillik deb tugaydigan bema'ni olti so'zdan iborat katta sovxoza birlashganlaridan so'ng, ana shu olatasir to'polon va g'alvalar ichida ulug' Ola Mo'ngu dovoysi osha o'tib boriladigan, yozda chorvani ikki oy va hatto undan ham oshiqroq vaqt olib chiqib ketib, semirtirish mumkin bo'lgan yaylov borligi astasekin ko'plarning yodidan ko'tarildi. Sovxozi ham tub yerlik odamlari Berik suv jilg'asi nomi bilan «Berik» deb atashga o'rgangan edilar. Ochig'i, bunaqa baland, xatarli toqqa chiqishni xohlovchilarning o'zi topilmas edi. Chorvani bunday qiyin tog' yo'lidan haydar borish uchun molimni qanday bo'lmasin, semirtiraman deydigan o'ktam, joniga achinmaydigan odam bo'lishi kerak. Eski zamonlarda qirg'izlar bir-birlari bilan uchrashganlarida, «Mol-jon omonmi?» — deb so'rashganlari bejiz emas. Ha, avvalo, chorvaning holini so'rashgan. Nima ham deymiz, hayot oti bilan hayot-da...

Ko'ngillariga shu fikr cho'g' solib, Bo'ston bilan Ernazar qo'llariga qalam-qog'oz olib, Kichibeldan keladigan foyda-ziyonni cho'tlab chiqishdi: chorvaning dovondan o'tganda yo'lda tashlaydigan vaznnini qo'shib hisoblaganda ham, bu ishga bel bog'lasa arzirdi. Katta foyda olishlari tayin edi — buning ustiga mehnatga to'lanadigan haq va tuzga qilinadigan xarajatdan boshqa chiqimning o'zi ham yo'q edi. Lekin, rost, hali bular qog'ozdag'i xomcho'tlar.

Bo'ston avvalo, bo'lim boshlig'iga, undan so'ng sovxozi direktoriga murojaat qilishga qaror berdi. Partorgga niyatini aytib o'tirmadi. Partorgni unchalik xushlamasdi. Necha marta amin bo'ldi — gap desa, qop-qop, qachon qarama, odamning shahdini o'ldiradi: u mumkin emas, bu mumkin emas, majlisda nutq so'zlash bo'lsa unga, gazetada yozilgan gaplarni gapirib berish bo'lsa unga, galstuk taqib oliftagarchilik qilish bo'lsa unga. Sovxozi boshlig'i — direktorga Bo'ston ko'nglidagi niyatini ochdi:

gap shunday-shunday, Ibroyim Cho'tboevich, ishning foydasini ko'zlab, Ernazar bilan birga Ola Mo'ngu ortidagi eski yaylovlarni ochmoqchi bo'lib turibmiz. Oldin ikkovimiz borib, nima bor, nima yo'q bilib kelamiz. Kichibelga qanday o'tishning azmoyishini olamiz, keyin qaytib kelib, ko'chko'ronni ko'tarib ko'chamiz, yoz ichi Kichibelda bo'lamiz. Hammasi ko'ngildagiday o'tsa, o'sha Kichibel yaylovini bizning brigadamizga mustahkamlab berilsa. Boshqa cho'ponlar ham, mabodo, Kichibelga boraman deyishsa, bemalol, qarshilik yo'q, unga ham joy yetadi, lekin, eng muhimi, bizga ajratiladigan o'tloqlarni men aniq bilishim va mavsum ichi ovora bo'lib qolmasligim kerak. Sizga ana shuni aytib, maslahatlashgani keldim. Ikki kundan keyin Ernazar bilan Ola Mo'ngudan o'tamiz. Ishlarni hozircha xotinlar va yordamchilarimiz yuritib turishadi.

— Rostdanam, Bo'ske, uyda xotinlaringiz nima deyishyapti bu ishingizga? — qiziqli direktor.— Hazilakam narsa emas-ku.

— Hozircha indashgani yo'q. Xudoning qahri kelmasinu, xotinim Orzigulning aqli-xushi joyida. Ernazarning oilasi Gulimxol yoshroq bo'lsa ham, aqli o'ziga yetarli. Bir-birlari bilan juda ahil, chiqishib ketishgan ko'rindi. Ana shunisiga xursandman bir chekkasi. Xotinlar chiqisholmasa, shundan yomoni yo'q. Uy jahannamga aylanadi-qo'yadi. Ilgari bo'lgan bunday gaplar...

Direktor bilan boshqa ba'zi gaplarni ham so'ylashib olishdi. Kuzda Moskvaga, haligi oti biram qiyin — VDNXami, VDNXimi o'shanda bo'ladijan ko'rgazmaga rayon ilg'orlarining borishi mo'ljallanayotgan ekan, Bo'ston ro'yxatda birinchilar qatorida ko'rsatilibdi.

— Men xotinim bilan borsam bo'larmikin, Ibroyim Cho'tboevich? Orzigulim qachondan beri Moskvani ko'rsatasiz, deb hiqillaydi,— rostiga ko'chib qo'ya qoldi Bo'ston.

— Seni tushunib turibman, Bo'ske,— kuldi direktor.— Mayli, bir gap bo'lar. Borsa nima qipti? Faqat partorgning roziligini olish kerak. U bilan o'zim gaplashaman.

— Partorg bilan deng? — o'ylanib qoldi Bo'ston.

— E, xotirjam bo'l, Bo'ske. Nima, bekordan-bekor qarshilik qilib o'tiradi deysanmi? Erkak odamning ishi emas bu.

— Yo'q, gap bunda emas. Borsak — borarmiz, bormasak — yo'q. Shunga ham ota go'ri qozixonami? Men sizga boshqa narsani aytmoqchi bo'lib yuruvdim. Shunaqa partorg bo'lmasa, xo'jalikning kuni o'tmaydimi? Sizga juda kerakmi shu? Usiz qo'l-oyog'ingiz ishlaymaydimi?

— Nima qildi?

— Men shuni bilgim keladi. Mana, qarang, aravaning to'rtta oyog'i bor. Hammasi o'z o'mida. Agar unga beshinchi oyoq o'rnatsangiz, o'zi ham aylanmaydi, boshqalarni ham yurishga qo'ymaydi. Xo'sh ana endi aytin, kerakmi, shu beshinchi g'ildirak?

— Bilasanmi...— yirik, basavlat, erkakcha katta yuzidagi ko'zları qiyiq direktor birdan jiddiy tortdi, oldidagi qog'ozlarni olib qo'ya boshladı, ko'zlarini horg'in yumdi. «Uyqusi yo'q. Tinmaydi», deb o'yladi Bo'ston.— Ochig'ini ayganda, bama'ni partorg kerak,— dedi u bir oz jimlikdan so'ng.

— Manov-chi?

Direktor unga yalt etib bir qarab qo'ydi.

— Nima qilamiz buni gaplashib o'tirib? Uni rayon yuborgan, qo'limizdan nima keladi?

— Raykom. Ana, ko'rdingizmi,— og'zidan chiqib ketdi Bo'stonning.— Menga nimagadir u o'zini atay shunday tutayotganga o'xhab ko'rindi. Doim odamlarni qo'rqtib yurishning unga nima keragi bor, go'yo men sotsializmni qo'porib tashlaydiganday? Axir, to'g'ri emas-ku, bu. Axir, men bir nimani talab qilsam, ish uchun talab qilaman. Men bu yerni sotmayman, birovga berib yubormayman, sovxozening yeri, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Baribir men tirik ekanman, ishga qurbim kelarkan, o'z aqlim bilan yashayveraman.

— Nega hadeb menga yolg'iz shu gapni takrorlayverasan, Bo'ske. Sen aytgan narsani qilib bo'lmaydi.

— Nega bo'lmaydi?

— Chunki bo'lmaydi.

— Javob shunaqa bo‘ladimi?

— Yana nima dey bo‘lmasa?

— Sizga ham tushunaman, Ibroyim Cho‘tboevich. Bir marta og‘zingiz kuygan. Hammasi yaxshi bo‘lsin degansiz. Sizni esa bo‘yningizga boplab bir urib, vazifangizni pasaytirishgan. Raykomdan sovxozag o‘tkazib qo‘yishgan.

— Rost. Yana bo‘ynimga urishlarini xohlamayman. Aqlim kirdi.

— Ana, ko‘rdingizmi? Har kim o‘zini o‘ylaydi. Men qarshi emasman. Odam o‘zini o‘ylasin. Faqat, aql bilan o‘ylasin. Yangilik qilganni emas, yangilik qilishi mumkin bo‘la turib, qilmagan odamni jazolash kerak. Bizda hammasi teskarisi.

— Gapirish oson,— iljaydi direktor.

— Hamma shunday deydi. Mehmonga kelganday yashash jonimga tegdi. Mehmon nima ish qilib berardi? O‘zingiz bilasiz-ku. Oldiniga bir-ikki kun jon koyitadi, keyin bor-e, deydi...Bizda axir, shunday bo‘lmayaptimi, ishlayverasan, ishlayverasan, Qo‘chqorboev esa, to‘xtovsiz burningga chertib turadi sen mehmonsan, sen xo‘jayin emassan, deb...

— Gap bundoq, Bo‘ske. Kelishib olaylik. Sen meni ro‘kach qilmaginu o‘zing qanday ma’qul topsang, shunday ish tutaver...

Ular xayrlashdilar...

Uch kundan so‘ng ular tong qorong‘usida Ernazar bilan Kichibelga otlandilar. Ular otga o‘tirganlarida hali hamma uxbab yotardi. Bo‘ston oq-sarg‘ish axta samanni mindi. Do‘nko‘lik u paytlar endi ikki yoshga kirgan toy edi. Tog‘larga vazmin ot bilan chiqqan tuzuk, dovonga chopib ko‘tarilmaydilar. Ernazar ham yaxshi ot mingan edi. Yilning bu faslida otlar kuchga to‘lgan bo‘ladi. Ular jadal yo‘l bosdilar. Har ikkovlari xurjunlarini to‘ldirib suli olgan — qorliqlarda tunashga to‘g‘ri kelsa, asqotadi. Har ehtimolga qarshi qalin pochapostinlarni ham egarga tashlab qo‘yishdi.

Shunday bo‘ladiki, ba‘zan yo‘ning o‘zi kishiga rohat bag‘ishlaydi. Ayniqsa, hamrohing diltortar odam bo‘lsa va suhbat sodda, samimi kechsa. O’sha kuni havo musaffo, kun charaqlab turar — oldinda qor bosgan tog‘ tizmalari bir-birlariga mingashib ketgan, ichkarilab borgan sari tog‘lar ham yuksakroq, qori qalinoq bo‘lib borar, orqaga o‘girilib qaralsa, pastlikda ko‘z ilg‘amas ulug‘ ko‘l yoyilib yotardi. Har safar odamning orqaga, tagi qorayib ko‘ringan ko‘l oynasiga qaragisi kelaverardi.

— Issiqko‘lning oynasidan bir parchasini xurjunga solib olib ketsakmikin, a? — deb hazillashdi Ernazar.

— Otni sulining o‘rniga oyna bilan boqarmiding keyin,— bosiq javob berdi Bo‘ston.

Kulishdi. Cho‘ponning nimasi ko‘p — kundalik tashvishi ko‘p. Ular suruvlarni dovondan qanday olib o‘tishni aniqlash uchun borishar, hali oldinda juda qiyin va mushkulpisand ish turar, shunga qaramasdan, ikkovlarining vaqtłari chog‘, ota-bobolarning so‘qmoq yo‘llari ulardan o‘z mehru shafqatini darig‘ tutmasdi. Ernazarning ko‘ngli ko‘tarilgan — axir, har qalay, uning aytgani yuzaga chiqyapti-ku. Urushdan keyin chamasi qirq yil bu yo‘ldan hech kim o‘tmagan, ular Bo‘ston bilan yurak yutib shu ishga jazm etishgan edi.

To‘g‘risini aytganda, Ernazar fikrlashni, so‘rab-surishtirishni yaxshi ko‘radigan odamlar sirasidan edi. O‘zi ham ko‘rkam, bo‘lalikkina, urushdan keyin oxirgi otliq qismlarda xizmat o‘tab kelgan edi. Oradan shuncha yillar o‘tgan bo‘lishiga qaramay, hali ham azamat, chingiling yigit edi. Gulimxon erim kinoda o‘ynaydigan artist bo‘lib ketishiga sal qoldi, deb kula-kula so‘ylab yurardi. Bir kinorejissyor bu tomonlarga kelib qolib, Ernazarni kinoda o‘ynashga ko‘ndiraman deb, toza urinibdi. Agar ering Amerikada yashaganda, kinoda kovboy bo‘lib o‘ynardi, debdi. Gulimxon esa, unga: «Bilaman, sizlarning kinolaringizni, bir yilqiboqarni kinoga tushasan deb, olib ketishuvdi, shu ketgancha haligacha qorasini ko‘rsatmaydi. Bir artistka boshini aylantirib qo‘ygan ekan. Men Ernazariniga javob berib bo‘pman». Kulasizmi, qolasizmi!

Bo‘ston esa kuzda Kichibeldan qaytib kelsak, Ernazarning qo‘liga biron brigadani topshirishni chamalardi. Mayli, o‘zi mustaqil ishlab ko‘rsin. Endi asl chorvador bo‘ldi. Qachongacha yordamchilik

qiladi. Agar sovxozagda direktor bo‘lganida, o‘zim bilar edim, qanday odamlarni qaerga qo‘yishni. Lekin xalq aytmoqchi, «biri kam dunyo»— odam bolasiga doim nimadir yetmaydi.

Tog‘lar sari borar ekanlar, endi yo‘llarida traktorlar va ot-ulov mingan kishilar uchramas, qishlov hamda qo‘tonlar onda-sonda ko‘zga chalinib qolar, bu yerlarda tabiatning ham turqi boshqacha edi: xuddi begona joylarga o‘xshar, tevarak tumtaygan va sovuq edi. Bo‘ston bilan Ernazar kechga tomon, hali quyosh botmasdan toshloq dara ichidan yo‘l bosib, Ola Mo‘ngu yoqasiga yetib keldilar. Qosh qoraymay yana bir oz yursalar ham bo‘laverardi, lekin podani tong qorong‘ilab, hali yulduzlar o‘chmay haydab kelganda ham, kun bo‘yi yurib tog‘larda bundan ortiq masofa bosib bo‘lmasligini hisoblab chiqdilar-da, daraning dovon boshlanadigan shu yerida tunashga qaror qildilar. Chorvadorlar dovonga chiqish oldidan tunab qolinadigan bunday kechani shikama deydilar. Shikamaga tanlagan joylari ham juda qulay edi. Muzliklardan jilg‘a shaldirab tushar va pastga qarab shu yerdan yo‘l olar, agar tog‘ yonasidan joy tanlasalar, muzliklardan esuvchi sovuq izg‘irindan saqlanar edilar. Muzliklardan esadigan, odamning suyak-suyagidan o‘tib ketadigan sovuq izg‘irin yarim kechada boshlanib, quyosh ertalab ko‘tarilguncha davom etishini cho‘ponlar bilardilar. Son-sanoqsiz chorvani muzliklarning tungi ayozidan as-rash va ertalab yangi kuch bilan dovon sari ko‘tarilish — shikamaning asl ma’nosi mana shunda edi.

Yo‘lovchilar yerga tushib, horigan otlarni egar-jabduqdan bo‘shatib, tunga hozirlik ko‘ra boshladilar. Uncha baland bo‘lman qoya ostidan joy topdilar — Ernazar dara ichidan, hov butazorlar o‘sgan yerlargacha borib o‘tin yig‘ib keldi. O‘t yoqib, uning atrofida uydan olib chiqqan taomlari bilan tamaddi qilishdi, hatto tunuka choynakda choy qaynatib ichishdi va olis yo‘ldan so‘ng o‘rin tuzatib cho‘zilishdi.

Dovon ostidagi tog‘ yonalarida tez qorong‘i tushdi va kun xuddi qish kirganday bir zum ichida sovudi. Yozdan qishga o‘tish uchun otta bir kun yo‘l yurish kifoya qildi. Ola Mo‘ngu muzliklaridan izg‘irin esdi. Axir mangu muzliklar qo‘l uzatsa yetadiganday yaqin edi. Bo‘ston qaysidir gazetada o‘qigan edi, bu muzliklar million yillardan beri mavjud, vodiylardagi hayot ularga bog‘liq, muzliklar asta-sekin erib, jilg‘alar va daryolarni to‘ldiradi, pastliklardagi barcha dov-daraxt, o‘t-o‘langa jon ato etadi, dalalarda ekin-tikinni yashnatadi, tabiatdagи hamma narsalar mana shunday donolik bilan yaratilgan.

— Ernazar,— dedi uxlash oldidan Bo‘ston,— sovuqni qara-ya! Suyak-suyagingdan o‘tib ketadi-ya! Yaxshiyam, po‘stinlarimizni olgan ekanmiz.

— Po‘stinni aytasiz,— javob berdi Ernazar.— Ilgarigi vaqtarda duo o‘qib jon saqlashgan, uni dovon duosi deyishgan. Esingizda bormi?

— Yo‘q, esimda yo‘q.

— Mening esimda qolgan, bobomiz aytib bergen edi.

— Qani, o‘qi-chi.

— E, men o‘ttan-bo‘ttan bilaman, xolos.

— Ishqilib, bilar ekansan-ku. Qani boshla!

— Xo‘p, mayli. Men aytib turay, siz takrorlang. Eshityapsizmi, qani, siz ham aytavering: «Yo yaximalak, osmonning Hokimi ko‘k Tangri muz dovon uzra yo‘limizni yengil qilgaysan. Chorvamizni qora izg‘iringa giriftor etmagaysan, buning o‘rniga osmondagi qora quzg‘unni olgaysan. Bola-chaqamizni sovuq nafasing bilan qotirib qo‘ymagaysan, buning o‘rniga osmondagi haqqushni olgaysan. Otlarimizning ayillarini qattiqroq tortib bog‘lagaymiz, qo‘toslarga ortgan ko‘chko‘ronimizni mahkamroq joylagaymiz va senga tavof qilib aytgaymiz, yo‘limizni bog‘lama, bizni dovondan ko‘m-ko‘k o‘tloqlar, muzday buloqlarga o‘tkazib qo‘y, bizning ushbu so‘zarimizni qabul et...»Menimcha, shunday edi. Uyog‘i esimda yo‘q...

— Attang...

— Nimasiga achinasiz? Hozir bunaqa duolar hech kimga kerak emas. Endi maktablarda bularni qoloqlik va jaholat deb o‘rgatishadi. Qarang, axir, koinotga odam uchyapti deyishadi.

— Koinotning bunga nima aloqasi bor? Nima, osmonga uchgan bo‘lsak, avvalgi ota-bobolarning so‘zlarini unutishimiz kerakmi?

Ko‘kka chiqayotganlarning soni barmoq bilan sanarli, siz yerdagilar qanchadan-qanchamiz, qanchadan-qanchamiz yerda tiriklik qilamiz? Ota-bobolarimiz yerda yashashgan, ularning tirikchiligi yer bilan bo‘lgan, osmonda nima bor bizga? Kim uchsa uchaversin. Har kim o‘z ishini qilsin.

— Aytishga oson, Bo‘ske. Bizning partorgimiz Qo‘chqorboevga o‘xshaganlar har maylisda esidan qolgan narsalarni so‘kkanylari so‘kkan. To‘y qilishni bilmaysizlar, nega to‘ylarda o‘pishmaysizlar, nima uchun kelin bola qaynanasi bilan tansa tushmaydi? — deyishadi. Hatto bolalariningizga tuzukroq ot qo‘yolmaysizlar, deb dag‘-dag‘a qilishadi. Yangi tasdiqlangan ismlar ro‘yxati bor emish. Hamma eski nomlarni o‘zgartirish kerak emish. Qo‘ying-chi, hatto o‘likni qanday ko‘mishgacha aralashadi, undoq qilinglar, bundoq qilinglar, undoq yig‘lamanglar, mundoq osh tortmanglar. Hatto qanday yig‘lash kerakligigacha ko‘rsatib beradi; eskicha yig‘lamanglar, yangicha yig‘langlar, deydi.

— Bilaman, Ernazar hammasini. Bilmay o‘libmanmi? Moskvaga borsam, kuzda meni ko‘rgazmaga jo‘natishmoqchi, gapning ochig‘i, Markazqo‘mga kirib aytaman: bizga Qo‘chqorboevga o‘xshaganlar rostdan ham kerakmi yoki bu peshonamizga bitgan sho‘rmi? Hech narsa demaganingda ham, sal narsaga hiqildog‘ingdan oladi, sen partiyaga qarshisan, deydi. O‘zini partiya deb bilganiga o‘lasanmi? Yana hech kim unga miq etib og‘iz ochmaydi. Ana, odamlarimiz qanday. Hatto direktorimiz ham o‘zini chetga oladi. E, qo‘ysang-chi, uni! Yomoni shundaki, Qo‘chqorboevga o‘xshaganlar boshqa yerlarda ham tiqilib yotibdi...Ke, endi uxlaylik, Ernazar. Axir ertaga kun og‘ir bo‘ladi...

Ikki cho‘pon ulug‘ Ola Mo‘ngu muz dovoni ostidagi darada undan-mundan gaplashib yotib uxbab qoldilar. Yulduzlar hammasi, bitta qolmay sim-siyoh osmon bag‘rida tog‘lar uzra bodrab-bodrab chiqdilar, cho‘ngligi xuddi mushtday-mushtday keladi-ya, lekin nimagadir yerga qulab tushmaydi, deb ajablanardi Bo‘ston. Dona-dona yulduzlar falakda osilib turishar, tinimsiz jimirlar, im qoqar, sovuq shamol toshlar oralab quturib chiyillardi...Shamollar ilohiga doim joy yetmaydi...U doim nedandir norozi va doim nelar-nidir o‘z bag‘rida yashiradi...

\* \* \*

Bo‘ston fig‘on ko‘tarib uligan bo‘rilarning ovozlarini tinglab, shu tobgacha boshidan nimaiki kechirgan bo‘lsa, barini eslab yotgan o‘sha mash‘um kechada ham shiddatli sovuq shamol chiyillab, hushtak chalib deraza yoruqlaridan uyga yorib kirardi. U o‘tgan kunlarni yana bir-bir hayolidan kechirar, yuragini tuban kishilar tomonidan yetkizilgan ozor o‘rtardi. O, bu yuzsizlik! Ular hatto birovlarining baxtsizliklarini ham masxara va maynavozchilik, tuhmat manbaiga aylantiradilar. O, nechog‘lik kuchli bu ko‘hna dunyodan qolgan yuzsizlik! Istagan odamga azob berishlari, istagan odamni — cho‘pondan tortib podshohgacha — ruhiy qyinoq chohiga tashlashlari mumkin. Yuragi adoqsiz mahzun o‘ylardan goho shunchalar ham siqilib ketardiki, bu kecha yana paydo bo‘lib uv solayotgan bo‘rilarning faryodlari Bo‘stonga o‘z mustar ko‘kragidan otilib chiqayotganday tuyulardi. Nazarida bo‘rilar emas, unyng o‘rtanib kuygan dili qo‘ralar ortida tun qorong‘ilida noumid kezayotganday, qo‘zyosh to‘kaverib alamdan ko‘r bo‘lgan dili Akbara bilan birga nola-afg‘on qilayotgan, uvvos solib yig‘layotganday edi. Bo‘rining bu nolasiga inson toqati yetmasdi, uni qanday bo‘lmasin, bo‘g‘ib, o‘ldirib tashlagisi kelardi. «Toza ohaniga oldi! Xo‘p, nima qilay axir? Mendan, axir, nima istaysan? — tajang bo‘lardi Bo‘ston.— Senga yordam berish qo‘limdan kelmadi. Men harakat qilib ko‘rdim, lekin hech ish chiqmadi, ishon menga, Akbara. Bo‘ldi, boshqa uvlama! Yo‘q bu yerda sening bolalarining, yo‘q, yuz chaqirim naridan ham topolmaysan qidirib. Bolalarining pullab, ichishdi. Endi hech qachon ularni topolmaysan! Bas qil endi! Qachongacha bizni qiynaysan? Ket, ket, Akbara! Unut endi barini. Bilaman, senga og‘ir, lekin ket endi, yo‘qol ko‘zimdan, Xudo ko‘rsatmasin,

menga aslo yo‘liqa ko‘rma, sen sho‘rlikni otib tashlayman, hech narsaga qarab o‘tirmayman, otib tashlayman, chunki holi-jonimga qo‘ymayapsan, meni majbur qilma, sensiz ham yuragimga qil sig‘maydi, seni-ku o‘ldirarman, lekin anov menin sho‘rim ustidan masxaralab, kulib yurganlarni nima qilayin, axir, jilla qursa, sen nari tur, sen yo‘qol ko‘zimdan, boshqa hech qachon, hech qachon nolangni eshitmay! Onaizorimning nomiga qasam ichamanki, yana ba’zi birovlanri ham hech qarab o‘tirmay otib tashlagan, qo‘lim aslo qaltiramagan bo‘lardi. Sening ham, menin ham dushmanimiz bitta — u, Akbara, sening bolalarin ni o‘g‘irladi, meni esa bu badmast maxluq harom tili bilan sharmanda qilyapti. Shuni o‘ylasam, o‘shanda muzlik qa‘ridan tirnoq-qo‘llarim ko‘chib, shilinib Ernazarni qidirganlarim, to‘xtovsiz chaqirganlarim, yolg‘iz o‘zim qolib, berahm tog‘larda yig‘laganlarimda qanday jondan to‘ygan bo‘lsam, hozir ham shunday jonimdan to‘yib ketaman, sira yashagim kelmaydi. Agar manovi kichkintoyni demasam, yashamasdim, ham, tupurardim hammasiga. Mana, onasi oldimga olib kelib qo‘ygan, yonimda erkalanib uxlab yotibdi. Rost, xotin kishi bo‘ri uvillasa qo‘rqadi, murg‘ak go‘dak esa ma’sum va sof, begunoh uyquga cho‘mgan, u menin azob-uqubatlarim evaziga, barcha boshdan kechirganlarim evaziga dunyoga kelgan, u menin jonim va qonim, mendan oxirgi yodgor. Lekin axir, men bu qismatni tilab olganim yo‘q, uning o‘zi kirib keldi hayotimga xuddi tong otganday, kun botganday, qadimgilar to‘g‘ri aytishgan ekan, taqdirdan qochib qutulib bo‘lmaydi deb. Anov ablah Bozorboy esa boshimga iflos tuhmatlar yog‘dirib yuribdi, hech insofga keladigan emas, menga qolsa, uni bo‘g‘ib o‘ldirgan bo‘lardim. Boshqa ish qurib qolganday partorg ham birinchilar qatorida bu aroqxo‘rning gapiga uchyapti, barakalla-barakalla deb turibdi, kichkinamning rizqini qiymoqchi... Men tushunmasam, seni kim tushunadi. Akbara!»

O’sha kecha Bo‘ston uyqusizlikdan azob chekib, ana shularni o‘ylab yotardi. Lekin shunchalar aqli, mehribonligi bilan ham baribir u Akbara boshiga tushgan baxtsizlikni to‘la-to‘kis ko‘z o‘ngiga keltirolmasdi. Mayli, garchi Akbara tilsiz-zabonsiz edi, lekin uning til bilan ifodalab bo‘lmas qiyonoqlari bor edi. U vujudi - xirmonini yoqqan ana shu azoblardan hech qutulolmasdi. Axir, o‘z terisidan tashqariga chiqib ketolmaydi-ku? Axir, tog‘-toshlarda, suv bosgan qayirlarda Toshchaynarni orqasidan to‘xtovsiz ergashtirgancha tinim bilmay, hech qanday maqsadsiz izg‘ib yurmayaptimi o‘zini butkul holdan toydirish, oyoqdan qolish, yotib o‘lib qo‘ya qolish qasdida? Yuragidagi alam hovurini bosmoqchi bo‘lib, Toshchaynar bilan birga yo‘lida kim duch kelsa, shunga quturib tashlanmadimi? Kamar ichidagi iniga allaqanday umid bilan necha-necha bor qaytib bormadimi? Sovuq, bo‘m-bo‘sh inni ko‘rib umidlari so‘nmadimi necha-necha bor? Qancha-qancha tushlariga aldanmadimi?..

O’, qanchalar og‘ir bu! O’sha kecha Akbara atrof yerlarda boshi oqqancha daydib yurarkan, birdan, kutilmaganda, xuddi bir zarur ishi chiqib qolganday, shartta Boshat darasiga burilib, yelday uchib ketdi. Toshchaynar ham odatiga ko‘ra undan bir qadam orqada qolmay chopib bordi. Akbara esa borgan sari tezroq yugurar, xuddi qanot chiqarganday tog‘u tosh, o‘ru qir, changalzorlar osha telbalanib uchardi. Nihoyat, tanish so‘qmoq, tanish kamar, tanish zirkzordan o‘tib, iniga yetib keldi, in hamon sovuq, hamon bo‘m-bo‘sh, huvillab yotardi. Akbara bolalarining isi qolgan hamma narsalarni, hamma burchaklarni yana birma-bir iskab chiqdi va yana yuragi ezilib, alamiga chidolmay dod deb yubordi, ingradi, yig‘ladi, uvladi: «Qani, menin bo‘lturuqlarim? Qanisiz, ey shirin-shakar bolajonlarim? Koshkiydi, siz voyaga yetsangiz, tishlaringiz chiqsa, menin yonimda yursangiz, qanchalar tanimga mador, jonimga jon, oyog‘imga quvvat bo‘lar edingiz, bolajonlarim».

Akbara haligacha shisha og‘zidan badbo‘y hid taralib yotgan, qushlar cho‘qib, qolgan-qutgan suli donalari muzlab yerga yopishgan jilg‘a bo‘yida o‘zini telbalaarcha u yoqdan-bu yoqqa urardi...

So‘ng u yana iniga qaytdi, tumshug‘ini choviga tiqib cho‘zildi. Toshchaynar yonida qalin, o‘sinq junlari bilan uni isitib yotdi.

Tun kirgan edi. Akbaraning tushiga bolalari kirdi, ular inda Akbaraning biqiniga o‘ranib yotishardi. Ular entak-tentak bo‘lishib emchaklarini tortqilashardi. Qachondan beri emizsam, deydi, sutga to‘lib, tirsillab ketdi emchaklari, og‘riydi, sirqiraydi... Bo‘lturuqlar sut ko‘pligidan tamshanib, chapillatib, maza qilib emishar, bo‘ri vujudi xuddi erib ketayotganday huzurlanardi, faqat nima uchundir suti hech

kamaymasdi...Bo‘ri bundan xavotirlanardi: nega unday bo‘lyapti, nega emchaklari bo‘shamayapti, bo‘lturuqlari nega hech to‘ymayapti? Lekin har qalay, to‘rtala bolasi ham yonida-ku, ana ular — manovinisi dumi oq, u hammasidan sho‘xroq, anovinisi emgani emgan, emchakni og‘zidan qo‘ymaydi va shu ko‘yi uxbol qoladi, uchinchisi esa urishqoq va yig‘loqi, to‘rtinchisi — qiz, u juda ham shirin, ko‘zlari ko‘k. Keyin borib, Akbaraning xuddi o‘zi bo‘ladi...Keyin Akbara tushida o‘zini ulug‘ cho‘l Mo‘yinqumda uchib ketayotganligini ko‘rdi, uning oyoqlari yerga tegmaydi, yonida to‘rtala bolasi, ular ham uchib borishyapti, shundoq yonlarida esa Toshchaynar katta-katta hatlab sakrayotibdi. Ko‘kda quyosh charaqlayotir, sarin shabada yeladi, naq hayotning o‘ziday...

Shunda Akbara uyg‘onib ketdi va anchagacha dunyoning shafqatsizligidan ezilib, qimirlamay yordi. So‘ng g‘oyatda ehtiyotkorlik bilan tashqariga chikdi. Hatto Toshchaynar bilmay qoldi. Tashqariga chiqqanda birinchi ko‘rgan narsasi — qor bosgan tog‘lar uzra oy ko‘tarilgan edi. Musaffo kecha osmonida oy shu qadar yaqin ko‘rinar, shu qadar yaraqlab yotardiki, unga chopib yetib olsa bo‘ladiganday edi. Akbara chuldirab qo‘shig‘ini aytib chopayotgan jilg‘a bo‘yiga keldi, boshini solintirib, suv bo‘yida mahzun aylanib yurdi, keyin dumini yerga to‘shab o‘tirdi, oy barkashiga uzoq-uzoq termildi. Shu kecha Akbara oyda makon qurgan bo‘rilar ilohi Bo‘ri Onani yaqqol ko‘rdi, ilgari hech qachon bunday bo‘lmagan edi. Uning oy yuzidagi xira soyasi baayni Akbaraning o‘zginasi edi! Qashqir xudosi Bo‘ri Ona oyda dumini bir yoqqa tashlab, jag‘larini katta ochib o‘tirardi. Akbaraning nazdida oy bo‘risi unga tikilib, uni tinglayotganday edi. Shunda Akbara boshini baland ko‘tarib, o‘z Ilohasiga yig‘lab nola qildi, uning komidan oppoq nafas otolib chiqdi: «Yo bo‘rilar xudosi Bo‘ri Ona, o‘zing ko‘r holimni, sovuq tog‘larda tolei sho‘r va zabun bo‘lib o‘tirgan men Akbarangman! Holim yomon bo‘ldi! Faryodlarim qulog‘ingga yetib boryaptimi? Achchiq-achchiq ko‘zyosh to‘kkalarim, nolalarimni eshityapsanmi? Ichim og‘riqdan yonib ketyapti, emchaklarim sutga to‘ldi, kimni emizaman endi, kimni boqaman endi? Bolalarimdan ayrilib qoldim. O’, qani axir ular? Nima bo‘ldi ularga? Bu yoqqa tush, Bo‘ri Ona, yonimga tush, yolvoraman, qo‘shilishib yig‘laylik, qo‘shilishib nola qilaylik. O’, yonimga, tush, tusha, qol, seni o‘zim tug‘ilgan yurtga boshlab borayin, bo‘rilarga yashash uchun joy qolmagan cho‘llarimni ko‘rsatayin. O’, tush, mana shu toshloq tog‘larga tush, bu yerlarda ham endi bizga joy yo‘q, bizga o‘zi hech qayda bospana qolmadni shekilli...Agar tushmaydigan bo‘lsang, yo Bo‘ri Ona, unda men aftodani, bolalaridan judo Akbarangni o‘z yoningga ol. Sen bilan birga, mayli, oyda kun kechirayin, sen bilan birga vatanimiz — yerni sog‘inib yig‘lashayin. O’, Bo‘ri Ona-a-a, meni eshityapsanmi-i-i? Quloq sol, quloq sol, quloq sol menga Bo‘ri Ona, nolalarimga quloq sol!»

Sovuq tog‘lar quchog‘ida o‘sha kecha Akbara oyga shularni aytib yig‘lar, nola qilar, tinmay uv tortardi...

\* \* \*

Dovonda shikama kechasi tugab, tong otganda birinchi bo‘lib Ernazar o‘rnidan turdi va po‘stiniga o‘ranib, tushovliq otlarga qaradi.

— Sovuqmi? — deb so‘radi Bo‘ston po‘stin tagidan xavfsirab qaragancha, qaytib kelgan Ernazardan...

— Bu yerda o‘zi doim shunaqa,— javob qildi Ernazar.— Hozir sovuq, lekin oftob chiqishi bilan darrov isib ketadi.— U jun yopinchiq ustiga yonboshladi.

Hali vaqt erta edi, ushbu soat hali tog‘lar g‘ira-shira edi.

— Otlar qalay?

— Joyida.

— Menimcha, podani olib chiqqanda, kechasiga mana shu yerda chodir qursak bo‘larkan, har holda sovuqdan pana-da.

— Nega qurmaylik, quramiz,— rozi bo‘ldi Ernazar.— Bir pastda o‘rnatamiz. Ishqilib, yo‘l qilib

olsak, bas. Qolgani o‘zimizga bog‘liq.

Oftob chiqib, tog‘larda chindan kun ilidi. Atrof yorishib, ayozning dami qaytgach, ular otlarni egarladilar.

Bo‘ston otga o‘tirmasdan oldin yana atrofga nazar tashladi, tevarakni o‘ragan uchurumlar va bahaybat qoyalarga ko‘z yogurtirdi. Ular vahshiy va yuksak edilar, inson bolasi ular qarshisida tirnoqcha ham ko‘rinmasdi. Ular shu tog‘larga qasdma-qasd ish qilmoqda edilar. «Dovondan qo‘rqlaymiz,— deb o‘yladi Bo‘ston,— gap hayot ustida boryapti. Gap hayot ustida borganda, odamni hech narsa qo‘rqlaymaydi,— u istagan joydan — dengizdan, yer tagidan, osmondan yo‘l topadi. Biz ham o‘z yo‘limizni topib olamiz».

Boshlamasiga ular chetiga katta toshlar surib qo‘yilgan ko‘hna so‘qmoqni topdilar va u dovondan qanday o‘tib borishini tasavvur qilib ko‘rdilar. Dovon yo‘li ikki baland cho‘qqi o‘rtasidagi qor bosgan o‘rkachdan o‘tar ekan. O’sha yoqqa qarab yo‘l olishdi. O’rkach ortida, chamasi, Ola Mo‘ngu tizmasining narigi yog‘iga tushish boshlanardi. Kichibel yaylovi o‘sha yoqda. Qariyalarning aytishlariga qaraganda, u yerda qayin o‘rmonzor o‘sib yotadi va ayqirib tog‘ daryosi oqadi. Tabiat o‘z muqaddas joylarini odatda mana shunday ovloq yerkirada yashiradi va ularga yetib borishni mushkul qilib qo‘yadi. Lekin tirikchilik ekan, odam bolasi urinmasa, bo‘lmaydi — uning yerdan boshqa yashaydigan joyi yo‘q...

So‘qmoq borgan sari tik o‘rlardi. Qor bosgan yerkirada ko‘tarilganlarida otlarning yurishi qiyinlashdi — ichkarilab borganlari sayin qor badtar qalinlashardi. Oftob charaqlab turar, izg‘irin to‘xtagan, shu qadar jimxit ediki, otlarning hansirab nafas olishlari o‘z nafaslariday eshitilardi.

— Ha, qalay? — orqasiga qayrilib so‘radi Bo‘ston Ernazardan.— Agar qor qo‘ylarning qornidan yuqori bo‘lsa, mazamizni qochiradi. Nima deding?

— Shunday bo‘lishi ham kerak o‘zi, Bo‘ske, ketayotgan joyimizni ko‘ring! Lekin qiyin yer ishqilib, uzoq cho‘zilmasin-da. Nari borsa, qo‘ylar o‘tadigan so‘qmoq ochamiz, u yer-bu yerda qor tepkilaymiz.

— Men ham shuni o‘ylab turuvdim. Belkurak olvolishimiz kerak ekan. Esingdan chiqmasin, Ernazar, belkurak olib kelishimiz zarur.

Qor otlarning tizzasidan yuqori kelgach, cho‘ponlar yerga tushib, ularni yetaklab bordilar. Havo yetishmay qo‘ydi, og‘izlari bilan nafas olishdi. Oppoq qor ko‘zni qamashtirar — hozir hamma ko‘chada taqib yuradigan qora ko‘zoynak asqotib qoldi. Otlar hars-hars nafas olar, qora terga botgan, bo‘ksalari ko‘tarilib-ko‘tarilib tushardi. Baxtlariga o‘sha baland o‘rkachgacha unchalik olis emasdi...

Oftob bir-birlariga ayqashib ketgan, abadiy tosh qotgan qorli tog‘ cho‘qqilari uzra tikkaga kelgandi. Yo‘llarida yoyilgan bir qancha to‘p bulutlarni aytmasa, hech narsa havoning o‘zgarishidan darak bermasdi. Ular oralab, yana ham to‘g‘rirog‘i, ular ustida xuddi paxtani bosib o‘tganday o‘tib borish mumkin edi. Hozir Issiqko‘l bo‘ylarida havoning isib ketgani, dam oluvchilar hatto sohildagi qumloqlarda o‘zlarini oftobga tutib yotganliklariga ishonish qiyin edi.

Hali yana yarim chaqirimcha yo‘l bosishlari kerak. Ayting-ayting, ishqilib, dovonning naryog‘ida ishning pachavasi chiqmasin-da, deb hadiksirashardi ular...

Nihoyat, dovondan o‘tdilar. Bo‘ston bilan Ernazar nafas rostlagani to‘xtadilar. Ular qaro terga botgandilar. Harsillab nafas olishardi. Otlar ham holdan toygan edi. Ular chiqib kelgan yo‘llariga quvonib, mamnun bo‘lib qarashardi.

—Ana, bo‘ldi, Bo‘ske,— dedi kulib Ernazar. Uning ko‘zları baxtiyorlikdan charaqlardi.— Podani olib o‘tsa bo‘ladi bu yerdan. Havo ochiq tursa, bas.

— Hamma gap shunda-da. Kun ochiq bo‘lishi kerak.

— Siz bilan ikki yarim soat yurib keldik,— dedi Ernazar soatiga qarab.— Uncha ko‘p emas, a, to‘g‘rimi?

— Qo‘y haydaganda uch soat yuriladi,— deb qo‘shildi Bo‘ston,— balki ko‘proq yurilsa ham kerak. Lekin eng muhimi, dovondan o‘tish mumkin ekan, shunga ishondik. Qani, yurdik. Ho‘v anavi

yerdan menimcha, tushuv boshlanadi. Balki Kichibel ham ko‘rinib qolar. U yokda ham-mayoq yam-yashil ko‘karib yotgandir hozir...

Ikkov yana ilgarilab ketdilar. Atrofda tekis, toza qor ko‘rpasi to‘shalgan, ba’zi yerlarda shamol qorlarni quyunda uyub, buyug‘ yasab, tepe qilib tashlagan, ular oftobda yarqiraydi. Lekin, oldinda allaqayda qorlik dunyo tugab, butunlay yangi olam boshlanishidan nimalardir darak berib turardi. Ikkovlari tezroq o‘sha tomonga o‘tish, orzu qilgan joylarini ko‘rishga oshiqardilar. Ular ikki tog‘ o‘rtasidagi o‘rkachdan o‘tib borishar, yana ozgina yursalar, maqsadga yetadiganday edilar. Bo‘ston otini yetaklagancha qor tepkilab oldinda borar, shunda birdan oyog‘ining tagida allanima qaltirab ketganday tuyuldi. Orqa tomondan qichqirgan tovush eshitildi.

Bo‘ston daf‘atan o‘girilib qaradi va anqayib qoldi: Ernazar ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan, qaygadir tushib ketgan edi. Na o‘zi bor, na oti. Faqat u hozirgina qadam tashlagan joyda qor to‘zonlanib turardi.

— Ernazar!— vahimali qichqirdi Bo‘ston va o‘z qichqirig‘idan o‘zi qo‘rqib ketdi. Uning tovushi tog‘larning o‘lik sukunatida guldurab aks sado berdi.

Bo‘ston qor to‘zib turgan yerga o‘zini otdi va bazo‘r o‘zini ushlab qoldi, o‘zini qandaydir g‘ayritabiyy kuch bilan orqaga oldi. Uning oldida tubsiz o‘pqon ochildi. O‘pqon qorayib yotar, undan abadiy sovuq nafas ufurardi. Shunda Bo‘ston qorga qorni bilan yotdi-da, nima bo‘lganini aqliga sig‘dirolmay, to‘g‘rirog‘i, bunga aslo ishonmay, qa‘r chetiga surinib keldi. Uning butun vujudi, butun fikru hayoli qo‘rqinchga aylandi, shu qo‘rqinch tanasini butunlay karaxt qilib ko‘ydi. Shunga qaramay, Bo‘ston sudralgancha surilib borar, o‘zi tushunmagan allanima kuchiga kuch qo‘shar, nafas olishga ko‘maklashardi. Bo‘ston tirsaklariga tiranib, yuziga yopishayotgan korlaryr sidirib, surinardi. Nihoyat, u qor tagi ko‘k muz ekanligini tushundi. Shunda u qor tagida ko‘milib yotadigan yoriqlar va o‘yilgan yerlar, ularga tushib ketgan yilqilar haqidagi rivoyatlarni esladi, «er yutkur», «jar yoqaga ket!» degan qarg‘ishlar esiga tushdi. Lekin nima uchun Ernazar, Ernazargina emas, uning o‘zi ham bu baloga giriftor bo‘ldilar?

Hech narsaga qanoat qilmadi, doim ko‘ziga oz ko‘rindi, noshukurchilik oqibati emasmikin bu?.. Bunday kulfatga duchor bo‘lishini bilganda-ku...

Bo‘ston tog‘ yorig‘igacha sudralib keldi. Uning ko‘z o‘ngida tagi-tugi yo‘k qa‘r qorayib yotardi. Tubsiz jar yoqalari xuddi shar-shar yirtilib ketganday edi. U dahshatdan titrab ketdi.

— Ernazar,—ohista pichirladi Bo‘ston, bir zum ichida uning tomog‘i qaqrab ketgandi, keyin vahshiyona hirqiragan tovush bilan baqirdi:— Ernazar, qaydasan? Ernazar! Ernazar! Ernazar!

U jim bo‘ldi. Shunda nazarida qa‘r ichidan bilinar-ilinmas ingragan bir ovoz eshitilganday tuyuldi: «Yaqinlashmang».

Bo‘ston shunda faryod ko‘tardi:

—Ernazar! Jigarim! Men hozir! Hozir! Sabr qil! Hozir seni tortib olaman!

U jarga qulay-qulay deb, o‘zini ortga otdi. Borib otning jilovlarini sidirib torta boshladni. Ular o‘zлari bilan Ernazarning egariga mahkamlab arqon hamda bolta ola kelgan, lekin endi bu narsalar jarga qulagan ot bilan birga ketgan edi. Bo‘ston pichog‘ini qinidan sug‘urdi, teri tasmalar — no‘xta, quyishqon, tizgin, uzangi, jilov bormi hammasini kesib chiqib, so‘ng bitta qilib, uzunasiga mahkamlab bog‘ladi. Qo‘lini kesib oldi. Dag‘-dag‘ qaltirardi. Yana qa‘r yoqasiga sirg‘alib bordi, ko‘ziga hech narsa ko‘rinmas, yo‘lga qaramas, talvasa ichida titrab nafas olar, xuddi birdan jon taslim etadiganday, Ernyozarni qutqarolmay qoladiganday qo‘rqr, joniqardi.

— Ernazar! Ernazar!— tovush berardi u.— Mana arqon! Arqon bor! Eshityapsanmi, arqon bor! Eshityapsanmi! Ernazar! Jigarim, ovoz ber!

U abzaldan kesib yasagan arqonning bir uchini mushtiga bog‘ladi-da, ikkinchi uchini jarga tushirdi. Lekin hech kim arqonni tutmadni, hech kim uning chaqirganiga sado bermadi. Qa‘r qanchalar chuqur — u bilmasdi. Arqon qancha joygacha tushdi — u bexabar edi.

— Ovoz ber, Ernazar! Ovoz ber! Qaydasan, Ernazar! Jigarim! — tinmay chaqirardi Bo'ston. Lekin qorong'i qa'r tubidan uning o'z ovozigina aks sado berib qaytardi. Bo'stonning eti junjikib ketdi. — Qaydasan, Ernazar! — bo'zlardi Bo'ston. — Eshityapsanmi, Ernazar! Men nima qilay, axir? — Shundan so'ng u o'zini tutolmay o'kirib yig'lab yubordi. Tinmasdan uzuq-yuluq allanarsalar deb baqirardi. U allaqachonlar frontda halok bo'lgan otasi, necha yillar burun o'lib ketgan onasiga, bolalari, aka-ukalari, opalariga va ayniqsa, xotini Orzigelga jon-jahdi bilan yalinib-yolvorardi. Yo'q, u ro'y bergan bu falokatni hech aqliga sig'dirolmasdi... Halok bo'ldi, halok bo'ldi Ernazar! Endi uny hech kim va hech narsa yupatolmas, alamli yuragiga taskin berolmasdi... Endi u hasratdan bir umr xalos bo'lolmaydi... Shunda Bo'ston hayqiriq soldi: «Sen axir bizning duolarimizni eshitmovdingmi?! Nima qilib qo'yding, axir? Kim bo'lding sen shundan keyin?» — U bu so'zlarni kimga va nimaga qarata aytayotganligini uzi ham bilmasdi.

O'midan gandiraklab turdi, qorong'u tushayotganligini sezdi, dovonda havo ayniyotganligini angladi. Qaerdandir bulutlar paydo bo'ldi, kechasi izg'iriq turdi. Lekin, nima qilish kerak axir? Qaerga borsin? So'qmokda o'z holiga qo'yilgan ot ketib qolgan — otning pastga qarab enib borayotganini u ko'rgan, lekin orqasidan yetib olishga ilojsiz edi. Biroq egar-jabduqdan tortib, no'xta-yu jilovigacha kesib olingan otdan nima ham naf bor? Bo'ston azbaroyi fig'oni chiqib, qirda yotgan egarni bir tepdi. U Ola Mo'ngu dovonida mangu muzlik-lar ustida, olaygan qoyalar orasida qorayib, bo'rsinib ketgan holda boshyalang (telpagi boyta o'rga tushib ketgan edi) har tomonga alanglab yolg'iz o'zi qolgan edi. Dovonda esayotgan izg'irin shamol uning shusiz ham larzaga tushgan dilini badtar ezardi. Qayoqqa borsin endi, nima qilsin? Hammasi qanday yaxshi boshlanib kelayotgan edi-ya? Qaydan chiqa qoldi oyoqning tagidan bu o'pqon? U o'zining izlarini ko'rib chiqdi va Ernazar butunlay tasodif tufayli yoriqqa tushib ketganligiga amin bo'ldi. Uning o'zi jar yoqasidan bir yarim qadamcha naridan o'tgan edi. Ernazar sho'ring kurg'ur o'ngroqdan yurib kelayotgan ekan. Qor tagida yashirinib yotgan tog' yorig'iga oti-poti bilan ko'z ochib-yumguncha qulab tushgan.

Do'stiga yordam beray desa, ko'lidan hech narsa kelmaydi. Lekin, bunga ko'nib ham ketolmaydi. Birdan Bo'ston o'ylanib qoldi: balki Ernazar hali tirikdir, balki faqat hushini yo'qotib qo'ygandir — uni sovuqda qotib qolmasidan iloji boricha tezroq tuz jardan chiqarib olish kerak. O'shanda balki uni kutqarib qolish mumkindir. U po'stinni qorga uloqtirdi va garchi bu yerlardan yugurish g'oyatda kiyin bo'lsa ham, pastga tomon chopib ketdi. Sovxozni ro'y bergan falokatdan imkon qadar tez xabardor kilmoq kerak, deb o'ylardi u, shunda ular turli asbobu uskunalar bilan odamlarni yordamga yuboradilar. Uning o'zi chiroq bilan arqonda Ernazar yotgan joygacha tushadi, uni albatta, qutqaradi.

U necha marta yiqilib, turdi. «Ishqilib, oyog'imni sindirmasam, bas», — deb o'ylardi har safar xavotirlanib. So'ng o'midan yana turar va qadamini jadallatardi.

Bo'ston salt otini quvib yetishdan ham umidvor edi. Havo dam sayin o'zgarib, aynib bormoqda edi. Qor uchqunlay boshladi. Lekin, Bo'ston bundan tashvishlanmasdi. Dovonda qor quyun quturganda ham pastda hech narsa yog'masligini u bilardi. Faqat Ernazar nima bo'ladi, deb dahshatga tushardi. Agar tirik bo'lsa, kutqaruvchilar kelguncha chidarmikin? Tezroq, tezroq, — tinmay miyasiga nuqirdi u. Xufton qorong'iligi quyuqlashib borar, qorong'uda tez yurib bo'lmaydi, deb yuragiga vahima tushardi uning.

Bo'ston otni baribir quvib yetolmadi. Erkinlikni his etib, saman ot qadrdon yerlar tomon jadallab ketgan edi.

O'ziga tanish tog' yonalaridan Bo'ston tik pastga, yo'lni ancha qisqartirib tushib borardi. U ne-ne o'tloqlar, o'r-jarlardan o'tar, lekin bular uni horitmas, uni og'ir o'ylar tinmay ezar, bir dam ham qo'ymasdi. Boshida Ernazarni qutqarish haqida turli-tuman rejalar guvillardi. Dam dovondan ketmasligim, Ernazarni shu holda yolg'iz qoldirmasligim kerak edi, deb o'ylar, mayliydi, meni ham quyun ko'mib ketsa, derdi. Dam mangu muzlik va sovuq, zulmat qa'rida o'lim talvasasida ingrab yotgan Ernazarni ko'z o'ngiga keltirardi. Tog' ustida esa qorbo'ron quyun yasab qahrli aylanadi. Ernazarning oilasi, xotini, bolalariga nima deydi? Shuni ko'z oldiga keltirarkan, u ko'ksini pora-para

qilib yirtib tashlagisi kelar, esdan og‘ib qolayotganga o‘xshardi.

Lekin hayot faqat kulfat va omadsizlikdan iborat emas. Tole shu tobda unga andakkina kulib ham boqdi. O’sha kuni tog‘liklarda bir cho‘pon to‘y bermoqda edi. Ta’tilga kelgan student o‘g‘lini uylantirayotgan edi. Mehmonlar uzoq o‘tirishdi. Eng oxirgilar yarim kechadan og‘ganda, yuk mashinada qaytishmoqda edi. Osmonga to‘lin oy ko‘tarilgandi. Tog‘ yonbag‘irlarida ko‘l salqini esardi. Olisda, pastda Issiqko‘lning oydini xira jilvalanardi. Odamlarning qo‘shiq aytgilari kelar, bir qo‘shiqqa ikkinchisini ulab yuborardilar.

Qo‘shiq tovushlarini eshitib, Bo‘ston yugurgancha yo‘lga yetib ulgurdi-da, joni boricha qo‘lini silkita ketdi. Ana shu yuk mashinasida tunda soat ikkilardan o‘tganda, u «Berik» sovxoziga yetib keldi. Yuk mashinasi sovxoz direktorining uyi oldida to‘xtadi. It qattiq akillab, Bo‘stonning oyog‘iga tashlandi. Itga e’tibor bermay, u derazani mushtlay boshladi.

- Kim bu? — xavotirli so‘radi ovoz.
- Menman, Bo‘ston O’rkunchievman.
- Nima bo‘ldi, Bo‘ske?
- Ahvol chatoq.

\* \* \*

Ertasiga peshinga yaqin qutqaruvchilar birin-ketin tizilishib Ola Mo‘ngu dovoni tomon ko‘tarilib borardilar. Bo‘stonni qo‘shib hisoblaganda, ular olti kishi edilar. Mashina yurishi mumkin bo‘lgan joygacha ularni vezdexorra olib kelib qo‘ydilar. U yog‘iga o‘zлari asbob-uskunalarini olib yo‘lga tushdilar. Ular Bo‘ston izidan nafaslarini saqlab, jim, adl ko‘tarilardilar. Shahardan tez orada, mana shu soatlar ichida vertolyot kelishi, ularga uchta tajribakor alpinist yordamga qo‘shilishi kerak edi.

Kecha xuddi mana shu paytda, xuddi mana shu so‘qmoqdan Ernazar ikkovimiz dovonga o‘tib borgan edik, deb o‘ylardi Bo‘ston, boshimizga bunday falokat tushishini hayolimizga ham keltirmagandik...

Ernazar yiqilgandan so‘ng bir oz vaqt tiriq bo‘lganligini u tushunar, lekin bir kechayu bir kunduz muzlik qa‘rida odam chidashi mumkinligiga aql bovar qilmasdi. Shundaylikka shundayku-ya, lekin baribir hech narsaga qaramasdan u mo‘‘jiza ro‘y berishiga ishongisi kelardi.

O‘tgan kecha bo‘ralagan bo‘rondan so‘ng dovonni qor bosgan, sukut cho‘kkan edi. Qor ko‘zni qamashtirib, og‘ritardi. Qorbo‘ron kechagi izlarning barini bosib ketgan, Bo‘ston muz yorilgan joy aniq qaerda ekanligini ko‘rsatishga qiynalardi. Lekin bir yomonning bir yaxshiligi bor deganday, qutqaruvchilardan birovi Bo‘ston kecha yechib tashlagan po‘stinni topdi, sal o‘tmay po‘stindan andak nariroqda yotgan egarga ham ko‘zлari tushdi. Ana shularga qarab, kechasi qor ko‘mib tashlaganiga qaramay, o‘yiqni aniq mo‘ljallab topishdi. Bu orada alpinistlar ham kelib qolishdi. Ular o‘z so‘zlariga qaraganda, olti qavatlari uycha keladigan muz o‘yiq ichiga tushishdi...

Alpinistlar yuqoriga qaytib chiqib, Ernazarni ololmaymiz, deb aytishdi. Uning ham, otining ham loshi qalin muzga ajratib bo‘lmaydigan darajada yopishib, qotib qolibdi. Ko‘chirib olish uchun qattiq zarb urilsa, muz qatlami surilishi, natijada, qutqaruvchilarning o‘zлari ko‘chki ostida qolib halok bo‘lishlari mumkin, deb tushuntirishdi alpinistlar... Bo‘stonning o‘zi o‘yiqqa tushib ko‘rsin, istasa, do‘sti Ernazar bilan vidolashsin, deyishdi alpinistlar. O‘zga chora yo‘q...

Keyin uzoq yillar Bo‘ston xotirasiga hech o‘chmas bo‘lib o‘rnashib qolgan dahshatli tush ko‘rib yurdi. U muz jar sari arqonda tushib boryapti. Yaxmalak devorlarni qo‘lidagi fonar bilan yoritadi. Uning yana boshqa fonari ham bor. Birovi qo‘lidan tushib ketsa, ikkinchisini ishlatadi. Birdan nazarida ikkinchi fonarini yo‘qotib qo‘ydi. Qaerga g‘oyib bo‘ldi, bilmaydi. Bundan yuragi yomon siqildi. Qo‘rqdi, xavotirlandi. Baqirgisi keladi. Lekin vahimali qorong‘u muzlik qa‘riga tushgancha tushib boraverdi. Nihoyat, chiroq yorug‘ida muzga toshday yopishib yotgan Ernazarini ko‘rdi: Ernazar (aslida ham shunday edi) mukkayib o‘tiribdi, po‘stini boshi tepasiga ko‘tarilib qolgan, yuzi qonga bo‘yalgan,

lablarini mahkam qimtigan, ko‘zлari yumuq. «Ernazar!— deb chaqirdi Bo‘ston.— Men keldim! Quloq sol, men senga ikkinchi fonarni qoldirib ketmoqchi edim — bu yer juda qo‘rinchli va qorong‘u ekan — lekin uni yo‘qotib qo‘ydim. Tushundingmi, Ernazar, yo‘qotdim. Lekin baribir senga o‘zimning fonarimni beraman. Ma, ol, bu mening fonarim. Ol, Ernazar, iltimos qilaman!» Ammo Ernazar uning qo‘lidan fonarni olmaydi va hech qanday javob bermaydi. Bo‘ston yig‘lab yuboradi. O‘kirib-o‘kirib yig‘laydi va ko‘zyoshlari shashqator oqqan ko‘yi uyg‘onadi.

Keyin kun buyi o‘ziga kelolmay bir hol-bir sar bo‘lib tumtayib, rangi ochilmay yuradi. Bu tushini u hech kimga, hech qachon aytmagan, Gulimxonga-ku, ayniqsa, hatto unga uylangandan keyin ham. Ernazar bilan xayrleshgani muz o‘yig‘iga tushgani haqida ham uning oila a’zolaridan hech kimsaga og‘iz ochmagan.

Dovondan uyga qaytganda, hamma ro‘y bergan falokatdan xabar topgan edi. Bo‘ston uchun g‘amdan adoyi tamom bo‘lgan, ko‘zyoshi daryo Gulimxonni ko‘rishdan ham og‘irrog‘i yo‘q edi. Dovonda o‘lib keta qolsam va yana necha ming marta o‘sha muz qa‘riga tushsam, barini qayta boshdan kechirsam, bundan ko‘ra osonroq edi, deb o‘ylardi u. Erining halokatiga Gulimxon hech toqat qilolmasdi. Ishqilib, es-hushidan ayrilib qolmasaydi, deb xavotir olishardi. Uning doim bir yoqqa qochib ketgisi kelardi: «Ishonmayman, ishonmayman uning o‘lganiga! Qo‘yib yuboringlar meni! Uni o‘zim topaman! Uning oldiga boraman!»

Bir kuni kechasi u rostdan ham qochib ketdi. Bo‘ston kuni bo‘yi ezilib, abgor bo‘lib, ozgina damimni olay deb turgan edi. Mana bir necha kundan beri u tuzukroq yechinib o‘rniga yotolmas, ta’ziyaga keluvchilar ning keti uzilmasdi. Odamlar eshitib, butun atrof-javonibdan kelishar, ko‘plar eski udum bo‘yicha hali uzoqdan Ernazar deb aytib yig‘lashardi: «Ernazar, qardoshim, jigarim, qachon endi seni ko‘raman?» Bo‘ston ularga otdan tushishlariga ko‘maklashar, taskin berardi...

O‘sha kuni oqshom odam bir oz toysilladi. Bo‘ston o‘z hovlisida beligacha yechinib, ustidan yolog‘ida suv quyib yuvina boshladi. Orzigul Gulimxonning yonida edi. Shu kunlari u qo‘shnisini yolg‘iz qo‘ymasdi.

— Bo‘ston, Bo‘ston, qaerdasiz? — birdan Orzigulning chaqirganini eshitdi.

— Nima bo‘ldi?

—Choping tezroq, Gulimxonni olib keling. Qayoqqadir qochib ketdi. Qizlari yig‘lashyapti, men uni ushlab qololmadim.

Bo‘ston maykasini apil-tapil kiyib, yelkasiga tashlagan sochiq bilan yo‘l-yo‘lakay artingacha, hushini yo‘qotib qo‘ygan Gulimxonning ketidan chopdi.

Unga xiylagacha yetib ololmadi.

Gulimxon qiya jarlikdan tog‘lar tomonga qarab jadal ketib borardi.

— Gulimxon, shoshma, qayoqqa? — chaqirdi uni Bo‘ston.

U orqasiga qaramasdi. Bo‘ston qadamini tezlatdi, Gulimxon bunday ahvolda hozir hammasini yuzimga soladi, Ernazarni siz nobud qildingiz, deb ta’na qiladi, degan hayolga bordi, u baridan ko‘ra xuddi mana shundan qo‘rqardi, bu fikr hayolidan o‘tdi-yu, xuddi birov ustidan qaynoq suv quyib yuborganday bo‘ldi. Axir uning o‘zi ham shuni o‘ylab ich-etini yemayaptimi, joni alam o‘tida qovurilmayaptimi? Unga nima deb javob beradi?

U o‘zini oqlab o‘tirardimi? Uning bahonalarini Gulimxon inobatga olarmidi? Odamning qo‘lidan hech narsa kelmaydigan fojea hollar bo‘lishi mumkinligini unga qanday tushuntirsin? Lekin bu so‘zlar ham malham bo‘lolmasdi, bunday hollarda malham bo‘loladigan, ovuntiradigan so‘zlar bormi, axir? Shuncha ishlar bo‘lib o‘tib ham, mana tag‘in tirik loshini ko‘tarib yuribdi, buni Gulimxonga nima deb tushuntiradi?

—Gulimxon, to‘xta, qayoqqa ketyapsan? — Bo‘ston harsillagancha unga yetib oldi.— To‘xta, qulqol sol, yur, uyga ketaylik...

O‘sha oqshom chog‘i hali kun yorug‘ edi, asta kirib kelayotgan osuda xufton g‘ira-shirasida tog‘lar ayon ko‘zga tashlanar, Gulimxon unga o‘girilib qaradi, shunda Bo‘stonga juvondan xuddi qayg‘u-g‘am

yog‘ilib kelayotganday bo‘lib tuyuldi, Gulimxon go‘yo shaffof suv ostidan turib qarayotganday chehrasi o‘zgarib, qiyshayib ketgandi. Uning azobini ko‘rib Bo‘ston dod solay derdi, aftoda holidan yuragi ezilardi. Kechagina gullab-yashnab turmaganmidi shu juvon? Bo‘ston uning es-hushini yo‘qotib qochib borayotgani, ustidagi ipak ko‘ylagi ko‘kragi uzra yig‘ilib qolgani, yangigina qora mahsisi motam uchun kiyilganday bo‘lib turgani, sochlari esa azador xotinlarniki kabi o‘rilganiga hech chiday olmas, ko‘ksini chok-chok qilib tashlagisi kelardi.

— Qayokqa, qaeqqa ketyapsan, Gulimxon? — dedi Bo‘ston va beixtiyor uning qo‘lidan ushladi.

— Men dovonga, uning oldiga boraman, — dedi Gulimxon allaqanday parishon tovush bilan.

Bo‘ston: «E-hoy, aqling o‘zingdami? U yerda nima qilasan? Qanday yetib borasan? Bunday yupqa ko‘ylakda ko‘z ochib-yumguncha shamday qotib qolasan-ku?» deb urishish o‘rniga, yalinib, o‘tina boshladи.

— Hozir emas. Kechasi bo‘lib qoldi, Gulimxon. Boshqa bir payt borarsan. U joyni o‘zim senga ko‘rsataman. Hozir unday qilma. Yur, uyga. Qizlar qo‘rqib yig‘lashyapti, Orzigul xavotir olyapti. Bemahal bo‘lib qoldi. Yur, endi Gulimxon, iltimos.

Gulimxonning qaddi g‘am-alam yukidan dol edi. U indamasdi.

— Usiz men qandoq qilaman? — hasrat bilan shivirladi u boshini chayqab. — Qandoq qilayki, u yolg‘iz qoldi, qandoq qilayki, uni o‘rab-chirmab, aza-motam tutib yerga qo‘yolmadim? Mozor bitmagan ekanmi peshonasiga?

Bo‘ston unga nima deb taskin berishni bilmasdi. U cho‘pon yozda ham, qishda ham oyog‘idan qo‘ymaydigan kirza etikda, bo‘ynida sochik, suyakdor yelkalariga ilgan maykasi valangar holda gunohkor boshini xam qilib ayol qoshida turardi. Bemajol, gunohkor, bechora. Bu juvon yo‘qotgan narsaning o‘rnini hech narsa bilan hech qachon to‘ldirib bo‘lmasligini u tushunardi. Va agarda uning erini tiriltirib, o‘rniga o‘zi yota olsaydi, buni bir zum ham o‘ylanib o‘tirmay ado etgan bo‘lardi.

Ular o‘z o‘ylariga botib, jim qoldilar.

— Ketdik, — Bo‘ston Gulimxonning ko‘lidan tutdi. — Biz odamlar Ernazarni yo‘qlab keladigan joyda bo‘lishimiz kerak. Uyda bo‘lishimiz kerak.

Gulimxon uning yelkasiga bosh qo‘ydi. Xuddi o‘z otasiga hasratini to‘kib solayotganday silkinib-silkinib iig‘lab, ich-ichidan otilib kelayotgan o‘kirig‘ini bosib, nimalarnidir tinimsiz ho‘ngrab pichirlardi. Bo‘ston uni suyab oldi. Ular birga-birga yig‘lab, hasrati ko‘yiga botib uyga qaytdilar. Chappar urib gullagan tog‘ o‘t-o‘lanlarining o‘tkir muattar islariga to‘lgan osuda yoz oqshomi so‘nib borardi. Ernazarning qizlarini yetaklagan Orzigul ularga peshvoz chiqdi. Xotinlar bir-birlarini ko‘rgach, yana quchoqlashdilar va uzoq ayriliqdan so‘ng topishganday ho‘ng-ho‘ng ko‘zyoshlarini to‘kdilar...

Yarim yil o‘tgach, Orzigul rayon kasalxonasida yotgan, Gulimxon esa sohil bo‘yidagi baliqchilar qishlog‘iga ko‘chib ketgan edi. Bo‘ston o‘sha oqshomni esladi, bostirib kelgan hislardan to‘lqinlanib, ko‘zini tuman qopladi.

Bo‘ston palatada xotini yotgan karavot yonida o‘tirar, uning pajmurda, oqarib ketgan chehrasiga joni achib termulardi. Kuzning iliq kuni edi, palatadagi boshqa bemorlarning ko‘pchiligi hovlida aylanib yurishardi. Shunda Orzigulning o‘zi gap ochib qoldi.

— Sizga aytadigan so‘zim bor edi. — So‘zlarini ohista chaynalib aytarkan, Orzigul eriga bazo‘r ko‘zlarini ko‘tarib qaradi. Bo‘ston shu kecha uning yana ham sarg‘ayib ketgani, oriqlaganini payqadi.

— Qulog‘im senda, Orzigul. Nima demoqchi eding? — mehribonchilik bilan so‘radi Bo‘ston.

— Siz doktor bilan gaplashdingizmi?

— Gaplashdim. U aytdiki...

— Shoshmang. Nima degan bo‘lsa degandir, keyin sizga shuni aytmoqchi edimki...

Bu so‘zlardan Bo‘stonning yuragi orqaga tortib ketdi. U kissasidan ro‘molchasini chiqardi-da, ter bosgan manglayini artdi.

— Balki hozir hojati yo‘qdir. Avval tuzalgin, so‘ng gap bo‘lsa qochmas.— Bo‘ston bo‘ladigan gapni orqaga surgisi keldi. Lekin xotinining nigohidan gapni qoldirib bo‘lmasligini sezdi.

— Hamma narsaning o‘z mavrudi bor,— qon qochgan lablarini zo‘r-bazo‘r qimirlatdi bemor.— Bu yerda obdan o‘yladim. Kasalxonada o‘yashdan boshqa ish ham yo‘q ekan o‘zi. Siz bilan yaxshi umr kechirdik, men o‘z takdirimdan roziman. Xudoning qahrini keltirib nima qilamiz. Bolalar ko‘rdik, ularni voyaga yetkazib, oyoqqa bostirdik. Endi o‘zlari bemalol o‘z aqlari bilan yashayverishadi. Bolalarimiz haqida hali yana alohida gaplasharmiz. Lekin sizga achinaman, sizni ko‘zim qiymaydi. Siz odamlar bilan yaxshi chiqishib ketolmaysiz, uddaburon emassiz, hech kimga yalinmaysiz, qulluq qilmaysiz. Yoshingiz ham o‘tib qoldi. Menden keyin odamlardan tortinib, qochavermang. Menden keyin so‘qqabosh, odamovi bo‘lib yurmang. Ta’ziyam o‘tgandan so‘ng yana nima qilishni o‘ylab ko‘ring. Menga qolsa, yolg‘iz yashashingizni istamasdim. Farzandlaringiz o‘zidan ortmaydi.

— Qo‘ysang-chi, shu gaplarni,— bo‘g‘ilib dedi Bo‘ston.— Boshqa narsa qolmadimi bizga?

— Yo‘q, buni gaplashmay bo‘lmaydi! Boshqa nimani ham aytamiz? Safar qaridi va bularni bir-birimizga aytmasak, iloji yo‘q. O‘lgandan keyin gaplashmaysan-ku. Shuning uchun bu yerda termulib yotib siz ni va o‘zimni o‘yladim. Gulimxon oldimga paydar-pay kelib turibdi. O‘zingiz bilasiz, u bizga yetti yet begona emas. Taqdir ekan, yosh bolalari bilan yolg‘iz qoldi. Yaxshi ayol. Sizga maslahatim shu — unga uylaning. Yana o‘zingiz bilasiz, sizga o‘rgatgulik emas. Har kimning go‘ri boshqa. Men o‘tgandan so‘ng, unga shu gapimizni aytin... Xudo xohlasa, balkim, men aytganday chiqar. Har qalay, Ernazarning bolalari otasiz qolmaydi...

Issiqko‘lga keluvchilar ko‘pincha issiqko‘lliklar ustidan hazillashib yurishadi: ko‘l bo‘yida yashab, ko‘lni ko‘rmay o‘tadilar. Bunga hech qo‘llari tegmaydi. Mana, Bo‘ston ham ne zamonlardan beri ko‘l yoqasiga endi kelib turishi. Shungacha ko‘lga uzoq-uzoqlardan ko‘z qiri tushgan, xolos.

Bu safar kechga tomon kasalxonadan chiqib, to‘g‘ri sohilga yo‘l oldi. Tog‘lar orasidagi moviy oydinlik bo‘yida yolg‘iz aylangisi keldi. Bo‘ston shamol ko‘l yuzasida xuddi yer haydaganday oppoq to‘lqinlarni ravon mavjulantirib quvalab yurganligiga uzoq tikildi. Uning ko‘ksidan yig‘i otilib kelardi. O‘zini Issiqko‘l bag‘riga tashlab yo‘q bo‘lib ketishni istardi. Yashashni xohlab-xohlamasdi... Xuddi mana shu mavjlar kabi to‘lqin qaynaganda g‘oyib bo‘ladi, so‘ng yana o‘z domanidan o‘zi dunyoga keladi...

Oxir-oqibat bo‘rilar Bo‘stonni holi-joniga qo‘ymadi — ular qo‘ra atrofida tinim bilmay uvillasherib, nihoyat, uni yotgan yeridan turishga majbur qilishdi. Lekin undan burunroq Kenjash uyg‘onib ketdi. Kichkintoy uyqusi o‘chib, yig‘lay boshladi. Bo‘ston o‘g‘ilchasini o‘ziga yaqinroq surib, quchoqlab, bag‘riga bosib, ovutishga kirishdi:

— Kenjash, hoy, Kenjash! Mana men shu yerdaman. Nima deysan, tentagim? Ana, oying ham shu yerda — ana, ko‘ryapsanmi? Nima beray, ayt? Chiroq yoqaymi? E, sen bunaqa qo‘rqmagin-da. Mushuklar movlayapti. Mushuk shunaqa movlaydi.

Gulimxon ham uyg‘onib, kichkintoyni erkalab ovutishga tushdi, lekin bolaning xarxashasi tinmasdi. Chiroqni yoqishga to‘g‘ri keldi.

— Gulim,— dedi Bo‘ston eshik oldiga borgach, u chiroqni yoqaman deb o‘rnidan turgan edi.— Borib ularni qo‘rqitib qo‘ymasam bo‘lmaydiganga o‘xshaydi. Haddan oshib ketishdi.

— Soat necha bo‘ldi?

Bo‘ston soatiga qaradi.

— Yigirmata kam uch.

— Ana ko‘rdingizmi,— norozi bo‘lib dedi Gulimxon.— Hali oltida turishingiz kerak. Shu yaxshimi? Bu qurib ketkur Akbara bizni jinni qilib qo‘yadi. Qaerdan yopishdi bizga bu balo?!

— O‘zingni bos. Nima qilsak ekan? Men darrov kelaman. Sen qo‘rqma. Toza jazzamizni berdi-da, bu qashqir. Tashqaridan eshikni ilib ketaman. Xavotir olma. Uxla.

U sarpoychan oyog‘iga shoshilinch ilgan kirza etigini to‘riqlatib, oyna yonidan o‘tdi. Bo‘ston qanday bo‘lmasin, bo‘rilarni uchrataman deb, axd qilgan edi, shuning uchun ovozi boricha baqirib

itlarni chaqira boshladı, ularni boloxonador qilib so'kdi. Alamidan quturgan bo'rilar jonidan to'ydirib yuborishgan — u har narsaga tayyor edi.

Bo'rilarga hech qanday yordam berolmasdi. Ularni duch keltirsa, otib tashlashdan boshqa chora qolmagandi. U yarim avtomat miltig'ini shaylab qo'ygandi.

Lekin bo'rilarni uchratmadı. Shundan so'ng dunyo ko'ziga qorong'u ko'rinib, uyga qaytdi. Lekin bari bir uyqu kelmadi. Qorong'uda anchagacha to'lg'anib yotdi, miyasini notinch, dardli o'ylar parmalardi.

Nimalarni o'ylamaydi deysiz odam uyqu qochganda? Hammasidan ham ko'proq u yildan yilga vijdonan ishlash qiyin bo'lib borayotgani, hozirgi odamlar va ayniqsa, yoshlarda or-nomus qolmaganligi haqida o'ylardi. Hech kim hozir so'zga ishonmaydi. Har bir kimsa hammadan burun o'z foydasini ko'zlaydi. Vaholanki, mashhur Chu kanali qurilishida odamlar mamlakatning hamma burchaklaridan o'z ixtiyorlari bilan kelib, hatto pul-maosh olmay mehnat qilmaganmidilar. Mana endi hech kim bunga ishonmaydi, cho'pchak aytyapsizmi, deydi, shunday bo'lishi ham mumkinmi asti? Hozir hech kim bo'yniga arqon solsangiz xam, o'laman sattor, cho'pon bo'lmayman, deydi. Hammalari buni bilihadi, lekin bilmagandek yurishadi, vaqtinchalik qiyinchiliklar deb qo'yishadi. Ochig'ini aytsang, tuhmat qilyapsiz deb yuz-ko'zingni ochirishmaydi. Kimning nog'orasiga o'ynayapsiz, deyishadi! Axir bu ketishda keyin nima bo'ladi, hech kimning jiddiyroq bosh qotirgisi kelmaydi. Uning diliga taskin, ko'ngliga orom beradigan birdan-bir narsa bor edi. U ham bo'lsa, Gulimxon hech qachon otta tinim bor, itda tinim bor, sizda tinim yo'q, ertayu kech qo'y-ko'zidan bo'shamaysiz, deb ta'na qilmagan, yuziga solmagan edi. O'tarni bir zum ham ko'zdan qochirib bo'lmaydi, suruvni to'xtatib ko'r-chi, bu temir dastak emas senga keragida ko'tarib, keraksizda tushirib qo'yadigan, suruvgacha kecha-kunduz ko'z-qulqoq bo'lib turmasang, ish chiqmaydi. Aksiga olganday, qayoqqa qarama, qo'l kuchi yetmaydi. Holbuki, odamlar yo'q emas, bor, lekin ularning ishlagilari kelmaydi. Nimaga axir? Axir, mehnatsiz yashab bo'lmaydi-ku. Mehnatsiz hayot-halokat. Balkim, butunlay boshqacha yashash va ishlash kerakdir? Balki, hamma gap shundadir? Yana eng og'ir masala — saqmonchilar. Qo'zilatish boshlangach, punktlarda qo'zilarga qaraydigan saqmonchilar kerak. Xo'sh, kaerdan olasan saqmonchilarni? Yoshlar saqmonchi bo'lishni istamaydi. Saqmonchi ertayu kech ko'z yummay qo'zilarga qaraydi. Bu ishni ko'rqqanidan emas, halol, vijdonan bajarmasa bo'lmaydi. Shuning uchun saqmonchilikka yosh-yalangni zo'rlab ham ko'ndirolmaysiz. Hozirgi yoshlar shiptir kechib, ovloqda — bir chekkada kun kechirishni xohlamaydi. Saqmonchi qancha ham haq olardi deysiz. Vaholanki, shaharda zavod yo fabrikada sakkiz soat ishlagan har bir yigit-qiz bundan ko'ra ancha ko'proq pul topishi mumkin. «Qanday qilib biz ko'proq foya chiqadigan yerda emas, bir umr ishchi kuchi ko'proq kerak bo'lgan joyda ishlagan ekanmiz-a? Mana endi yoshlar ishni qo'lga oladigan payt kelganda, ular hech narsaga yaramay qolyaptilar — na or-nomus bor ularda va na vijdon», deb xafa bo'lishadi qariyalar. Avlodlar o'rtasida anglashilmovchilik hamda yotsirash tug'dirgan mana shu to'qnashuv qachonlardan beri odamlarning yuraklarini o'rtab keladi. Bo'ston yana o'sha gapini esladi. O'shanda u tag'in o'zini to'xtatolmadi va bekor qildi. Odam xuddi o'zi uchun ishlaganday ishlasin, dedi u. Men boshqa yo'lni ko'rmayotibman. Ishchi qilayotgan ishidan shaxsan manfaatdor bo'lishi suv va havoday zarur. Bo'ston ish haqi ish natijasiga qarab belgilanishi kerak, deb necha-necha martabalab aytgan edi. Hammasidan ham muhimi — cho'ponning o'z yeri bo'lsin, cho'pon shu yer uchun jon kuydirlsin, uning yordamchilari va butun oila, bola-chaqasi ham shu yerni deb ter to'ksin, aks holda boshqa hech narsaning foydasi yo'q...

Odatdagiday partorg Qo'chqorboev uning po'stagini qoqdi. Qo'chqorboevni sovxoza «gazet kishi» deb chaqirishardi, u direktor stolining o'ng tomonida Bo'stonga yonlama o'tirardi. G'ashi kelayotgan bo'lsa kerak, uning qosh-qovog'i uyulgan, posoniga olib dam sayin bo'yinbog'ini ushlab, tuzatib qo'yadigan Qo'chqorboev Bo'stonga yovqarash qilib, qiya nazar tashlardi. Sovxozi direktori Cho'tboev Qo'chqorboevning nima demoqchi bo'lib turganligini xo'p yaxshi tushunardi. Ko'p yillar

birga ishlab, uning bukilmas, o'tda kuymas, suvda cho'kmas, bir marta bir umrga yod olingen safsatasining mantig'ini juda yaxshi o'rganib olgan edi: uning safsatasiga ko'ra Bo'ston O'rakunchiev yangicha nusxadagi qulqoq va akslinqilobchi, u yana kavagidan chiqib, hammani yo'ldan aynitmoqchi. Hayot uni o'iasi qilib necha marta cho'ziltirib qo'ydi, u esa hamon o'z aytganidan kolmaydi. Qaniydi, ilgarigi zamonlar bo'lsa-yu, uni uzoqroq bir joylarga gumdon qilinsa...

O'sha kungi ishlab chiqarish yig'ilishida raykomning ko'rinishdan kamtarin yangi instuktori ham ishtirok etar, «Berik»ning xalqi hali uni yaxshi tanimasdilar. U so'zlovchilarni diqqat bilan eshitar va hammasini yondaftariga qayd qilib borardi. Cho'tboevning taxminicha, Qo'chqorboev raykomning yangi xodimi oldida albatta o'zini ko'rsatishga harakat qiladi. U haq chiqdi. Bo'stonning so'zidan so'ng Qo'chqorboev ikki og'iz so'zim bor edi, deb ijozat so'radi. Shu sayrab ketdi: u naq baayni gazetada yozilganday qilib so'ylar, asli uning kuchi ham mana shunda edi.

— Qachongacha, o'rtoq O'rakunchiev,— deb murojaat qildi u Bo'stonga qarata har doimgiday rasmiy ravishda «sizlab»,— qachongacha siz shubhali takliflaringiz bilan odamlarning yuragiga vasvasa solasiz? Sotsialistik kollektiv o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari qanday bo'lishini tarix allaqachonlar belgilab bergen. Siz esa cho'ponni xo'jayinga aylantirmoqchisiz. Kim bilan ishlaydi, kim bilan ishlamaydi, kimga qancha haq to'laydi, hammasini o'zi hal qilsin deyapsiz. Bu qandoq bo'ldi? Bu bizning tariximizga, inqilobiy olamshumul zafarlarimizga hujum, to'g'rirog'i, tajovuzdan boshqa narsa emas. Siz iqtisodni siyosatdan yuqori qo'ymoqchisiz. Siz o'z qo'shingizning tor manfaatlardan kelib chiqmoqdasiz. Siz uchun bu masalalarning masalasi. Biroq, qo'shning ortida rayon turibdi, axir, oblast, mamlakat turibdi, axir! Siz bizni qaerga eltmoqchisiz — xo'jalik yuritishning sotsialistik usullaridan voz kechishgami?

Zardasi qaynab ketgan Bo'ston o'rnidan turdi.

— Hech kimni hech yoqqa eltmoqchi emasman. Men buni gapiaverib charchadim. Hech kimni hech qayoqqa boshlayotganim yo'q. Oblastda nima bo'lyapti, undan nari mamlakatda nima bo'lyapti, dunyoda nima bo'lyapti, mening ishim emas, men oddiy bir cho'ponman. Mensiz ham aqlililar ko'p. Mening ishim — poda boqish. Agar partorg mening chorva haqidagi fikrimni bilishni istamasa, unda bunday yig'inlarga nima keragi bor meni chaqirib, ishdan qoldirib? Taraqa-turuq gaplarga tobim yo'q. Balkim, kimgadir bunday gaplar kerakdir, lekin mening ularga aqlim yetmaydi. O'rtoq direktor, meni boshqa chaqirma! Nima qilasizlar meni ishdan qoldirib?! Keragi yo'q menga bunaqa majlislarni!

— E, nima deyapsiz, Bo'ske?— Cho'tboev o'tirgan o'rnida o'ng'aysizlanib qimirladi.— Siz sovxoziyning eng yaxshi, ilg'or cho'poni, tajribali kishisiz, biz sizning fikringizni bilishni istaymiz. Shuning uchun chaqiramiz.

— Sen meni hayron qilib qo'yding, direktor.— Azbaroyi qoni qaynab dedi Bo'ston.— Agar men ilg'or bo'lsam, ilg'orlikni qanday qo'lga kiritganim hammadan ko'ra senga yaxshi ma'lum-ku. Shunda, nega axir miq etmaysan? Bir narsa desam, og'zimni ochmasimdan Qo'chqorboev og'zimga uradi, xuddi prokurorday har bir so'zimdan xato qidiradi. Direktor, sen bo'lsang, bularning senga aloqasi yo'qday, hech narsa bo'limganday indamay o'tirganing-o'tirgan.

— Shoshmang, shoshmang,— uning so'zini bo'ldi Cho'tboev.  
Direktor rostdan ham o'zini yo'qotib qo'ydi. U juda ham qiyin ahvolda qoldi. Bu safar endi Bo'ston bilan Qo'chqorboev o'rtasida betaraf turib bo'lmaydi. Raykom xodimi qoshida direktor ma'lum bir nuqtaga kelishi kerak. Shu «gazet kishi» Qo'chqorboev bilan hech g'idi-bidi qilgisi yo'q-da o'zi. Buning safsatasi ne-ne kuchlarni harakatga keltirishi mumkin: ko'r-ko'rona qiroatxonlikni ish uslubiga aylantirib olganlar ichida Qo'chqorboev axir yolg'iz emas-ku. Bu safar ham Qo'chqorboev muhokamani atay alangalatib yubordi, he, yo'q-be yo'q, cho'ponni «zafarlarimizga tajovuz qilishda» aybladi. Xo'sh, shundan so'ng kim unga qarshi chiqqa oladi? Lekin qanday bo'lmasin, vaziyatdan chiqish kerak edi.

—Shoshmang, shoshmang, Bo'ske, siz qizishmang,— dedi direktor va stoldan turib bu yoqqa

chiqdi.— O'rtoqlar, kelinglar, aqlashib olaylik,— dedi majlisga qarata Cho'tboev tomonlarni qanday murosaga keltirsam ekan deb, eran-qaran o'ylanarkan. Albatta, Bo'ske haq. Lekin Qo'chqorboev bilan hazillashib bo'lmaydi. Xo'sh, nima qilish kerak. Gapimiz nima haqda boryapti, deya fikrlardi direktor,— Mening tushunishimcha, cho'pon yollanib ishlaydigan kimsa emas, qo'shu-qo'ra, yaylovlarning egasi bo'lmoqchi. U o'z nomidangina emas, shu bilan birga brigadasi va cho'pon xonadonlari nomidan ham gapiryapti, biz buni ham e'tibordan qochirmasligimiz zarur. Menimcha, uning gapida jon bor. Cho'pon brigadasi bizning eng kichik iqtisodiy yacheykamiz bo'ladi. Ishni shu yerdan boshlash kerak. Nazarimda, O'rkunchiev hammasini o'z qo'liga olmoqchi, jumladan, mol-hol, yaylov, yem-xashak, qo'ton-qo'ra degandek, ishlab chiqarish uchun nima zarur — barini o'z qo'l ostida birlashtirmoqchi. U brigada hisobini joriy qilaman, deydi. Shunda har bir odam qo'shnisi uchun manovdan anovgacha emas, balki o'zi uchun ishlasa, qancha haq olishini bilsin. Men O'rkunchievning taklifini ana shunday tushunaman, biz buni o'ylab ko'rsak, arziydi, Jontoy Eshonovich,— dedi direktor partorgga qarata.

— Men esa, siz bilan birga rahbarlik qilayotgan sovxozening partorgi sifatida, o'rtoq Cho'tboev, buni boshqacha tushunaman. Sotsialistik ishlab chiqarishda xususiy mulkchilik psixologiyasini rag'batlantirish kimligidan qat'iy nazar, hech kimga yarashmaydigan ish va ayniqsa, xo'jalik rahbariga,— ovoziga tantanavor tus berib, direktorga pisanda qildi Qo'chqorboev.

— Lekin ishoning axir, ishimizning manfaati shuni talab qilyapti,— o'zini oqlay boshladi direktor.— Axir, yoshlar cho'pon brigadalarida ishlashni xohlamayaptilar...

— Demak, bizda tashviqot-targ'ibot ishlari yomon olib borilyapti, yoshlarga Pavlik Morozov va uning qirg'iz birodari Kichan Jaqipov haqida eslatishimiz kerak.

— Bunisi endi sizning ishingiz, o'rtoq Qo'chqorboev,— qistirdi direktor.— Hammasi o'z qo'lingizda. Eslating, tashviq qiling. Sizga hech kim xalal bermaydi.

— Albatta tashviqot olib boramiz, siz tashvishlanmang,— dedi iddao bilan partorg.— Butun boshli chora-tadbirlar ishlab qo'yanmiz. Lekin har qanday niqobdag'i xususiy mulkchilik xatti-harakatlariga o'z vaqtida zarba berish juda ham zarur. Biz sotsializm asoslarini qo'porishga yo'l qo'yaymiz.

Haddan tashqari jiddiyashib ketgan bu tortishuvga qulop solib o'tirarkan, Bo'ston O'rkunchievning shaxdi qaytdi, tomog'iga allaqanday qo'rqinch beixtiyor tiqilib qolganday bo'ldi. Axir, u nima dedi? Bor-yo'g'i yerda nihoyat birovning tashqaridan bo'ladigan ko'rsatmasi bilan emas, o'z aqlim bilan ishlashni xohlayman, deb istak bildirdi, xolos.

— Hech kimga hech qanday qulaylik va yonbosishlar qilinmaydi,— davom etardi Qo'chqorboev,— Ishlab chiqarishning sotsialistik shakllari barcha uchun majburiy. Men buni avvalo, o'rtoq O'rkunchievga qarata aytgan bo'lardim. U doim o'zi uchun qandaydir alohida shart-sharoitlar talab qilgani qilgan.

— Mengagina emas,— uning so'zini kesdi Bo'ston.— Bunday shart-sharoitlar hammaga kerak, ana o'shanda ishlarimiz yurishib ketadi.

— Ishonmayman! Umuman, bu qanday gap o'zi — shart qo'yib ishlayman deyish? Uni qiling, muni qiling. Siz, o'rtoq O'rkunchiev, o'z mol-holingiz uchun shaxsiy yaylovnning ortidan quvib, Ola Mo'ngu dovonida odam nobud qilganingiz yetmaydimi? Yo sizga bu hali kammi?

— Gapir-a, gapir!— azbaroyi fig'oni chiqib qo'l siltadi Bo'ston.

Ernazarning halok bo'lgani hakida mana shunday yo'l-yo'lakay va bepisandlik bilan so'z yuritilgani uning hamiyatiga tekkan, dilini og'ritgan edi.

— Nima gapir, gapir? Nima, noto'g'rimi, gapim?— chaqib oldi Qo'chqorboev.

— Ha, noto'g'ri.

— Nega noto'g'ri bo'larkan? Ernazarning o'ligi haligacha dovonda muzlab yotmayaptimi? Balki yana ming yil o'sha yerda yotar.

Bo'ston indamadi. Majlisda shu haqda gap ochilganidan uning ko'ngli qattiq og'ridi. Lekin

Qo'chqorboev bas qilay demasdi.

— Nimaga indamay qoldingiz, o'rtoq O'rkunchiev? — deb olovga moy quydi u. — Siz emassi, axir, o'zingizga shaxsan yaylov ochaman deb, dovonga yo'l olgan?

— Ha, yaylov ochaman dedim, — keskin javob berdi Bo'ston. — Lekin faqat o'zim bo'lay deganim yo'q, hamma uchun, jumladan, sen uchun ham Qo'chqorboev, ochmoqchi edim. Chunki men seni yeb-ichiraman, sen emas. Hozir esa, sen suv ichib turgan qudug'ingga tupuryapsan!

— Bu nima deganingiz? — darg'azab bo'ldi Qo'chqorboev, uning yuziga qon tepdi. — Men hammasi uchun partiya oldida karzdorman!

— Partiya qaerdan olib seni boqyapti, bilasanmi o'zing? — o'shqirdi Bo'ston. — Osmondan deb o'ylaysanmi?

— Nima bo'lyapti o'zi, og'ziga nima kelsa valdirayveradimi kishi! — chinqirib yubordi Qo'chqorboev qo'llari qaltirab bo'yinbog'ini to'g'rilagancha.

Katta janjal chiqadigan edi. Qo'chqorboev ham, Bo'ston ham, xuddi o'limga hukm qilingan odamlarday biri stol orqasida, ikkinchisi devor oldida turishar, — o'tirganlar nazarida yana ozgina vaqt o'tsa, ulardan biri yerga gurs etib qulaydiganday edi. Raykomning yosh xodimi vaziyatni birmuncha yengillatganday bo'ldi.

— O'zingizni bosing, o'rtoqlar, — deb ovoz berdi u kutilmaganda chekkada daftariga yozib o'tirgan joyidan. — Nazarimda, cho'pon O'rkunchiev umuman haq. Mehnatkash odam, biz uni ko'pincha moddiy boyliklar yaratuvchi, deb ataymiz, o'z so'zini aytishga haqli. Lekin bunchalar oshirib yuborish o'rinnimikin?

— E, siz buni bilmaysiz hali, o'rtoq Mamaetov, — shosha-pisha uning so'zini ilib ketdi Qo'chqorboev. — O'rkunchiev qilayotgan da'volarning boshi-keti yo'q. Mana, misol uchun, No'yg'utov degan bir cho'pon, ha, xuddi mana shu No'yg'utov Bozorboy tog'da bo'ri iniga duch kelgan. U bo'ri to'dasini tugatish uchun ularning to'rtta bolasini inidan olib chiqqan, to'g'rirog'i, tortib olgan, ildiz-pildizi bilan quritgan. Er yigitning ishini qilgan. Shundan keyin nima bo'lgan deng? Mana shu O'rkunchiev No'yg'utovni to'xtovsiz ta'qib qila boshlagan. Oldin sotib olmoqchi bo'lib uringan, lekin bu hunari o'tmagandan so'ng, No'yg'utov, bilasizmi, juda bir so'zlik odam, O'rkunchiev do'q po'pisa yo'liga o'tgan, No'yg'utovdan bo'ri bolalarini joyiga qaytar deb, oyog'ini bir etikka tiqib turib olgan. Yirtqichlarni ko'paytirmoqchi bo'lgan shekilli. O'zi nima bo'lyapti, o'rtoqlar? Buni nima deb tushunishimiz kerak? Balki, siz, o'rtoq O'rkunchiev, boshqa hammasi bo'lib, buning ustiga o'z shaxsiy bo'rilaringizni ham boqib ko'paytirmoqchidirsiz? Xususan va shaxsan sizga tegishli bo'rilar deylik. Balki, sovxozi hali sizni bo'rilar bilan ham ta'minlashi lozimdir? O'zimning yerim deysiz, o'zimning chorvam deysiz, ana endi, o'zimning bo'rilarim ham dersiz! Shundaymi? Yoki sizni qanday tushunaylik — bo'rilar urchib ko'payaversin, qo'y-qo'zini bo'g'izlayversin, umumxalq mulki hisobiga kun kechiraversinlar deganingizmi bu?

Bo'ston bu orada o'zini qo'lga oldi, xiyyla vazminlik bilan javob qaytardi:

— Bo'rilar haqidagi hamma gaplar to'g'ri, faqat bitta yomon joyi shuki, bo'rilar umumxalq mulkiga chang solayotganlariga aqlлari yetmaydi-da.

Odamlar beixtiyor kulib yuborishdi, Bo'ston o'rtadagi vaqtadan foydalanib, davom etdi:

— Bu yer bo'rilar haqida gap sotishning o'rni emas edi. Lekin hamon ular haqida gap chikdi, men ham o'zimning so'zimni aytay. Har qanday ishni aql-farosat bilan qilsa tuzuk, shuning uchun aql bilan tug'ilganmiz. Ba'zi birovlarimizda farosat yetishmaydi, maqtanchoqlik esa qop-qop. Misol uchun o'sha bo'ri bolalari voqeasini oling. Bu yerda aytilganday, Bozorboy bo'ri bolalarini inidan ko'tarib chiqqan, yana ham to'g'rirog'i, qaroqchilarday o'g'irlab olib ketgan, endi atrofdagi shovqin-suronni ko'ring, sal bo'lmasa uni qahramonga chiqarib qo'yyapmiz. Qahramon esa, avvalo katta bo'rilarini yo'qotishni o'ylashi, undan keyin bolalarini tinchitishi kerak edi. U bo'lsa bo'richalarni tezroq pul qilishga qiziqib ketdi. Mana endi ichib yuribdi. Bozorboydan bo'ri bolalarini menga berishini yo bo'lmasa, sotishini so'radim. Bolalarni tuzoq qilib, kattalarini qo'lga tushirmoqchiydim. Chunki,

bolalarini yo‘qotgach, katta bo‘rilar haddan ortiq quturib ketishdi. Ularni endi shunday qoldirib bo‘lmasdi. Quturgan bitta bo‘ri o‘nta bo‘ridan yomonroq, buni sal tushunish kerak edi. Quturgan bo‘ri o‘ch olmaguncha tinchimaydi. Bolalari tortib olingan Akbara bilan Toshchaynar degan bo‘rilar atrofda qanchalar yirtqichlik qilishayotganini hamma cho‘ponlar bilishadi. Endi ular hech qo‘ymaydi, odamlarga ham tashlanaverishadi, tap tortishmaydi. Ba’zi bema’ni odamlarni ig‘vogar deb atashar ekan, buni gazeta va kitoblarda o‘qigan edim. Bozorboy deganimiz bo‘rilar o‘rtasida shunday ig‘vo chiqardi, ularni quturtirdi. Hammamizning boshimizni g‘avg‘oga qo‘ydi. Men uning yuziga tikka aytdim, yana aytaman: u quyonmijoz ig‘vogarning ishini qildi. Sening ham, pa-torg, tik yuzingga aytaman: men tushunmayman sening qanday odamligingni. Mana, necha yildirki, bizning sovxozdasan, lekin shuncha vaqtdan beri gazet o‘qishu menga o‘xshagan cho‘pon-cho‘liqni qo‘rqtishdan boshqasini bilmaysan, bizni inqilobga, sovet hokimiyatiga qarshi deb nax urasan, o‘zing esa xo‘jalik ishida hech vaqoni tushunmaysan, ma’nisiga yetmaysan, aks holda cho‘pon kishini bo‘rini ko‘paytirmoqchi deb, ayblab o‘tirarmiding. E padariga qusur, o‘sha bo‘rilarning. Kurakda turmaydigan kulgili ayblarni qo‘ysan odamning gardaniga. Lekin bu mayli. Ammo, boshqa bir ayb ham qo‘ydingki, o‘rtoq Qo‘chqorboev, men buni javobsiz qoldirolmayman. To‘g‘ri, Ernazar dovonda halok bo‘ldi. Lekin bizni dovonga borishga nima majbur qildi? Yaxshi kun kechirayotgan bo‘lsak, shunday qilarmidik? Boshqa joy qurib ketibdimi bizga? Partorg, sen hech o‘ylab ko‘rdingmi, nega biz u yoqqa chiqdik, yaylovlar yetarli bo‘lsa, jonimizni xavf-xatarga qo‘yib o‘tirarmidik asti? Sen buni hech o‘yladingmi, partorg? Yaylov yo‘qligi jonimizga bir balo bo‘ldi. Kun-kundan badtarroq. Mana, direktorning o‘zi o‘tiribdi. Aytsin o‘zi. U direktorlikni endi boshlagan kezlar qanday o‘tloq, yaylovlar bor edi, beldan urib yotardi o‘t-o‘lan u yerlarda! Endi-chi? Hammayoq qurigan, yerning tuprog‘i yotibdi. Har bir qiyoq, o‘t-hisobda. Barining sababi shundaki, bunday maydonlarda ilgarigidan o‘n barobar ko‘p mol boqilyapti, shuncha qo‘y tuyog‘i o‘tgandan keyin o‘t o‘smayapti. O‘lganning kunidan Ernazar bilan Kichibelga yo‘l olgan edik. Yaxshi bo‘larmikin devdik, lekin falokat oyoq ostidan chiqdi. Safarimiz yaxshilik bilan tugamadi. Shundan keyin men bu maqsadimdan qaytdim, og‘zimni ochmay qo‘ydim, kulfat og‘zimni ochirmadi, ko‘nglimga sig‘madi bu ish. Hammasi boshqacha bo‘lganda, o‘tgan yil Moskvaga borardim ko‘rgazmaga, eng katta rahbarlarimizning oldiga kirib, sen haqingda gapirib berardim, Qo‘chqorboev. Sen o‘zingni faqat partiya haqida o‘layotgandek qilib ko‘rsatasan, ko‘kragingga urasan. Holbuki, partiyaga senga o‘xshagan o‘zi hech ish qilmaydigan, boshqalarining ham qo‘lini bog‘laydigan tekintomoqlar kerakmikin?

— Siz juda haddingizdan oshib ketdingiz! — chidolmadi Qo‘chqorboev. — Bu tuhmat! Siz, o‘rtoq O‘rkunchiev, partiya yo‘li bilan o‘z so‘zlarizingiz uchun jiddiy javob berasiz.

— Men o‘zim ham istayman hammasiga partiya majlisida javob berishni. Agar men rostdanam noto‘g‘ri ish qilayotgan, nobop o‘layotgan bo‘lsam, mayli, meni bo‘ynimga bir urib, haydanglar. Partiyaga arzimas ekanman, meni sira ayab o‘tirmanglar. Lekin sen ham, Qo‘chqorboev, buni o‘ylab qo‘yishing kerak.

— Mening o‘laydigan joyim yo‘q, o‘rtoq O‘rkunchiev. Mening vijdonim toza. Men doim partiya bilan birgaman.

Bo‘ston xuddi tog‘ ustiga chopib chiqqan odamdek nafasini rosladi va raykom xodimiga qarab turib, dedi:

— Sizdan, o‘rtoq instruktor, o‘tinib so‘rayman, ana shular haqida raykomga aying. Bizning ishimizni majlisda ko‘rishsin. Boshqa bunday yasholmayman.

Ko‘p o‘tmay Bo‘ston O‘rkunchiev o‘zining Qo‘chqorboev bilan bo‘lgan to‘qnashuvi atrofida g‘alati-g‘alati voqealar ro‘y berayotganiga amin bo‘ldi. O‘sha kuni u o‘zining ishlari bilan ko‘l bo‘yiga tushgan edi.

Issiqko‘l yonlarida bog‘lar gulga kiray deb qolgandi. Bahor o‘tib borar, u esa hamon bog‘dagi olma daraxtlarini dorilab ulgurmagan, Ernazarning bog‘i ham qarovsiz yotardi. Bo‘ston bilan Gulimxonning endi ikki bog‘lari, ikki hovlilari bor, ikkoviyam qarovga, parvarishga muhtoj edi. Hamma gap

shundaki, cho‘ponning umri tog‘larda o‘tar, xo‘jalikka qaray desa, doim qo‘l tegmasdi. Erta deysan, indin deysan, qarabsanki, vaqt o‘tib ketgan, endi kechiktirishning ham iloji qolmagan. Lekin, baribir, qanday bo‘lmasin, bog‘ni dorilash kerak, aks holda zararkunandalar shu qadar ko‘payishib ketadiki, hamma kurtaklarni to‘kib, hosilni barbod qiladilar. Bu gal Gulimxonning sabr-toqati tugab, o‘zini to‘xtatolmay Bo‘stonga qattiqroq gapirib yubordi: muncha orqaga cho‘zasiz, vaqtliroq borib, biron qo‘shni-po‘shni bilan kelishib kelmaysizmi, o‘zingiz qilomaganingizga yarasha. Haqini gaplapping, qo‘shnilar qilib berishadi.

— Hech uyga qaramaysiz,— jahli chiqib urishdi Gulimxon.— Ertayu kech mol ketidan yurasiz, majlisdan beri kelmaysiz. Agar bog‘-rog‘ga qarashga qo‘lingiz tegmasa, uyda bir kun Qenjash bilan o‘tiring, bu tentagingizni sal qarovsiz qoldirib bo‘lmaydi,— o‘zim sohilga tushib chiqaman, bir erkakning ishini qilarman, axir.

Nima ham deyish mumkin, Gulimxon haq edi, uning ta’nalarini indamay turib eshitdi.

Bo‘ston boqqa qarayman deb, ertalab barvaqt sohilga tushib ketdi. Do‘nko‘likni mindi. Qadimdan qolgan hikmat bor, bahor kelsa, o‘t ham, ot ham kuchga kiradi. Do‘nko‘lik jonivorning ayni kuchga to‘lgan payti edi. U o‘t sochgan ko‘zlarini o‘ynatib, yollarini yashinday yoyib, kuch-qudratini ichiga sig‘dirolmay so‘lig‘ini chaynab uchaman derdi. Lekin, hozir ot choptirgali Bo‘stonning rag‘bati yo‘q edi. U o‘ynoqlab turgan otning shashtini bosar, yo‘lda u-bu narsalarni xo‘p pishitib o‘ylab olmoqchi edi. O‘tgan kecha yaxshi uxlolmadi. Anchagacha u yog‘idan-bu yog‘iga ag‘nab yotdi, partorgning Ernazarni sen o‘ldirding, degani, yuragini to‘xtovsiz o‘rtardi. Yig‘ilishdan qaytgach, xotiniga nima gaplar bo‘lganini naridan-beri aytib berdi-yu, lekin Ernazar haqidagi gapdan og‘iz ochmadni. Gulimxonga avvalgi erini eslatib nima qiladi, oradan axir shuncha yillar o‘tib ketdi, qancha suvlar oqib o‘tdi. Eslatsa, Gulimxonning eski yarasi qayta yangi bo‘ladi, o‘rtaga sovuqchilik tushishi ham mumkin, axir, Ernazar qo‘rqinchli Ola Mo‘nguda mangu muz choh qa‘rida ko‘milmasdan to‘ng‘ib yotibdi haligacha. Shunday ekan, yaxshisi, bu gapni unga eslatmagan ma’qul. Keyin Bo‘stonning ko‘zi endigina ilingan edi, yana bo‘rilar sasi keldi. Yana katta qo‘radan naridagi tepalik tomonda Akbara yig‘lab bolalari hajrida dil tig‘lab faryod ko‘tardi. Unga do‘rillagan ovoz bilan Toshchaynar jo‘r bo‘ldi. Ilgari bo‘rilarning uv tortganini eshitganda, Bo‘ston ularga achinib, rahmi kelsa, hozir ich-ichdan g‘azabi toshdi, o‘jar yirtqichlarni o‘ldirib tashlashni istadi, ishqilib, shularning ovozini eshitmasam, bas, dedi, nazarimda, ular xuddi menga ham la‘nat o‘qib, qarg‘ish yog‘dirayotganday, lekin mening aybim nima? O‘tgan kecha qanday bo‘lmasin, bo‘rilarни o‘ldirishga axd qildi, hatto buni qanday amalga oshirishni ham o‘ylab qo‘ydi. Dard ustiga chipqon deganday, u yig‘inda Qo‘chqorboev bilan tortishib o‘tirgan mahalda Akbara bilan Toshchaynar uning o‘taridan uchta qo‘yni bo‘g‘izlab ketgan edilar. Cho‘pon bolaning hikoya qilishicha, u qancha qichqirmsin, tayog‘ini ko‘tarib haydamasin, bo‘rilar sira hayiqmay uchta qo‘yni o‘ldirib, yana indamay g‘oyib bo‘libdilar. Bu voqeal Bo‘stonning sabr kosasini to‘ldirib yubordi. Agar shunday davom etadigan bo‘lsa, deb o‘yladi u, bu yerlarni tashlab ketishga, bo‘rillardan sharmandalarcha qochishga to‘g‘ri keladi. O‘scha soatda timmay uv solayotgan Akbara bilan Toshchaynar o‘zlariga o‘lim hukmi o‘qiyotganliklarini anglamas edilar. Bo‘ston endi nima qilish kerakligini bilardi. Mabodo ertasiga xo‘jalik ishlari bilan sohilga tushishi lozim bo‘lmasaydi, u hoziroq o‘ylagan rejasini amalga oshirishga tayyor edi. Lekin u bunday qarorga keldi: xotinidan yana dashnom eshitmaslik uchun avval bog‘dagi ishlarni bitiradi, undan keyin bo‘rilarning dodini beradi. Yo‘lda Bo‘ston ana shularni o‘ylab borardi...

Olmalarни dorilash, ularga bahorgi ishlov berishga bir kun vaqtি ketdi. U qishloqdan chaqqon bir yigitni topdi. U haq evaziga hammasini tez qilib beradigan bo‘ldi. Bo‘ston unga o‘zining qora qo‘ylaridan bitta qo‘zi va‘da qildi.

Ishlarni tugatib, Bo‘ston Kenjashga yangi o‘yinchoq sotib olgisi keldi. O‘g‘ilchani xursand qilishni istadi: shunday ajoyib bola uyni to‘ldirib chopib yuribdi, bir oylardan so‘ng u ikkiga chiqadi. Sho‘x, shirin bolakay o‘zining turli g‘alati qiliqlari bilan qarib borayotgan Bo‘stonga ermak, ovunchoq edi. Kichkintoyning har bir yangi so‘zidan Bo‘stonning boshi osmonga yetar, xursandchiliginı ichiga

sig ‘dirolmasdi. Bo‘ston bolakay vositasida hayotning teran, sirli ma’nosiga, farzand hamda uning onasiga nisbatan mehru muhabbatning tub ma’nosiga yetganday bo‘lardi. Bu Bo‘stonga ato etilmish takdirning eng oliv va eng so‘nggi tuhfasi edi. U xotini va farzandini chin dildan suyar, hayotdan shundan ortiq hech narsa tilamas va talab qilmasdi. Axir, bizga ato etilgan shundan ortiq ne’mat bormi? Bu haqda u hech qachon og‘iz ochmagan, lekin buning aslida shunday ekanligini aniq biladi. U xotinim ham shunday his qiladi, deb ishonardi.

Bo‘ston «Madaniyat» raymagi oldida otdan tushdi, ichkariga kirib, ko‘zi chaqchaygan, odamning kulgisini qistatadigan, kalit bilan burasa, yuradigan qurbaqa sotib oldi. Bolakay rosa quvonadigan bo‘ldi-da! U ko‘chaga chiqib, otiga minmoqchi bo‘lib turdi-da, shu payt ochqaganini sezdi va ertalabdan beri tuz totmaganligini eslatdi. Oshxona raymagning shundoqqina yaqinida edi, baxtga qarshi, shu yerga kirib ovqatlanmoqchi bo‘ldi. Bo‘ston ko‘proq haydovchilar qo‘nib o‘tagidan, hamma yoqdan arzon ovqatlar hidi anqigan yarim qorong‘u zalga kirib, eshik yaqiniga o‘tirgan zahoti orqa tomonda Bozorboyning tovushini eshitdi. Bo‘ston orqasiga qaramadi — Bozorboy ulfatlari bilan bu yerda kayf qilib o‘tirgani shundoq ham ravshan edi. «Kuppa-kunduz kuni gushnalar bilan ichishib yuradi, na or-nomus bor, na vijdon bu zang‘arda», — dili g‘ash bo‘lib o‘yladi Bo‘ston. Bir ko‘ngli o‘rnidan turib nari ketmoqni ham ko‘zлади, har qalay, qora qozondan yiroqroq, lekin keyin, nega endi ovqat yemay turib ketar ekanman, nima sababdan, deb o‘ylab qoldi. U karam sho‘rva bilan kotlet so‘radi. Bu orada Bozorboyga ham bu yerda Bo‘ston o‘tirganini, chamasi, xabar qilishdi. Darhol orqa tomondan kelayotgan tovushlar shovqini o‘chib, shum jimlik cho‘kdi, so‘ng yana g‘ala-g‘ovur qaytadan avj oldi. Ko‘p o‘tmay Bo‘stonning qoshiga Bozorboyning ulfatlaridan shu yerlik errayim va g‘iybatchilardan biri Ko‘r Samad degan kimsa keldi. Ko‘r Samadning ko‘zini yoshligidayoq urib chiqarishgan edi.

— Salom, Bo‘ston, salom! — Samad ma’nodor irshayib qo‘lini Bo‘stonga cho‘zdi, uning qo‘lini qismoqdan boshqa iloj qolmadi. — E, nega bu yerda yolg‘iz o‘tirbsan? — Gapga solmoqchi bo‘ldi u Bo‘stonni. — Biz anov yerda Bozorboy bilan o‘tiribmiz. Anchadan beri ko‘rishmagan edik, bir yig‘ilishaylik dedik. Yur, biz bilan o‘tir, Bozorboyning o‘zi chaqiryapti.

— Unga ayt, vaqtim yo‘q, — deb javob berdi Bo‘ston iloji boricha bosiqlik bilan. — Ovqatlanamanu toqqa chiqib ketaman.

— E, hali vaqt erta, ulgurasan. Tog‘ qochib ketarmidi?

— Rahmat, borolmayman. Ish ko‘p.

— Mayli unda, shu, bekor qilyapsan-da, — xafa bo‘lganday dedi Ko‘r Samad keta turib.

Uning orqasidan Bozorboyning o‘zi keldi, anchagina kayfi taroq edi. Bozorboyning izidan sheriklari yopirilishdi.

— Menga qara, hoy, nega bizdan hazar qilasan? Seni hurmat qilib, odam deb chaqirishsa, sen burningni jiyirasan. Nima, boshqalardan sening ortiq joying bormi? — darhol tirg‘ila ketdi Bozor-boy.

— Men aytdim-ku, vaqtim yo‘q deb, — xotirjam javob qildi Bo‘ston va karam sho‘rvani xo‘rillatib icha boshladi. Boshqa payt bo‘lsa, u birinchi qoshiqdan keyinoq tamom og‘ziga olmas edi.

— Senda ishim bor edi, — dedi Bozorboy va Bo‘stonning ro‘parasiga surbetlik bilan o‘tirib oldi.

Boshqalar qani, nima bo‘larkin, deganday tomosha qilib turishardi.

— Sen bilan bizning qanday ishimiz bo‘lishi mumkin? — dedi Bo‘ston.

— Balki sen bilan anov bo‘richalar to‘g‘risida gaplashib olsakmikan, Bo‘ston, — deb Bozorboy qovog‘ini uyub, boshini silkidi.

— Sen bilan buni gaplashib bo‘lganmiz. Cho‘zishning nima keragi bor?

— Menimcha, kerakmas. Menga xalal berma. Ovqatimni yeymanu chiqib ketaman.

— Qaerga shoshyapsan, itvachcha? — Bozorboy shahd turib, engashdi-da, g‘azabdan o‘zgarib ketgan betini Bo‘stonga yaqinlashtirdi. — Qaerga shoshyapsan, ablah? Sen bilan hali bo‘rilar to‘grisida gaplashib olmadik. Sen axir direktorning kabinetidagi majlisda hammaning o‘rtasida meni ig‘vogar debsan, men tufayli bo‘rilar quturib qo‘ylarni bo‘g‘izlayotgan emish. Ig‘vogar nima degani, meni

bilmaydi deb o‘ylaysanmi? Seningcha, men fashist, faqat sen ichimizda vijdonli, halol ekansan-da?

Bo‘ston ham o‘rnidan sakrab turdi. Endi ikkov yuzma-yuz keldilar.

— Tilingni tiyibroq yur,— bo‘sh kelmay dedi Bo‘ston.— Seni fashist deganim yo‘q. Bilganimda aytardim. Sen ig‘vogar, ahmoq, ichi qora odamsan, bu — to‘g‘ri. Buni senga ilgariyam aytganman, hozir ham aytaman. Lekin menga osilmay, joyingga qaytsang, o‘zingga yaxshi bo‘ladi.

— Sen menga aql o‘rgatma, qaerda bo‘lishim, nima qilishimni o‘zim yaxshi bilaman!— haddan tashqari qahrga mindi Bozorboy.— Menga xo‘jayin emassan. Tupurdim senga. Mayli, seningcha ig‘vogar bo‘lay, sen-chi, sen o‘zing kimsan? Odamlar sening kimligingni bilmaydi deysanmi? Ernazarni o‘ldirding. Yopig‘liq qozon yopig‘ligicha qolaverdi, deb yuribsanmi hali? Sen, ablah, Ernazar tirikligida uning xotini bilan don olishgansan, xotining o‘lishini bilgansan. O’shandan keyin Ernazarni tog‘dan itarib yuborgansan uning xotini, anov qanjiq Gulimxonga uylanaman deb. Mard bo‘lsang, qani ayt, shunday emas, de! Nega sen yiqlmading, Ernazar yiqlidi? Bitta yo‘ldan borayotgan edinglar-ku? Hech kim hech narsa bilmaydi deysan-da, a? Lekin u o‘lib ketdi, sen esa yuribsan. Shundan so‘ng kim bo‘ldinglar, sen ham, anov qanjiq Gulimxon ham? Ernazar dovonda muzlab yotibdi, bekafan ketdi xuddi itning bolasiday, sen yaramas go‘sxo‘r bo‘lsang, uning sharmanda xotinini, sotqin qanjiqni quchoqlab yotibsan, yallo qilib yashayapsan! Yana partiya a’zosi emish! Seni partiyadan bo‘yningga urib haydash kerak. O‘rgildim sendaqa ilg‘or, staxanovchidan! Seni sud qilish kerak!

Bo‘ston Bozorga musht ko‘tarib tashlanishdan, uning jirkanch aft-basharasiga boplab tushirishdan o‘zini bazo‘r tutdi. Bozorboy ochiqdan-ochiq janjal chiqarmoqchi, Bo‘ston bilan yoqalashib itdek urishmoqchi edi. Lekin Bo‘ston o‘zini bosdi, tishlarini qattiq qisdi, achchikdan bo‘g‘ilib ketgan Bozorboyga dedi:

— Sen bilan gaplashadigan gapim yo‘q. Sening so‘zlarining hech narsaga olmayman. Sen bilan tenglashib ham o‘tirmayman. Men haqimda nima desang, nima o‘ylasang, o‘ylayver. Endi qani, yo‘ldan qoch. Hey, yigit,— deb chaqirdi u ofitsiantni,— ma, pulingni ol.— Unga besh so‘mlikni tutqizib, indamay nari o‘tdi.

Bozorboy uning yengidan tutdi:

— Qani, to‘xta-chi! Qanjig‘ingning oldiga shoshib nima qilasan! Balki sen yo‘g‘ingda bironta cho‘pon bilan donlashayotgandir. Xalaqit berib o‘tirasamni!

Bo‘ston qo‘shni stol ustida turgan shampandan bo‘shagan shishani ko‘tardi.

— Qo‘lingni tort!— sekin tishining orasidan dedi u ko‘zlarini rangi qum o‘chib ketgan Bozorboydan uzmasdan.— Qo‘lingni tort, boshqa qaytarmay! Eshitdingmi?— dedi u kattakon qora shishani asta silkitib.

Bo‘ston shu alpozda shampan shishasini qo‘lida mahkam qisgancha eshikka chiqdi. Egarga sakrab mingandan keyingina hushi o‘ziga kelib shishani yo‘l chetidagi ariqqa tashladi, Do‘nko‘likning ixtiyorini o‘ziga berib, jilovni qo‘yib yubordi. U ancha zamonlardan beri hali bunchalik qattiq ot choptirmagan edi. Ot boshini shunchalar qattiq qo‘ydiki, u ko‘p o‘tmay o‘ziga kelib, hushyor tortdi va shunda birdan yuragiga vahma tushdi: odam o‘ldirib qo‘yishiga oz emas, ko‘p emas, bir bahya qolibdiya, tag‘inam Xudo saqladi, bo‘lmasa, shisha bilan bir urib Bozorboyning miyasini po‘la qilardi. Yo‘lda pritsepli traktorda ketayotgan odamlar ko‘zlariga ishonmay anqayib qarashar, uning orqasidan uzoq tikilib qolishardi: bu Bo‘stonga nima bo‘ldi, shunday kap-katta kishi xuddi o‘yinqarok o‘spirinlarday o‘pkasini qo‘ltiqlab ot choptirib yuribdi. Bo‘ston anchagacha o‘ziga kelolmadni. Sho‘x oqib yotgan jilg‘aning muzdek suvidan ichgandan keyingina nafasini rostladi. Shunda u jahldan tushdi, otga o‘tirdi, lekin Do‘nko‘likni boshqa choptirmadi. Otni asta yo‘rttirib ketdi. U odam o‘ldirishdan qutulganiga suyunardi.

Lekin, yo‘lda hammasi qanday bo‘lganligini o‘ylab borarkan, yana ko‘ngli g‘ash tortdi, qovog‘ini soldi. Kenjashga sovg‘aga olgan, ko‘zları bakraygan, jag‘lari katta ochilgan g‘alati o‘yinchoq qurbaqani oshxonaning derazasi chetida unutib qoldirgani birdan esiga tushdiyu dili battar xufton

bo‘ldi. To‘g‘ri, unchalar qimmat o‘yinchoq ham emasdi, kichkintoyga sovg‘ani yanagi safar olsa ham mumkin edi, yana o‘sha «Madaniyat» raymagining o‘zidan. Lekin, negadir shu tobda uning nazarida bu yomon alomat bo‘lib ko‘rindi. Kichkintoyga atalgan narsani hech qachon unutib qoldirilmaydi, hech qachon. Uning esa esidan chiqibdi...

Bunday narsalarga ishonib o‘tirganidan g‘ashi keldi, qanday bo‘lmisin, xosiyatsiz voqealarning oldini olishga unda azmu qaror uyg‘ondi.

Bo‘rilarga qanday pistirma qo‘yishi, la‘nati yirtqichlarni bitta qoldirmay otib tashlashi, bu yaqin orada ulardan nom-nishon qoldirmasligi haqida o‘ylaganda, qahrining cheki yo‘q edi.

Qaerdan chiqdi o‘zi bu falokat, deb o‘ylardi u, mana sal bo‘lmasa oshxonada Bozorboyni o‘ldirib qo‘yay dedi, axir, shu janjalning boshi ham bo‘rilar tufayli chiqmadimi.

Bo‘ston o‘ylagan rochasini ertaga amalga oshirmoqchi bo‘ldi. Kechasi bilan rejasini har tomonlama pishitib, puxtalab chiqdi. Bosh qo‘shib birga yashayotganlaridan beri birinchi marta xotiniga ko‘ngliga tukkan niyatini ochmadi. Bo‘ston Bozorboy bilan o‘rtada janjalga sabab bo‘lgan bo‘rilar bo‘ri bolalari to‘g‘risida gap ochishni istamas, dovonda Ernazarning halokatini eslatadigan narsalarni o‘zidan nari quvardi. Shuning uchun uyda kamroq gapirib, ko‘proq kichkintoyni o‘ynatar, Gulimxonning savollariga ham ha-yo‘q deb qisqa javob qila qolardi. Indamay yursa, xotini bundan tashvishga tushishi, ajablanishini u bilar, lekin o‘zini bundan boshqacha ham tutolmasdi. Bozorboy bilan bo‘lgan janjal, boshlariga do‘ldek yog‘ilgan iflos malomatlar, ertami-kech, albatta xotiniga ham yetib kelishini u juda yaxshi tushunardi. Biroq baribir hozir og‘zini churq etib ochmas — badbaxt, g‘alamus Bozorboy aytgan iftirolarni og‘izga olib takrorlashni xohlamas, tilga olib bo‘lmaydigan jirkanch mag‘zava gaplar edi ular.

Gulimxon bilan turmushlari ham osongina kechgani yo‘q, o‘rtada og‘ir, taajjub ishlar ham bo‘lib o‘tdi. Bo‘ston mana shu haqda ham o‘ylardi. Ular er-xotin bo‘lganlaridan beri odamlarning qanchadan-qancha yashirinchko‘rolmasliklari, ochiqdan-ochiq dushmanchiliklariga duch kelmadilar deysiz, ne-ne tuhmatlarni tarqatishmadi ular. Biroq shunga qaramasdan, Bo‘ston o‘z taqdiri Ernazardan qolgan beva bilan qo‘shilganidan afsuslanmas edi. Bo‘ston usiz qanday yashashini hatto tasavvuriga keltirolmasdi, doim uni o‘zining bir yonida his qilib turishi kerak edi... Yo‘q-yo‘q, u butunlay boshqa bir hayot bo‘lar edi. Bo‘stonning hayoti faqat u bilangina hayot, mayli, garchi Gulimxon undan ba‘zan haq-nohaq norozi bo‘lib yuradi, lekin baribir Bo‘stonga vafodor, eng muhimi ham o‘zi shu... Ammo bu haqda o‘zaro hech qachon gaplashmagan edilar, bu o‘zi shunday bo‘lishi kerakligi ularga ravshan edi. Va mabodo, Bo‘stondan manavi kichkintoy o‘g‘il bolacha, mana shu tili endigina chiqqan, oyoqlari do‘mboq-do‘mboq, doim jilmayib turadigan, ko‘zлari tip-tiniq, uning tinib-tinchimas to‘rva qoqdisi, siz uchun nima, deb so‘rasalar, Bo‘ston tuzuk-quruq javob berolmasdi. Buning uchun unga so‘z yetishmasdi. Uning tuyg‘usi so‘zlardan yuqoriroq edi. Zero, kichkintoyga qarab turib u Xudoning inoyati bilan yaratilgan o‘z bolaligini ko‘rardi...

Lekin, u dildan hamma narsani tushunar va anglardi, shuning uchun, kechasi xotini bilan o‘g‘ilchasi yonida yotarkan, uning ko‘ngli joyiga tushdi, o‘zini yaxshilikka moyil sezdi, iyidi... Oshxonada bo‘lgan hangomani sira eslagisi kelmasdi. U hatto, mabodo bo‘rilar bugun kechasi kelib bezovta qilishmasa, pistirma qo‘ymasam ham balki bo‘lar, balki umuman ularni o‘ldirishning hojati yo‘qdir, deb o‘yladi. Bo‘stonga tinchlik kerak edi...

Lekin, atay qilganday, yarim kechaga yaqin bo‘rilar yana paydo bo‘lishdi. Yana katta ko‘ra orqasidagi tepa tomonda nola ko‘tarib Akbara uv soldi, unga Toshchaynarning bosiq do‘rillagan ovozi qo‘sildi. Yana Kenjash qo‘rqib uyg‘ondi va hiqillay boshladi. Gulimxon esa uyqu aralash shu oromsiz turmushni, baloga giriftor bo‘lgur bo‘rilarni qarg‘adi. Yana Bo‘stonning g‘azabi jo‘shdi, o‘rnidan sakrab turib, bo‘rilarni dunyoning u chekkasiga deguncha quvib borgisi keldi, shunda yana esiga pastkash va tuban Bozorboyning haqoratlari tushdi va shunda uning qabih boshini shisha bilan urib majaqlab tashlamaganiga o‘kindi. Axir, o‘sha og‘ir shisha bilan bir ursa tamom edi-ku, Bozorboydan

nom-nishon qolmasdi. Hech pushaymon ham qilib o'tirmasdim, o'ylanardi Bo'ston, aksincha, odam qiyofasidagi manfur gazandani nihoyat yanchib tashladim deb quvonar, yengil tortarmidi... Bo'rilar esa avjga minib uvillashardi...

Miltiqni olib, jilla qursa ularni qo'rqtib qo'yish uchun turishga to'g'ri keldi. Yo'liga bir-ikki marta o'q uzish o'mniga Bo'ston qorong'u kecha qo'yniga ketma-ket besh marotaba varanglatib otdi. Keyin uysa qaytdi, lekin endi uyqusi butunlay o'chgan edi, negaligini o'zi ham bilmaydi, miltiqni tozalashga tushdi. U oldingi xonaning bir burchagiga o'tirib oldi-da, «Bars» degan ov miltig'ining ustiga engashgancha, xuddi hozir shundan zarur ish yo'qday hafsalala bilan tozalay ketdi. Miltiq tozalarkan, bo'rilar ni qanday jazolashini yana bir o'ylab oldi va tong oqarar-oqarmas ishga kirishishni ko'ngliga tugib qo'ydi.

Bu orada miltiq ovozidan cho'chigan Akbara bilan Toshchaynar kechaning qolgan qismini o'tkazish uchun tog' darasi tomon ketib borishardi. Bu badbaxt bo'rilarining endi doimiy bospanalari yo'q edi, ular duch kelgan yerda tunab qolishardi. Akbara odatdagiday oldinda borardi. Tullah oldidan uning junlari o'sib, namat bo'lib ketgan, qorong'uda g'oyatda qo'rinchli ko'rinaldi. Uning ko'zlarini ko'kimdir yiltirab yonar, tili osilib tushgan, ko'rgan odam uni quturgan deb o'ylardi. Yo'q, bolalaridan ayrligan bo'rining alami bosilay demasdi, u judolikni hech unutolmasdi. Bolalarim Bo'stonning qo'rasida degan fikr uning miyasiga qattiq o'rnashib qolgan edi, Bo'lmasa qayda ular? Axir, izma-iz quvib kelgan kunlari o'sha qaroqchi shu yerga kirib ko'zdan g'oyib bo'lmadimi? Yirtqichning aqli ana shundan nariga o'tolmasdi. Shuning uchun ham bo'rilar o'sha kunlari hamma narsani ko'zlarini qonga to'lib qiyratishar, mol-holni duch kelgancha bo'g'izlashardi. Ularni och qolib, shunday qilishyapti deb bo'lmasdi. Ular hayotdan, jonlaridan to'yan edilar, bo'rilarining payiga tushgan Bo'ston mana shuni hisobga olgan edi.

Ertasiga ertaminan Bo'ston o'tarni yaylovga olib chiqmanglar, har ikkala qo'sh ichida boqinglar, ko'proq yem-don beringlar va shu yerdagi sug'ormadan suvlattinglar, deb buyurdi. O'zi o'tardan yigirmaga yaqin ko'proq egiz tuqqan qo'ylarni ma'rashib, barashib yursinlar deb, qo'zilari bilan ajratib oldi-da, shu chog'roq podani ovloq, yo'lsiz adirlar tomonga haydab ketdi.

Yoniga hech kimni olmadi. Yolg'iz o'zi podani uzun tayog'i bilan haydab bordi Yelkasiga kechasi yaraqlatib tozalagan, to'la o'qlangan miltig'ini osib oldi. Shoshmasdan, uzoq yo'l bosdi. Qishlovdan iloji boricha olislab ketish kerak edi.

Kun iliq, chinakam bahor edi. Tog'lar quyosh haroratini emib, uni o'r-jarlarda mayin ko'klagan o't-o'langa aylantiradi. Moviy osmon bag'ridan onda-sonda sутday ko'pirgan qaynama bulut parchalari porom erkalanib suzishadi. To'rg'aylar tinimsiz chuldiraydi, toshlar oralab kakliklar makyonini chorlab, chulg'ilaydi — naq jannatning o'zi. Faqat istagan paytda quyun boshlanishi mumkin bo'lgan ufqni boshdan-oyoq betlab yotgan bayaybat qorli tog' cho'qqilarini va vahshiy shamol noma'lum yoqlardan haydab kelgan, quyosh yuzini to'sishga tayyor turgan qora bulutlargina bu jannat boqiy emasligidan darak berib turadi.

Lekin, hozircha havo aynaydiganga o'xshamasdi. Uncha katta bo'lman qo'y- qo'zilar podasi yo'l-yo'lakay barashib, to'xtovsiz bir-birlarini chaqirishib cho'pon tayog'i ko'rsatgan yoqqa jilardi. Qo'zilar dikirlab sakrab sho'xlik qilishar, birdan onalari tomon yugurgilab qolishar va turtib-turtib yutoqib emib ketishardi. Lekin, Bo'stonning kechasidan beri dili xufton edi. U qancha ko'p o'ylagan sayin, bo'rildan ham, bu hangomalarni boshlab kelgan bexosiyat Bozorboydan ham yomon achchiqlanardi. U Bozorboy bilan g'idi-bidi qilib o'tirmoqchi emas, buni o'ziga ep ko'rmaydi, sasimasin desang — tegma-da, yaxshisi. Bo'rilarni esa yo'qotish, otib tuxumini quritmaslikdan boshqa chora qolmagan edi. Uning rejasi juda oddiygina edi: ma'rab qo'zilarini chaqirgan ona qo'ylarning ovozi albatta bo'rilarni o'ziga tortadi, u esa biqinib pistirmada o'tiradi. Bo'rilar qo'y-qo'zilarga tashlanishadi, agar omadi chopsa, Bo'ston shunda ularni otib oladi. Lekin, hikmatda aytilganday uydagi gap ko'chaga to'g'ri kelmaydi. Aslida ham shunday bo'lib chiqdi...

Kun peshindan oqquncha yirtqichlar qorasini ko‘rsatishmadi. Bo‘ston podani xoli, atrofdan yaxshi ko‘zga tashlanadigan o‘tloqqa qo‘ydi-da, o‘zi bir chekkada siyrak butalar ostidagi katta toshlar orasiga biqinib yordi. U yaxshi mergan edi, bolaligidan miltiq otib o‘rgangan, ov qilgan, Issiqko‘lda nechanecha bo‘rilarni otgan edi. Shuning uchun bo‘rilarni otishiga ko‘zi yetar, ularni pistirmaga tushirsa, bas edi. Serxavotir ona qo‘ylar tinmay ovoz berib, bolalarini chaqirishar, bir-birlarini jo‘rlashar, biroq vaqt o‘tib borar, bo‘rillardan esa hamon darak yo‘q. Vaholanki, boshqa paytlar jondorlar kuppa-kunduz kuni hujum qilib, atrofda o‘tblab yurgan podalarni to‘s-to‘s to‘zg‘itib, alamlarini qo‘ylardan olardilar..

Oftob qizdira boshladi. Buta tagida ostiga paxtaligini to‘shab yotgan Bo‘ston boshqa payt miriqib mudrab olgan bo‘lardi, lekin hozir bunday qilolmasdi. Buning ustiga ichiga chiroq yoqsa yorimasdi: Ernazarning o‘lishida uni ayblashayotganiga sira chiday olmasdi. Uning g‘animlari Qo‘chqorboev ham, Bozorboy ham til topishgan, ularning har biri o‘zicha bichib-to‘qib, uni ayblar, boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘ymoqchi bo‘lardi. Hayot nega shunday qurilgan, u hech tushunolmasdi: turli-tuman odamlar nimaga, nima sababdan uni yomon ko‘risharkin, Buning ustiga manovi qashqirlarni aytmaysizmi, odamning jonini sug‘urib olaman deb turishibdi. Uyda ham shundan tinchlik yo‘q. Xotiniga Bozorboy bilan o‘rtalarida qochgan gapning xabari yetib borsa, hali hammasi holva bo‘lib qolmasaydi. Bozorboy uni ham, xotinini ham og‘zidan bodi kirib, shodi chiqib bo‘ralab so‘kayotganda, ancha odamlar tomoshabin bo‘lib turishgan edi. Ular ichida ko‘zingni o‘yaman deb turgani qancha...

Bo‘rillardan hanuz darak yo‘q, Bo‘ston toqatsizlana boshladi. Shunga qaramasdan, ko‘z-quloq bo‘lib yotar, atrofni sergak kuzatardi. Yirtqichlarni qancha tez payqasa, shuncha yaxshi, ular qo‘ylarga tashlanar-tashlanmas mo‘ljalga olib otadi. Bo‘rilar keladigan paytni boy bermay darrov payqash oson emas: xonaki qo‘ylarning ko‘zi yaxshi o‘tmaydi, sezgi, farosati ham o‘tmasroq bo‘ladi, o‘z oti bilan qo‘ydan yuvoshroq jonivor yo‘q. Bo‘rining eng qulay o‘ljasi ham qo‘y. Ularni yirtqichdan faqat odam saqlaydi, shuning uchun doim bo‘rilar bilan odamlar to‘qnashadilar. Bu safar ham shunday bo‘ldi...

Beg‘am qo‘ylar bu gal ham xatarni sezmay qoldilar. Ular bemalol o‘tblab yurishar, faqat qo‘zilari barashganda boshlarini ko‘tarib qarashar, dam-badam ularga emchaklarini tutishar, shundan boshqa tashvishlari yo‘q edi. Xavfni yolg‘iz Bo‘ston sezdi...

Shu atrofdan par-par uchib-qo‘nib yurgan bir juft ola qanot tog‘ zag‘izg‘oni qulogni batang qilib shaqillab, u yerdan-bu yerga tinmay uchib o‘ta boshladi. Bo‘ston sergak tortdi. Tepkini ko‘tardi. Lekin boshini chiqarmay, yanada yaxshilab biqinib oldi. Ishni puxta qilmasa bo‘lmaydi. Bir necha qo‘y ketsa-ketsinki, lekin yirtqichlarni shamg‘alat qilib, albatta ochiq joyga olib chiqish kerak. Ammo bo‘rilar balki xatarni payqashgandir, ajabmas, ularga zag‘izg‘onlar xabar yetkazgan bo‘lsa, haytovur, ular bir joyda chag‘illashni bas qilib, endi Bo‘ston bekingan yerga kelib, surbetlarcha shaqillay ketishdi. Vaholanki, Bo‘ston ularning diqqatini tortmay, qimir etmay buta ostida pusib yotardi. Har qalay, bo‘rilar birdan hujum qilishmadi. Ma’lum bo‘lishicha, ular ikki yoqqa bo‘linishgan ekan. Akbara katta xarsanglar oralab, o‘tloqning narigi chekkasidan, Toshchaynar esa, bu tomondan biqinib, pusib kelishmoqda edi (Sal keyin ma’lum bo‘ldiki, Toshchaynar Bo‘ston miltig‘i bilan pistirmada yotgan yerdan andak narida sudralib kelayotgan ekan).

Lekin, bularning bari birdan ma’lum bo‘lgani yo‘q.

Bo‘ston bo‘rilarining kelishini kutib, hushyor tortib tevarakni kuzatar, lekin yirtqichlarning qaysi tomonidan paydo bo‘lishiga sira aqli yetmasdi. Atrof osoyishta, jimjit, qo‘ylar bamaylixotir o‘t chimdir, qo‘zilar chopishib, o‘ynoqlashar, zag‘izg‘onlar shaqillashdan to‘xtagan, faqat nariroqda tog‘dan tushib kelayotgan jilg‘a shaldirar, butazorlarda qushlar sayrashardi. Bo‘ston kutaverib toliqqan edi, ammo shu payt birdan toshlar oralab bo‘zdek soya lip etib o‘tdy, qo‘ylar o‘zlarini shatirlab bir tomonga otishdi va nenidir xavotirli kutib serrayib qolishdi. Bo‘stonning asablari tarang tortildi. Bo‘rilar odam qaerda yashiringanligini bilish uchun podani hurkitgan edilar. Bunday paytda har qanday cho‘pon baqirib, qiy-chuv ko‘tarib, qo‘ylar oldiga yuguradi. Bu Bo‘stonga ma’lum edi. Lekin, hozir uning mo‘ljalib boshqa edi, shuning uchun yotgan joyidan qimirlamadi. Shunda xarsangtoshlar oralab bo‘z soya lip-lip o‘tdi va angrayib turgan joni halak qo‘ylarga tashlandi. Qo‘ylarga sakrab hamla qilgan Akbara edi.

Bo'ston miltiqni rostlab bo'rini mo'ljal oldi-da, endi tepkini bosaman degan edi, orqa tomonida nimadir shitirlab ketdi va u beixtiyor o'girilib qaradi. Shu zahoti hatto mo'ljalga ham olib o'tirmay o'zi tomon otilib kelayotgan haybatli yirtqichga qarab o'q uzdi. Hammasi ko'z ochib-yumguncha bo'lib o'tdi. Toshchaynar osmonga sakragan chog'da o'qqa duchor bo'ldi. Lekin u darhol yerga qulagani yo'q. U ko'zlarini qahrli olaytirib, so'yloq tishlari irillab ochilib, tirnoqlari o'tkir panjalarini vahshiyona oldinga cho'zgancha, Bo'ston tomonga zabit bilan uchib bordi va undan naq bir odim nariga gursillab quladi. Bo'ston darhol miltiqni boshqa tomonga to'g'riladi, lekin fursat o'tgan edi — Akbara to'ntarib tashlagan qo'yni qo'yib, o'zini toshlar orasiga urdi. Bo'ston miltiqni shay tutib, bo'ri ortidan yugurdi, hali otib ulgurish mumkin deb o'yladi, lekin Akbara jilg'adan sakrab o'tib ketganligini ko'z qiridagina ko'rib qoldi. O'q uzdi, lekin o'qi zoe ketdi...

Bo'ston nafasini rostladi, atrofiga xafagezak nazar tashladi. Azbaroyi zo'riqqanidan rangi oqarib ketgan, og'ir-og'ir hansirab nafas olardi. Asosiy maqsadiga yetolmadi — Akbara qo'lidan chiqdi. Ish endi yanada chigallashdi — uni duch keltirish va otish oson ko'chmaydi: bo'ri endi etagini tutqizmaydi.

E, xayriyat-e, deb o'yladi Bo'ston, agar Toshchaynarga vaqtida qaramasa va o'qi ham mo'ljalga tegmasa bormi, ana unda badtar chatoq bo'lardi. Ro'y bergan voqeani mulohaza qilib ko'rarkan, Bo'ston shu narsaga amin bo'ldiki, yirtqichlar podaga yaqinlashib kelgan mahalda xavf borligini sezib qolganlar-da, ikkovlari ikki tomonga ajralganlar. Toshchaynar miltiqli odam pistirmadan bexabar Akbarani mo'ljalga olganini ko'rgach, o'ylab o'tirmay yovga tashlangan...

Qo'rqib har tomonga qochgan qo'ylarni yig'ib kelgach, Bo'ston o'qqa uchgan bo'rini ko'rgani bordi. Toshchaynar sarg'ayib ketgan ulkan qoziq tishlarini yirib, yoniga ag'darilgancha yotardi, uning ko'zları shishaday qotib qolgan edi. Bo'ston Toshchaynarning boshini ushlab ko'rdi. Bosh ham o'zi otning kallasiday kelar, yirtqich uni qanday ko'tarib yurganiga aql hayron edi. Panjalari-chi? Bo'ston uning dastpanjalarini ko'tarib, salmoqlab ko'rdi, va beixtiyor qoyil deb yubordi: qanchalar zalvorli va qudratli edi bu panjalar. Qancha yo'llarni o'tgan ular, qancha jonivorlarni qiyratgan ular!

Bir zum ikkilanib turgach, Bo'ston uning terisini shilib olmaslikka qaror qildi. Sadqai sar, gap terisidami. Boz ustiga uning jufti tirik qoldi, hali xursandchilik qilishga erta.

Bo'ston yana birpas hayolga tolib turdi. Keyin bo'ri qornini yorib tashlagan qo'yni yelkasiga ortida, podani orqaga qaytardi.

Kechroq bu yerga belkurak va zang ko'tarib qaytib keldi. Kun botguncha Toshchaynarning o'ligini ko'mish uchun chuqur qazidi. Toshloq joy emasmi, ancha urindi. Ba'zan Bo'ston ishdan to'xtab tevaragiga jim nazar tashlardi, banogoh bo'ri kelib qolmasmikin, derdi. Nishonga bexato uruvchi Bo'stonning miltig'i yonginasida shay turardi, qo'l uzatsa kifoya edi...

Ammo Akbara tun yarmidan oqqaa keldi... Yangi qazilgan yer oldida cho'zildi, to azongacha shu yerda qoldi, quyoshning ilk nurlari to'kilganda, u g'oyib bo'ldi...

## VI

Bahor kunlari o'tib, yoz yaqinlashmoqda edi. Chorvadorlar yozgi yaylov larga ko'chadigan payt keldi. Tog' yonlarida qishlagan qo'yboqarlar tog' ichkarisidagi vodiy va daralarga — yangi tog' o'tloqlariga ko'chishar, bu yerlardan asta-sekin dovonlarga yovuqlab borishardi. Qir-dalada qishlaganlar esa hali mol-hol oralamagan, saqlab qo'yilgan o'tloqlarga chiqishardi. Cho'ponning ishi qaynagan palla: mol haydaydi, ko'ch-ko'ronini tashiydi va hammasidan og'irrog'i, qo'ylarning junini qirqadi; bularning hammasi qo'shilib, bosh qashigani qo'l tegmay qoladi. Buning ustiga har kim yozgi manzilga tezroq chiqib keta qolsam, deydi, sero'tloq yerlarga joylashsam, deydi. Xullas, ish degan qizib yotadi... Har kimning tashvishi o'ziga yetib ortadi...

Hamma hamma bilan, lekin yolg'iz Akbaragina dunyodan noumid edi. Atrofda qaynagan hayotning faqat ungagina daxli yo'q edi. Odamlar ham endi uni unutgan edilar: Toshchaynar o'lgandan so'ng Akbara qorasini ko'rsatmas, hatto Bo'stonning qishlovida ham tunlari uv tortmasdi.

Og‘ir, chorasiz dard Akbarani ezardi. U bo‘shashib, erinchoq, loqayd bo‘lib qoldi. Duch kelgan mayda-chuyda darranda-parrandalarni ovlab yurdi. Ko‘p mahal vaqtini ko‘zdan yiroq ovloq maskanlarda ma'yus o‘tkazardi. Tog‘lardan ming-minglab qo‘y-qo‘zilar poda-poda bo‘lib o‘tib borardi. Ana shu to‘polon, shovqin-suron ichida bitta-yarimta adashgan-ulоqqan qo‘y-qo‘zini o‘marib ketishdan osoni yo‘q edi. Lekin Akbara bular bilan ishi bo‘lmas, bariga beparvo edi.

Akbara uchun dunyo o‘z qimmatini yo‘qotib qo‘ydi. Unga o‘tgan umri haqida xotiralarga qolgan edi. Akbara kallasini dastpanjalariga qo‘yib kuni bo‘yi Mo‘yinqum cho‘llarida, Aldash dala-tuzlarida, bu yerda, Issiqko‘l bo‘ylarida kechirgan quvonch va qayg‘ularga to‘lgan kunlarini eslardi. Uning ko‘z o‘ngidan Toshchaynlar bilan birga o‘tkazgan kunlari kunma-kun, oyma-oy, soat-basoat o‘tar, va har safar Akbara hasratini alamli joniga sig‘dirolmay o‘rnidan turib ketar, atroflarda sho‘ridahol sang‘ir, so‘ng yana qayg‘uli qartaygan boshini panjalariga tashlab yerga cho‘zilar, yana bolalari esiga tushardi. Dam yaqinda o‘g‘rlab ketishgan to‘rt bolasini, dam Mo‘yinqum qirg‘inida halok bo‘lganlarini, dam Aldash bo‘yida qamishzorda yonib ketganlarini xotirlardi. Lekin, hammadan ham ko‘proq u o‘zining Toshchaynari — alp kelbat, sadoqatli erkagini esga olardi. Goho,nashazor ichra uchratgan o‘sha g‘alati tayloq kishi yodiga tushardi. Ko‘z o‘ngiga uning bolalari bilan yalang‘och, himoyasiz holda o‘ynashmoqchi bo‘lgani kelardi. Akbara kekirdgini uzib tashlash uchun unga hamla qilganda, azbaroyi qo‘rqib ketganidan boshini qo‘llari bilan changallagancha, yerga cho‘kkalab qolgan, so‘ng shilingpocha bo‘lib tiraqaylab qochgan edi... Keyin uni qish boshlanganda Mo‘yinqumda tong qorong‘usida saksovulga osilgan holda uchratishdi. O‘sanda uning tanish yuziga tikilib-tikilib, termulib-termulib qaradi, so‘ng u qovoqlarini sal-palgina ko‘tardi, unga ohista nimadir deb shivirladi va jim bo‘ldi...

Endilikda o‘tgan hayot unga tush, takrorlanmas tush kabi tuyulardi. Lekin, shularning bariga basma-bas hali umid o‘limgan edi, umid Akbaraning yuragida yashardi — goho-goho nazarida oxirgi jigarporasi hali albatta topiladiganday edi. Shuning uchun ham, Akbara kechalari Bo‘ston qo‘rasi atroflarida o‘g‘rincha izg‘ar, lekin endi yoqasini chok etib, yuraklarga vahima solib uvlamas, faqat uzoqdan turib qulog‘i ding tinglardi: shoyad shamol bo‘yiga bo‘y qo‘shilib qolgan bulturuqlarining akillaganlarini olib kelsa, shoyad, ularning tanish va ne farog‘atli bo‘y-islarini dimog‘iga ufursa... O’, shunday mo‘‘jiza ro‘y bera qo‘ysaydi! Akbara hech narsaga qaramasdi, na odamlar va na itlardan qo‘rqib o‘tirmasdi, o‘zini laziz bolalari sari otardi, ularni asoratdan xalos etardi, qanot-quyruq chiqarib bu yerlardan yiroq-yiroqlarga, o‘zga diyorlarga boshlab ketardi, bo‘rilarga xos hur va qiyin-qattiq hayot kechirardi. Bo‘rilarga o‘zga ne kerak...

Shu kunlari Bo‘stonning yugur-yuguri ko‘payib ketdi. Ko‘chish tashvishlari yetmaganday bunga yana qandaydir ahmoqona idora ishlari ham qo‘shildi. Qo‘chqorboev har qalay po‘pisa qilganday yuqori tashkilotlarga Bo‘ston O‘rkunchiev ustidan shikoyat yozib jo‘natdi va u yerdan kim haq, kim nohaq aniqlash uchun komissiya yuborildi, lekin komissiya bir fikrga kelolmadi. Komissiyaning ayrim a’zolari cho‘pon Bo‘ston O‘rkunchievni partiyadan o‘chirish kerak, chunki u partorg shaxsiyatiga tegib, uni haqorat qilgan va shuning barobarida partianing o‘ziga ma’naviy ziyon yetkazgan desa, boshqa a’zolar bunday qilishning hojati yo‘q, chunki cho‘pon Bo‘ston O‘rkunchiev ish yuzasidan gapirgan va uning tanqididan maqsad mehnat unumdorligini ko‘tarish bo‘lgan, derdi. Komissiyaga Bozorboy No‘yg‘utovni ham chaqirishdi. Undan Bo‘ston O‘rkunchiev iniga qaytarishni talab qilgan bo‘ri bolalari haqida yozma ravishda tushuntirish olishdi... Xullas, hamma qoidalarga rioya qilingan qog‘ozbozlik boshlandi...

Keyingi ikki marta chaqirganlarida Bo‘ston bormadi. Suruvni tog‘larga haydashim, xonadonim bilan yozgi yaylovga ko‘chishim kerak, vaqt ziq, shuning uchun mensiz o‘zlarigiz hal qilaveringlar, men komissiya lozim topsa, har qanday jazoga roziman, deb ayttirib yubordi. Bo‘stonning bunday xatti-harakati Qo‘chqorboevga g‘oyatda qo‘l kelib, xursand bo‘ldi.

Lekin, cho‘ponning shundan o‘zga chorasi ham yo‘q edi. Yozgi yaylovлага ko‘chish boshlangan,

bunaqa paytda Bo'ston ishni orqaga surish, kechikishga sira yo'l qo'ymasdi. Keyingi yillarda suruvni bir kun oldin yo'nga haydashar, keyin to mashina o'tib boradigan joylargacha xonadonlarning yozlik ko'ch-ko'ronlarini tashib eltishar, undan u yog'iga ota-bobolar usulida yuklarni ot-eshaklarga ortib jo'nar edilar. Hatto shu narsaning o'zi ham suruvni ko'chirishni bir tomondan yengillashtirsa, ikkinchi tomondan tezlashtirar edi. Mana, Bo'ston ham suruvni avval yozlik manzilga yetkazib bordi, o'tarda o'z yordamchilarini qoldirib ketdi, so'ng kechasi yo'l yurib orqasiga qaytdi, ertasiga ko'ch-ko'ronlarini mashinaga ortib, butun xonadon bir bo'lib, to kuz tushguncha tog'larga chiqib ketishlari kerak edi.

Oxiri o'sha kun keldi...

Lekin, shundan bir kun burun kechasi Akbara eski uyasiga qaytib bordi. Toshchaynlar halok bo'lgandan beri birinchi marta bu yerga kelishi edi. So'qqabosh bo'ri qoya tagidagi iniga yo'lamas edi — uning huvillab yotgani, o'zini u yerda hech kim kutmasligini bilardi. Shunga qaramasdan, kunlarning birida aftoda bo'ri tanish yo'llar, changalzor oralari, kamarlardan o'tgisi keldi, qadrdon joylarini sog'indi — banogoh u yerda bolalari kelib, uni orziqib kutayotgan bo'lsalar-chi. U ichichidan xuruj qilib kelgan vasvasani yengolmadi, ro'yo ortidan chopdi.

Akbara yo'l tanlamay, suv kechib, tosh bosib, yozgi yaylovlarda yongan tungi gulxanlar, badjahl itlar yaqinidan telbarab yugurar, uning ortidan miltiq tovushlari varanglardi...

U osmonda yuksalgan oy shu'lasiga ko'milgan tog'larda es-hushini yo'qotib, yakka-yolg'iz chopardi... Atrofini yangi o't-o'lan va zirk nihollari chirmagan, tanib bo'lmas holga kelgan uyasigacha yetib borgach, u sag'ir va ne zamonalardan beri unutilgan uyasiga yurak betlab kirolmadi... Lekin, orqaga qaytish, o'zini yengish uchun ham majol qolmagan edi... Shunda Akbara yana qashqirlar ilohasi Bo'ri Onaga nola qildi, akillab, uvlab, uzoq yig'ladi, badbaxt toleidan to'xtovsiz arz etdi, ilohadan o'zini oyga olib ketishni, odamlar yo'q yerga eltishni yolvorib so'radi.

Bo'ston o'sha kecha yo'lda edi. Suruvni yozlik manzilga yetkazib borgach, orqaga qaytmoqda edi. Albatta, kechani o'sha yerda o'tkazib, ertalab qaytaversa ham bo'lardi. Lekin, unda qo'shga kechki payt yetib kelardi-yu kun bo'yi kutib, so'ng ko'chlarni yuklab suruv ketidan yo'lga tushishiga to'g'ri kelardi. Buncha vaqtini yo'qotishni u hech istamas edi. Ustiga-ustak, qo'rada yosh bolasi bilan Gulimxon va yana boshqa bir oiladan bo'lak hech kim qolmagan, ular yozlik yaylovlarga ko'chish uchun tayyor bo'lib o'tirar edilar, erkaklar bari poda haydab ketishgan edi.

Bo'ston o'sha kecha mana shuning uchun ham jadal orqaga qaytmoqda edi. Ne baxtki, Do'nko'lik ham odatdagiday shahdam, sherkelbat yo'rtib borardi. Uning yurishiga odamning zavqi kelardi. Chaqqon ot-da, bu Do'nko'lik. Oltin tusli zotdor Don otining yollarini hamda qulqlari oyning nurida tovlanar, baquvvat to'shlarida tun chog'i suv jilvalanganday paylari yaltirab o'ynardi. Havo issiq ham emas, sovuq ham, mo''tadil. O't-o'lanlar hidi gurkiraydi. Bo'ston miltig'ini har ehtimolga qarshi yelkasiga osib olgan — tog'da kechasi nimalar bo'lmaydi. Uyga borgach, Bo'ston miltiqni qoziqqa iladi va beshala o'qi bo'shatilmagan ko'yi shu yerda osig'liq turadi.

Bo'ston qo'shga tong azonda, soat beshlarda yetib borishni mo'ljallagan, chamasi, hisobdan adashmagan edi. Shu kecha u xotini bilan farzandiga qanchalik qattiq bog'langanligiga aniq ishonch hosil qildi: bir kun o'tar-o'tmas ularni sog'inib qoldi va mana endi shitob bilan uy tomon yelardi. Yo'lda hammadan ko'ra ham, ishqilib, Akbara yana qo'ra atrofida izg'ib, Gulimxon bilan Kenjashning o'takasini yorib qo'rquinchli uvillab yurmasin-da, deb xavotir olardi. Toshchaynlar o'lgandan so'ng Akbara ko'rinxay ketgan — har nechuk ovozi chiqmay qoldi-ku, deb Bo'ston o'ziga-o'zi taskin berardi.

O'sha kecha Bo'ston bekor xavotirlangan edi.

O'sha kecha Akbara Boshat darasida eski qo'nalg'asi oldida Bo'ri Onaga arz-shikoyat qilardi. Mabodo, Akbara Bo'stonlarning qo'rasи atrofida paydo bo'lganda ham, u hech kimni qo'rqtib, bezovta qilmasdi — Toshchaynarning halokatidan so'ng, u.odamlar manzilghoidan kelayotgan tovushlarga hasrat bilan qulq solardi, xolos... Va oxiri o'sha kun keldi...

O'sha kuni ertalab Bo'ston uyqudan ko'zini ochganda, quyosh azot chiqqan edi. U tong qorong'usida qo'shga yetib kelib, to'rt soatlar chamasi uxlagan edi. Ertalab Gulimxon otasini bezovta qilmasin deb, Kenjashni qancha ushlamasin, ko'chish tashvishlari bilan ovora bo'lib ketib, kichkintoyni andak ko'zdan qochirib qo'ydi. Bolakay allanimalarnidir chuldirab, hadeb otasining yuzlarini silab, shapatilay boshladi. Bo'ston ko'zini ochdi, kulib kichkinani bag'riga bosdi, butun jismi-joni unga ajib bir mehr-muhabbat bilan to'lqinlandi. Uning pushti-kamaridan dunyoga kelgan kichkina, sog'lom, harakatchan bo'lib o'sayotgan, hali ikkini to'ldirmagan esa-da, ziyrakligi, otonasini sevishi, yuzi, sumbati, qiliqlari quyib qo'yganday o'ziga o'xshashi, faqat qora olxo'riday porlagan ko'zlarigina onasini eslatib turishi bilan behad quvonch bag'ishlardi. Bir so'z bilan aytganda, bolamisan bola edi va unga qarab turib, Bo'ston shunday ajoyib o'g'ilchasi borligidan g'ururlanardi.

— Nima deysan, o'g'lim? O'rnimdan turaymi? Qani, qo'limdan tortib yuborchi? Tort, tort, ana, barakalla! O'ho', polvon-ey! Ana endi qani, qani, otasining bo'ynidan bir ajomlasinchi, oh-oh!

Gulimxon bu orada unni qovurib, sut va tuz solib quyuq qalmoq choy hozirladi. Qalmoqchoy erining jonu tani edi. O'tarlarga emas, hatto itlar ham uzoq tog'larga chiqib ketgan, O'rkunchievlар xonadoni jilla qursa, shu tobda bemalol, xotirjam o'tirib choy ichsalar mumkin edi. Ko'plar cho'pon xonadoniga bu farog'at kamdan-kam paytlar tuyassar bo'lishini yaxshi bilmaydilar. Chorvaga yil bo'yi kecha-kunduz tinmay ko'z-qulqoq bo'lib turish kerak, agar suruvni ming bosh deb hisoblasak, qo'zisi bilan bir yarim ming deyavering, mana bunaqa o'tirib choy ichishga qo'l tegadimi. Cho'pon xonadonlari buni faqat orzu qiladilar. Ular ko'chish oldidan bamaylixotir o'tirib choy ichishardi. So'ng yoz bo'yi tog'larga chiqib ketishadi. Mashina peshinga yetib keladigan edi. O'shangacha hammasini yig'ishtirib, saranjom-sarishta qilib qo'yishlari kerak.

— Voy, hech ko'zimga, ishommayman,— derdi nuqlul Gulimxon,— qanday, yaxshi, joning rohat qiladi, tinchlikni qarang! Sizni bilmaymanu men hech ketgim kelmayapti. Keling, uyda qola qolaylik. Kenjashjon, otangga ayt, hech yoqqa bormaylik.

Kenjashjon nimalarnidir bidirlar, dam otasi, dam onasining tizzasiga chiqar, Bo'ston esa ko'ngilchanlik bilan xotinining gapini ma'qullardi:

— Shundaymi? Mayli, nima qipti, yoz bo'yi bu yerda yashasak?

— Xo'p, aytdingiz-da,— kulardi Gulimxon,— ikki kun o'tmay suruv qaydasan deb, hayyo-hayt jo'nab qolardingiz, keyin sizga Do'nko'likda quvib ham yetib bo'lmassi!

— Rost, Do'nko'likni minib ham yetolmaysan! — tasdiqlardi iyib ketgan Bo'ston va so'ng dikraygan mo'ylabini silab qo'yardi. Bu uning ko'ngli to'lganligini bildirardi.

Ular xontaxta atrofida yerda o'tirib shunday nonushta qilishar, bolakay atroflarida girdikapalak bo'lib yurardi. Ota-onasi unga ovqat yedirmoqchi bo'lib urinishar, lekin bolakay bugun sho'xlikni avjiga chiqargan, o'ynar, chopar, tinchlik bermassi. Hech joyda o'tirishni, ovqat yeishni istamasdi. Eshikni havo dim bo'lib ketmasin deb, lang ochib qo'yishgan, shuning uchun Kenjash dam sayin tashqariga yugurib chiqar, galdirab hovli aylanar, ona tovuq atrofida pildirashib yurgan kichkina, surpaygan jo'jalarni tomosha qilardi. Bu qorovul Qudurmatning tovug'i edi. Qudurmatning o'zi yaylovga chiqib ketgan, uning xotini Asilgul O'rkunchievlар bilan birga mashinada boradigan edi. Asilgul boyta ularnikiga kirib chiqqan, yuklarni yig'ishtirib qo'ydim, tovuqni jo'jalari bilan savatga solsam bas, buni mashina kelganda qilsam ham bo'lar, hozir kirlarimni yuvib, quritib olay, degan edi.

O'sha kuni ertalab shunday o'tmoqda edi. Quyosh ko'tarilib, tuzukkina qizdira boshladi. Hamma o'z ishi bilan ovora. Bo'ston xotini bilan yuklar, tugun, bo'xchalarni bog'lardi. Asilgul kir yuvar, ora-chora uning tashqariga mag'zava to'kkani eshitilardi. Kichkintoy Kenjash esa o'z holiga o'ynab yurar, dam uyga chopib kirar, dam chopib chiqar, jo'jalar atrofida o'ralashardi.

Bu orada mehribon kurk tovuq jo'jalarni hovlining narigi chekkasiga yer titgani boshlab ketdi. Kichkintoy jo'jalar orqasidan do'mbillab chopdi, shu tariqa ular saroyning baland devori orqasiga o'tib qoldilar. Bu yerda qariqizlar va otquloqlar o'sib yotar, yoz bo'lgani uchun osoyishta, jimjit edi. Jo'jalar

chip-chip qilib, go‘ng titishar, Kenjash esa tinmay jo‘jalar bilan gaplashar, qiqirlab kular, ularni ushlab, kafti bilan silamoqchi bo‘lardi. Ona tovuq Kenjashdan cho‘chimas, biroq bu yerda birdan sassiz qadam tashlab juda katta kulrang it paydo bo‘lgach, tovuq xavotirga tushib, xavfsirab qaqag‘lay boshladi va jo‘jalarini balodan nariga olib ketishni ma‘qul ko‘rdi. Ko‘zlar ajoyib ko‘m-ko‘k, kattakon bo‘z itdan Kenjash sira ham tap tortgani yo‘q. U kichkinaga dumini do‘stona likillatib mushtipar boqardi. Bu Akbara edi. U anchadan beri qishloq-qo‘ra atrofida izg‘ib yurgan edi.

O‘tgan kechadan e’tiboran hovlilar bo‘shab, huvillab qolgan, na odamlar va na itlarning ovozlari eshitilar, ana shuning uchun ham Akbara odamlar qarorgohiga bunchalar yaqin kelishga botingan edi. Ko‘ksida o‘lmagan onalik sog‘inch, armoni bilan, o‘lmagan umid bilan u g‘oyatda ehtiyyotkorona barcha qo‘tonlar, saroylarni aylanib chiqqan, hech qayda yo‘qotgan bulturuqlaridan nomnishon topmagan va shunda boshi og‘ib odam manziliga juda yaqin kelib qolgan edi. Shunday qilib, Akbara kichkintoyimiz yonida turardi. Hech anglab bo‘lmaydiki, u bu bola ekanligini qaydan bildi? Odam siyoqi demasa, u o‘z bolalarining baayni o‘zginasi. Bolakay ushbu kattakon yaxshi itning boshini silamoqchi bo‘lib, qo‘lini cho‘zganda, Akbaraning alamdan o‘rtangan yuragi patirlab ketdi. U bolakay oldiga kelib, uning yuzini yaladi. Kichkina uning erkalashidan xursand bo‘lib, qiqir-qiqir kuldida, bo‘rining bo‘ynidan quchdi. Ana shuna Akbara tamomila iyib ketdi, bola oyog‘i tagiga cho‘zildi u bilan o‘ynasha boshladi — unga judayam emdirgisi keldi, lekin bolakay emish o‘rniga uning ustiga minib oldi. Keyin sakrab tushib orqasidan ergashtirib chaqirishga tushdi: «Yur! yur!» — deb qichqirardi u qiqirlab maza qilib kulgancha. Ammo Akbara nari qadam tashlashga yurak betlamas, u yoqda odamlar bor edi. Bo‘ri o‘rnidan qimirlamay ma‘yus ko‘zlar bilan bolaga termulib yotar, shunda bola yana orqasiga qaytib, uning boshini silab-silab qo‘yar, Akbara esa uni yalab-yulqar, bu bolaga benihoya xush yoqardi. Bo‘ri yuragida yig‘ilib qolgan barcha mehrini unga to‘kib solmoqchi, uning bola hidlarini ko‘ksini to‘ldirib-to‘ldirib iskamoqda edi. Bu bola mening qoya tagidagi uyamda yashasa, qanday soz bo‘lardi-ya, degan o‘y o‘tdi bo‘ri kallasidan. Shunda bo‘ri bolaning nozik bo‘ynini tirnab qo‘ymaslik uchun ohista uning kamzuli yoqasidan tishladi-da, keskin bir harakat bilan yoli ustiga otdi — bo‘rilar poda ichidan qo‘zilarni shunday yo‘l bilan olib qochadilar. Bolakay xuddi yaralangan quyon kabi qisqa chinqirdi. Saroya kir yoyaman deb kelayotgan Asilgul Kenjashning baqirganini eshitib, shoshilib, burchakka o‘tib qaradi va shu zahoti Bo‘stonning eshigiga yugurdi.

— Bo‘ri! Bo‘ri bolani olib qochdi! Tezroq, tezroq!

Bo‘ston es-hushini yo‘qotib, devordan miltiqni yulqib oldi va Gulimxonning orqasidan uydan chopib chiqdi.

— Ana! Ana! Ana, Kenjash! Ana, bo‘ri olib ketyapti! — deb faryod solardi Asilgul boshini qo‘llari bilan changallab.

Endi Bo‘ston ham bo‘rini ko‘rdi — u baqirib yig‘layotgan bolani bo‘yniga ortgancha lo‘killab ketib borardi.

— To‘xta! To‘xta, Akbara! To‘xta deyapman! — bor ovozi bilan bo‘kirdi Bo‘ston va bo‘ri ortidan quvib ketdi.

Akbara qochdi. Bo‘ston uning izidan miltiq ko‘targancha chopar va g‘ayritabiiy tovush bilan o‘kirardi:

— To‘xta, Akbara! O‘g‘limga tegma! Senga hech qachon yomonlik qilmayman! Bolani qo‘y, tegma unga! Akbara! Qulq solsang-chi, Akbara!

Bo‘ri uning so‘zlariga mutlaqo tushunmasligini shu tobda u unutgandi. Baqirib-chaqirib, quvish battar qo‘rqtib yuborgan bo‘ri endi tezroq qochishga tushdi.

Bo‘ston esa javragancha-javrab uni quvishdan to‘xtamasdi.

— Akbara! O‘g‘limga tegma, Akbara! — deb yolvorardi u.

Undan sal orqaroqda Gulimxon bilan Asilgul dod solib yugurishardi.

— Oting! Tezroq oting! — deb qichqirdi Gulimxon bola ko‘tarib ketayotgan bo‘rini Bo‘ston otolmasligini unutib.

Qichqiriq, quv-quv bo‘rining qonini jo‘shtirdi, unda bo‘ri vahshati uyg‘ondi, u o‘ljasini qo‘ldan chiqarmaslikka qaror qildi. Bolakayning yoqasidan mahkam tishlagancha, bo‘ri shiddat bilan tog‘larga qochib tobora uzoqlashib borardi, orqasidan miltiq otilib, o‘q boshi ustidan chiyillab o‘tganda ham o‘ljasini tashlamadi. Bolakay dod solib chinqirar, otasi, onasini chaqirardi. Bo‘ston bo‘rini nima bilan qo‘rqitish-hni bilmay yana osmonga o‘q uzdi, lekin bo‘ri bu safar ham qo‘rqmadi. Akbara toshloq tepalar sari jadal Yugur, u yerga yetib olsa, bas, birpasda izni chalkashtirib, ko‘zdan g‘oyib bo‘lishini o‘zi bilardi. Bo‘stonning yuragi orqasiga tortib ketdi: qanday qilsa bolani qutqarish mumkin? Nima qilsin? Bu dahshatlilik ofat qaydan chiqdi? Qaysi gunohi uchun?

— Bolani tashla, Akbara! Tashla, tashla deyman, tegma bolamizga! — hansiragan ot kabi og‘ir-og‘ir nafas olib, hirqirab derdi Bo‘ston. U bo‘riga iltijo qilardi.

Bo‘ston uchinchi marta osmonga o‘q uzdi, o‘q yana vahshning boshi ustidan vizillab uchdi. Toshloq tepe-o‘ngirlar yaqin qoldi. O‘qdonda ikkita o‘q qoldi. Yana bir soniyadan so‘ng hammasi ko‘ldan ketishini sezib, Bo‘ston bo‘rini otishga qaror qildi. Chopib ketarkan, darhol tizzalab o‘tirdi va mo‘ljal ola boshladi, bo‘rining oyoqlarini mo‘ljalladi, lekin hech mo‘ljal ololmasdi ko‘kragi hars-hars ko‘tarilib tushar, qo‘li qaltirar, unga bo‘ysunmasdi. U butun kuchi, irodasini yig‘di, ko‘zini titrab turgan mildan uzmaksi, bo‘ri xuddi asov to‘lqinlar uzra suzib ketayotgandek edi, shunda u tepkini bosdi. Tegmadi. O‘q bo‘ri yonidan tuproqni to‘zg‘itib uchdi. Bo‘ston miltiqni qaytadan o‘qladi, oxirgi o‘q qoldi. Yana mo‘ljal oldi, endi u o‘q ovozini eshitmadi, faqat bo‘ri bir sakrab yoniga o‘mbaloq oshib tushdi.

Miltiqni yelkasiga osgancha, Bo‘ston xuddi tush ko‘rayotganday yiqilgan bo‘ri sari chopib ketdi. Nazarida oyog‘i yerga yopishib qolganday, hech chopib yetib bo‘lmaydiganday, xuddi bo‘m-bo‘sh huvaldoqda suzib ketayotganday edi...

Havo birdan sovib ketgan kabi u zum ichida muzday bo‘lib qoldi, va bir alfozda yiqilgan bo‘ri ustiga yetib keldi. Uning qaddi birdan yetti bukildi, gung faryod ko‘tarib o‘zidan-o‘zi chayqala boshladi. Akbara hali tirik edi. Uning yonginasida ko‘kragini o‘q teshib o‘tgan bola o‘lib yotardi...

Gung edi dunyo, gungsirab yotardi. Dunyo g‘oyib bo‘ldi, uning o‘rnida faqat olov voshillagan zulumot qoldi. Bo‘ston ko‘zlariga ishonmay bukchaydi va yerdan qonga belangan o‘g‘lini ko‘tardi va bag‘riga bosgancha orqasiga tisarildi, shunda u nima uchundir jon berayotgan bo‘rining ko‘zları ko‘k ekanligiga ajablandi. So‘ng orqasiga o‘girilib g‘am-alamdan tilini yo‘qotib, halloslab kelayotgan xotinlarga qarab yurdi.

Nazarida xotinining bo‘yi osmon qadar cho‘zilib ketganday tuyuldi. Mana, unga tomon bo‘yi ko‘kka qadar cho‘zilgan, hayhotday yuzi ontarilgan, hayhotday qo‘llari buralib unga uzalgan xotin cho‘zila kelmoqda.

Bo‘ston o‘zi o‘ldirib qo‘ygan kichkintoyni quchog‘iga bosgancha xuddi ko‘zi ko‘r bo‘lganday qadam tashlardi. Uning orqasidan nola ko‘tarib, uvvos solib, Gulimxon sudralar, uning qo‘ltig‘idan voy-voylagan Asilgul tutgan edi.

Alamdan kar bo‘lib qolgan Bo‘ston hech narsani eshitmadi. Lekin birdan xuddi qudratli sharshara yuksakdan otilib tushganday qulog‘i shang‘illab ochildi va dunyo shovqinga to‘ldi, u nima bo‘lganligini tushindi va ko‘zlarini osmonga tikib, dahshat bilan baqirdi:

— Nimaga, nimaga axir menga bu jazo?

Uyda u kichkinaning jasadini ko‘chishga tayyorlab qo‘yishgan karavotchasiga yotqizdi. Shunda Gulimxon jasad poyiga tiz cho‘kdi va xuddi Akbara tunlari uv tortgan kabi uvillay boshladi. Uning yoniga yerga Asilgul cho‘kdi...

Bo‘ston esa miltig‘ini ko‘tarib uydan chiqdi. U xuddi jangga borayotganday bir dasta o‘qni miltiqqa joyladi, bir dastasini cho‘ntagiga soldi. So‘ng Do‘nko‘likka egar urdi va otiga sakrab mindi. Na xotini va na Asilgulga bir so‘z demay uydan chiqdi...

Qo‘radan picha nari borgach, Do‘nko‘likning boshini qo‘yib berdi. Oltin tusli saman ot Taman

qishlovi tomon uchib ketdi. Bu yo‘ldan u qish chiqqanda o‘tgan edi.

U istab borgan odam joyida ekan, aks holda yerning tagidan bo‘lsa ham, uni topar edi.

O’sha kuni Bozorboy No‘yg‘utovning hovlisida ham mashinaga yuk ortishmoqda — ko‘chko‘ronni yozlik yaylovlarg jo‘natishmoqda edi. O‘z yumushlari bilan ovora odamlar qo‘ra orqasidan Bo‘ston kelgani, otdan tushib, miltig‘ini qayta o‘qlagani, so‘ng yana yelkasiga osib olganini payqashmadi.

Mashinaga yuk ortilayotgan joyga kelgandagina, unga ko‘zlar tushdi. Bozorboy mashina tepasidan sakrab tushib, unga baqravib qaradi.

— Nima deysan? — dedi u Bo‘stonning yonib bitgan g‘o‘laday kuygan yuziga tikilib, ensasini qart-qart qashirkan.— Nima qilib yuribsan? Nega bunday qarayapsan? — sarosimaga tushdi u yomon bir narsani sezib.— Yana bo‘ri deb keldingmi? Boshqa ishing yo‘qmi? Menden so‘rashgan edi, yozib berdim, shu.

— Tupurdim nima yozgan bo‘lsang ham,— qahr bilan dedi Bo‘ston unga o‘qday nigohini qadagancha.— Ishim yo‘q. Sen yorug‘ dunyoda yashashga noloyiqsan. Senga shuni aytmoqchiydim. Yetar endi!

Bozorboy hatto o‘zini to‘sib ulgurmadi. Bo‘ston miltiqni unga to‘g‘rilab, mo‘ljalga ham olib o‘tirmay tepkini bosdi. Bozorboy chayqalib ketdi, yuk mashinasining orqasiga yashirinmoqchi bo‘ldi, lekin ikkinchi o‘q uning naq yelkasiga tegdi, Bozorboy uch marta to‘ntarilib, so‘ng boshi kuzovga urildi, yerparchin bo‘lib quladi va titroq panjalari bilan qora yerni tirnadi. Hammasi shunchalar tez ro‘y berdiki, oldiniga hech kim o‘rnidan qimir etmadidi. Nihoyat, sho‘rlik Ko‘k Tursun dod solib o‘zini erining ustiga tashladi. Ana shundagina hamma qiy-chuv qilib otilgan kishining tepasiga baravar yopirildilar.

— Qimirlamanglar! — baland ovoz bilan dedi Bo‘ston atrofga alanglab.— Hech kim joyidan qimirlamasin! — deb iddao qildi har biriga miltiqni bir-bir to‘g‘rilab.— Kerakli joyga o‘zim boraman. Shuning uchun hech kim joyidan qimirlamasin! Aks holda o‘qim yetarli! — U cho‘ntagiga uring qo‘ydi.

Hamma yashin urganday taqqa to‘xtadi, hech kim nima gapligini tushunmas, nima deyishni bilmas, tili kalimaga kelmas edi. Yolg‘iz bechora Ko‘k Tursungina badbaxt erining jasadi tepasida yig‘lab-siqtardi.

— Bilardim itday o‘lib ketishingni, itdan farqing yo‘q edi! O’ldir, meni ham o‘ldir, qotil! — parixta, sho‘rida Ko‘k Tursun o‘zini Bo‘stonga ottdi.— Meni ham itday o‘ldir. Ko‘zim yorug‘ dunyonni hech ko‘rmadi, nimaga kerak menga bunday hayot! — U yana nimalarnidir baqirib aytishga urindi: Bozorboyga aytdim, bo‘ri bolalariga tegma, dedim. Yaxshilikka olib bormaydi, dedim. Lekin battol quloq solmadi, hatto bo‘ri bolalarini ham sotib ichdi.

Keyin ikki cho‘pon uning og‘zini yumib, nariga olib ketishdi.

Shunda Bo‘ston atrofda kalovlanib turganlarga qahrli nigoh yogurtirib, ovozini ko‘tarmay, lekin keskin qilib dedi:

— Bas, o‘zim kerak yerga boraman, o‘zim hammasini aytaman. Ha, o‘zim aytaman! Ha, o‘zim aytaman! Sizlar shu yerdan qimirlamanglar. Eshitdinglarmi?

Hech kimdan sado chiqmadi. Hamma bo‘lgan ishdan ang-tang edi. Odamlar chehralariga bir-bir qararkan, Bo‘ston shu daqiqadan e’tiboran o‘zining allaqanday chiziqdan o‘tganligi va o‘zini boshqalardan ajratganligini anglab yetdi: shu daqiqagacha uning atrofini yaqin odamlar qurshagan, ular bilan birgalikda oylar, yillar yonma-yon nafas olgan, rizq-ro‘z topaman deb uringan, kun kechirgan edi. Ularning har birini bilar, ular ham uni yaxshi bilishar, har birlari bilan muomala qilgan, lekin mana endi ular butunlay begonasirab qarashardi, mana endi ulardan mutlaqo ayrildi, ular bilan hayotini bog‘lagan iplar bari uzildi, o‘rtada endi go‘yo hech narsa va hech vaqo qolmadi, go‘yo u o‘lib-tirilganday va shuning uchun ularga yanada qo‘rqinchliday tuyulardi. U shularni tushundi.

Bo‘ston otini yetaklab ketdi. U orqasiga qayrilib qaramas, ko‘l tomonga, o‘zi javob beradigan tomonga yo‘l olgandi. Uning boshi quyi solingan, orqasidan bir oz oqsoqlanib, jilov-jabduqlari

shirqillab vafodor Do'nko'lik odimlardi.

Hayot shomi boshlangan edi...

— Mana, dunyo ham oxir bo'ldi,— o'z-o'ziga dedi Bo'ston va shunda unga bir dahshatli haqiqat ochildi: shu damgacha bor yorug' dunyo uning o'zida jamlashgan ekan, mana endi shu dunyo bitdi. U osmon edi, u yer edi, u tog'lar edi, borlik, tiriklikning buyuk onasi bo'ri Akbara edi, Ola Mo'ngu muzliklarida abadiyan qolib ketgan Ernazar edi, pushti kamaridan bo'lган oxirgi bir parcha et, o'z qo'li bilan otgan Kenjash edi, la'natlangan va o'ldirilgan Bozorboy edi va to shu tobgacha nima ko'rghan, boshidan nimaiki kechirgan bo'lsa — bularning bari u, uning o'z jahoni edi, u uchun yashardi, uni deb yashardi, mana endi, garchi bular hammasi azaldan qanday esa, xuddi shunday yana boqiy qolaveradi, lekin faqat endi bular ichida u bo'lmaydi — u endi butunlay o'zga odam bo'ladi, uning do'nmas, qaytalanmas dunyosi esa endi yo'qoldi va u hech qachon hech kimda takrorlanmagay. U buyuk halokatiga yetib keldi, uning uchun dunyo oxir bo'ldi...

Ko'l bo'yiga eltadigan kimsasiz dala yo'lida Bo'ston birdan shahd bilan orqasiga o'girildi, otining bo'ynidan quchoqlab osildi va alam bilan ho'ngrab yig'lab yubordi.

— O', Do'nko'lik, nima qilib qo'yganimni faqat sen tushunasan! — deb o'kirib yig'lardi u butun jussasi silkinib.— Men nima qilay?

O'g'limni o'z qo'lim bilan o'ldirdim, uni yerga qo'ymay ketyapman, sevgan ayolim ham yolg'iz qoldi.

Keyin chilvir-chumburni o'radi, tizgin-jilovni Do'nko'likning yuganiga o'rab tugdi, uzangilar otning biqinini urib tashlamasin deb, egarning qoshiga mahkamladi.

— Bor, bor, uyg'a bor, jonivor, mayli, qayga desang, o'sha yerga bor! — vidolashdi u Do'nko'lik bilan.— Endi boshqa diydor ko'rishmoq yo'q!

Otning sag'riga kafti bilan urdi, uni chuv deb haydadi, ot bo'shaniga taajjubi ortib, qo'ra tomon yurib ketdi.

Bo'ston yo'lga tushdi...

Issiqko'lning moviy oshiyonasi dam sayin yaqinlardi, xuddi mana shu dam g'oyib bo'lib, dam yana o'z bag'ridan o'zi qayta yaralib, do'ngalaklanib chopayotgan to'lqinlar kabi ko'l bag'rida badar yo'q bo'lib ketsam derdi, aslo yashab-yashagisi kelmasdi...